I.X. ABDURAXMONOV

SUG'URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

I.X. ABDURAXMONOV

SUG‘URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2018

UO'K: 368.01(075.8)
KBK: 65.271(0)

Taqrizchilar: *i.f.d., dots.*, **U. Gafurov;**
i.f.d., dots., **D. Rasulova**

A13 Sug'urta nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma / I.X.Abduraxmonov; T.: «Iqtosod-Moliya», 2017. - 416 b.

Mazkur o'quv qo'llanma davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradi va "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti" fani mavzularini qamrab olgan. "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti" o'quv qo'llanma 5231200 - "Sug'urta ishi" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Ushbu qo'llanma o'z ichiga malakali sug'urta mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan xorijiy tajriba asosida zamonaviy mavzularni qamrab olgan. Qo'llanmani tayyorlashda mualliflar jamoasi xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliygohlarida sug'urta nazariyasi mavzulari va o'qitiladigan kurs adabiyotlaridan keng foydalanishgan (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya va h.k.). O'quv qo'llanmada aks ettirilgan sug'urta nazariyasi bo'yicha ilmiy qarash va asoslar sug'urta sohasida sodir bo'layotgan oxirgi o'zgarishlarni qamrab olgan.

31/61

UO'K: 368.01(075.8)
KBK: 65.271(0)

ISBN 978-9943-13-726-4

© I.X.Abduraxmonov, 2018
© "IQTISOD-MOLIYA", 2018

1-MAVZU.
RISK NAZARIYASI VA UNING SUG'URTADAGI ROLI

1.1. Risk haqida umumiy tushuncha

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng o'tgan vaqt mobaynida bank sohasi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Tijorat banklarining faoliyati ushbu qisqa davrda kutilgandan ham unumliroq tarzda takomillashdi. Tijorat banklarining takomillashishiga sabab, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligidagi ishtiroki salmog'i oshib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'lami kengayib borayotganidadir. Bu borada banklarning o'rni barchaga ma'lum. Shu sababli hozirgi kunda banklar faoliyatida risklarni aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash hamda kamaytirish usullarini qo'llash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatida ko'zlangan natija – bu birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog'liq bo'ladi. Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p qirrali tushunchadir. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligiga erishish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish zarur.

Iqtisodiyot fanining nazariyasi va amaliyotida risk kategoriyalari juda yuqori o'rinni egallaydi. Bu kategoriyalarni umumiy nazariyasini yaratish va uni amaliy natijalarga tatbiq etish fan olamida juda ko'p ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Hozirgi kungacha jahon olimlari tomonidan fan olamiga olib kirilgan juda ko'plab risk to'g'risidagi tushunchalar ularni yuzaga keltiruvchi omillarni oldini olish, baholash va boshqarish usullari hanuzgacha to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa riskni obyektiv va subyektiv jihatdan yanada to'liqroq o'rganishni, ularni funksiyasini, qonun va qoidalarini yanada umumlashtirishni talab qiladi.

Riskni yuzaga kelish tarixini insonni paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin yoki inson hayotini ma'lum bir qismi deb izohlash mumkin. Rus olimi A.P. Algin riskni yuzaga kelishini shunday izohlab o'tadi, "Risk-shunday umumlashgan hodisaki u inson sivilizatsiya jarayonini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir"-deydi.[1] Bu jumla ko'pgina munozarali ko'rinsada, ammo haqiqatdan to'g'ri yondoshadigan bo'lsak hayotiy tomonlama eng sodda yo'l bilan asoslab berilgan. Riskni nazariy jihatdan sodir bo'lish jarayonini aniqlash juda murakkab, chunki bu jarayon birinchidan, risk to'g'risidagi tushunchalar umumlashtirilayotgan bo'lsa, ikkinchidan riskni alohida o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar juda kam. Bu esa risk nazariyasini iqtisodiy nazariyani yoki boshqa fanlarni ma'lum bir qismi, bo'limi sifatida emas, balki alohida bir "risk-nazariyasi" fani sifatida o'qitish, o'rganish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, risk so'zi barcha lug'atlarda "zarar ehtimoli" ma'nosida ta'riflanadi. Xavf-xatar amalga oshirilgan bitim, kelishuv yoki bozorning boshqa tranzaksiyasi natijasida qat'iyy ishonmaslikni bildiradi. Bu tabiiy albatta, chunki tijoratda u yoki bu

[1] Альгин А.П. Риск и его роль в общественной жизни. - М.Мысль 1989, 188 б.

xo'jalik operatsiyalar xususiyatlaridan kelib chiqadigan pul yo'qotishlar xavfi doim mavjud bo'lgan va bo'ladi.

Risk-sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Riskning hajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari yordamida aniqlanadi. Sug'urta risklarini tahlil qilish ularni 2 ta yirik guruhga bo'lishni taqozo etadi. YA'ni, risk sug'urtaviy va sug'urtasiz bo'ladi.

Sug'urta shartnomalarida o'z aksini topgan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi. Risk bahosini pulda ifodalanishi sug'urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko'rsatkich emas, balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta tashkiloti riskni rivojlanishini, holatini doimo kuzatishi lozim, ya'ni tegishli statistik hisob olib borishi, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak.

Riskni baholash uchun uni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) Sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar.

2) Sug'urtalanishi mumkin bo'lmagan risklar.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Quyida keltirilgan mezonlar asosida sug'urta riskini sug'urtasiz risklardan farq qilishi mumkin:

a) risk tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i kerak ;

b) sug'urta hodisalarini ro'y berish faktining vaqti va makonining noma'lum bo'lishi;

d) xavf solish manbasiga ko'ra risklar tabiatning stixiyali kuchlari bilan bog'liq risklari va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatni tabiatga ta'siri bilan bog'liq risklar.

Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. Chunki bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab obyektlar yirik miqdorda zarar ko'rishi mumkin. Katta halokatli risklarga *zilzila, sunami, kuchli shamol misol* bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan risklardan tashqari ekologik, siyosiy va maxsus risklar bo'lishi mumkin.

Risk menejmenti (riskni boshqarish) – riskni chegaralash yoki kamaytirish bilan bog'liq tadbirlar yig'indisi. Amaliyotda riskni boshqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Riskni aniqlash, masalan ssuda oluvchilarning ssudani o'z vaqtida qaytarib bera olmaslik riski darajasi aniqlanadi va sug'urtalanadi. Kredit oluvchi shaxsning moliyaviy holati qanday aktivlarga ega ekanligi, loyihada hisob-kitob qanchalik asoslanganligi va hokazo.

Riskni baholash – risk holatlari aniqlanadi, riskni sodir bo'lish ehtimolligi, aktuar hisob-kitoblar, statistik kuzatuvlar, ehtimollar nazariyasi asosida baholanadi va sug'urtalanayotgan obyektga nisbatan risk darajasi aniqlanib sug'urta tarifi hisoblanadi. Sug'urta tarifining stavkasi – bu risk bahosidir.

Riskni nazorat etish – bu sug'urta kompaniyasining vakili tomonidan sug'urtalangan obyekt holatini, uning saqlanish ustidan kuzatuv ishlarini olib borishi. Shuningdek, uning saqlash xavfliligi talablariga javob berishi tekshiriladi. Qator obyektlarni yaxshi saqlash uchun zarur tavsiya va maslaxatlar beriladi.

Riskni moliyalashtirish – bu riskni aniqlash, baholash va nazorat etish bilan bog'liq hamma xarajatlarni qoplash.

Riskni boshqarish metodi deganda, 2 turdagi xatti-harakatlar tushuniladi:

a) bir xil turdagi risk ostidagi tadbirkorlar o'rtasidagi xatarni qayta taqsimlash;

b) sug'urta tashkilotiga yordam uchun murojaat qilish.

Riskni sug'urtalash risk darajasini pasaytirishning eng keng tarqalgan va muhim usulidir. O'z mohiyatiga ko'ra sug'urtalash, turli risklarlarning kutilayotgan ta'sirida yuzaga keladigan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan resurslarni oldindan zaxiralashning shakli bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalashning iqtisodiy mohiyati shundaki, unda alohida sug'urta qildiruvchi tomonidan kutilayotgan zarardan sezilarli darajada kam summada belgilangan badalni o'tkazish orqali zaxira (sug'urta) fondi yaratilishi va sug'urta hodisasi ro'y berishi bilan sug'urta qoplamasini olishdadir. Shunday qilib, riskning katta qismini sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga o'tkazish jarayoni amalga oshiriladi.

Riskni sug'urtalash mohiyati bo'yicha belgilangan to'lov evaziga ma'lum darajadagi risklarni sug'urta kompaniyasiga o'tkazishdir. Bu holatda, foydalilikning ma'lum darajada kamayishi hisobiga ko'zda tutilmagan holat mavjud bo'lmaydi. Sug'urtaga yaratilgan pul fondining maqsadliligi, uning resurslarini oldindan kelishilgan hollarda faqatgina yo'qotishlarni qoplash uchun sarflanishi, munosabatlar xarakterining ehtimolligi, mablag'larning qaytarishliligi xosdir.

Bozor munosabatlari takomillashuvi iqtisodiy infratuzilmaning qaror topishi bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot subyektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi. Shunday anglanilgan zarurat – aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'iyy nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari – murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhimdir.

Riskni boshqarish usuli sifatida sug'urtalash chora-tadbirlarning 2 ta shaklini anglatadi:

1) sug'urta kompaniyasiga yordam so'rab murojaat qilish;

2) bir turdagi riskka uchragan tadbirkorlar guruhi o'rtasida zararni taqsimlash (o'z-o'zini sug'urtalash).

Umumiy holda. riskni boshqarish deganda. keyingi zarar miqdorini chegaralashga olib keladigan oldini olish xatti-harakatlar konkret to'plami yordamida favqulodda vaziyatlardagi himoyalanishni anglatadi.

Dunyo tajribasida moliyaviy risklar sug'urtalashni amalga oshirish keng yo'lga qo'yilgan. Moliyaviy risklar sug'urtasi mamlakatning bir maromda rivojlanishi uchun xizmat qiladi hamda iqtisodiy va ijtimoiy muxitdan kelib chiqib o'ziga xos biznes muxitini yaratadi.

Yana muxim xususiyatlaridan biri bu sug'urta hodisasi sodir bo'lganda moliyaviy zararlarni qoplab beradi. Moliyaviy risklar sug'urtasi ko'p yillardan buyon iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda.

1.1-jadval

Risklar tasnifi [2]

№	Tasniflash alomati	Risk turi
1	Vaqt bo'yicha	O'tmishdagi
		Joriy
		Kelajakdagi
2	Sug'urta qildiruvchiga nisbatan	Sirtki risk
		Ichki risk
3	Vujudga kelish faktorlari bo'yicha	Iqtisodiy
		Siyosiy
		Tabiiy
		Antropogen
4	Rivojlanish dinamikasi bo'yicha	Dinamik
		Statik
5	Qamrab olishi bo'yicha	Davlatlararo
		Mamlakatni ichida
		Regionni ichida
		Tarmoqni ichida
		Tashkilotni ichida

Risk (qaltislik. xavf-xatar, tavakkalchilik tushunchalarini o'z ichiga oladi) bu inson faoliyatining turli jabhalarida yomon oqibatlarga olib keluvchi holatlardir.

Risk tushunchasi zarar tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, risk bor joyda zarar bo'lishi kutiladi. Risk o'z ifodasini zararda topadi, ya'ni ko'pgina zararlar risk orqali kelib chiqadi. Xorijiy hamda o'zbek olimlarining investitsiyaga berilgan ta'riflarini umumlashtirgan holda biz tomonimizdan moliya riskiga quyidagicha ta'rif berildi:

Moliya riski – pul resurslarining aylanishi va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy jarayonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasodifiy hodisalar natijasida olinadigan daromadning, foydaning kamayishi va qo'shimcha xarajatlardan ko'riladigan zararlar bo'lib, uni sug'urtalash zarurati paydo bo'ladi.

[2] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

Risklarni tasnifi 1.1-jadvalda keltirilgan.

Sug'urtada risklar quyidacha tasniflanadi:

1. Subyekt turi bo'yicha – ixtisoslik, tarmoq, universal.
2. Paydo bo'lish joyi bo'yicha – tashqi va ichki.
3. Mijoz tarkibi bo'yicha – tarmoq, kichik, katta.
4. Hisoblash usuli bo'yicha – majmua va alohida.
5. Vaqt bo'yicha – o'tgan, hozirgi va kelasi.
6. Hisobni yuritish xarakteri bo'yicha – balans bo'yicha va balansdan tashqari.
7. Boshqarish imkoniyati bo'yicha – ochiq va yopiq.



1.1-rasm. **Asosiy moliya risklarni tizimi**[3]

Moliyaviy risklarni yana quyidacha tasniflash mumkin: kredit risklari, valyuta risklari, foiz risklari, investitsion risklarlari, to'lov imkoniyatini yoqotilish risklari va lizing risklari.

Moliya risklarni tizimi 1.1-rasmda keltirilgan.

Kredit risklari bu kreditni o'z vaqtida asosiy summasi, o'rnatilgan foizi qisman yoki to'liq qaytmasligi xavf xatari. Bunga tashqi omillarni ta'siri ham bo'lishi mumkin. Hech bo'lmaganda kreditor ularning ta'sirini kamaytirish yoki oldini olish choralarini ko'rishi lozim. Yirik kreditlarni moliyalashtirilayotganda monitoring o'tkazishni yaxshi yo'lga qo'yishi lozim. Kredit riskni kamaytirishga quyidagi xarakatlar kiradi: kredit riskini boshqarish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish; kredit riskini qoplash uchun rezerv yaratish; monitoring o'tkazib turish.

Valyuta risklari – valyuta qiymatini yo'qolish xavf xatari. Valyuta kurslarining barqaror bo'lishi xalqaro aloqalar uchun o'ta muhim hisoblanadi. Agar milliy valyuta

[3] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

boshqa valyutalarga almashtirilmasa, xalqaro hisob kitob ishlari amalga oshmaydi. Bu mamlakatning iqtisodiyotiga juda keskin ta'sir kiladi.

Foiz riski – bozorda foiz stavkasi darajasining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish ehtimolligi. shunday ekan, marjaning ancha pasayib ketishi, nol yoki salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi. Foiz riski foiz stavkasining tuzilishiga bog'liq bulishi mumkin. Bu asosan alohida foiz stavkasini xarakati natijasida paydo bo'ladi.

Foiz rislarini boshqarishdan maqsad - investitsiya foydaliligini oshirish va qo'llab quvvatlash. foiz marjasini boshqarish. Foiz marjasiga ta'sir qilish faktorlar quyidacha:

- aktivlar tuzilishining o'zgarishi:
- javobgarlik tuzilishini o'zgariishi;
- foiz stavkasi harakati tendensiyasini o'zgarishi;
- aktivlarni bahosi o'zgarishi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun albatta investitsiya talab qilinadi. Investitsiya ikki turga bo'linadi.

Birinchisi – mablag'ni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash, ya'ni uni korxona ishiga kapital sifatida qo'yish.

Ikkinchisi – mablag'ni korxonalar aksiyalarini sotib olishga sarflash bo'lib, portfel investitsiyalar deb yuritiladi.

Investor – bu qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan hamda o'z hisobidan sotib oluvchi korxona, tashkilot. bank va boshqa moliya majmuasi, yoki alohida fuqarodir.

Investorlar o'z sarmoyasini kiritishda asosan quyidalarga e'tiborni qaratadi:

- siyosiy va demografik vaziyatiga;
- fond birjalaridagi sharoitiga;
- sarmoyalarni sug'urta qilish holatiga;
- davlat kafolatiga;
- iqtisodiy rivojlanish va faollik holatiga.

Bu yerda quyidagi xavf xatar toifasi mavjud:

- foiz to'lovlari miqdorining o'zgarishi;
- umumbozor narxlaring beqarorligi;
- inflyasiya darajasi;

Inflyasiya xavf xatari pulning xarid qobiliyatiga bog'liq bo'lib, investitsiyalarni qadrsizlantiradi. Moliyaviy xavf-xatar bu qimmatli qog'ozlar emitentining bankrotligi yoki norentabelligi munosabati bilan yuzaga keladigan xatardir.

Investitsiya riski – investitsiya riskining tuzilishi bozor riskini joyiga bog'liq, bu davlatning umumiy iqtisodiy imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya riskining qiskacha ma'nosi bu bozor riski sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarz oluvchilar foizi normasining o'zgarib turishi. pulning inflyasiyaga uchrashdi. Inflyasiyaning o'sishi qimmatli qog'ozlardan real daromadni pasayishiga chaqiradi, taklif qilish o'sadi, shunday ekan ularning baxosi pasayadi. Inflyasiya aksiya kiymatini o'sishini ta'minlash mumkin. Modomiki odatda dividend xajmining o'sishi ham parallel boradi va aksiyaga ehtiyoj o'sadi.

1.2. Sug'urtada risklarni boshqarish

Yuqorida bayon etilgan risklarning nazariy-uslubiy asoslaridan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, moliya risklarining hududlarga ko'ra, kengligi, davriyligi, xilma-xilligi ajratiladi. Shuningdek, ularni oldini olish hamda qoplash sarf-xarajatlarining o'sib borayotganligi ham sug'urtaning ahamiyatini yanada oshirib, unga bo'lgan talabni orttiradi. Aynan shunday talabning mavjudligi sug'urta faoliyati natijasi foydali bo'lishi va uning istiqboldagi rivoji uchun zaruriy shart-sharoitni yuzaga keltiradi.

Moliya risklarni sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi xulosalar chiqarildi:

– birinchidan, moliya sohasida sug'urta munosabatlar sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayoni ekanligi asoslandi;

– ikkinchidan, moliya sohasiga tegishli sug'urta faoliyati va unga ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda berilgan yondashuvlar talqin etildi. Sug'urtaning funksiyalari majmuasi ishlab chiqildi;

– uchinchidan, moliya faoliyatini talab va taklif asosida sug'urta sohasi rivoj topishi, moliya risklarning sug'urta yuzasidan qarorni qabul qilish bosqichlari, sug'urta riski bo'yicha strategiyani tanlash kabi masalalar tadqiq etildi.

Mutaxassis ekspertlarning fikricha O'zbekiston sug'urta bozorining eng sust rivojlangan sohasi bu moliyaviy risklarni sug'urtalash bo'lib, uni tarkib jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kundagi mavjud sug'urtaga oid qonunchiliklarda moliyaviy risklarni aniq va to'la tasnifi berilmagan, shuning uchun hujjatlarda bu ta'rif olingan kreditlarni qaytmasligidan tortib foyda ololmaslik tushunchalarini o'z ichiga olgan. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (52-bob) "Sug'urta" bobida ham mavjud emas. Fuqarolik kodeksi faqat "tadbirkorlik risklari" degan tushunchani o'z ichiga olib, biz uni to'laligicha "moliyaviy risk"ka mos holatlarda foydalana olmaymiz. Shuningdek bu tushuncha "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ham berilmagan. U faqat sug'urta nazorati bo'yicha Davlat inspeksiyasining sug'urta faoliyatining litsenziyalash bo'yicha ishlab chiqqan me'yoriy hujjatlarida aks ettirilgan xolos.

Moliyaviy resurslarni himoya qilish mexanizmini qayta ishlash va rivojlantirish orqali, uni ustuvorliklarini aniqlab olish yo'li bilan iqtisodiyotni rivojlanishiga erishish mumkin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiyotni aynan xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy manfaatlari himoya qilingan sohasi doimo muhim va yyetakchi bo'lib qolmoqda.

Sug'urtani rivojlanishi iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya dasturini amalga oshirishning asosiy moliyaviy dastaklarini rivojlanishi bilan bevosita bog'liq, yani ularni mukammal harakati orqali sug'urta samarali rivojlanadi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalarini yiriklashuvi va rivojlanishi o'z navbatida moliya dastaklarini to'g'ri amal qilishini yo'lga soladi.

Moliya ishlab chiqarish guruhlari o'z tarkibida banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa ishlab chiqaruvchilarni birlashtirib yirik kapital hosil qilishi mumkin. Moliyaviy risklar va investitsiyalarni sug'urtasini rivojlanishi iqtisodiyotni real sektoriga mablag' yo'naltirishda kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

1.2-jadval

Risklarini sug'urtalashining me'yoriy-huquqiy asoslari[4]

Tartibga solish mintaqasi	Manba	Asosiy mazmuni
Risklarini sug'urtalashining huquqiy asoslari	O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksni 52 bobi "Sug'urta"	Sug'urta shartnomasining muhim shartlari va sug'urta shartnomasiga qo'yiladigan asosiy talablari
	"Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni	Sug'urta faoliyatiga tegishli asosiy talablari va qoidalari
Risklarini sug'urtalashining me'yoriy asoslari	Vazirliklar, qo'mitalar va idoralarni me'yoriy hujjatlari	Umumiy tadbirkorchilikka tegishli asosiy talablari va qoidalari
	Moliya vazirligi xuzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasini me'yoriy hujjatlari	Sug'urta sohasiga tegishli asosiy talablari va qoidalari

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy risklarni sug'urtalash bozori rivojlanishini boshlang'ich darajasida bo'lib, mulkiy sug'urtaning boshqa turlariga nisbatan ancha orqada qolgan. O'zbekiston sug'urta bozori asosiy ko'rsatkichlarini o'sish dinamikasini hisobga olsak, moliyaviy risklarni sug'urtalashga bo'lgan talabni yaqin yillarda moliyaviy risklarni umumiy salmoq ko'payishiga bog'lash mumkin.

Moliyaviy risklari va ularni sug'urtalash hozirga qadar xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning xulosalari, fikr va mulohazalari o'z asarlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida o'z aksini topgan. O'zbek olimlari va malakali mutaxassislari tomonidan respublikada sug'urta bozorini rivojlantirish yuzasidan berilgan takliflarni amaliyotga tadbiq etish orqali sug'urtalashni takomillashtirishga erishilmoqda.

[4] O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tahlili asosida Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

2-MAVZU.
SUG'URTADA RISK TRANSFERI

2.1. Risklar transferining mohiyati.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda risklar transferi va transformatsiyasi sug'urta faoliyati orqali amalga oshirilishi ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayoni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, sug'urta barqaror iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, sug'urta salmoqli hajmdagi investitsiyalar kiritilishini ham ta'minlovchi sohaga aylanganligini alohida e'tirof etib o'tish o'rinlidir. Xususan, bu borada hayot sug'urtasi klass(tur)lari bo'yicha risklar transferi va transformatsiyasi jabhasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarining salohiyati yuqoridir. Mamlakatimizda sug'urta faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sug'urtaning iqtisodiyotdagi muhim o'rnini aniqlashda sug'urta munosabatlarining tadrijiy rivojlanishini tadqiq etish, eng avvalo, ularning vujudga kelish sabablari va mohiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta munosabatlari ham barcha iqtisodiy munosabatlar kabi o'zaro manfaatdor bo'lgan tomonlarning mas'uliyatlari ma'lum shartlarga asoslanib amalga oshirilishi, xususan, rasmiy tarzda bitimga kelishlari (shartnoma tuzizlari) natijasida vujudga keladi. Bunda sug'urtalanuvchi risk yuz berishi oqibatida ko'rish ehtimoli bo'lgan zarar(lar)dan o'zini himoyalash va o'z zimmasidan riskni imkon qadar soqit qilishdan, sug'urtalovchi esa, ma'lum to'lov (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urtalanuvchining riskini zimmasiga olishdan manfaatdor ekanligi namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, ta'kidlash mumkinki, sug'urta munosabatlarini harakatlantiruvchi asosiy kuch bu sug'urta hodisalarining yuz berishi ehtimolligi hisoblanadi. Aynan sug'urta hodisasi, ya'ni risk yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zarar (yo'qotish) bir tomondan sug'urtalanuvchini, ikkinchi tomondan sug'urtalovchini o'zaro sug'urta munosabatlariga kirishishlariga omil bo'ladi (3.1-rasm).

Sug'urta uning nazariyasiga daxldor ilmiy adabiyotlarda subyektlar tomonidan ko'rilgan zarar(lar)ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlash orqali qoplash usuli sifatida talqin etiladi. Sug'urta qoplamalari esa, mazkur faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ahamiyatli omil sanaladi.

Sug'urta munosabatlari subyektlari sifatida sug'urtalanuvchilar tomonidan to'langan sug'urta mukofotlari evaziga shakllantirilgan maxsus zaxira hisobidan risk oqibatida ko'rilgan zarar(lar) bo'yicha sug'urta qoplamalari to'lovlari amalga oshiriladi.

Bu o'rinda, sug'urtani aynan riskdan ommaviy himoya vositasi sifatida qarash uning davriylik davomidagi tadrijiy rivojlanish jarayoni natijasida vujudga kelganligini qayd etib o'tish lozim.



2.1-rasm. **Sug'urta munosabatlari va ularni vujudga keltiruvchi omillar.**[5]

Qadimda moddiy va boshqa zararlarni keltirib chiqaruvchi tabiiy va boshqa ofatlarni insonlar tasodifiy deb qaragan bo'lsalar, keyinchalik tabiiy ofatlar sodir bo'lishining turli qonuniyatlari aniqlandi. Mazkur qonuniyatlar ijtimoiy ishlab chiqarishning riskli xarakterda kechishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy ishlab chiqarish o'zida riskni mujassam etishining asosi bu har bir mulk egasi yoxud ishlab chiqaruvchi o'z moddiy holati yaxshilanib borishidan manfaatdor ekanligida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, manfaatdorlar soni tasodifiy hodisalar oqibatida zarar ko'rgan subyektlarning soniga nisbatan har doim ham ko'p bo'lgan. Bu holat esa, o'z navbatida tasodifiy hodisalar oqibatida ko'rilgan zarar hajmini oldindan aniqlash, uning manfaatdor shaxslar o'rtasida xolisona tarzdagi taqsimoti amalga oshirilishini taqozo etgan. Bunday zarurat manfaatdor subyektlar ehtimolikka ko'ra, tasodifiy tarzda ko'radigan zarar(lar)ini bartaraf etish va qoplash xarajatlari to'lanishini nazarda tutuvchi jamiyatlarga birlashganliklari oqibatida sug'urtaning ilk shakli, ya'ni o'zaro sug'urtalash yuzaga keldi.

[5] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

Dastlabki davrlarda, sug'urta munosabatlarida zarar(lar)ini bartaraf etish va qoplash xarajatlari to'lanishi manfaatdor subyektlar o'rtasida natural tarzda taqsimlash orqali amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan ular ham naqd pul to'lovi shaklida amalga oshirila boshlangan.
Sug'urta munosabatlarida zararlarning naqd pul to'lovi shaklida qoplanishi, eng avvalo o'zaro sug'urtalash uchun keng imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.[6] Ta'kidlash o'rinliki, o'zaro sug'urtalash shartlariga ko'ra, sug'urta hodisasi ro'y berganidan so'ng, sug'urta mukofotlari sug'urta fondiga jamg'arilishi hisobiga emas, balki zarar taqsimotiga ko'ra, bevosita qoplama to'lov(lar)i amalga oshirilgan.

2.2. Sug'urta risklar transferi (transformatsiya)ning rivojlanish bosqichlari

Risklar transferi va transformatsiyasining tadrijiy rivojlanish bosqichlari tadqiqi shuni ko'rsatmoqdaki, tabiiy va texnogen risklardan ko'rilishi ehtimol bo'lgan zarar(lar)dan ommaviy tarzda himoyalanish birmuncha samarali bo'lganligi bois, insoniyat tomonidan an'anaviy tarzda keng foydalanilib kelingan.

Risklar transferi rivojlanishning ilk bosqichi antik davrdan o'rta asrlarga qadar bo'lgan davrni qamrab oldi. Risklar transferi muammosini hal etishning dastlabki usullaridan biri bu o'z-o'zini sug'urtalash hisoblangan. Bu jarayonda sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida ko'rilishi ehtimol bo'lgan zararni bartaraf etish xarajatlarini oldindan moliyalashtirish, har bir ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi, ish bajaruvchi) subyektining o'z zaxirasi evaziga amalga oshirilgan.

Xususan, eramizdan avvalgi 1792-1750 yillarda qadimgi Bobil davlatini boshqargan shoh Xamurappi davrida savdo karvoni a'zolari yo'lga chiqishdan avval ko'rilishi ehtimol bo'lgan zararni qoplash yuzasidan o'zaro kelishuvga ega bo'lishgan.[7]

Ushbu kelishuvga asosan savdo karvonidagi sheriklardan birining mol-mulki yo'qolgan, o'g'irlangan yoki qaroqchilar tomonidan talangan bo'lsa, bu ko'rilgan zarar karvon a'zolari tomonidan yopiq taqsimotga ko'ra, o'zaro qoplab berilgan.

Kemaning halokatga uchrashi va dengizda yuz berishi ehtimol bo'lgan boshqa risklar oqibatida yetkazilgan zararlar savdogarlar o'rtasida o'zaro taqsimlash orqali qoplash yuzasidan kelishuv shartnomasi ilk bor qadimgi Yaqin Sharq davlati, hozirgi Suriya va Livan hududlarida joylashgan – Finikiyada amalga oshirilgan.

Insoniyat tomonidan yaratilgan vositalar yordamida tabiiy ofatlar yuz berishi oqibatida ko'rilishi mumkin bo'lgan zarardan himoyalanishning yagona usuli, ularning oqibatlarini engillashtirish hisoblangan. O'sha davrning asosiy faoliyat jabhalari savdo va agrar soha hisoblanganligi bois, ularning subyektlari o'z (xususiy)

[6] O'zaro sug'urtalash munosabatlarida faoliyat foyda olishga yo'naltirilmagan bo'lib, asosiy maqsad jamiyat a'zolarining zararlarini kamaytirish hisoblanadi.
[7] Иванов М. Теоретические аспекты страхования. // Журнал "Страховое ревю". № 7. 2004, с. 20.

yoki qarz (kredit) mablag'lari evaziga faoliyat yuritishgan.[8] Bu jarayonda ularning faoliyatlari asosan tabiiy risklar ta'sirida kechgan. Shu bois, tabiiy ofatlar yuz berishi natijasida mol-mulkka yetkazilgan zararlarni qoplash mexanizmi – risklar transferi yuzaga kelgan.

Sug'urta sohasida tadqiqotlarni olib boruvchi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlanmalarda ikki xil talqin ko'zga tashlanadi: ularning ayrimlarida jamoaviy tarzda o'zaro yordam shakllari sug'urtalashning ma'lum shakli deb qayd etilgan bo'lsa, boshqalarida esa, sug'urta fondi tashkil etilmaganligi sababli bu munosabatlar sug'urtalashning ilk shakli sifatida qaraladi. Keyinchalik pulli munosabatlarning rivojlanishi bilan sug'urta fondi asosan sug'urta mukofotlaridan shakllantirildi.

Sug'urta fondini shakllantirish sug'urta munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Mazkur fond shakllantirilishi manfaatdorlarning oldindan to'langan mukofotlari hisobidan emas, balki kelgusida yuz berishi ehtimol bo'lgan zararlarni o'zaro taqsimlash orqali ularning zimmasiga yuklatilgan majburiyat(lar) yuzasidan to'lov shaklida amalga oshirilgan. Subyektlarning faoliyatlari davomida ko'rishlari ehtimol bo'lgan zararlarini taqsimotga ko'ra qoplash yoki bartaraf etish tartibi sug'urtaning azaliy shakllaridan biri hisoblanadi.

X-XII asrlarga kelib, Yevropada savdoning jadal rivojlanishi savdogarlarning raqobat muhitida faoliyat olib borishlari va bu jarayonda o'zaro yordam ko'rsatish uchun gildiyalarga birlashishiga sabab bo'ldi. Shu o'rinda keltirib o'tish lozimki, gildiyalar va sug'urta funksiyalari o'zaro yaqin bo'lib, ularda tasodifiy hodisalar oqibatida ko'rilgan zararlarni bartaraf etishda o'zaro yordam ko'rsatish nazarda tutilgan.

1310 yilga kelib Bryuggeda (Germaniya) turli savdo va hunarmandchilik gildiyalarining manfaatlarini himoya qiluvchi hamda sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi "Sug'urta palatasi" tashkil etildi.[9] Birinchi sug'urta shartnomasi 1347 yilda Genuyada tuzilganligi qayd etilgan.[10]

Shunday qilib o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada sug'urta tasodifiy hodisalar yuz berganda o'zaro yordam berish to'g'risidagi oddiy shartnomalardan to mol-mulk va shaxsiy sug'urta tarmoqlari qaror topguniga qadar rivojlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida kemasozlikning jadal rivojlanishi va xalqaro savdo bozorlarining vujudga kelishi mulkiy manfaatlarni himoyalashga bo'lgan talabni oshirdi.

Risklar transferi va transformatsiyasi jarayonida sug'urta munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqi shuni ko'rsatmoqdak, qadimda dastlab sug'urtaning fondsiz shakli vujudga kelgan va rivojlangan (2.2-rasm).

---

[8] Сычев А.Ю.История управления рисками.//Журнал "Управление рисками", № 4, 2003, с.

[9] Басаков М.И. «Страхование: 100 экзаменационных ответов», Издательский центр «Март», Москва, 2003.

[10] Губарь О. Возникновение и эволюция института стархования.//Журнал «Страховое Дело», Издательство «Анкил», № 8, 2001.с



2.2-rasm. **Risklar transferi va transformatsiyasi jarayonida sug'urta munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari**[11]

O'sha davrda zamonaviy sug'urta tashkilotlariga monand ilk sug'urta tashkilotlari paydo bo'ldi. Bu tashkilotlar alohida savdogarlar va kema egalarining

[11] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

guruhlari tomonidan tashkil etilib, o'zaro sug'urtalash tamoyillari asosida faoliyat yuritgan.

Mazkur davrda mol-mulkni turli tabiiy ofatlardan sug'urtalashdan tashqari yong'indan sug'urtalash ham rivojlanib bordi. 1666 yilda London markazini kulga aylantirgan yong'in "Yong'in polisi" sug'urta kompaniyasi tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Ta'kidlash joizki, ushbu kompaniya ham o'zaro sug'urtalash tamoyillari asosida faoliyat yuritib, maqsadi foyda olish hisoblanmagan. Ularning asosiy maqsadi sug'urta jamiyatining a'zolari ko'rgan tasodifiy zararlarni kamaytirish hisoblangan. O'zaro sug'urtalash amaliyoti dengiz sug'urtasida avvaldan mavjud bo'lib, hozirgi kungacha taraqqiy etib kelgan.

Sug'urta munosabatlarining rivojlanishi bilan o'zaro sug'urtalash jamiyatlari tadbirkorlik tamoyillari asosida faoliyat yuritadigan, ya'ni faoliyatining maqsadi foyda olish hisoblangan sug'urta tashkilotlariga aylanib borgan. Sug'urta tashkilotlari sug'urta fondini ixtiyoriy sug'urtalanuvchilarning badallari asosida shakllantirib, ushbu fond hisobiga sug'urta hodisasi oqibatida sug'urtalanuvchilarga yetgan zararlarni qoplash majburiyatini olgan. Bunda sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchilar umumiy sonining doimo zarar ko'rgan sug'urtalanuvchilarning sonidan ko'p bo'lishi qonuniyatiga asoslanib foyda olishni mo'ljallashgan. Aynan omil sug'urtani yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab ortishidan kelib chiqib, sug'urtaning shakl va usullari ham kengayib bordi. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib G'arbiy Yevropada mulk va hayot sug'urtasining yuzlab turlari amalga oshirila boshlandi. Masalan, hayotni sug'urtalovchi ilk tashkilot 1706 tashkil etilgan bo'lsa, XIX asrga kelib moliyaviy yo'qotishlar sug'urtasi, uy hayvonlari sug'urtasi, mulkni o'g'irlanishdan sug'urta va boshqa shu sug'urta turlari rivojlandi. Bu davrda turli tashkiliy shakllardagi sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsata boshladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sug'urta institutining tarixiy rivojlanishi, xo'jalik faoliyati davomida moddiy zarar (yo'qotish)lardan himoyalanish muammosi miloddan avvalgi davrdanoq mavjud bo'lganligini isbotlaydi. Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayoni turli tabiiy va ijtimoiy kuchlarning o'zaro hamohangligi va qarama-qarshiligida davom etadi.

Ishlab chiqarish va hayotiy faoliyat davomidagi qarama-qarshiliklarning umumiy ta'siri iqtisodiy faoliyatga ko'rsatadigan salbiy ta'sirni obyektiv voqelikka aylantirdi. Xo'jalik subyektlari iqtisodiy muhitning salbiy ta'silaridan himoyalanishga intilishi, sug'urta manfaatini keltirib chiqardi va sug'urta munosabatlari ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

Hozirga kelib, sug'urta munosabatlari iqtsodiyot subyektlarini iqtisodiy va tabiiy muhitning salbiy ta'sirlaridan himoyalovchi yoxud ularning barqaror va zararsiz faoliyat yuritishlariga yo'naltirilganligi e'tiborga molikdir.

Sug'urta funksiyalari uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatida o'z aksini topadi. Bizning nazarimizga ko'ra, moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida sug'urtaning funksiyalari uning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishi mezoni hisoblanadi. Sug'urta moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida o'z iqtisodiy mohiyatini avvalo taqsimlash funksiyasi orqali namoyon etadi.

Sug'urtaning taqsimlash funksiyasi, o'z navbatida sug'urtaga xos bo'lgan funksiyalar majmuasida to'liq funksional mazmunga ega bo'ladi. Mazkur funksiyalar majmuasiga risklilik, oldini olish va jamg'arish kabi funksiyalar kiradi (3.3-rasm).



2.3-rasm. **Sug'urtaning funksiyalari**[12]

Funksiyalarning eng asosiysi albatta risklilik funksiyasi hisoblanadi, chunki aynan risk sug'urta munosabatlarini vujudga keltiruvchi omil sanaladi. Sug'urtaning risklilik funksiyasi amalga oshishi doirasida qiymatning sug'urta munosabatlari ishtirokchilari o'rtasida pul shaklidagi qayta taqsimlanishi yuz beradi. Sug'urtaning oldini olish funksiyasi riskning darajasini kamaytirish va sug'urta hodisasining oqibatlarini bartaraf etishda amalga oshadi.

Turli hodisalarni oldini olish tadbirlari, tabiiy ofatlar, avariya, baxtsiz hodisalarning oqibatida yetgan zararlarni bartaraf etish maxsus oldini olish fondi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Sug'urtaning jamg'arish funksiyasi aholining jamg'armalarini sug'urtaviy himoyalashda o'z aksini topadi.

Yuqorida ta'kidlangan funksiyalardan tashqari sug'urta nazorat, kredit va investitsiya funksiyalarini ham amalga oshiradi. Nazorat funksiyasining mohiyati sug'urta fondining to'la-to'kis shakllanishi va foydalanilishida namoyon bo'ladi. Nazorat funksiyasi sug'urta operatsiyalarining qonuniy amalga oshirilishi ustidan moliyaviy nazorat asosida amalga oshadi.

Ma'lumki hayot sug'urtasida sug'urta mukofotining qaytarilishi kuzatiladigan bir qancha sug'urta turlari mavjud. Mazkur holat sug'urtaning ma'lum darajada kredit funksiyasini bajarishini ham ifodalaydi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta fondining vaqtincha bo'sh mablag'larini investitsiya qilish imkoniyati uning investitsiya funksiyasining amalga oshishiga olib keladi.

Sug'urta yuqoridagi funksiyalarini amalga oshirish orqali albatta mamlakat iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ma'lumki, sug'urtalashda sug'urta tashkiloti ma'lum haq, ya'ni sug'urta mukofoti evaziga o'z zimmasiga sug'urtalanuvchining riskini, ya'ni mazkur risk o'zini namoyon qilgan taqdirda etgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

Ushbu jarayonda sug'urta tashkilotlari ko'p sonli mijozlaridan undirgan mukofotlaridan sug'urta zaxiralarini tashkil etadilar. Tashkil qilingan zaxiralar

[12] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

ma'lum vaqt davomida bo'sh qolganda ular iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya qilinadi.

Investitsiya faoliyati bo'yicha ayniqsa hayot sug'urtasini amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari katta salohiyatga ega hisoblanadi. CHunki hayot sug'urtasida insonlarning hayoti, sog'lig'i va yashashi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta qilinib, sug'urta shartnomalari uzoq muddatlarga tuziladi.

Odatda, hayot sug'urtasi shartnomasi kamida besh yilga tuzilib, unda sug'urta hodisasi bo'lib sug'urtalanuvchining ma'lum yoshgacha yashashi, vafot etishi, nikoh qurishi va boshqa hodisalar hisoblanadi. Sug'urta mukofotlari odatda, yillar davomida davriy ravishda to'lab boriladi va hayotni sug'urtalovchi tashkilotlar uchun investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun boshqa sug'urta tashkilotlariga qaraganda qulayroq imkoniyat yaratadi.

Sug'urta bir tomondan iqtisodiyotga salmoqli investitsiyalarni kirituvchi mexanizm sifatida baholansa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotda ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlovchi va aholining ijtimoiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshiruvchi tarmoq hisoblanadi. Iqtisodiyotning taraqqiy etishi bilan tabiiyki, iqtisodiyotda turli risklar hajmi ham ortib boradi.

Mazkur risklarni sug'urtalash uchun albatta sug'urta tashkilotlarining kuchli to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Ba'zan sug'urta obyektlari bo'yicha olinayotgan javobgarlik hajmining yuqoriligi sug'urta tashkiloti uchun mazkur obyektni to'liq sug'urtalashning imkonini bermasligi mumkin. Bunday holda sug'urta tashkilotlari sug'urta sohasida qadimdan rivojlanib kelgan risklar transformatsiyasi mexanizmidan foydalanadilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'urta faoliyatida risklar transformatsiyasi munosabatlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Umuman, sug'urta sohasining rivojlanganlik darajasi risklar transformatsiyasi tizimi bilan uzviy bog'langandir. Risklar transformatsiyasi bu – bir sug'urta tashkiloti zimmasidagi riskni yoki uning bir qismini ikkinchi sug'urta yoki risklar transformatsiyasi tashkilotiga o'tkazishdir.
Bu tushunchani qisqacha qilib risklar tranformatsiyasi deb ham yuritish mumkin. Risklar transformatsiyasi jarayoni sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi munosabat bo'lganligi sababli, u bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Eng avvalo risklar transformatsiyasi, sug'urta tashkiloti zimmasidagi me'yordan ortiq majburiyatlardan qutulishning eng optimal yo'lidir. Chunki, sug'urta tashkiloti katta summali bir shartnoma asosida qabul qilgan majburiyatning ma'lum qisminigina qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Bunday holda, risklar transformatsiyasi mijozning talabini qondirish imkonini beradi, ya'ni sug'urta tashkiloti (sedent) o'z zimmasidagi me'yordan ortiq majburiyatlarni qayta sug'urtalovchi(sessioner)ga o'tkazadi va mijozni o'zida ushlab qoladi.

Bundan tashqari risklar transformatsiyasi, sug'urta tashkilotlari uchun katta hajmdagi majburiyatlarni qabul qilish va o'z faoliyatining imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Risklar transformatsiyasi ikki qayta sug'urtalovchi tashkilot o'rtasida ham yuz berishi mumkin va bu xalqaro amaliyotda "retrotsessiya" deb nomlanadi (2.4-rasm).



2.4-rasm. **Sug'urta risklari transferi, transformatsiyasi va retrotsessiyasi.**[13]

Rivojlangan mamlakatlarda risklar transformatsiyasi qadimdan taraqqiy etib, sug'urta faoliyatining yirik tarmog'iga aylangan. Ilk yuridik kuchga ega risklar transformatsiyasi shartnomasi 1376 yilda Genuyada tuzilgan.[14]

Mazkur shartnomada ikki savdogar Genuyadan Bryuggega dengiz orqali jo'natilayotgan tovarlarni sug'urtalagan shaxsning qayta sug'urtalanganligi qayd etilgan. Keyinchalik Risklar transformatsiyasi alohida faoliyat turiga aylanib keng rivojlandi. Risklar transformatsiyasini amalga oshiruvchi ilk sug'urta tashkiloti, ya'ni "Kyoln risklar transformatsiyasi jamiyati" 1846 yilda tashkil topgan.

Uning o'ziga xos xususiyati risklar transformatsiyasiga ixtisoslashganligi bilan izohlanadi. Hozirda risklar transformatsiyasi xalqaro darajada rivojlangan va u quyidagi muhim funksiyalarni amalga oshirmoqda:

– sug'urtalangan riskning ikkilamchi va keyingi taqsimoti;

sug'urta tashkiloti qo'shimcha moliyaviy kapitalni qabul qilishiga shart-sharoit yaratish;

– sug'urta tashkiloti to'lov qobiliyati barqarorligiga ijobiy ta'sir etish;

– sug'urta hodisasi yuz berganda qoplama(lar)ni to'lash jarayonini soddalashtirish va jadalllashtirish.

Iqtisodchi olim K.Pfayfferning ta'kidlashiga ko'ra, risklar transformatsiyasi sug'urta tashkilotlari uchun quyidagi risklarni minimallashtirish imkonini beradi:[15]

1). Favqulodda zararlar riski:

– sug'urta qoplamalari hajmidagi notekis tebranishlar;

– sug'urta yili (har bir shartnoma bo'yicha) davomida sug'urtalanuvchilardan sug'urta qoplamasini to'lash yuzasidan arizalar kelib tushishi nobarqarorligi;

– sug'urta tashkilotini sug'urta qoplamalarini aynan bir sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida jami sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lash majbururiyatini keltirib chiqaruvchi tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar (risklarning kumulyasiyasi).

2) O'zgarishlar riski:

– ayniqsa javobgarlik sug'urtasi va tibbiy sug'urta kabi sug'urta turlari bo'yicha qoplamalar hajmi valyuta kurslari o'zgarishi va inflyasiya darajasi ta'sirida o'zgarishi;

---

[13] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

[14] Под ред. Турбиной К. Е. «Теория и практика страхования». Учебное пособие. М.:«Анкил», 2003

[15] Пфайффер. К. "Введение в перестрахование", М АНКИЛ, 2000.

– texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi sharoitida sug'urta tashkiloti tomonidan baholangan va shartnoma bo'yicha qabul qilingan risklar bo'yicha zararlilik darajasining ortishi (amalda riskning haqiqiy darajasi uning bashorat qilingan bahosiga mos kelmasligi).

3) Xato va kamchiliklar riski: – sug'urta mukofoti stavkasini aniqlashda foydalanilgan metodlar va ularni qo'llashdagi kamchiliklar va boshqa xatoliklar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, bugungi kunda risklar transformatsiyasi birmuncha takomillashgan va xalqaro darajada keng amalga oshirilmoqda. Risklarning tarnsformatsiyasining xalqaro darajada amalga oshirilishi albatta alohida davlat(lar)ning iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va rivojlanishiga turtki beruvchi omil sanaladi.

Chunki, bir davlatdagi ma'lum global risk transmilliy sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi mazkur davlat iqtisodiy barqarorligiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, riskni qabul qilgan xalqaro sug'urta tashkilotlari ham bunday faoliyatdan daromad oladi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan unda yangi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab ham muntazam ravishda ortib boradi. Mazkur talabni qondirlishi va sug'urta munosabatlari samarali amalga oshishida qayta sug'urta mexanizmi muhim omil bo'lib sanadi. Umuman olganda xulosa qilib aytish mumkinki, sug'urta munosabatlari iqtisodiyotda milliy daromadning taqsimlanishi bilan amalga oshadi. Shu bilan birgalikda, millliy daromadning barqaror o'sishini ta'minlovchi omillardan bir hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sug'urta sohasi rivojlantirildi, turli mulkchilik shakllardagi sug'urta tashkilotlari faoliyat yurita boshladi, sug'urta bozorida erkin raqobat muhiti vujudga keldi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida sug'urta munosabatlarining rivojlanishi muhim o'rinni egalladi.

Mamlakat iqtisodiyotining tobora rivojlanib borishi sug'urta sohasini yanada takomillashtirib borish zarururiyatni kuchaytirdi. Ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimizda sug'urta faoliyati rivojlanishida uning iqtisodiy-huquqiy asoslari shakllantiriganligi muhim omillardan biri bo'ldi.

Sug'urta faoliyatning iqtisodiy jihatlari murakkab va xilma-xildir. Xususan, sug'urtaning iqtisodiy asoslari quyidagi ikki yo'nalishda o'z aksini topadi:

a) eng avvalo shuni hisobga olish kerakki, sug'urta munosabatlari ishlab chiqarish munosabatlarining ajralmas qismidir. Chunki, ishlab chiqarishda obyektiv ravishda risk mavjud va uning oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish sug'urta fondini shakllantirishni talab etadi. Aynan sug'urta fondi ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish)ni turli risklardan kafolatli himoyasini ta'minlashning iqtisodiy asosi hisoblanadi;

b) jamiyat taraqqiyoti inson sog'lig'i, hayotini va mehnat faoliyatini risklardan himoyalash zaruriyatini oshiradi. XXI asrning keyingi o'n yilliklarida texnik va texnologik jarayonlarning takomillashishi, urbanizatsiya, ekologik o'zgarishlar, ijtimoiy hayot sur'atlarining oshishi oqibatida jarohatlanish, turli risklarning oshishi kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy hayotning omillari, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining salbiy ta'siri oxir oqibatda insonlar sog'lig'i va daromadiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan qator risk guruhlarini vujudga keltirdi. Bu

holat sug'urta faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini oshirib, hayot sug'urtasi jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda hayot sug'urtasi muhim sohalardan biri sanaladi, aholini ijtimoiy himoyalashda muhim o'rin tutmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida, aholining ijtimoiy himoyaga bo'lgan talabini (pensiya, kompensatsiya va boshqalar) to'liq ravishda davlat fondlari evaziga ta'minlashning imkoni cheklanganligi bois, bunday sharoitda aholi uzoq muddatli hayot sug'urtasidan foydalangan holda ijtimoiy himoyaga bo'lgan talabining ma'lum qismini o'zi qoplaydi.

Hayot sug'urtasida aholining bo'sh turgan pul mablag'lari sug'urta tashkilotiga jalb qilinishi orqali sug'urta fondi tashkil etiladi. Shunga ko'ra, hayot sug'urtasi sug'urta munosabatlarining iqtisodiy asoslaridan biri hisoblandi.

Mamlakat miqyosida aholining vaqtincha bo'sh mablag'lari mavjudligi va ularni sug'urta faolityaiga jalb etilishiga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi, sug'urta madaniyati, mamlakatdagi makroiqtisodiy ahvol va boshqalar.

O'zbekistonda keyingi yillarda milliy daromad hamda aholi daromadlarining yildan-yilga o'sib borish an'anasi kuzatilayotganligi ushbu omillarning ijobiy ta'sirini oshiridi va sug'urta munosabatlarining iqtisodiy asoslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Ushbu holatlar albatta, sug'urta munosabatlarining aholi manfaatlariga bevosita ta'siri ortib borishini mumkinligini ko'rsatdi.

Sug'urta faoliyati aholi manfaatlari himoyasini ta'minlash maqsadiga qaratilganligidan kelib chiqib, har bir mamlakatda sug'urta munosabatlarining huquqiy-me'yoriy asoslari shakllantiriladi. Aynan huquqiy me'yorlar sug'urta sohasidagi munosabatlarning asosi hisoblanadi.

3-MAVZU.
SUG'URTANING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MOHIYATI

3.1. Sug'urtaning nazariy-iqtisodiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng o'tgan vaqt mobaynida sug'urta sohasi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Sug'urta kompaniyalarining faoliyati ushbu qisqa davrda kutilgandan ham unumliroq tarzda takomillashdi. Sug'urta kompaniyalarining takomillashishiga sabab, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligidagi ishtiroki salmog'i oshib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'lami kengayib borayotganidadir. Bu borada sug'urtaning o'rni barchaga ma'lum. Shu sababli hozirgi kunda sug'urta kompaniyalar risklarni aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash hamda kamaytirish usullarini qo'llash sug'urta kompaniyalarining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek, sug'urta kompaniyalari faoliyatidan ko'zlangan natija ham bu birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog'liq bo'ladi. Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan, ko'p qirrali tushunchadir.

Iqtisodiyot fanining nazariyasi va amaliyotida risk kategoriyalari juda yuqori o'rinni egallaydi, bu kategoriyalarni umumiy nazariyasini yaratish va uni amaliy natijalarga tatbiq etish fan olamida juda ko'p ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Hozirgi kungacha jahon olimlari tomonidan fan olamiga olib kirilgan juda ko'plab risk to'g'risidagi tushunchalar ularni yuzaga keltiruvchi omillarni oldini olish, baholash va boshqarish usullari hanuzgacha to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa riskni obyektiv va subyektiv jihatdan yanada to'liqroq o'rganishni, uni funksiyasi, qonun va qoidalarini yanada umumlashtirishni talab qiladi.

Riskni yuzaga kelish tarixini inson paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin yoki inson hayotini ma'lum bir qismi deb izohlash mumkin. Rus olimi A.P. Algin riskni yuzaga kelishini shunday izohlab o'tadi, "Risk-shunday umumlashgan hodisaki u inson sivilizatsiya jarayonini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir"-deydi.[16]

Bu jumla ko'pgina munozarali ko'rinsada, ammo haqiqatdan to'g'ri yondoshadigan bo'lsak hayotiy tomonlama eng sodda yo'l bilan asoslab berilgan. Riskni nazariy jihatdan sodir bo'lish jarayonini aniqlash juda murakkab, chunki bu jarayon birinchidan, risk to'g'risidagi tushunchalar umumlashtirilayotgan bo'lsa, ikkinchidan riskni alohida o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar juda kam. Bu esa risk nazariyasini iqtisodiy nazariyani yoki boshqa fanlarni ma'lum bir qismi, bo'limi sifatida emas, balki alohida bir "risk-nazariyasi" fani sifatida o'qitish, o'rganishni taqozo etadi.

Risklarni iqtisodiy kategoriya va subyekt sifatida yuzaga kelishida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Risk tushunchasi ko'p qirrali so'zlar bilan umumlashgan bo'lib, har bir jumla orqali yoritilgan ma'lum bir yo'nalishlarini belgilab bergan.

---

[16]Альгин А.П. Риск и его роль в общественной жизни, М.: Мысль 1989 С. 188.

Bu esa riskni talqin etishda turlicha izohlarni keltirib chiqargan. Riskni talqin qilish sinonimini yaratish har xil adabiyotlarda turlicha izohlanadi. "Risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib "suv ostidagi qoya" degan ma'noni bildiradi. Taniqli lug'atshunos S. N. Ojegovning rus tili lug'atida "risk" bu "muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid" degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskka "xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli" deb qaralgan. V.T. Sevruk "risk – bu hol, bir ishlab chiqaruvchining situativ holati" degan ta'rif bergan bo'lsa[17], rus olimi A.Olshanniy "risk-bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir" degan ta'rif beradi[18].

Professor V.M. Usoskin "Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi o'z navbatida oldindan ko'ra bilish yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi"[19] deb izohlaydi. E.S. Stoyanova "Risk bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir"[20] deb ta'rif keltiradi.

Risklarni mohiyatini ochib berishda ularni har xil sinonimlar bilan qo'llaganda asosiy ma'nosini tahlil etishda prof. SH.2. Abdullayevaning ishida "Risk xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokazolar deb ta'rif berish xalqaro amaliyotga mos kelmasligi va shu holatga yaqinlashgan holda "risk", "bank riski", "kredit riski" deb yuritsak maqsadga muvofiq" deb hisoblanadi.[21] Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo'lishi mumkin.

Rus olimlaridan E. F. Jukova, S. I. Lukash va M. Glariya riskni xavf, yo'qotish deb izohlashga harakat qilganlar. M. Glariya risk tushunchasini yanada murakkab ko'rinishda asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha risk – bu investorni pul topishi yoki pulini yo'qotishi bilan bog'liq bo'lgan tushuncha deb izohlaydi. Ko'p olimlar riskni "yo'qotish ehtimolligi" deb aytib o'tadilar.

Masalan, YA. S. Melkumov riskni "moliyaviy operatsiyalardan yomon holatlarni kelib chiqish ehtimolligidir" deb ta'kidlasa, V. A. Chelnokov tijorat banklari operatsiyalari bilan bog'langan holda "aktivlar aylanmasining yo'qotish ehtimolligi" deb izohlaydi. G. B. Polyakova "risk – bu ko'zlangan daromad, foydadan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishni ehtimolligidir" deb – ta'kidlab o'tadi. Polina Mixaylova "risk – bu kutilmagan holatlarda yuzaga keladigan hodisa bo'lib, ko'p hollarda aktivlarni baholashda yoki daromad foizini hisoblash holatlarida namoyon bo'lishi mumkin" deb izohlaydi.

Sug'urta mohiyatan murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Bu atama iqtisodiy ishlab chiqarish va iste'mol, tabiiy ofatlar va ko'ngilsiz hodisalar, shuningdek, inson hayotida sodir bo'ladigan turli favquloddagi hodisalar bilan chambarchas bog'langan. Jamiyat iste'mol qilishni to'xtata olmaganidek, ishlab chiqarishni ham inkor qilolmaydi.

Insoniyat sivilizatsiyasining moddiy asosi ishlab chiqarish hisoblanadi. Lekin ishlab chiqarishning uzluksizligiga tabiiy ofatlar, ko'zda tutilmagan favqulodda hodisalar salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning hajmini kamaytirib, mahsulotning son va sifat

---

[17]Севрук В.Т. Банковские риски. М.: Дело. 1995. С. 3.
[18]Ольшанный А.И. Банковские кредитование М.: РДЛ. 1997.
[19]Усоскин В.М. Современный коммерческий банк М.: 1994.
[20] Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент. М.: 1993.
[21]Abdullayeva Sh Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. T.: Moliya 2002 y.

darajasini pasaytirib yuboradi. Ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash uchun esa yetkazilgan zararning o'rnini tezda to'ldirish, fuqarolarga esa zarar oqibatlarini tugatishda yordam berilishi kerak.

Buning uchun tashqaridan, birinchi navbatda, moliyaviy yordam berilishi talab etiladi. Aynan shunday moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida sug'urta alohida o'rin tutadi. Yetkazilishi mumkin bo'lgan katta hajmdagi zararlarni qoplash uchun yetarli miqdordagi zaxira shakllantirishi lozim. Bu fondlar asosan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobida shakllantiriladi, uning hisobidan yetkazilgan zararlar qoplanadi va favqulodda hodisalarning oqibatlari tugatiladi, ishlab chiqarishning son va sifat ko'rsatkichlari o'sishiga erishiladi. Mamlakatimizda sug'urta endi rivojlanib kelayotgan sohalardan biri bo'lib, uning iqtisodiyot rivojlanishiga qo'shadigan hissasi istiqbolli iahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori yildan-yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda, lekin ushbu sohaning umumiy iqtisodiyotdagi ahamiyati hali yetarli darajaga ko'tarilmagan. Sug'urta sohasini rivojlantirish zaruratini uning quyidagi xususiyatlariga egaligi bilan asoslash mumkin:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida harqanday munosabatlarda xavf-xatar, tavakkalchilik va qaltisliklarning mavjudligi;

– sug'urta tashkilotlarining xo'jalik subyektlarini favqulodda yuz bergan hodisalar oqibatida yetgan zararlardan himoyalash, ya'ni favqulodda holat natijasida korxonaning faoliyati to'xtab qolmasligi va davom ettirilishini ta'minlashi;

– mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdordagi investitsiyalarni kiritilishi munosabati bilan ularni sug'urtalash zaruriyatining kelib chiqishi;

- hayot sug'urtasi orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ta'minlashi;

– mamlakat umumiyi qtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanishi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorida keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish turli mulkchilik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi bilan bir qatorda yangi sug'urta xizmatlarini yo'lga qo'yilishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Moliya yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida vujudga keladigan maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlarini ifodalasa, kredit – aholi, korxona va tashkilotlar ixtiyoridagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni jalb etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro'y berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash bilan bog'liq maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritishda turlicha yondashuvlar mavjud ekanligini uchratishimiz mumkin. Masalan, H.R.Sobirov sug'urta tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: Ko'pchilik adabiyotlarda sug'urta so'zi xavf-xatar, daxshat, vahima ma'nosida ishlatiladi, chunki

ko'rsatilgan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida jamiyat hayotiga moddiy zarar yetkaziladi.

Lekin sug'urta deganda ana shu ruhiy holatlar emas, balki bular orasida vujudga kelgan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda zararlar va ularni kuchini qirqishga qaratilgan tadbirlar, zarar natijasida vujudga kelgan kamomadning o'rnini to'ldirish, bu yo'nalishda yuzaga keladigan sug'urtalovchi tashkilotlar va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar ko'zda tutiladi[22]. Bizning fikrimizcha, bu yerda keltirilgan ta'rif sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib beraolmaydi.

Buning ustiga I.R.Sobirov tomonidan yuqorida berilgan ta'rif uzundan-uzoq bo'lib, sug'urtaning mohiyatini tezda ilg'ab olishni qiyinlashtiradi. 2002 yilning 5 aprelida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilgan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida sug'urtaga qo'yidagicha ta'rif berilgan: "Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi"[23].

Bu ta'rifda ta'kidlanishicha, sug'urtadan maqsad sug'urta hodisalari (tabiiy ofatlar) natijasida yetkaziladigan zararlarni qoplash uchun pul fondlarini, ya'ni sug'urta fondlarini tashkil etishdir. Jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan shakllanidigan bu fondlarni hosil qilishda sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar sug'urta shartnomasida aks ettiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobidan shakllanadigan sug'urta fondlari ulkan miqdorlarni tashkil etadi. Sug'urta fondi mablag'lari sug'urta hodisalarining yuz berishi oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplashga va ular miqdorlarini kamaytirish maqsadida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflanadi. Sug'urta tushunchasiga berilgan bu ta'rif iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki huquqiy jihatdan ahamiyatli ekanligini ta'kidlash o'rinlidir.

Rossiyalik iqtisodchi olim B.Serbinovskiy fikricha: "sug'urta – yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta badallari (mukofotlari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) ro'y berganda ushbu shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha munosabatlar tizimidir"[24]. Ammo shuni yoddan chiqarmaslik zarurki, sug'urta nafaqat yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya etuvchi vosita, balki jismoniy shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga baxtsiz hodisalar sodir bo'lishi natijasida shikast yetkazilganda ularga sug'urta to'lovlarini berish yo'li bilan himoya etuvchi vosita hamdir.

Shu bois, B.Serbinovskiy bergan ta'rifni ham to'liq deb bo'lmaydi. Yana bir iqtisodchi olima N.Bendina sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagilarni ta'kidlaydi: "yuridik va jismoniy shaxslar zarar ko'rganda ko'rilgan zararni ko'pchilik shaxslar o'rtasida taqsimlash orqali uni qoplash usulidir"[25]. Ushbu olimaning fikri bir jihatdan e'tiborni o'ziga tortishini e'tirof etish joiz.

---

[22] Sobirov H.R. Sug'urta: 100 savol va javob. T.: Mehnat nashriyoti, 1998. 8-9 b.

[23] O'zbekiston Respublikasining Sug'urta faoliyati to'g'risidagi Qonuni. // Xalq so'zi. 2002 yil 28 may.

[24] Сербиновский Б.Ю. Страховое дело. М. Феникс. 2000. С. 7.

[25] Бендина Н.В. Страхование. М.: Приор. 2000 С. 3.

Darhaqiqat, sug'urta fondi ko'pchilik jismoniy va yuridik shaxslarning to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobiga shakllanib, ushbu fondni shakllantirishda ishtirok etgan shaxslarning mulkiy manfaatlariga tabiiy hodisalar ro'y berishi natijasida zarar yetganda, ushbu fonddan sug'urta qoplamasi beriladi. Lekin, hammaga emas. Yana bir marta ta'kidlash lozimki, faqat shu fondni tashkil etishda qatnashgan shaxslargagina beriladi, ya'ni bir shaxs ko'rgan zarar ko'pchilik o'rtasida taqsimlanadi.

Shu ma'noda, N.Bendina tomonidan berilgan ta'rif sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini qisman yoritib bera oladi, deb ayta olamiz. Bunga o'xshash ta'riflarni ko'plab keltirish mumkin. Shu bilan bir qatorda, ularning hammasida ba'zi bir kamchiliklarni ko'rish mumkin. Bizning fikrimizcha, sug'urta deganda stixiyali va boshqa tabiiy hodisalar ro'y berishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va sog'ligiga zarar yetkazilganda, bu zararlarni qoplashga mo'ljallangan maxsus maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Sug'urta bozor iqtisodiyoti infrastrukturasining tarkibiy qismi va ishlab chiqarish munosabatlarining muhim tashkil etuvchi unsurlaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan zararlar bozor iqtisodiyoti yo'nalishlarini chetlab o'tmaydi. Shu munosabat bilan sug'urta ko'p ukladli xo'jaliklarning har birini sug'urtalashda, ularning mol-mulklarini bud saqlashda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida:

Birinchidan, mustaqil sug'urta xizmatlar tizimi barpo qilindi. Faoliyat jihatidan respublika miqyosida mustaqil tashkilotga aylandi. U O'zbekiston Moliya vazirligi tarkibidan chiqib, davlat bosh iqtisodiy islohotchi bo'lgani holda davlat aksiyadorlik hamda boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari tashkil etildi.

Ikkinchidan, alohida sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun qabul qilindi, unda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi.

Uchinchidan, xorijiy mamlakatlardagi sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaydi, ular ishtirokida qo'shma sug'urta tashkilotlari tashkil qilindi. Milliy sug'urta tashkilotlari jahon sug'urta tashkilotlari qatoridan o'rin oldi.

To'rtinchidan, sug'urta mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli yaxshilandi, xorijiy mamlakatlar mablag'laridan investitsiya maqsadlari uchun foydalanishda sug'urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi.

Beshinchidan, sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishiga qaratilgan sug'urta faoliyati kengayib bordi, u qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan ham joriy qilindi.

Oltinchidan, sug'urta xizmatlari bozorida ixtiyoriy sug'urta turlarining jadal rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, majburiy sug'urtalashning qonunchilik asoslari va ularning ustivor yo'nalishlari joriy etila boshlandi.

Yettinchidan, sug'urtaning xalq farovonligini yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu munosabat bilan ixtiyoriy shaxsiy sug'urtaning ko'pchilik qoidalari qaytadan ko'rib chiqildi, qo'shimcha pensiya va boshqa sug'urta turlari joriy qilindi.

Sakkizinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e'tibor berilib, sug'urtaning yangi turlarini amalga oshirishga kirishildi.

To'qqizinchidan, sug'urta faoliyati bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasida tegishli munosabat o'rnatildi. Sug'urta tashkilotlari o'zlarining qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishlari va qimmatli qog'ozlar bozorida oldi sotdi ishlarini amalga oshirishlarining huquqiy asoslari shakllantirildi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiya faoliyati yo'lga qo'yildi va rag'batlantirildi.

Bundan tashqari, respublika sug'urta tashkilotlari xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganishga ham alohida e'tibor berdilar, ayrim xorijiy sug'urta tashkilotlari vakillari O'zbekiston sug'urta tashkilotlari xodimlari bilan amaliy seminarlar o'tkazib turdilar. Bu tadbirlar respublikamiz sug'urta xizmatlari bozorini tashkil qilishga zamin hozirladi va sug'urtalanuvchilar doirasini kengaytirishga jiddiy yordam bermoqda.

3.2. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati unda qayta taqsimlash munosabatlarining mavjudligi, sug'urta riskning mavjudligi (uni aniqlash), sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilardan sug'urta birlashmalarini tashkil etish, yakka va guruh sug'urta ehtiyojlarini birlashtirish, barcha sug'urtalanuvchilarning zarari bo'yicha birgalikdagi javobgarligi, zararning taqsimlanishi, zararni vaqt va joy bo'yicha qayta taqsimlash, sug'urta mukofotlarining qaytarilishi, sug'urta faoliyatining o'z-o'zini qoplash xususiyati mavjudligi orqali belgilanadi.

Tabiat va jamiyatning moddiy zarar keltiruvchi ko'zda tutilmagan harakatlari insonlar tomonidan birinchi navbatda tasodifan ro'y berdi deb qabul qilinadi, lekin ularning doimiy takrorlanib turishi oqibatida iqtisodiy aloqalar holati va texnogen muammolar bo'lishidan qa'tiy nazar ro'y berishini isbotlab beradi.

Qayta ishlab chiqarish jarayoni tabiat va jamiyat kuchlarining o'rtasida to'qnashuvlar kelib chiqishini taqozo etadi. Bular bir tomondan inson va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyatdagi qarama-qarshiliklardir.

Bularning barchasi oxir oqibat ishlab chiqarish va boshqa faoliyat ko'rsatishda tasodifan ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni vujudga kelishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratib beradi.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi qarama – qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash, insonlar o'rtasida tabiiy ofatlardan ko'riladigan zararlar oqibatlarini qisqartirish, baratarf etish va ularni oldini olish zaruratini taqozo etadi.

Tabiiy ofatlar, avariyalar, o'g'irlik va boshqa favqulotda ro'y beradigan hodisalar insonning ongidan tashqarida to'satdan yuzaga kelishi mumkin. Ilmiy nuqtai-nazardan qaraganda har bir mulk egasi o'z mol-mulkini shu jumladan, ko'chmas mulkini qisman zararlanishi yoki butunlay yo'qotilishi oqibatida ko'riladigan zararlarni qoplanishidan manfaatdor ekanligini ko'rish mumkin.

Qadim zamonlardan manfaatdor shaxslarda ko'rilgan zararni qoplash maqsadida mulk egalariga tegishli mol-mulklarni birlashtirish va zararni birlashma a'zolari o'rtasida bo'lish fikri tug'ilgan. Ushbu birlashma qatnashchilari qanchalik ko'p bo'lsa, zarar ko'rgan tomonga to'lanishi kerak bo'lgan tovon uchun ajratiladigan mablag' ulushi shuncha ko'p bo'lgan.

Ma'lumki, agarda har bir mulk egasi savdogar yoki hunarmand bo'ladimi, ehtimoli mavjud bo'lgan zararni qoplash maqsadida zaxirada uning aylanma mablag'lariga teng miqdorda moddiy boyliklarni ushlab turishga majbur bo'lar edi. Shu sababli xayrihoh shaxslarni zararni birgalikda qoplash maqsadida birlashmaga birlashtirish g'oyasi yuzaga kelgan.

Ko'p asrlik sug'urtalash tarixi shuni isbotlab berdiki, sug'urtalash iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biridir. Bundan tashqari sug'urta tashkilotlari tomonidan shunday faoliyat – bu sug'urta hodisasini oldini olish ishlari amalga oshirildi.

Oldini olish ishlari o'z ichiga sug'urta hodisalari soni va undan keladigan zararlarni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan ishlar kiradi, ya'ni doimiy sug'urta obyektining tekshirish va o'quv dasturlari kiradi. Shu sababli, sug'urtalash nafaqat sug'urtalangan ko'chmas mulkni xavfsizligini ta'minlashini, balki sug'urta hodisalarini ro'y berishini kamayishiga va fuqarolar xavfsizligini yaxshilashga yordam berishini isbotlab berdi.

Ishlab chiqarish jarayonini to'xtovsiz bo'lishini ta'minlash va hayotda erishilgan mavqeni mustahkamlash maqsadida insonlar o'rtasidagi bu obyektiv aloqalar barchasi sug'urta himoyasining iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, sug'urtalash rolining ijtimoiy ishlab chiqarishda o'sib borishini ta'minlaydi, sug'urta xizmatlari maydonini kengaytirishni va davlat sug'urta tashkilotlariga alternativ sug'urta tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Ma'muriy – buyruqbozlik tizimi xalq xo'jaligi ustidan bajarilgan, davlat mulki salmog'i ko'p bo'lgan va mehnat jamoalari rahbariyat tomonidan korxona mol-mulkini saqlashda iqtisodiy javobgarligi sust bo'lgan davrlarda sug'urtalash iqtisodiyotda hozirgidek mavqega ega bo'lmagan bo'lar edi.

Bozor munosabatlarining keng ko'lamda yoyilib borishi qachonki mahsulot ishlab chiqaruvchi o'z rejasi bo'yicha ish ko'rayotgan, javobgarliklarni barcha risklariga qaramasdan o'z zimmasiga olishi sug'urtalashning roli va ahamiyatini yanada oshiradi.

Shundan an'anaviy – tabiat ofatlaridan (yer qimirlashi, suv bosishi, to'fon va boshqalar), texnik va texnologik xarakterdagi tasodifiy hodisalar, (yong'in, avariya portlash va boshqalar), himoyalaridan – sug'urtalash obyektlari bo'lib ko'p holatlarda har xil kriminal toifasidagi zararlar (o'g'irlik, talon-taroj, transport vositalarini o'g'irlab ketish va boshqalar) bo'lib qolmoqda.

Sug'urtalanuvchi ko'chmas mulkka egalik shakli har xil bo'lgan korxona va tashkilotlar endilikda nafaqat asosiy fondlarini zararlanishi yoki yo'q bo'lib ketishidan, balki korxonaning majburan to'xtab qolishidan (xomashyoning vaqtida keltirilmasligi, xaridorlarning to'lov qobiliyati yo'qligi munosabati bilan va hakozo) yuzaga kelgan xarajatlar va olinmagan daromadlar bo'yicha sug'urtalashga zaruriyat sezmoqdalar.

Bozor iqtisodiyotida sug'urtalash bir tomondan fuqarolar farovonligi va biznesni himoyalash vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan daromad keltiruvchi faoliyat turi hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarining daromad manbai bo'lib, sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadlar va ishlab chiqarish obyektlariga, tashkilotlar aksiyalariga, bank depozitlari va qimmatli qog'ozlar depozitlariga vaqtincha bo'sh mablag'larni investitsiya qilishdan olingan daromadlar hisoblanadi.

Sug'urta ishlab chiqarishga qo'shayotgan ulushi bilan ishlab chiqarishning o'sishiga yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Iqtisodiyot tarixi va sug'urtalash tarixi bo'yicha ijod qilgan ko'pgina olimlar sug'urtalash bozori va ishlab chiqarishning rivojlanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik borligini aytib o'tganlar. Sug'urtalash bo'yicha ijod qilgan amerikalik olimlar Mer va Kommak, o'zlarining "Sug'urtalash usullari" kitobida, Buyuk Britaniyaning yirik savdo davlati bo'lishida yong'indan sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning mavjudligi yaqindan yordam berganligini aytib o'tishgan.[26]

Sug'urtalash o'zining kelib chiqishi va tuzilishi bilan moliya va kreditdan farq qiladi. Ma'lumki moliyaning mohiyati iqtisodiy kategoriya sifatida pul fondlarining tashkil topilishi va ishlatilishi munosabatlari bilan bog'liq. Sug'urtalashning mohiyati ham pul fondlarining tashkil topilishi va ishlatilishi bilan uzviy bog'liqdir.

[26]David Bland Insurance Principles and Practice. M. 1998 y. 35 p

4-MAVZU.
SUG'URTA ATAMALARI DEFINITSIYASI VA ULARNING GURUHLANISHI

4.1. Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq atamalar

Sug'urta fondini shakllanishi bilan bog'liq atama va tushunchalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug'urtani tasniflash (klassifikatsiyalash) - 1) sug'urta turlarini ierarxiya ko'rinishida tarmoqlarga, tarmoqchalarga va turlarga bo'linishi. Bunda har bir keyingi bo'g'in oldingi bo'g'inning bir qismi shaklida ifodalanadi. Sug'urta obyekti sug'urtaning toifasi, sug'urta javobgarligining hajmi va sug'urta qismining shakli sug'urtani turkumlashning asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. 2) xorij amaliyotida sug'urta turlarini tartiblashtirilgan tizimi. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urtaning yagona klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.

Sug'urta vositachilari – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi tegishli vositachilik haqini oladi.

Risk – bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishni imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratdi. Shunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisidir.

Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, risk-bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamalar to'laydi. Risk sug'urta obyekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Obyektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. Shu tufayli risk - bu yagona tasodifiy hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi.

Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; sug'urta obyekti; sug'urta javobgarligining turi.

Tibbiy sug'urta – aholi sog'ligini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki ixtiyoriy bo'ladi.

Mulkiy sug'urta – turli ko'rinishdagi mol-mulklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlarining obyekti hisoblangan, sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida, nafaqat mol-mulkning sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Netto-stavka – brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etishi mumkin.

Majburiy sug'urta – sug'urta munosabatlarinning qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatda sug'urtaga tortiladigan obyektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Majburiy davlat sug'urtasi – qonunda belgilab yo'yilgan tartibda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida hayot, sog'liq va mol-mulkning davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan majburiy sug'urtasi.
Masalan, harbiy xizmatchilar, davlat bojxona va soliq xizmati xodimlari hamda bir qatorda shunday toifadagi shaxslar baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasiga tortiladi. Bu sug'urta turi bo'yicha sug'urta mukofotlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Risklarni joylashtirish:

1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish mos ravishda to'g'ridan to'g'ri sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyani anglatadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi;

2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi yyetakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

Sug'urta – har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqarolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. o'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Obyektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

Oferta – asosiy shartlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomasini tuzish taklifi. Sug'urta kompaniyasi ofertani konkret yuridik yoki jismoniy shaxsga yo'llashi mumkin.

Risklarni tanlash – sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib *tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati.* Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash – bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora - tadbirlarning bir qismidir.

Riskli holatlar – risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlar sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasini sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida hamda sug'urta qoplamalari va summalarini to'lashda muhim o'rin tutadi. Riskli holatlar: shaxsiy va ashyoviy; to'g'ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan: obyektiv va subyektiv turlarga bo'linadi.

Riskni baholash – risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko'rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezoni hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e'tibor beriladi.

Sug'urta shartnomasi tuzilgan momentdan, sug'urtalanuvchining o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo'shimcha ravishda dastlabki tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta obyekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalanuvchi bilan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga kirishishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi.

Sug'urta yig'imi – Jismoniy shaxsning, yo'lovchilarning majburiy sug'urta bo'yicha bir marta to'lanadigan sug'urta mukofoti. Odatda, sug'urta yig'imi yo'l haqi tarkibida bo'ladi va chiptada sug'urta yig'imi "kiritilgan" degan so'z bo'ladi.

Sug'urta maydoni – sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan obyektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulklarning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.

Sug'urtaviy tibbiyot – turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.

Sug'urtalovchilar uyushmasi – sug'urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va xorijiy sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.

Uzaytirish – o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasini amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin.

Umumiy sug'urta sohasi – shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari.

Somaj – sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi.

Shaxsiy sug'urta – sug'urta obyekti sifatida fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyatini saqlash bilan bog'liq manfaatlar majmuasi shaklidagi sug'urta tarmog'i. Shaxsiy sug'urta hayot sug'urtasiga va baxtsiz hodisalardan sug'urtaga va tibbiy sug'urtaga bo'linadi. U riskli va jamg'arma funksiyalariga ega. Chet el tajribasida shaxsiy sug'urta to'rtta sug'urta klassidan iborat bo'lib, inson hayotidagi ro'y berish mumkin bo'lgan hodisalar (tug'ilish, o'lim, voyaga yetish, nikohdan o'tish, ma'lum bir yoshgacha yashash) ehtimolligi bilan bog'liq barcha sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda shaxsiy sug'urta-bu uzoq muddatli hayot sug'urtasi, aralash sug'urta va annuitetlardir.

Sug'urtalovchining javobgarlik limiti – tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi.

Audit – sug'urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to'g'riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida shartnoma tuziladi. O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.

4.2. Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq atama va tushunchalar

Bosh polis – sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha obyektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. Chet el tajribasida bu bitim "ochiq polis" yoki "polis-abonament" deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni jo'natish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa yetarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

Kvotali qayta sug'urtalash – sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya mutanosib ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

Vositachilik haqi – mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Vositachilik haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan mukofotning hajmiga bog'liq holda sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda to'lanadi.

Sug'urta polisi – sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta obyekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

Sug'urta dalolatnomasi – sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan hujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster yoki avariya komissari tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

Sug'urta mukofoti – sug'urta xizmatini ko'rsatganlik uchun to'lanadigan haq. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

Sug'urta puli – sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik obyektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi.

Sug'urta obyekti – shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati bilan bog'liq manfaati; mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlashga bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaati; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z xatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati – mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta obyektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta obyekti sug'urta kompaniyasining mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi – ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida tuziladigan yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni sug'urta qilish – boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtasi.

Sug'urta zaxiralari – sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari yetmasa, sug'urta kompaniyasi zaxira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zaxiralariga quyidagilar kiradi: *hayotni sug'urtasi bo'yicha zaxira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zaxiralari* va boshqalar. Ushbu zaxira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi.

Zaxira fondi – joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda, ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari fondi. Ma'lumki, sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar miqdori har yili har-xil bo'ladi. Ayrim yillari sug'urta hodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq bo'lishi mumkin. Agar sug'urta hodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan bir necha marta ko'p bo'lsa, ularning farqi zaxira fondi hisobidan qoplanadi.

Naf oluvchi – sug'urta shartnomasida sug'urtalangan shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan sug'urta tovonini oluvchi sifatida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Sug'urta summasi – sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada – fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.

Sug'urta summasining zararliligi - sug'urta summasi va sug'urta qoplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimolligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan obyektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan obyektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanliligidan dalolat beradi.

4.3. Xalqaro sug'urta amaliyotida ishlatiladigan atama va tushunchalar

Abandon – to'liq miqdordagi sug'urta summasini olish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u xabarsiz yo'qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to'g'risidagi ariza voqea-hodisa ro'y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat, Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.

Avariya komissari – sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikati tuzadi yoki yozma axborot tayyorlaydi.

Avariya sertifikati – mol-mulk sug'urta hodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikati avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli vositachilik haqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikati sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Adjaster – sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta hodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funktsiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy – lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

Aktuar hisob-kitoblar – sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq.

Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga yetganda to'lanadi. Yetarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga etishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi haqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga yetishi ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi

to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalarni hisoblab chiqish mumkin bo'ladi.

Anderrayter – 1) turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. U sug'urta kompaniyasini sug'urta portfeli shakllanishi uchun javob beradi. Sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasining a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Anderrayter siyosati – sug'urtalash bilan bog'liq yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga qaratilgan siyosat.

Annuitet – renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQSHda keng rivojlangan.

Assistans – sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Dispasher – dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funtsiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar **dispasha** deyiladi va dispashani tuzganlik uchun haqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

Yevropolis – yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.

Kovernota – sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi hujjat. Ushbu hujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanmaydi.

Denonsatsiya – shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

Kargo – transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi.

Kasko – transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanishini o'z ichiga oladi.

Kaf – tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) yetkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz

transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar yetkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.

Kvota – 1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan birgalikda tegishli obyekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday holatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish hissasi.

Kvotali qayta sug'urtalash – sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

Keptiv sug'urta kompaniyasi – ta'sischilarning manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlari tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi.

Lloyd – 1) Angliyadagi xalqaro sug'urta bozori; Angliyadagi sug'urtalovchilarning korporatsiyasi, taxminan 1734 yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda Lloydga 22000 dan ortiq a'zo bor. Uning faoliyati Angliya parlamenti qabul qilgan maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Lloyd sug'urtani barcha turlarini amalga oshiradi. Lloyd a'zolari 279 sindikatga birlashgan bo'lib, sindikat faoliyati uchun anderrayterlar javob beradi. Anderrayterlar bilan sug'urtalanuvchilarni sug'urta vositachilari birlashtiradi. Sug'urta vositachilari Lloyd bozorida risklarni joylashtiradi. Anderrayterlar sug'urta shartnomasi bo'yicha javob berish uchun yirik miqdordagi pul mablag'larini korporatsiyaga depozit sifatida qo'yadi.

Offshor sug'urta kompaniyasi – maxsus maqomga ega bo'lgan sug'urta kompaniyasi. Offshor sug'urta kompaniyalari soliq to'lash stavkalari eng kam bo'lgan offshor zonalarda (Bermud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalari sug'urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta'sischilar joylashgan davlati organlari tomonidan nazorat etilmaydi.

Slip – riskni xarakterlovchi hujjat. Slip sug'urta brokeri tomonidan tuziladi va anderrayterga beriladi. Slipda sug'urta kompaniyasining riskni sug'urtalashdagi hissasi ko'rsatiladi. Angliyada slip sug'urta polisiga tenglashtiriladi. Ayrim holatlarda slip sug'urta qoplamasini to'lashda asosiy hujjat hisoblanadi.

Syurveyer – sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyerning xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Client el amaliyotida yong'in havfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

Franshiza – sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. Shartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan

zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

Fraxt – dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

Fronting – qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'laligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.

Frontlashtiruvchi kompaniya – boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Sedent – riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya – 1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi.

Ekssedent zarari – noproporsionl qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

Ekssedent riski – mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.

5-MAVZU.
SUG'URTANING EVOLYUSIYASI VA IQTISODIYOTDAGI ROLI

5.1. Sug'urta munosabatlarini paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga roli.

Sug'urta kishilik jamiyatining turli bosqichlarida mavjud bo'lgan va uzoq tarixga ega. Sug'urta insoniyat va uning mol-mulkini ishonchli himoyalashning muhim vositasi sifatida rivojlanish tarixida ikki bosqichni boshidan kechirgan.

1. Tijoratga asoslanmagan sug'urta.
2. Tijoratga asoslangan sug'urta.

Tijoratga asoslanmagan sug'urta ibtidoiy jamoa, quldorlik va feodal jamiyatlariga xos bo'lib, unda sug'urtalovchilar ittifoqi o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'yishmagan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida qabila shaklida turmush kechirgan insonlar qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlardan saqlanish uchun oziq-ovqat, suv zaxiralarini shakllantirganlar. Keyinchalik, qo'l mehnatining takomillashishi va ishlab chiqarish jarayonida asbob-uskunalardan foydalanish (texnik, ijtimoiy xavf-xatarlar) va asta-sekinlik bilan tabiiy boyliklarni sanoat usulida o'zlashtirilishi qo'shimcha xavf-xatarlarni: ishlab chiqarish, texnik omillarni paydo bo'lishiga olib keldi.

Dastlab, insonlar turli tabiiy ofatlar va boshqa oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisalar ro'y berishini oldini olish maqsadida xudolarga sig'inishgan. Stixiyali hodisalarning ro'y berishi, bu tabiiy hol ekanligini anglagan insonlar quldorlik davridayoq, yong'in, qurg'oqchilikdan saqlanish uchun natura shaklidagi sug'urta fondlarini tashkil etishgan.

Tarixiy hujjatlarga ko'ra, notijorat sug'urtaning dastlabki shakllari, eramizdan 2000 yil oldin Vavilon podshohi Xammurapi qonunlarida, shuningdek, Forsko'rfazi, Qadimgi Gretsiya va Misr. Qadimgi Rimdagi savdogarlarning o'zaro tuzgan bitimlarida o'z aksini topgan. Bu bitim shartlariga muvofiq, umumiy karvon safida savdo qiluvchi savdogarlardan birortasi stixiyali hodisalar yoki qaroqchilar hujumi oqibatida zarar ko'rsa, bu zararlar boshqa savdogarlar tomonidan qoplanishi belgilangan. Bu davrlarda maxsus sug'urta tashkilotlari bo'lmagan va sug'urta badallari to'lanmagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida sug'urtaning mazmuni takomillashib, uning yangi turlari paydo bo'lgan. Xususan, Qadimgi Rimda kasbiy (savdogarlar, hunarmandlar, harbiylar) va diniy belgilarga ko'ra, o'z ustavlariga ega bo'lgan kollegiya, ittifoqlar bo'lgan. Kollegiya yoki ittifoq a'zolari sug'urta badallarini to'lashgan hamda Ustavda qayd etilgan shartlarda ko'rilgan zararni qoplash uchun qoplamalar olish huquqiga ega bo'lgan. Qadimgi Rimda birinchi bizning eramizdan 133 yil oldin Lanuviylar kollegiyasi tashkil topgan va faoliyat yuritgan.

Lanuviylar Ustaviga muvofiq, unga a'zo bo'ladigan shaxslar 100 sistern miqdorida kirish badalini to'lashgan. Oylik badal summasi 5 assani tashkil etgan. Mabodo, kollegiya a'zosi vafot etsa, uning merosxo'riga 300 sisterni ajratilgan. Agar,

kollegiya a'zosi o'zini-o'zi o'ldirsa yoki vafot etish arafasida oylik badallar to'lash muddati 6-10 oy cho'zilgan bo'lsa, bunday holatda uning merosxo'rlariga sug'urta summasi to'lanmagan.

Qadimgi Rimda notijorat sug'urtaning rivojlanganligiga yana bir misol keltirish mumkin. Harbiy kollegiyaga a'zo bo'lgan shaxslar kassaga 750 dinariy (1 dinariy 4 sistem) to'lashgan. Bu badal bir marotaba to'liq to'lanmasdan, oy-oy to'lanishiga ruxsat etilgan. To'langan badal evaziga, kollegiya a'zosi xizmat yuzasidan ko'tarilsa, unga 500 dinariy; boshqa legionga o'tkazilganda 500 dinariy; vafot etsa, uning merosxo'riga 500 dinariy to'langan.

X-XIII asrlarda sug'urta gildiy va sexlar tomonidan amalga oshirila boshladi. Masalan, X asrda Angliyada gildiya a'zolariga tegishli o'g'irlangan hayvonlarni qoplash uchun anglosaksoniya Gildiyasi tashkil etilgan. XI asrda Daniyada gildiya a'zolari, ulardan qaysi biri kema avariyasiga uchrasa yoki asirga tushsa, unga umumiy kassa hisobidan zarar qoplangan yoki asirdan qutqarish uchun sotib olingan.

Keyinchalik gildiya sug'urtasi himoya qiluvchi va kasbiy gildiyalariga bo'lingan. Himoya qiluvchi gildiyalar o'z a'zolarining mol-mulkini turli xavf-xatarlardan himoya qilishgan.

Hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslar sexlarga birlashishgan. Sex o'z a'zolariga baxtsiz hodisalar ro'y berganda, qarilik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda va vafot etganda yordam ko'rsatgan. Sex halok bo'lgan a'zosining oilasini boqish majburiyatini olgan.

Notijorat shaklidagi sug'urta Qadimgi Rusda ham mavjud bo'lgan. Jumladan, agar okrug hududida o'lim hodisasi ro'y berib, qotil aniqlanmasa: knyazlik erkagi uchun - 80 griven (1 griven-409,536 gr. og'irlikka ega kumush qo'yilmasi), oddiy fuqaro uchun esa - 40 griven qoplama to'langan.

Tijorat sug'urtasi paydo bo'lishining birinchi bosqichida sug'urta xizmati oldi-sotdi obyektiga aylandi; ikkinchidan, sug'urta faoliyati shakllanayotgan bozor xo'jaligining muhim tarmog'iga aylandi; uchinchidan, sug'urta bitimlari shartnoma asosida tuziladigan bo'ldi.

12 asrda sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish orqali foyda olish, Italiyada, dengiz orqali yuk tashish amaliyotida joriy etilgan. O'sha davrda O'rta yer dengizi orqali yuklarni tashishda Italiya ustun mavqega ega bo'lgan. Dengiz sug'urtasi rivojlanganligini, 1393 yilda birgina notarius orqali bir haftada 80 ta sug'urta shartnomasi tuzilganligi bilan izohlash mumkin.

Bu davrlarda dengiz sug'urtasi Ispaniya va Portugaliyada ham taraqqiy eta boshlagan. Birinchi sug'urta polisi 1347 yilda Barselonada berilgan. 1468 yilda dengiz sug'urtasi bo'yicha Venetsiya Kodeksi yaratildi.

Keyinchalik, XVI² asrga kelib dengiz sug'urtasi bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish Angliyaga ko'chadi. 1601 yilda bu yerda dengiz sug'urtasida yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqadigan sudlar tashkil etilgan. XVI asrda sanoat ishlab chiqarishining manufaktura shakli o'z o'rnini fabrika shakliga berdi. Bu o'z navbatida, sug'urta yanada rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Tijorat sug'urtasi shakllanishining ikkinchi bosqichida mulk sug'urtasining bir shakli sifatida dengiz sug'urtasi asosiy sug'urta turi sifatida o'z mavqeini saqlab qoldi.

Dengiz sug'urtasi bo'yicha dastlabki jamiyat 1668 yilda Fransiyada tashkil etilgan. XVI asr oxirlarida Londonda xususiy sug'urtalovchilarning uyushmasi tashkil etilgan. 1871 yilgacha ushbu uyushma "London lloydi" nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelgan. Germaniyadagi dastlabki sug'urta jamiyatlari 1765 yilda Gamburg va Berlinda tuzilgan.

Dengiz sug'urtasini paydo bo'lishi va rivojlanishiga stixiyali hodisalar, qurg'oqchilik ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, yevropa mamlakatlaridagi urbanizatsiya mulk sug'urtasining boshqa turlarini vujudga kelishiga olib kelgan. 1666 yilda Londonda katta yong'in bo'lgan va natijada 70,0 ming kishi halok bo'lgan. Bu Yevropada yong'indan sug'urtalashni paydo bo'lishiga sharoit yaratgan. Angliyada ko'plab yong'indan sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi jamiyatlar barpo etilgan.

Germaniyada dastlabki yong'indan sug'urtalash bo'yicha aksiyadorlik sug'urta jamiyati 1812 yilda tuzilgan.

Hayotni sug'urtasi bo'yicha birinchi sug'urta jamiyati "Ekvitebl" nomi bilan 1762 yilda tashkil etilgan. 1830 yilga kelib, Angliyada 35 ta yirik hayot sug'urtasi bo'yicha jamiyatlar faoliyat ko'rsatgan. Hayotni sug'urtalash bo'yicha dastlabki aksiyadorlik sug'urta jamiyatlari 1787 yilda Fransiyada tashkil etilgan. Germaniyada esa 1806 yilga kelib hayot sug'urtasi bo'yicha aksiyadorlik jamiyati tuzilgan.

XVI asr oxiri va XX asrning boshlariga kelib sanoat ishlab chiqarilishini rivojlanishi mulkiy va shaxsiy sug'urtani taraqqiy etishini ancha tezlashtirdi.

XX asr oxirlarida sanoat sohasidagi tub o'zgarishlar, xususan, ishlab chiqarishda ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish, elektr energiyasidan keng foydalanish texnologik xarakterdagi risklarni keltirib chiqardi.

1776 yili Rossiyada Davlat banki huzurida sug'urta ekspeditsiyasi tashkil etilgan.

1800 yilda Imperator farmoni bilan kema va tovarlarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta jamiyati tashkil etildi, biroq uning mijozlari bo'lmaganligi uchun tugatilgan. Bu sug'urta jamiyatini qo'llab-quvvatlash uchun Rossiya hukumati unga eng asosiy gubernalarda sug'urta ishini mutloq amalga oshirish uchun 20 yil muddatga huquq bergan.

1835 yilda ikkinchi yong'indan sug'urtalash bo'yicha jamiyat tuzilgan. 1890-1900 yillarga kelib, o'zaro sug'urtalash bo'yicha shahar jamiyatlari bo'lgan va rivojlangan. 1909 yilda markazi Peterburg shahrida bo'lgan o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining Rossiya ittifoqi tashkil etilib, 1914 yilda uning tarkibida 300 ga yaqin sug'urta tashkiloti bo'lgan. 1894 yilda Rossiya Ichki Ishlar Vazirligiga sug'urta jamiyatlari ustidan nazorat olib borish yuklatiladi. 1917 yilga qadar, Rossiyada sug'urta ishi raqobatga asoslangan holda rivojlanishning yuqori darajasiga erishishgan edi.

5.2. Sug'urtaning paydo bo'lish tarixi[27]

Sug'urtaning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi, uning aniq yuzaga kelish sanasini aytish judayam qiyin.

O'tmish tamaddunlaridan qolgan binolar qoldiqlari, san'at asarlari va boshqa moddiy alomatlarni topish nisbatan oson bo'lsa, ilk shaharlar aholisi iqtisodiyot sohasidagi xizmatlarni qanday tashkil qilganligini tiklash qiyindir. Biroq miloddan avvalgi, qadimgi, o'rta asrlarga oid va ilk yangi davr tamaddunlariga oid bino va inshootlar qoldiqlari orasida odamlar oziq-ovqat mahsulotlarining tegib bo'lmaydigan zaxiralarini saqlagan omborlar aniqlangan. Misr shohi, Fir'avn tushlariga ta'bir bergan Yusuf haqidagi Bibliya tarixida zaxiralarning ular bo'yicha tashkil qilinishi va ulardan foydalanish tamoyillari namoyish etiladi.

Tajribaning ko'rsatishicha, vaqti-vaqti bilan hosilsizlik yoki dushmanlar hujumi ro'y bergan bo'lib, bunda shaharliklar yaqin-atrofda yetishtirilgan hosildan foydalanish imkoni bo'lmagan. Har bir shaharlikka bunday vaziyatlarda o'zini ta'minlash topshirilishi mumkin edi, lekin eng qadimiy shaharlar aholisi ham umumiy zaxira shakllantirish samaraliroq ekanligini tushunib yetgan.

Hosildorlik yuqori bo'lgan, oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari past bo'lgan yillarda imkoniyati bo'lgan har bir kishidan kichik miqdorda soliq olish mumkin bo'lgan. Uzoq vaqt saqlanishi mumkin bo'lgan ekinlar, masalan, bug'doyni zaxira uchun pulga sotib olish mumkin bo'lgan: zaxira uchun oziq-ovqat mahsulotlarini markazlashtirilgan tarzda xarid qilish amalga oshirilmagan hollarda fermerlar ular sotgan miqdordan ko'proq miqdorda (va qimmatroqqa) mahsulot sotish imkoniyatidan albatta xursand bo'lgan bo'lardi.

Agar hosilsizlik kuzatiladigan yoki shahar qamal qilinadigan bo'lsa, zaxira qilingan oziq-ovqat mahsulotlari shahar ahlini qutqarish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan. Shu sababli umumiy fond tushunchasi (ushbu holatda oziq-ovqat mahsulotlari) insoniyat ongidan mustahkam o'rin olgan. G'oya o'z samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatdi, ayniqsa, risk tushunchasining joriy qilinishi bilan.

XII asrning oxirlarida Yevropaliklar Osiyo va Amerikaga yirik sayohatlarni amalga oshira boshlagan paytda «shahar inqilobi» (sanoat inqilobidan oldin kelgan) ro'y berdi, «risk» va «umumiy fond» tushunchalari birlashib ketdi.

Agar kichik kemalardan iborat bo'lgan kichik bir flotiliya Yevropadan aytayliq, Indoneziyaga savdo qilish va u yerdan qimmatbaho va noyob ekzotik yuklar bilan qaytish uchun chiqishning uddasidan chiqqan bo'lsa, kemalarning hammasi ham safardan qaytib kelmasli riski bo'lgan. Dengiz shtormi kemalarni cho'ktirib yuborishi, kemalarda oziq-ovqat zaxirasi tugab qolishi (yoki kema jamoasi bironta epidemiyadan

[27] Insuranse: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insuranse Institut, Great Britain,1993 24 p.

halok bo'lishi), ayrim kemalar adashib qolishi, boshqa kemalar ortiqcha yuk yuklab yuborilganligi yoki texnik nosozliklar tufayli cho'kib ketishi mumkin bo'lgan. Bunday riskli faoliyatga pul tikkan kishilar investorlardan birontasi uning kemasi safardan qaytib kelmagan yagona kema ekanligi sababli bor pulini yo'qotmasligi uchun riskni o'zaro taqsimlash maqsadga muvofiq bo'lgan. Buning uchun ikkita usul ishlab chiqilgan.

Birinchi usul qo'shma korxona tashkil qilishdan iborat bo'lib, u orqali investorlar barcha risklar va olish mumkin bo'lgan foydani o'zaro taqsimlagan holda umumiy yuk bilan bir nechta kemaga pul kiritgan.

Ikkinchi yo'l bu – sug'urta bo'lib, bunda kema va (yoki) yuk egasi (yakka tartibdagi shaxs yoki kompaniya) agarda kema mazkur reysda muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan bo'lsa, unga yo'qotishlarning o'rnini to'ldirishga rozi bo'lgan odamlarga pul mablag'lari taklif qiladi. Shunday qilib, qo'shma korxonalar (aksiyadorlik jamiyatlari) va sug'urta bir-biri bilan raqobatda rivojlanmasdan, bir-birini to'ldira boshladi. Odamlar guruhi yoki kompaniyalar kema yo'qotilgan taqdirda kema egasiga tovon (indemnity) to'lash evaziga pul mukofotlari (premium) to'play boshladi. Bunda sug'urta qiluvchilar risk holati ro'y berganda sug'urta qildiruvchilarga to'lovlar uchun foydalanishni va'da qilgan umumiy fond tashkil qilingan.

Bu jarayonning ilk bosqichlarida, agarda risk ro'y beradigan bo'lsa, sug'urta qiluvchi u sug'urta qildiruvchiga to'lashi lozim bo'lgan to'lovni amalga oshirish uchun bironta mulkni sotishga (yoki bankdagi hisobraqamidan pul olishga) majbur bo'lgan. Bu tamoyil hozirgacha xuddi shu to'lov va'dasi shartnomaning asosini tashkil qiladigan Lloyd korporatsiyasi tomonidan qo'llanib kelmoqda. «Lloyd a'zolari» maqomiga ega bo'lgan kishilar «imzolangan» (underwritten) risk ro'y bergan holatda o'zining shaxsiy mablag'laridan pul to'lashga majbur bo'ladi. «Imzolash» (ingl. to underwrite) atamasi qanday yangraydigan bo'lsa, aynan shuni anglatadi: riskni (sug'urta predmeti, sug'urta qilingan muddat va shartlar) belgilab beradigan hujjat tuziladi va uni sug'urta qiladigan shaxs (yoki uning vakili) qog'ozning pastki qismiga u to'lashga tayyor bo'lgan risk ulushini yozadi.

Ayrim ishbilarmonlarning ko'plab jamiyat a'zolari Lloyd korporatsiyasida qabul qilingani kabi individual asosda katta risklarni qabul qilish istagida emasligini tushunishga ko'p vaqt talab qilinmadi. Shu sababli aksiyadorlik jamiyati konsepsiyasi yangi shartlarda qo'llana boshladi. Odamlarga sug'urta kompaniyalarining aksiyalarini xarid qilish taklif etildi. Kompaniya riskni qabul qiluvchi mutaxassislar – anderrayterlarni ishga yolladi va agarda risk ro'y beradigan bo'lsa, u investitsiyalar kabi tasarruf qilinadigan umumiy fonddan sug'urta qildiruvchiga pul to'lagan. Fond kompaniyaning o'z aksiyalarini sotishidan tushgan mablag', fond mablag'larini investitsiya qilishdan olingan daromad va sug'urta qildiruvchilardan to'plangan mablag'lar hisobiga shakllantirilgan.

Ko'zda tutilganki, professional anderrayterlar, qaysi risk ulushini va qanday mukofot evaziga qabul qilishni belgilagan holda, fondga doimo risk ro'y bergan

hollarda sug'urta qildiruvchilarga pul to'lashga, shuningdek, aksiyadorlarga ularning kiritgan mablag'lardan kutadigan natijani oqlaydigan darajada jalb etuvchan dividendlar to'lashga qodir bo'lishga imkon beradi.

Yong'indan sug'urta qildirish sug'urta kompaniyalari faoliyat yurita boshlagan ilk soha bo'ldi. XVII asrda aholi gavjum bo'lgan shaharlarda aksariyat uylar yog'ochdan qurilgan edi. Uylarni isitish va ovqat tayyorlashni uchun olov, uyni yoritish uchun esa shamlardan foydalanilgan. SHu sababli shahar uylarida yong'in riski juda yuqori bo'lgan. Urbanizatsiyadan chetda qolgan qishloq joylarda hamma qo'shnilar yong'inga uchragan uyni tiklashga yordam berish uchun to'planishgan.

U yerda o'zaro yordam tamoyili amal qilgan. Bundan farqli ravishda, shahar ko'chalarida masalan, to'qimachilar, etikdo'zlar, klerklar yoki baliqchilar yong'in oqibatida uysiz qolgan kishilarning qo'shnisi bo'lishi mumkin bo'lib, ularda qo'shnilarga uyini tiklashga yordam berish uchun vaqti ham bo'lmaydi, amaliy jihatdan yordam ham ko'rsata olmaydi. Buning o'rniga ular ikkita narsa - yong'inga qarshi kurash jamoasi xizmatlarini taqdim etish (ya'ni yong'inning qo'shni binolarga o'tib ketishining oldini olish va yangi yong'inlarni minimallashtirish) va sug'urta qildirgan shaxsga zarur mutaxassislar (quruvchi, duradgor va h.k.) yollash uchun yetarli miqdorda pul to'lashni va'da qilgan sug'urta kompaniyasiga sug'urta mukofoti to'lashga tayyor bo'lgan.

Mulkni va javobgarlikni sug'urta qilishda u sug'urta qildiruvchiga risk ro'y bermaganda kuzatilgandagi bilan bir xilda, undan ko'p ham emas, kam ham emas darajada moliyaviy holat ta'minlashni anglatadi. Maqsad vaziyatni go'yoki risk ro'y bermagan kabi tiklash hisoblanadi. Buning uchun sug'urta qiluvchida pul to'lovlaridan boshqa imkoniyatlar ham bor. Yong'indan sug'urta qilish bilan bir paytda hayotni sug'urta qildirish bo'yicha fondlar ham vujudga kelgan. Hayotni sug'urta qildirish haqida shartnoma tovon to'lash haqida shartnoma hisoblanmagan.

Ushbu shartnomadan maqsad – shartnomada ko'rsatilgan holatlar ro'y berganda belgilangan miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlashdir. O'lim muqarrar ekanligiga hech qanday shubha yo'q: bir kun kelib baribir hammamiz o'lamiz. Lekin har bir alohida olingan kishi qanchalik uzoq umr ko'rishi borasida katta noaniqlik mavjud. Har yili qanchadir miqdorda odamlar o'ladi va o'limi holati yangi tug'ilgan chaqaloqlardan tortib yuz yoshdan oshgan qariyalargacha kuzatiladi (garchi ko'pchilik 80 yoshgacha yashasada). XVII asrning o'rtalariga kelib, hayotni sug'urta qildirish bilan shug'ullangan o'zaro yordam jamiyatlari va sug'urta kompaniyalari vujudga keldi.

Hayotni sug'urta qildirish shartnomasi o'rnini to'ldirish tamoyiliga asoslanishi mumkin emas, chunki moddiy dunyo mavjudligi nuqtai nazaridan inson hayoti bebahodir, buning ustiga, hayotni yo'qotishga «teng baholi» pul miqdorini belgilaydigan odam yoki tashkilotni tasavvur qilish ham qiyin. Shu sababli hayotni sug'urta qildirish har qanday miqdordagi kelishilgan summalarga tuzilgan.

Hayoti sug'urta qildirilgan kishi (yoki bundan qonuniy manfaatga ega bo'lgan shaxs, masalan, er-xotindan biri) o'z daromadining bir qismini sug'urta qiluvchiga to'laydi va yoki uning merosi u o'lgan holatda belgilangan miqdorga oshiriladi, yoki, agar shartnoma imzolangan paytdan boshlab belgilangan muddat o'tgach, tirik bo'lsa, uning o'zi shu pullarni oladi. Hayotni sug'urta qildirish bu –yoki sug'urta qildiruvchi shaxs va uning qarindoshlari uchun, yoki ishbilarmon hamkorlar uchun mablag'lar to'plash usulidir.

Klassik sug'urta turlari – dengiz sug'urtasi, yong'indan sug'urta qildirish va hayotni sug'urta qildirishdan hamda ko'p sonli va xilma-xil sug'urta turlaridan kelib chiqqan.

5.3. Hayot sugurtasining paydo bo'lish va rivojlanish tarixi

Insonlarning hayot va sog'liq riski bo'yicha pul fondlarining shakllanishi va zararni taqsimlash haqida antik davrga xos bo'lgan ko'plab fikr mulohazalar mavjud. Dalillarga ko'ra Rim professional va harbiy jamoalarining kassalarini shuningdek dafn uchun tashkil etilgan kassalarni ilk o'zaro kassalar deb hisoblashimiz mumkin.

Rim jamoasining nizomida oddiy a'zolariga umumiy kassa uchun davriy a'zolik badallarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Bundan maqsad shuki jamoa azolari o'lim yoki baxtsiz holat yuz bergan holatda dafn marosimi xarajatlari, nogironlik xarajatlari, halok bo'lgan fuqaroning oilasiga moddiy yordam ko'rsatish xarajatlarini ushbu kassadan to'lab beradilar.[28]

Shuningdek o'zaro shaxsiy sug'urtaning oddiy ko'rinishi o'rta asrlarda hunarmand sexlar va gildiyalar doirasida mavjud bo'lgan. Hunarmandlarning o'zaro sug'urtasi to'g'risidagi ilk qarashlar Angliyada – X asrda, Germaniyada-XI asrda, Daniyada – XII asrda paydo bo'lgan. Sexlar va gildiyalarning ustavlarida a'zolar o'rtasidagi barcha o'zaro aloqalarni tashkil etish tartibi, shuningdek azolik badallarining to'lanishi va umumiy kassadan xarajatlarni amalga oshirish tartibi keltirib o'tilgan.

Sex kassasi ko'p maqsadli xarakterga ega bo'lib, mulkiy zararlarni qoplash uchun ijtimoiy to'lov bo'lib ham xizmat qilar edi. Sex kassasi dafn xarajatlari, halok bo'lgan shaxsning oilasiga yordam, og'ir kasal va nogironlarga yordam pullarini to'lab berar edi.

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi o'zaro yordam aloqalarida jiddiy tasir ko'rsatdi va ularni haqiqiy sug'urta tamoyillari asosida tashkil etilishiga zamin yaratdi. Qonun bo'yicha XV-XVII asrlar Yevropada sug'urta munnosabatlarining keng tarmog'i o'rnatilgan davr deb ataladi. Sug'urta jamiyati bilan bir vaqtda mulkiy

[28] Insuranse: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insuranse Institut, Great Britain, 1993. 274 p.

risklar va o'zaro tamoyillariga asoslangan hayot sug'urtasiga doir turli tashkilotlar vujudga kela boshladi. 1653 yil Fransiyada tontine deb atalgan umrining qolgan qismi bilan bog'liq lotoreya vujudga keldi. XVI asrning oxirlarida Angliyada hayot sug'urtasining faqatgina o'z azolarining o'limi holatlarida belgilangan summani to'lab beruvchi jamiyati rivojlandi.

Yevropada XVII–XVIII asrlar oralig'ida hayot sug'urtasi dengiz sug'urtasiga qo'shilganligi sababli o'z faolyatining asosiy ko'rinishiga ega bo'ldi. Kema va yuklarning sug'urtasi bilan bog'liq naryadlar kema kapitani bilan hayot sug'urtasi shartnomasi tuzishni taqozo etdi. XVII asr o'rtalarida Londonda Flit-Strit klubida tashkil topgan tahliliy tashkilot Lloyds ushbu turdagi sug'urta faolyati bilan shug'ullanadi. 1663 yilda angliyalik tadbirkor Jeyms Dodson ushbu klubni qabul qilishni rad etdi va ilmiy statistika bazasi sohasidagi hayot sug'urtasi bo'yicha o'z jamiyatini tuzishga qaror qildi.

U Londondagi turli xil qabristonlar bo'yicha barcha malumotlarni to'pladi, vafot etganlarning o'rtacha yoshini, ularning yillar bo'yicha sonini hisobladi va ushbu statistik malumotlardan sug'urta mukofotini hisoblashda foydalandi. Sug'urta tarixida uning ushbu izlanishlari hayot sug'urtasi tashkilotlaridagi ilmiy yondashuvning tadbiq etilishida asosiy vazifasini bajargan deb hisoblanadi.

1740 yilda birinchi ixtisoslashtirilgan sug'urta kompaniyasi. Ishonchli hayot jamiyati" tashkil qilindi. 1762 yilda esa aktuar hisob – kitoblardan va to'lov va badallarning qattiq yo'lga qo'yilgan tartibidan foydalanuvchi birinchi tijorat sug'urta kompaniyasi „Adolatli hayot sug'urta jamiyati" paydo bo'ldi. Aynan shu yerda ijtimoiy risklar sohasidagi sug'urta biznesining uzoq tizimli rivojanishi uchun asoslar yaratildi.

Rossiyada hayot sug'urtasi biroz keyinroq vujudga keldi. XVIII asr oxirlarida davlat buyrug'i bo'yicha ruscha negizda sug'urta munosabatlarini joriy qilishga urinish boshlandi. 1771 yilda yagona g'azna to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra bu tashkilot davlat hayot sug'urtasi bo'yicha ko'rsatmalar berishi zarur bo'lgan, ammo bu amaliyotda o'z tasdig'ini topmagan.

Faqatgina 1860 yilga kelib birinchi o'zaro shaxsiy sug'urta tashkiloti paydo bo'ldi. Bu buyurtmachilar, tipografik va hunarmand ishchilarning o'zaro sug'urta jamiyati hisoblangan. Davriy sug'urta to'lovlarini to'lash orqali jamiyat azolari kasal bo'lgan, ishsiz, tibbiy yordam olish, kam miqdorda pensiya tayinlangan holatlarda mablag' olish huquqini qo'lga kiritadilar. 1863 yilda "Hayot" nomi ostida hayot sug'urtasi bo'yicha birinchi tijorat sug'urta jamiyati tashkil etildi.

6-MAVZU.
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

6.1. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarini tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari.

O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishida davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo‘lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug‘urta an`analari va madaniyati hisobga olingan holda isloh etilgan va milliy sug‘urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin astalik bilan tubdan o‘zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o‘tgan[29].

Respublikamiz sug‘urta bozorining isloh etilishini birinchi bosqichi (1991-1996 yillar) sug‘urta bozoriga xususiy sug‘urta kompaniyalarini kirib kelishi va Davlat sug‘urtasi (Gosstrax)ni transformatsiyasi jarayoni boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, shakllanayotgan tadbirkorlikning huquqiy bazasi bilan qo‘llab quvvatlangan. 1991 yilning o‘zida milliy iqtisodiyotimizni isloh qilinishining qonuniy rasmiylashtirilishiga asos solgan "O‘zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik haqida"gi, "O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida"gi kabi o‘sha davrning progressiv qonunlari qabul qilingan. "O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi" (kodeksning 52-bobi sug‘urta masalalariga bag‘ishlangan) amalga kiritilguniga qadar (mart 1997 yil) "O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida"gi qonun xo‘jalik yurituvchilar tomonidan Respublikamizning o‘ziga xos iqtisodiy konstitutsiyasi sifatida qaralgan.

1992 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qarori bilan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979 yil 9 oktyabrdagi "O‘zbekiston SSR davlat tekshirish organlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 700-sonli qarori bekor qilinib, "O‘zbekiston davlat sug‘urta organlari to‘g‘risida"gi Nizom tasdiqlangan.

Ushbu Nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi ("O‘zdavsug‘urta") va unga bo‘ysunuvchi davlat sug‘urta boshqarmalari va nazorat muassasalari O‘zbekiston Respublikasi davlat sug‘urta organlari hisoblangan. "O‘zdavsug‘urta" O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida bo‘lib, to‘la mustaqil xo‘jalik sifatida ish olib borgan va davlat sug‘urta organlarining yagona tizimini tashkil etgan[30].

Bu davrda nodavlat sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritgan bo‘lsalarda, sug‘urta sohasida Davlat sug‘urta organlari ustun kelgan. Chunki, "O‘zdavsug‘urta" butun Respublika bo‘yicha tarqalgan keng tarmoqli va barqaror davlat strukturasi imidjiga ega bo‘lgan.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 23 dekabrdagi qarorlari bilan amalga kiritilgan, fuqarolarga qarashli mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi va qishloq xo‘jaligi korxonalari mol-mulkining davlat

---

[29] Умаров С.А. Становление и развитие рынка страховых услуг в Узбекистане // Страховое дело, Т.: 2007, №1. С. 32-35.

[30] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. O‘zbekiston davlat sug‘urta organlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami. T., 1992. 12-son, 40-modda.

majburiy sug'urtasi kabi va boshqa sug'urtaga oid qonun hujjatlari "O'zdavsug'urta"ga majburiy sug'urtani amalga oshirishga ustunlik bergan.



6.1-rasm. **O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanish dinamikasi**[31].

[31] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining http://www.mf.uz internet sahifasi ma'lumotlari asosida mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkin raqobatni talab qilinishi va O'zbekiston Respublikasida sekin astalik bilan Davlat sug'urta tashkiloti o'rnida yangi sug'urta tashkilotlarini tuzish zaruriyati tug'ilganligi sababli, 1993 yil 6 mayda tijorat sug'urtasi amalga oshirilishiga. sug'urta faoliyati davlat nazoratiga va milliy sug'urta bozorida chet el sug'urtalovchilarning faoliyat yuritishlariga huquqiy asos solgan hamda "O'zdavsug'urta"ning yakka hokimligini bartaraf etilishiga manba bo'lib hizmat qilgan "Sug'urta to'g'risida"gi qonun amalga kiritildi.

Lekin, 1997 yilga qadar barcha nodavlat sug'urta kompaniyalari xissasiga umumiy sug'urta mukofotlari tushumining bir foizidan ham kam bo'lgan ulush to'g'ri kelgan[32].

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish dinamikasi 7.1-rasmda keltilgan. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida" gi qonuni amalga kiritilganidan so'ng, 1994 yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarning sug'urta himoyasini ta'minlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida» gi 206-sonli qaroriga asosan "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi tashkil etildi.

Shu yilning o'zida MDX davlatlari ichida birinchi bo'lib. ustav sarmoyasi 100 million AQSH dollari bo'lgan O'zbekiston Respublikasiga yo'naltirilayotgan xususiy chet el investitsiyalarini siyosiy tavakkalchiliklardan sug'urtaviy ta'minlaydigan "O'zbekinvest Interneshnl" kompaniyasi tashkil etildi va London shahrida (Buyuk Britaniya) da ro'yxatdan o'tkazildi.

Bundan tashqari Respublikamiz hududida "Uz-AIG" va "Uzbeksug'urta-AON-Lixu" qo'shma sug'urta kompaniyalari, "Umid", "Yo'lovchi" kabi xususiy kompaniyalar va boshqa 60 taga yaqin davlat va xususiy sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritgan.[33]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 26 iyuldagi "Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urta yo'li bilan himoya qiluvchi agentlikni tashkil qilish to'g'risida"gi farmoni bilan tadbirkorlikni va kichik biznesni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik harakati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini hamda kreditorlarga qarz kapitali evaziga kafolatlar berilishini ko'zda tutuvchi dasturlarni ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar vujudga keltirilishi maqsadida 10,0 million so'm ustav jamg'armasi bilan "Madad" sug'urta agentligi tashkil etildi.

1993 yil 7 mayda qabul qilingan "Umumiy foydalanishdagi havo, temir yo'l, ichki suv va avtomobil transporti yo'lovchilarining majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvardagi "Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida"gi, 1994 yil 16 iyuldagi "Ko'mir, neft, gaz qazib olish va geologiya razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat sug'urtasi to'g'risida"gi hamda 1994 yil 30 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasida transport vositalari va boshqa o'zi yurar mashina hamda mexanizmlar egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi to'g'risida"gi qarorlari ayrim sohalarda

---

[32] Мирсадыков М.А. Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны. O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya). T.: Moliya, 2005. 125-b.

[33] B.A Чжен va boshqalar. Bozor qonuniyati asoslari. T.: Toshpoligrafkombinat, 1996. 385-386-b.

risklarni kamaytirishga, ushbu sug'urta turlarini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari strukturasini rivojlanishiga xizmat qilib, sharoit yaratgan holda sug'urta sohasidagi shu davrning sug'urta sohasini rivojlanishi uchun sharoit yaratib bergan muhim qonun hujjatlari bo'ldi.

Ikkinchi boskich (1997-2002 yillar) ni bugungi kunda peshqadam bo'lgan sug'urta bozorining asosiy ishtirokchilari shakllangan bosqich deb atasak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu bosqichda, hukumatimiz rahnamoligida bozor iqtisodiyoti sharoitiga xos yirik sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida" gi farmoniga muvofiq "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasiga aylantirildi.

Kompaniyaning ustav sarmoyasi 60 million AQSH dollariga tenglashtirildi va daromaddan olinadigan soliqdan hamda mulk solig'idan besh yil muddatga ozod qilinib, soliq solishdan ozod qilingan barcha mablag'lar kompaniyaning ustav sarmoyasini hamda uning sug'urta zaxiralari jamg'armasini ko'paytirishga yo'naltirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi PF-1713-sonli farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Davlat sug'urta Bosh Boshqarmasi negizida ochik aksiyadorlik jamiyati shaklida 2000,0 million so'm ustav jamg'armasi bilan "O'zagrosug'urta" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va shu bilan sug'urta sohasidagi davlat monopoliyasiga barham berildi[34]. "O'zagrosug'urta" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi ham daromad solig'i va mulk solig'i to'lashdan besh yil muddatga ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi PF-1713-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 martdagi «O'zagrosug'urta» Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" gi qarori bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, korxonalar va qishloq joylarida yashovchi aholi mulkiy manfaatlarining sug'urta himoyasi kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 31 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi va 1993 yil 23 dekabrdagi "Jamoa, davlat xo'jaliklari va boshqa davlat qishloq xo'jalik korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug'urtasi to'g'risida" gi qarorlari bekor qilindi.

Ko'p o'tmay, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 14 martdagi 144-sonli qarori bilan "Kafolat" Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va Respublika shaharlarida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish "Kafolat" Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi

---

[34] Мирсадыков М.А. Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны. O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya). - T.: Moliya, 2005. – S. 125.

faoliyatining ustuvor sohasi etib belgilandi. Shuningdek, mazkur sug'urta kompaniyasi sug'urtaning majburiy davlat turlarini o'tkazishga vakil qilindi[35].

Shu tariqa, bu davrda sug'urta bozori bo'lindi, ixtisoslashdi. "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashqi iqtisodiy faoliyat va chet el investitsiyalari sohasida. "O'zagrosug'urta" Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda va qishloq joylarida transport egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshirishda, "Kafolat" Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi shahar joylarida transport egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini va boshqa majburiy davlat sug'urtasi turlarini amalga oshirishda hamda shaharlarda joylashgan yuridik hamda jismoniy shaxslarni sug'urtalashda, "Madad" sug'urta agentligi esa tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urtalashda faoliyat ko'rsatib, mashg'ul bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (mart 1997 yil) amalga kiritilishi bilan sug'urta bozorining asosiy va muhim bo'lgan qonun hujjatlari shakllanishi o'z nihoyasiga yetdi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida"gi Qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, sug'urtani majburiy turlarini amalga oshirishdagi Davlat sug'urta tashkilotlarining yakka hokimligini bartaraf etdi va bu holat nodavlat sug'urta tashkilotlari rivojlanishining rag'batlantiruvchi omili bo'lib xizmat qildi.

Bu bosqichni O'zbekistonda sug'urta faoliyatini Davlat tomonidan nazorat qilishni shakllanishi bosqichi deb ham atash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 iyuldagi "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Vazirlikning markaziy apparatida sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi[36].

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan Respublikada faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida qayta ro'yxatdan o'tish majburiyati yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarini qayta ro'yxatga olish to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" ga muvofiq qayta ro'yxatdan o'tkazilgan sug'urta tashkilotlariga berilgan qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma o'ziga xos litsenziyani ifoda etgan[37].

Bu davrda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urta tashkilotlarining aktivlariga doir majburiyatlarini me'yoriy nisbatlariga alohida talablar qo'yildi,

---

[35] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Kafolat" Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. T., 1997. 144-son 56-modda.

[36] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining http://www.mf.uz internet sahifasi ma'lumotlari asosida mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

[37] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nizomi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarini qayta ro'yxatga olish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. T., 1998. №5 40-modda.

sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan sug'urta tashkilotlari faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risida yo'riqnoma tasdiqlandi, davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etilayotgan qurilishlardagi tavakkalchiliklari *majburiy sug'urtasi joriy etildi*, sug'urta tashkilotlari mansabdor shaxslarini attestatsiyadan o'tkazishni, sug'urta agentlari faoliyatini[38], sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta rezervlarini joylashtirilishini hamda hayot sug'urtasidan tashqari sug'urta turlari bo'yicha sug'urta rezervlarini shakllantirishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston sug'urta bozori shakllanib, rivojlanishining uchinchi bosqichi 2002 yil boshida "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi qonun qabul qilinishi bilan boshlanib bugungi kunda ham davom etmoqda[39].

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni sug'urta munosabatlari ishtirokchilarining aniq huquq chegaralarini, sug'urta faoliyati ishtirokchilari tarkibini belgilab berdi. Sug'urta ikkita sohaga, hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish) va umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari) sohalariga bo'linadi. Sug'urta sohalari esa sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta turlari(klasslari)ga bo'lindi.

Sug'urta xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, respublikada sug'urta bozorini taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug'urta tashkilotlarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 31-yanvardagi farmoniga muvofiq mulkchilik shakllaridan qat'iyy nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilindi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsad, ya'ni mazkur tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shahobchalarini tashkil etishga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirildi. Shuningdek, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-xarajatlari daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanishi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli qarori[40] O'zbekiston sug'urta bozorida keskin burilish yasadi. Ilk bor sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlariga qat'iyy talablar belgilandi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom, sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlandi. Sug'urta faoliyatida

---

[38] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nizomi Sug'urta agentlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami, T., 2003. №19. 15-modda.

[39] Мирсалыков М.А. Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны. O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya). T.: Moliya, 2005. S. 125.-126 b.

[40] *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori.* O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. T.: 2002. 27 noyabrdagi 413-son.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotdi, ayrimlariga sug'urta faoliyatini, jumladan majburiy sug'urta turlarini erkinlashtirish, sug'urta bozorida raqobatni shakllantirish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bu bosqichda bir qator sug'urta agentlari faoliyatini, sug'urtalovchilarning aktivlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi, sug'urtalovchining rahbariga va bosh buxgalterlariga bo'lgan malaka talablari me'yorlari, sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi, sug'urtalovchilarning alohida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlari, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p hajmi va to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qayta ishlandi va yangilari qabul qilindi.

Davlat tomonidan sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishiga sharoit yaratuvchi hujjatlardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risi" gi Qarori bo'ldi. Mazkur qaror bilan sug'urta bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar 2006-yil 1-apreldan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etildi.

Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek sug'urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[41] bilan 2007-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturda sug'urtalash, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va normativ-huquqiy bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini, import-eksport operatsiyalarini sug'urtalash, hayotni uzoq muddatga sug'urtalash, shu jumladan, sug'urtaning jamg'arma turlari sohasida sug'urta xizmatlari hajmini, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, respublika sug'urta bozorini xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalash, sug'urta sohasi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur qaror bilan sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalariga (sug'urtalovchilar) ustav kapitali miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi.

Sug'urta bozori kon'yunkturasini o'rganish, uning yuqori darajada ochiq oydinligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, sug'urta xizmatlari hajmlarini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab

[41] O'zbekiston Respublikasi qarori. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007 yil 10 aprel, PQ-618-son.

chiqish, potensial xorijiy investorlarga mablag'larni O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasiga investitsiyalashda ko'maklashish, respublika aholisi o'rtasida sug'urtalash masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish, sug'urtalash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta bozori professional qatnashchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish masalalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lgan O'zbekiston sug'urta bozori professional qatnashchilari uyushmasi tashkil etildi[42].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ – 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi, "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida" gi nizomga hamda "Sug'urta faolyati to'g'risida" gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom hamda sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi tasdiqlandi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2007-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturiga muvofiq 2008-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi.

Sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan muhim hujjat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi PQ-872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi[43].

Mazkur qaror bilan sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi, sug'urtalovchilarga qimmatli qog'ozlar bozorida tegishli litsenziyasiz investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqi berildi.

Prezidentimizning "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasining birgalikdagi qarori bilan "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug'urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

Sug'urta faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-sentyabrdagi 202-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sug'urta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga

---

[42] O'zbekiston Respublikasi qarori. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2007-yil 10-aprel, PQ-618-son.

[43] O'zbekiston Respublikasi qarori. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007 yil 10 aprel, PQ-872-son.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotdi, ayrimlariga sug'urta faoliyatini, jumladan majburiy sug'urta turlarini erkinlashtirish, sug'urta bozorida raqobatni shakllantirish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bu bosqichda bir qator sug'urta agentlari faoliyatini, sug'urtalovchilarning aktivlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi, sug'urtalovchining rahbariga va bosh buxgalterlariga bo'lgan malaka talablari me'yorlari, sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi, sug'urtalovchilarning alohida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlari, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p hajmi va to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qayta ishlandi va yangilari qabul qilindi.

Davlat tomonidan sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishiga sharoit yaratuvchi hujjatlardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risi" gi Qarori bo'ldi. Mazkur qaror bilan sug'urta bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar 2006-yil 1-apreldan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etildi.

Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek sug'urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[41] bilan 2007-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturda sug'urtalash, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va normativ-huquqiy bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini, import-eksport operatsiyalarini sug'urtalash, hayotni uzoq muddatga sug'urtalash, shu jumladan, sug'urtaning jamg'arma turlari sohasida sug'urta xizmatlari hajmini, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, respublika sug'urta bozorini xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalash, sug'urta sohasi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur qaror bilan sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalariga (sug'urtalovchilar) ustav kapitali miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi.

Sug'urta bozori kon'yunkturasini o'rganish, uning yuqori darajada ochiq oydinligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, sug'urta xizmatlari hajmlarini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab

[41] O'zbekiston Respublikasi qarori. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007 yil 10 aprel. PQ-618-son.

chiqish, potensial xorijiy investorlarga mablag'larni O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasiga investitsiyalashda ko'maklashish, respublika aholisi o'rtasida sug'urtalash masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish, sug'urtalash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta bozori professional qatnashchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish masalalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lgan O'zbekiston sug'urta bozori professional qatnashchilari uyushmasi tashkil etildi[42].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ – 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi, "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida" gi nizomga hamda "Sug'urta faolyati to'g'risida" gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom hamda sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi tasdiqlandi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2007-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturiga muvofiq 2008-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi.

Sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan muhim hujjat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi PQ-872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi[43].

Mazkur qaror bilan sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi, sug'urtalovchilarga qimmatli qog'ozlar bozorida tegishli litsenziyasiz investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqi berildi.

Prezidentimizning "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasining birgalikdagi qarori bilan "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug'urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

Sug'urta faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-sentyabrdagi 202-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sug'urta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga

---

[42] O'zbekiston Respublikasi qarori. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – T., 2007-yil 10-aprel. PQ-618-son.

[43] O'zbekiston Respublikasi qarori. Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2007 yil 10 aprel, PQ-872-son.

kirishiga rozilik berildi. Bu o'z o'rnida sug'urta nazorati borasidagi xalqaro tajribalar respublikamizga kirib kelishiga va sug'urta bozori rivojlanishiga o'ziga xos zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston sug'urta bozori sug'urta sohasidagi davlat siyosati tufayli rivojlanib, shakllangan va bugungi kunda sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha eng muhim va asosiy huquqiy baza yaratilgan. U sug'urta faoliyatining turli jihatlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek bir qator boshqa sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iboratdir.

Bayon qilinganlarning hammasi sug'urta sohasi, ya'ni O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishi, shu jumladan sug'urtalash ishlari amaliyoti, xususan sug'urta anderraytingi rivojlanishi uchun asos bo'lib, shart-sharoit yaratmoqda. Oxirgi yillar davomida aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchi ortib, sug'urta ishiga jiddiy yondoshilmoqda. Respublikamizdagi sug'urta kompaniyalari xodimlari professionalliklari ham sezilarli darajada oshdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, milliy sug'urta bozori rivojlanishi davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo'lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug'urta an'analari va madaniyati hisobga olingan holda bosqichma-bosqich isloh etilgan va O'zbekiston sug'urta bozori sug'urta sohasidagi davlat siyosati, rahnamoligi va qo'llab-quvvatlanishi (soliq imtiyozlari berib borilishi, yangi sug'urta kompaniyalari tashkil etilishi va x.k.) tufayligina shakllanib rivojlangan.

6.2. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari rivojlanishining hozirgi holati

O'zbekiston sug'urta bozori bir necha yildan beri barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma'lumki, mamlakat moliya sektorining, shu jumladan, sug'urta sohasining rivoji mamlakatning umumiqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'langan. Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog'liqligi sababli, ushbu soha mamlakatdagi umumiqtisodiy o'zgarishlarga juda tez ta'sirchan hisoblanadi.

O'zbekistonning hozirgi zamon iqtisodiyotida sug'urta tizimi strategik ahamiyat kasb etmoqda, buning boisi sug'urta tizimining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sug'urta bozorining davlat boshqaruvi idoralari (organlari) tomonidan mamlakatning bozor infratuzilmasining ajralmas qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqilayotganligidadir.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan sug'urta sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda eng tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Bozor bir necha yildan beri barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma'lumki, mamlakat moliya

sektorining, shu jumladan, sug'urta sohasining rivoji mamlakatning umumiqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'langan. Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog'liqligi sababli, ushbu soha mamlakatdagi umumiqtisodiy o'zgarishlarga juda tez ta'sirchan hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy sug'urta bozorining rivojlanishi asosan yalpi sug'urta mukofoti hajmi ancha oshishi bilan tavsiflanadi. Monopoliyaga asoslangan davlat sug'urta tizimidan bozor munosabatlariga o'tildi.

2016-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston sug'urta bozorida 31 ta sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, ulardan 28 tasi umumiy sug'urta sohasida (Non-Life Insurance), 3 tasi hayot sug'urta sohasida (Life Insurance) faoliyat yuritmoqda. Mavjud kompaniyalarning tashkiliy-huquqiy shakli va miqdoran oxirgi besh yil ichidagi o'zgarishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kundagi sug'urta kompaniyalarining ko'p qismi MCHJ shaklida tashkil etilganligini va sug'urta kompaniyalari miqdori oxirgi besh yil ichida yil sayin tebranayotganligini 7.1-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra yuridik maqomga ega bo'lgan sug'urta agentlari soni 1977 dona yetgan bo'lsa, jismoniy shaxs maqomiga ega bo'lgan sug'urta agentlari soni 5659 donaga yetdi.

6.1-jadval.

O'zbekistonda faolyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari soni va ularning tashkiliy huquqiy shakli dinamikasi[44]

Yillar	Jami sug'urta kompaniyalari	Milliy (davlat) kompaniyalar	Aksionerlik jamiyatlari	Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar	SHo'ba korxonalar
2003	20	1	10	8	1
2004	21	1	10	8	2
2005	23	1	10	10	2
2006	25	1	10	12	2
2007	27	1	10	14	2
2008	31	1	10	18	2
2009	32	1	10	19	2
2010	33	1	10	20	2
2011	37	1	10	24	2
2012	33	1	10	20	2
2013	33	1	10	20	2
2014	31	1	10	18	2
2015	31	1	10	18	2

[44] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining http://www.mf.uz internet sahifasi ma'lumotlari asosida mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

Oxirgi yillar davomida aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchi ortib, sug'urta ishiga jiddiy yondoshilmoqda. Respublikamizdagi sug'urta kompaniyalari xodimlarining professionalliklari ham sezilarli darajada oshdi. 7.2-jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan.

O'zbekistonda sug'urta bozorining ijobiy tomonga rivojlanayotganligini ifoda etiladi: sug'urta kompaniyalari soni deyarli o'zgarmagan holatda, barcha asosiy ko'rchatkichlarning keskin o'sishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida ko'p vaqtdan buyon yirik Davlat sug'urta kompaniyalari ilg'orlikni qo'ldan boy bermay kelishmoqda. O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik sug'urta tashkilotlari sifatida "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini, "O'zagrosug'urta" va "Kafolat" aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarini keltirish mumkin.

Lekin shunday bo'lsada ularning bozordagi ulushi pasayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin (7.2-rasm).

6.2-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda[45]

Yil	Sug'urtalovchilar soni	Sug'urta mukofotlarining hajmi	Sug'urta javobgarligining hajmi	Sug'urta qoplamalarining hajmi
2008	33	88,1	35715.6	15,5
2009	34	146,1	54786,9	20,7
2010	33	171,4	69139,7	27,0
2011	37	212,1	91790,6	44,5
2012	33	285,9	111265,1	46,0
2013	33	338,5	161580,4	66,9
2014	31	439,1	240519,7	74,6
2015	31	551,5		111,0

Ma'lumki, bugungi kunda milliy sug'urta bozori tez va mustahkam sur'atlarda o'sib borayotganligini namoyish etmoqda. Uning sifat tavsifi yaxshilanib, YAIM dagi sug'urta xizmatlari ulushi ortib, sug'urta operatsiyalari hajmlari to'xtovsiz o'sib bormoqda, sug'urtalovchilar esa respublika iqtisodiyotida yanada sezilarli o'rin tutmoqda.

[45] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining http://www.mf.uz internet sahifasi ma'lumotlari asosida mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.



6.2-rasm. **Sug'urta mukofotlarini yig'ish bo'yicha 2015 yilda bozor yyetakchilari.**[46]

Tahlillarga ko'ra, respublikamiz bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi qamrovi oxirgi besh yilda sezilarli darajada oshgan. Bu holat sug'urta kompaniyalarni sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi.

6.3. O'zbekiston respublikasida sug'urta xizmatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari

O'zbekiston sug'urta bozorini, rivojlangan davlatlar miqyosiga chiqarish uchun sug'urta tizimini davlat tomonidan tartibga solish lozim. Ushbu masalani yechish uchun sug'urta tizimining quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratsak maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- ✓ to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan sug'urta operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobiga bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, sug'urta ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini qoplaydi;
- ✓ sug'urta ishida o'sib borayotgan raqobat sug'urta kompaniyalarning qo'shilib ketishiga yoki qayta sug'urtalashni rivojlantirishga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. Bu hodisa respublika sug'urta xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan xorijiy kompaniyalarning paydo bo'lishiga ham yordam beradi;
- ✓ bu ananaviy sug'urta xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan sug'urtadan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. YA'ni

[46] Statistik ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

fuqarolarga xizmat ko'rsatishda turli xil tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar;

- ✓ sug'urta ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli istemolchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarning tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qulayligi (ayniqsa, sug'urta to'lovlarni olish va qoplamalarini to'lashni) mijozlarning extiyojlariga diqqat-e'tibor qaratilishiga nisbatan, sug'urta kompaniyalariga nisbatan tobora qattiq talablar kuchaya boshlaydi.

Sug'urta tizimi hozir hal qilinishi qiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuv sharoitida turubdiki, unda sug'urtalanuvchilardan qo'yilmalar (sug'urta pullari)ni jalb qilishda sug'urtalovchilar ekspansiyasi va mijozlarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud.

Kafolatlashning sifati, tezkorligi va qulayligi moliya institutlariga qo'shimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. Qo'yilmalar faoliyatining mijozlar tomonidan boshqarilmasligi esa, sug'urta kompaniyalariga bu qo'yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki omilning o'zaro uyg'unligi kreditlash hajmlarining o'sishi uchun sharoit yaratadi. Biroq, bu boshqarilmaslik g'oyasini kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o'rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. SHuning uchun ham sug'urta tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

Eng kichik sug'urta tashkilotlaridan to yirik davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalariga, sug'urta bozorining barcha subyektlari o'zaro faoliyat ko'rsatishi va o'zaro bir birini to'ldirib turishini ta'minlaydigan sug'urta ishini ma'lum bir ko'rinishda birlashtirish talab etiladi. Bizning yirik sug'urta kompaniyalarimiz o'z sug'urta ishlari chegarasidan tashqariga chiqishi va iqtisodga axborot xizmati ko'rsatishi, sug'urta xizmatchilari mahorat darajasini konsalting xizmatlari ko'rsatish evaziga oshishi kompleks ahamiyat kasb etishi kerak.

Biroq yuzaga keladigan qaltis holatlar ishonchsiz va samarasiz boshqariladigan sug'urta kompaniyalariga nisbatan ma'lum bir darajada tozalovchi tadbir bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro andozalar talablariga javob bermaydigan sug'urta kompaniyalari mavjudligini inobatga olib, ularni mustahkamlash bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirish kerak. Sug'urta ishida xalqaro andozalarga erishish bo'yicha ishni, mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, sof nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda amalga oshirish kerak.

Xalqaro andozalarga mos keluvchi kompaniyalar tuzish dasturi ikki asosiy qismdan tashkil topishi mumkin:

Xalqaro andozalarga mos keluvchi kompaniyalar sifatida malaka berilgan sug'urta kompaniyalari tomonidan rioya qilinishi kerak bo'lgan talablar va imtiyozlar majmuidir.

Xalqaro darajadagi sug'urta kompaniyalariga bo'lgan talablar quyidagilar:

- ✓ sug'urta hisob-kitoblarini ommabobligini ta'minlash;
- ✓ sug'urtaning ishlamayotgan aktivlarini qisqartirish;
- ✓ sug'urta zaxiralarini ishlaydigan aktivlarga aylantirish;
- ✓ sug'urta turi, qo'yilmalar summasi, mijozlar toifasiga qarab zaxiralar me'yorini differensiatsiyalash; qo'yilma qoldiqlari o'zgarishlarini aniqroq ilg'ash imkonini beradigan zaxira hisob raqamlarini tez-tez tartibga solib turish;

✓ sug'urtalash xavf-xatarlarini to'g'ri baholash layoqati;

✓ mablag'larni korxonalar, banklar aksiyalariga joylashtirishda sug'urta kompaniyalari uchun rag'batlar tizimini ishlab chiqish;

✓ sug'urta xizmati ko'rsatishda "zichlik me'yori" ni jahon andozalari darajasida ta'minlash;

✓ sug'urta sarmoyasini yo'qotish xavf-xatarisiz mijozlar mablag'lari hisobidan portfelli investitsiyalarni keng tarqatish;

✓ sug'urta kompaniyalarining bozor axloqi taktikasida o'rinlarning ko'prog'ini ishonchli moliya vositalaridan foydalanishga berilishi;

✓ xorijda sug'urta kompaniyalari tarmog'ining mavjudligi;

✓ sug'urtada tashqi xavf xatardan himoya qilishning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqish lozim;

✓ asosiy diqqat-e'tibor xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga, sug'urta mahsulotlarining turli tumanliligiga (sug'urta bozoriga xizmat ko'rsatuvchi xizmatlarni va halol reklamani rivojlantirishga qaratish kerak);

✓ sug'urta kompaniyalari, o'zlarining katta kichikligi, joylashgan o'rni, xodimlarning malakasi, mijozlarning tarkibi, sug'urta turiga va boshqalarga qarab operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashishlari kerak;

Ko'pchilik muammolar boshqaruv sifatiga – sug'urta menejmentiga, tashkilot tuzilmasiga, moliyaviy oqimga, hisob-kitobga, iqtisod tahliliga, biznes rejalashtirishga va shuningdek xodimlar malakasiga chambarchas bog'liqdir.

Sug'urta tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot o'zida sug'urta operatsiyalari, xizmatlari va ishlarini aks ettiradi. Sug'urta mahsulotlarini sotishdagi strategik yo'nalish, sug'urta taraqqiyotini muhim muammosi bo'lib hisoblandi.

Umumiy ma'nodagi ularning funksional obyekt yo'nalishli, asosiy maqsadi bir guruh sug'urta kompaniyalari mahsulotlarini sotish yo'li bilan yoki mijozlar ma'lum guruhining alohida sug'urta mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yo'li bilan daromad olishdan iborat sug'urta komnapiyalarga ajratish mumkin.

Sug'urta xavf-xatari sug'urta taraqqiyotini belgilaydigan kuchli omillar qatoriga kiradi, xavf-xatarlarni oldini olish va uni boshqarish sug'urta kompaniyalarining yuragi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta uchun eng katta xavf-xatar bu salbiy og'ishlar, ya'ni yo'qotish tavakkalidir. Xavf-xatarlarning barcha turi sug'urta mahsulotlarining mol qiymati xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Sug'urta kompaniyalarining nazarida "xavf-xatarlarni oldini olish chora tadbirlari" uchun ma'lum miqdorda doimiy ravishda mablag'lar sarflash chetda qolmasligi kerak.

Sug'urtaning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat:

✓ bir tomondan moliyaviy xizmat ko'rsatish yo'li bilan savdo-sotiq ishini amalga oshirishga o'xshaydi;

✓ ikkinchi tomondan, u shartnomaviy munosabat hisoblanib, shu munosabat yordamida tomonlardan biri o'ziga yetkazilgan zarar uchun shartnomaga ko'ra haq undirib oladi;

Sug'urta o'z mohiyati jihatidan:

✓ sug'urta faoliyatning alohida sohasi bo'lib, uning ishi banklarda olib boriladigan ishga o'xshaydi;

✓ sug'urta ijtimoiy psixologiyaga ham bog'liq;

✓ sug'urta faoliyati maxsus qonunlar vositasida belgilab qo'yiladi;

✓ sug'urta jarayonlari, odatda aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda sug'urta qildiruvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari fuqarolik to'g'risidagi qonun hujjatlarining normalari bilan himoyalangan bo'lib, bunda nizolar yuzaga kelgan hollarda ular Davlat nazorati va fuqarolik sudi organlariga hal etish uchun o'tkaziladi.

To'lovga qodir bo'lmagan sug'urta tashkilotlarining mijozlariga sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun sug'urta turlari bo'yicha kafolatlovchi jamg'armalar tizimini yaratish iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash va sug'urtalovchilar malakasini oshirishning yetarlicha rivojlangan tizimi mavjud emasligi, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining sifatida o'z aksini topadi. Gumanitar yo'nalishdagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida sug'urta tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish zarur.

Bunda o'quv muassasalarining malakali professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Ushbu maqsadda sug'urta mavzusi bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiyalarni, sotsiologik tadqiqotlarni, dissertatsiya ishlarini tayyorlashni tashkil etish zarur.

Kadrlar tayyorlash va sug'urtalovchilar malakasini oshirish sifati sug'urta nazariyasi amaliyotini ochib beruvchi o'quv – uslubiy va ilmiy adabiyotlarning yaratilishi bilan chambarchas bog'liq. Sug'urta tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislari malakasini oshirish bo'yicha sug'urta faoliyatining turli masalalari yuzasidan muntazam seminarlar o'tkazish, chet el sug'urta kompaiyalarida stajirovkalar o'tash amaliyotini saqlab qolish va yanada rivojlantirish zarur.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, taklif etilayotgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda o'rta muddatli istiqbolda davlatning sug'urta sohasidagi siyosatini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ular sug'urta himoyasining samarali tizimi bo'yicha qator dasturlarni ishlab chiqish, sug'urtaning yangi turlari, sug'urta texnologiyalarini joriy etishni faollashtirish, sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish, sug'urta nazoratining shakllari va usullarini takomillashtirishga imkon beradi.

7-MAVZU.
SUG'URTA MUNOSABATLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

7.1. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning umumiy tavsifi va asoslari.

Sug'urta tizimining joriy etilishi ishlab chiqarish sektoridagi sug'urtaning barcha turlarini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan barqaror sug'urta industriyasini rivojlantirish markazlashgan rejali iqtisodiyotdan tranzit iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tishidagi asosiy jihatlardan biridir.

Albatta har qanday o'zgartirishlarda ham ma'lum jihatli noaniqliklar bo'ladi, ayniqsa iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy o'zgartirishlardagi juz'iy ehtiyotsizliklar kattadan-katta salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham bu ko'rsatmalar orqali yuzaga keladigan noaniqlik va mavhumlikning o'sib borishi esa iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Albatta sug'urta noaniqliklardan butunlay xalos bo'la olmaydi, ammo u ma'lum ma'noda xususiy korxonalarning ham, shuningdek oddiy fuqarolarning ham moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Sug'urta – ishlab chiqaruvchi kompaniya egalarini ortiqcha tashvishlardan xalos etib, ularning asosiy e'tiborini ishlab chiqarish tavakkalchiligaga qaratish uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek sug'urta yangi, yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan korxonalarni tuzish jarayonini moliyaviy ta'minlashda, qolaversa butun iqtisodiy rivojlanish davrida muhim ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida hamda uzoq muddatli korxonalarni har xil hodisalardan himoya qilishda o'z xizmatini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz sug'urta tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu tarmoqni izchil taraqqiy ettirish hukumatning doimo diqqat e'tiborida bo'lib keldi.

Sug'urta kompaniyalarining faoliyati boshqa turdagi xo'jalik subyektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda yetkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtalovchilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda 3 ga bo'lishi mumkin. Ular quyidagilar: maxsus nazorat organi, soliq va majburiy sug'urtani joriy qilish.

Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliqqa tortish, allohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug'urtalashni joriy qilish va vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bozor tizimi mexanizmi yaxshi yo'lga qo'yilgan va o'z-o'zidan tartibga soluvchi yashirin imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, tez-tez hamda muntazam ravishda izdan chiqib turadi. Ba'zan bu izdan chiqishlar shunday ko'lamda ro'y beradiki, oqibatda iqtisodiyot barqaror muvozanat holatiga kelishi uchun ko'p vaqt talab qilinadi.

Bozor tizimida sug'urta faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi va davlatning o'rni ijobiy natija beradi. Vaholanki iqtisodiyotga davlatning aralashuvi zarurligini XVIII asrdayoq markantilistlar isbotlab berishgan edi. Baxslashayotgan tomonlardan biri sug'urta faoliyati tizimi o'zini-o'zi boshqarish va tartibga solish mumkinligini isbotlashga jon-jahdi bilan urinib, davlat statistika va nazoratchi vazifasini o'tashi lozim deydi.

Boshqa tomon esa tamoman buning aksini isbotlashdan charchashmayapti. Ularning fikricha, bozor tizimida sug'urta faoliyatini, o'zini-o'zi tartibga solish qobilyati shunchalik pastki, u butun iqtisodiyot va uning ayirim tarmoqlari tang holatga tushmasdan tiklanib olishini ta'minlay olmas va iqtisodiy taraqqiyot darajalari tuzilma jihatdan baravar bo'lishini kafolatlay olmasligi mumkin.

Sug'urtaning o'zini-o'zi boshqara olmasligini isbotlashga uringan iqtisodiy tafakkurdagi ikkinchi oqim XX asrda yuzaga keldi. Bu paytga kelib kapitalistik bozor tizimi qariyib 400 yildan beri rivojlanib kelayotgan edi. Lekin ayni chog'da uning kamchilik va nuqsonlari ham namoyon bo'lgan edi. Tarixning o'tish va keskin burilish darajasida davlatning ahamiyati ayniqsa katta bo'ladi. Bunda asosan bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tish va jahon moliyaviy inqirozi davrlari nazarda tutilmoqda.

Aytib o'tish joizki sanoati rivojlangan mamlakatning sug'urta tizimi ko'plab ishlab chiqarilgan normativ hujjatlarning yetarliligi, sug'urtalanuvchi guruhlarning ehtiyojlarini qanoatlantirilishiga aniq qaratilganligi bilan ajralib turadi. Unga bir tomondan sug'urtalanuvchilarning eng murakkab talablariga javob bera oladigan, moslashgan va ishlab chiqarilgan sug'urta qoidalari, yo'riqnomalari xosdir.

Ikkinchi tomondan esa u jamiyat oldida yuzaga kelayotgan nihoyatda muhim muammolarni ba'zi hollarda hal eta olmaydi. Bundan tashqari, sug'urtaning quyida keltirilgan muammolarini hal qila olmasligi sug'urta faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligini tabiiy ravishda shart qilib qo'yadi.

1. Sug'urta taraqqiyoti ko'lamini keskin rivojlanib borishi xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Sug'urta taraqqiyoti shunchalik ko'p qirrali va shunday muammolarni o'z ichiga oladiki hatto eng yirik ayrim kompaniyalar ham ularni uddalay olmaydi. Sug'urta faoliyatini siyosiy moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan nazorat qilish mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega.

2. Sug'urta sohasining rivojlanishi, o'z mohiyatiga ko'ra raqobatli iqtisodiyotning bo'lishini inkor etadigan monpoliyalar, ulkan kompaniyalar vujudga kelishiga olib keladi. Vaholanki, ularni ana shu iqtisodiyot dunyoga keltirgan.

3. Bozor iqtisodiyotining siklik rivojlanishi vaqt-vaqti bilan ijtimoiy va iqtisodiy tanglik oqibatida har xil o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Faqat davlatgina o'zining siyosiy, iqtisodiy, qonuniy mexanizmlari orqali muvozanatni barqarorlashtirishi yoki muvozanatning tiklanishiga yordam berishi mumkin.

4. Davlat o'zini nazarga olishga majbur qila olsagina, hech kimga va hech nimaga bog'liq bo'lmagan iqtisodiy qudratga, aniqroq aytganda mulkka ega bo'lsagina ichki hamda tashqi siyosatni samarali olib borishi mumkin. Davlat ushbu qudrat asosida o'zining sug'urta faoliyati nazoratini ishlab chiqarishini tashkil etadiki, u boshqa ishlab chiqarishlardan yirikroq, turg'unroq, baquvvatroq va moslashuvchanroq bo'ladi. Binobarin, unda mulkchilikning boshqa shakllaridagi

korxonalar bilan nafaqat davlat byudjeti yo'lida, balki iqtisodiy faoliyat subyektlari darajasida ham munosabatlar avj oladi.

5. Hozirgi zamon sug'urta faoliyatida rivojlanish ko'lami kattalashibgina qolmasdan, uning salbiy oqibatlari ham namoyon bo'ladi, ya'ni sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatilgan xizmatlari yuzasidan har xil xatoliklarga yo'l qo'yilishiga olib kelmoqda. Umuman olganda bu kamchiliklarni oldini olish chora-tadbirlari albatta davlat tomonidan nazorat qilinishi lozim.

6. Davlat o'zining ijtimoiy siyosati bilan ham, iqtisodiyoti bilan ham kuchlidir. U moddiy boyliklarning taqsimlanishi va ayniqsa qayta taqsimlashni tartibga soladi, fuqarolarning qonun oldidagi tengligini, shaxsiy hamda iqtisodiy erkinligini ta'minlaydi, taxqirlash, kamsitish, haq-huquqini cheklab qo'yishning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashadi va hokazo.

Davlat zimmasiga bozorda faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar va sug'urtalanuvchilar huquqlarini muhofaza qilishdek jiddiy vazifa yuklanadi. Bozor munosabatlariga asoslangan, kattagina tanlash erkinligini taklif etgan sanoatli jamiyatni huquqiy tizimsiz, qonun ustuvorligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi taniqli ingliz sotsiologi Karll Popper. Subyektlar iqtisodiy faoliyatlarini yaxshi amalga oshirishlari uchun qonun bilan himoyalangan bo'lishlari zarur.

Sug'urta bozori tashqi ta'sirsiz, o'z-o'zidan yuzaga kelishiga qaramay, jamiyat oldida turgan iqtisodiy vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan mexanizmdir. Biroq bu hol davlat o'ynashi lozim bo'lgan rolni inkor etmaydi. Jamiyat iqtisodiy tuzilishining eng mukammal ko'rinishi turli muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan foydalanishni nazarda tutadi.

7.2. O'zbekiston respublikasida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida sug'urta sohasini davlat tomonidan tartibga solishni davlat sug'urta nazorati instituti doirasida amalga oshiriladi. Uni tashkil qilish va rivojlantirishda O'zbekiston xorijiy tajribaning keng vositalaridan foydalanadi va shu vaqtning o'zida davlat tomonidan tartibga solishning milliy yo'nalishlarini kiritadi.

Jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishida tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida muayyan siyosat doirasida amalga oshiriladigan davlat tomonidan tartiblash muhim rol o'ynaydi. Davlatning o'z vazifa va funksiyalarini bajarishiga, o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishiga imkon beradigan qurol, dastaklardan biri - sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishdir[47].

Sug'urtaning asosiy maqsadi bu yuridik va jismoniy shaxslar uchun yuqori sifatli sug'urta xizmati ko'rsatishdir, shu sababli sug'urta faoliyati dunyo bo'yicha davlat nazorati ostida. Davlat xalq xo'jaligi faoliyatining muhim tarmog'i – sug'urtani e'tibordan chetda qoldirishi mumkin emas edi. U sug'urta jamiyatlarining faoliyatini o'z nazoratiga olishi kerak edi. Davlat nazoratining zarurligi sug'urtaviy bitimlarning

[47] M. Umaraliyev. Sug'urta - bozor iqtisodiyotining muhim sharti // Xalq so'zi, 2002 yil 31 may.

mohiyatidan kelib chiqadi. Sug'urta har bir fuqaro to'g'ri tushuncha hosil qilishi mumkin bo'lgan shunchaki oddiy narsa emas. Sug'urta jamiyatlarning faoliyati hatto ehtiyotkor va mulohazali xo'jayin uchun ham tushunarsiz va noaniq bo'lgan asoslar ustiga qurilgan[48].

Ishning yana bir murakkab tomoni shundaki, sug'urta shartnomasi ba'zi hollarda uzoq muddatga tuziladi (shaxsiy sug'urta). Sug'urtalanuvchilardan sug'urta badallarini kechiktirmay olib turgan sug'urta tashkiloti, masalan, bir necha yildan keyin sug'urta hodisasi yuz berganda o'z mablag'larini bajarishga qodirligiga qattiq, puxta ishonch bo'lmog'i zarur. Hayot sug'urtasidan sug'urtalanuvchi bilan sug'urta korxonasi o'rtasida uzoq muddatli, chambarchas bog'lanish yuzaga keladi. Sug'urta tushunchasidan bexabar sug'urtalanuvchi o'z manfaatlarini himoya qila olmaydi. Uning manfaatlarini himoya qilish uchun davlatning yordami kerak bo'ladi[49].

Ish yana shu bilan murakkablashadiki, sug'urta sohasidagi suiste'mol unga yo'l qo'ygan korxonalar uchun halokatli bo'libgina qolmasdan, balki aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini salbiy tomonga o'zgartiradi ham. Vijdonsiz sug'urtalovchilarning raqobati hatto eng obro'li sug'urta korxonasiga ham zarar yetkazish mumkin. Shundan ravshanki, sug'urtalanuvchilargina emas balki sug'urtalovchilarning o'zlari ham sug'urta nazoratidan manfaatdorlar, chunki bunday nazorat yashay olmaydigan korxonalarning g'irrom raqobatidan muhofaza qiladi.

Xatolar, uquvsizlik yoki vijdonsizlik bilan ish yuritish oqibatlari oradan ko'p yillar o'tgandan keyin ham sug'urtaga ta'sir ko'rsatadi. Bu hol obro'li, katta tashkilotlar uchun g'irrom raqobatchilar bilan kurashni qiyinlashtiradi, boshqa tomondan esa ana shu yashirin buzilish davrida sug'urtalanuvchilarni aldovga olib kelishi mumkin.

Sug'urta kompaniyalarining faoliyati boshqa turdagi xo'jalik subyektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda yetkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtalovchilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

O'zbekistonda davlat sug'urta nazorati tushunchasini davlat tomonidan tartibga solish tizimining qismi sifatida ta'riflash mumkin. Ushbu tizim sug'urta faoliyati subyektlarini sug'urta ishi sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilishi, sug'urta faoliyatini samarali rivojlantirish hamda sug'urta qildiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar va davlatning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilishni ta'minlash uchun huquqiy hujjatlarning buzilishining oldini olish, ogohlantirish maqsadida ularni nazorat qilishdan iborat.[50]

---

[48] Турбина К.Е. Тенденции развития мирового рынка страхования. М.: АПКИПК. 2000. С.56.

[49] Зубец А.Н. Страховой маркетинг. М.:Анкил. 1998. С.106.

[50] Б.Б. Ашрафханов, М.А. Мирсадыков, Развитие страхового законодательства республики. // Рынок деньги и кредит. 2002. №11-12. С.21.

Sug'urta faoliyatini samarali tarzda nazorat qilish va boshqarish mexanizmini yaratish hukumatning asosiy maqsadlaridan biridir. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish jarayoni 8.1- rasmda keltirilgan.



7.1-rasm. **Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish jarayoni**[51]

O'zbekiston sug'urta sohasida davlat nazorati zarurligi bir qator omillarning ta'siri bilan bog'liq. Ularning asosiylari, mening fikrimcha quyidagilardir:

- sug'urta sohasi moliyaviy tizim institutlarining qismi sifatida, bir tomondan va mulkchilikni himoya qilish institutlari qismi sifatida ikkinchi tomondan o'ziga xos rolni o'ynaydi;

- jamoat manfaatlari nuqtai nazaridan sug'urtalovchi sug'urta xizmati sifatiga mos kelmaydigan narxni belgilashi, tuzilayotgan shartnomalarning mazmuni va shartlariga nisbatan sug'urta qildiruvchining ogoh emasligidan suiste'mol qilish ehtimoli mavjud. Bularning xato va noaniqliklari sug'urta hodisasi yuzaga kelganidan so'ng aniqlanishi mumkin;

- sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish zarurligini aniqlovchi sabablarning guruhi sug'urta kompaniyasi sug'urta qildiruvchi oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmaganida, umuman iqtisodiyot uchun sug'urta kompaniyalarining to'lovga qodir emasligi yoki moliyaviy nobarqarorligi oqibatlari bilan bog'liq. Bu nafaqat sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan mol-mulk yoki

[51] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

ekologik zararni tiklash bilan, balki sug'urta bozorining yaroqliligi va istiqbollari oqibatlariga bog'liq.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda davlat sug'urta nazoratiga sug'urta bozorini tartibga solishning jahon amaliyotiga javob beradigan vazifalar yuklatilgan. Bular:

- litsenziyalash;
- to'lovga qodirligini tekshirish va qaltisliklarning oldini olishga ko'maklashish;
- sug'urta jamg'armalaridan foydalanish nisbati va yo'nalishlarini belgilash;
- sug'urta maydonidan chiqish shartlarini aniqlash;
- iste'molchilar huquqlarining to'liq amalga oshirilishi va sug'urta xizmatlari - sifatini ta'minlashga ko'maklashish;
- sug'urta faoliyatining oydinligini ta'minlash.

O'zbekiston sug'urta faoliyati amaliyotida litsenziyalash institutining asoslari "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Nazorat faoliyati mantig'i litsenziyalash instituti shakllanishi asosida litsenziyalash subyektlari ajratilishi, litsenziyalarni berish berishdan voz kechish mezonlari, uning amal qilishini to'xtatib qo'yish, nazorat organining mumkin bo'lgan subyektiv yondashishi holatida litsenziyalash subyektlarining manfaatlarini tiklash jarayonini ko'zda tutadi.
Sug'urta nazorati rivojlanishining hozirgi zamon bosqichi uyg'un sug'urta tizimini rivojlantirishga bo'lgan talabni qonuniy ravishda belgilab berdi.

Buning uchun esa sug'urta biznesini olib borishning xalqaro talablarga javob beruvchi sug'urta xizmatlari ro'yxati keng bo'lmog'i lozim. Sug'urta xizmatlarining O'zbekiston bozorida olg'a bosishi mulkchilikning turli shakllaridagi tadbirkorlik faoliyati subyektlarining manfaatlari himoya qilinishini, qo'yilgan mablag'lar qaytarilishi kafolatlanishini hamda ko'zda tutilmagan turli tavakkalchiliklar kamayishini ta'minlamog'i zarur. Ana shundagina sug'urta tashkilotlari makroiqtisodiyot jihatidan yanada barqarorlashtirish, davlatimiz iqtisodiy hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish borasida respublikamiz oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilishga yordam bergan bo'ladi.

Sug'urta ishi subyektlari faoliyatini sug'urta nazorati shakllari va usullarini takomillashtirish o'z ichiga sug'urta huquqini buzish bo'yicha ogohlantiruvchi chora-tadbirlarning samarali amaliyotida rivojlantirish bo'yicha majmuali tadbirlarni oladi. Davlat nazorati tizimini takomillashtirishda u tartibga solishning shakllangan modeli yo'nalishida ko'rib chiqilishi mumkin, bu esa quyida ko'rib chiqiladi:

Sug'urta huquqi – majmuali institutdir. U sug'urta bilan bog'liq moliyaviy, ma'muriy, fuqarolik, ijtimoiy ta'minot huquqi me'yorlarini birlashtiradi. U nafaqat sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi, balki sug'urtalovchi va davlat boshqaruv tizimi o'rtasidagi munosabatlarni qamrab olgan sohaning maxsus ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlaridan iborat. Shuni belgilash kerakki, hozirgi kungacha sug'urta qonunchiligi tizimi aniq oydinlashtirilmagan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining umumsoha tasniflagichi o'z ro'yxatiga sug'urta sohasini kiritmagan.

Sug'urta qonunchiligiga tizimli yondashish uning tuzilmasini ajratishni nazarda tutishi muhimdir (ierarxiya, bo'ysunish, tabaqalashtirish, birdamlik va farqlanish nuqtai nazaridan huquqiy bazaning asosiy maqsadini bajarish, ya'ni ishtirokchilar manfaatlari uchun sug'urta munosabatlarini tartibga solish uchun me'yoriy huquqiy hujjatlarni to'plash).

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining zamonaviy holati tahlili asosida sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari aniqlandi:

– sug'urta kompaniyalarining kapitallashuvining oshishini ta'minlash;

– sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish va keng ommalashtirish;

– sug'urta faoliyatining yangi institutlari va subyektlarining paydo bo'lishini ta'minlash;

– sug'urtaning huquqiy bazasini yanada rivojlantirish;

– sug'urta faoliyatining oydinligini ta'minlash.

7.3. Sug'urta faoliyatini boshqarish tamoyillari

Sug'urta faoliyati hamma mamlakatlarda ham davlat nazorati ostidagi faoliyatlardan biridir. Bu holat jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida sug'urtaning naqadar ahamiyatli ekanligini bildiradi. Sug'urtaning rivojlanishida davlatning bu sohaga amal qilishini kuzatib turishida to'g'ridan-to'g'ri qatnashishini taqozo qilishi jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi.

Bu manfaat ikki holatda ko'rinadi. Birinchidan, sug'urta zararlarini qoplash va investitsion resurslarni to'ldirish bilan xalq xo'jaligining muhim vazifalarini bajaradi. Ikkinchidan, sug'urta qildiruvchilar o'z mablag'larini sug'urta kompaniyalariga ishonib topshirish bilan sug'urtachilarni zarar sodir bo'lganda aniq yordamga yetib kelishlariga ishonishadi va himoyaga muhtoj bo'ladilar.

Shuning uchun har bir mamlakatda sug'urta kompaniyalarini nazorat qilish to'g'risidagi qonunchilik bazasi mavjud va shu orqali nazorat tizimi poydevori quriladi.

Sug'urta munosabatlarini boshqarish jarayoni o'z ichiga:

– sug'urta faoliyatini amal qilishini me'yoriy-huquqiy bazasini ta'minlash;

–sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini tanlash;

–sug'urta munosabatlarining barcha ishtirokchilari qonunchilik talablarini to'g'ri bajarishlarini ustidan nazorat qilish;

–mulkiy manfaatlarning sug'urta himoyasi tizimini rivojlanishida davlatning ishtirokini ta'minlash;

–sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratini olib borish kabilarni qamrab oladi.

Sug'urta qonunchiligi talablariga rioya qilinishi, sug'urta qildiruvchilarning, manfaatdor shaxslar va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi, sug'urta ishini samarali rivojlanishi maqsadida sug'urta faoliyati ustidan davlat nazorati qonuniylik, oshkoralik, tashkiliy birlik tamoyillari asosida olib boriladi.

Fojeali zararlar ehtimolini qisqartirish va sug'urta tashkilotlari o'rtasida taqsimlash – o'tish davri iqtisodiyotining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston hukumati sug'urta sohasini rivojlanishiga katta ahamiyat bermoqda. Davlat dasturlarida sug'urta sohasini moliya sohasining yordamchi yo'nalishi deb hisobga olinishiga chek qo'yilib, iqtisodiyotning rivojlanishida muhim yo'nalishlardan biriga aylandi.

Yangi institutsional tuzilmalarning amaldagi ijtimoiy muhitga ko'nikishi, aholi ongida eski iqtisodiy tizim "sarqitlarining" saqlanib qolganligi bilan bog'liq

ziddiyatlarning alohida to'plamiga ega iqtisodiyotdir. Davlat bunday sharoitda alohida ijtimoiy rolni bajaradi.

U xalq xo'jaligi tizimining barcha sektorlarining xo'jalik yuritish sharoitlarini tubdan o'zgartirish tashabbuskori va ijtimoiy barqarorlik kafolatiga aylanadi. Bunday sharoitda davlat boshqaruvi ta'sir etishning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohasini isloh qilish modeliga asoslangan boshqa usullari va vositalariga tayana boshlaydi.

O'zbekiston sug'urta bozorining taniqli olim-tahlilchisi S.A.Umarovning ta'kidlashicha «Davlat boshqaruvi davlatning tarkibiy o'zgarishlar asosi bo'lib xizmat qiladigan investitsiya faoliyatida ham, yangi bozorlarning paydo bo'lishida ham o'z ifodasini topadi. Xususan, O'zbekistonda sug'urta faoliyati davlatning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokida shakllangan. Mamlakatning yirik sug'urta kompaniyalari davlat mablag'lari asosida tashkil qilingan»[52].

Sug'urta bozorini rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. U ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida yangi iqtisodiy institutlar va xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishda davlatning yyetakchi rolini nazarda tutuvchi tub o'zgarishlarning milliy modeliga muvofiq ravishda amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning barcha bosqichlarida davlat darajasida sug'urta xizmatlari bozorining shakllanishi ijtimoiy barqarorlashtirish, biznes infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish chora-tadbirlarining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi: sug'urtalovchilar va sug'urta qildiruvchilar mulkini huquqiy ta'minlash va sug'urta xizmatlari bozorini faoliyat ko'rsatishi, sug'urta faoliyatini davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi rivojlangan jahon bozori tizimiga mos keluvchi yangi sug'urta institutlarining shakllanishini nazarda tutuvchi o'ziga xos yangi milliy sug'urta tizimi yaratildi.

Davlat tomonidan tartibga solish sohasida sug'urta qildiruvchilar huquqlari, sug'urta kompaniyalari tomonidan o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash mexanizmlarining yaratilishiga alohida ahamiyat berildi:

–davlatning to'g'ridan to'g'ri ishtiroki va ko'magida rivojlanayotgan xususiy biznes va aholining qaltisliklarini o'z bo'yniga olishga qodir bo'lgan yangi sug'urta kompaniyalari shakllandi;

yangi xususiy sug'urta tashkilotlarining rivojlanishi va hududiy filiallar tarmog'ini tashkil etilishi rag'batlantirildi;

–aholining yangi sug'urtalovchilar va sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirish, sug'urta madaniyatini oshirish chora-tadbirlari ko'rildi.

Davlat sug'urta bozorida davlat sug'urta kompaniyalari orqali va sug'urta faoliyatini turli qonun va me'yoriy hujjatlar orqali tartibga solish yo'li bilan qatnashadi.

Chet mamlakatlar sug'urta bozoridagi ildam o'zgarishlar o'sha davlatlarning sug'urta qonunchiligini puxta tayyorlanganligini va amaliyotda qo'llanilishi uchun barcha sharoitlar yaratilganligini ko'rsatadi. Qonunlar va qonun osti hujjatlar sug'urta sohasining rivojlanishini asosiy omilidir.

---

[52] Umarov S.A. O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini. – T.: Fan, 2009. – 33-b

Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning xatti-harakati doirasini belgilash zarur. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar davlat tomonidan huquqiy tartibga solinadi.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni shartli ravishda 3 ga bo'lishi mumkin. Ular quyidagilar: maxsus nazorat organi, soliq va majburiy sug'urtani joriy qilish.

Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliqqa tortish, allohida hukumat qarorlari bilan *majburiy sug'urtalashni joriy qilish* va *vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil* etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni shakllari va maqsadlari 8.1-jadvalda keltirilgan.

7.1-jadval

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni shakllari va maqsadlari[53]

Tartibga solish shakli	**Tartibga solish maqsadi**
Litsenziyalash	Qonunchilik talablariga javob beradigan sug'urtalovchilarni shakllantirish
Nazorat qilish	Sug'urta faoliyati subyektlarini – davlat, sug'urta qildiruvchilar va sug'urtalovchilar manfaatlarini himoyalash
Statistika orqali	Tarmoq rivojlanishini boshqarish

Yuqorida aytilgan sug'urta bozorini tartibga solish shakllari, uni nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy jihatdan qarab chiqishni talab etadi.

Shu nuqtai-nazardan olganda, sug'urta sohasiga tegishli qonunlarni umumiy va maxsus qonunlarga ajratish mumkin. "Mulk to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Aksionerlik jamiyatlari va aksionerlik huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari umumiy qonunlar tarkibiga kiradi. Negaki, mazkur qonunlar sug'urta faoliyatini umumiy tomonlarinigina ko'rsatadi.

Sug'urta munosabatlari ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 iyuldagi 286-sonli "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

[53] Internet ma'lumotlari asosida muallifiar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tuzilib, uning vazifasi O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishdan iboratdir. Inspeksiya Respublika hududida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalaridan 25 tasini qayta ro'yxatdan o'tkazdi. Qayta ro'yxatdan o'tkazilmagan sug'urta kompaniyalar faoliyati amaldagi qonun me'yorlariga va sug'urta talablariga to'la javob bermaganligi sababli ularning faoliyat ko'rsatishi to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002 yil 5 aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi haqiqiy sug'urta bozorining shakllanishi va taraqqiy etishida muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Qonunga asosan sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi. Maxsus vakolatli davlat organining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

–ijro etilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jamining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

–sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

–sug'urtalovchilar tomonidan hisob-kitobni yuritish, sug'urta zaxiralarining mablag'larini shakllantirish va joylashtirishga oid hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

–sug'urtalovchining ijro etuvchi organi rahbarlariga va bosh buxgalterlariga qo'yiladigan ijro etilishi majburiy bo'lgan malaka talablarini belgilaydi;

–sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning shakli, tartibi va muddatlarini belgilaydi;

–qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

–qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to'liq yoki ayrim sug'urta turlariga (klasslariga) nisbatan to'xtatib qo'yadi, shuningdek ularning amal qilishini tugatadi;

–har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to'g'risida yillik hisobotlarni, shuningdek sug'urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to'g'risida statistika ma'lumotlarini e'lon qiladi;

–qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtalovchining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi.

Ya'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Sug'urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmaslik kerak.

Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urta qildiruvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urta qildiruvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizning "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni sug'urta tashkilotlariga nisbatan muayyan talablarni o'rtaga qo'yadi. Xususan, yuqorida zikr etganimizdek, sug'urtalovchi sifatida shunday huquqiy shaxslar tan olinadiki, ular uchun sug'urta asosiy faoliyat turi hisoblanishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi ta'qiqlanadi. Buning sababi shundaki, tadbirkorlik faoliyat turlari bilan shug'ullanish sug'urtalovchiga, o'z oldiga qo'yilgan majburiyatlarni bajarishida katta xavf solishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror kuchga kirgan kungacha mamlakatda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya (ruxsatnoma) berish tartibi ishlab chiqilmagan edi.

Unda "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi nizomi tasdiqlangan. Sug'urta tashkilotiga beriladigan litsenziya (ruxsatnoma) sug'urtalashning har bir klassining o'ziga xos qaltislik darajasi va obyektiga berilishi sug'urta turlari bo'yicha operatsiyani amalga oshirish sug'urtalovchida yetarli darajada moliyaviy mablag'lar bo'lishini talab etadi.

Bundan tashqari, sug'urta kompaniyasi ishlab chiqqan biznes-rejada sug'urta ta'rifi stavkalarini to'g'ri hisoblanishiga alohida e'tiborni qaratish zarur. Negaki, noto'g'ri hisob-kitob qilingan tarif, pirovard natijada, sug'urta tashkilotini moliyaviy barqarorsizlikka yoki to'lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Nazarimizda, faqat sug'urta kompaniyalari emas, balki, qayta sug'urtalashga ixtisoslashgan tashkilotlar va vositachilik idoralari ham davlat sug'urta nazoratining tegishli litsenziyalariga (ruxsatnomalariga) ega bo'lishlari kerak.

Shu nuqtai-nazardan olganda, tashkil etilajak davlat sug'urta nazorati xizmati jahon tajribasini o'rgansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuniga[54] muvofiq, sug'urta tashkilotlari sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatini bajara olmay qolganda, maxsus vakolatli davlat organi, mijozlarning manfaatini ko'zda tutadigan choralar ko'rishi kerak.

Bozorda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi, tabiiyki, bu holat potensial mijozlarni jalb qilish uchun ular o'rtasidagi raqobatni ham kuchayishiga olib keladi. Natijada, raqobatga bardosh bera olmagan ba'zi sug'urta kompaniyalar sug'urta bozoridan chiqib ketadi.

---

[54] O'zbekiston Respublikasi qonuni. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2002, 10-modda.

Bozor tizimida sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi va davlatning o'rni ijobiy natija beradi. Vaholanki iqtisodiyotga davlatning aralashuvi zarurligini XVIII asrdayoq merkantilistlar isbotlab berishgan edi. Baxslashayotgan tomonlardan biri sug'urta faoliyati tizimi o'zini o'zi boshqarish va tartibga solish mumkinligini isbotlashga jon-jaxdi bilan urinib, davlat statistika va nazoratchi vazifasini o'tash lozim deydi.

Boshqa tomon esa tamoman buning aksini isbotlashdan charchashmayapti. Ularning fikricha, bozor tizimida sug'urta faoliyatini, o'zini o'zi tartibga solish qobiliyati shunchalik pastki, u butun iqtisodiyot va uning ayrim tarmoqlari tang holatga tushmasdan tiklanib olishini ta'minlay olmas va iqtisodiy taraqqiyot darajalari tuzilma jihatdan baravar bo'lishini kafolatlay olmasligi mumkin.

Sug'urtaning o'zini o'zi boshqara olmasligini isbotlashga uringan iqtisodiy tafakkurdagi ikkinchi oqim XX asrda yuzaga keldi. Bu paytga kelib kapitalistik bozor tizimi qariyib 400 yildan beri rivojlanib kelayotgan edi. Lekin ayni chog'da uning kamchilik va nuqsonlari ham namoyon bo'lgan edi. Tarixning o'tish va keskin burilish darajasida davlatning ahamiyati ayniqsa katta bo'ladi. Bunda asosan bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tish va jahon moliyaviy inqiroz davrlari nazarda tutilmoqda.

Sug'urta faoliyatini boshqarishni asosiy tamoyillari sug'urta faoliyatini amalga oshirilishida sug'urtachilar, sug'urta qildiruvchilar va davlat manfaatlari balansini ko'zda tutadi va nazorat iqtisodiy va ma'muriy metodlar orqali amalga oshiriladi. Ma'muriy tartibga solish metodi sug'urta qonunchiligi asoslariga tayanadi, uning markaziy bo'g'ini bo'lib, sug'urta nazorati organi hisoblanadi. Boshqarishning iqtisodiy metodlarida davlat boshqaruvi bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi, ya'ni soliq siyosati, Markaziy bank siyosati kabilar bunga misoldir.

8-MAVZU.
SUG'URTA INFRATUZILMASI VA UNING SUBYEKTLARI

8.1. Sug'urta bozori infratuzilmasining mazmuni vaelementlariuing asosiy belgilari

Mamlakat iqtisodiyoti uchun sug'urta tizimi muhim va noyob tarkibiy qism bo'lib, hukumatimiz tomonidan soha rivojiga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasida mamlakatimiz sug'urta bozori jadal rivojlanayapti.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan qator vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda iqtisodiy faoliyatning o'zaro uyg'un dastaklari majmui - bozor institutlarini, jumladan, bank va sug'urta sohalarini rivojlantirish va takomillashtirishga ustuvorlik berish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Sug'urta bozori ishtirokchilari faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, qator qonunlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingani ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatimizda sug'urta bozori rivojlanishini hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ko'lami kengayib, sifat ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berayapti.

Har qanday bozorda bo'lgani kabi sug'urta bozorida ham, sug'urta xizmatlari sifat jihatidan mukammalligini hamda narh jihatidan hammabop va hamyon ko'taradigan bo'lishini ta'minlovchi - raqobatdir. O'zbekiston sug'urta bozoridagi raqobat muhiti aksariyat, ma'lum darajada sug'urta bozori infratuzilmasi subyektlari tomonidan shakllantiriladi.

Qolaversa, sug'urta bozori infratuzilmasi sug'urta bozorini tashkil etishda muhim tarkibiy element hisoblanib, sug'urta ishida unumli faoliyat ko'rsatib, uning ishlab turishi uchun yordam berib turishini ta'minlovchi va shu sohaga xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turlari majmuidir.

Infratuzilma ma'nosi lotincha "infra" – ost, tag va "structura" – tuzilish, struktura, so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, o'zaro joylashuv, tuzilish mazmunini anglatadi. Umumilmiy lug'atlarda ushbu tushunchaga bir nechta izoh va sharhlar mavjud (bu "asosiy ishlab chiqarish va aholiga xizmat qiluvchi iqtisod sohalarining majmui", "ma'lum sohaga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari kompleksi" va boshqalar)[55].

Infratuzilma deganda ta'minlovchi va xizmat ko'rsatuvchi tizim degan ma'noni anglash muhimdir. Chunki infratuzilma har hil faoliyatlarni amalga oshishi uchun zarur shart sharoit yaratib, amalda bo'lishini ta'minlaydi. Ayrim olimlar infratuzilmani qishloq xo'jaligi yoxud sanoat korxonalari ishlashi uchun zarur sharoit yaratadigan moddiy boylik (obyektlar bino inshootlar, asbob-uskunalar) to'planishi deb ta'riflashadi[56].

Bir tomondan, bu tushunchalar ma'nosiga ko'ra infratuzilmani ashyoviy xususiyatini ko'rsatib, uning tarkibini chegaralaydi. Chunki infratuzilma deganda

[55] Теория и практика страхования. Под ред. Турбиной К.Е. Учебное пособие. – М.: Анкил, 2003. С. 173.
[56] Блэк. Дж. Экономика: толковый словарь: Англо-русский - М: ИНФРА-М, 2010. С. 797.

ma'lum faoliyatga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va ularning funksiyalari tizimini ham kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa tomondan bu tushunchalar negizida infratuzilma deganda ma'lum faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar degan ma'noni anglatadi. Infratuzilma – bu moddiy boyliklarning to'planishi emas, balki shaxsning faoliyat doirasi, umumiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonidagi ma'lum funksiyalarni bajarilishini ta'minlovchi tashkilot va korxonalar, xizmat va tizimlar, soha va tarmoqlar majmui deb tushunish lozim[57].

Iqtisodchilar tomonidan infratuzilmani ifodalovchi izoh va talqinlari xilma-xildir. Albatta, bu hol ajablanarli emas. Chunki jamiyat rivojlanishi, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida ixtisoslashgan mehnat faoliyati doirasini ancha kengaytirdi. Iqtisodiy o'sishni tezlashtirish modellariga o'tish sharoitida yangi texnologiyalar yangi qarorlarni talab qilganidek, ular tushunchalarining ham yangi bosqichi talab etiladi.

Infratuzilmaga berilgan mavjud izoh va talqinlarni tahlilidan kelib chiqib quyidagi talqinni qabul qilish mumkin: infratuzilma - asosiy faoliyatni rivojlanishi va faoliyati uchun sharoit yaratuvchi, ta'minlovchi, yordam beruvchi xarakterga ega bo'lgan o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar va funksiyalar majmuidir. Ushbu tushuncha umumiy hisoblanib, aniq bir faoliyat doirasiga qaratilmagan va infratuzilma tushunchasini ma'lum bir soha yoki tarmoqqa bog'lamaydi.

Infratuzilmaning spetsifik, o'ziga xos xususiyatlari uni boshqa tizimlardan ajratish imkonini berishi, uning asosiy faoliyatga sharoit yaratuvchi, ta'minlovchi, yordam beruvchi xarakterga ega bo'lganligidir.

Infratuzilmani qaysi soha yoki tarmoq faoliyati uchun sharoit yaratishi va yordam berishiga hamda uning mazkur soha rivojlanishi darajasiga muvofiqligi jihatidan uch turga bo'lishimiz mumkin:

- ilgarilab boruvchi (bunda infratuzilma, uning xizmatlaridan foydalanuvchi faoliyatdan, oldinroq shakllanadi);
- bir vaqtdagi (bunda infratuzilma, uning xizmatlaridan foydalanuvchi faoliyat bilan bir xil sur'atda shakllanadi);
- kechikuvchi (bunda infratuzilma, uning xizmatlaridan foydalanuvchi faoliyat talablarini qondirishga ulgurmaydi).

Hozirgi kunda mamlakatimizda infratuzilma rivojlanishining uchinchi turi xarakterlanadi. Bu holat ayrim obyektiv sabablar va eng avvalo eski infratuzilmalar yangi bozor munosabatlariga mos kelmasligi, yangilari esa endi shakllanib kelayotgani bilan izohlanadi. Infratuzilma vazifasining darajasiga qarab xalqaro, milliy, hududiy, tarmoq yoki ma'lum soha infratuzilmasi deb tasnillanishi mumkin. Infratuzilmaning turi va tarkibi xizmat ko'rsatiladigan tarmoq (soha)ning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasi–rivojlangan yoki rivojlanayotgan sug'urta bozorini tashkil etishda muhim tarkibiy elementdir. Aynan sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi hamda sug'urtaning funksiyalarini muddatida, samarali va unumli

---

[57] Рынок. Бизнес. Коммерция. Экономика. Толковый терминологический словарь, 4-е изд. Дополненное и переработанное, под общ. ред. д.э.н., проф. Дашкова. Л.П. - М: Информационно-внедренческий центр «Маркетинг». 2013.

bajarilishini ta'minlovchi, sug'urta bozori professional ishtirokchilari va boshqa soha mutaxasislari o'rtasidagi muomala va munosabatlar tizimi deya talqin qilinishi lozim. Sug'urta bozori infratuzilmasi tushunchasini izohlash uchun umumiy tushunchalardan shunisi ishlatiladiki, uning mazmunida "infratuzilma" deganda "xo'jalik faoliyatining ma'lum sohasini unumli ishlab turishi uchun yordam beradigan faoliyat turlari tuzilishi" degan ma'no anglashiladi[58].

Sug'urta xizmatlari iste'molchilariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sug'urta kompaniyalarining faoliyati ma'lum jarayon, siklni taqozo etadi. U sug'urtalovchining xo'jalik yurituvchi subyekt sifatidagi umumiy xo'jalik faoliyatidan tashqari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) sug'urtaga qabul qilinishi mo'ljallangan qaltislik xaqida ma'lumot yig'ish, qaltislik darajasini baholash va boshqa, qaltislikni sug'urtaga qabul qilish bilan bog'liq qaror qabul qilish uchun tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari;

b) sug'urta shartnomalarini tuzish;

v) sug'urta shartnomalariga hamrohlik qilish (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, tugatish va h.k.).

g) sug'urta shartnomalari shartlarini bajarish, ijro etish – sug'urta shartnomasi shartlaridan kelib chiquvchi talablarni tartibga solish, hal etish (sug'urta tovoni (puli)ni to'lash yoki rad etish bilan bog'liq jarayon).



8.1-rasm. **O'zbekiston sug'urta bozoridagi asosiy professional ishtirokchilari**[59]

Shu zaylda, O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasini sug'urta bozori professional ishtirokchilari, turli soha hamda ixtisoslik mutahassislari hamda sug'urtaning unumli faoliyati uchun yordam beradigan faoliyat turlari o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tartibini nazarda tutuvchi va asosini sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta hamda qayta sug'urta brokeri), adjaster, aktuariy, sug'urta syurveyeri va assistans kabi subyektlar tashkil etadi.

[58] Теория и практика страхования. Под ред. Турбиной К.Е. Учебное пособие. М.: Анкил, 2003 С. 173.
[59] Mavjud ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston sug'urta bozoridagi asosiy professional ishtirokchilari 8.1-rasmda keltirilgan.

Bularning hammasi sug'urta shartnomalari bilan bog'liq bo'lgan har xil bosqichlarni aks ettirib, obyektiv (auditorlik faoliyati kabi litsenziya olinishi talab etiladigan faoliyat) va subyektiv (iqtisodiy tomondan maqsadga muvofiq emasligi) sabablarga ko'ra sug'urta kompaniyalarida mavjud bo'lmagan turli soha hamda ixtisoslik mutahassislarini ishtirokini taqozo etadi.

Ma'lumki, sug'urta bozorida, sug'urta bozorining muhim ishtirokchisi sug'urtalovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan maxsus, spetsifik xizmat – sug'urta xizmati sotiladi. Sug'urta bozorida ikkita asosiy ishtirokchi (sotib oluvchi-sug'urtalanuvchi yoki sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi – sotuvchi) mavjud bo'lishi muhimdir.

Sug'urta bozorining qolgan ishtirokchilari (sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta hamda qayta sug'urta brokeri), adjaster, aktuariy, sug'urta syurveyeri, assistans va boshqalar) esa, sug'urta bozorida sug'urta xizmatlari sotilishi, olinishi, va sug'urta faoliyatiga xizmat ko'rsatilishi bilan unumli va samarali ishlab turishini ta'minlaydi.



8.2-rasm. **Sug'urta bozori infratuzilmasi**[60].

Sug'urta bozori infratuzilmasi 8.2-rasmda keltirilgan. Sug'urta bozori infratuzilmasini o'ziga xos xususiyatlari va sug'urta bozorini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish uchun sug'urta bozori infratuzilmasi ishtirokchilari sug'urta bozorida qanday vazifalarni, qachon va qanday bajarishlarini birma-bir yoritib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

[60]Mavjud ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Sug'urtalovchilar faoliyati mijoz (sug'urtalanuvchi)lar bazasi bilan shakllanishi bo'yicha, sug'urtalanuvchilar esa ishlab-chiqarish faoliyatida o'zlarini shaxsiy qiziqishlarini qondirishlari bilan xarakterlanadi.

Sug'urtalovchilar o'zlarining mijozlari (sug'urtalanuvchilari) ko'payishi hamda foyda olishdan manfaatdordirlar. Chunki, boshqa iqtisodiy faoliyat turlari kabi sug'urta sohasi ham tijorat faoliyatiga tegishli bo'lib, asosiy maqsadi foyda va daromad olishdir.

Sug'urta bozorining ikki asosiy ishtirokchisi (sotib oluvchi-sug'urtalanuvchi yoki sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi – sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish uchun vositachilar zarur. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vositachilikni sug'urta vositachilari - sug'urta agenti va sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlari amalga oshiradilar.

8.1-jadval

Sug'urta vositachilarining asosiy xarakteristikalari[61]

Xarakteristikasi	Sug'urta agenti	Sug'urta brokeri (qayta sug'urta brokeri)
Kimning nomidan faoliyat ko'rsatadi	Sug'urtalovchi nomidan	Sug'urtalanuvchi nomidan (qayta sug'urta brokeri sug'urtalanuvchi bo'lgan sug'urtalovchi nomidan)
Ish haqi turi va uning manbasi	Komission haqni sug'urtalovchi to'laydi	Komission xaqni sug'urtalovchi yoki sug'urtalanuvchi to'laydi
Sug'urtalovchiga bog'liqligi	Asosan bitta sug'urtalovchi bilan ishlaydi	Ko'p sug'urtalovchilar bilan ishlaydi
Lizenziya talablari	Sug'urta agentlari faoliyati litsenziyalanmaydi	Sug'urta brokerlari faoliyati litsenziyalashtiriladi.
Faoliyatiga bog'liq cheklovlar	Sug'urta faoliyatidan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin	Sug'urta brokerlari sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas.

Sug'urta vositachilarining asosiy xarakteristikalari 8.1-jadvalda keltirilgan.

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga asosan uning manfaatlari yo'lida va berilgan vakolatlar doirasida sug'urta shartnomasi aktivizatsiyasi (tuzish, o'zgartirish, yangilash)ni amalga oshirishga ishonch bildirilgan yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti (Insurance agent) hisoblanadi[62].

Sug'urta agenti o'z faoliyatini asosan sug'urtalovchi bilan uning o'rtasida tuzilgan agentlik kelishuvi shartlari asosida amalga oshiradi[63]. Agentlik kelishuvi

[61] Mavjud ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

[62] Elektron manbaa: http://www. glossary.ru

[63] O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, T., 2002, 4-5-son, 68-modda.

sug'urta agenti bilan sug'urtalovchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, javobgarlikni va vakolatlarni belgilovchi fuqarolik–huquqiy tusdagi shartnoma hisoblanadi.

Odatga ko'ra sug'urta agenti sug'urtalovchi tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarini sotish bilan shug'ullanib, imkon qadar ko'proq sug'urta xizmatlari sotilishidan manfaatdor bo'ladi. Chunki sug'urta agenti sotgan sug'urta xizmatlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan ma'lum foiz miqdorida sug'urtalovchidan komission haq oladi.

Agentlik kelishuvida sug'urta agenti tomonidan boshqa xizmat va vazifalar bajarilishi ham belgilanishi mumkin. Sug'urta agenti aniq bir sug'urtalovchining sug'urta mahsulotlarini sotib, mazkur sug'urtalovchining vakili hisoblanadi. Sug'urta agenti birdaniga bir nechta sug'urtalovchining vakili ham bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti sug'urta mahsulotlarini sotishi vaqtida sug'urtalanuvchiga o'ziga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasini tuzish uchun berilgan vakolatlarni, sug'urtalovchining rasmiy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi zarur.

Sug'urta agentlarining faoliyatlari ular qaysi davlat hududida faoliyat yuritishlariga qarab, o'sha davlat qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ayrim davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta agentlari sug'urtalovchilarning shtat hodimlari va shtatda bo'lmagan hodimlari sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Sug'urtalovchining shtatida bo'lgan sug'urta agentlari, shtatda bo'lmagan sug'urta agentlaridan farqli ravishda komission haq evaziga emas balki belgilangan maosh (ish haqi) hisobiga faoliyat yuritadi. Bunda shtatdagi sug'urta agenti bilan mehnat shartnomasi tuzilishi lozim.

Sug'urta agenti ishining afzal tomonlari: ish jadvalining erkinligi, qancha haq ishlab topishni xohlasa shuncha haq ishlab topish imkoniyati mavjudligi, agentlik faoliyatini asosiy ish faoliyati bilan birga olib borish imkoniyati, ishga joylashishi osonligi, yangi kasbga bepul o'qitilishi va boshqalardir. Lekin, sug'urta agenti ishining salbiy tomonlari ham yo'q emas.

Sug'urta agenti sug'urta shartnomasini to'g'ri to'ldirilishiga, rasmiylashtirilishiga javobgar bo'ladi, naqd pul bilan ishlashga to'g'ri keladi va bu holat mijozdan qalbaki pul banknotasi qabul qilinishi xavfini keltiradi, mijozlar bazasi shakllangunga qadar, mijozlarni shaxsan qidirishga to'g'ri keladi va bu vaqtda komission haqi miqdori kam bo'ladi.

Sug'urta agentining salbiy tomonlari ular tomonidan sotilayotgan sug'urta xizmatining xususiyatlari to'g'risida mijozlarga yetarli ma'lumot bermasliklarida namoyon bo'lishi mumkin. Chunki sug'urta agentlari ko'proq sug'urta mahsulotlari sotilishidan manfaatdor bo'lib, sug'urta xizmatining xususiyatlari ularni kam qiziqtiradi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: sug'urta agentining asosiy maqsadi mijozga sug'urta xizmatini sotishdan iborat, sug'urta agenti o'zi sotayotgan sug'urta mahsulotini ko'p jihatlarini bilmasligi mumkin, sug'urta mahsulotini sug'urta agentidan sotib olishda uning vakolatga ega ekanligiga ishonch hosil qilish lozim.

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vositachilikni amalga oshiruvchi yana bir sug'urta bozori infratuzilmasi subyekti bu sug'urta brokeri (qayta sug'urta brokeri)dir.

Sug'urta brokeri faoliyati sug'urta agentining faoliyati bilan qanchalik o'xshash bo'lmasin uni farqlovchi jihatlari xilma-xildir.

Sug'urta agenti sug'urtalovchining vakili hisoblansa, sug'urta brokeri (Insurance broker) sug'urtalanuvchining va qayta sug'urtalanuvchining vakili hisoblanadi. Belgilangan tartibda yuridik shaxs yoki tadbirkor (qonunchilik talabiga muvofiq) sifatida ro'yxatdan o'tgan, o'zining nomidan sug'urtalanuvchining va qayta sug'urtalanuvchining topshirig'iga asosan sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini yurituvchi shaxs sug'urta brokeridir[64].

Sug'urta brokeri sug'urtalovchi oldida sug'urta mukofoti to'lanishi bo'yicha javobgarlik olib boradi. Shuningdek, sug'urtalanuvchiga sug'urta tovonini olishga yordam ko'rsatadi. Sug'urta brokeri sug'urtalanuvchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq sug'urta shartnomalari shartlari bajarilishi, ijro etilishi - sug'urta shartnomasi shartlaridan kelib chiquvchi talablarni tartibga solish, hal etish (sug'urta tovoni (puli)ni to'lanishi bilan bog'liq jarayon)da ishtirok etishi mumkin (Claims broker)[65].

Sug'urta brokeri ham sug'urta agenti singari komission haq uchun ishlaydi, lekin sug'urta agentidan farqli ravishda komission haqni sug'urtalanuvchidan oladi. Sug'urtalanuvchi uchun eng qulay va muvofiq sug'urta shartlarini taqdim etadigan sug'urtalovchini topib berish, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga sug'urta tovonini olish uchun yordam ko'rsatish, sug'urta mukofotlarini to'lanishini ta'minlash sug'urta brokerining majburiyatlaridir.

Biri sug'urta riskini sug'urtaga berish, ikkinchisi sug'urta riskini sug'urta olish istagidagi ikkita sug'urtalovchi o'rtasidagi vositachi, qayta sug'urta brokeri hisoblanadi.

Butun dunyoda sug'urta operatsiyalarining ko'p qismi sug'urta brokerlari yordamida amalga oshiriladi[66]. Bu holat quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, sug'urta sohasidan bexabar bo'lgan shaxs sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan xilma-xil sug'urta xizmatlarining qaysi biri unga muvofiq kelishini tushunib yetishi qiyindir. Sug'urta xizmati tovar emas. Uni ushlab ko'rib yoki o'lchab ko'rib, sifati aynan maqul kelishini bilib bo'lmaydi. Hattoki oliy ma'lumotli shaxs ham sug'urta shartnomasni qo'lga olganidan so'ng uni oxirigacha o'qib chiqarmikan?

Keng tarqalgan sug'urta mahsuloti har bir sug'urtalovchida o'zining xususiyatlariga ega bo'ladi va faqat sug'urta sohasi mutaxassisi taklif etilayotgan sug'urta xizmatining nozik jihatlari farqiga bora oladi. Sug'urta brokerlari esa har xil sug'urta kompaniyalarining sug'urta xizmatlari xususiyatlaridan xabardor bo'ladilar.

Ikkinchidan, sug'urtalanuvchi sug'urta bozoridagi holat va sug'urta bozoridagi har bir sug'urtalovchining o'rni, nufuzi va siyosati haqida faqat mutaxassisdan batafsil va ishonchli ma'lumot olishi mumkin. Sug'urta brokeri qaysi sug'urtalovchi bilan ishlash maqsadga muvofiqligi yuzasidan asosli maslahat berishi mumkin.

---

[64] Elektron manba: http://www. glossary.ru

[65] O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, T., 2002. 4-5-son, 68-modda.

[66] Elektron manba:http://www.atombroker.ru.

Uchinchidan, sug'urta brokeri doimo sug'urtalanuvchining tarafida bo'ladi va qachon, qaysi holatda, qanday ish tutish lozimligi yuzasidan maslahat beradi. Zarur bo'lganda sug'urta brokeri sug'urta tovonini olinishida amaliy yordam ko'rsatadi.

Shu tariqa sug'urta brokerlari sug'urta bozorida, sug'urtalovchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratgan holda, nafaqat sug'urta xizmatlari narhi balki sug'urta xizmatlari sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.

Sug'urta bozori infratuzilmasining yana bir muhim ishtirokchisi sug'urta syurveyeri. Syurveyer degani bu biror narsani ko'zdan kechirish, nazoratdan o'tkazish degan ma'no bildiradi[67]. Bu tushuncha o'tgan asrlarda asosan dengiz kemalari bilan bog'liq bo'lgan.

Sug'urta bozorini professional ishtirokchilaridan biri - syurveyer sug'urtaga qabul qilinishi mo'ljallangan mol-mulkni ko'zdan kechirib, tekshiruvchi, sug'urtalovchining nazoratchisi (inspektori) deb hisoblasak ham bo'ladi. Sug'urta syurveyerining sug'urtaga qabul qilinishi mo'ljallangan mol-mulkni (transport, bino inshoat, ishlab chiqarish uskunalari va h.k.)larni ko'zdan kechirib, tekshirishi natijalari bo'yicha bergan xulosasiga muvofiq sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik (sug'urtalovchi sug'urtalanmoqchi bo'lgan mijozga rad javobini to'g'ridan-to'g'ri yetishi maqul ish emas) masalasini hal etadi.

Sug'urta syurveyeri taqdim etilgan ma'lumotlar asosida sug'urtalovchi ta'rif stavkani aniqlaydi va sug'urtaga olinayotgan sug'urta obyekti zararlanish darajasi yoki ehtimolligi qay darajada ekanligidan xabardor bo'ladi. Syurveyerning sug'urtalovchi bilan bo'lgan munosabatlari o'zaro tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinadi. Sug'urta syurveyeri sug'urtalovchining xodimi sifatida yoki boshqa aloxida syurveyerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona vakili sifatida qolaversa holis professional bilim va malakaga ega bo'lgan shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Sug'urta bozorida syurveyer xizmatlari muhimligi shundan iboratki, sug'urtalovchi tomonidan ayrim obyektlar (zavod, fabrika, butun ishlab chiqarish kompleksi va h.k.)ni sug'urtaga olinishida, sug'urta obyektini o'rganish (obyekt xususiyatlari, yong'in yuz berishi, yemirilishi va shu kabi xavf darajasi) ishlari professional bilim va malakaga ega bo'lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilsa sug'urtalovchiga katta yo'qotishlar olib kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu tufayli sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta obyektini ko'zdan kechirish, tekshirish, muhim bo'lgan barcha faktlarni aniqlash, qaltislik mavjud bo'lgan holatlarni tahlil qilish va darajasini aniqlash ishlarini malakali amalga oshirish ishlari syurveyer zimmasiga yuklatiladi. Sug'urta syurveyeri sug'urta bozoridagi o'z vazifasi bilan sug'urtalovchining xarajatlari miqdorini qisqartirishga yondoshib, qaltislik-menejment funksiyasini bajaradi.[68]

Sug'urta hodisasi bilan bog'liq sug'urtalanuvchining talablarini tartibga soluvchi va sug'urta kompaniyasi manfaatlarini ifodalovchi yuridik yoki jismoniy shaxs adjaster hisoblanadi.

Adjaster sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va

---

[67]Кураков Л. Экономика и право: словарь справочник. М., 1996. С. 768.
[68]Климова М.А. Страхование. Учеб. пособие. – М.: ПРИОР, 2004.

tekshirish, sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, sug'urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash, sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda - sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash, to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta tovoni summasini aniqlash va sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Sug'urtalangan obyektga yetkazilgan zararni o'rganilishi natijasida adjaster tomonidan tuziladigan xulosa xalqaro amaliyotda avariya sertifikati (Certificate of damage) deb yuritiladi. Mazkur hujjat sug'urta obyektiga zarar etishining sabablari, miqdori va xarakterini ifodalaydi[69].

Sug'urta hodisasi yuz bergan bermaganligini, sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasi ro'y berishiga daxldorligi, zarar miqdori va xususiyatlarini, sug'urta hodisasi yuz berishining sabablari va shart-sharoitlari, tomonlarning da'vo qilishi yoxud boshqa vaj keltirishiga asos bo'ladigan holatlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash adjasterning majburiyatlariga kiritilishi mumkin.

Adjasterning sug'urta munosabatlaridagi muhim o'rni shundaki, sug'urtalovchi joylashgan manzildan yiroqda joylashgan sug'urtalangan obyekt zararlanganligi holatida adjaster mazkur hudud doirasida joylashgan bo'lishi va sug'urtalangan obyektga zarar yetgan zahoti joyiga borib, o'z majburiyatlarini bajarishga kirishishi mumkin.



8.3-rasm. **Adjaster va sug'urta syurveyeri jalb qilinadigan holatlari.**[70]

Qolaversa, adjaster, sug'urta kompaniyasi xodimlarida mavjud bo'lmagan bilim va malakaga ega bo'lganligi sug'urta obyektiga zarar yetishi sabablarini, miqdorini aniq va qisqa fursatda aniqlash imkonini beradi.

---

[69] *Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б.Современный экономический словарь.-5-е изд., перераб и доп.-М., 2006.*

[70] Mavjud ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Adjasterning sug'urta syurveyeridan asosiy farqi shundaki syurveyer mol-mulkni sug'urta shartnomasi tuzilgunga qadar ko'zdan kechirsa, adjaster sug'urtalangan mol-mulkni zarar yetganidan so'ng o'rganadi (8.3-rasm).

Bozor qonuniga ko'ra sug'urtalovchilar o'rtasida ham raqobat o'sib boradi va sug'urtlovchilarga nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki mavjud mijozlarni ushlab turish ham muammoga aylanib boradi.

Assistans. sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

S.I.Efimovning ensiklopedik lug'atida, asisstans – kerakli vaqtda ko'rsatiladigan, ashyoviy yoki natura yohud moddiy shaklda sug'urta shartnomasi doirasidagi texnik, tibbiy va moliyaviy yordam xizmatlari ro'yxat deb talqin etilgan[71].

Sodda qilib aytganda sug'urta assistansi bu sug'urtalovchining o'z mijozlariga ularning qiyin holatida ko'rsatadigan yordamidir. Bu yordam yo'l transport hodisasi yuz bergan hollarda sug'urtalovchi jabrlangan mijoziga yo'l harakati xavfsizligi xodimlarini va tibbiy tez yordamni chaqirishga yordam berish, transport vositasini transportirovkasi uchun evakuator bilan ta'minlash hamda yo'l transport hodisasi natijasida jabrlangan shaxslarni davolash muassasalariga joylashtirishda hamkorlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tibbiy sug'urtada sug'urta assistansi bepul va sifatli tibbiy yordam ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. Mulkiy sug'urtada esa, sug'urta assistansni mazmuni sodir bo'lgan hodisa talofatlarini bartaraf etilishiga ko'maklashishida namoyon bo'ladi.[72]

Sug'urta assistansi xizmatlari sug'urtalovchi qoshida tashkil etilgan alohida maxsus kompaniyalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Assistans xizmatlarining qulayliklari mijozlarni sug'urtalovchiga bog'lanishini kasb etishi bilan sug'urta bozorida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, sug'urtalovchilar o'zlarining sug'urta xizmatlari uchun tariflarni ko'tarishlariga sug'urta assistansi xizmatlarini asos qilib olishsa, mijozlar esa nisbatan kattaroq haq uchun qo'shimcha xizmatlarni olishdan mamnun bo'ladi.

Sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar yetkazilishining takroriyligini va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilovchi, sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiquvchi, sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni, tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlovchi, sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur harajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarhini hisob-kitob qiluvchi, sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa

[71] Ефимов С.И. Деловая практика страхового агента и брокера. М.: Страховой полис, Юнити, 2006.
[72] Юнитер А.Д. Откуда пришёл ассистанс? Электрон манба: http://www.allinsurance.ru/biser.nsf

muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilovchi, sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholovchi va sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtiruvchi aktuar xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs aktuariy hisoblanadi.

Sug'urta ishining hodisalar ro'y berishi ehtimolligi, sug'urta xizmatining qiymati hisoblab chiqilishi, sug'urtalovchi maxsus zaxiralarga ega bo'lishi lozimligi hamda sug'urta mukofotlari va sug'urta tovonlari o'rtasidagi muvozanat talab etilishi kabi o'ziga xos xususiyatlari aktuar hisoblar amalga oshirilishini talab etadi.

Qaltisliklarni guruhlash, o'rganish, sug'urta hodisasi ro'y berishining matematik ehtimolligini hisoblab chiqarish, ish yuritish xarajatlari miqdorlari, zarur sug'urta zaxiralarni matematik asoslash va boshqa shu kabilar aktuar hisoblarning vazifasi hisoblanadi. Aktuar hisoblar sug'urta tarmoqlari bo'yicha, tavakalchiliklar bo'yicha, vaqtga ko'ra, hududiylikga ko'ra klassifikatsiya qilinadi.

Yigirmanchi asrning 80-yillari oxiriga qadar davom etgan sug'urta monopoliyasi davrida sug'urta aholi va tashkilotlar zimmasidagi soliq kabi namoyon bo'lgan va sug'urta tariflari maxsus matematik hisob-kitoblarga asoslanmasdan, mavjud qaltisliklar bilan bog'liq bo'lmagan fikr va mulohazalar natijasida belgilangan, buning natijasida aktuar hisob-kitoblarga ehtiyoj sezilmagan.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida aktuariyni faoliyat doirasini aniqlash uchun qaltislikni sug'urtaga qabul qilishdagi ikkita mezon (kriteriy)ni eslash kifoya bo'ladi. Bu zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hodisaning ehtimolligi va tasodifiyligidir[73].

Aktuariy – bu sug'urtaning matematik jihatlariga professional darajada o'qitilgan shaxsdir. Matematik jihatdan ehtimollik metodlarini qo'llagan holda moliyaviy va ijtimoiy sohadagi qiyin masalalarni yechimini topadi.

Aktuariylar sug'urta kompaniyalarini moliyaviy tahlilini o'tkazish, strategik rejalashtirish, mavjud sug'urta portfelini sifat jihatidan tahlil qilish kabi ish va vazifalar bilan shug'ullanadilar.[74]

Yuqoridagi sug'urta bozori infrutuzilmasini asosiy ishtirokchilaridan tashqari sug'urta bozori infratuzilmasini sug'urtaga ixtisoslashgan auditorlar, ixtisoslashgan va ko'p tarmoqli maslahatchilar, baholash xizmatlari, yuridik xizmatlar va boshqa shu kabi professional bilim va malakaga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslarni ham kiritish mumkin. Ular sug'urta bozorida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Shu zaylda, sug'urta bozori infratuzilmasini sug'urta bozori professional qatnashchilari, turli soha hamda ixtisoslik mutahassislari hamda sug'urtaning unumli faoliyati uchun yordam beradigan faoliyat turlari o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tartibini nazarda tutuvchi va asosini sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta hamda qayta sug'urta brokeri), adjaster, aktuariy, sug'urta syurveyeri va assistans kabi subyektlar tashkil etadi.

Shu o'rinda sug'urtalovchi (sug'urta kompaniya)lar sug'urta bozori infratuzilmasiga kirmasligini farqlashimiz lozim. O'zbekiston sug'urta bozori

---

[73] Теория и практика страхования. Под ред. Турбиной К.Е. Учебное пособие. М.: Анкил, 2003. С. 177.

[74] Журавлев Ю.М. Словарь-справочник терминов по страхованию и перестрахованию. М.:Анкил. 1994.

infratuzilmasini sug'urta bozori professional ishtirokchilari, turli soha hamda ixtisoslik mutahassislari va sug'urtaning unumli faoliyati uchun yordam beradigan faoliyat turlari o'rtasidagi munosabatlar, hamkorlik tartibini o'rnatuvchilarni subyektlar tashkil etadi.

Ular: sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta hamda qayta sug'urta brokeri), adjaster, aktuariy, sug'urta syurveyeri, assistans va h.k. Sug'urta bozorining muhim ishtirokchisi sug'urtalovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan esa maxsus, spetsifik xizmat – sug'urta xizmati sotiladi. Sug'urta bozorida ikkita asosiy ishtirokchi (sotib oluvchi-sug'urtalanuvchi yoki sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi – sotuvchi) mavjud bo'lishi muhim.

Lekin, sotib oluvchi-sug'urtalanuvchi yoki sug'urta qildiruvchi mavjud bo'lib, sug'urtalovchi bo'lmasa, sug'urta munosabati bo'lmaydi. Shu jihatdan sug'urtalovchini sug'urta bozori infratuzilmasidan ajratish lozim. Sug'urtalovchi sug'urta bozori infratuzilmasiga kirmaydi.[75]

Chet el tajribasini o'rgangan holda va sug'urta sohasi olimlari, amaliyotchi, yetakchilarining fikr hamda mulohazalaridan kelib chiqib [76], sug'urta bozori infratuzilmasi xalqaro talablarga muvofiq bo'lishini tadqiqotda aks ettirishga harakat qilindi. Bunda qo'shimcha ravishda sug'urta konsaltingi tashkilotlari (sug'urta maslahatchilari), 24 soat ishlovchi qo'ng'iroq markazlari, ixtisoslashgan yuridik (advokatlik) firmalar, investitsiya kompaniyalari va sug'urta auditorlari o'z aksini topdi.

8.3. O'zbekistonda sug'urta bozori infratuzilmasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida barqaror iqtisodiyotni shakllantirish uchun faqat ishlab chiqarish korxonalari sonini ko'paytirish, yangi firma va kompaniyalar tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatning iste'molchiga yetib borishida muhim o'rin tutuvchi bo'g'in – infratuzilmaning har tomonlama rivojlanishiga yerishish taqozo etiladi.

O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasining bugungi holati va uning asoslari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, albatta uning huquqiy negiziga, sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga murojaat qilishimiz o'rinlidir.

Milliy sug'urta bozorimizda sug'urta bozori infratuzilmasi shakllanishi 1993 yil 6 mayda qabul qilingan (bugungi kunda o'z kuchini yo'qotgan) "Sug'urta to'g'risida"gi qonunning "Sug'urta vakillari va sug'urta brokerlari" deb nomlangan 7-

[75] David Bland Insurance: practice and principles учеб.пособие/пер. с англ. М. Finance and Statistics. 1998.
[76] Турбина К.Е. Теория и практика страхования. Под ред. Турбиной К.Е. Учебное пособие. М.: Анкил, 2003. С. 173-182.

moddasi bilan ilk bor sug‘urta bozori infratuzilmasini tashkil etuvchi ayrim subyektlar (sug‘urta agenti va sug‘urta brokeri)ning huquqiy asosi o‘z aksini topdi[77].



8.4-rasm. **O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasi faoliyatini xuquqiy asoslari**[78]

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 618-sonli qarori O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasining asosi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Chunki mazkur qaror bilan “Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risida” nizom tasdiqlanib, sug‘urta vositachilari (sug‘urta agenti, sug‘urta hamda qayta sug‘urta brokeri), adjaster, aktuariy, asistans va sug‘urta syurveyeri kabi sug‘urta bozori infratuzilmasini tashkil etuvchi subyektlarning huquqiy asoslari yaratildi va O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 14 sentyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni bilan mustahkamlandi.

Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq sug‘urtalovchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug‘urta agenti ya’ni sug‘urta vositachisi hisoblanadi.

O‘zbekistonda sug‘urta agenti faoliyati “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 9, 9-1 – moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 46-bobi, “Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risida” nizom va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 28 yanvardagi 19-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urta agentlari to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi.[79]

Respublikamizda sug‘urta agenti o‘z faoliyatini sug‘urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida va faqat o‘zi bilan topshiriq

---

[77] O‘zbekiston Respublikasining 833-XII-sonli 1993-yil 6-maydagi Sug‘urta to‘g‘risidagi qonuni. (Mazkur qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 5-apreldagi 359-II-sonli qarori bilan o‘z kuchini yo‘qotgan) “Norma” huquqiy bazasi.

[78] Mavjud ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

[79] Положение о страховых агентах.Утверждено приказом министра финансов Республики Узбекистан от 28 января 2003 г. № 19, зарегистрировано Министерствомюстиции Республики Узбекистан от 1 февраля 2003 г. Регистрационный № 1213. Бюллетень нормативныхактов министерств, государственных комитетов и ведомств Республики Узбекистан, 2003 г., № 3; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2007 г., №25-26, ст. 272

shartnomasi tuzgan sug'urtalovchi reestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Qayd etilgan sug'urta agentlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq respublikamizda sug'urta agentlari shtat hodimlari sifatida (mehnat shartnomasiga asosan) faoliyat ko'rsatishlari mumkin emas.

Sug'urta agentlariga ma'lum cheklovlar ya'ni, sug'urta agentining tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga yo'l qo'yilmasligi va jismoniy shaxs bo'lgan sug'urta agentlari o'zlarining nomiga, to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emasliklari belgilab qo'yilgan. Qolaversa, respublikamizda, sug'urta agentlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq sug'urta agentlari faoliyati ustidan nazorat asosan sug'urta kompaniyalari (sug'urtalovchilar) zimmasida ekanligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Sug'urtalovchilar o'zlarining sug'urta agentlarini o'qitish va ularni malakasini oshirish ishlari bilan sug'urta kompaniyasi doirasida mustaqil shug'ullanadilar. Sug'urta brokerlaridan farqli ravishda sug'urta agentlariga milliy qonunchiligimizda xech qanday malaka talablari belgilanmagan.

Sug'urta agentlari sug'urta xizmati xususiyatlaridan uncha xabardor bo'lmaydi, chunki u qanday sug'urta xizmati bo'lishidan qat'iyy nazar sug'urta xizmatlari sotilishidan manfaatdordir.

Lekin sug'urta agentidan farqli ravishda sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs-sug'urta brokeri, o'zining mijoziga sifatli va arzon sug'urta xizmati topib berishidan manfaatdor bo'ladi.

Chunki uning zimmasida tuzgan sug'urta shartnomasi bo'yicha javobgarligi mavjud bo'ladi. Respublikamizda sug'urta va qayta sug'urta brokeri faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 7, 8, 8-1, – moddalari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi nizom va O'zbekiston respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyundagi 61-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchining (sug'urta brokerining) rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi.[80] Sug'urta brokeri ham sug'urta agenti kabi sug'urta vositachisi hisoblansada sug'urta agentidan farqli ravishda faqat yuridik shaxs sifatida tashkil etilishi mumkin.

Aynan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi nizomga muvofiq sug'urta brokerlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan litsenziyalashtiriladi. Sug'urta

[80] O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, T., 2002, 4-5-son, 68-modda. "Norma" huquqiy bazasi.

brokerlari o'zlari bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadilar. Shuningdek, sug'urta brokerligi tashkiloti rahbarligiga yoki bosh hisobchiligiga bo'lgan nomzod O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyundagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchining (sug'urta brokerining) rahbariga va bosh hisobchisiga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida"gi nizomda belgilangan malaka talablariga mos kelgan taqdirdagina shu lavozimga tayinlanishi yoxud saylanishi mumkin.

Qayta sug'urta brokeri o'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Ya'ni qayta sug'urta brokeri bu ikkita sug'urtalovchi o'rtasidagi vositachi hisoblandi.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari sug'urta agentlari kabi ko'rsatgan xizmatlariga vositachilik taqdirlash puli shaklida haq oladilar va uning miqdori shartnomada belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud bo'lgan sug'urta brokerlari asosan qayta sug'urtalash shartnomalari bilan shug'ullanib kelishmoqda. Ularning faoliyatlari sug'urta bozorida uncha sezilarli emas.

O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasini tashkil etuvchi sug'urta bozorining yana bir professional ishtirokchisi bu adjaster. O'zbekiston Respublikasida adjaster faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9-2, 9-3, – moddalari va "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida" nizom bilan tartibga solinadi. Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Adjaster sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga, sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga, sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas. Uning xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarning o'rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanadi.

Ta'kidlash muhimki, bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida yuridik shaxs bo'lgan adjasterlar mavjud kamligi holati, mavjud sug'urta kompaniyalarida bu vazifalarni bajarayotgan ma'lum xodimlar mustaqil yuridik shaxs tarzida ajralgani yo'q. Lekin bu jarayon majburiy sug'urta turlari rivojlanishi bilan yuz berishi ehtimoldan holi emas.

Aktuaiy faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9-4, 9-5 – moddalari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 6 sentyabrdagi 82-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Aktuariy malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida" nizom bilan tartibga solinadi.[81]

Aktuariy sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq faqat aktuar xizmatlari ko'rsatadi. Aktuariy, agar u aktuar tashkilot shtatida turgan bo'lsa yoki aktuar tashkilot tomonidan u bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzilgan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishga jalb etilishi mumkin.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat yoki boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilot zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlar

[81] O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2002. 4-5-son, 68-modda. "Norma" huquqiy bazasi.

natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi. Aktuar xizmatlari ko'rsatish uchun aktuariy maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tatibda aktuariy malaka sertifikatini olishi shart. Yuridik shaxs bo'lgan aktuariy o'z shtatida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lgan kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunda aktuar xizmatlari aksariyat sug'urta kompaniyalarda o'zlarining aktuar bilim talablariga javob bermaydigan xodimlari tomonidan amalga oshirilayotganligi sug'urta bozorida aktuariylar yetishmasligidan dalolatdir. Chunki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 6 sentyabrdagi 82-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Aktuariy malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida"gi nizom[82] asosida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lgan faqat ikkita aktuariy mavjud[83].

Sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish, barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash hamda tekshirilayotgan sug'urta obyekti bo'yicha xulosa tuzish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs sug'urta syurveyeridir. Sug'urta syurveyeri faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9-6, 9-7 – moddalari va "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida" nizom bilan tartibga solinadi.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi. Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Sug'urta syurveyeri ishining natijalari bo'yicha hisobot taqdim etadi, sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzish chog'ida foydalanishi mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta syurveyeri vazifalari adjasterlar vazifalari bajarilishi kabi sug'urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo'lmagan xodimlari tomonidan bajarilmoqda. Respublikamizda aniq bir yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan sug'urta syurveyerlik tashkiloti mavjud emas. Albatta, bu sug'urta bozori rivojlanishi va sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta risklarini qabul qilishda salbiy holatlardan biridir.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida adjasterlik, syurveyerlik va aktuariy tashkilotlaridan farqli ravishda assistans xizmatlari ko'rsatilishi nisbatan rivojlangan. Assistans sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Assistans faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9-8, 9-9 – moddalari, "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida" nizom va qanday assistans xizmatlari ko'rsatishiga qarab boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

---

[82] "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2007-yil, 41-42-son, 423-modda.

[83] Актуарий либо прав. либо может это доказать. Бизнес-вестник востока. Деловая газета. 2008 йил 4 ноябрь 88 (1093)-сон 8-бет.

Assistans o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Assistans xizmatlariga sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug'urtalovchilar tomonidan haq to'lanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan yuridik shaxs bo'lgan sug'urta bozori infratuzilmasi subyektlari qonunchilik asosida har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tsalar, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish esa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi (joylardagi hokimiyatlardan tadbirkorlik subyektlari sifatida va h.k.).

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sug'urta bozorida kechikuvchi (bunda infratuzilma, uning xizmatlaridan foydalanuvchi faoliyat talablarini qondirishga ulgurmaydi) infratuzilma xarakterlanadi. Bu holat ayrim obyektiv sabablar, ya'ni sug'urta bozori infratuzilmasini huquqiy asoslari endi yaratilganligi bilan, qolaversa, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni bilim va tajribalari yetishmasligi bilan izohlash mumkin.

8.4. Rivojlangan mamlakatlarning sug'urta bozori infratuzilmasi

Chet el mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat sug'urta nazorati sug'urta kompaniyalarini nazorat qilish bilan birga sug'urta vositachilari faoliyatini nazorat qilishni ham talab etadi va bu holat sug'urta bozori rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Chunki busiz sug'urta xizmatlari iste'molchilarning himoyasini ta'minlash mumkin emas.

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta vositachiligi instituti mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi ish o'rinlari (shtat va shtatdan tashqari) ochilishi, aholining bandligini ta'minlaydi. Har xil mamlakatlarda aholining 1-1,5 % sug'urta sohasida ishlab kelmoqda[84].

Sug'urta vositachilari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari o'z xususiyatlariga ega bo'lgan maxsus sug'urta qonunchiligida o'z aksini topadi. Lekin oxirgi yillarda milliy qonunchilikda umumiy o'xshashliklar mavjud bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu holat Yevropa Ittifoqi doirasida Yevropaning integratsiyalashuvi natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga asos sifatida sug'urta vositachiligini tartibga soladigan "Vositachilar to'g'risida"gi Yevropa Ittifoqining 1976 yildagi 77/92/SEE –sonli direktivasini keltirishimiz mumkin[85].

Sug'urta agentlari sug'urtalovchi nomidan sug'urta bozorida ishtirok etishlari jihatidan kelib chiqib, ularning faoliyatlari sug'urtalovchilar bilan birga tartibga solinadi. Sug'urta brokeri rivojlangan mamlakatlarda sug'urtalanuvchi (qayta sug'urtalanuvchi) manfaatida bo'lganligi uchun uning faoliyati davlat tomonidan alohida, maxsus usul va shaklda tartibga solinadi (litsenziyalashtirilishi va h.k.).

Sug'urta agentlari sug'urtalovchi bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlaydi (ayrim davlatlarda mehnat shartnomalari asosida). Chegaralangan tamoyil

---

[84] Elektron manbaa: http: // www.insuranceconsulting.ru

[85] Жилкина М., Государственное регулирование деятельности страховых агентов и брокеров (Международный опыт). Финансовая газета Региональный выпуск 2000 йил 2-сон. 12 б.

amal qiladigan mamlakatlar ham mavjud. Unga ko'ra sug'urta agentlari faqat bitta sug'urtalovchi bilan ishlashiga ruhsat beriladi xolos.

Sug'urta brokerlari sug'urta bozorining iqtisodiy mustaqil ishtirokchilari bo'lib. tadbirkorlik faoliyatining subyektlaridir. Sug'urta riski joylashtirilishida sug'urta brokerining iqtisodiy manfaatdorligi bo'lmasligi va mijozni brokerning noinsof harakatlaridan himoya qilish maqsadida chet ellarda davlat sug'urta nazorati va monopoliyaga qarshi kurash organlari sug'urta brokerlari bilan yirik sug'urta kompaniyalarining kelishuvlarini va moliyaviy oqimlarni nazoratga olishlari mumkin.

Bundan tashqari bir qator mamalakatlarda sug'urta brokerlari sug'urta kompaniyalarining ta'sischilari bo'lishlari mumkin emasligi, jismoniy shaxslar sug'urta va brokerlik tashkilotlarida bir vaqtning o'zida faoliyat ko'rsatishlari (ishlashlari) mumkin emasliklari va boshqa shu kabi cheklovlar o'rnatilgan.

Barcha davlatlarda sug'urta brokerlari davlat ro'yxatidan o'tishlari va davlat reestriga kiritilishlari talabi o'rnatilgan. Ko'p mamlakatlarda brokerlar uchun yagona talab, davlat ro'yxatidan o'tish – yuridik shaxslar uchun yoki xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish – jismoniy shaxslar uchun belgilangan.

Ayrim mamalakatlarda davlat ro'yxatidan o'tish talabi sug'urta agentlari uchun ham majburiydir. Misol uchun Italiyada sug'urta agentlari dastlab xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkaziladilar, so'ng sug'urta agentlarining yagona reestriga kiritiladilar[86].

Ko'p mamlakatlarda (xususan, Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida) qonun hujjatlari bilan sug'urta vositachilariga maxsus tayyorgarlikdan o'tish talablari o'rnatilgan. Lekin bu talablarning mazmuni har xil; misol uchun, ayrim davlatlarda sug'urta vositachilarining kasbiy tayyorgarlikdan o'tish muddatlari ikki xaftadan bir necha oygacha belgilangan. Sug'urta nazorati organlari (sug'urta tashkilotlari uyushmalari va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda) zimmasiga sug'urta vositachilarining kasbiy tayyorgarliklari va malaka oshirishlari ustidan nazorat qilish vazifalari yuklatilgan.

Ular o'quv kurslari dasturlarini, malaka talablarini, imtihonlarni o'tkazish tartibini va boshqa shu kabi standartlarni ishlab chiqib, tasdiqlaydilar. Sug'urta agentlariga nisbatan sug'urta brokerlarining kasbiy tayyorgarlik darajasi qattiqroq nazorat qilinadi. Bundan tashqari ayrim hollarda maxsus tayyorgarlikdan o'tishdan sug'urta vositachiligi faoliyatida uzoq muddatli stajga ega bo'lgan shaxslar ozod etilishlari mumkin.

Umuman olganda sug'urta brokerlarining faoliyati barcha mamlakatlarda davlat tomonidan sug'urta agentlari faoliyatiga nisbatan qattiqroq tartibga solinadi.
Germaniyada sug'urta bozori davlat tomonidan qattiq tartibga solingan. Sug'urta nazorati organlarida ro'yxatdan faqat sug'urta broker (makler)lari o'tadilar. Sug'urta agentlarining faoliyatlari federal qonunchilik asosida sug'urtalovchi va agent o'rtasida tuziladigan shartnoma munosabatlari bilan tartibga solinadi.

Germaniyada faqat bitta sug'urta kompaniyasiga ishlaydigan, bir nechta sug'urta kompaniyasi bilan ishlaydigan va sug'urta kompaniyasi ular uchun asosiy ish joyi hisoblanmagan, sug'urta agentligi faoliyati boshqa kasbga qo'shimcha bo'lgan "o'rindosh" agentlar faoliyat yuritadilar.

---

[86] Elektron manbaa: http: // www.insuranceconsulting.ru

Germaniya va Fransiyada sug'urta brokerlarining vositachiligi yordamida barcha sug'urta shartnomalarining 18-20 %, Buyuk Britaniyada 70 %, AQSH da 80 %dan kam bo'lmagan miqdori tuziladi. AQSHda eng katta bo'lgan 100ta sug'urtalovchi faqat sug'urta brokerlari vositachiligida sug'urta shartnomalarini tuzadilar[87].

Ingliz-amerika huquq tizimida sug'urta munosabatlarini tartibga solishga katta e'tibor berilgan. Lekin uning hamma tegishli qarorlari davlat miqyosida qabul qilinmagan. Tartibga soluvchi qarorlarning aksariyat qismi o'zini-o'zi boshqaruvchi yoki jamoat organlar maqomiga ega bo'lgan sug'urta vositachilari uyushmalariga yoki jamiyatlariga berilgan.

Rossiya Federatsiyasining sug'urta bozori infratuzilmasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uningi subyektlariga ham alohida talablar qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida sug'urta ishini tashkil etish to'g'risidagi ("Ob organizatsii straxovogo dela v RF") qonunga ko'ra jismoniy shaxs bo'lgan sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari Rossiya Federatsiyasi hududida doimiy yashaydigan fuqarolar bo'lishi lozim.

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistondagi talabdan farqli ravishda sug'urta brokerlari jismoniy shaxs ham bo'lishlari mumkin. Lekin ular xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishlari talab etilgan[88]. Sug'urta agentlari faqat fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida faoliyat ko'rsatishlari belgilab qo'yilgan. Bu holat Rossiya sug'urta kompaniyalarida sug'urta agenti lavozimi bo'lishi mumkin emasligi bilan izohlanadi[89].

Rossiya Federatsiyasida 2006 yil 1 iyuldan aktuariylarga malaka attestatiga ega bo'lishlari talabi joriy etilgan bo'lib, ular mehnat shartnomasi hamda fuqarolik huquqiy tusdagi shartnoma bo'yicha ham xizmat ko'rsatishlari mumkin[90].

Rossiya Federatsiyasida bugungi kunda yuzga yaqin syurveyerlik tashkilot mavjud bo'lib, ular asosan portlarda faoliyat yuritadilar. Ular portlarga kelayotgan yoki portdan chiqib ketayotgan tovarlarga sifat sertifikatini berish bilan shug'ullanadilar. Ular kelgan yoki ketayotgan tovarlarni sifatini va miqdorini aniqlab beradilar (sifat va miqdor syurveyerlari).

Sug'urta hodisalarini ko'rib chiqilishida ishtirok etadigan syurveyerlar ham mavjud bo'lib, ular yuqori malakali mutaxassis hisoblanadilar. Bu kabi barcha syurveyerlarning faoliyati Rossiya Federatsiyasining Transport vazirligi tomonidan litsenziyalashtiriladi[91].

Qozog'istonda sug'urta nazorati bevosita Qozog'iston Respublikasi Milliy bankining bank va sug'urta nazorati Departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Qozog'iston sug'urta bozorida bugungi kunda yigirmaga yaqin sug'urta brokeri faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ular G'arb tajribasidan farqli ravishda sug'urta shartnomasining summasiga qarab komission haqni sug'urta kompaniyalaridan olishmoqda.

---

[87] Elektron manbaa: http: // www.panpatroskin.ru

[88] Elektron manbaa: http: // www. revolution.allbest.ru

[89] Страховые агенты: специфика деятельности, правовая основа"Финансовая газета". 2016 й, 45-сон.

[90] Elektron manbaa: http: // www. revolution.allbest.ru

[91] Elektron manbaa: http: // www.dedal.ua

Miqdor jihatidan sug'urta brokeri sug'urta kompaniyasiga 10-15 % mijozlarni olib kelsada, hajm jihatidan esa bu ko'rsatkich sug'urta portfelining 40-50% ni tashkil etadi. Ular asosan brokerlar orqali sug'urta shartnomalarini tuzadigan yirik xalqaro kompaniyalar va neft bilan ishlaydigan tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydilar[92].

Sug'urta vositachilari faoliyatini tartibga solishni yuqori rivojlangan tizimi Buyuk Britaniyada tashkil topgan. U yerda sug'urta nazorati organiga murojaat qiluvchi har bir sug'urtalovchi jalb etilishi mumkin bo'lgan sug'urta vositachilarini aniqlovchi hujjatlarni va ular bilan tuziladigan shartnomalarni loyixalarini taqdim etadi. Sug'urta kompaniyalarining sug'urta vositachilari bilan bo'lgan keyingi munosabatlari uning moliyaviy hisobotlarida aks ettiriladi.

Buyuk Britaniyada sug'urta brokerlari faoliyatini nazorat qilishni murakkab tizimi amal qiladi, chunki bu davlatda ular sug'urta bozorining asosiy subyekti hisoblanadi. Tarixdan sug'urta brokerligi instituti dengiz sug'urtasidan boshqa tarmoqlarga o'tib kelgan, bugungi kunda aksariyat sug'urta turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan brokerlar orqali sug'urta xizmatlarining ko'p qismi sotilishi kuzatilmoqda.

Xususan, Lloyd korporatsiyasi faqat sug'urta brokerlari orqali ishlaydi. Buyuk Britaniyada sug'urta brokerlari boshqa mamlakatlardan ancha farqli ravishda hayotni sug'urta qilish bozorida keng namoyon bo'lgan.

Buyuk Britaniyalik sug'urta brokerlari har yili yangidan ro'yxatdan o'tib, litsenziyalarini yangilaydilar. Bu yerda 1977 yilda tashkil etilgan sug'urta brokerlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi kengash faoliyat ko'rsatib keladi. Davlat ushbu kengashga sug'urta brokerlarini reestrini yuritish va ro'yxatdan o'tkazish funksiyalarini bergan. Bundan tashqari brokerlik faoliyatini nazorat qilishda brokerlik faoliyatining standartlari va me'yorlarini ishlab chiquvchi, o'qitilishida ishtirok etuvchi va malakalarini tekshirishda ishtirok etuvchi o'z-o'zini boshqaruvchi va jamoat tashkilotlari ishtirok etadilar.

Buyuk Britaniyada sug'urtalanuvchilarni huquqlari himoya qilinishi maqsadida boshqa davlatlarda mavjud bo'lmagan talablar mavjud. Sug'urta brokerlari sug'urta kompaniyalari singari auditorlik tekshiruvidan o'tishlari shartligi talabi qo'yilgan. Qolaversa, sug'urta brokeri o'zining kasbiy javobgarligini sug'urta qilishi shart. Sug'urtalovchining bankrotligi holatlarida uning sug'urtalanuvchi oldidagi majburiyatlarini bir qismi sug'urta brokeri ajratmalari hisobidan to'lanadi.

Bundan tashqari sug'urta brokerlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi kengash tarkibida surishtiruv qo'mitasi va tartib intizom qo'mitalari faoliyat ko'rsatadi. Ular sug'urta brokerlari tomonidan mijozlarning huquqlari buzilishi holatlarini aniqlaydilar va aniqlangan holatlar bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishni ta'qiqlashgacha bo'lgan choralar ko'rishga vakolatli hisoblanadi[93].

AQSHda sug'urta polislarini sotuvchi yirik sug'urta agentliklari ancha mustaqillikka ega bo'lib, sug'urta bozorida ma'lum kuchga ega. Sug'urta faoliyatini, xususan, sug'urta vositachiligini tartibga solish shtatlar miqyosida amalga oshiriladi.

---

[92] В.Калабин, корреспондент «Эксперт Казахстан». Электронный ресурс: http://www.insur-info.ru/press/25512/

[93] Жилкина М. Государственное регулирование деятельности страховых агентов и брокеров (Международный опыт). Финансовая газета. Региональный выпуск. 2000 йил 2-сон. 12 б.

AQSHda sug'urta agentlari faqat bitta sug'urta kompaniyasida hamda birdaniga bir nechta sug'urta kompaniyalari xizmatlarini sotish bilan shug'ullanishlari mumkin.

Sug'urta agenti bo'lib ishlash, talabgordan nafaqat sug'urta sohasida bilimga ega bo'lishi, balki inson psixologiyasidan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Sug'urta agentlarini o'qitilishi 1-6 oy davomida biznes maktablarida sirtqi va kunduzgi shakllarda olib boriladi. AQSHda sug'urta agenti kasbiga o'qitish sug'urta kompaniyalari tomonidan tashkil etilgan va moliyalashtiriladigan bir qator kollejlar tomonidan amalga oshiriladi. Rossiyada sug'urta agentini o'qitish sug'urta kompaniyalari tomonidan tashkillashtirilgan maxsus kurslarda yoki maktablarda amalga oshiriladi[94].

Bora-bora sug'urta vositachilari faoliyati milliy sug'urta bozorlari chegaralaridan chiqib, xalqaro tusga ega bo'ldi (misol uchun Lloyd brokerlari butun dunyo bo'ylab ish yuritadilar). Shundan kelib chiqib, sug'urta vositachilari faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotini tuzish zaruriyati yuzaga kelgan va 1937 yili sug'urta vositachilarining xalqaro uyushmasi tashkil etilgan (BIPAR).

Uning tarkibiga professional sug'urta vositachilari milliy uyushmalari kiradi. BIPARning shtab-kvartirasi Parijda, doimiy faoliyat olib boruvchi kotibiyati Bryusselda joylashgan. Uning asosiy vazifalari – sug'urta vositachilari milliy uyushmalarini rivojlantirishda ko'maklashish, faoliyatlarini uyg'unlashtirish, sug'urta qonunchiligini ishlab chiqishda ishtirok etish, xalqaro munosabatlarda sug'urta vositachilariga yordam berishdan iborat.

Bugungi kunda BIPARda butun dunyo bo'yicha faoliyat olib boruvchi yaqin 250 mingdan ziyod professional sug'urta vositachilari va vositachilik tashkilotlarini birlashtiradigan 32 ta mamlakatdan 50 ta milliy uyushma ishtirok etadi. Sobiq SSSR dan BIPARda faqat Ukraina ishtirok etmoqda (Ukraina professional sug'urta vositachilari uyushmasi BIPARga 1998 yilda qabul qilingan).

Buyuk Britaniyaniyaning 1977 yilda qabul qilingan sug'urta brokerlari to'g'risidagi qonuni (Insurance Brokers Act, 1977) asosida sug'urta brokerlarini registratsiya kengashi (Insurance Brokers Registration Council, IBRC) tuzilgan bo'lib, unga Angliya sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta brokerlariga nisbatan nazorat va boshqaruv funksiyalari berilgan. Qolaversa, IBRC sug'urta brokerlarining davlat reestrini yurituvchi tashkilotdir. IBRC reestriga kiritilmagan sug'urta brokerlarining faoliyati barcha kelib chiquvchi sabablar bilan birga noqonuniy hisoblanadi.

Agar brokerning sug'urta polislarini sotish natijasida olgan komissiya haqlari ma'lum belgilangan miqdordan oshadigan bo'lsa, u milliy o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilot – Brokerlar, menejerlar va moliya vositachilarining boshqaruvchi asossiatsiyasiga (Financial Intermediaries, Managers and Brokers Regulatory Association, FIMBRA) a'zo bo'lib kirishi lozim.

1819 yilda Buyuk Britaniyada aktuariylar faoliyatini tartibga soluvchi ilk qonun hujjati qabul qilingan. Birinchi professional aktuariylar uyushmasi, ya'ni aktuariylar instituti London shahrida 1848 yili tashkil etilgan. 1856 yili esa Shotlandiyaning universitetida aktuariylar fakulteti tashkil topgan. 1895 yilda Bryusselda aktuariylarning birinchi xalqaro kongressi bo'lib o'tgan va bu kongressda

[94] Страховой агент (профессия). Электрон манба: http. // www.wikipedia.ru

Xalqaro aktuariylar uyushmasi tashkil etilgan. Bugungi kunda bu uyushma 40 ta uyushmani birlashtiradi[95].

Yevropa malakatlarida aktuariy statusini olish uchun 18ta fan (predmet) bo'yicha imtihon topshirish kerak (yozma ravishda). Buning oldida besh yillik o'qish ham mavjud bo'lib, aktuarlik tajribasiga ham ega bo'lish lozimdir. AQSHning aktuarlar jamiyati (SoA) da esa 12 ta imtihon topshirilishi talab etiladi.

Professional aktuariylar uyushmalari ushbu kasbga ega bo'lish uchun ma'lum talablar va imtihonlar ro'yxatini joriy etadilar. Ularning o'zlari ushbu imtihonlarni o'tkazadilar. Aktuariylikka universitetda o'qish mumkin, lekin professional tashkilotning teng huquqli a'zosi bo'lish uchun qo'shimcha ravishda assotsiatsiyaga imtihon topshirish lozim bo'ladi. Bir qator malakatlar – Italiya, Finlyandiya va Gretsiyada – malaka imtihonlari davlat nazoratida turadi. Avstriya, Ispaniya, Daniya va Portugaliyada – aktuar ta'limga ega bo'lganlik haqidagi universitet diplomiga ega bo'lishni o'zi kifoyadir[96].

Bugungi kunda Xalqaro tajribada aktuariy deb, oliy o'quv bilim yurtida kerakli tayyorgarlikdan o'tib, ma'lum imtihonlarni topshirgan va u yoki bu milliy aktuariylar tashkilotiga (misol uchun Yaponiya, Avstraliya va Buyuk Britaniyada Akutariylar Institutiga, Kanada, Germaniya va AQSHda Aktuariylar Jamiyatiga, Daniya Fransiya va Finlyandiyada Aktuariylar Uyushmasiga) a'zo bo'lgan shaxslar tan olinadi[97].

AQSHda zarar bo'yicha ekspertlarni ikki xili mavjud: biri (mustaqil adjasterlar) sug'urta kompaniyalariga xizmat ko'rsatsa, boshqasi (jamoat adjasterlari yoki zarar bo'yicha adjaster) sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsatadi. Adjasterlarning bunday xilma-xilligi Kanadada ham mavjud[98].

---

[95] И Котлобовский, Актуарии вновь актуальны, "Экономические стратегии", 2004 й. 2-сон, 68-71 б.

[96] И Котлобовский, Актуарии вновь актуальны, "Экономические стратегии", 2014 й. 2-сон, 68-71 ст.

[97] Elektron manba: http: // www.actuaries.ru.

[98] Профессия которой нет. Elektron manba: http: // www. sluchay.ru

9-MAVZU.
SUG'URTANING HUQUQIY ASOSLARI

9.1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati

Sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlari tizimida muhim o'rin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Moliya yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida vujudga keladigan maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlarini ifodalasa, kredit – aholi, korxona va tashkilotlar ixtiyoridagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni jalb etish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari yig'indisidir.

Sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro'y berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash bilan bog'liq maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisidir.

Ma'lumki, fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning xatti-harakati doirasini belgilash zarur.

Shuningdek sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi. Shu bois sug'urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Shuning uchun bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sug'urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- ✓ fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- ✓ sug'urta tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar;
- ✓ fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- ✓ sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug'urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug'urta

tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo bo'ladi. Ya'ni, tuzilgan shartnomaga ko'ra, fuqaro o'z vaqtida sug'urta mukofotini to'lashi shart.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda esa, sug'urta tashkiloti sug'urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug'urta qoplamasi (summasini) fuqaroga to'lab berishi lozim. Ko'rinib turibdiki, shartnoma – fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning o'zaro munosabatini huquqiy tartibga solayapti.

Sug'urta tashkilotlarining bir-birlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sug'urta pulini va qayta sug'urta qilish bilan bog'liq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, sug'urta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, binobarin, sug'urtalanuvchilar oldida o'z majburiyatini bajarishini ta'minlash maqsadida sug'urta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sug'urta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin»[99] deb alohida qayd etilgan.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sug'urtalanuvchilar bo'lgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liqdir. Amaliyotda shunday holatlar bo'ladiki, sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasi tufayli ko'rilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda o'z manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sug'urtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sug'urta tashkilotlariga nisbatan paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sug'urta faoliyati» to'g'risidagi Qonunda o'z aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat bo'lganda esa, sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish

[99] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 959-moddasi.

maqsadida undan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sug'urtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabati qatnashchilarining xatti-harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Fuqarolik va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan ko'rib bo'lmaydigan sug'urtaviy himoya qilish uchun ko'pchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig'indisiga sug'urta huquqi deyiladi.

9.2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ikki turga bo'lish mumkin:

- sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar;
- sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yilning 5 aprelida qabul qilingan va shu yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni hamda 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi, 2009 yil 17 martda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida", 2015 yil 26 mayda "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlar sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993 yili Oliy Majlis "Sug'urta to'g'risida" Qonun qabul qilgan edi. O'tgan yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun o'sha paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu qonun sug'urta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi.

Jumladan, unda sug'urta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatini bajarish tartibi to'liq yoritilmagan. Shuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganligi uchun tomonlarning javobgarligi o'z aksini topmagan hamda davlat sug'urta nazorati organining sug'urta tashkilotlariga nisbatan ta'sir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablarini hisobga olgan holda, amaldagi "Sug'urta to'g'risida"gi Qonunni yangilash

va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuni e'tiborga olib, 2002 yilning 4-5 aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

Ma'lumki, sug'urta sohasini huquqiy tartibga soluvchi 2002 yil aprel oyigacha amalda bo'lgan qonun "Sug'urta to'g'risida" deb ataladi. Holbuki, biz fikr-mulohaza yuritmoqchi bo'lgan qonunning nomi esa "Sug'urta faoliyati to'g'risida" deyiladi va shubhasiz, bu holat diqqatimizni o'ziga jalb etdi. Ko'pchilik muhtaram talabalarimizda haqli savol tug'ilishi mumkin: sug'urta va sug'urta faoliyati tushunchalari o'rtasida farq bormi? Savolga javoban biz mutaxassislar aytamizki: farq bor.

Sug'urtaning mohiyatini oddiy til bilan ifodalaydigan bo'lsak, oldindan ko'rib bo'lmaydigan har xil hodisalar ro'y berishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslar ko'radigan zararlarni sug'urta tashkiloti tomonidan qoplash bilan bog'liq munosabatdir. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, sug'urta tashkiloti o'z xizmatini mijozlarga tegishli haq - sug'urta mukofoti to'lash evaziga ko'rsatadi.

Sug'urtalovchi mijozlardan kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etadi va bu jamg'arma mablag'lari faqat sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplaydi. E'tibor bergan bo'lsangiz, sug'urta munosabatlarida ikkita tomon ishtirok etayapdi: sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) va yuridik hamda jismoniy shaxslar (sug'urtalanuvchilar). Endi, sug'urta faoliyati tushunchasiga kelsak, qonunda ta'kidlanishicha, u sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faqatgina sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchidan iborat emas. Unda qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, sug'urta brokerlari va agentlari ham ishtirok etadi.

Yangi qonunning e'tiborga molik tomonlaridan biri, unda, aniqroq aytadigan bo'lsak, uning 4-moddasida sug'urtalovchilarning sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi qayd etilgan. Qayd etish joizki, sug'urta faoliyati ham tadbirkorlikning bir ko'rinishi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kechayotgan va tadbirkorlik harakatlariga keng yo'l ochilayotgan bir paytda, tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan-sug'urtalovchilar uchun bunday cheklovning qonun yo'li bilan belgilanishiga sabab nima? O'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'pgina sug'urta tashkilotlari "sug'urtalovchi" niqobi ostida turli tijorat operatsiyalarini, xususan, savdo-vositachilik ishlarini amalga oshiradilar.

Yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urta qilish hisobiga kelib tushgan sug'urta mukofotlari, qoidaga ko'ra, sug'urta qoplamalarini to'lashga mo'ljallangan zaxira jamg'armalarini tashkil etishga sarflanmasdan, balki sug'urta faoliyati bilan bog'liq

bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga sarflangan holatlar ham bo'lgan. Sug'urtaning eng asosiy tamoyillaridan biri-sug'urtalovchilarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni ta'minlaydigan sug'urta zaxiralariga ega bo'lishidir.

Taassufki, ba'zi sug'urtalovchilarimiz, bunday zaxiralarni shakllantirmaganliklari oqibatida murakkab moliyaviy holatni boshidan kechirganligi sir emas. Ayniqsa, bu ko'p ming sonli sug'urtalanuvchilar uchun noqulay vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida» Qonunning diqqatga sazovor joylaridan yana biri, uning 10-moddasida sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini aniq ko'rsatib qo'yilganligidir. Ma'lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinganlar.

Ammo, uzoq vaqt, aniqrog'i, 1998 yilning birinchi yarmigacha sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug'urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan tashkilotlarning faoliyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatiga olishda muammolar paydo bo'lgan. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun 29 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga bag'ishlangan. Unda jami 47 ta modda mavjud. Kodeks sug'urta tashilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun sug'urta tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Sug'urtaning iqtisodiy tabiati uning funksiyalarida o'z aksini topadi. Moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan bir qatorda sug'urta ham bir qator funksiyalarni bajaradi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning funksiyalari bir necha ko'rinishda talqin etiladi. Bizning fikrimizcha, sug'urta quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq funksiya;
- sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq funksiya;
- nazorat funkyaiyasi.

Yuqorida qayd etilgan funksiyalar sug'urta faoliyatida doimiy hisoblanadi va har qanday sharoitda o'zgarmasdir. Sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun, albatta, sug'urta tashkilotida yetarli miqdorda pul mablag'lari fondi bo'lishi lozim.

Agar, sug'urtalovchi pul fondini, ya'ni sug'urta fondini tashkil etmasa, uning moliyaviy ahvoli murakkablashishi mumkin. Tashkil etilgan sug'urta fondining mablag'lari qat'iyy maqsadli xarakterga ega bo'lib, u faqat sug'urta hodisalari ro'y berganda qoplama berish uchun ishlatiladi. Sug'urta fondining mablag'larini boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin emas. Sug'urta fondi mablag'lari davlat tomonidan olib qo'yilishi va soliqqa tortilishi mumkin emas.

Rivojlangan davlatlarda sug'urta sohasi rivojlangan tarmoqlardan biri hisoblanib, u yerda sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha bir qancha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi bilan o'ziga xos xususiyatiga ega. Masalan, Germaniyada sug'urta kelishuvi to'g'risidagi qonun 1908-yil 30 mayda qabul qilingan.

Mazkur qonunda sug'urta shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslari va asosiy tamoyillari belgilab berilgan hamda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlari ham aniq o'z ifodasini topgan. Shu bilan bir qatorda sug'urta nazorati to'g'risidagi qonun 1901 yil 12 mayda qabul qilingan. Ushbu qonun sug'urta tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Shuningdek Germaniyada Federal muassasa to'g'risidagi qonun 1951 yil 31 iyulda qabul qilingan bo'lib, unda Federal muassasaning funksiyalari, huquqlari, tarkibi, maqomi, huquqiy asoslari belgilab berilgan. Mazkur qonun Federal muassasaning sug'urta tashkilotlariga nisbatan vakolatlarini aniqlab beradi.

Germaniyada Federal muassasa sug'urta bozoridagi ishtirokchilarning faoliyatini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi organ hisoblanib, uni Prezident boshqaradi, mustaqil davlat organi bo'lib hisoblanadi va u Moliya vazirligi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Germaniyada Federal muassasa qoshida "Sug'urta kengashi" faoliyat yuritadi. "Sug'urta kengashi" ekspertlardan tashkil topgan bo'lib, 5 yil muddatga Moliya Vaziri tomonidan tayinlanadi. Ushbu "Sug'urta kengashi" har biri 5 nafar vakildan bo'lgan 5 ta palatadan iborat.

Germaniyada sug'urta faoliyatini nazorat qilib boruvchi Federal muassasaning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ sug'urta faoliyati chegaralarini o'rnatib beruvchi normativ aktlarni qabul qilish;
- ✓ sug'urta kompaniyalarini litsenziyalash;
- ✓ sug'urtalovchilarning joriy nazoratini amalga oshirish;
- ✓ sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini nazorat qilish;
- ✓ sug'urtalanuvchilar huquqlarini himoya qilish;
- ✓ sug'urtalovchilar buxgalteriya hisobi va hisobotlarini nazorat qilish;
- ✓ sug'urta faoliyati sohasida metodologiyalarni ishlab chiqish;
- ✓ muammoli sug'urta kompaniyalarga o'z vakillarini yo'naltirish.

Germaniyada sug'urta sohasining eng katta ulushi davlatlararo jismoniy shaxslarni sug'urtalash bo'lib, nemis sug'urta bozorining 87% ni tashkil qiladi.

9.3. Sug'urta faoliyatini qonun osti hujjatlari bilan tartibga solish

Qonun osti hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning normativ hujjatlari kiradi.

Mustaqillik davrida sug'urta faoliyati bilan bog'liq bir qancha Prezident farmonlari qabul qilingan. 1997 yil 18 fevralda «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini, 1997 yilning 25 fevralida esa «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish bo'yicha Prezident farmonlari qabul qilingan. Bu farmonlarda qayd etilgan kompaniyalar 5 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2002 yil 31 yanvarida «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmon qabul qildi. Bu farmon sug'urta xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, respublikada sug'urta bozorini taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug'urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilinganligini alohida ta'kidlash joiz.

Shuningdek, farmonda 2002 yilning 1 fevralidan boshlab, mulkchilik shakllaridan qat'iyy nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilinishi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsadni ko'zlagan holda mazkur tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shaxobchalarini tashkil etishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirilishi aniq belgilab qo'yilgan.

Shunisi e'tiborliki, soliq olishdan bo'shaydigan mablag'larni tarkibida davlat ulushi bo'lgan sug'urta tashkilotlari ustav jamg'armalarini ko'paytirishga yo'naltirish chog'ida mazkur mablag'lar davlatga tegishli ulush miqdoriga qo'shib hisoblaydi. 2002 yilning 1 fevralidan boshlab to'rt yil mobaynida sug'urta tashkiloti tugatilgan yoki u sug'urta faoliyatini to'xtatgan hollarda daromad (foyda) solig'ining summasi ushbu farmonga muvofiq berilgan butun imtiyozli davr uchun to'liq miqdorda undirib olinadi.

Farmonda belgilab qo'yildiki, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-xarajatlari daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanadi. 2002 yilning 1 fevralidan boshlab xo'jalik yurituvchi subyektlar xaridorlarga xizmat qiladigan banklarning kafolatlari yoki eksport shartnomalarining siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda oldindan haq olmasdan va akkreditiv ochmasdan erkin almashtiriladigan valyutaga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilishlari mumkin.

Mazkur Farmonga muvofiq ravishda sug'urta tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish, sug'urtalovchilarning moddiy-texnika bazasini va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning mintaqaviy vakolatxonalarini kengaytirish va aholining sug'urta tashkilotlariga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida Vazirlar

Mahkamasi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yilning 27 noyabrida 413-sonli qaror qabul qildi.

Ushbu qarorga ko'ra, sug'urta bozori professional ishtirokchilari uchun ustav kapitalning eng kam miqdorlariga bo'lgan talab belgilandi. Shuningdek, ular faoliyatini litsenziyalash tartibi ham amaliyotga joriy etildi. Eng muhimi, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta bilan bog'liq xarajatlari ular tovar aylanmasining 2,0 foizi miqorida soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadigan bo'ldi.

2002 yil 27 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasiga muvofiq, "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi nizomda sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan.

Mazkur sug'urta faoliyati klassifikatorining qabul qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta faoliyatini amalga oshirishda asos hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati uchun litsenziya olishda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarda ham faoliyat yuritmoqchi bo'lgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta shartomlaridan nusxa taqdim etilishi hamda arizada sug'urta klasslari nomlari ham keltirilishi shart. Keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha boshqa talablar ham o'rnatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 872-sonli qarori qabul qilinib, mazkur qarorda sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning respublika mintaqalarida agentlik shaxobchalarini kengaytirish va investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda katta ahamiyat berildi.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagi sohalarda faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilindi[100]:

- umumiy sug'urta sohasida - 750 ming yevroga ekvivalent summada;
- hayotni sug'urta qilish sohasida - 1000 ming yevroga ekvivalent summada;
- majburiy sug'urta bo'yicha - 1500 ming yevroga ekvivalent summada;
- faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha - 4000 ming yevroga ekvivalent summada.

Faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari (sug'urtalovchilar) 2010 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatda ustav kapitali miqdorlarini yuqorida ko'rsatilgan talablarga muvofiqlashtirilishini ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Agarda 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab mazkur qarorning 1-bandi talablariga javob

[100] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 872-sonli qaror.

bermaydigan sug'urtalovchilarning litsenziyalari amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turish va tugatish bo'yicha choralar ko'rish maqsadga muvofiq deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 mayda «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 1544-sonli qarori qabul qilinib, ushbu qarorda sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtachilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, shuningdek sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining ilovaga muvofiq sug'urta faoliyati turlariga qarab, sug'urtachilarning ustav kapitali minimal miqdorlarini 2012-2014 yillar mobaynida bosqichma-bosqich, tabaqalashtirilgan tarzda oshirib borish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi. Unga ko'ra:

9.2-jadval

Sug'urtachilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari[101]

(ekvivalenti ming evro)

Sug'urta faoliyati turlari	2012 yil 1 iyuldan	2014 yil 1 iyuldan
Umumiy sug'urta sohasida	1 125,0	1 500,0
Hayotni sug'urtalash sohasida	1 500,0	2 000,0
Majburiy sug'urtalash bo'yicha	2 250,0	3 000,0
Faqat qayta sug'urtalash bo'yicha	5 000,0	6 000,0

Ishlab turgan sug'urta kompaniyalari (sug'urtachilar) ustav kapitali miqdorlarining ushbu qarorda belgilangan talablar va muddatlarga muvofiq holga keltirilishini ta'minlashlari belgilab qo'yildi.

Sug'urta bozori va sug'urta kompaniyalari faoliyatini shaffofligini ko'rsatib beruvchi qonunosti hujjatlaridan biri bu "Sug'urtalovchilar tomonidan yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilish tartibi to'g'risidagi" nizom.

Ushbu nizom sug'urtalovchilar tomonidan e'lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek uni e'lon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

Sug'urtalovchilar tomonidan e'lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalarga (ro'yxat raqami 1945, 2009 yil 20 aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009., 17-son, 217-modda) muvofiq tuzilgan sug'urtalovchilarning yillik moliyaviy hisobot shakllari;

– O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»da (ro'yxat raqami 474, 1998 yil 14 avgust) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining

[101] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 31-mayda «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 1544-sonli qarori

me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 1999., 5-son) belgilangan talablarga muvofiq ravishda tuzilgan, sug'urtalovchi faoliyatining yakuniy natijalariga hisobot yilida ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar bayon etilgan tushuntirish xati;

– majburiy auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha tuzilgan auditorlik xulosasi.

Aksiyadorlik jamiyati bo'lgan sug'urtalovchi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin e'lon qiladi.

Sug'urtalovchi qo'shimcha ravishda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa axborotni ham e'lon qilishi mumkin.

Sug'urtalovchi yillik moliyaviy hisobotni majburiy auditorlik tekshiruvi yakunlanganidan keyin 15 kun ichida, lekin sug'urtalovchining yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin, o'zining rasmiy veb-saytida va moliyaviy-iqtisodiy yo'nalishdagi respublika bosma nashrlarida e'lon qiladi.

Bunda sug'urtalovchi tomonidan (aksiyadorlik jamiyati bo'lgan sug'urtalovchi bundan mustasno) bosma nashrlarda yillik moliyaviy hisobotning faqat quyidagi shakllari (qisqartirilgan shaklda bo'lishi mumkin) sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida e'lon qilingan yillik moliyaviy hisobotida majburiy tartibda ko'rsatilgan holda e'lon qilinadi:

«Buxgalteriya balansi» — 1-sonli shakl — sug'urta;

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» — 2-sonli shakl — sug'urta.

Sug'urtalovchi o'zi tomonidan e'lon qilingan yillik moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda besh ish kuni ichida o'zgartirilgan ma'lumotlar, o'zgartirish sabablari hamda oldin e'lon qilingan axborotni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy ravishda ko'rsatgan holda o'zgartirilgan yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi shart.

Sug'urtalovchi o'zi tomonidan yillik moliyaviy hisobot (o'zgartirilgan yillik moliyaviy hisobot) e'lon qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida tegishli bosma nashrning nusxasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etishi shart.

Sug'urtalovchi o'zi tomonidan e'lon qilingan yillik moliyaviy hisobotning to'liqligi va ishonchliligi uchun javobgardir. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur qarorlarni qabul qilish va uni takomillashtirishdan asosiy maqsad shundaki, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda sug'urta sohasini rivojlantirish va iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, shuningdek jahon talablariga mos hamda jahonning ilg'or tajribalariga javob bera oladigan, to'laqonli sug'urta xizmatlarini ko'rsata oluvchi mustahkam sug'urta tizimini yaratish iborat.

10-MAVZU.
SUG‘URTA TASHKILOTLARINING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI VA TUZILMASI

10.1. Sug‘urta sohasida davlat monopoliyasining tugatilishi

Sug‘urta sohasida davlat monopoliyasining tugatilishi 1991 yil noyabr oyida "Mol-mulklarni davlat taassarufidan" chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida» qonunning qabul qilinishi bilan O‘zbekiston Respublikasida keng miqyosda davlatga tegishli bo‘lgan korxonalarni ijaraga topshirish, ularni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg‘unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Ma’lumki, ilgari hamma korxonalar davlatning ixtiyorida bo‘lganligi tufayli, ularni har xil noxush hodisalardan sug‘urta qilishga ehtiyoj bo‘lmagan. Sababi, ushbu korxonalarga sug‘urta hodisalari natijasida zarar yetkazilsa, bu zararlar davlat mablag‘lari hisobidan bemalol qoplanaverar edi.

Ammo, yuqorida ta’kidlaganimizdek, mol-mulklarni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirish natijasida sektorda o‘n minglab korxonalarni paydo bo‘lishi, o‘z-o‘zidan sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi. Negaki, ilgarigi tajribadan farqli o‘laroq, nodavlat sektordagi korxonalar stixiyali hodisalar tufayli zarar ko‘rganda, bu zararlar davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga qo‘shimcha ravishda ta’kidlash lozimki, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar sug‘urta tizimini tubdan o‘zgartirib yubordi. Davlat sug‘urta tashkilotlariga raqobatbardosh xususiy sektorda mustaqil sug‘urta kompaniyalari vujudga kela boshladi. Bu shubhasiz, ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun qabul qilishni talab etdi.

1993 yilning 6 mayida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi Oliy Majlis) «Sug‘urta to‘g‘risida» qonun qabul qildi. Ushbu qonun sug‘urtani rivojlantirishning, sug‘urta bozorini shakllantirishning huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug‘urtaning mavqei va o‘rnini belgilab beradi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talablari to‘liqroq qondirilishini kafolatlaydi, sug‘urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta’minlaydi.

Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur qonunda davlat sug‘urtasining monopoliyasiga barham berildi. Boshqacha so‘z bilan ifodalaganda, davlat sug‘urta tashkilotlari va nodavlat sug‘urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi.

Sug‘urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o‘rtasida paydo bo‘ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Maxsus vakolatli organning sug'urta tashkilotlariga nisbatan paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sug'urta faoliyati» to'g'risidagi Qonunda o'z aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat bo'lganda esa, sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sug'urtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabati qatnashchilarining xatti-harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan ko'rib bo'lmaydigan sug'urtaviy himoya qilish uchun ko'pchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig'indisiga sug'urta huquqi deyiladi.

10.2. mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar shakllidagi sug'urta tashkilotlari

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlar bozorida aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari bir qatorda mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar ko'rinishidagi sug'urta kompaniyalari ham faoliyat olib bormoqdalar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.[102]

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat (QMJ) - Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat deb hisoblanadi.

---

[102] O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. *2002 y., 1-son, 10-modda;* O'zbekiston Respublikasi *qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 14-son, 110-modda; 2007 y., 29-30-son, 297-modda, 50-51-son, 506-modda; 2011 y., 51-son, 542-modda; 2013y., 1-son, 1-modda; 2014 y., 4-son, 45-modda, 20-son, 222-modda; 2015 y., 33-son, 439-moddaj*

Bunday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulklari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalari qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustavida nazarda tutiladi.

Ishtirokchilardan biri bankrot bo'lib qolganida uning qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir.

Jamiyat, agar uning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Kichik tadbirkorlik subyekti bo'lmagan jamiyat to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va jamiyatning joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishi kerak. Jamiyatning muhrida uning firma nomi jamiyatning ixtiyoriga binoan boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin.

Ro'yxati qonunlarda belgilanadigan ayrim faoliyat turlari bilan jamiyat faqat litsenziya asosida shug'ullanishi mumkin. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi. Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning to'liq firma nomi jamiyatning to'liq nomini va «mas'uliyati cheklangan jamiyat» so'zlarini o'z ichiga olishi kerak. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning qisqartirilgan firma nomi uning to'liq yoki qisqartirilgan nomini hamda «mas'uliyati cheklangan jamiyat» degan so'zlarni yoki MChJ abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning to'liq firma nomi jamiyatning to'liq nomini va «qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning qisqartirilgan firma nomi jamiyatning to'liq

yoki qisqartirilgan nomini hamda «qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat» degan so'zlarni yoki QMJ abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak.

Jamiyatning firma nomi uning tashkiliy-huquqiy shaklini aks ettiruvchi, shu jumladan chet tillardan o'zlashtirilgan boshqa atamalar va abbreviaturalarni, agar qonunlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, o'z ichiga olishi mumkin emas.

Chet elliklar ishtirokida tashkil etilayotgan jamiyatning firma nomiga uning muassislari qaysi davlatga mansubligini ko'rsatuvchi qayd kiritilishi mumkin.

Jamiyatning joylashgan manzili uning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ta'sis hujjatlarida uning boshqaruv organlari doimiy joylashgan yer yoki uning asosiy faoliyati yuritiladigan joy jamiyatning joylashgan manzili deb belgilanishi mumkin. Jamiyat u bilan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim va yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organni o'zining pochta manzili o'zgargani to'g'risida xabardor qilishi shart.

Yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning ishtirokchilari bo'ladilar. Qonunda ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, jamiyatning ishtirokchilari bo'lishga haqli emaslar. Jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilishi mumkin bo'lib, u jamiyatning yagona ishtirokchisiga aylanadi. Jamiyat keyinchalik bir ishtirokchisi bo'lgan jamiyatga aylanishi mumkin.

Jamiyat yagona ishtirokchi sifatida bitta shaxsdan iborat boshqa jamiyatga ega bo'lishi mumkin emas, bir aksiyadordan iborat aksiyadorlik jamiyati jamiyatning yagona ishtirokchisi bo'lgan hollar bundan mustasno.

Jamiyat ishtirokchilarining soni ellik kishidan oshmasligi lozim. Agar jamiyat ishtirokchilarining soni belgilangan me'yordan oshib ketsa, jamiyat bir yil ichida aksiyadorlik jamiyati yoki ishlab chiqarish kooperativi etib qayta tuzilishi kerak. Agar ko'rsatilgan muddat davomida jamiyat qayta tuzilmasa va jamiyat ishtirokchilarining soni belgilangan me'yorga qadar kamaymasa, u yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning talabiga binoan sud tartibida tugatilishi kerak.

Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

- jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;
- qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;
- foydani taqsimlashda ishtirok etish;
- jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z ulushini yoxud uning bir qismini ushbu Qonunda va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda

mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

- jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'iyy nazar ushbu Qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish;
- jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Jami ulushlari jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar.

Jamiyat ishtirokchilari qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari:

- jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishlari;
- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.
- Jamiyat ishtirokchilarining qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Jamiyatning muassislari ta'sis shartnomasini tuzadilar va jamiyat ustavini tasdiqlaydilar. Jamiyat muassislari jamiyatning ijro etuvchi organlarini saylaydilar (tayinlaydilar), shuningdek jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) pulsiz hissalar qo'shilgan taqdirda, ularning pul bahosini tasdiqlaydilar. Jamiyat ustavini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, shuningdek jamiyat muassislari kiritadigan hissalarning pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qaror muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi jamiyat ta'sis hujjatlari deb hisoblanadi. Agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko'paysa, ular o'rtasida ta'sis shartnomasi tuzilishi kerak.

Jamiyat ishtirokchisining, auditorning yoki istalgan manfaatdor shaxsning talabiga binoan jamiyat ularga jamiyatning ta'sis hujjatlari bilan, shu jumladan unga kiritilgan o'zgartishlar bilan tanishish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat ishtirokchisining talabiga binoan jamiyat unga jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi nusxalarini berishi shart. Nusxalarni berganlik uchun jamiyat tomonidan olinadigan haq ularni tayyorlashga ketgan xarajatlardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan kiritiladi. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan

o'zgartirishlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi.

Jamiyatning ustavida jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilishi mumkin.

Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi tomonidan yoki jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning ijro etuvchi organi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga agar, tuzilishi jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ustavida belgilangan muddatlarda, lekin yiliga kamida bir marta o'tkaziladi. Jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan chaqiriladi.

Jamiyatning ustavida jamiyat faoliyatining yillik natijalari tasdiqlanadigan jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishini o'tkazish muddati belgilanishi kerak. Jamiyat ishtirokchilarining mazkur umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin kechi bilan olti oy ichida o'tkazilishi kerak.

Jamiyatning ustavida jamiyatning taftish komissiyasini tuzish (taftishchisini saylash) nazarda tutilishi mumkin. O'n besh nafardan ortiq ishtirokchisi bo'lgan jamiyatlarda jamiyatning taftish komissiyasini tuzish (taftishchisini saylash) shart. Jamiyatning ishtirokchisi bo'lmagan shaxs ham jamiyat taftish komissiyasining a'zosi (taftishchisi) bo'lishi mumkin.

Agar jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyatning taftish komissiyasi (taftishchisi) vazifasini jamiyat bilan, jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari bilan, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi vazifasini bajaruvchi shaxs bilan, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi a'zolari va jamiyatning ishtirokchilari bilan mulkiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti amalga oshirishi mumkin.

Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi vazifasini amalga oshiruvchi shaxs va jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi a'zolari jamiyat taftish komissiyasining a'zolari (taftishchisi) bo'lishlari mumkin emas.

Aktivlarining balans qiymati bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Jamiyatning kuzatuv kengashi ichki audit xizmatini tashkil etadi va uning xodimlarini tayinlaydi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Ichki audit xizmati jamiyatning ijro etuvchi organi, vakolatxonalari va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini,

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali jamiyatning ijro etuvchi organi, vakolatxonalari va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

10.3. Aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlari

Aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining faoliyati «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan bir qatorda «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq huquqiy tartibga solinadi. Aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari yopiq va ochiq turda tashkil etilishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishmoqda. Ular jumlasiga ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan «O'zagrosug'urta» va «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarini, «Kapital sug'urta» aksiyadorlik jamiyatlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish, ularning faoliyati va ularni tugatish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari bilan tartibga solinadi.

Qishloq xo'jaligi, bank, investitsiya va sug'urta faoliyati sohalarida, shuningdek davlat korxonalarini xususiylashtirish chog'ida aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish va ular huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Aksiyadorlik jamiyati - Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish chog'ida huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy

nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlarini qo'lga kiritadi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

Jamiyat belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida bankda hisobvaraqlar ochishga haqlidir. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan manzili ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega bo'lishi lozim. Muhrda ayni paytning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

Jamiyat o'z firma nomiga ega bo'ladi, bu nom firmaning tashkiliy-huquqiy shakli va turini (ochiq yoki yopiq) aks ettirishi kerak. Jamiyat davlat tilida va ayni paytning o'zida jamiyat xohishiga ko'ra boshqa tillarda o'zining to'liq va qisqartma nomlariga ega bo'lishga haqlidir. Jamiyatning manzili u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyga ko'ra belgilanadi. Jamiyat u bilan aloqa o'rnatib turiladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim va o'z pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni xabardor qilishi shart.

Aksiyadorlik jamiyati ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni cheklanmaydi, yopiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari esa kamida uch shaxsdan iborat qilib belgilanadi. Jamiyatning har bir muassisi uning aksiyadori bo'lishi lozim.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati. Qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga va qonun hujjatlarining talablarini hisobga olgan holda ularni erkin sotishga haqlidir. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarga yopiq obuna o'tkazishga haqli, jamiyat ustavida va qonun hujjatlarida yopiq obunani o'tkazish imkoniyati cheklab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati. Aksiyalari faqat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Bunday jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoxud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga haqli emas. Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda u yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun miqdori aksiyadorlarning chegaralangan limitidan ortib ketgan shaxslar aksiyadorlar reestrida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran olti oy ichida ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach sud tartibida tugatilishi lozim.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narxda va shartlarda, ularning har biriga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda imtiyozli olish huquqiga, agar jamiyat ustavida mazkur huquqni amalga oshirishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, ega bo'ladi.

Agar aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishda o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmasalar, jamiyat aksiyadorlar tomonidan sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun imtiyozli huquqqa ega bo'lishi uning ustavida ko'zda tutilishi mumkin.

Aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish tartibi, muddati jamiyat ustavida belgilab qo'yiladi. Imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 30 kundan kam va 60 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatni yangidan ta'sis etish va (yoki) mavjud yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish, qayta tuzish) yo'li bilan tuzilishi mumkin.

Jamiyatni ta'sis etish yo'li bilan tuzish muassislarning (muassisning) qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror ta'sis yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilgan taqdirda jamiyatni ta'sis etish haqidagi qarorni shu shaxsning yolg'iz o'zi qabul qiladi.

Jamiyat muassislari uni tuzish to'g'risida o'zaro ta'sis shartnomasini imzolaydilar, shartnomada ularning jamiyatni ta'sis etish borasida birgalikda faoliyat ko'rsatish tartibi, jamiyat ustav fondining miqdori, muassislar o'rtasida joylashtirilishi kerak bo'lgan aksiyalarning turlari, ular uchun to'lanadigan haq miqdori va bu haqni to'lash tartibi, muassislarning jamiyatni tuzishga doir huquq va majburiyatlari belgilab qo'yiladi.

Jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror muassislarning ovoz berish natijalarini hamda jamiyatni ta'sis etish, jamiyat ustavini tasdiqlash, jamiyatni boshqarish organlarini saylash masalalari yuzasidan ular qabul qilgan qarorlarni aks ettirishi kerak.

Jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi va muassis tomonidan jamiyat aksiyalari haqini to'lash uchun topshirilayotgan qimmatli qog'ozlar, boshqa mulkiy huquqlar yoki pul bilan baholanadigan boshqa huquqlarning pulda baholanishini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlar muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Chet ellik investorlar ishtirokidagi jamiyatni tuzish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda uni ta'sis etish to'g'risidagi qaror davlat mulkini tasarruf etish vakolatiga ega bo'lgan organ tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatini tuzish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar aksiyadorlik jamiyatining muassislari deb tan olinadi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jamiyat muassislari bo'lishi mumkin emas.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ uning muassisi bo'ladi.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati muassislari o'rtasida aksiyalarni taqsimlash ta'sis hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi):

- ❖ aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qiladi va uning ustavini tasdiqlaydi;
- ❖ aksiyalarga ortiqcha obunani qabul qiladi yoki rad etadi. Aksiyalarga ortiqcha obuna qabul qilingan taqdirda ustav fondi tegishli ravishda ko'paytiriladi;
- ❖ ta'sis etish jarayonida muassislar tomonidan tuzilgan shartnomalarni tasdiqlaydi;
- ❖ chiqarilayotgan aksiyalar turlarini hamda ularning sonini belgilaydi;
- ❖ jamiyatning kuzatuv kengashini, taftish komissiyasini saylaydi;
- ❖ jamiyatning ijroiya organini tuzadi (saylaydi, tayinlaydi).

Ta'sis yig'ilishida (konferensiyasida) ovoz berish muassislar qo'shgan hissalarga muvofiq o'tkaziladi.

Ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi. Ta'sis shartnomasini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlar qabul qilinayotgan hollar bundan mustasnodir, bunda barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda ta'sis yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Aksiyadorlarning huquqlari:

- ✓ tegishli aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- ✓ o'zi haqida depozitariydagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- ✓ jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- ✓ aksiyadorlik jamiyati tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- ✓ aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish;
- ✓ aksiyadorlik jamiyatining ustaviga muvofiq emitentning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish;
- ✓ olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- ✓ qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- ✓ qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va emitentlarning uquvsiz yoki g'arazli xatti-harakatlari tufayli ko'rgan zararning to'lanishini talab qilish;
- ✓ o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish;

✓ qimmatli qog'ozlar sotib olish vaqtida zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urtalash huquqiga ega.

Aksiyadorlar jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

Oddiy (odatdagi) aksiyalar egalari bo'lmish aksiyadorlarning huquqlari. Jamiyatning har bir oddiy (odatdagi) aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi.

Oddiy (odatdagi) aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar ushbu Qonunga va jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, jamiyat tugatilgan taqdirda esa, jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga egadir.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning huquqlari

Jamiyat imtiyozli aksiyalarining egalari bo'lmish aksiyadorlar, agar ushbu qonunda yoki jamiyat ustavida jamiyatning muayyan turdagi imtiyozli aksiyalari uchun boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emaslar.

Jamiyatning bir turdagi imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lmish aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi va odatdagi aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega bo'ladi.

Jamiyat tugatilgan taqdirda har bir turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar va (yoki) qiymatning (tugatilish qiymatining) miqdori jamiyat ustavida belgilab qo'yilishi lozim. Dividend miqdori va tugatilish qiymati qat'iyy pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi.

Agar imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va tugatilish qiymatini aniqlash tartibi jamiyat ustavida ko'rsatilgan bo'lsa ham ular belgilangan hisoblanadi. Dividend miqdori belgilanmagan imtiyozli aksiyalarning egalari oddiy (odatdagi) aksiyalarning egalari bilan baravar dividend olish huquqiga egadirlar.

Agar jamiyat ustavida ikki va undan ortiq turdagi imtiyozli aksiya nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar va tugatilish qiymatini to'lash navbati ham belgilangan bo'lishi kerak.

Muayyan turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha miqdori ustavda belgilangan bo'lib, to'lanmagan yoki hammasi to'lanmagan dividend jamg'arib borilishi va keyinchalik to'lanishi (kumulyativ imtiyozli aksiyalar) jamiyat ustavida belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamiyat ustavida muayyan turdagi imtiyozli aksiyalarning oddiy (odatdagi) aksiyalar yoki boshqa turdagi imtiyozli aksiyalarga erkin ayirboshlanishi mumkinligi va shartlari ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish masalalari hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadilar. Muayyan turdagi imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyat ustaviga shu turdagi imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek boshqa turdagi imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarga dividend va (yoki) aksiyaning tugatilish qiymatini to'lash navbati bo'yicha imtiyozlar berish masalalari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladilar.

Dividend miqdori jamiyat ustavida belgilab qo'yilgan muayyan turdagi imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar, kumulyativ imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarni istisno etganda, ana shu turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab umumiy yig'ilishning vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega. Bunday turdagi imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan boshlab to'xtatiladi.

Muayyan turdagi kumulyativ imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar ana shu aksiyalar bo'yicha jamg'arilib qolgan dividendlarni to'liq miqdorda to'lash to'g'risida qaror qabul qilishi lozim bo'lganu, ammo bunday qaror qabul qilmagan yoxud dividendlarni to'liq miqdorda to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilgan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan e'tiboran umumiy yig'ilishning vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishga haqli. Muayyan turdagi kumulyativ imtiyozli aksiyalarning egasi bo'lmish aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha jamg'arilib qolgan barcha dividendlar to'liq miqdorda to'langan paytdan boshlab to'xtatiladi.

Agar jamiyat ustavida muayyan turdagi imtiyozli aksiyalarni odatdagi aksiyalarga ayirboshlash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyat ustavi bu turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqini nazarda tutishi mumkin. Bunda ana shunday imtiyozli aksiya egasi o'ziga qarashli imtiyozli aksiya ayirboshlanishi mumkin bo'lgan odatdagi aksiyalar bo'yicha ovozlar sonidan oshib ketmaydigan miqdorda ovozlarga ega bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi boshqaradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatni boshqarishning oliy organidir. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishini) o'tkazishi shart.

Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin ko'pi bilan olti oy ichida o'tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi, vakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi bilan, kollegial ijroiya organining a'zolari, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish (shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to'g'risidagi, auditorlik tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilish to'g'risidagi masalalar, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash masalalari hal etiladi, shuningdek jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlar qarab chiqiladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

Undan tashqari sug'urta kompaniya quyidagi ko'rinishlarda ham tashkil etilishi mumkin:

Kartel - bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonilan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda kata miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari)ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma ma'lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli soha korxona va tashkilotlaridan tuziladi.

11-MAVZU.
SUG‘URTADA TARIF SIYOSATI

11.1. Raqobat sharoitida sug‘urta xizmatlariga narx-navoni shakllanish xususiyatlari va sug‘urta tarifi tushunchasi.

Risklar transferini funksional mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan sug‘urta xizmatlarini tashkil etish hamda ularni ko‘rsatish sa’y-harakatlari majmuasi, deb ta’kidlash mumkin. Mazkur faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiyot subyektlarining talablariga ko‘ra, ularni sug‘urta risklaridan himoyasini ta’minlashga qaratilgandir. Bu jarayonda risklar yuz berishi oqibatida ko‘rilishi ehtimol bo‘lgan zararlarni qoplashda sug‘urta tizimi barqarorligini ta’minlashning ahamiyati ortmoqda.

Shunga ko‘ra, risklar transferida tariflarni optimal darajada belgilash sug‘urta tizimi barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Risklar transferida tariflarni belgilash qator uslubiyatlarga, xususan, ehtimollik nazariyasiga binoan sug‘urtachilarda shakllantirilgan ma’lumotlar bazasiga asoslangandir.

Xususan, tariflarni belgilashda har bir shartnoma bo‘yicha quyidagi:

- sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimoli;
- sug‘urta mukofotining o‘rtacha kattaligi;
- to‘lanishi ehtimol bo‘lgan sug‘urta qoplamasining o‘rtacha summasi kabi omillar e’tiborga olinadi.

Risklar transferi bo‘yicha tariflarni aniqlash uslubiyatlarida obyektlarning o‘ziga xosligi to‘liq aks etmagan. SHuni ta’kidlash kerakki, tariflarni belgilashda unga ta’sir etuvchi qator omillar qat’iyy e’tiborga olingan uslubiyatning samarasi kutilgan darajada bo‘lishi mumkin. Xususan, bunday uslubiyat:

- sug‘urta obyektlarini tasniflash (guruhlash);
- har bir guruhning o‘ziga xos tomonlarini aniqlashtirish;
- o‘ziga xos xususiyatlarni son jihatdan baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- har bir guruh obyektlarining umumiy tomonlarini aks ettirgan ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- tariflarini hisoblashning dasturiy ta’minotini yo‘lga qo‘yish kabi bir qator sa’y-harakatlarni amalga oshirishni talab etadi.

Sug‘urta faoliyatida zararlilik ko‘rsatkichilari o‘zgarishi sug‘urtachining sug‘urtalanuvchilardan undirgan mukofotlari summasi jamlanishi va ularni investitsiyalar bozorida joylashtirishi jarayonidagi vositachi sifatidagi roli bilan ham izohlanadi.

Investitsion faoliyatdan olingan foyda summasi sug‘urta kompaniyasining tarif siyosatiga ta’sir etuvchi muhim omil sanaladi. Qayd etish lozimki, sug‘urta

operatsiyalaridan ko'rilgan zararni investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisobidan subsidiya qilinishiga bo'lgan munosabat ham turlichadir.

Xususan, bunday faoliyat, bir tomondan, mablag'lar taqchilligida raqobatga mos bo'lgan tarif siyosatini yuritish uchun aynan investitsiyalar bozorida qulay konyunkturaning yuzaga kelishi hisobiga zaxirani talab darajasida shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltirsa, boshqa tomondan, aynan shunday faoliyatdan olingan daromad hisobiga texnik natijalarni tenglashtirish uchun sug'urta fondidan jalb etiladigan mablag'lar yetarli darajada bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida qaralayotganligini ham qayd etib o'tish lozimdir. Mazkur holat sug'urtachining o'z javobgarligiga qabul qilgan risk bo'yicha nazorati sustlashuvining omili bo'lmasligi lozim.

Hozirga qadar, sug'urta amaliyotida majburiyatlar hajmi, erkin aktivlarning tuzilishi va bahosi, moliyaviy kafillik ta'minlanganligi, sug'urta portfelining ratsional shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan risklar taqsimoti, sug'urta zaxiralari shakllantirilishi borasida yagona bir konseptsiya ishlab chiqilmagan. Shu bois sug'urta tashkilotlari bu muammolarni empirik tarzda hal etishga majbur bo'lmoqda.

Har qanday sug'urta turi bo'yicha tariflar hisob-kitobi (aktuar hisob-kitoblar)da aniq sug'urta obyektining qiymati hisoblab chiqiladi. Umuman aktuar hisob-kitoblar yordamida sug'urta xizmatini hamda sug'urtachi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatining qancha turishi aniqlanadi.

Sug'urtani amalga oshirish xarajatlarini hisoblash «aktuar kalkulyatsiya» (aktuariy) deb ataladi. Uning yordamida shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotlari hamda sug'urtachining ish yuritish xarajatlari summasi, ya'ni mazkur xizmat tannarxi hisoblab chiqiladi. Sug'urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblarning o'ziga xos tomonlari ham mavjud va ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- baholanayotgan risk doimo ehtimollik xarakteriga ega bo'lishi;
- ayrim yillarda umumiy qonuniyatga zid turkum tasodifiy hodisalar yuz berishi, ularning ta'siri o'z navbatida, sug'urta tashkilotidan talab etiladigan sug'urta qoplamasi to'lovi summasining sezilarli o'zgarishini taqozo etishi;
- sug'urtachi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat tannarxi sug'urta munosabatlari yig'indisidan keltirilib chiqarilishi;
- sug'urtachi ixtiyorida bo'ladigan maxsus zaxirani ajratish, uning optimal hajmini aniqlash talab etilishi;
- sug'urta shartnomalari ko'rsatkichlarini (inglizcha «storno») bashorat qilish hamda ular bo'yicha ekspert bahosi talab etilishi;
- qarz (ssuda) foizlari me'yorlarini va aniq vaqt oralig'ida ularning o'zgarish an'analarini tadqiq etish taqozo etilishi;
- sug'urta hodisasi bilan bog'liq holda to'liq yoki qisman zararlar yuzaga kelishi hamda ular kattaligining kenglik va vaqtda taqsimlanishiga maxsus jadvallar yordamida o'zgartirishlar kiritish talabi namoyon bo'lishi;

- ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta mukofotlari va sug'urta tashkiloti tomonidan tarif davrida ko'rsatilayotgan sug'urta ta'minoti o'rtasida o'zaro tenglik o'rnatilishi taqozo etilishi;

- umumiy sug'urta doirasida risklarni aniqlashtirish va ularni guruhlash talab etilishi kabilar.

Sug'urta to'lovlari hajmining hisob-kitoblari aynan bir mamlakat, alohida bir hududning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, shuningdek risk yuz berishi ehtimolining vaqt va kenglikdagi xilma-xilligi asosida aniqlanadi. Masalan, sug'urtalangan obyektlar soni 100 ta, har bir obyekt bo'yicha sug'urta summasi 2 mln. so'm bo'lsa, risk ehtimoli 2 foiz darajasida (0,02 x 100 x 2 mln. so'm) hamda zarar sug'urta summasiga teng yoki undan katta bo'lganida, mazkur umumiy sug'urta doirasidagi bu sug'urta turi bo'yicha yillik sug'urta qoplamasi, ya'ni netto-stavka aynan 4 mln so'mni tashkil etadi.

Aniqlangan sug'urta qoplamasini sug'urtalangan obyektlar soniga bo'lsak, umumiy sug'urta zaxirasiga har bir sug'urtalanuvchi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti 40 ming so'm (0,02 x 2 mln so'm) ekanligi aniqlanadi. Har bir sug'urtalanuvchi aynan shuncha sug'urta mukofotini to'lashi kerak. Sug'urta summasining birligi sifatida 1000, 100 yoki 1 so'm olinishi mumkin.

Tarif stavkasi yordamida har bir sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lashi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti aniqlanadi. Buning uchun shartnomada qayd etilgan sug'urta summasi tarif stavkasiga ko'paytiriladi. Masalan, tarif stavkasi har 100 so'mdan 2 so'm darajasida belgilangan bo'lsa, shartnoma bo'yicha sug'urta summasi 5 mln so'mga teng bo'lganda, sug'urta mukofotining kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

(2 so'm x 5 mln. so'm) : 100 so'm = 100 000 so'm.

Sug'urta tarifi stavkasi sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Uning to'g'ri hisoblab chiqilganligi muhimdir. Sug'urtachi sug'urta tarifi asosida undirilgan sug'urta mukofotlari hisobidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq hajmda bajarilishini ta'minlaydi, ya'ni sug'urta faoliyatini amalga oshirish xarajatlarini qoplaydi.

Sug'urta risklari sezilarli darajada kam yuz bergan yoki sug'urta hodisasi oqibatida ko'rilgan zarar ko'lami katta bo'lmagan yillar hisobiga sug'urtachining daromad (foyda) olish ehtimoli ortadi. SHuni ham nazarda tutish lozimki, aniq natijalar hisob-kitobida hisobot davri davomida xabar qilingan, ammo sug'urta qoplamasi amalga oshirilmagan zarar sug'urta tashkiloti faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlariga ham sezilarli ta'sir etadi.

Sug'urta tarifining risk yuz berishi ehtimoliga nisbatan yuqori darajada ko'rsatilishi bir tomondan, mijoz bilan sug'urta shartnomasi tuzilmay qolishiga sabab

bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urtachining sug'urta bozoridagi raqobatbardoshligiga ham salbiy ta'sir etadi. Va, aksincha, tarif stavkasining past darajada belgilanishi sug'urtachi mablag'larining taqchilligini keltirib chiqarishi oqibatida, sug'urtalanuvchi ko'rgan zararning sug'urta qoplamasi amalga oshirilmay qolinishiga olib kelishi mumkin, ammo, bunday holat amaliyotda deyarli uchramaydi.

11.2. Sug'urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi, brutto va netto-stavkani hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tamoyillari

Sug'urta mukofotlarining stavkalari tarif davri uchun hisoblab chiqiladi, ya'ni tarif hisoblari asosida belgilangan davr uchun ekvivalentlik ta'minlanadi. Shunday qilib, har qanday sug'urta turi bo'yicha tarif stavkasi brutto-stavka sifatida qaraladi va u ikki qismdan: netto-stavka (sug'urta qoplamasi to'lovlari uchun zaxira summasi) va sug'urtachining faoliyat yuritish xarajatlaridan (odatda u «yuk» deb ataladi) iborat bo'ladi.

Brutto-stavkada bu ikkala qismning nisbati, ularning mohiyatidan kelib chiqib, turlicha foizlarda belgilanishi mumkin.

Netto-stavka brutto-stavkaning asosini tashkil etadi va uning hissasiga, sug'urta turiga qarab, 60-95 foizgacha ulush to'g'ri kelishi mumkin. «YUK» hisobiga esa, shunga mos ravishda odatda 5-40 foiz ulush belgilanadi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha qancha sug'urta turi sug'urtalanayotgan bo'lsa, netto-stavka ham shuncha qismdan iborat bo'ladi. Masalan, hayotni aralash sug'urtalash bo'yicha netto-stavka belgilangan davrgacha yashaganligi uchun, o'lim holati yuz berganligi uchun, mehnat faoliyatini yo'qotish holati uchun kabi netto-stavkalardan tashkil topadi.

«Yuk»da sug'urta ishini olib borish xarajatlari aks etadi. U quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

- ma'muriy-xo'jalik xarajatlari (uning asosini tashkilot shtatidagi xodimlarga to'lanadigan maoshlar summasi tashkil etadi);
- sug'urta polislarini joylashtirganligi uchun haqlar;
- sug'urta agentlari, menejerlar uchun haqlar.

To'lov shakllari, odatda brutto-stavka yoki «yuk»ka nisbatan foizlarda aniqlanadi. Foiz to'lovlaridan tashqari rag'batlantirishlar ham amalga oshirilishi mumkin.

sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha «yuk» sug'urta ishini yuritish xarajatlaridan tashqari ogohlantirish zaxirasiga ajratmalar qilish va rejalantirilgan foyda summalarini ham o'zida aks ettiradi. Brutto-stavkani hisoblashda, dastlab netto-stavka aniqlab olinadi, so'ngra unga «yuk» (odatda brutto-stavkaga nisbatan foizlarda) qo'shib hisoblanadi. Brutto-stavka qo'yidagicha aniqlanadi:

$$MS = \frac{HC}{100 - YU(\%)}.$$

Bu erda: MS - brutto-stavka;
NS - netto-stavka;
YU(%) - yuk (foizlarda ifodalanadi).

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha tariflar me'yoriy hujjatlar bilan o'rnatilsa, ixtiyoriy sug'urtada esa, sug'urtachi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Tarifni aniqlash uslubiyati, tarif stavkasi va uning dastlabki ma'lumotlar manbasi, netto-stavka va «yuk» ulushlari ko'rsatilgan holda tarif hisob-kitoblari maxsus vakolatli Davlat organiga taqdim etiladi. Mazkur organ tomonidan ruxsat berilganidan so'ng sug'urta tashkiloti o'zi hisoblab chiqqan sug'urta tarifini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tarifining hajmi sug'urta obyektini tavsiflovchi qator holatlarni hisobga olgan holda tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilanadi.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha tarif stavkasini aniqlashda netto-stavka hisob-kitobi muhim hisoblanadi. Aynan uning hisobidan sug'urtalanuvchilar ko'rgan zararning qoplama to'lovlari amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Sug'urta tashkiloti mukofot undirilishi hisobiga sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug'urtalanuvchi ko'rgan zararni qoplash uchun yetarli miqdordagi summani jamlab olishi muhimdir. Masalan, har yili sug'urtaga qabul qilingan 1000 xonadondan 6 tasi butunlay yonib ketishi hodisasi ro'y beradi deb faraz qilsak, har bir xonadonning bahosi 1 mln so'm bo'lsa, bu holatda sug'urtachi (1 mln x 6) 6 mln so'm miqdoridagi pul fondiga ega bo'lishi talab etiladi. Bu sug'urta qoplamasi summasini sug'urtalangan obyektlar soniga bo'lish orqali har bir sug'urtalanuvchiga to'g'ri keladigan (6 mln so'm: 1000 = 6 ming so'm) sug'urta mukofoti aniqlanadi.

Aynan shu summa aniq bir sug'urta obyekti uchun hisoblab chiqilgan netto-stavkadir. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari tomonidan netto-stavkani hisoblash amaliyotda birmuncha murakkabroqdir.[103] Negaki, sug'urtalangan obyektning (bir qismi yoki batamom) zarar ko'rganli darajasi, sug'urta hodisalari (yong'in, suv toshqini va boshqa) sonining yillar bo'yicha tafovuti, shuningdek, boshqa qator dalillarni ehtimollikka asoslanib, bashorat qilish va hisobga olish kerak bo'ladi.

Mol-mulk (bino, uy xayvonlari, qishloq xo'jaligi ekinlari)ning turli sug'urta hodisalari (yong'in, kasalliklar, sovuq va shu kabilar) yuz berishi oqibatida, zarar

[103]Xuddi Yevropa mamlakatlarida kabi sug'urtachilar ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari assotsatsiyalari va maxsus (masalan, «Assamlee Plenicre des Socieetes d'Assurances Dommages» kabi) texnik tashkilotlar tomonidan sug'urta «mahsulot»larini ko'rilishi ehtimoli bo'lgan zararlar bo'yicha ishonchli darajada tarifikatsiyalash singari faoliyat O'zbekistonda yo'lga qo'yilganicha yo'q.

ko'rishi yoki halokatga uchrashi ehtimoli turlichadir. Shundan kelib chiqib, obyektlarning shartnomada qayd etilishi nazarda tutilayotgan sug'urta hodisalaridan sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalari ham turlicha belgilanishi mumkin.

Netto-stavka ikki qismdan - sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi va risk «yuki»dan shakllantiriladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi - eng katta ehtimollikka ko'ra, sug'urtalangan obyektlar summasining to'langan sug'urta qoplamasi summasi nisbatidan kelib chiqadi. Masalan, bir avtomobilning narxi 10 mln so'm, uni ta'mirlash 3 mln so'm, yo'l halokati hodisasi doimiyli koeffitsienti (DAN ma'lumotiga ko'ra) 0,2 bo'lsa, sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi (SS3K = 3 mln so'm : 10 mln. x 0,2 x 100 = 6 so'm yoki 6 %) 6 foizni tashkil etadi.

Risk qoplamasi to'lovining kattaligi sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Risk bo'yicha sug'urta mukofoti uning yuz berish ehtimolligining vaqt va kenglikdagi holatidan keltirib chiqariladi. Hayot sug'urtasi tarmog'ida risk ehtimoli mijozlar jinsi va yoshiga ko'p jihatdan aloqador bo'lsa, umumiy sug'urta tarmog'ida esa, nisbatan doimiy risk mavjuddir. Ammo ma'lum vaqt oralig'ida risk kattaligi o'zgarishi ham kuzatiladi.

11.3. Sug'urtada tarif siyosatining yuritilishida aktuar hisob-kitoblar va aktuariylar faoliyati

Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak.

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;
- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

11.1-jadval

Aktuar tashkilotlar[103]

№	Kompaniya nomlari	Huquqiy tashkiliy shakl
1	Actuarial Advisers	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
2	Actuarial Service Bureau	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi aktuar tashkilotlar ham mavjud bo'lib ular riskni qay darajada ekanligini aniqlab kerakli tariff stavkani

[103] Ma'lumot www.uzreport sayti asosida tayyorlangan.

hisoblab chiqishdi. Sug'urta bozorida aktuar hissobchilarni o'rni juda katta desak xato bo'lmaydi. Hozirda quyidagi aktuar tashkilotlar mijozlarga o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

Aktuar hisob-kitoblar - sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq.

Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga yetganda to'lanadi.

Yetarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga yetishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga yetish ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalarni hisoblash mumkin.

Aktuar hisoblarning asosiy g'oyalarini tushunish sug'urta mahsulotining mohiyatini yaxshi tushunish imkonini beradi. Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mahsulotini yaxshi tushunib olish uchun sug'urta badali nimalardan tashkil topishini, foyda nimadan hosil bo'lishini va ushbu foyda hisobidan bonuslar qanday hisoblanishini, indeksatsiya qilish qanday amalga oshirilishini va boshqalarni bilib olish zarur.

Ma'lumki, sug'urtaga sug'urtalanuvchi tomonidan qilingan kichik to'lov kelajakda u ko'rishi mumkin bo'lgan katta zararni qoplab beradi. Aktuar xizmatlari mustaqillik, xolislik, professional malakalilik va mahfiylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs, aktuar tashkilot - aktuar xizmatlarini ko'rsatuvchi va o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lgan yuridik shaxs, aktuar tekshiruvi - amalga oshirilayotgan sug'urta va investitsiya operatsiyalarining xavflilik darajasini aniqlash, shuningdek sug'urtalovchining moliyaviy holatini baholash maqsadida sug'urtalovchining sug'urta va moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlarining tahlilini o'z ichiga oluvchi aktuar xizmatlari majmuasi, aktuar kuzatuvi - sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, takroriylik va zarar yetkazilish oqibatlarining og'irlik darajasini aniqlash, sug'urta zaxiralarini hisob-kitob qilish, sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlar hajmini aniqlash, sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish, sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif

xavfkalarini belgilash, investitsiya faoliyati natijalarini baholash, daromadlarni sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtirish va boshqa aktuar xizmatlarini ko'rsatishni o'zi ichiga oluvchi aktuar xizmatlari majmuasi.

Sug'urtalovchilar yiliga bir marta - har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy davomida moliya yilidagi faoliyat yakunlari bo'yicha aktuar tashkilotni aktuar tekshiruvini amalga oshirish uchun jalb etishlari shart.

Aktuar tekshiruvini amalga oshirish natijalari bo'yicha aktuar tashkilot tomonidan aktuar hisoboti tuziladi va quyidagi savollar bo'yicha aktuar xulosasi chiqariladi:

- amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining xavflilik darajasi;
- amalga oshirilayotgan investitsiya operatsiyalarining xavflilik darajasi;
- sug'urtalovchining moliyaviy holati.

Aktuar tekshiruvi o'tkazilayotganda aktuar xizmatlarini mustaqillik va xolislik tamoyillari asosida ko'rsatilishini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya etilishi lozim:

- aktuar xizmatlarini ko'rsatish uchun aktuar tashkilotni jalb etayotgan sug'urtalovchi ushbu aktuar tashkilotning mulkdori, muassisi (aksiyadori) bo'lmasligi lozim;
- sug'urtalovchiga aktuar xizmatlarini bevosita ko'rsatuvchi aktuariy ushbu sug'urtalovchining xodimi bo'lmasligi yoki ushbu sug'urtalovchining mulkdori, muassisi (aksiyadori), rahbari bilan yaqin qarindosh (ota-ona, er-xotin, aka-ukalar, opa-singillar va bolalar, shuningdek erning-xotinning ota-onasi, aka-ukalari va opa-singillari) bo'lmasligi lozim.

Aktuar tashkilot aynan bir sug'urtalovchida ketma-ket uch yildan ortiq aktuar tekshiruvini amalga oshirishga haqli emas.

Aktuar kuzatuvi sug'urtalovchining xohish-istagiga ko'ra amalga oshiriladi.

Aktuar kuzatuvi o'tkazilayotganda ko'rsatiladigan aktuar xizmatlarining turlari va hajmlari sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi.

Aktuar kuzatuvini o'tkazish natijalari bo'yicha aktuar tashkilot tomonidan aktuar hisoboti tuziladi va aktuar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan savollar bo'yicha aktuar xulosasi chiqariladi. Aktuar tashkilotning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Aktuar xizmatlarining mustaqillik va xolislik tamoyillari asosida ko'rsatilishiga to'sqinlik qilish maqsadida aktuariy, aktuar tashkilot va uning xodimlariga har qanday shakldagi ta'sir o'tkazish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka olib keladi.

Aktuar xizmatlari sug'urtalovchi va aktuar tashkilot o'rtasida yozma shaklda tuzilgan shartnoma asosida va unga muvofiq ko'rsatiladi. Bunda aktuar tekshiruvini va aktuar kuzatuvini bitta shartnoma doirasida ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Aktuar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi quyidagi muhim shartlarni nazarda tutishi lozim: aktuar xizmatlarining turlari va hajmlari (shu jumladan, aktuar xulosasi chiqarilishi lozim bo'lgan savollar, shundaylar mavjud bo'lganda), shuningdek qiymati. Bunda aktuar xizmatlari har bir turining qiymati alohida ko'rsatiladi;

- aktuar xizmatlarini ko'rsatish muddati;
- o'zaro hisob-kitoblar tartibi;
- taraflarning huquq va majburiyatlari;
- taraflarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikdagi javobgarligi;
- nizolarni hal etish tartibi;
- taraflarning rekvizitlari;
- shartnoma tuzilgan sana va joy.

Aktuar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasining taraflari quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

a) sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- aktuar tashkilotdan aktuar xizmatlarini bevosita ko'rsatadigan aktuariyning malaka sertifikatini tanishib chiqish uchun taqdim etishini talab etish;
- aktuar xizmatlarini ko'rsatish natijalari bo'yicha aktuar hisoboti va aktuar xulosasini olish;
- aktuar tashkilotdan aktuar xizmatlarini ko'rsatish davomida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha maslahatlar va tavsiyalar olish;
- sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:
- aktuariyga aktuar xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan axborotni u talab qilayotgan tartibda va hajmda taqdim etish;
- aktuariyga (aktuar tashkilotga) aktuar xizmatlarining mustaqillik va xolislik tamoyillari asosida ko'rsatilishiga to'sqinlik qiluvchi holatlarning mavjudligi yoki vujudga kelganligi to'g'risida xabar berish;

b) aktuar tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- aktuar hisob-kitoblarning usullarini mustaqil belgilash;
- sug'urtalovchidan aktuar xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan hujjatlardan foydalanish huquqini so'rash, og'zaki va yozma tushuntirishlar hamda qo'shimcha ma'lumotlarni olish;
- aktuar tashkilot quyidagilarga majbur:
- aktuar xizmatlarining mustaqillik va xolislik tamoyillari asosida ko'rsatilishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar vujudga kelganda, aktuar xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati yo'qligi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar berish;
- aktuar xizmatlarini ko'rsatish davomida olingan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash:

• sug'urtalovchining talabiga ko'ra bevosita aktuar xizmatlarini ko'rsatadigan aktuariyning malaka sertifikatini tanishib chiqish uchun taqdim etish;

• aktuar xizmatlarini ko'rsatish davomida sug'urtalovchidan olingan maxfiy axborotni tarqatmaslik, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Aktuar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasining taraflari shartnoma shartlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin. Aktuar tashkilot aktuar xizmatlarini sifatli yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida sug'urtalovchiga yetkazgan zarar uchun sug'urtalovchi oldida javobgardir.

Sug'urtalovchi tomonidan to'liq bo'lmagan yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar taqdim etilishi oqibatida aktuar tashkilot aktuar xizmatlarini sifatli yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida sug'urtalovchiga yetkazgan zarar uchun sug'urtalovchi oldida javobgar bo'lmaydi.

Aktuar hisoboti ikki nusxada tuziladi (sug'urtalovchi va aktuar tashkilot uchun bittadan), aktuar xizmatlarini bevosita ko'rsatgan aktuariy tomonidan imzolanadi, aktuar tashkilotning rahbari tomonidan imzolanadi va ushbu tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi. Aktuar hisobotining varaqlari raqamlangan, tikilgan va aktuar tashkilotning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

12-MAVZU.
SUG'URTA SOHALARI VA ULARNING INTERPRETATSIYASI

12.1. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari)

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtaning quyidagi sohalari mavjud, ya'ni[104]: Hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

- umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



12.1-rasm. **O'zbekistonda sug'urta sohalari va turlari (klasslari)[105].**

Hayot sug'urtasi quyidagi turlarni o'zida aks ettiradi. Ular butun umrga hayotni sug'urta qilish turi, vafot etishdan hayotni sug'urta qilish turi, shartnoma muddati yakunida hayot bo'lish, hayotni aralash sug'urtasi, mehnat qobiliyatini yo'qotishdan sug'urta qilishdir.

Ayrim davlatlarda baxtsiz hodisadan sug'urta qilish ham hayot sug'urtasi turlaridan hisoblanadi, lekin bizning mamlakatda ushbu tur umumiy sug'urta tarmog'iga taalluqlidir.

---

[104] O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonuni O'zR Oliy Majlisining 05.04.2002 y. 359-II-son

[105] O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonuni O'zR Oliy Majlisining 05.04.2002 y. 359-II-son.



12.1-rasm. **Hayot sug'urtasining xususiyatlariga ko'ra turlari**[106]

[106] *Никулина Н.Н., Березина С.В. Страхование. М.: Теория и практика. 2008. 85 с.*

12.1-jadval

Hayotni sug'urta qilish tarmog'i[107]

Klass tartib raqami	Klassning nomi
I klass	Hayot va annuitetlar
II klass	Nikoh va tug'ilish
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish

Hayot va annuitetlar. Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami:

– sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi;

– sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar). III klass bundan mustasno.

Nikoh va tug'ilish. Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami.

Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish. Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami.

Sog'liqni sug'urta qilish. Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

Ikkinchi yirik sug'urta sohasi bu umumiy sug'urta tarmog'idir. Bunda sug'urta obyekti sifatida sug'urta manfaati ya'ni mulkiy manfaat asos bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan mulkiy sug'urta shartnomasiga quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni:

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki

[107] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-son qarori.

Shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta tovoni to'lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin: muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

12.2-jadval

Umumiy sug'urta tarmog'i[108]

Klass tartib raqami	Klassning nomi
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish
3-klass	Er usti transport vositalarini sug'urta qilish
4-klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta
5-klass	Aviatsiya sug'urtasi
6-klass	Dengiz sug'urtasi
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish
10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish
12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish
14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish
15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish

• fuqarolik javobgarligi xavfi - boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

[108] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-son qarori.

• tadbirkorlik xavfi - tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Shuningdek qonunchilikka asosan quyidagi manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi:

G'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Qimor, lotereyalar va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta shartnomalarining ushbu birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlariga zid bo'lgan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas.

12.2. Sug'urtaning soha va tarmoqlari bo'yicha turkumlanishi

Tarmoqlar bo'yicha sug'urtalash 4 yo'nalishda olib boriladi (12.2-rasm).



12.2-rasm. **Tarmoqlar bo'yicha sug'urtaning guruhlanishi**[109]

Mulk sug'urtasi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- ❖ yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalash;
- ❖ jismoniy shaxslar mol- mulkini sug'urtalash.

Shaxsiy sug'urtalash quyidagilarga bo'linadi:

- ❖ xayotni sug'urtalash;

[109] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

❖ baxtsiz hodisalardan fuqarolarni himoyalash;

❖ tibbiy sug'urtalashdan iborat.

Javobgarlik sug'urtasi quyidagilarga bo'linadi:

❖ fuqarolik javobgarligi sug'urtasi (transport egalari, sanoat va qurilish - montaj korxonalari, tovar ishlab chiqaruvchilar va boshqalar);

❖ kasbiy javobgarligini sug'urtalash (vrach, yurist, hisobchilar va h.k.).

Tadbirkorlikka oid xavf - xatar sug'urtasi quyidagilarga bo'linadi:

❖ tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash (savdo — sotiq tavakkalchiligini, ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishdagi xavf — xatar);

❖ moliya tavakkalchiligini sug'urtalash (to'lanmagan kredit xatari).

Xavf - xatar turlari bo'yicha guruhlash mol-mulk suturtasiga tegishli soxa hisoblanadi. Bunda sug'urta puli mol-mulkning shartnoma tuzilayotgan vaqtda haqiqiy qiymatidan oshmasligi kerak. Bu sohada guruhlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Uy-joyni yong'in va boshqa ofatlardan; qishloq xo'jaligi ekinlarini qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlardan sug'urtalash (masalan, O'zbekistonda ketma — ket 3 yil qurg'oqchilik bo'ldi, ko'pgina fermer xo'jaliklari zarar ko'rdi, vaqtida sug'urtalangan xo'jaliklar zarari qoplandi, bu ishga befarq qaragan fermer xo'jaliklari esa og'ir ahvolda qoldi). Shuningdek, chorva mollarini turli kasalliklardan, transport vositalarini esa o'g'irlanishdan sug'urtalash va hokazo

Shuningdek tarmoqlar bo'yicha sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy sug'urtaga bo'linadi. Shu bilan birga sug'urtaning majburiy va ixtieriy shakllari ham mavjud.

Majburiy va ixtiyoriy sug'urtaning bir biridan farqi, shundaki, majburiy sug'urta yoppasiga amalga oshiriladigan chora-tadbir, ixtiyoriy sug'urta esa tanlov xo'li bilan, sug'urtalanuvchining xohish istagi bilan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda quyidagi sug'urta turlari majburiy hisoblanadi:

❖ qurilish - montaj ishlari;

❖ avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;

❖ ish beruvchining fuqorolik javobgarligini sug'urtalash;

❖ tashuvchining fuqorolik javobgarligini sug'urtalash;

❖ xavfli soxalardagi ishlovchi ishchi xizmatchilarni sug'urta qilish.

Sug'urta bozorlari o'z tashkiliy — huquqiy jihatidan: aksiyadorlik, kooperativ, davlat va aralash sug'urta bozorlariga bulinadi. SHuningdek, ichki va tashki jahon sug'urta bozorlari ham bor. Ichki sug'urta bozori — mahalliy sug'urta bozoridir. Bunda sug'urta xizmatiga zarur bo'lgan talab asosida ish olib boriladi. Fuqarolarning mulkiy sug'urtasi bo'yicha xizmat ko'rsatiladi.

Tashki sug'urta bozori esa ichki bozordan tashqarida chet ellik sug'urta kompaniyalari bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Bu bozorda ekologik sug'urta, moliya tavakkalligi sug'urtasi, avtotransport javobgarligi sug'urtasi kabi turlar mavjud. Jahon sug'urta bozori dunyo miqyosida ish yuritadi.

Turli tarmoq xususiyatlariga ko'ra ham shaxsiy, mulkiy va javobgarlik sug'urta bozorlari xam mavjud. O'z navbatida bular ham bir qancha turlariga bo'linadi. Masalan, qo'shimcha nafaqa sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, uy mulklarini sug'urtalash va boshqalar. Barcha ishlarni sug'urta hodimlari olib boradi, sotuvchi va xaridor o'rtasida vositachi – sug'urta agentlari, brokerlari, maklerlari va boshqalardir.

Ma'lumki, sug'urta bozorlari, ko'pincha maxsus kredit va sarmoya institutlari funksiyalarini bajaradi. Shu bois sug'urta kompaniyalarda katta mablag' to'planadi. Bu mablag'lar qimmatli qog'ozlarga aylanib bozorlarda uzoq muddatli kredit berish imkonini tug'diradi. Shu sababdan sug'urta kompaniyalari moliya bozorida ham mavqega ega bo'ladi.

Sug'urta bozorlari chet ellarda juda rivojlangan. Bunga ulardagi tashabbuskorlik, tadbirkorlik, faollik, ixchamlik katta ta'sir ko'rsatgan. Shuni aloxida aytish kerakki, sug'urta faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi uning rivojiga hissa qo'shmoqda. Bunda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi sug'urta bozori mexanizmi bilan birlashib yaxshi natijalar bermoqda.

Mulk va mulkiy sug'urta tushunchalari

Mulk obyektlariga yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, okar suvlar, imorat va inshootlar, asbob va uskunalar, moddiy va madaniy yodgorliklar va boshqalar kiradi. Mulkning mavjudligi sanoat, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil kilishning eng muxim shartidir. Mulkiy sug'urta, davlat va xususiy sug'urta tashkilotlari faoliyatida yyetakchi o'rinni egallaydi. Mulkni mulk egalari orqali sug'urtalash mulkiy sug'urta deb ataladi. Sug'urta ishida avvalo sug'urta turlarini aniqlash kerak. Obyekt va subyektlarni o'rganish muhim. Rivojlangan mamlakatlarda mulkni har jihatdan o'rganib, keyin shartnoma tuziladi. Mol—mulk sug'urta qilinganda mulklar xo'jalik yuritish buyicha turkumlanadi: mulk kimga tegishli, sanoatgami yoki qishloq xo'jaligigami aniqlanadi.

Mol-mulk sug'urta qilinganda sug'urta puli mol-mulkning shartnoma tuzilayotgan vaqtdagi haqiqiy qiymatidan oshmasligi lozim.

Mulk sug'urtasining shartlari

Mol-mulk sug'urtasining tarif stavkalari quyidagicha tarmoqlanadi:

- ❖ Sanoat va boshqa xo'jalik tarmoqlari;
- ❖ Mol-mulkning to'la yoki qisman sugurtalanishi bo'yicha tarmoqlar;
- ❖ Mol-mulkning bir necha sug'urta hodisalardan sug'urtalanishi buyicha tarmoklar.

Odatda sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan so'ng sug'urtalanuvchi bu haqda 3 kun muddatda sug'urta tashkilotiga xabar berishi kerak. Maxsus komissiya sug'urta

hodisasi sabablarini o'rganadi va zarar qiymatini aniqlaydi. Ko'rilgan zararning hisob-kitobi 10 kun muddatda aniqlanadi. Sug'urta qoplamalari 20 kun ichida tulanadi. Bu shartlar sug'urta tashkilotlarida har xil bo'lishi mumkin.

Mol-mulk sug'urtalanganda franshiza usuli qo'llaniladi. Franshiza – har xil sabablar bilan sodir bo'ladigan zararning umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti hisobidan qoplanmaydigan qismi *sug'urta franshizasi* deb ataladi. Franshiza qo'llanilganda zarar miqdori sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadigan va qoplanmaydigan qismlarga bo'linadi. Masalan, franshiza 100$ miqdorida qo'llanilsa, keltirilgan zarar $90 bo'lsa, zarar qoplanmaydi. $200dan iborat bo'lsa, u holda $100 qoplanib, qolgan qismini franshiza tashkil kiladi. Franshiza sug'urta kompaniyalarini mayda to'lovlardan himoya qiladi.

Shaxsiy sug'urtasining mazmuni

Har bir fuqaro o'z hayotini sug'urtalash huquqiga ega. Shaxsiy sug'urta fuqarolarga o'z byudjetini yaxshilash va farovonlikni oshirish imkonini beradi. Shaxsiy sug'urta bir insonning hayoti, uning tug'ilishi, balog'at yoshiga yetishi davri, nikohni rasmiylashtirish, baxtsiz hodisalar, umrbod sug'urtalash bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta tajribasida shaxsiy sug'urta obyekti inson) xayoti va uning sog'lig'i mexnatga layoqatliligi hamda uning vafoti bilan bog'liq jarayonlarni o'zaro mujassamlashtiradi.

Shaxsiy sug'urtada sug'urtachi sug'urta pullarini vaqtida undirish, hodisa yuz berganda zararni qoplash majburiyatini zimmasiga oladi.

Sug'urta pullari fuqaroni xohish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Shaxsiy sug'urta quyidagi turlarga bo'linadi:

- ❖ majburiy va ixtiyoriy;
- ❖ uzoq muddatli va qisqa muddatli.

Sug'urtaning turlari buyicha aloxida shartnoma tuziladi. Bu shartnomalar muddati har xil: sug'urta turlariga qarab 1, 10 va inson umrining oxirigacha muddatga sug'urtalash mumkin.

Shaxsiy sug'urta hodisalariga quyidagilar kirishi mumkin:

- ➢ insonni baxtsiz hodisa oqibatida shikastlanishi;
- ➢ odamlarni turli -tuman sifatsiz oziq-ovqatdan zaxarlanishi;
- ➢ insonlarning baxtsiz hodisa oqibatida nogiron bo'lishi;
- ➢ baxtsiz hodisa tufayli oyoq – qo'lni sinishi, kuyish oqibati, noto'g'ri tibbiy davolash natijasida kerakli a'zolarni jarohatlanishi va h.k.

Shaxsiy sug'urtalash turkumlari quyidagicha:

❖ hayotni sug'urtalash;

❖ baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;

❖ tibbiy sug'urtalash.

Xorij mamlakatlarida hayotni sug'urtalash muhim hisoblanadi va u jamg'arma sug'urtasi deb ataladi. Bunda sug'urta tashkiloti mukofot puli o'rniga renta summasini to'lash majburiyatini oladi.

Hayotni aralash sug'urtasi turi ham mavjud. Shaxsiy sug'urtada hayotni aralash sug'urtalash muhim o'rin tutadi. Bunga baxtsizlik hodisalaridan sug'urtalash, vafot etish hodisasidan sug'urtalash va boshqalar kiradi. Hayotni sug'urtalash ishi 16 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan insonlar bilan tuziladi. Shaxs sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan yoshga to'lsa va sungi badaldan qutilgan bo'lsa kompaniya tomonidan shartnomada ko'rsatilgan mablaglar beriladi.

Hayotni aralash sug'urtalash shartnomasi 1 yildan xatto 10—15 yilgacha bo'lishi mumkin.

Tibbiy sug'urta

Bunday sug'urta tuzilayotganda sug'urtalanuvchi, albatta, tibbiy (vrach) ko'rigidan o'tishi lozim, SPIDga qarshi testdan o'tishi kerak. Sug'urtalanuvchining salomatligi talabga javob bergandagina u bilan sug'urta shartnomasi tuziladi.

Masalan, 1-guruh nogironlari bilan hayotni sug'urtalash uchun shartnomalar tuzilmaydi va shuningdek vafot etish sug'urtasida sug'urta hodisasi yuz berganda shartnomada ko'rsatilgan mablag'lar to'lanadi va hokazo.

Chet elda bolalar hayotini sug'urtalash muhim yo'nalish hisoblanadi. Sug'urtalanuvchi bolalarning yoshi 1 dan 16 yoshgacha bo'lishi kerak. Nogiron bolalar sug'urta qilinmaydi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligi sug'urtasi

Har bir tadbirkor bozor sharoitida ish yuritadi. Uning faoliyati tashabbusiga, soxani yaxshi bilishiga, shart-sharoitni o'rganishiga bog'liq. Omadi kelsa, foyda oladi, aksida zarar ko'radi, chunki u faoliyatini tavakkalchilik asosida yurgizadi. Tadbirkor ish boshlashdan avval sug'urta tashkiloti bilan shartnoma tuzadi. Sug'urta tashkiloti tadbirkorga ko'radigan zararlarni oldini olish va ularni kamaytirishga ko'mak beradi. Tadbirkor zarar ko'rishi mumkin hollar:

❖ ishlab chiqarish va savdoda buzilish bo'lsa;

❖ bozor sharoiti o'zgarsa;

❖ tovar yetkazib beradigan tomon shartnomani buzsa va iste'molchi shartnomaga rioya qilmasa.

Sug'urta tashkilotlari tadbirkor ko'rgan barcha zararni, qoplashga harakat qiladi. Sug'urta summasini aniqlashda shartnomada ikki xil usul qo'llaniladi: sug'urta summasi, sug'urta operatsiyalariga ishlatilgan mabaglar asosida belgilanadi;

Tavakkalchilik sug'urtasi soxasida quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

- ✓ sug'urta tavakkalchiligi taxmin kilingan voqea bo'lib, ana shu voqea yuz berishdan sug'urta qilish amalga oshiriladi;
- ✓ sug'urta shartnomasida va qonunda nazarda tutilgan voqeaning yuz berganligi sug'urta xodisasi xisoblanadi. Bunday xodisa yuz berganda sug'urtalovchining sug'urtalanuvchiga sug'urta qilingan shaxsga yoki uchinchi shaxsning o'ziga daxldor sug'urta hodisasi yuz berganda esa sug'urta ta'minoti sifatida amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanovchi (xususiy shaxs, xususiy biznes, davlat korxonasi yoki hukumat tashkiloti) va sug'urtalovchi o'rtasida tuzildadi. Ko'p holatlarda broker (maslahatchi, agent) sug'urtalanuvchi nomidan sug'urtalovchi bilan muzokara olib boradi[110].

[110] Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. P 36

13-MAVZU.
HAYOT SUG'URTASI VA ANNUITETLAR[111]

13.1. Hayot sug'urtasining mohiyati, obyekti va predmet

Hayot sug'urtasi g'arb mamlakatlari sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha yetakchi va mustahkam o'rinlarni egallab, har bir mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan fuqaroning hayotiga kirib borgan. Hayot sug'urtasi bizning mamlakatimizda hamdo'stlik mamlakatlarida bo'lgani kabi rivojlanishning qiyin pallasini boshidan kechirmoqda.

Xo'sh, hayot sug'urtasi bu qanday sug'urta turi, uning obyekti va predmeti nima va boshqa sug'urta turlaridan qanday jihatlari bilan farq qiladi? Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urta tarmog'ining asosini tashkil etib, mazkur sug'urta orqali insonning hayoti uning vafot etishidan, ma'lum yoshga yetishidan, kasallikdan, baxtsiz hodisadan, inson hayotidagi muhim voqealar hisoblanuvchi farzand tug'ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar natijasida yuzaga keladigan moddiy manfaatlar tomonlar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urtalovchi tomonidan qoplab berilishidan iborat sug'urta faoliyatidir.

Hayot sug'urtasining obyekti bo'lib insonning hayoti bilan bog'liq mulkiy manfaatlar hisoblanadi. Predmeti sifatida insonning vafot etishi, ma'lum yoshga yetishi, kasallik, baxsiz hodisa, farzand tug'ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar hisoblanadi.

Hayot sug'urtasida sug'urta hodisasi sifatida tuzilgan sug'urta shartnomasi muddatining tugashi, ya'ni sug'urtalangan shaxsning shu muddatgacha yashashi, hayotni aralash sug'urtasi turlarida esa sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urtalanuvchining vafot etishi, ishlab chiqarish yoki boshqa sharoitlarda jarohat olishi holatlari sug'urta hodisasi sifatida qabul qilinadi. Bu xalqimizning o'zaro yordam, tayanch va ijtimoiy himoya kabi an'analariga mos keladi.

Mamlakatimizda hayot sug'urtasi hozircha shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Buning qanday sabablari bor? Buning sabalaridan biri, sovet tuzumida fuqarolarning hayoti va faoliyatining himoyasi uchun javobgarlik to'liq davlatning zimmasida edi. Bu esa mamlakatimizda sug'urta sohasining, hamda xalqimiz sug'urta madaniyatining yetarli darajada rivojlanmay qolishiga sabab bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti va davlat qurishning "O'zbek modeli" ga ko'ra davlat o'z funksiyalarini asta-sekinlik bilan jamiyatga berib boradi. Bu esa o'z-o'zidan jamiyatning bir bo'g'ini bo'lgan sug'urta tashkilotlari faoliyatiga mazkur vazifani ma'lum darajada yuklaydi.

[111] Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain.1993, 274-295 pg

Hayot sug'urtasi boshqa sug'urta turlari kabi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unga ko'ra sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti evaziga shartnomada kelishilgan sug'urta summasini shartnomaning amal qilish davrida shartnomada ko'zda tutilgan holatlar (vafot etish yoki ma'lum yoshga yetish va boshqa holatlar) yuz berganda to'lab berishni sug'urtalovchi o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga mazkur shartnoma sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlarini ham tartibga soladi.

Hayot sug'urtasining quyidagi turlari amaliyotda keng qo'llanib kelinmoqda: vafot etish hodisasidan sug'urtalash, jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi, hayotni aralash sug'urtalash, jamoa sug'urtasi. Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning bir bo'g'ini sifatida iqtisodiyotning o'zgaruvchan qismi bo'lgan ishchi kuchi bilan bog'liq. Ushbu sug'urta turida sug'urta himoyasining obyekti bo'lib fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyati hisoblanadi. Mulk sug'urtasidan farqli o'laroq, hayot sug'urtasining obyektlari ma'lum qiymatga ega emas.

Hayotni sug'urta qildirish

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha polislar, nomidan ko'rinib turganidek, sug'urta qildirgan muayyan shaxsning hayotiga asoslanadi va bu shaxs vafot etgan taqdirda to'lovlar bu polislar bo'yicha amalga oshiriladi. Muzokaralarning boshidayoq sug'urta qildiruvchining ismini aniqlab olish va polisning davom etish muddati davomida uning o'lish ehtiyojini baholash zarur. Polis asosida belgilangan harakatlarni amalga oshiradigan va polisning birlamchi sohibi bo'lgan shaxs sug'urta qildirgan shaxs deb ataladi.

Polislar quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin:

-o'z hayotini sug'urta qildirish polislari, bunda sug'urta qildiruvchi va uning hayoti polis bo'yicha himoya qilingan shaxs bir kishi hisoblanadi. Masalan, boqimandalarni o'zining kutilmagan o'limida ta'minlash maqsadida boquvchi bunday polis xarid qilishi mumkin. Polislarning katta qismi shu guruhga kiradi;

-uchinchi shaxsning hayotini sug'urta qildirish polislari, ular bo'yicha polis ushbu uchinchi shaxsning hayotidan sug'urta manfaati mavjudligi shartida sug'urta qildiruvchidan farq qiladigan shaxs hayotini himoya qiladi. Masalan, moddiy qaram shaxs o'z boquvchisining hayotini himoya qilish uchun bunday polis xarid qilishi mumkin.

Hayotni birgalikda sug'urta qildirish

Sug'urta qoplamasining boshqa shakli ikkita sug'urta qildiruvchi tomonidan foydalanilishi mumkin va odatda oila juftliklarini sug'urta qildirishda foydalaniladi. Nazariyada sug'urta manfaati mavjudligi shartida bundan ko'proq sonli sug'urta qildiruvchilar bo'lishiga ham yo'l qo'yiladi. Hayotni birgalikda sug'urta qildirishning bu turlari odatda birinchi o'limga yoki ikkinchi o'limga asoslanadi.

► «birinchi o'lim bo'yicha» hayotni birgalikda sug'urta qildirish polisi sug'urta qildirgan ikki shaxsdan birining o'limidan so'ng sug'urta to'lovlari to'lanishini ko'zda tutadi. Birinchi o'lim bo'yicha hayotni birgalikda sug'urta qildirish va oilaviy daromadlarni sug'urta qildirish odatda oila manfaatlarini himoya qilish uchun foydalaniladi, «birinchi o'limgacha» qo'shimcha shartli sug'urta esa uy-joy xarid qilish bilan bog'liq bitimlarda keng qo'llanadi.

► «ikkinchi o'lim bo'yicha» hayotni birgalikda sug'urta qildirish polisi (ba'zida oxirgi tirik qolganni sug'urta qildirish polisi deb ham ataladi) ko'pincha meros solig'ining katta ekanligidan himoya qilish chorasi sifatida, ba'zida esa investitsiya tariqasida foydalaniladi.

«Birinchi o'lim bo'yicha» hayotni birgalikda sug'urta qildirish polisi «ikkinchi o'lim bo'yicha» sug'urta qildirishdan qimmatroq, chunki to'lov da'vosi qisqa vaqt ichida qondiriladi, shunday ekan, sug'urta mukofoti kiritish muddati kamroq bo'ladi, investitsion daromad esa to'lov muddati keyinroq keladigan «ikkinchi o'lim bo'yicha» polislari bilan taqqoslaganda kamroq bo'ladi.

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha asosiy polis turlari

Odatda odamlar yoki oila a'zolarini o'zining bevaqt o'limidan himoya qilish uchun, yoki kelajakda belgilangan moliyaviy vazifalarni bajarish uchun investitsiyalar sifatida hayotni sug'urta qildirish haqida shartnoma tuzadi. Polislar quyidagi tarzda guruhlarga ajratilishi mumkin:

- muddatli sug'urta;
- umrbod sug'urta;
- qolgan umrni sug'urta qildirish.

Muddatli sug'urta odatda belgilangan muddat davomida o'lim holati ro'y berishidan himoya qilish uchun foydalaniladi va shu muddatga shartnoma tuziladi. Agar ushbu vaqt muddati davomida o'lim holati ro'y bermasa, hech qanday to'lov amalga oshirilmaydi va sug'urta qildiruvchi kiritilgan mukofot pulini qaytarib olmaydi. Shu sababdan sug'urta mukofotlari juda past bo'lishi mumkin, chunki ular o'lim bo'yicha da'volarni qoplashga to'liq ketadi va agarda shartnomaning amal qilish muddati tugagan paytga kelib, sug'urta qildiruvchi tirik bo'lgan hollarda qaytarilmaydi.

Umrbod sug'urta qildirish asosan u taqdim etadigan himoya uchun foydalaniladi. Sug'urta summasi sug'urta qildirgan shaxsning o'limi bilan to'lanadi. Bunday shartnomalar uzoq muddatli bo'lishi sababli, ular investitsion tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi va shartnoma amal qilishining ma'lum bir bosqichida polis daromad keltira boshlaydi (muddatli sug'urtadan farqli ravishda). Bunday polislar joriy qiymatga (qayta sotib olish summasi) ega bo'lib, odatda bu sug'urta mukofotlari to'langan dastlabki ikki-uch yildan so'g ro'y beradi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish ko'proq investitsion shartnomalarga o'xshab ketadi. Qolgan umrni sug'urta qildirish polislarida kelajakda belgilangan vaqt mahalida yoki shu muddat tugagunga qadar o'lim holati ro'y berganda sug'urta summasi to'lanishi ko'zda tutiladi. Ular uchun, xuddi umrbod sug'urta polislari kabi, qayta sotib olish summasi mavjud bo'ladi.

Investitsion polislar

Sug'urta qiluvchining nuqtai nazaridan, muddatli sug'urtada investitsion element umuman mavjud emas. Bu polislar faqat himoya uchun mo'ljallangan va sug'urta qoplami cheklangan muddatda amal qilishi sababli hayotni sug'urta qildirish bo'yicha kompaniyadan to'lov muqarrar sanalmaydi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish polislari yoki umrbod sug'urta polislari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- kafolatlangan summaga daromadsiz polislar,
- muayyan sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyat samaradorligiga bog'liq bo'lgan daromad bilan bog'liq daromadli polislar.

Daromadli polislar

Polislarning ushbu turi sug'urta qildiruvchiga sug'urta kompaniyasi oladigan foydani taqsimlashda ishtirok etishga imkon beradi. Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha kompaniya har yili o'z aktivlari va majburiyatlarini baholaydi va sug'urta summasiga qo'shimcha sifatida olingan barcha foydadan bonus yoki mukofot hisoblab chiqadi. Bu qo'shimcha to'lovlar sug'urta qildiruvchining o'limi yoki polis bo'yicha to'lov muddati kelmagunga qadar olinishi mumkin emas.

Amaliyotda bonus to'lovlarining turli xil variantlari uchraydi, lekin mazkur darslikda shuni ta'kidlash kifoyaki, ular odatda har yili sug'urta summalaridan foiz shaklida belgilanadi. Bu bonuslar yoki sug'urta summasidan, yoki ilgari hisoblangan bonuslarni hisobga olgan holda sug'urta summasidan hisoblab chiqilishi mumkin.

Hayotni sug'urta qilish bo'yicha kompaniya qo'shimcha ravishda «yakuniy bonus» tayinlashi mumkin bo'lib, u faqat sug'urta qildiruvchining o'limi yoki polis bo'yicha to'lov muddati kelgan holdagina to'lanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, qolgan umrni sug'urta qildirish polislari va umrbod sug'urta polislari qayta sotib olish summasiga ega, shu sababli bu polislar bo'yicha bonuslar hisoblab chiqiladi, lekin ular kamroq bo'ladi va odatda ular uchun yakuniy bonus foydalanilmaydi.

Pirovardida daromadli polislar quyidagilarni ta'minlaydi;

- kelishilgan muddat kelgan yoki o'lim holati ro'y berganda kafolatlangan summa,
- yillik bonuslar,

- kelishilgan muddat kelgan yoki o'lim holati ro'y berganda qo'shiladigan yakuniy bonus,
- qayta xarid qilish summasi, jumladan, yillik bonuslarning ma'lum bir qismi.

Daromadli polislar bo'yicha mukofotlar odatda sug'urta summasi bir xil bo'lgan daromadsiz polislardan yuqori bo'ladi va bu ular keltiradigan qo'shimcha daromadlarni aks ettiradi.

Ulushli (hissali) polislar

Ulushli polislar investorlarga daromad darajasi bevosita hayotni sug'urta qilish bo'yicha kompaniyalarning investitsion faoliyat samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan polislar taklif qilish usuli sifatida paydo bo'lgan. Odatda bunga ulushli polislar qiymatini sug'urta kompaniyasi yoki boshqa boshqaruvchi tomonidan boshqariladigan trast fondidagi ulushlar qiymatiga bog'lab qo'yish yo'li bilan erishilgan.

Ulushli polislar bo'yicha olinadigan mukofotlarning hammasi yoki bir qismi joriy narx bo'yicha trast fondida ulushlar xarid qilish uchun foydalanilgan. Polislarning joriy qiymati bu ulushlar qiymati bilan birgalikda o'zgarib boradi. Garchi chaqqon bozorda u o'sadigan bo'lsada, narx tushib ketgan hollarda ularning egalari yutqazib qo'yishi ham mumkin.

Ushbu bosqichda investitsion polislarning bu jihati haqida batafsil to'xtalib o'tishga zarurat yo'q.

Muddatli sug'urta

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, muddatli sug'urta belgilangan vaqt davrini qamrab oladigan hayotni sug'urta qildirish bo'yicha shartnomalarning boshlang'ich (bazaviy) turi hisoblanadi. Shbu shartnomalar turining bir necha xil variantlari mavjud:

- qayd qilib qo'yilgan muddatli sug'urta;
- qayta tiklanadigan muddatli sug'urta;
- konvertatsiyalanadigan muddatli sug'urta;
- sug'urta summasi kamayib boradigan muddatli sug'urta;
- sug'urta summasi o'sib boradigan muddatli sug'urta;
- oila daromadlarini sug'urta qildirish;
- sug'urta summasi o'sib oila daromadlarini sug'urta qildirish.

Keling, bu variantlarga xos bo'lgan ustunliklar va mukofotlarni taqqoslaymiz va ularning har birini qo'llash bo'yicha shartlarni ko'rib chiqamiz.

Qayd qilib qo'yilgan muddatli sug'urta

Bu muddatli sug'urta qildirishning eng oddiy va shu bilan bir paytda arzon varianti hisoblanadi, chunki shartnomaning amal qilish muddati davomida doimiy bo'lib turadigan mukofot evaziga hayotni sug'urta qilish bo'yicha sug'urta

kompaniyasi sug'urta qildiruvchi shartnomaning amal qilish muddati yakunlangunga qadar o'lgan hollarda sug'urta summasi to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bu muddat yakunlangach, polis o'z qiymatini yo'qotadi.

Ushbu variantning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- sug'urta mukofoti pastligi,
- sug'urta qoplami cheklangan vaqt davomida amal qiladi,
- sug'urta mukofoti va summasi shartnomada qayd qilib qo'yiladi,
- na polisnning joriy qiymati va na qayta xarid qilish summasi mavjud
- shartnoma tugagandan so'ng to'lovlar yo'q,
- mukofotlar kiritish kelishib olingan kutish muddatidan o'tib ketgan hollarda polis amal qilishni to'xtatadi.

Ushbu polisdan foydalanishning ehtimoli eng yuqori bo'lgan variant – qarz oluvchining o'limi holatida qarzning qaytarilishini ta'minlash.

Qayta tiklanadigan muddatli sug'urta

Muddatli sug'urtaning ushbu varianti shu bilan ajralib turadiki, shartnoma sug'urta qildiruvchining istagi bilan bevosita shartnoma muddati tugashi bilan tibbiy tekshiruvsiz uzaytirilishi mumkin. Ushbu polislar uchun yosh bo'yicha cheklovlar qo'llanishi mumkin (masalan, 65 yoshgacha).

Shartnoma muddati uzaytirilgan hollarda sug'urta muofotlari sug'urta qildiruvchining yoshini hisobga olgan holda oshiriladi va takroriy uzaytirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Mazkur variantning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- polisning amal qilish muddati tibbiy tekshiruvsiz uzaytirilishi mumkin;
- polis navbatdagi muddat yakunlanganidan so'ng uzaytirilishi yoki qayta tiklanmasligi mumkin;
- shartnoma muddati uzaytirilganda sug'urta mukofotlari sug'urta qildiruvchining yoshini hisobga olgan holda oshiriladi.

Sug'urta muddati 20 yilga teng bo'lgan polis xarid qilish o'rniga 45 yoshli kishi unga shartnomaning amal qilish muddatini har besh yilda uzaytirish huquqini beradigan besh yillik qayta tiklanadigan polis xarid qilishi mumkin

Konvertatsiyalanadigan muddatli sug'urta

Qayd qilib qo'yilgan muddatli sug'urtaning ushbu varianti shartnoma amal qiladigan muddatning istalgan qismida sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotlarining hammasini yoki bir qismini umrbod sug'urta polisiga yoki qolgan umrni sug'urta qildirish polisiga konvertatsiyalash imkonini beradi. Mukofot stavkasini belgilash sug'urta qildiruvchining konvertatsiya paytidagi yoshi uchun qolgan umrni sug'urta qildirish yoki umrbod sug'urta yangi polisi bilan bir xilda amalga oshiriladi.

Ushbu polis variantining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

► qolgan umrni sug'urta qildirish yoki umrbod sug'urta polisiga konvertatsiya qilish imkoniyati,

► badallarning hammasi yoki bir qismi konvertatsiya qilinishi mumkin,

► ushbu variant bo'yicha mukofot konvertatsiya qiymatini kompensatsiyalash uchun biroz yuqori.

Polislarning ushbu turi ssuda ta'minoti sifatida ham qo'llanishi, konvertatsiya esa uni kelajakda jamg'arib boriladigan ssudaga aylantirish usuli sifatida foydalanilishi mumkin.

Sug'urta summasi kamayib boradigan muddatli sug'urta

Muddatli sug'urtaning ushbu variantida polis amal qilish muddatining oxirida nolga teng bo'ladigan har yili belgilangan miqdorda pasayib boradigan sug'urta summasi ko'zda tutiladi.

Ushbu variantga quyidagilar xos:

► mukofot doimiy bo'lib qolaveradi,

► qolgan sug'urta summasi juda kichik bo'lib, mukofotni to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish uchun mukofotni to'lash davri shartnomaning amal qilish muddatidan kichik bo'lishi mumkin,

► mukofot hatto qayd qilib qo'yilgan muddatli sug'urtadan ham past bo'lishi yoki kamroq vaqt to'lanishi mumkin.

Muddatli sug'urtaning ushbu varianti odatda kamayib boradigan qarzni qoplash uchun, masalan, sug'urta summasi uy uchun to'lanmagan qarz miqdori bilan bir xil proporsiyada kamayib boradigan pulini bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan xarid qilingan uy bo'yicha qarzlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Sug'urta summasi o'sib boradigan muddatli sug'urta

Sug'urta qoplamining ushbu turi shartnomaning amal qilish muddati davomida pulning qimmati pasayib ketishi sababli sug'urta qoplamining real qiymatini pasaytiradigan inflyasiya ta'sirini hisobga olish uchun qo'llanadi. Bunga yoki sug'urta summasini har yili belgilangan foizga oshirish hisobiga, yoki oshirilgan summa bilan birga uzaytirilishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli polislardan foydalanish yordamida erishish mumkin. Odatda to'g'ri keladigan inflyasiya koeffitsientini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qilishning indeksli usulidan foydalaniladi.

Ushbu variantga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

► sug'urta qoplami summasi tibbiy tekshiruvsiz polisning amal qilish muddati davomida o'sib boradi;

► sug'urta mukofotlari sug'urta summasining o'sishi bilan birgalikda o'sib boradi;

► sug‘urta mukofotlari polis uzaytirilganda sug‘urta qildiruvchining yoshiga muvofiq o‘sib boradi;

► boshlang‘ich sug‘urta mukofotlari ekvivalent qayd qilingan muddatli sug‘urta qildirishda bo‘lgan holatdan ko‘ra yuqori;

► sug‘urta qoplami 60-65 yoshgacha amal qilishi mumkin.

VICH-infeksiya va OITS keng tarqalib ketganligi tufayli oxirgi paytlarda bu polislarni xarid qilish qiyinlashgan.

13.2. Hayot sug‘urtasining asosiy va qo‘shimcha polislarining turlari

Oila daromadlarini sug‘urta qildirish

Sug‘urta qoplamining ushbu turi, o‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, boquvchini yo‘qotish holatlarida oila uchun daromadni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Sug‘urta summasi oila boquvchisi vafot etgan paytdan boshlab to shartnoma yakunlangunga qadar qismlab to‘lab boriladi. Ba’zida joriy qiymat yoki kelishib olingan summa qismlab to‘lash o‘rniga boquvchi vafot etishi bilan bir martada to‘lanishi mumkin.

Bu muddatli sug‘urta qildirishning nisbatan arzon varianti hisoblanadi, chunki sug‘urta qildiruvchi qanchalik uzoq yashasa, u o‘lgan taqdirda shunchalik kam pul to‘lash zarur bo‘ladi. Agarda u shartnomaning amal qilish muddati yakunlanadigan paytga kelib tirik bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi umuman hech nima olmaydi.

Ushbu variantning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

► o‘lim bo‘yicha to‘lovlar qismlab amalga oshiriladi,

► polislar nisbatan arzon bo‘ladi,

► to‘lovlar foyda sifatida ko‘rib chiqilishi va soliqqa tortilishi mumkin.

Sug‘urta summasi o‘sib oila daromadlarini sug‘urta qildirish

Inflyasiya oila daromadlarini sug‘urta qildirish polislari bo‘yicha to‘lovlar qimmatini «yeb qo‘yadi» va buning o‘rnini to‘ldirish uchun hayotni sug‘urta qildirish bo‘yicha ayrim kompaniyalar to‘lovlar hajmi polisning amal qilish muddati davomida kelishib olingan miqdorda o‘sib boradigan polislar taklif etadi. Ayrim polislar bo‘yicha to‘lovlar sug‘urta mukofotlari to‘lash paytidan boshlab o‘sadi, boshqa polislar bo‘yicha esa – sug‘urta qildiruvchi o‘lgan paytdan boshlab to‘xtaydi o‘sib boradigan to‘lovlar inflyasiyadan ma’lum bir himoya beradi.

To‘lovlar darajasi to‘lovlarni kiritish jarayonida o‘sa boshlaydigan polislar sug‘urta qildiruvchining o‘limidan so‘ng ular bo‘yicha indeksatsiya to‘xtatiladigan polislardan qimmatroq bo‘ladi.

Polislarning ushbu turi, ehtimol, boqimandalarni himoya qilish uchun eng to‘g‘ri keladi, lekin bu polislarni xarid qilish ham VICH-infeksiya va OITS keng tarqalib ketganligi tufayli oxirgi paytlarda qiyinlashgan.

Umrbod polislar

Umrbod polislarni ikkita asosiy jihat ajratib turadi:

- polis bo‘yicha sug‘urta summasi sug‘urta qildiruvchi shaxs o‘lganidan so‘ng to‘lanadi;
- sug‘urta mukofotlari muddatli sug‘urta holatidan ko‘ra yuqori bo‘ladi, chunki da’vo albatta o‘ringa ega bo‘ladi.

Bu doimiy polislar bo‘lib, yakunlanish muddati bilan chegaralanmaydi va ushbu polis bo‘yicha baribir pul to‘lanishi sababli u ssuda uchun durustgina ta’minot bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Umrbod polislarning bir necha xil turlari mavjud.

Daromadsiz umrbod polislar

Daromadsiz umrbod polislar uchun quyidagilar xosdir:

- amal qilish muddati davomida sug‘urta mukofotlari to‘lab borilishi;
- qayd qilib qo‘yilgan sug‘urta summasi.

Ayrim polislarda 80 yoki 85 yoshdan keyin sug‘urta mukofotlari to‘lash ko‘zda tutilmaydi, lekin agar bunday polisni shu yoshda xarid qilinadigan bo‘lsa, sug‘urta mukofotlari unchalik yuqori bo‘lmaydi, chunki ular qisqa vaqt davomida to‘lanish ehtimoli katta.

Daromadli umrbod polislar

Polislarning ushbu turi daromadsiz umrbod polislarga o‘xshab ketadi va faqatgina polisda kelishib olingan va sug‘urta qildiruvchi o‘lganida to‘lanadigan qo‘shimcha bonuslar bilan farq qiladi. Sug‘urta mukofotlari shartnoma amal qiladigan butun muddat davomida to‘lanishi yoki u 80-85 yoshga yetganda to‘xtatilishi mumkin.

Arzon umrbod polislar

Polislarning ushbu turida o‘lim holatida kafolatlangan sug‘urta summasi, lekin polisning amal qilish davri davomida bonuslar hisobiga yildan-yilga o‘sib boradigan va nihoyat, belgilangan paytga kelib kafolatlangan sug‘urta summasiga yetadigan va undan ortib ham ketib ketadigan bazaviy sug‘urta summasi kichikroq bo‘lishini ko‘zda tutadi. O‘lim holatida sug‘urta to‘lovi o‘lim ro‘y bergan paytga kelib to‘plangan katta summadan kelib chiqib belgilanadi. Sug‘urta mukofotlari oddiy daromadli umrbod polislar bo‘yicha sug‘urta mukofotidan kamdir.

Qolgan umrni sug'urta qildirish polislari

Polislaning yana bir asosiy turi qolgan umrni sug'urta qildirish polislari hisoblanadi.

Ularning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

► sug'urta summasi polis amal qilishi yakun topadigan oldindan kelishib olingan sanada yoki sug'urta qildiruvchining o'limi undan oldinroq ro'y bergan paytda to'lanadi;

► ushbu polisga teng keladigani yo'q – uning qayta xarid qilish summasi yoki joriy qiymati mavjud;

► sug'urta mukofotlari polis amal qiladigan muddat davomida to'lab boriladi

Qolgan umrni sug'urta qildirish bo'yicha sug'urta mukofotlari umrbod polislar bo'yicha sug'urta mukofotlaridan katta, chunik polisning amal qilish muddati yakunlanadigan sana belgilanishi shuni anglatadiki, da'volarning katta qismi oldinroq bildiriladi va shunday ekan, sug'urta mukofotlari kamroq vaqt davomida to'plab boriladi, sug'urta mukofotalri to'lanadigan muddat qanchalik kichik bo'lsa, ularning miqdori shunchalik katta bo'ladi.

Ko'plab polislarda o'lim holati ro'y berganda yoki polisning amal qilishi yakun topadigan sanada yakuniy bonus to'lanishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu to'lov shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan hollarda to'lanmaydi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish daromadsiz polislari

Bu qolgan umrni sug'urta qildirish daromadsiz polislarining eng asosiy shakli bo'lib, unda sug'urta summasi va sug'urta mukofoti stavkalari qat'iyy belgilab qo'yilgan bo'ladi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish daromadli polislari

Daromadli polislar bo'yicha bonuslar hisoblab chiqish umumiy tamoyili qolgan umrni sug'urta qildirish polislariga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Sug'urta summasi kafolatlangan bo'lib, qo'shimcha ravishda bonuslar to'lanadi. Agarda polis muddatning oxiriga qadar amal qiladigan bo'lsa, bonuslar sug'urta qildiruvchi shartnomaning amal qilish davri davomida o'ladigan hollardan yuqori bo'ladi, chunki bonuslar ko'proq vaqt to'planib keladi.

Umrbod polislar bo'yicha bo'lgani kabi, bu yerda ham to'lov aniq hajmini oldindan aytib bo'lmaydi, chunki uning qachon ro'y berishi ma'lum emas, demak, to'plangan bonuslar hajmi noma'lum.

To'lanadigan qo'shimcha bonuslar tufayli mukofotlar sug'urta summasi bir xil bo'lgan qolgan umrni sug'urta qildirish bo'yicha daromadsiz polislardan ko'ra yuqori.

Qolgan umrni sug'urta qildirish daromadli polislari ko'plab jamg'arib boriladigan sxemalarda asosiy element hisoblanadi va uy xarid qilish bitimlarida keng

foydalaniladi, chunki ular ta'minot taqdim etadi (zayom polisning amal qilishi yakun topadigan sana kelganda yoki sug'urta qildiruvchi o'lgan holda qaytariladi), bonuslar esa qo'shimcha jamg'arma elementini ifodalaydi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish arzon polislari

Qolgan umrni sug'urta qildirish arzon polislari qolgan umrni sug'urta qildirish daromadli polisining yengillashtirilgan variantidir.

Unda qolgan umrni sug'urta qildirish daromadli polisi bilan sug'urta summasi kamayib boradigan muddatli sug'urta jihatlari uyg'unlashadi.

Qolgan umrni sug'urta qildirishning arzon polislarda bo'lgani kabi, ikkita sug'urta summasi bo'ladi. O'lim holatida sug'urta to'lovi summasi ikkita summadan kattasi sifatida aniqlanadi:

- ► bonuslar miqdoriga ko'paytirilgan bazaviy summa;
- ► o'lim holatiga kafolatlangan summa.

Polisning amal qilish muddati yakun topadigan sana yetib kelishida to'lanadigan summa shartnomaning amal qilish davrida hisoblab chiqilgan barcha bonuslar miqdoriga oshirilgan bazaviy summa sifatida aniqlanadi (13.1-rasm).



13.1-rasm. **Qolgan umrni sug'urta qildirish polislarining amal qilish grafigi**

Bunday polislar uy xarid qilishda ssudani ta'minlashning arzon usuli sifatida paydo bo'lgan, bunda o'lim holatiga kafolatlangan summa olingan qarz miqdoriga teng qilib belgilangan.

Qolgan umrni sug'urta qildirishning arzon polislari rivoji sifatida qolgan umrni sug'urta qildirishning boshlang'ich to'lovlar kichik va mukofot o'sib boradigan polislari paydo bo'lgan. Amalda bu asta-sekinlik bilan to'liq mukofot darajasigacha o'sib boradigan shartnomaning amal qilish muddati boshida mukofot miqdori kichikligi bilan tavsiflanadigan qolgan umrni sug'urta qildirishning arzon polisidir.

Qolgan umrni sug'urta qildirishning «moslashuvchan» polislari

Polislarning ushbu turi qolgan umrni sug'urta qildirishning an'anaviy polislari kamchiliklari (polisning amal qilish muddati yakun topadigan sana qayd qilib qo'yilishi va qaytariladigan summa kichikligi) o'rnini to'diradi va shartnomaning amal qila boshlagan paytdan boshlab o'n yil o'tgach istalgan payt hech qanday jarima to'lamasdan bekor qilinishi mumkin bo'ladi. Qaytarib beriladigan summa odatda to'liq hajmda yoki qisman, polis amal qilish muddati yakun topadigan vaqtdagidan ertaroq vaqtdagi kabi kafolatlanadi.

Polislar odatda qolgan umrni sug'urta qildirishning daromadli polislari kabi uzoq muddatga, masalan 25 yilga yoki 65 yoshga yetishga tuziladi.

Sof qolgan umrni sug'urta qildirish

«Sof» qolgan umrni sug'urta qildirish polisi hayot bo'yicha hech qanday sug'urta qoplami taqdim etmaydi. Bu kelishilgan muddatda sug'urta qildiruvchiga sug'urta summasi to'ash bo'yicha oddiy shartnoma hisoblanadi, xolos. Agar sug'urta qildiruvchi polisning amal qilish muddati yakun topgunga qadar o'ladigan bo'lsa, hech qanday to'lov amalga oshirilmaydi, garchi ayrim kompaniyalar bu holatda sug'urta mukofotini qaytarib berishadi. Bu polislarning kamdan-kam uchraydigan turi hisoblanadi, chunki investitsiyalar uchun kapital kiritishning ushbu usulining o'rnini bemalol to'liq bolsa oladigan ko'plab yo'nalishlar mavjud.

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha polislarning boshqa turlari

Yuqorida aytib o'tilgan shartnomalarning uchta asosiy turidan tashqari, maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan va qo'llanadigan shartnomalar ham ishlab chiqilgan.

Ulushli polislar

Ulushli polislar qolgan umrni sug'urta qildirish polislari, umrbod polislar yoki muddatli polislar sifatida foydalanilishi mumkin

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha universal polislar

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha universal polislar oddiy ulushli umrbod polislar rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Amalda ular mutlaq moslashuvchanlikni ta'minlash uchun turli qo'shimcha xususiyatlar bilan standart ulushli umrbod

polislarni ifodalaydi. Asosiy g'oya shundan iboartki, sug'urta qildiruvchi u istagan narsani, u istagan paytda to'laydi va unga yoqqan narsani imkoniyatlar (opsiyalar) ro'yxatidan tanlab oladi. Barcha to'langan mukofotlar tanlab olingan fondda (trastda) ulush xarid qilish uchun foydalaniladi va tanlangan opsiyalar qiymati har oy mos keluvchi ulushlarni sotish yo'li bilan to'lab boriladi.

Opsiyalar ro'yxati odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'lim holati bo'yicha to'lovlar;
- mos keluvchi indekslar, masalan, iste'mol narxlari indeksini qo'llagan holda o'lim holati bo'yicha to'lovlarni avtomatik qayta hisob-kitob qilish uchun har yillik indeksatsiya;
- sug'urtaga qabul qilish majburiyligi;
- mehnatga layoqatsizlik davrida mukofot to'lashdan ozod etilish;
- muntazam daromad;
- mukofot to'lovlarini, masalan, ishsizlik davrida to'xtatib turish imkoniyati;
- nogironlik bo'yicha to'lovlar;
- kasallik holatida to'lovlar;
- tibbiy xarajatlarni qoplash uchun to'lovlar;
- ko'ngisiz hodisa oqibatidagi o'im holati bo'yicha to'lovlar;
- polisga boshqa shaxsni qo'shish imkoniyati, masalan, nikoh qurgandan so'ng;
- jiddiy kasalliklar holatidagi to'lovlar;

Opsiyalar birdaniga tanlanishi yoki keyinroq qo'shilishi ham mumkin.

Shartlangan tanlanadigan polislar

Bu polislar ular bo'yicha to'lovlar kelishib olingan shartlarni bajarish sharti bilan sug'urta qildiruvchining o'lim holati amalga oshiriladigan shartnomalar turini ifodalaydi. Odatda bunday shartlar quyidagilar bo'lishi mumkin: uchinchi shaxs hayotligida sug'urta qildiruvchining o'limi (kontr-hayot).

Masalan, agar yer sug'urta qildirgan, xotin esa kontrsug'urta qildiruvchi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, polis bo'yicha to'lov faqatgina er xotinidan oldin o'lgan hollarda amalga oshiriladi. Sug'urta mukofoti sug'urta qildiruvchi va kontrsug'urta qildiruvchining yoshi, jinsi va salomatligiga bog'liq bo'ladi.

Polislar boshqa kelishib olingan shartlarni qoplash uchun tuzilishi mumkin bo'lib, sug'urta mukofoti polisda belgilangan shartlarni tanlashga bog'liq bo'ladi.

Qo'shimchalar kiritilgan polislar

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha ko'plab kompaniyalar sug'urta qildiruvchining istagi bilan standart polislarga kiritilishi mumkin bo'lgan

qo‘shimchalardan foydalanadi. Odatda qo‘shimchalar faqat umrbod polislar yoki qolgan umrni sug‘urta qildirish polislariga taqdim etiladi.

Bu qo‘shimchalarning barchasi sug‘urta mukofotining ortishiga olib keladi va ularni kiritish imkoniyati bu xizmatlarni taqdim etuvchi sug‘urta kompaniyasining anderrayteri tomonidan aniqlanadi. Eng tarqalgan qo‘shimchalar quyidagilar hisoblanadi:

- sug‘urta mukofoti to‘lashdan ozod etish. Sug‘urta qildiruvchi jarohat yoki kasallik tufayli o‘zining kasbiy majburiyatlari yoki mashg‘ulotlarini bajarish layoqatiga ega bo‘lmasa, u sug‘urta mukofotlari to‘lashdan ozod etiladi;
- nogironlik bo‘yicha to‘lovlar. Sug‘urta summasi xuddi o‘lim holatida bo‘lgani kabi, nogironlikda ham to‘lanadi;
- ko‘ngilsiz hodisa bo‘yicha ikki karra to‘lovlar. Agar sug‘urta qildiruvchi ko‘ngilsiz hodisa oqibatida halok bo‘lsa, o‘lim holati bo‘yicha sug‘urta summasi miqdoridagi qo‘shimcha to‘lov amalga oshiriladi;
- o‘sib boradigan sug‘urta qoplami. Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta qoplamini belgilangan vaqtda belgilangan summaga oshirish imkonini beradi;
- jiddiy kasalliklarga qarshi sug‘urta qoplami.

Agar tibbiy tashxis belgilangan kasalliklar mavjud ekanligini ko‘rsatsa, yoki vrachlar xulosasiga ko‘ra polis bo‘yicha to‘lov amalga oshiriladi.

14-MAVZU.
UMUMIY SUG‘URTA VA UNING TUR(KLASS)LARI

14.1. Umumiy sug‘urta tarmog‘i haqida tushuncha

O‘zbekiston sug‘urta bozorida umumiy sug‘urtaga quyidagicha ta’rif berilgan, ya’ni[112]: umumiy sug‘urta (shaxsiy, mulkiy sug‘urta, javobgarlikni sug‘urta qilish hamda hayotni sug‘urta qilish sohasiga taalluqli bo‘lmagan boshqa sug‘urta turlari).

Sug‘urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog‘liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug‘urta sohalari sug‘urta turlariga (klasslariga) bo‘linadi. Sug‘urta turlari (klasslari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

14.1-jadval

Umumiy sug‘urta tarmog‘i[113]

Tartib raqami	Klassning nomi
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish
3-klass	Er usti transport vositalarini sug‘urta qilish
4-klass	Harakatlanadigan temir yo‘l tarkibi sug‘urtasi
5-klass	Aviatsiya sug‘urtasi
6-klass	Dengiz sug‘urtasi
7-klass	Yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urta qilish
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug‘urta qilish
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug‘urta qilish
10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish
11-klass	Aviatsiya sug‘urtasi doirasidagi javobgarlikni sug‘urta qilish
12-klass	Dengiz sug‘urtasi doirasida javobgarlikni sug‘urta qilish
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish
14-klass	Kreditlarni sug‘urta qilish
15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug‘urta qilish
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta qilish

Umumiy sug‘urta kasslariga qisqacha quyidagicha ta’rif berish mumkin:

---

[112] O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” qonuni O‘zR Oliy Majlisining 05.04.2002 y. 359-II-son.

[113] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-son qarori.

Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish:
Quyidagi hollarda:

a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud;

b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud;

v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va 4-klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarining jami.

Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish: Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda.

Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish: Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urtasi: Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarining jami.

Aviatsiya sug'urtasi: havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarining jami.

Dengiz sug'urtasi: dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarining jami.

Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish: transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarining jami.

Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish: yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami.

Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish: 8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar

natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko‘rsatilgandan boshqa) yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlarining jami.

Avtofuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish: Yer usti transport vositalari va boshqa o‘ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami.

Aviatsiya sug‘urtasi doirasidagi javobgarlikni sug‘urta qilish: havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlarining jami.

Dengiz sug‘urtasi doirasida javobgarlikni sug‘urta qilish: dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami.

Umumiy fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish: 10, 11 va 12-klasslarda ko‘rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo‘lgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami.

Kreditlarni sug‘urta qilish: Sug‘urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug‘urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami.

Kafillikni (kafolatlarni) sug‘urta qilish: Sug‘urta qildiruvchining o‘ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami.

Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish:

Quyidagi hollarda:

a) sug‘urta qildiruvchining biznesi (xo‘jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug‘urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo‘jalik faoliyati) ko‘lami kamayishi natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda;

b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda (17-klassda ko‘rsatilgandan tashqari);

v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko‘rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami.

Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish: sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

14.2. Umumiy sug'urtaning ayrim turlari tavsifi

Ushbu pragrafda umumiy sug'urta turlarining keng tarqalgan turlarini tahlil qilib chiqamiz.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta

Qisqa mazmuni. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi to'lagan sug'urta mukofotiga asosan belgilangan sug'urta puli doirasida Sug'urta qildiruvchi va/yoki Sug'urtalangan shaxsning shartnomada belgilangan sug'urta hodisalari bo'yicha tibbiy muassasa tomonidan tibbiy xizmatlar ko'rsatishga ketgan sarf harajatlarini to'lash majburiyatini oladi.

Sug'urta obyektlari. Sug'urtalangan shaxslarning hayoti va salomatligiga zarar yetishi natijasida tibbiy muassasadan tibbiy hizmatlar ko'rsatishga ketgan sarf-harajatlarni sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi.

14. 2-jadval

Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish

Qisqa mazmuni	Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi to'lagan sug'urta mukofoti evaziga belgilangan sug'urta puli doirasida Sug'urta qildiruvchi va/yoki Sug'urtalangan shaxsning shartnomada belgilangan sug'urta hodisalari natijasida sog'lig'ining qattiq shikastlanishi yohud shuning natijasida vafot etganda sug'urta pulini to'lash majburiyatini oladi.
Sug'urta obyektlari	Sug'urta qildiruvchining (Sug'urtalangan shaxsning) hayoti va sog'lig'iga bog'liq qonunlarga zid kelmaydigan moddiy qiziqishlari sug'urta obyekti hisoblanadi.
Sug'urta tavakkalchiliklari	a) baxtsiz hodisa tufayli jarohat olish; b) zaharli o'simliklar, kimyoviy vositalar ta'sirida kuchli zaharlanish, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari, dorilar bilan tasodifan zaharlanish; v) tasodifan suyak sinishi, chiqishi, tish sinishi, kuyish, noto'g'ri tibbiy manipulyatsiya natijasida a'zolarning uzilishi yoki ularni olib tashlanishi.

Sug'urta tavakkalchiliklari. Sug'urtalangan shaxs sug'urta polisini amal qilish muddati ichida tibbiy muassasadan nafas olish a'zolarini kasallanishi, o'tkir virus orqali nafas olish yo'llarini kasallanishi, qon aylanish tizimini kasallanishi, ovqat hazm qilish. tizimini kasallanishi, siydik chiqarish tizimini kasallanishi, asab-nerv tizimini kasallanishi,

teri kasallanishi, qon kasallanishi, quloq, burun va tomoq kasallanishi, uyda yoki ishxonada jarohat olishi, kuyishi va boshqa a'zolariga zarar yetishi, zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanishi, (sanoat yoki maishiy) sifatsiz oziq – ovqat mahsulotlar va dorilar bilan tasodifan zaharlanish, oziq-ovqat toksikoinfeksiyasi, anafilaktik shok, nafas olish yo'liga biror bir narsani tiqilib qolishi.

14.3-jadval

Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish

Qisqa mazmuni	Mol-mulkka huquqiy egalik qiluvchi, muomala layoqatiga ega bo'lgan Sug'urta qildiruvchining O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z mol-mulklarini transportning har xil turlari bilan tashishda o'zlarining yuklarini, bagajlarini va boshqa mol-mulklarning yo'qotilishi yoki zararlanishidan sug'urtalaydilar.
Sug'urta obyektlari	Sug'urta qildiruvchining yo'ldagi mol-mulkiga egalik qilishida, foydalanishida, tashishdagi mulkiy manfaati.
Sug'urta tavakkalchiliklari	Sug'urta qildiruvchining transportni har xil turlari bilan yuklari, bagaj va boshqa mol-mulklarni tashishda yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urushi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri, do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish, yo'l transport hodisasi va boshqa qaltisliklar (Sug'urta hodisalari) natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi.

Garovga qo'yilayotgan mol-mulkni sug'urta qilish.

Qisqa mazmuni. O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy saqlanish joyida bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulklarini hamda ishlab chiqarilgan va aylanma mahsulotlarni, dastgoh, asbob–uskunalarini, qarz beruvchi tashkilotning bergan kredit mablag'larini qaytarilishi ta'minoti sifatida garovga qo'yilayotganligi va qarz mablag'i qaytarilgunga qadar, olovdan, tabiiy ofatlar va uchinchi shaxslarning qasddan noqonuniy qilgan harakatlari natijasida nobud bo'lishi yoki zararlanishidan sug'urtalash.

Sug'urta obyektlari. Garovga qo'yilayotgan binolar, imoratlar, inshootlar, asosiy va ishlab chiqarish vositalari, texnologiya va tovarlar, asbob-uskunalar, tugallanmagan kapital qurilish obyektlari, tayyor mahsulot, xomashyo, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklarning sug'urta hodisasi natijasida zararlanishi yoki yo'qotilishi.

Sug'urta tavakkalchiliklari. Sug'urta qildiruvchi yoki Garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan mol-mulkning doimiy saqlanish joyida toshqin, bo'ron, dovul, jala, sel kelishi, ko'chki, do'l, qalin qor yog'ishi, tuproqning cho'kishi, o'pirilishi, chaqmoq urishi, zilzila,

yong‘in, portlash, o‘g‘irlik, uchinchi shaxslarning qastdan qilgan noqonuniy harakati tufayli nobud bo‘lishi yoki zarar yetkazilishi natijasida zararlanishi.

14.4-jadval

Aholining turar joy imoratlari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini kompleks sug‘urta qilish

Qisqa mazmuni	Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchi to‘lagan sug‘urta mukofotiga asosan belgilangan sug‘urta puli doirasida Sug‘urta qildiruvchi va/yoki Sug‘urtalangan shaxsning shartnomada belgilangan sug‘urta hodisalari natijasida aholining turar joy imoratlari va uy-ro‘zg‘or buyumlari har hil favqulotda ko‘zda tutilmagan hodisalar (tabiiy ofatlar, yong‘in, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari) natijasida yo‘qotilganda yoki zarar etganda sug‘urta pulini to‘lash majburiyatini oladi.
Sug‘urta obektlari	Sug‘urta qildiruvchilarning foydalanishga yaroqli turar joy imoratlari va madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanishga mo‘ljallangan uy-ro‘zg‘or buyumlari.
Sug‘urta tavakkalchiliklari	YOng‘in, portlash, bo‘ron, dovul, jala, ko‘chki, tuproqning cho‘kishi, suv bosishi, sel, yashin urishi, zilzila, do‘l, qalin qor yog‘ishi, qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o‘g‘irlik qilish.

Iste’mol buyumlari xarid qilish uchun berilgan kredit mablag‘lari qaytarilishi bo‘yicha tadbirkorlik xavfini kompleks sug‘urta qilish

Qisqa mazmuni. Tijorat banklarining debitori (kredit oluvchi) tomonidan iste’mol kreditlari bo‘yicha asosiy qarzni qaytaraolmasligi bo‘yicha tadbirkorlik xavfi sug‘urtalanadi.

Sug‘urta obyektlari. Sug‘urta qildiruvchining qonun hujjatlariga zid kelmaydigan kredit oluvchiga kredit berish bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlar sug‘urta obyekti hisoblanadi.

Sug‘urta hodisasi. Kredit oluvchi (debitor) tomonidan oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha asosiy qarzni qaytara olmasligi natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rishi.

Moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish

Qisqa mazmuni. Tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyatini unga bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida uzilib qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilinadi.

Sug'urta obyektlari. Sug'urta qildiruvchining qonun hujjatlariga zid kelmaydigan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar sug'urta obyekti hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi. Sug'urta qildiruvchining tadbirkorlik faoliyatini unga bog'liq bo'lmagan omillar ta'sirida uzilib qolishi bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy tavakkalchiliklar.

Oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida Sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda shartnoma shartlariga muvofiq ularni qoplash bilan bog'liq bo'lgan (Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida Sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda Sug'urta tovonini ta'minlashdan tashqari) moliyaviy tavakkalchiliklar.

14.5-jadval

Yuk sug'urtasi

Qisqa mazmuni	Mol-mulkka huquqiy egalik qiluvchi kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan transportning har hil turlari bilan o'zlarining yuklarini tashishda, mol-mulklarning yo'qotilishi yoki zararlanishidan sug'urtalaydilar.
Sug'urta obyektlari	Sug'urta qildiruvchining mol-mulkini transport vositalarining har qanday turida tashilishida zararlanishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari.
Sug'urta tavakkalchiliklari	Sug'urta qildiruvchining transportni har xil turlari bilan yuklari va boshqa mol-mulklarni tashishda yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urushi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri, do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish, yo'l transport hodisasi va boshqa qaltisliklar natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi.

Qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchilarining bog'laridan kam hosil olishi natijasida ko'radigan moliyaviy zararini sug'urtalash.

Qisqa mazmuni. Sug'urtalovchi Bog'lar hosilini sug'urtalovchi qishloq xo'jalik korxonalarining hosilga kirgan bog' hosilini bo'ron, do'l, sel, yong'in, sovuq urishi, tufayli zararlanishi yoki nobud bo'lishi natijasida ko'riladigan moliyaviy zararini sug'urtalaydi.

Sug'urta obyektlari. Sug'urta qildiruvchi bog'larida yetishtiradigan hosilini sug'urta tavakkalchiliklari natijasida kamayishi yoki nobud bo'lishi tufayli Sug'urta qildiruvchining ko'radigan moliyaviy zarari.

Sug'urta tavakkalchiliklari. Bo'ron – to'zon yoki qor-yomg'ir aralash shiddatli shamol, maksimal tezligi 25m/s va undan kuchli, do'l - yumaloq muz holida yog'adigan

yog'in, sel - kuchli yomg'ir (jala) yog'ishi va qorlarning erishi natijasida kuchli suv oqimining paydo blishi va suv bosishi.

Yong'in - Sug'urtalangan maydonda paydo bo'ladigan yoki boshqa ekin maydonlaridan o'tib kelgan va erkin tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan alanga. Sovuq urishi – bog'lar hosilining gullagan davrida havo yoki tuproq sirtida haroratning 0°C va undan past bo'lishi natijasida zararlanishi.

14.6-jadval

Asalari oilalarini barcha tavakkalchiliklardan ixtiyoriy sug'urta qilish

Sug'urtalovchi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining litsenziyasi asosida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari
Sug'urta qildiruvchi	Asalari mahsuloti ytishtiruvchi barcha xo'jaliklar.
Naf oluvchi	Sug'urta polisida sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan naf (foyda) oluvchi shaxs (Fuqarolik kodeksi 52-bobi, 917-modda).
Sug'urta -Ariza	Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta shartnomasini tuzishni so'rab yozgan arizasi.
Adjaster	Sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9.2.- moddasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs.
Sug'urta syurveyeri	Sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9.6.-moddasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs.
Sug'urta shartnomasi.	Sug'urta qoidalarning ma'lum shartlarini o'z ichiga olgan Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasidagi huquqiy va moliyaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi bitim.
Sug'urta polisi.	Tomonlarning aniq huquqiy va moliyaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi va sug'urtalovchining o'z majburiyatlarini bajarishga kirishganligi haqidagi shaxodatnoma.
Asalari oilalari	Asalari oilalari
Sug'urta qiymati.	Asalari oilalari balans qiymati.
Sug'urta puli.	Sug'urta polisida ko'rsatilgan bo'lib, Sug'urta mukofoti to'liq tushmagan taqdirda, sug'urta puli tushgan sug'urta mukofotiga nisbatan mutanosib ravishda belgilanadi, sug'urta qiymatining 80 foizidan yuqori bo'lmagan miqdori.

Sug'urta mukofoti.	Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 241-moddasi talablariga asosan) tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasiga yoki sug'urta arizaga asosan to'lanadigan mablag'.
Sug'urta tavakkalchiligi.	Sug'urtalangan asalari oilalarining yong'in, sel, suv toshqini, yashin urishi, zilzila, qattiq sovuq tushishi natijasida muzlab qolishi, kasalliklar (4 ilova) natijasida nobud bo'lishi, o'g'irlanishi(agar shu munosabat bilan jinoyat ishi ochilgan bo'lsa).
Sug'urta tovoni.	Sug'urta hodisasi natijasida sug'urta qildiruvchi va/yoki naf oluvchiga ko'rgan zararni qoplash uchun sug'urta qiymatiga nisbatan mutanosib ravishda sug'urta puli doirasida sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan pul mablag'i.
Sug'urta muddati	Sug'urta polisining amal qilish muddati.
Franshiza.	Sug'urtalovchini zarar qoplamasining ma'lum qismini to'lashdan ozod qiluvchi shart (hayvonlar qiymatining 20% dan 50%gacha).
Fors-major holati.	Favqulodda va oldindan ko'rilmagan xarakterda bo'lib, tomonlarning majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadi hamda ularning xohish irodasiga bog'liq bo'lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo'lmaydigan holat.

Fermer xo'jaliklarining hayvonlarini tabiiy ofatlardan ixtiyoriy sug'urta qilish

Sug'urtalovchi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining litsenziyasi asosida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari.

Sug'urta qildiruvchi. Chorvachilik mahsuloti yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari.

Naf oluvchi. Sug'urta polisida sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan Naf (foyda) oluvchi shaxs (Fuqarolik kodeksi 52 – bob, 917 – modda).

Sug'urta–Ariza. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta shartnomasini tuzishni so'rab yozgan arizasi.

Adjaster. Sug'urtalovchining (Sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9.2.-moddasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

Sug'urta syurveyeri. Sug'urtalovchining (Sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9.6.-moddasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

Sug'urta shartnomasi. Sug'urta qoidalarning ma'lum shartlarini o'z ichiga olgan sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasidagi huquqiy va moliyaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi bitim.

Sug'urta polisi. Tomonlarning aniq huquqiy va moliyaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi va sug'urtalovchining o'z majburiyatlarini bajarishga kirishganligi haqida shaxodatnoma.

Hayvonlar. Qishloq xo'jalik hayvonlari: qoramol, qo'y va echkilar, otlar, tuyalar, cho'chqalar, uy parrandalari (tovuq, o'rdak, g'oz, kurka).

Sug'urta qiymati. Qishloq xo'jaligi hayvonlarining balans qiymati.

Sug'urta puli (sug'urta javobgarligi). Sug'urta polisida ko'rsatilgan bo'lib, sug'urta mukofoti to'liq tushmagan taqdirda, sug'urta puli tushgan sug'urta mukofotiga nisbatan mutanosib ravishda belgilanadi, sug'urta qiymatining 50-80 foizdan yuqori bo'lmagan miqdori.

Sug'urta mukofoti (badali). Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 241-moddasi talablariga asosan) tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasiga asosan to'lanadigan mablag'.

Sug'urta tavakkalchiligi. Sug'urtalangan hayvonlarning yong'in, bo'ron, do'l, dovul, sel, suv toshqini, yashin urishi, zilzila, qattiq sovuq tushishi natijasida muzlab qolishi, nobud bo'lishi, majburan so'yilishi yoki yo'q qilinishi yoki nobud bo'lishi.

Sug'urta tovoni. Sug'urta hodisasi natijasida sug'urta qildiruvchi va/yoki naf oluvchiga ko'rgan zararni qoplash uchun sug'urta qiymatiga nisbatan mutanosib ravishda sug'urta puli doirasida sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan pul mablag'i.

Sug'urta muddati. Sug'urta polisining amal qilish muddati.

Franshiza. Sug'urtalovchini zarar qoplamasining ma'lum qismini to'lashdan ozod qiluvchi shart (hayvonlar qiymatining 20% dan 50%gacha).

Fors-major holati. Favqulodda va oldindan ko'rilmagan xarakterda bo'lib, tomonlarning majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadi hamda ularning xohish irodasiga bog'liq bo'lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo'lmaydigan holat.

Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish.

Qisqa mazmuni. Yuridik shaxslar va to'liq muomala layoqatiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta tovoni to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turi hisoblanadi.

Sug'urta obyektlari. Sug'urta qildiruvchining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan, sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida kelib chiquvchi zararlar (yo'qotishlar) xavfi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan yetkazilgan zararni qoplab berilishini talab qilinishi natijasida kelib chiqqan va sud va huquqiy xarajatlar ko'rinishida

amalga oshirilgan, sug'urta qildiruvchining zarar ko'rishiga sabab bo'lgan voqea sug'urta hodisasi hisoblanadi.

Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Sug'urta qildiruvchining advokatlik xizmati xarajatlari;
- Protsessual xarajatlar (sud xarajatlari va h.k.);
- Sud muhokomasi bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Bunda sug'urta qildiruvchi tomonidan quyidagi tarzda yetkazilgan zararlar tufayli sud muhokomasi xarajatlari ko'zda tutiladi:

- ✓ mol mulkga zarar yetkazilishi-tashkilotlar yoki fuqarolarning mol-mulklariga shikast yetkazilishi (yo'q qilinishi, buzilishi va h.k.);
- ✓ Shaxsga yetkazilgan zarar-tan jaroxati yoki boshqa ko'rinishda sog'liqqa etkazilgan zarar oqibatida jismoniy shaxslarning mehnat qobiliyatini yo'qotishi yoki pasayishi, jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lishi;
- ✓ sug'urta qildiruvchining xodimlari tomonidan sifatsiz kasbiy xizmat ko'rsatilishi;
- ✓ shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligi yoki talab darajasida bajarilmasligi;
- ✓ O'zbekiston Recpublikasi me'yoriy huquqiy hujjatlarida maxsus ko'zda tutilgan boshqa hollar.
- ✓ alohida hodisalar bo'yicha aniq tavakkalchiliklar ro'yxati tomonlar o'rtasidagi kelishuvga asosan belgilanadi.

15-MAVZU.
MOL-MULK SUG‘URTASI

15.1. Mol mulk sug‘urtasi tushunchasining iqtisodiy moxiyati va mazmuni

Bozor iqtisodiyoti tizimi rivojlanib borar ekan jamiyat faoliyatining barcha sohalari ko‘rsatkichlariga, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiyotning muhim elementlardan biri bo‘lmish sug‘urtaga ehtiyoj oshib boradi.

Sug‘urta fuqarolar, tashkilotlar va davlatning mulkiy manfaatlarini har xil tabiiy, texnik hamda turli xildagi tavakkalchiliklardan himoya qilishini byudjetdan mablag‘ talab qilmay ta’minlaydigan mexanizmdir.

Tabiiy ofatlar, avariyalar va boshqa favqulotda ro‘y beradigan hodisalar inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda yuz beradi. Ilmiy nuqtai-nazardan qaraganda, har bir mulk egasi o‘z mol-mulkini qisman zararlanishi yoki butunlay yo‘qotilishi oqibatida ko‘riladigan zararlarni qoplanishidan manfaatdor ekanligini ko‘rish mumkin.

Qadim zamonlardan fuqarolar o‘rtasida ko‘rilgan zararni qoplash maqsadida mulk egalariga tegishli mol-mulklarni birlashtirish va zararni birlashma a’zolari o‘rtasida bo‘lish fikri tug‘ilgan. Ushbu birlashma qatnashchilari qanchalik ko‘p bo‘lsa, zarar ko‘rgan tomonga to‘lanishi kerak bo‘lgan qoplama uchun ajratiladigan mablag‘ ulushi shuncha kam bo‘lgan.

Tarixdan ma’lumki, agarda har bir mulk egasi ehtimoli mavjud bo‘lgan zararni qoplash maqsadida zaxirada uning aylanma mablag‘lariga teng miqdorda moddiy boyliklarni ushlab turishga majbur bo‘lganlar. Shu sababli xayrihoh shaxslarni zararni birgalikda qoplash maqsadida birlashmaga birlashtirish g‘oyasi yuzaga kelgan.

Mulkiy sug‘urta har qanday turdagi mulkdorlarning (fuqarolar, korxonalar, davlat) mulkning yo‘qotilishi yoki unga ziyon yetkazilishi xatarlariga doir manfaatlari himoyasini ta’minlaydi. O‘ZRning FKga muvofiq mulkiy sug‘urtaga boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik, shuningdek tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi kiradi.

Mol-mulk – mulkdor yoki uning ishonchli vakili egalik qilayotgan, foydalanayotgan, tasarruf etayotgan moddiy obyektlar yoki ashyolardir. SHaxsning yoki tashkilotning mol-mulki o‘z ichiga yerni, binolarni, jihozlarni, bank hisobvaraqlarini, kiyim-kechaklarni, sanoat aksiyalarini, muzlatgich ichidagi narsalarni, yozilgan asarga nisbatan mualliflik huquqlarini, avtomobillarni, ixtiro patentlarini va boshqa minglab boshqa narsalarni olishi mumkin.

Mulkdor o‘z egaligidagi ana shu mol-mulklar olishi mumkin bo‘lgan daromadni yo‘qotish xavfini sug‘urta qildirishi mumkin. O‘ZR FKning 128-moddasida sanab o‘tilgan mulkiy huquqlar va fuqarolik huquqlarining boshqa obyektlari ham sug‘urta himoyasi bilan ta’minlanishi mumkin.

Mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo'lgan shaxs (sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalangan mol-mulkning asralishidan manfaatdorlik bo'lmagan holda tuzilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi haqiqiy emas.

15.1-jadval

Umumiy sug'urta tarmog'ining mol-mulklarni sug'urtalash klasslari[114]

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
3-klass	Yer osti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

Mol-mulk sug'urtasi – sug'urta shartnomalarini tuzish va ijro etish jarayoni bo'lib, unga muvofiq sug'urtalovchi shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qildiruvchiga yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa,

[114] Sug'urta klassifikatoriga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

o'sha shaxsga sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni to'lash majburiyatini oladi.

15.2. Mulkiy sug'urta turlari[115]

Ko'plab sug'urta kompaniyalari, qoidaga ko'ra, o'z faoliyatini yong'in risklaridan sug'urta qilishdan boshlagan. Ishlab chiqarishdagi tanaffuslarni sug'urta qildirish mulkni sug'urta qildirishning tabiiy davomi hisoblanadi va odatda yong'indan sug'urta qilish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoatning rivojlanishi oqibatida yangicha sug'urta turlari bo'yicha shartnomalar tuzadigan ko'ngilsiz hodisalardan sug'urta qilish bo'limlari tashkil etish zarurati yuzaga kelib, bunga misol qilib javobgarlikni sug'urta qildirish va ko'ngilsiz hodisalarni sug'urta qildirishni keltirib o'tish mumkin. Avtotransportni sug'urta qilish bo'limlari avtomobillar sonining o'sishiga javob tariqasida va ko'pchilik mamlakatlarda avtomobillarni sug'urta qildirish haqida qonunchilik talablariga reaksiya sifatida paydo bo'ldi.

Shunday qilib, ixtisoslashmagan sug'urta kompaniyalarining katta qismi yong'indan sug'urta qilish, ko'ngilsiz hodisalarni sug'urta qilish va avtosug'urta bo'limlariga ega bo'lgan. Ayrim kompaniyalar shu bilan chegaralangan. Biroq, sug'urta xizmatlari iste'molchilari tobora yangi talablar qo'yishi va shu boisdan bir vaqtning o'zida bir nechta riskni qoplaydigan murakkab polislar paydo bo'lishi sababli sug'urta qiluvchilar eng katta samaradorlikka erishish uchun klassik strukturani qayta qurishga majbur bo'lmoqda.

Ayrim holatlarda bu tamomila yangi bo'limlar paydo bo'lishiga olib keladi. Misol bo'lib xususiy shaxslarni va korporativ mijozlarni sug'urta qilishning ajratilishi xizmat qilishi mumkin.

"Umumiy sug'urta" guruhiga kiradigan asosiy sug'urta turlarini va ularning kichik tadbirkorlikka aralash sug'urta himoyasi taqdim etish maqsadlarida qay tarzda birgalikda foydalanish mumkin ekanligini ko'rib chiqamiz

- yong'indan sug'urtalash, jumladan, o'ta xavfli risklardan sug'urta qilish;
- o'g'irlikdan sug'urta qildirish;
- pulni sug'urta qildirish;
- "barcha risklardan" sug'urta qildirish;
- tashuvlarni sug'urta qildirish;
- shisha (oyna) sinishini sug'urta qildirish;
- paketli polislar;
- uy egalarini sug'urta qildirish.

Yong'indan sug'urta qilishni olov bilan bog'liq bo'lmagan risklarni qoplashni ta'minlaydigan shartlar bilan to'ldirish amaliyoti mavjud. Bunday risklar, atigi qo'shimcha risklar sanalishiga qaramay, «maxsus xavf-xatarlar risklari» deb ataladi.

Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

---

[115] Insuranse: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insuranse Institut, Great Britain,1993. P. 245-261.

✓ ***Portlash risklari.*** Ularning sabablari turlicha: markazlashgan isitish tizimlaridan foydalanish, changlanish darajasi yuqori ekanligi (masalan, tegirmonchilik korxonasida), bug'lanishlar (lok-bo'yoq fabrikalarida). Portlash natijasida shiskastlangan va ishdan chiqqan asbob-uskunalar va mexanizmlar asbob-uskunalarni sug'urta qildirish polisi bo'yicha sug'urta qilinishini mumkin.

✓ ***O'z-o'zidan portlash risklari.*** Bu risklar juda kamdan-kam uchraydi. qo'zg'olonlar va fuqarolar g'allayonlari, garchi «fuqarolar g'alayonlari» ta'rifining o'zi etarli darajada aniq bo'lmasada, yong'indan sug'urta qildirish polisiga qo'shimcha sifatida qoplanishi mumkin. Qo'zg'olonlar va fuqarolar g'allayonlari riski sug'urta qiluvchilar uchun jalb etuvchan sanalmagan geografik mintaqalar mavjud. Uchinchi shaxs uchun qasddan yetkazilgan ziyonni qamrab olish uchun polisning sug'urta qoplami kengaytirilishi mumkin. Odatda bunday ziyon qasddan yetkazilgan ziyon deb ataladi

✓ ***Bo'ron, dovul, suv bosishi, suv baklari, apparatlari yoki truboprovodlar to'lib yoki yorilib ketishi risklari (bu risklar odatda «suvdan ziyon ko'rish» risklari deb ataladi).*** «Bo'ron» va «dovul» texnik atamalar emas, ikki so'zdan bitta ma'noda foydalanish bu ma'noni aniqlashtirish maqsadini ko'zlaydi, xolos. Suv bosishi kuchli bo'ron, daryo va ko'llar suvining ko'tarilishi, suv omborlaridan suvning chiqarib tashlanishi bilan izohlanishi mumkin. tijorat risklari bo'yicha odatiy sug'urta shartnomalari tuzishda suvdan ziyon ko'rish risklari sug'urta qoplami hajmiga kirmasligi sababli ular doimo biroz oshirib ko'rsatiladi. Xususiy uy-joylar uchun esa qo'shimcha badal to'lash yo'li bilan buni bartaraf qilish mumkin (garchi bunday risk kamdan-kam sug'urta qilinsada). Do'l aralash bo'ron risklari odatda oranjereya egalari tomonidan va bunday risk yuqori bo'lgan geografik hududlarda sug'urta qildiriladi.

✓ ***Zilzila, vulqon va yer osti yong'inlari risklari.*** Garchi sug'urta qildiruvchilar bu risklarni sug'urta qoplamiga kiritishni kamdan-kam hollarda istasada, lekin shunga qaramay, bu qo'shimchalarga xizmat ko'rsatish ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

✓ ***Tuproq cho'kishi va ko'chishi risklari*** xuddi suvdan ko'riladigan ziyon risklari kabi, sug'urta summasining sezilarli darajada ortishiga olib keladi va mijozning istagiga ko'ra, yong'indan sug'urta qildirish polisi tarkibiga kiritilishi mumkin bo'ladi.

✓ ***Uchish apparatlari yoki ularning qismlari qulash risklari.*** Bu risklar tarkibiga uchish apparatining ovoz to'sig'ini bartaraf etishi natijasida vujudga keladigan zarba to'lqinlari tufayli yuzaga kelgan shikastlanishlar kirmaydi. Bu qo'shimcha shart odatda «ovoz zarbasi haqida qo'shimcha shart» deb ataladi.

✓ ***Yer usti transporti yoki temir yo'l transportining yirik hayvonlar bilan to'qnashib ketishi.*** Dastlab bu qo'shimcha shart sug'urta qildiruvchining transport

vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin hozirgi kunda boshqa variantlar ham mavjud. Polis «o‘zining transport vositasi» ni shikastlanishdan himoya qilgan holda sug‘urta summasini oshirish usulidan foydalaniladi.

Sug‘urta amaliyotida shunday holatlar mavjudki, bunda yong‘indan sug‘urta qildirish polisining qoplami tarkibiga yong‘in o‘chirish tizimlarining tasodifan ishlab ketishi riski ham kiritiladi. Yong‘inga qarshi tizimlarning ko‘plab turlari mavjud (masalan, xonadagi harorat ma’lum bir chegaraga yetganda ishlab ketadigan avtomatik qurilma).

Bunday tizim ishlab ketgan hollarda yong‘inning oldini olish uchun bu yerga katta miqdorda suv kelib tushadi. Yong‘inga qarshi tizim tasodifan ishlab ketgan hollarda bino ichidagi asbob-uskunalar va mulkka, ba’zida esa binoning o‘ziga ham zarar yetkaziladi. Bunday holatlarda ham yetkazilgan ziyonning o‘rni qoplanadi. O‘g‘irlikdan sug‘urta qildirish hozirda keng tarqalgan o‘g‘irlikdan sug‘urta qildirish polislari odatda shaxsiy mulkni sug‘urta qildirish shartnomalariga taalluqli bo‘ladi.

O‘g‘irlikdan tijorat sug‘urta polislari shartlarini ifodalashda sug‘urta holatining ro‘y berishi odatda «zo‘ravonlik bilan bostirib kirish» asosiy iborasi bilan ta’riflanadi. Odatda shartnoma shartlarini ifodalashda quyidagi matn kiritiladi:

O‘g‘irlik binoga zo‘ravonlik bilan yoki kuch ishlatib kirish va/yoki chiqishni o‘z ichiga oladi.

O‘g‘irlik obyektga zo‘ravonlik bilan kirish ortidan keladi.

Bu ifodalarning har biri binoga kalit yordamida (uning qay tarzda olinganidan qat’iyy nazar), aldov yo‘li bilan kirib borish yoki binoda ish vaqtida yashirinib qolib ketish holatlarini istisno qilish maqsadini ko‘zlaydi, binodan chiqib ketish kuch ishlatish yo‘li bilan amalga oshirilgan hollar bundan mustasno. Sanab o‘tilganlarga yana qurolli bosqinchilikni ham qo‘shish mumkin. Ayrim sug‘urta qildiruvchilar uni standart ravishda sug‘urta qoplami tarkibiga kiritadi.

Zarar o‘rnini to‘ldirish odatda o‘g‘irlik yoki o‘g‘irlikka urinib ko‘rish oqibatida yetkazilgan zararni, jumladan, binolarga shikast yetkazilishini qamrab oladi. Biroq istisno holatlar ham mavjud bo‘lib, bunda zarar o‘rnini to‘ldirish to‘liqsiz hajmda amalga oshiriladi yoki umuman amalga oshirilmaydi.

Bu quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- til biriktirish fosh qilinganda: obyektda ishlaydigan personal, yoki sug‘urta qildiruvchi, yoki uning oila a’zolari o‘g‘rilar bilan til biriktirgan bo‘lsa;
- yetkazilgan ziyon mamlakat hududidan tashqarida yetkazilgan bo‘lsa;
- sug‘urta maxsus shartlarda amalga oshirilgan bo‘lsa, masalan, «barcha risklardan» shartida sug‘urta amalga oshirilgan;
- naqd pul va banknotalar o‘g‘irlangan bo‘lsa (chunki ular pulni sug‘urta qildirish polisi bo‘yicha sug‘urta qilinishi lozim);
- qishloq xo‘jaligi chorva mollari o‘g‘irlangan bo‘lsa (maxsus kelishib olingan holatlar bundan mustasno).

O‘g‘irlikdan ko‘rilgan ziyon sug‘urta summasining avvalboshdan pasaytirib ko‘rsatilganligi sababli sug‘urta qoplami summasidan katta bo‘lmoqda. Sug‘urta qildiruvchi ko‘pincha mulkning haqiqatdagi qiymatidan kam summaga sug‘urta qildiradi, chunki yong‘indan sug‘urta qildirishdan farqli ravishda, potensial o‘g‘irlik tanlov xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Ushbu sug‘urta turi bo‘yicha polislar shartlarini belgilashda sug‘urta qiluvchilar riskning jismoniy jihatlariga katta e’tibor qaratadi va ko‘pincha xavfsizlik darajasini oshirishni, masalan, signalizatsiya tizimi o‘rnatish talab qiladi va shundan keyingina riskni qabul qiladi.

Tovarlar turi, ularning miqdori, saqlanadigan joyi va himoya vositalari sug‘urta tarifi hajmini belgilab beradigan omillar hisoblanadi.

O‘rnini to‘ldirish tamoyilini qo‘llash «Yong‘indan sug‘urta qildirish» bo‘limida ko‘rib chiqilgan umum e’tirof etilgan qoidalarga muvofiq ravishda ro‘y beradi.

Yuklarni sug‘urta qildirish

Mayda o‘g‘irliklar riskining juda yuqori ekanligi oqibatida yuklarni tashish paytida yo‘qotish xavfi juda katta. Yuklarni sug‘urta qildirish uchun ikki xil turdagi sug‘urta polislari foydalaniladi. Birinchi usul kargoni sug‘urta qildirish uchun qo‘llanadi. Sug‘urta qildiruvchi o‘z yuklarini tashishi yoki buyurtmaga muvofiq o‘zgalarning yuklarini tashishi va shu tariqa tashuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

Sug‘urta shartlari yukni yetkazib berish qanday usulda – temir yo‘l transporti, avtotransport vositasida yoki pochta orqali amalga oshirilishiga qarab farqlanadi. Ushbu holatda qoplanadigan risklar dengiz orqali yoki havo orqali tashiladigan yuklarni sug‘urta qildirish polisi bilan qoplanadigan risklarga o‘xshab ketadi. Tovarlarni yo‘lda sug‘urta qildirish ayrim qo‘shimcha istisnolar bilan «barcha risklardan» shartlarida amalga oshiriladi.

Odatda sug‘urta qoplami tovarlar dvigatelli transport vositalariga yuklanayotgan, tashilayotgan yoki tushirilayotgan, shuningdek, tranzit jarayonida garajda qisqa muddat bo‘lib turishi paytida ro‘y beradigan o‘g‘irlik, ko‘ngilsiz hodisa, yong‘in natijasida tovarlarning yo‘qotilishi yoki shiskastlanishini qamrab oladi. Yuklarning o‘tish yo‘llariga qarab, hududiy istisnolar turlicha bo‘ladi.

Yuklarni sug‘urta qildirish va «barcha risklardan» sug‘urta qildirish o‘xshash bo‘lgan bir paytda shuni hisobga olish kerakki, yuklarni sug‘urta qildirish bo‘yicha istisnolar ro‘yxati kengroq bo‘lib, qo‘shimcha pozitsiyalarga ega.

- bozorning yo‘qotilishiga va bundan kelib chiqadigan har qanday turdagi yo‘qotishlar, tovarlarning tabiiy sabablarga ko‘ra buzilishi va o‘zgarishiga olib keladigan yetkazib berishda kechikish;
- sug‘urta qildiruvchining xizmatchilari ishtirok etgan yoki yo‘l qo‘yib bergan o‘g‘irlik;
- kommivoyajer uchun zarur bo‘gan buyumlar (tovarlar namunalari, taqdimot uchun zarur uskunalar va h.k.).

«Jalb etuvchan» buyumlar, shuningdek, naqd pul mablag‘lari, modellar, shablonlar va andazalar bilan bog‘liq yana ko‘plab istisnolar mavjud (qiymat/o‘lcham nisbati yuqoriligi sababli, masalan, zargarlik buyumlari, soatlar, qimmatbaho toshlar).

Professional mebel tashuvchilar va turar-joyni o‘zgartirgan paytda o‘z mulkini tashiydigan xususiy shaxslar uchun maxsus sug‘urta polislari mavjud.

15.3. Mulkiy sug‘urtada zararlarni aniqlash va tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish

Jahon amaliyotida sug‘urta javobgarligining yoki sug‘urta summasiga bog‘liq ravishda zararni aniqlashning ikki tizimidan foydalaniladi, bulardan birinchisi – mutanosib (proporsional) sug‘urtalash bo‘lsa, ikkinchisi – birinchi xatar tizimidir.[116]

Agar shartnomada sug‘urta summasi mulkning sug‘urta qiymatidan pastroq qilib belgilangan bo‘lsa, mutanosib sug‘urtalash tizimida mulkning qisman zarar ko‘rishi holatida tovon to‘lovi miqdorining haqiqiy keltirilgan zarar summasi bilan mutanosibligi orqali aniqlanadi va bunda sug‘urta summasining sug‘urta qiymatiga mutanosibligi nisbatidan kelib chiqiladi. Zararning sug‘urtalanmay qolgan qismiga proporsional bo‘lgan qismi bo‘yicha javobgarlik sug‘urta qildiruvchining o‘z zimmasida qoladi.

O‘zbekistonda birinchi xatar tizimi kamroq qo‘llaniladi. Mutanosib sug‘urtalashdan farqli o‘laroq, birinchi xatar tizimida sug‘urta bo‘yicha to‘lovning faqat yuqori qiymati sug‘urta summasining miqdori bilan cheklanadi. Agar birinchi xatar (zarar)ning miqdori sug‘urta summasidan kam bo‘lsa, to‘liq ravishda to‘lanadi, ikkinchisi esa – sug‘urta summasidan qolgan qismida ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘lanadi va h.k., toki sug‘urta summasi batamom to‘lab bo‘linguncha shu tarzda davom etadi.

Birinchi xatar tizimidan foydalangilganda tarif mutanosib sug‘urta tarifiga nisbatan odatda 10-20 foiz yuqoriroq bo‘ladi

Har qanday da’vo bo‘yicha yetkazilgan ziyonni baholashning asosiy qoidasi ziyon etkazilgan mulk narxini emas, balki uning sug‘urta holati ro‘y bergan paytdagi va joydagi qiymatini aniqlash hisoblanadi. Agar mulk qiymati polisning amal qilish davri mobaynida o‘sgan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi o‘sgan qiymat bo‘yicha to‘lov olishga haqli.

Kelgusi daromadlarni yo‘qotish yoki yetkazilgan ziyondan kelib chiqadigan boshqa yo‘qotishlar hisobga olinmaydi. Shuningdek, to‘lovlar ma’naviy xarajatlarni ham o‘z ichiga olmaydi.

Ba’zida mulk to‘laligicha yo‘q qilinadi va mulkni qutqarish masalasi o‘ringa ega bo‘lmaydi. Biroq ko‘pincha mulk to‘laligicha emas, balki uning bir qismiga ziyon yetkaziladi. Bunday holatda «qutqarilgan mulk» haqida savol tug‘iladi. Sport tovarlari sotiladigan magazin yong‘indan ziyon ko‘rgan holatni tasavvur qilish qiyin emas. Ayrim buyumlar yonib ketgan, bir qismi tutundan dudlanib qolgan (bu esa sifatning yomonlashuvi sifatida baholanadi), boshqalar esa (masalan, giryalar) olovga bardosh berib, saqlanib qolgan. Sug‘urta qildiruvchi o‘z yo‘qotishlari qiymatini qolgan tovarlarni ma’lum bir tarzda ishlov berishdan so‘ng arzonlashtirilgan narxlarda sotishni hisobga olgan holda aniqlashi mumkin. Agar sug‘urta qildiruvchi mulkni to‘liq yo‘q qilingan deb hisoblamasa, u to‘lovning to‘liq hajmda amalga oshirilishini talab qilishga haqli emas.

Sug‘urta qoplamasi sug‘urta-lanuvchining zararni qoplash to‘g‘risidagi yozma arizasi, shuningdek, vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to‘lanadi.

---

[116] Insuranse: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insuranse Institut, Great Britain,1993

Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug‘urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to‘lashni rad etish huquqini beradi.

Sug‘urtalanuvchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgani haqida ariza bergach, komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug‘urtalanuvchining, sug‘urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va miqdorini aniqlaydi. Komissiya sug‘urta hodisasini e’tirof etgan taqdirda yo‘qotish va zararlar miqdori, shuningdek to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta qoplamasining miqdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug‘urtalanuvchiga sug‘urtalovchi tomonidan sug‘turta tovoni to‘lanishi uchun asos bo‘ladi.

Zarar sabablari va miqdori xususida tomonlar o‘rtasida nizolar paydo bo‘lgan hollarda mustaqil ekspertiza o‘tkazilishi mumkin.

Sug‘urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko‘rsatishi shart:

-sug‘urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;

-sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda sug‘urtalanuvchi qilgan ishlar;

-zarar miqdori va sug‘urtalanuvchi da’vo qilayotgan sug‘urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro‘yxat va summa ko‘rsatilishi kerak;

-zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon miqdori.

Mabodo zarar to‘liq qoplangan bo‘lsa yoki sud qaroriga ko‘ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo‘lsa sug‘urtalanuvchi sug‘urta tovoni olish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Quyidagi hollarda sug‘urta tovoni to‘lanmaydi:

-agar sug‘urtalanuvchi zarar yetkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo‘pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa;

-basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo‘lsa, tekshiruv tamom bo‘lgunga qadar.

Mabodo sug‘urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urta shartlariga ko‘ra to‘lanishi lozim bo‘lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o‘rtasidagi farqning o‘zini to‘laydi.

Shartnoma imzolagandan so‘ng tavakkalchilik darajasida ro‘y bergan va sug‘urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o‘zgarishlar sug‘urtalovchiga sug‘urta shartlarini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug‘urtalanuvchi qo‘shimcha sug‘urta mukofotini to‘lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo‘qotadi, to‘langan sug‘urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

Shartnomada kelishilgan zararlarni qoplash uchun sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan har bir to‘lov majburiyatlar chegarasini ana shu to‘lov miqdorida, ammo agar mas’uliyat chegarasini qayta tiklash uchun qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lanmasa, dalolatnomada qayd etilgan zarar miqdoridan ko‘p bo‘lmagan hajmda kamaytiradi.

Shartnoma tomonlar unda ko‘rsatilgan majburiyatlarini bajarmay qo‘ygunlariga qadar kuchda bo‘ladi.

Tomonlardan birining kamida 30 kun oldin beriladigan yozma arizasiga binoan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Agar sug'urtalanuvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishini ma'lum qilsa, sug'urta mukofoti unga qaytarilmaydi.

Sug'urta shartnomasi bekor qilinishini sug'urtalovchi talab etgan taqdirda:

a) sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi, bunda o'tgan davrda qilingan xarajatlar sug'urta mukofotidan ushlab qolinadi;

b) basharti sug'urta shartnomasi bekor qilinishining talab etilishiga ushbu shartnomada kelishilgan shartlarning sug'urtalanuvchi tomonidan buzilishi sabab bo'lsa, faqat sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi.

Sug'urta tovoni to'lash haqida dalolatnoma tuzilgandan keyin sug'urtalanuvchining zarar yetkazilishi uchun javobgar shaxslarga nisbatan bo'lgan huquqlari to'langan pul miqdorida sug'urtalovchiga o'tadi. Bunda sug'urtalanuvchi aybdor shaxslardan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni sug'urtalovchiga berishi shart.

Sug'urtalanuvchi zarar yetkazgan shaxsga bo'lgan da'vosidan yoki unga nisbatan bo'lgan talablarning amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqlaridan voz kechganda, shuningdek regress talabni qo'yish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni sug'urtalovchiga berishdan bosh tortganda sug'urtalovchi sug'urta tovoni to'lashdan ozod bo'ladi.

Shartnomaga kiritiladigan hamma qo'shimcha va o'zgartirishlar, shuningdek prolongatsiya, bekor qilish yoki to'xtatish tomonlarning roziligi bilan o'zaro xabar berilgan holda yozma ravishda amalga oshirilmog'i darkor.

Sug'urta shartnomasidan kelib chiquvchi barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning muzokara olib borishi yo'li bilan hal etiladi, kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda esa tegishli muddat ichida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qarab chiqish uchun xo'jalik sudiga oshiriladi.

16-MAVZU.
JAVOBGARLIK SUG'URTASI

16.1. Javobgarlikni sug'urta qilishning umumiy tavsiflari va asoslari

Sug'urta ishlab chiqarishni rivojlanishiga ko'maklashgan holda bozor munosabatlariga asoslangan o'zgaruvchan iqtisodiyotda noaniqlik xavfi darajasini kamaytirish imkonini beradi va sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan muayyan hodisa ro'y berganida tadbirkorga ko'rilgan zararlar muvofiq tarzda qoplanishini kafolatlaydi.

Sug'urta tabiiy, texnogen va boshqa ko'rinishdagi favqulodda hodisalar, shuningdek maishiy sug'urta hodisalari ro'y berganida buzilgan mulkiy manfaatlar tiklanishi uchun kafolatlarni taqdim etadi, davlat iqtisodiyotiga umumiy ijobiy ta'sir qiladi, zararlarni qoplashda byudjet mablag'larini tejash imkoni beradi, uzoq muddatli investitsiyalarning eng barqaror manbalaridan biri hisoblanadi.[117]

Javobgarlikni sug'urta qilish sug'urta faoliyatining mustaqil yo'nalishi bo'lib, mamlakatimizdagi sug'urta faoliyati uchun nisbatan yangi hisoblanadi. Sug'urtaning ushbu turida sug'urta obyekti sifatida uchinchi shaxslarning shaxsan o'zi yoki mulkiga yetkazilgan zarar uchun sug'urtachining qonun bo'yicha (noshartnomaviy) yoki shartnomaga ko'ra (shartnomaviy) javobgarligi ko'zda tutiladi.

Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urtalovchining javobgarligi boshlanganligi sug'urta xavfi deb hisoblanadi. Bunda javobgarlik sud organlari tomonidan aniqlanishi yoki zarar yetkazuvchining ko'ngilli iqrori orqali belgilanishi mumkin. Mamlakatimizdagi bir qator sug'urta kompaniyalari sug'urta hodisasi sifatida sug'urtalovchining faqat sud organlari tomonilan aniqlangan javobgarligini tan oladilar.

Javobgarlikni sug'urtalash, ehtimol, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash eng oson bo'ladigan sug'urta turi hisoblanadi. U sud qarori bilan belgilanadi, «suddan tashqari» to'lovlarni, sud xarajatlarini, shuningdek, sug'urta shartnomasida kelishib olingan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta amaliyotida fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, professional xizmatlar ko'rsatishdagi javobgarlikni sug'urta qilish, majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgarlikni sug'urta qilish, shuningdek biron shaxsning mulkiy manfaatlari sug'urta qilingan bo'lib, bu to'g'rida shartnoma (sug'urta qilingan) tuzilgan va ushbu shaxsning fuqarolik qonunchilik tartibida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni

[117] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993, 105 pg

qoplash majburiyati bilan bog‘liq holatlar sug‘urta predmeti deb hisoblangan javobgarlikni sug‘urta qilishning boshqa turlari qo‘llaniladi.

Fuqarolik javobgarlik mulkiy tusga ega: zarar yetkazgan shaxs jabrlanuvchiga, ya’ni uchinchi shaxsga zararni qoplab berishi lozim. Fuqarolik javobgarlikni sug‘urta qilish shartnomasi orqali ushbu majburiyat sug‘urtalovchi zimmasiga o‘tkaziladi. Sug‘urta qilinuvchi jinoiy, ma’muriy javobgalikka tortilishi, ya’ni o‘zining uchinchi shaxsga nisbatan qonunga zid harakatlari uchun qonun oldida javobgar bo‘lishi mumkin. Lekin, uchinchi shaxsga yetkazilgan mulkiy zarar sug‘urtalovchi zimmasiga yuklatiladi.

Professional xizmatlarni ko‘rsatishdagi javobgarlikni sug‘urta qilish professional vazifalari bilan band bo‘lgan yoki tegishli xizmatlarni ko‘rsatayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan mulkiy da’volarga taalluqlidir. Jismoniy yoki yuridik shaxslarga qo‘yiladigan mulkiy da’volar professional faoliyat yoki xizmat ko‘rsatishdagi e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik, xatolar va kamchiliklar bilan bog‘liq.

E’tiborsizlik va mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘yilishi bo‘yicha mulkiy da’volarni qoniqtirish masalalari bilan sug‘urta qilish orqali sug‘urtalovchi shug‘ullanadi. Professional javobgarlikni sug‘urta qilishni belgilash ma’lum doiraga mansub kasblar bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni (xususiy praktikaga ega vrachlar, notariuslar, advokatlar va b.) mijozlar tomonidan qo‘yiladigan yuridik da’volarga qarshi sug‘urta himoyasidan iborat.

Javobgarlikni sug‘urta qilish ham majburiy, ham ixtiyoriy asosda amalga oshirilishi mumkin. Agar zarar yetkazganlik uchun javobgarlik uni sug‘urta qilish majburiy bo‘lgani sababli sug‘urtalangan taqdirda, shuningdek qonunda yoki bunday javobgarlikni sug‘urta qilish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda sug‘urta shartnomasi o‘z foydasiga tuzilgan deb hisoblanuvchi shaxs zararni sug‘urta puli doirasida to‘lash to‘g‘risida bevosita sug‘urtalovchiga talab qo‘yishga haqli.

Yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug‘urta qilishning o‘zga xususiyati shundan iboratki, bunday sug‘urta zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuziladi.

Javobgarlikni sug‘urta qilish shartnomalarida sug‘urtalovchi va sug‘urta qilinuvchilar bilan qatorda sug‘urta munosabatlarining uchinchi tomoni sifatida avvaldan belgilanmagan uchinchi shaxslar ham ishtirok eta oladilar.[118]

Javobgarlikni sug‘urta qilish – sug‘urta qilinuvchiga ehtimoliy zararlar o‘rnini qoplovchi sug‘urtadir. Sug‘urta qilinuvchi – jismoniy shaxs uchun zararlar shundan iboratki, unga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilganida, mulkni sug‘urta qilishda bo‘lganidek mulkni faqat bir qismi, biron aniq buyumi emas, balki uning barcha moddiy boyliklari xavf ostida qolishi mumkin. Sug‘urta qilinuvchi – yuridik shaxs, agar unga nisbatan

[118]Плешков А.П., Орлова И.В. Очерки зарубежного страхования // НИИ Мин.финансов РФ. М.: «Анкил», 1997. 200 с.

uchinchi shaxslar tomonidan da'vo qo'ysalar, javobgarlikni sug'urta qilinishi doirasidagi passivlar ortishini kompensatsiyalaydi.

Shartnomasiz (delikt) javobgarlikni sug'urta qilish (O'zbekiston Respublikasi FKning 918-moddasi) hamda yetkazilgan zararni qoplash va fuqarolik javobgarlikni shartnomaviy sug'urta qilinishiga sabab bo'luvchi fuqarolik qonunlari buzilishi uchun javobgarlikni sug'urta qilish (O'zbekiston Respublikasi FKning 919-moddasi) turlari mavjud.

Javobgarlikni sug'urta qilishning maqsadi – sug'urta qiluvchi bo'lmagan jabrlanuvchiga zararni qoplash.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urta qiluvchi (yoki bunday javobgarlik yuklatilish mumkin bo'lgan boshqa shaxs)ning jismoniy shaxsga yoki uning mulkiga, shuningdek yuridik shaxsga yetkazgan zararini qoplashi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlari sug'urta obyekti deb hisoblanadi.

Javobgarlik deganda bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga yetkazilgan zararni qoplash tushuniladi va bu holat fuqaroviy javobgarlik deb hisoblanadi. Bu javobgarlik boshqa shaxsning biron manfaatlariga zarar yetkazilganidagi muayyan harakatlar (yoki harakatsizliklar) mavjud bo'lganidagina yuzaga keladi. Jinoiy javobgarlikka tortiladigan jinoyat yoki huquqbuzarlikni ongli ravishda sodir etgan shaxslarni jazolash maqsadidagi jinoiy javobgarlik sug'urta obyekti bo'lib xizmat qila olmaydi.[119]

Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urtalovchi tomonidan javobgarligi sug'urta qilingan shaxsning xarajatlari doirasidagi sug'urta to'lovi amalga oshiriladi. Bu xarajatlar javobgarligi sug'urta qilingan shaxsning o'zi yetkazgan zararlarni (delikt yoki shartnoma buzilishi natijasida) jabrlanuvchiga to'lab berish, shuningdek jarima to'lash (shartnomaviy javobgarlik majburiyatlari kuchga kirgan hollarda) tufayli yuzaga keladi.[120]

Sug'urta qilishning bu turida zarar yetkazilguniga qadar shartnomaviy munosabatlar mavjud bo'lgan yoki bo'lmagan uchinchi shaxs jabrlanuvchi hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri jabrlanuvchidan tashqari yana bilvosita jabrlanuvchilar, ya'ni zarar ularga bevosita emas, balki uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar orqali yetkazilgan shaxslar ham mavjud bo'ladi.

Javobgarlikni sug'urta qilish – sug'urta qilinuvchining ehtimoliy zararlarini qoplab beruvchi sug'urta hisoblanadi. Sug'urta qilinuvchi – jismoniy shaxs uchun zararlar shundan iboratki, unga nisbatan da'vo qo'zg'atilganida, mulkni sug'urta qilishda bo'lganidek mulkni faqat bir qismi, biron aniq buyumi emas, balki uning barcha moddiy boyliklari xavf ostida qolishi mumkin.

---

[119]Басаков М. И. Страховое дело в вопросах и ответах. Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. С. 318-344.
[120]Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес: Словарь-справочник. М.: АНКИЛ. 2005.

Sug‘urta qilinuvchi – yuridik shaxs, agar unga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan da’vo qo‘ysalar, javobgarlikni sug‘urta qilinishi doirasidagi passivlar ortishini kompensatsiyalaydi.[121]

Sug‘urta qilinganlar uchun javobgarlikni sug‘urta qilish, bu:

- javobgarlik bo‘yicha ehtimoliy da’volardan himoya qilinish;
- sug‘urta ishtirokchilari - sug‘urta qilinuvchilar va sug‘urta kompaniyasi o‘rtasidagi javobgarlikni sug‘urta qilish turi bo‘yicha qayta taqsimlanishi va shu yo‘l bilan o‘z xarajatlarini minimallashtirish;
- mutaxassislar – sug‘urta kompaniyasining huquqshunoslaridan yuridik maslahat olish va sud harajatlarini qoplashdir.[122]

Javobgarlikni sug‘urta qilishdagi xarajatlar deganda huquqlari buzilgan shaxs huquqini tiklagani yoki tiklashi uchun sarflanadigan mablag‘lar, uning mulki yo‘qolgani yoki shikastlangani (real zarar), shuningdek, ushbu shaxs, agar uning huquqi buzilmaganida, odatdagi fuqaroviy munosabatlarda olishi mumkin bo‘lgan foydasi (boy berilgan foyda) tushuniladi.[123]

Fuqaroviy javobgarlik bo‘yicha da’vo taqdim etish uchun quyidagilar mavjud bo‘lishi lozim:

- jismoniy, ma’naviy, moliyaviy, moddiy va boshqa zararlar;
- huquqbuzarning aybi yoki qonunga zid harakati (harakatsizligi), ular orasidagi bog‘liqlik;

Javobgarlikni sug‘urta qilishdagi sug‘urta hodisasini tartibga solishda sug‘urta qilinuvchi, sug‘urtalovchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega.

Sug‘urta qilinuvchi va sug‘urtalovchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z mohiyatiga ko‘ra sug‘urtachining butun ehtimoliy javobgarligiga o‘xshamagan qoplash munosabatlar sifatida belgilash mumkin. Sug‘urta qilinuvchi cheklanmagan miqdorda javob beradi, lekin zararlarni qoplash faqatgina sug‘urta puli chegarasida taklif qilinadi.

Boshqa tomondan, javobgarlikni sug‘urta qilish doirasida sug‘urtalovchi javobgarlik bo‘yicha jabrlanuvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri da’volari bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarini (masalan, asoslanmagan vajlardan himoya qilish uchun sarflangan sud xarajatlari va h.k.) to‘lashi mumkin.[124]

Javobgarlikni sug‘urta qilish texnik taraqqiyot, fuqarolar o‘z huquqlarini anglab yetishi, aholining moddiy farovonligini o‘sishi, zarar miqdorining ortishi bilan birga rivojlanib boradi va hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi, bu holat, o‘z

---

[121]Федорова ТА. Основы страховой деятельности: М.: БЕК, 2001.
[122]Мирсадыков М. Основы страхового бизнеса. // Т.: TKS, 2009. 116 с.
[123]Гвозденко А.А. Основы страхования: Учебник. // М.: Финансы и статистика, 1998. 304 с.
[124]Гинзбург А. Страхование. Краткий курс. // С-Пб: Питер, 2002. 176 с.

navbatida, bu turdagi sug‘urta turi kelajakda yetakchi o‘rinlarni egallashini belgilab beradi.[125]

16.1-jadval

Fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

№ t/r	O‘ziga xos xususiyatlari	Tusi va mazmuni
1	Sug‘urta obyektining spetsifikatsiyasi	Qonuniy javobgarlikning iqisodiy oqibatlari sug‘urta obyekti sifatida boshqa tarmoqlardagi obyektlardan tamoyilial farqlanadilar: 1) sug‘urta obyekti pullik bahoga ega emas, sababi, sug‘urta qilinuvchining boshqa shaxslarga yetkazilgan zararlar bo‘yicha javobgarligi sug‘urta qilinadi 2) bu toifa biron-bir omillar (shaxsiy sug‘urta ishtirokchisi yoshi, jinsi va b.)ga bog‘liq emas 3) yuridik-huquqiy toifaga mansubdir 4) obyektning tiklanishi – qismandir
2	Sug‘urta pullarini oluvchilar	Faqat fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilinishi uchun uchinchi shaxs – sug‘urta qilinuvchining qasddan bo‘lmagan harakatlari tufayli zarar ko‘rgan va sug‘urta tovonini olish huquqiga ega shaxs qatnashadi.
3	Sug‘urta qilinuvchilarning alohida ajratilgan tarkibi, kontingenti	Bu xavfli obyektlar (avtomobillar, havo kemalari, neftni qayta ishlash va kimyoviy zavodlardan va sh.k.)dan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, o‘z faoliyatlari davomida boshqa shaxslarga zarar yetkazishlarining xavfi yuqori hisoblanadi.
4	Zarar tavsifi	Zarar ham moddiy boyliklarga, shu jumladan mulkiy huquqlar buzilganida ham, va nomoddiy boyliklarga, shu jumladan shaxs qadr-qimmatiga ham yetkazilishi mumkin.
5	Zarar qoplanishining ekvivalentligi	Jabrlanuvchiga zarar to‘liq hajmda qoplanadi, ya’ni javobgarlik qiymatining yetkazilgan zarar miqdoriga ekvivalentligi tamoyiliga rioya qilinadi.
6	Bazaviy atamalar spetsifikasi	Sug‘urtaviy baholanish, sug‘urta summasi atamalari va to‘liq bo‘lmagan, qisman sug‘urta tushunchasi mavjud emas. “sug‘urta summasi” atamasining o‘rniga “javobgarlik limiti” degan atama qo‘llaniladi.
7	Sug‘urta hodisasi yuzaga kelishining oqibatlari	1) sug‘urta hodisasining halokatli tarzda yuzaga kelishi ham sug‘urta qilinuvchi, ham sug‘urtalovchi uchun xosdir; 2) ehtimoliy zararlar miqdori juda katta bo‘lishi mumkin (masalan, ekologik xavflar sug‘urta qilinganida); 3) zarar yetkazilishi faktlarini aniqlash davomiyligining sug‘urta muddatlaridan chiqib ketishi.

[125]Журавлев Ю.М., Секерж И.Г. Страхование и перестрахование(теория и практика). М., 1993.

Fuqarolik javobgarligining sug'urta ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq asosiy xususiyatlari hamda sug'urta himoyasi mexanizmining moliyaviy-iqtisodiy o'ziga xos jihatlari 16.1-jadvalda keltirilgan. Jadvalning tahlili sug'urtaning ushbu sohasi alohidaligi va mustaqilligini isbotlab beradi.

Yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug'urta qilishning o'ziga xosligi shundan iboratki, sug'urta shartnomasi zarar ko'rishi mumkin bo'lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuziladi. Javobgarlikni sug'urta qilish shartnomalarida sug'urta munosabatlarining uchinchi tomoni sifatida sug'urtalovchi va sug'urta qilinuvchidan tashqari avvaldan ma'lum bo'lmagan istalgan shaxslar ham ishtirok etishi mumkin.

Shunday qilib, javobgarlikni sug'urta qilishning iqtisodiy mohiyati sug'urta qilingan shaxsning harakati (yoki harakatsizligi) tufayli uchinchi shaxsning sog'lig'iga va hayotiga, mulkiga yetkazilgan zararni qoplashdan iboratdir. Javobgarlikni sug'urta qilish sug'urta faoliyatining mustaqil sohasi hisoblanadi va mahalliy sug'urta bozori uchun sug'urtalashning nisbatan yangi turi deb e'tiroflanadi.

Sug'urtaning ushbu turida sug'urta obyekti bo'lib sug'urta qilinuvchining mulkiy manfaatlari xizmat qiladi. Sug'urta qilinuvchining bu kabi mulkiy manfaatlari sug'urta qilinuvchilarning qonun bo'yicha javobgarligi (shartnomaviy emas) yoki uchinchi tomon shaxsi yoki mulkiga yetkazilgan zarar bo'yicha shartnomaviy javobgarligi (shartnomaviy) yuzaga kelishi bilan bog'liqdir.

Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urtalovchining javobgarligi boshlanganligi sug'urta xavfi deb hisoblanadi. Bunda javobgarlik sud organlari tomonidan aniqlanishi yoki zarar yetkazuvchining ko'ngilli iqrori orqali belgilanishi mumkin. Mamlakatimizdagi bir qator sug'urta kompaniyalari sug'urta hodisasi sifatida sug'urtalovchining faqat sud organlari tomonidan aniqlangan javobgarligini tan oladilar.

16.2. Javobgarlikni sug'urta qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati[126]

Bizning beparvoligimiz istalgan payt moddiy ziyon yetkazish yoki ko'ngilsiz voqeaning sababchisi bo'lishi mumkin. Qonunning nozik tafsilotlariga chuqurlashib ketmasdan aytish mumkinki, «beparvolik» biron-bir ishni bajarishda e'tibor yetishmasligini yoki o'zining qaysidir funksional majburiyatlariga beparvo bo'lishni anglatadi.

Agar biz beparvolik qilib qo'ygan (va sud buni isbotlagan) bo'lsak, bu holdda yetkazilgan zararning o'rnini to'ldirishimiz shart. Hattoki aybdor emasligimizni isbotlay olgan taqdirda ham himoya jarayonini yuritish yoki yurist maslahatlaridan foydalanish uchun ma'lum miqdorda pul kerak bo'ladi.

Javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasi tuzgan holda oldindan hamma narsaning tashvishini qilib qo'yish mumkin. Beparvolik fuqarolik huquqi me'yorlari buzilishining eng tarqalgan shakli hisoblanadi va u yetkazilgan zararning o'rnini qoplash haqida da'vo arizasi berish uchun sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek,

[126] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993, 270-273 pg

«suiiste'mol» va «nojo'ya ish, harakat» tushunchalari ham mavjud, lekin ular hattoki javobgarlikni sug'urta qildirishda ham kamdan-kam hollarda sug'urta holatining sababchisi hisoblanadi. Quyida aytib o'tilganidek, polisning sug'urta qoplami ularni hisobga olmaydi.

Ish beruvchi o'z xodimiga yetkazilgan shikast va jarohatlar uchun javobgar bo'lishi mumkin va sudda ishni yutqazib qo'ygan holatlarda tovon to'lashdan o'zini sug'urta qildirishi lozim. Amaliyotda ko'plab da'volar sudga murojaat qilmasdan turib qondiriladi.

Agar yetkazilgan zarar yoki shikastlanish sababchisi uning tovari bo'ladigan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi yoki chakana savdogar sudga tortilishi mumkin. Ushbu javobgarlik turi «chiqarilayotgan mahsulot sifati uchun javobgarlik» deb ataladi.
Vrach, stomatolog, buxgalter, syurveyer yoki sug'urta brokerlari kabi ayrim kasblar vakillari o'z mijozlari bilan ishlaganda o'ta ehtiyotkor va e'tiborli bo'lishlari lozim. Kasbiy beparvolikda ayblangan va yetkazilgan zarar haqida da'vo mavjudligi javobgarlikni sug'urta qildirish polisi ularga tovon to'lash va sud xarajatlarini qoplashni ta'minlashi mumkin.

Javobgarlikni sug'urtalash, ehtimol, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash eng oson bo'ladigan sug'urta turi hisoblanadi. U sud qarori bilan belgilanadi, «suddan tashqari» to'lovlarni, sud xarajatlarini, shuningdek, sug'urta shartnomasida kelishib olingan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Ish beruvchining javobgarligi

Ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilish qonun bo'yicha javobgarlik holatlarida o'z xizmatchilarining funksional majburiyatlarni bajarish jarayonida etkazilgan jarohat, shikastlanish yoki vujudga kelgan kasb kasalliklari va yetkazilgan zarar uchun tovon to'lanishini ko'zda tutadi. To'lanadigan tovon miqdoriga da'vogarning sud ishini yuritish bo'yicha xarajatlari ham kiritiladi. Bunday sug'urtadan maqsad – ish beruvchining uning xizmatchilari halok bo'lgan yoki jarohatlangan holatlarda da'vo arizalari bilan bog'liq har qanday xarajatlarini qoplashdir. Xizmatchilar kiyim-boshiga yoki mulkiga yetkazilgan zarar bunga kiritilmaydi (garchi ish beruvchi buning uchun javobgar bo'lishi mumkin bo'lsada – quyida V2 bo'limda).

Sug'urta mukofoti hajmi odatda turli toifadagi ishchi va xizmatchilarning ish haqiga bog'liq bo'ladi. Buning sababi shundaki, ishchi va xizmatchilar bajaradigan ishlar ularga zarar yetkazilish ehtimoli bo'yicha farqlanadi. Eng xavfsiz xodimlar toifalari bu – xizmatchilar va boshqaruv personalidir. Qurilishdagi risklar esa jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi turli toifadagi ishchilarni namoyish etish uchun yaxshi misol bo'la oladi. Ularning orasida portlatuvchilar, g'isht teruvchilar va deyarli bitkazilgan binoda ishlaydigan suvoqchilar bor. Sug'urta qiluvchi idoralar sug'urta tariflarini belgilashda bu farqlarni hisobga olishga harakat qiladi.

Odatda «tartibga solinadigan» mukofotdan foydalanilib, u dastlab nazariy jihatdan hisoblab chiqiladi, so'ngra real ish haqi dinamikasiga qarab tartibga solinadi.

Ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha to'lanadigan tovon hajmi qonunchilik bilan belgilanishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda ishchi va xizmatchilarga shikast yetkazilgan yoki ular halok bo'lgan holatlarda to'lanadigan

tovon miqdorini aniqlashning asosida «Xodimlarga tovon to'lash (kompensatsiya)» sxemalari yotadi.

Aksariyat mamlakatlarda kasallik yoki shikastlanish tufayli ish o'rnida bo'lmagan ishchilarga to'lanadigan to'lovlar u yoki bu darajada davlat tomonidan amalga oshiriladi. To'lov yoki milliy sog'liqni saqlash mablag'lari hisobiga, yoki bunday to'lovni belgilangan vaqt davomida amalga oshirishga majbur bo'lgan ish beruvchining hisobiga amalga oshiriladi. Bunday sxemalar ish beruvchining aybidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi.

Biz ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilishni ko'rib chiqdik va bu jabrlanuvchi xodimlarga to'lovlar doimiy tizimi mavjud bo'lmagan mamlakatlar uchun adolatli sanaladi. Biroq qat'iyy belgilab qo'yilgan tizimlar mavjud bo'lgan joylarda yetkazilgan zarar miqdorini sud orqali belgilash muammosi vujudga kelmaydi, chunki kompensatsiya hajmi oldindan ma'lum bo'ladi. Bunday tizim yoki sug'urta qilish asosida amal qilishi, yoki to'laligicha davlatga bo'ysunishi mumkin.

Fuqarolar javobgarligi

Ushbu sug'urta turi sug'urta qildirgan shaxsning sug'urta qildirgan shaxs yoki uning xodimlari beparvoligi tufayli aziyat chekkan har qanday fuqaroning ehtimoliy da'vosi oqibatida ko'radigan zararni qoplashi ko'zda tutilgan. Bunda yetkazilgan zararning asosiy miqdori ham, yetkazilgan zarar va shikastlar haqidagi ishlarni yuritish bo'yicha sud xarajatlari ham qoplanadi.

Ishbilarmonlik faolligi ularning asbob-uskunalari fuqarolar uchun xavfli bo'lgan potensial jarohatlanish manbasi hisoblanishi mumkin bo'lgan ofislar, zavodlar, magazinlar, binolar va boshqa obyektlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Ishlab chiqarish jarayoni atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa ko'plab salbiy oqibatlar bilan birgalikda kuzatilishi mumkin (butun jamiyatga zarar keltirgan holda). Agar shu asnoda har qanday fuqaro jarohat oladigan, shiskatlanadigan yoki zarar ko'radigan bo'lsa, bunda u kompaniya yoki uning xodimlarini ayblashi mumkin.

Istisnolar

Polis sug'urta qildirgan shaxsning tasodifiy fuqarolar (ishga yollangan xodimlar emas) o'limi, jarohat olishi, shikastlanishi yoki zarar ko'rishi uchun fuqarolik javobgarligini qoplashni ta'minlaydi. Odatda quyidagi istisnolar mavjud:

► shartnoma bo'yicha javobgarlik. Sug'urta qildiruvchi shaxs amaliyotda qabul qilingan shartlardan ko'ra o'zi uchun yomonroq artlarda shartnoma tuzgan hollarda foydalaniladi. Bu holatda ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar tufayli yuzaga keladigan javobgarlikni qoplash istisno qilinadi;

► nuqsonli tovarlarni ta'mirlash qiymati. Bu xarajatlar polisning maqsadi sifatsiz ish kabi harakatlar natijalarini qoplash hisoblanishi sababli to'lanadigan to'lov tarkibidan chiqarib tashlanadi. Lekin bu bilan ish xarajatlarining o'zi qoplanmaydi;

► samolyot, kema va avtotransport vositalaridan foydalanish. Ushbu turlarning har biri bo'yicha javobgarlikni sug'urta qilishni alohida amalga oshirish to'g'riroq bo'lardi;

► qasddan qilingan harakatlar yoki xato ish qilib qo'yish. Polis ularning natijasini oldindan aytish oson bo'lgan qasddan qilingan harakatlarni qoplashni o'z ichiga olmaydi;

► kasbiy beparvolik. Keyinroq muhokama qilinadi (q. kasbiy javobgarlikni sug‘urta qilish).

Ayrim polislar mahsulot sifati uchun javobgarlikni qoplashni o‘z ichiga olmaydi. Mukofot hajmiga turli omillar turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lum bir mulk sug‘urta qilinmasligi sababli «sug‘urta summasi» ham yo‘q. Buning o‘rniga bitta sug‘urta hodisasidan kelib chiqadigan da’volar guruhi yoki bitta istalgan da’vo bo‘yicha riskni baholashga ta’sir etadigan omillardan biri sanalgan нетkazilgan ziyonni qoplashning ma’lum bir chegarasi belgilanadi. Boshqa omillar bu – ishlab chiqarish jarayonini sug‘urta qiluvchining faoliyat sohasi, obyektlarda begona shaxslar bo‘lish ehtimoli, risk hajmini belgilab beradigan omillar, da’volarning vujudga kelish tarixi.

Chiqarilayotgan mahsulot sifati uchun javobgarlik

Barcha sotuvchilar, ularning ishlab chiqaruvchi, vositachi yoki chakana savdogar hisoblanishidan qat’iyy nazar, tovarlar xaridorlari yoki mijozlar oldida mahsulotni iste’mol qilish oqibatida ularning salomatligiga ziyon keltirish va yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanadi. Bu turdagi son-sanoqsiz risklar ichida bir nechta riskni ajratib ko‘rsatamiz:

► yirik shoxli qoramol go‘shti va parranda go‘shti noto‘g‘ri qayta ishlangan yoki inson salomatligiga ziyon keltiradigan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin;

► elektr uskunalar noto‘g‘ri yig‘ilgan yoki sifatsiz detallardan qilingan, bu esa tok urishiga olib kelishi yoki yong‘in sababchisi bo‘lishi mumkin;

► noto‘g‘ri markirovka qilingan pirotexnika mahsulotlari bolalarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin;

► mashinalar va asbob-uskunalar talabga javob bermaydigan materiallardan yoki yig‘uv payti xatoliklar bilan tayyorlangan bo‘lishi mumkin;

► soch turmaklashiga ishlatiladigan lak va bo‘yoqlar zararli aralashmalardan iborat bo‘lishi yoki noto‘g‘ri foydalanilishi mumkin;

► gaz yoki kimyoviy moddalarning chiqib ketishi inson salomatligiga ziyon keltirishi yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin.

Mo‘yna yoqa dermatit kasalligiga olib kelgan holatda bo‘lgani kabi ko‘p sonli javobgarlar jalb qilinishi mumkin. Javobgarlar orasida magazin, mo‘ynado‘z, mo‘ynaga bo‘yoq bergan firma, mo‘ynaga ishlov bergan firma va boshqalar bo‘lgan. Bu misol shuni ko‘rsatadiki, har bir kishining harakatlariga va isbotlab berilgan beparvolik darajasiga bog‘liq bo‘lgan javobgarlikka olib keladigan ko‘plab omillar mavjud.

Istisnolar

Mahsulot sifati uchun javobgarlikni sug‘urta bilan qoplash alohida sug‘urta qilinishi mumkin, biroq ko‘pincha fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish polisiga kiritiladi. Mahsulot sifati uchun fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish polisi istisnolariga qo‘shimcha yana bir nechta holat ko‘zda tutiladi:

► mahsulotni chaqirib olish. Bu istisno sug‘urta qilishning mahsulotni chaqirib olish xarajatlarini emas, balki sifatsiz mahsulot mulkka yoki salomatlikka yetkazgan zararni qoplashdan iborat bo‘lgan maqsadini oddiygina tushuntirib beradi, xolos;

► aviatsiya yoki fazo texnikasida foydalaniladigan mahsulot. Har bir sug'urta qiluvchi shaxs bu istisno borasida o'z ta'rifiga ega. Ularning ayrimlari aviatsiyada foydalaniladigan har qanday mahsulotlarni istisno qiladi, boshqalar faqat xavfsizlik va navigatsiya bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar bilan chegaralanadi, ayrimlar sug'urta qiluvchilar esa shuningdek, kemasozlikda foydalaniladigan mahsulotlarni ham istisno qiladi.

Sug'urta mukofoti miqdori odatda tovaraylanmaga va anderrayterning mahsulot moddiy zarar yetkazishi yoki salomatlikka ziyon keltirishi ehtimolini baholashiga bog'liq. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnini qoplash ehtimoliy huquqlari ham hisobga olinadi. Sug'urta qoplami qoidaga ko'ra, polis amal qiladigan muddat davomida to'lanishi mumkin bo'lgan belgilangan miqdordagi mablag'lar bilan chegaralanadi. Masalan, aytaylik, aniqlanishicha, polis amal qiladigan har bir oy davomida sug'urta qiluvchi 2000 f.st.dan ortiq bo'lmagan miqdorda tovon to'laydi. Shunda agar qasidir bir oyda da'volar miqdori 2500 f.st.ga yetadigan bo'lsa, qolgan 500 f.st. to'lanmaydi. Sug'urta qiluvchilar odatda bir xil nuqson bilan izohlanadigan, doimiy ravishda vujudga keladigan da'volarni unchalik hushlamaydi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urta qilish

Kasbiy faoliyatni sug'urta qilish kasbiy faoliyat natijasida ro'y bergan jismoniy shikastlanish yoki zarar yetkazilishi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan da'volardan himoyani ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bilan bo'lgan holatdagi kabi, duch kelishi mumkin bo'lgan risklar soni cheksizdir. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

► syurveyer mijozga nuqsonlarga ega bo'lgan ko'chmas mulk xarid qilinishiga olib kelgan xulosa bergan.

► buxgalterning hisob-kitoblarda xatoga yo'l qo'yishi hech qanday qimmatga ega bo'lmagan aksiyalar xarid qilinishiga olib kelgan;

► dorixonachi dorini noto'g'ri tayyorlagan;

► advokat moliyaviy yo'qotishlarga olib keladigan noto'g'ri maslahat bergan;

► sug'urta brokeri sug'urta qoplami mavjudligini tasdiqlashi, lekin uni hujjatlar bilan rasmiylashtirishni yoddan chiqarishi mumkin.

Bu sug'urta bozorining o'ziga xos segmenti bo'lib, kam sonli sug'urta qiluvchilargina bunday risklar bilan ishlaydi, chunki da'volar yuzaga kelish ehtimoli juda yuqori.

Ma'lumki, fuqaro o'zi yetkazgan zarar uchun jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Jinoiy javobgarlikning maqsadi – ongli ravishda jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni jazolashdan iborat. Fuqaroviy javobgarlikning maqsadi esa – qasddan emas (ongsiz ravishda) sodir etilgan zararni qoplab berish.

Fuqaroviy javobgarlikning maqsadi – ongli ravishda ijtimoiy xavfning intizomiy nojo'ya darajasidan yuqori, lekin jinoyatdan pastroq bo'lgan ma'muriy

huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni jazolashdan iborat. Jinoiy va ma'muriy javobgarliklar sug'urta obyekti bo'la olmaydilar. Faqatgina fuqaroviy javobgarlik sug'urta qilinishi mumkin, chunki u qasddan emas tasodifiy, tusga ega bo'lib, fuqaro tomonidan uchinchi shaxsga ehtimoliy zarar yetazilgani to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari, jinoiy va ma'muriy javobgarliklardan farqli o'laroq, fuqaroviy javobgarlikka nafaqat jismoniy shaxslar, balki yuridik shaxslar ham tortilishi mumkin.[127]

Qonunchilik bazasidan kelib chiqqan holda sug'urtaning ushbu tarmog'ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati:

- sug'urta qilinuvchini uchinchi tomonga zarar yetkazgani natijasida unga nisbatan zararni qoplash bo'yicha qo'yilgan fuqaroviy-huquqiy da'vodan himoya qilish;

- aybdor tomonda yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag' mavjud bo'lmaganida uchinchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Fuqaroviy javobgarlik sug'urtasining ikki tomonli bo'lishi quyidagi ikkita sabab bilan shartlangan:

- texnik revolyusiya sababli ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olishdek ijtimoiy vazifani hal qilishning tarixiy obyektiv dastlabki shartlari mavjudligi;

- sug'urta munosabatlarining mohiyati.



[127]Страхование от А до Я / Под ред. Л.И. Корчевской, К.Е. Турбиной. М.

16.1-rasm. **Fuqaroviy javobgarlik sug‘urtasining iqtisodiy mexanizmi**

Nemis olimi A.Manes fikrichi, “qonuniy javobgarlikdan sug‘urta qilishning vazifasi, bu uchinchi shaxs yoki begona mulkka yetkazgan zarari uchun qo‘yilgan talab bo‘yicha to‘lov uchun pul taqdim etib, sug‘urta qilinuvchini tovon to‘lash majburiyatlaridan himoya qilishdir”.[128] Ushbu ta’rifga ko‘ra, sug‘urta qilinuvchiga sug‘urta hodisasi yuz bergani sababli uning shaxsiy mulki yo‘qolgani yoki hayotida o‘zining shaxsiy sug‘urtasi bilan bog‘liq muayyan hodisalar yuz bergani uchun emas, balki uchinchi shaxsga yetkazilgan zararni qoplashi uchun pul taqdim etilayapti.

Shunday qilib, fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilishning maqsadi, bu zarar yetkazuvchilar (sug‘urta qilinuvchilar)ning iqtisodiy manfaatlarini uchinchi shaxslarning da’volarini qondirish shaklida himoya qilishdan iborat. Bunda uchinchi shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish ushbu sohaning iqtisodiy mazmuni va spetsifikasini tavsiflab beradi.

Fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilishning shunga o‘xshash ta’riflanishi ko‘pgina xorijiy mutaxassislar va olimlar tomonidan berilgan. Masalan, Fransiyada “sug‘urta qilinuvchi fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilish yordamida o‘zining nojo‘ya harakatlari yoki uchinchi shaxslar oldida javobgar bo‘lishiga sabab bo‘luvchi biron fakt yuzaga kelgani tufayli mulkiga yetkaziladigan zarar oqibatlaridan himoya qilinadi”.[129]

Amerikalik mutaxassislarning fikricha, “baxtsiz hodislardan sug‘urta qilishga ixtisoslashgan kompaniyalar tomonidan ko‘plab shartnomalar tuziladi. Bu shartnomalarning asosiy maqsadi sug‘urta polisi egalarini ehtiyotkorsizlik tufayli sodir etilgan zararlarni qoplash da’vosida himoya qilishdir”.[130]

Demak, fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilishda sug‘urta qilinuvchi – zarar yetkazuvchi uchinchi shaxsga yetkazgan zararni qoplash xususida qo‘yilgan da’vo qondiriladi va ana shunday iqtisodiy munosabat fuqaroviy javobgarlik sug‘urtasining bosh mazmun-mohiyati hisoblanadi.

Yuridik nuqtai nazardan shartnomaning tomonlari faqat ikkita – sug‘urta qilinuvchi va sug‘urtalovchi va iqtisodiy munosabatlar, majburiyatlarning ma’lum doirasi va ularni bajarish majburiyati faqat shu ikkita ishtirokchi o‘rtasida o‘rnatiladi. Shuning uchun, sug‘urtaning bu turida sug‘urta qilinuvchidan boshqa biron shaxsni himoya qilinishi to‘g‘risida so‘z yuritilmaydi.

Fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilishning asosiy ijtimoiy funksiyasi, bu uchinchi, ya’ni jabrlanuvchi shaxslarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan

---

[128]Манэс А.Основы страхового дела. М., 2010. С. 105.

[129]Жюлио деля Морандъер. Гражданское право Франции. Т. 3. М., 1916. С. 339. (Перевод с французского Е.А.Флейшиц. М.: Иностранная лит-ра. 1960. 728 с.)

[130] Merh R., Cammack E. Principles of Insurance. Homewood, 1975. P. 294.

iborat, bu holat xorijiy mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar tomonidan ham ta'kidlanadi.

Uchinchi shaxslarning zararlarini qoplash, shuningdek ma'lum ko'rinishdagi zararlarni qoplash majburiyati ushbu tarmoqning ichki mazmunini aks ettiradi. Undan tashqari, sug'urta qilinuvchiga da'vo qo'yish va zararlarni belgilangan limit chegarasida qoplash kabi holatlarning mavjudligi ham sug'urtaning bu turiga xos iqtisodiy munosabatlarni belgilab beradi.

16.3. Xorijiy mamlakatlarda javobgarlikni sug'urta qilish va uni rivojlantirish yo'llari

Javobgarlikni sug'urta qilish rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa keng tarqalgan sug'urta shakllaridan biri hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarning aksariyatida javobgarlikni sug'urta qilish majburiyati qonun hujjatlarida nazarda tutiladi. Mazkur qonun hujjatlarining mazmun va mohiyati shundan iboratki, xavfli obyektlardan foydalanuvchi yoki bunday obyektlar (transport vositalari)ni boshqaruvchi har kim bunday foydalanish yoki egalik qilish natijasida uchinchi shaxslarning mol-mulki yoki hayoti va sog'lig'iga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar yoki ziyon uchun javobgar bo'lishi lozim.

Qonun bo'yicha javobgarlik ehtiyotsizlik orqasida huquqbuzarlik sodir etish yoki shartnoma majburiyatlarini buzish bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Fuqarolik javobgarligini yoki uchinchi shaxslar oldida javobgarlikni sug'urta qilish eng ko'p sonli sug'urta turi hisoblanadi.[131]

Jahon amaliyotida ham qonun hujjatlarining talablariga ko'ra, ham kasbiy reglamentlar (kodekslar, standartlar)ga muvofiq kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq javobgarlikni sug'urta qilish shartnomalarida sug'urta qildiruvchilar sifatida ko'pincha shifokorlar, farmatsevtlar, auditorlar, brokerlar, arxitektorlar, advokatlar, notariuslar va ayrim boshqa kasblarning egalari amal qiladi.

Ushbu sug'urta turi AQSHda patsientlar tomonidan o'z hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun vrachlar va tibbiyot hamshiralariga qo'yilgan da'volar soni sezilarli darajada ko'paygan o'tgan asrning 60-yillari o'rtalaridan boshlab ommaviy tus oldi.[132]

Chet elda javobgarlikni sug'urta qilish ko'pgina tashkilotlar, ayrim kasb egalari va oddiy fuqarolar uchun allaqachon me'yorga aylangan. Masalan, uchinchi shaxslar oldida kasbiy javobgarlikni majburiy sug'urta qilish restoran biznesi, sport-ko'ngilochar muassasalari, transport vositalari, kazino, tungi klublarning egalari,

---

[131] Qarang: Скамай Л.Г. Страхование: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2001.

[132] Qarang: Агеев Ш.Р., Васильев Н.М., Катырин С.Н. Страхование (теория, практика и зарубежный опыт). М.: Экспертное бюро, 2009. 497 с.

shuningdek shifokorlar, advokatlar, notariuslar, bojxona xodimlari faoliyatiga tegishlidir.

Buyuk Britaniyada avtotransport egalari, aviatashuvchilar, otda yurish bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan hayvonlarni uy sharoitida saqlaydigan shaxslarning uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mavjud. Bundan tashqari, advokatlar, buxgalterlar, sug'urta brokerlari, shuningdek atom energetikasi qurilmasining operatorlari uchun kasbiy javobgarlikni majburiy sug'urta qilish nazarda tutilgan.

Majburiy sug'urta shartnomalari (amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq) Angliya sug'urta bozorida mavjud sug'urta kompaniyalari tomonidan tuziladi. Buyuk Britaniyaning davlat tashkilotlari majburiy sug'urta masalalari bilan shug'ullanmaydi.

Germaniyada majburiy sug'urta nisbatan cheklangan xususiyatga ega. Germaniya federal qonunchiligi darajasida ish beruvchining yollanma xodimlarga ishlab chiqarish jarohati yoki zararli mehnat sharoitlari bilan yetkazilgan zarar uchun javobgarligini majburiy sug'urta qilish, avtotransport vositalari egalarining yo'l-transport hoisasi natijasida yetkazilgan zarar uchun uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, aviatashuvchilar va noharbiy havo kemalari harakatini boshqaruvchi dispetcherlar, buxgalterlar, ovchilar, atom energetikasi qurilmalarining operatorlari, atom energiyasi va radioaktiv izotoplardan foydalanuvchilar, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar (produtsent-lar)ning kasbiy (fuqarolik) javobgarligini majburiy sug'urta qilish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Germaniyaning ayrim federal yerlarida imoratlarni ularning mulkchilik shaklidan qat'iyy nazar, yong'indan majburiy sug'urta qilish belgilangan.

G'arbiy Yevropaning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish yarim asrdan ham ko'proq davr mobaynida mavjud. Bunday sug'urta polisiga ega bo'lmagan odam ko'chaga chiqishi, boz ustiga rulga o'tirishini tasavvur qilish ham mumkin emas. Yoki bo'lmasa, aytaylik, biron-bir bank bitimi titul sug'urtasi uchun shartnomasiz amalga oshirilmaydi.[133]

Yevropaning bir qator davlatlarida boshqa mamlakatlardan kelgan turistlarga umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish talabi qo'yiladi. Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish talabi turistlar tashrif buyuradigan mamlakatlar qonunlarining amal qilishi bilan bog'liq. Yevropa davlatlarining aksariyatida, Shengen guruhi mamlakatlarida esa – majburiy tartibda, umumiy fuqarolik javobgarligi to'g'risidagi qonunlar amal qiladi.[134]

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish javobgarlikni sug'urta qilishning jahonda ayniqsa keng tarqalgan turi hisoblanadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish aksariyat

---

[133] Qarang: Шинкаренко И.Э. Страхование ответственности: Справочник. 2-е изд., испр. и доп. М.: Анкил, 2011. 308 с.

[134] Qarang: Салманов А.М. Страхование // Финансы. 2011. 40 с.

mamlakatlarda majburiy hisoblanadi va tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilgan. Mazkur qonun hujjatlarida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish asosiy tamoyillari va shartlari, javobgarlik limitlari va hokazolar belgilangan.[135]

Jahon xo'jalik aloqalarining kengayishi, turizmning rivojlanishi, aloqalarning kengayishi munosabati bilan avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish hozirgi vaqtda xalqaro ahamiyat kasb etdi. "Yashil karta tizimi" degan nom bilan keng tarqalgan javobgarlikning mazkur turini sug'urta qilish xalqaro tizimi 1953 yilning 1 yanvarida kuchga kirdi.

Yashil karta to'g'risidagi shartnoma ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar ularning istalgan birida sotib olingan xalqaro avtomobil qatnovida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta polislarini ushbu mamlakatlar hududida e'tirof etish majburiyatini oldilar. Yashil karta tizimining asosiy elementi ishtirokchi-mamlakatlarning milliy byurolari hisoblanadi.

Ushbu tuzilmalar chegarani kesib o'tayotganda sug'urtaning mavjudligi ustidan nazoratni tashkil etadilar, shuningdek sug'urta hodisalari bo'yicha arz qilingan da'volarni tartibga solish masalalarini (mamlakat ichida va chet elda) sug'urta kompaniyalari bilan birga hal etadilar. Milliy byurolar qarorgohi Londonda joylashgan yagona Xalqaro byuroga birlashtirilgan. Xalqaro byuro butun dunyodagi milliy byurolar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Yashil karta bo'yicha sug'urta tovonini to'lashni vakolatli sug'urta kompaniyalari amalga oshiradi.[136]

Germaniyada aviakorxonalari, yadroviy energetika qurilmalari, farmatsevtika sanoati korxonalarining fuqarolik javobgarligi majburiy tartibda sug'urta qilinadi.[137]

Tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish tizimi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillardan beri keng qo'llaniladi. Ayni vaqtda, turli mamlakatlarda sug'urta qilish sxemalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

AQSHda tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish tizimining ikki turi farqlanadi. Ularning birinchisida sug'urta kompaniyasi sog'liqqa zarar yetkazilgani haqidagi shikoyatlarning barchasi bo'yicha kompensatsiyalarni shikoyat taqdim etilgan vaqtdan qat'iy nazar mazkur polis amalda bo'lgan yil davomida to'lash majburiyatini oladi. Ikkinchi turdagi polislar faqat o'sha yili yetkazilgan zararga tegishli bo'lgan shikoyatlar bo'yicha kompensatsiyalar to'lanishini ta'minlaydi.[138]

Chet elda keng iste'mol mollari ishlab chiqaruvchilarning javobgarligini iste'mol qilish ko'p yillik tajribaga ega. Xususan, 1985 yildan boshlab Yevropa

---

[135] Qarang: Сплетухов Ю.А. Страхование: Учебное пособие. М: ИНФРА-М, 2010. 312 с.
[136] Qarang: Белых В.С., Кривошеев И.В. Страховое право. М.: Издательство НОРМА, 2010. 312 с.
[137] Qarang: Агеев Ш.Р., Васильев Н.М., Катырин С.Н. Страхование (теория, практика и зарубежный опыт). М.: Экспертное бюро, 2009. 497 с.
[138] Qarang: O'sha yerda.

iqtisodiy hamjamiyati doirasida uning amal qilishini G‘arbiy Yevropaning barcha mamlakatlariga tatbiq etish to‘g‘risidagi bitim amal qiladi.

Aksariyat tovar ishlab chiqaruvchilar javobgarlikning ushbu turini ham o‘z ishchanlik obro‘sini oshirish, ham mahsulotni iste’mol qiluvchiga etkazilgan zarar qoplanishining moliyaviy kafolatlarini olish, ham sud muhokamalari va zaruriy ekspertizalardan xalos bo‘lish uchun sug‘urta qilishni lozim deb hisoblaydi, chunki sug‘urtalovchi sug‘urta qildiruvchining manfaatlarini sudda himoya qilishni ta’minlaydi, ekspertiza yuzasidan maslahat xizmatlari ko‘rsatilishini tashkil etadi.

Ushbu sug‘urta turining iste’molchilar uchun qulayligi shu bilan belgilanadiki, mavjud yuridik normalarga ko‘ra ishlab chiqaruvchining javobgarligi zarar mazkur ishlab chiqaruvchi tomonidan etkazilgani dalillar bilan isbot qilinganda uning aybi mavjudligi yoki mavjud yemasligidan qat’iy nazar e’tirof etladi. Bundan tashqari, ancha katta miqdorda sug‘urta tovoni olinishi mumkin, chunki mazkur sug‘urta turi bo‘yicha tovar ishlab chiqaruvchilarning javobgarligini cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.[139]

Javobgarlik hajmiga mahsulot iste’molchilarining sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazish va ularning halok bo‘lishi ham kiritiladi. Tovar bozorda ishlab chiqaruvchining ruxsatsiz paydo bo‘lgan, u realizatsiya qilish uchun ishlab chiqarilmagan, tovar sotuvga kelib tushgan paytda unda nuqsonlar mavjud bo‘lmagan hollarda javobgarlikdan ozod qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Tovar ishlab chiqaruvchi, agar u iste’molchi tomonidan beparvolikka yo‘l qo‘yilganini isbotlab bersa, javobgarlikdan qutulib qolishi mumkin.

Atrof muhitni ifloslash uchun javobgarlikni sug‘urta qilish tabiiy ofatlar va yong‘inlardan ko‘riladigan zararlar bilan taqqoslaganda ekologik zararlar miqdori sezilarli darajada oshgani bilan belgilanadi. Atrof muhitni ifloslash uchun javobgarlikni sug‘urta qilish o‘tgan asrning 60-yillaridan e’tiboran rivojlana boshladi. Avvaliga javobgarlik hajmiga ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa tufayli atrof muhitning ifloslanishi natijasida uchinchi shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga zarar yetkazuvchi xavflar kiritilar edi. Bunda sug‘urta tovoni faqat ekologik halokat qo‘qqisdan va kutilmaganda yuz bergan holda to‘lanar, doimiy ravishda yoki vaqti-vaqti bilan yetkaziladigan zarar istisno etilardi. 70-yillarning boshida bu istisno bekor qilindi.

G‘arbiy Yevropa va Amerika mamlakatlarining deyarli barchasida oshiqcha xavf manbasi bo‘lgan obyektlardan foydalanishda javobgarlikni sug‘urta qilish sug‘urtaning ixtiyoriy turi sifatida mavjud. Xavfli obyektlar egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilishning mazkur shaklini mohiyati shu bilan belgilanadiki, ushbu mamlakatlarning qonun hujjatlariga muvofiq, bunday turdagi korxonalar uchun etkazilgan zararni qoplash bo‘yicha kuchaytirilgan javobgarlik belgilangan.

---

[139] Qarang: Тулинов В.В. Страхование и управление риском. Терминологический словарь / В.В.Тулинов, В.С.Горин. М.: Наука, 2000 // http://www.insur-info.ru/dictionary/694/

Bundan tashqari, bozorda mavjud bo'lgan sharoitlar (davlat darajasida o'rnatilgan sanoat xavfsizligi yuksak standartlari; operatorlar ijtimoiy javobgarlik darajasining yuqoriligi, shuningdek oshiqcha xavf manbasi bo'lgan obyektlarning egalariga nisbatan uchinchi shaxslarning da'volari bo'yicha zararlarni qoplash bilan bog'liq potensial xarajatlarning kattaligi) ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Masalan, AQSHda korxona sug'urta polisiga ega bo'lmagan holda unga kredit berish rad etilishi mumkin, u auditorlarning talablari bilan mos kelmaydi, bundan tashqari, mazkur korxona o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida boshqa bir qator muammolarga ham duch keladi.

Sharqiy Yevropada yirik avariyalar yuz bergan holda korxonalarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun mavjud bo'lgan birdan-bir mamlakat Chexiya Respublikasi hisoblanadi. Chexiya Respublikasining 2000 yil 29 yanvarda qabul qilingan 353/1999-son Qonuni Yevropa Ittifoqining 96/82/EI-son Direktivasida mustahkamlangan tamoyillar bilan to'la mos keladi.

Sug'urta muayyan xavfli kimyoviy moddalar EI Direktivasida belgilangan limitlardan ortiq hajmlarda saqlanayotgan obyektlarga nisbatan tatbiq etiladi.[140]

Qonunning amal qilish doirasiga avariya yuz bergan holda katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan 150 ga yaqin korxona kiradi. Qonunga binoan, ushbu korxonalar favqulodda vaziyat yuzaga kelgan holda bajariladigan harakatlar rejasini tuzishlari va korxonada yuz berishi mumkin bo'lgan avariya tufayli uchinchi shaxslarga zarar yetkazganlik uchun o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishlari shart.

Bugungi kunda Chexiyada ko'pgina xavfli obyektlar javobgarlikni majburiy sug'urta qilish polisiga hali-hanuz ega emas, chunki qonunning xavfsizlik dasturida yuksak talablar belgilangani tufayli, bunday obyektlarni qonun talablari bilan muvofiq holatga keltirish muddati uzaytirilgan.[141]

Sobiq Ittifoq hududida oshiqcha xavf manbasi bo'lgan obyekt egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati Rossiya, Ukraina, Qozog'istonda va bizning respublikamizda qonun yo'li bilan joriy etilgan.

Ukrainada xo'jalik yuritish subyektlarining oshiqcha xavf manbasi bo'lgan obyektlarda, shu jumladan yong'in va portlash xavfi kuchli bo'lgan obyektlar va olib borilayotgan xo'jalik faoliyati ekologik va sanitariya-epidemiologiya xususiyatiga ega bo'lgan avariyalarga olib kelishi mumkin bo'lgan obyektlarda yuz bergan yong'inlar va avariyalar tufayli yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibi va uni amalga oshirish qoidalari Ukraina Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 16 noyabrdagi 1788-son qarori bilan tasdiqlangan.

---

[140] "Xavfli kimyoviy moddalarning zararli ta'siriga sabab bo'ladigan yirik avariyalarning oldini olish to'g'risida" to'plami.

[141] Qarang: Джураев Т., Ашрафханов Б., Мирсадыков М. Аспекты деятельности и структура органов страхового надзора за рубежом // Экономический Вестник Узбекистана. – 2001. №1/2.

Qozog‘istonda oshiqcha xavf manbasi bo‘lgan korxonalarning yer yuzasi va suv muhitining ifloslanishi, atmosferaga chiqindilar chiqarilishi va hokazolar natijasida uchinchi shaxslarga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish majburiyati Qozog‘iston Respublikasining 2004 yil 7 iyulda qabul qilingan “Faoliyati uchinchi shaxslarga zarar yetkazilishi xavfi bilan bog‘liq bo‘lgan obyekt egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi 580-I-son Qonuni bilan joriy etilgan.

Rossiya Federatsiyasida oshiqcha xavf manbasi bo‘lgan obyektlar egalarining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish 1997 yil 21 iyulda qabul qilingan “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi 116-FZ-son Federal qonuni va 1997 yil 21 iyulda qabul qilingan “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi 117-FZ-son Federal qonuni doirasida amalga oshiriladi, “ixtiyoriy-majburiy” va ancha yuzaki xususiyat kasb etadi.

Mazkur sug‘urta nomuayyan yuridik maqomga ega, bunday sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta pullari miqdori katta emas, sug‘urta tariflari aksariyat hollarda obyektiv hisob-kitoblarga asoslanmaydi va shartnoma yo‘li bilan belgilanadi.

Davlat nazorat organlari neft-gaz majmuining bir qator obyektlarini sug‘urta qilish bilan bog‘liq nazorat qilish va tartibga solish vakolatlariga ega emas. Tegishli ravishda, Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar bo‘yicha vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, yuqorida ko‘rsatilgan qonunlar doirasida amalga oshiriladigan sug‘urtaning qamrov darajasi barcha xavfli ishlab chiqarish obyektlari va gidrotexnika inshootlarini sug‘urta bilan qamrab olish darajasi 25–50% atrofida.[142]

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida asosiy maqsadi ayrim shaxslar yoki muassasalarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘lgan javobgarlikni sug‘urta qilish huquqiy tizimi mavjud.

Bunda javobgarlikni sug‘urta qilish uchinchi shaxslarning ham sog‘lig‘i, ham mol-mulkiga zarar yetkazilishi mumkinligini nazarda tutadi va ularga qonunga muvofiq yoki sudning hal qiluv qaroriga binoan yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan tegishli to‘lovlar amalga oshiriladi.

---

[142] Qarang: Андреева Е.В., Афанасьева Р.А., Русакова О.И. Страхование ответственности в Российской Федерации на примере некоторых видов [Текст]. Иркутск. 2008. 158 с.

17-MAVZU.
MAJBURIY SUG‘URTA

17.1. Majburiy sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yangicha bozor iqrisodiyoti mexanizmining shakllanish davri boshlandi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida zaruriy ichki infratuzilmani yaratishni davr talabiga aylantirdi. Sug‘urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy kafolatni ta’minlaydi va shartnomaviy majburiyatlari bo‘yicha turli xil sug‘urta qaltisliklaridan ogoh etish asosida iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi subyektlar manfaatlarini himoyalash vazifasini amalga oshiradi.

Sug‘urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning turli xil risklar va qaltisliklar yuz berishi oqibatida ko‘rishi ehtimoli bo‘lgan zararlarni qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo‘ldi va rivojlandi. Fuqarolarning kundalik hayot faoliyati davomida ularning mulkiy manfaatlari va o‘zlarining hayotlariga turli toifadagi xavf – xatarlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Har-bir shaxs o‘z hayoti va mulkiy manfaatlarini xavf soluvchi turli xil risklardan himoyalash maqsadida sug‘urtaviy munosabatlarga kirishadi. Sug‘urta jamiyatning barcha a’zolariga turli xil baxtsiz hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil zararlardan o‘zlarini himoyalash imkoniyatini beradi.

Sug‘urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllaridan qat’iyy nazar, sug‘urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta’kidlash joizki, sug‘urta munosabatlari – murakkab va keng qamrovli moliyaviy – iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, ular yuzaga kelishi uchun o‘zaro bog‘liq shart – sharoitlar majmuasi mavjudligi ham muhim hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston sug‘urta bozorida majburiy sug‘urtaning mavjudligi sug‘urta xizmatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib borishida eng muhim omillardan biridir.

Haqiqatdan ham, sug‘urtaning majburiy turlarini amaliyotga tadbiq etish orqali respublikamiz sug‘urta sohasi rivojiga ko‘p jihatdan imkoniyatlar yaratilishiga erishiladi. Lekin majburiy sug‘urta turlarini amaliyotga joriy etishdan asosiy maqsad aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga erishishdan iboratdir. Bugungi kunda majburiy sug‘urta aholining muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ta’minlab beruvchi eng muhim iqtisodiy richaglardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya – bu mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muxofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora - tadbirlar majmui; ya’ni davlat , jamiyat a’zolarining yoshi, salomatlik holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muxtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligidir. Uning asosiy maqsadi aholi

farovonligining yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarini ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Majburiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyati shundaki, u sug'urtaning ma'lum bir turida qatnashgan barcha fuqarolardan tushgan mablag'larni jamlaydi va sug'urta hodisasi yuzaga kelganda ushbu hodisa tufayli jabr ko'rganlarning zararlarini qoplaydi. Majburiy sug'urta qilish mamlakatda ijtimoiy ishlab chiqarishni barqarorlashtirishni, biznesni va aholini turmush darajasini himoya qilish asosiy vositasi hisoblanadi. Majburiy sug'urtaning afzalliklaridan biri shundaki, unda sug'urta qamrovi sezilarli darajada kengayadi.

Bu o'z navbatida qo'llanilayotgan sug'urta tariflarini eng past darajagacha kamaytirish imkonini beradi. Albatta, bu sug'urtalovchilar manfaatlariga mos keladi. Majburiy sug'urta qilishning iqtisodiy mohiyati, sug'urta faoliyati, mazkur sug'urta turi yordamida sug'urtalanuvchi risklarning mohiyati, xavf-xatarlar, sug'urta hodisasining mazmuni, sug'urta maydoni, sug'urta portfeli, sug'urta agentlari va brokerlari, sug'utalangan shaxs, uchinchi shaxs, naf oluvchi, voris, sug'urta obyekti, sug'urta predmeti orqali ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 922-moddasida majburiy sug'urta to'g'risida alohida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, unda shunday deyiladi: «Qonunda quyidagilarni sug'urta qilish majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin:

- qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulki ularning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib;
- boshqa shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi».[143]

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi. Qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin. Fuqaroga o'z hayoti yoki sog'ligini sug'urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

Mol-mulkni sug'urta qilish majburiyati qonundan kelib chiqmaydigan, balki mol-mulkning egasi bilan tuzilgan shartnomaga yoki mol-mulkning mulkdori hisoblanuvchi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga asoslangan hollarda, bunday sug'urta ushbu moddaning ma'nosi jihatidan majburiy.

---

[143] O'zbekiston Republikasi Fuqarolik Kodeksining 922-moddasi.

Majburiy sug‘urta bunday sug‘urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug‘urta qildiruvchi) sug‘urtalovchi bilan sug‘urta shartnomasi tuzishi vositasida amalga oshiriladi. Majburiy sug‘urta sug‘urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Majburiy sug‘urtalanishi lozim bo‘lgan obyektlar, ular sug‘urtalanishga sabab bo‘ladigan xavflar va sug‘urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Fuqarolik kodeksining 924-moddasida majburiy sug‘urta to‘g‘risidagi qoidalarni buzish oqibatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Qonun bo‘yicha foydasiga majburiy sug‘urta amalga oshirilishi lozim bo‘lgan shaxs, agar sug‘urta amalga oshirilmagani unga ma’lum bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi sifatida zimmasiga sug‘urtalash majburiyati yuklangan shaxs uni amalga oshirishini sud tartibida talab qilishga haqli.

Agar sug‘urta qildiruvchi sifatida sug‘urtalash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs uni amalga oshirmagan bo‘lsa yoki sug‘urta shartnomasini naf oluvchining ahvolini qonunda belgilangan shartlarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarda buzgan bo‘lsa, u sug‘urta hodisasi yuz berganida basharti tegishlicha sug‘urtalangan taqdirda sug‘urta tovoni to‘lashga asos bo‘lishi kerak bo‘lgan shartlarda javobgar bo‘ladi.[144]

Xalqaro amaliyot talablariga mos keladigan majburiy sug‘urta turlarini joriy etish orqali, sug‘urtalanuvchilarning mulkiy manfaatlari himoyalanadi. Majburiy sug‘urta turlarining keng qamrovli ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu o‘z o‘rnida sug‘urtaning rivojlanishiga va keng omma orasida tarqalishiga imkoniyat yaratadi.

Majburiy sug‘urta turlarini joriy qilish orqali davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini barta’raf etishi mumkin. Jumladan, sug‘urta sohasidagi qonunchilikni takomillishtirish, hamda majburiy sug‘urta turlarini joriy etish orqali davlat quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

- bosqichma-bosqich davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy himoya bilan bog‘liq muammolarni iqtisodiyotning biznes sohasiga topshirishi.

Bunda davlat jamiyatda mavjud va ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy himoya yuzasidan jamiyat a’zolarining ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish va ularning nazoratini amalga oshirishni ma’lum ma’noda iqtisodiyotning biznes sohasi bo‘lmish, ya’ni majburiy sug‘urtalash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar zimmasiga tegishli qonun hujjatlari asosida topshirishi mumkin;

-O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borish.

Bizga ma’lumki, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan jamiyatning iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan iqtisodiy operatsiyalarga davlatning ishtirokini kamaytirish asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Ya’ni davlat iqtisodiyotda ro‘y

[144] O‘zbekiston Republikasi Fuqarolik Kodeksining 924-moddasi.

berayotgan har bir jarayonlarga alohida - alohida aralashmasdan balki, ushbu jarayonlarni tartibga solishda iqtisodiy richaglardan foydalanishini nazarda tutadi. Buning natijasida jamiyatda ijtimoiy himoyani ta'minlashning kompleks tizimi yaratiladi;

- Byudjetning ijtimoiy xarajatlar qismiga tushadigan og'irlikni yengilashtirish; Buning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan jamiyatdagi mavjud va ro'y berayotgan ijtimoiy himoya bilan bog'liq xarajatlar, majburiy sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar zimmasiga yuklanadi. Ya'ni, majburiy sug'urtaning tegishli turlarida ko'rsatilgan, sug'urtalanishi kerak bo'lgan potensial sug'urtalanuvchilar tomonidan to'langan sug'urta mukofotlari evaziga shakllantirilgan fond mablag'laridan, sug'urta hodisasi ro'y berganda, ijtimoiy himoyalanishi kerak bo'lgan shaxslarga to'lovlar ya'ni sug'urtalangan shaxslar va ularning javobgarligi yuzasidan vujudga kelgan zararlarni qoplash orqali budjet xarajatlarini kamaytirish tushuniladi.

- sug'urta tashkilotlari mablag'larini ijtimoiy-iqtisodiy himoya bilan bog'liq masalalarga yo'naltirish;

- yuqoridagi chora-tadbirlarni qo'llash orqali bo'shagan pul mablag'larni sog'liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish kabi maqsadlarga sarflashda foydalanish mumkin.

Aytish kerakki, majburiy sug'urtalash yurtimiz moliya bozorini jonlantirish barobarida aholining ijtimoiy muhofazasini yanada mustahkamlashda ham katta rol o'ynaydi. Shu bois ishonch bilan ayta olamizki, mamlakatimizning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida sug'urta amaliyoti, xususan majburiy sug'urtaning ahamiyati kattadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish mamlakat iqtisodiyotida yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar aholining kuchli ijtimoiy himoyasini ta'minlashga intiladilar. Buning ustiga, ijtimoiy himoyani ta'minlashning samarali usullari sifatida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan metodlar bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ham iqtisodiyotning rivojlanishi uchun, ham mamlakatda ijtimoiy himoyani ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

Bugungi kunda majburiy sug'urtaning mavjudligi sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotiga kirib borishida asosiy omillardan biri ekanligini xorij amaliyoti orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin. Albatta, sug'urtaning majburiy turlarini tadbiq etish respublikada sug'urta sohasi rivojiga ko'p jihatdan imkon yaratadi.

17.2. Majburiy sug'urtaning nazariy va huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra majburiy sug'urta qonun hujjatlariga asosan joriy etiladi. Majburiy va majburiy davlat sug'urtasi

mavjud. Majburiy sug'urtada sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchining mablag'lari hisobidan, majburiy davlat sug'urtasida esa davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Hozirgi paytda aholi orasida keng tarqalgan majburiy sug'urtaning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish"
- ✓ "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" hamda
- ✓ "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish"

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatilgan majburiy sug'urta turlari hukumat qarorlari asosida joriy etilgan. Unda sug'urtalanuvchilar guruhi, sug'urta qilish shartlari, sug'urta tarifi stavkalari va sug'urta qoplamalari miqdori ko'rsatilgan.

Bugungi kunda barcha transport vositalari egalari uchun amalga oshirilayotgan avtotransport vositalari egalarining uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligi sug'urtasi juda samarali ishlamoqda. Davlatning majburiy sug'urta turlarini joriy etishidan ko'zlangan asosiy maqsad majburiy sug'urtani amaliyotga joriy qilgan holda uning mohiyati va zarurligini keng ommaga namoyon qilish, shuningdek uning aholini ijtimoiy muhofaza qilishdagi ahamiyatini anglatishdan iborat.

Majburiy sug'urtaning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda 2008 yil 21 aprelda "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun 41 ta moddadan iborat bo'lib, unda mazkur qonunning maqsadi, asosiy tushunchalari, majburiy sug'urtaning asosiy tamoyillari, majburiy sug'urtani amalga oshirishning shartlari va tartibi, sug'urta hodisalari ro'y berganda zararning o'rnini qoplash, kompensatsiya to'lovlari, majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash kabi boblar mavjud.

Mazkur qonun qabul qilingandan so'ng uni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan Hukumat qarorini qabul qilishga zarurat tug'ildi va 2008 yilning 26 iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 141-sonli qaror qabul qildi.

Fuqarolik javobgarligini sug'urtalashning majburiy ekanligi sug'urta kompaniyalariga majburiy sug'urtaning ushbu turi qo'llanilish doirasiga kiruvchi barcha transport vositalarini qamrab olish imkoniyatini beradi. Shu bilan bir qatorda sug'urtalanuvchilar o'zlarining fuqarolik majburiyatlarini mazkur majburiy sug'urta turida ko'rsatilgan sug'urta summasidan yuqori qiymatda ixtiyoriy sug'urta qilish huquqiga ham ega hisoblanadi.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tariflari bir xil bo'lib, barcha sug'urtalovchi tashkilotlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va shartlarda

qo'llaniladi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha esa sug'urtalovchilar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli sug'urta tariflarini qo'llash imkoniyatiga egadirlar.

Modomiki, majburiy sug'urtada obyektlarni qamrab olish darajasi ushbu sug'urtaning ixtiyoriy turidagi qamrab olingan darajasidan ortiq ekan, bu majburiy sug'urta bo'yicha ixtiyoriy sug'urtadan ko'ra pastroq tariflar qo'llash imkonini beradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, aynan yuqorida keltirilgan sabab natijasida ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar haqi majburiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatish haqiga nisbatan hamisha yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari, majburiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida hukumatimiz tomonidan majburiy sug'urtaning mazkur turi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi sug'urtalovchilarga qo'shimcha talablar ham o'rnatiladi.

Masalan, yuqorida qayd etilgan qonunning 14-moddasida sug'urtaning mazkur turini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida nafaqat majburiy sug'urtaning mazkur turi bo'yicha shartnomalarni tuzish vakolatiga ega bo'lgan, balki jabrlanuvchilarning (ularning vorislari yoki huquqqa egalik qiluvchi shaxsning) sug'urta to'lovlarini to'lash to'g'risidagi talablarini ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish vakolatiga ham ega bo'lgan vakillariga ega bo'lishi shart.

Qonunga muvofiq jabrlanuvchining hayotiga, sog'ligiga va (yoki) mulkiga yetkazilgan zarar majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lovlar to'lash orqali ularning manfaatlari himoyaga olinmay qolgan quyidagi holatlar bo'yicha kompensatsiya to'lovlari hisobiga amalga oshiriladi:

- sug'urtalovchiga bankrotlik jarayoni qo'llangan bo'lsa;
- yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxs noma'lum bo'lganda;
- transport vositasi egasi tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar bo'yicha uning o'z fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash majburiyatlarini bajarmagan taqdirda.

Kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish maqsadida fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (FJMS)ni amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari majburiy tartibda a'zo bo'luvchi FJMS bo'yicha to'lovlar to'lashni kafolatlash jamg'armasi tashkil etilgan. Jamg'arma mablag'lari a'zo – sug'urtalovchilarning bir martalik va kalendar badallari hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» gi 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan 210- sonli qonuniga ko'ra, 2009 yil 16 oktyabrdan boshlab ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qonun asosida kuchga kirdi.

Bu qonunning joriy etilishidan asosiy maqsad ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Keng ma'noda esa, mehnat faoliyati jarayonida jarohat olgan, kasb kasalligi

yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtida salomatligiga zarar yetgan kishilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iboratdir.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning mohiyati shundan iboratki, xodim o'z mehnat vazifasini ado etishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchi tomonidan o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilinishidir. Bunday munosabat ishchining (xodimning) ish beruvchi (tashkilot, korxona, zavod va h.k.) bilan tuzgan mehnat shartnomasi imzolaganidan so'ng boshlanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning asosiy maqsadi barcha mehnat faoliyati bilan band bo'lgan ishchi va xodimlarning sog'lig'ini, hayotini ijtimoiy himoya qilishdir. «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» gi qonunning maqsadi esa ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanib, bu sug'urta turi bilan sug'urta tashkilotlari shug'ullanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- avvalambor litsenziyaga ega bo'lishi kerak;
- ustav fondining eng kam miqdori majburiy sug'urta bo'yicha shakllantirilgan bo'lishi lozim;
- mamlakatning barcha hududlarida sug'urta tashkilotining filiallari ta'sis etilgan bo'lishi kerak;
- kelib tushgan da'volarni joylarda ko'rib chiqishi zarurdir.

Sug'urtaning ushbu turining majburiyligi birinchi navbatda mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha minimal sug'urta tariflarini qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Mohiyatan, majburiy sug'urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari o'rtasidagi jabrlangan ish beruvchilar ko'rgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan mablag'larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida harakatga keladi. Bu mexanizm orqali jabrlangan xodimlar ko'rgan zararni qonunda belgilangan sug'urta summasi doirasida qoplanishini kafolatlaydi va jabr ko'rgan xodimga zararni qoplab berganda ham ish beruvchilarning moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishini qo'llab-quvvatlovchi real usul hisoblanadi.

Yana bir majburiy sug'urta turi 2015 yilning 26 martida O'zbekiston Respublikasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. «Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq va

tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 sentyabrdagi 266-son Qarori qabul qilindi. Ushbu qonun 26 moddadan iborat bo‘lib, uning asosiy maqsadi tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda tashuvchiga quyidagicha ta’rif berilgan: shahar yo‘lovchilar transportida, temir yo‘l, havo, avtomobil, daryo transportida va boshqa transportda yo‘lovchilarni hamda ularning mol-mulkini tijorat asosida tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi va buning uchun maxsus ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo‘lgan yuridik shaxs.

Qonunning 4-moddasiga binoan, tashuvchining o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish majburiyati - tashuvchi yo‘lovchilarning hayoti, sog‘lig‘i va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun o‘z fuqarolik javobgarligini tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish boshlanguniga qadar, ushbu qonunda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug‘urtalashi shart. Mazkur qonunning 5-moddasida ushbu sug‘urta turining obyekti va subyekti ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, sug‘urta obekti:

- yo‘lovchining hayoti;
- yo‘lovchining sog‘lig‘i;
- yo‘lovchining mol-mulki (bagaj va yo‘lovchining o‘zi bilan birga tashilayotgan qo‘l yuki)ga yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash bo‘yicha fuqarolik javobgarligi yuzaga kelgan chog‘dagi mulkiy manfaatlari.

Tashuvchi, sug‘urtalovchi, yo‘lovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish subyektlaridir.

Qamrab olinadigan transport vositalari turlari:

- havo transporti;
- temir yo‘l transporti;
- daryo transporti;
- avtomobil transporti;
- shahar yo‘lovchilar transporti;
- boshqa transport (sh.j. parom kechuvlari, monorels va h.k.).

Agar majburiy sug‘urta obyekti xalqaro shartnomalar talablariga muvofiq ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha belgilangan sug‘urta puli miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda sug‘urtalangan bo‘lsa majburiy sug‘urta qo‘llanilmaydi.

Tashuvchi tomonidan o‘z fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urta qilinmagan taqdirda uning mansabdor shaxslariga nisbatan jarima sanksiyalari qo‘llaniladi. Bunda, jarima sanksiyalarini qo‘llash nazorat qiluvchi organlarining (Davavianazorat, O‘ztemiryo‘lnazorat, O‘zADTA va h.k.) taqdimnomalariga asosan sud tartibida amalga oshiriladi.

Jarima miqdori eng kam oylik ish haqining 7-10 barobarigacha belgilangan (ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishga o'xshash). Yuqoridagi shartlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 146^1- moddasi bilan to'ldirilgan.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta summusi har bir yo'lovchi uchun 11 ming AQSH dollari ekvivalentiga teng qilib belgilangan va undan:

10 ming AQSH dollari – yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash uchun;

1 ming AQSH dollari – yo'lovchining mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lanishi nazarda tutilgan.

Sug'urtalovchilarga qo'shimcha talablar belgilangan, jumladan sug'urtalovchi:

- tegishli litsenziyaga ega bo'lishi;
- sug'urta sherikchiligida ishtirok etishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sug'urta shartnomasi tuzishga, sug'urta tovonlari haqidagi talablarni ko'rib chiqishga hamda sug'urta tovonlarini amalga oshirishga vakolatli o'z filiallariga ega bo'lishi kerak.

Sug'urta sherikchiligida ishtirok etish bo'yicha talab majburiy sug'urta bo'yicha tavakkalchiliklarni sug'urtalovchilar o'rtasida taqsimlash va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, hamda tavakkalchiliklarni mamlakat hududida maksimal darajada ushlab qolish yo'li bilan qayta sug'urtalashga to'lanadigan chet el valyutasi chiqib ketishini kamaytirish maqsadida taklif etilgan. Sug'urta sherikchiligining ish faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17.3. O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarini takomillashtirish yo'nalishlari

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida majburiy sug'urta turlari bilan shug'ullanish uchun sug'urta kompaniyalari oldiga bir qator talablar qo'yilgan bo'lib, ushbu talablarni bajargan sug'urta tashkilotlari majburiy sug'urta bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bugungi kunda bunday talablarni bajarib majburiy sug'urta bilan shug'ullanayotgan sug'urta tashkilotlari quyidagilardir:

I. Davlat ulushi bor sug'urta kompaniyalari;

1) "O'zagrosug'urta" AJ
2) "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ
3) "O'zbekinvest" EIMSK

II. Boshqa sug'urta kompaniyalari;

4) "Alskom" AJ SK

5) "Alfa Invest" MCHJ ST

6) "Kapital sug'urta" AJ

7) "Ishonch" BSK MCHJ

8) "Asia insurance" MCHJ

9) "Gross Insurance" MCHJ

10) "Universal sug'urta" AJ kabi 10 ta sug'urta kompaniyasi O'zbekiston majburiy sug'urta bozorida faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashib ketayotgan bir paytda har bir soha va tarmoqni izchil takomillashtirib borish davr talabiga aylangan. Sug'urta sohasini ham takomillashtirish yuzasidan hukumatimiz tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan majburiy sug'urtaning yangi turlarini amaliyotga joriy etilishi bunga misol bo'la oladi.

Fikrimizcha, majburiy sug'urta turlarini takomillashtirishning ikki xil yo'nalishi mavjud:

1. Sug'urta bozoridagi mavjud majburiy sug'urta turlari bo'yicha muammo va kamchiliklarini bartaraf etish orqali ularni takomillashtirish;

2. Jahon amaliyotini o'rganib, milliy sug'urta bozoriga majburiy sug'urtaning yangi turlarini joriy etish;

Xorij tajribasini o'rganish natijasida mamlakatimiz sug'urta bozoriga majburiy sug'urtaning yangi turi hisoblangan majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish majburiy sug'urta sohasini yanada takomillashtiradi deb topdik.

Tibbiy sug'urta sug'urtaning bir turi bo'lib, unda sug'urtalanuvchi sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga, tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini, sug'urtalanuvchi va sug'urta tashkiloti o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan summa va shartlar asosida sug'urta tashkilotiga o'tkazadi.

Sug'urtalanuvchi salomatligi yomonlashgani sababli xarajat qilishga majbur bo'lganda, sug'urta tashkiloti ushbu xarajatlarni sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan pul summasi doirasida qoplab beradi.

Agar tibbiy sug'urta shartnomasi ixtiyoriy tarzda tuzilsa, u holda ixtiyoriy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Tibbiy sug'urta shartnomasi qonun asosida majburiy tarzda tuziladigan bo'lsa, ya'ni fuqarolar qonunga binoan, tibbiy sug'urta shartnomasi tuzishga majbur bo'lsalar, u holda sug'urtaning bu turi majburiy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik asosida faoliyat olib borayotgan va tijorat tashkiloti hisoblanuvchi sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunchilikka asosan, majburiy tibbiy sug'urta sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan turi hisoblangani bois, ushbu sug'urta turini amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatiga oid qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin.

Majburiy tibbiy sug‘urta ijtimoiy sug‘urta ko‘rinishida ham amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy sug‘urtaning odatdagi sug‘urtadan farq qiluvchi tomoni shundaki, ijtimoiy sug‘urtada yagona ijtimoiy sug‘urta fondi yaratiladi va bu fond asosan, sug‘urta mablag‘larini to‘plab, tijorat maqsadlarini ko‘zlamagan holda mablag‘larlarni mo‘ljaldagi maqsadlarga qayta taqsimlaydi.

Majburiy tibbiy sug‘urtani ijtimoiy sug‘urta sifatida amalga oshirganda bu sohadagi munosabatlar sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik doirasiga tushmaydi. Bu o‘z navbatida ushbu sohadagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi yangicha me’yoriy-huquqiy aktlar majmuasini ishlab chiqishni talab etadi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, majburiy tibbiy sug‘urtaning universal modeli amaliyotda yo‘q. Har bir mamlakat o‘zining sog‘liqni saqlash va sug‘urta tizimidan kelib chiqqan holda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini yaratadi.

Fikrimizcha, u yoki bu shaklda majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun amaldagi sug‘urta tizimi va mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimini tahlil etish va u yoki bu shakldagi majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish zaruriyati va uning qay darajada maqsadga muvofiq ekanini baholash lozim.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida 29 ta sug‘urta kompaniyasi, 3 ta sug‘urta brokeri va 6000 ga yaqin sug‘urta agentlari bor.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, mamlakat ijtimoiy sohasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan sog‘liqni saqlash sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. 1998 yilgacha davom etgan qator tayyorlov tadbirlaridan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilinib, unga muvofiq, «Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Konseptsiyasi» va «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi» tasdiqlandi. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimi islohotining asosiy qismi yakunlangan. Bugun respublika sog‘liqni saqlash tizimi ancha murakkab tuzilishga ega.

Sog‘liqni saqlash tizimi davlat va xususiy tibbiyot muassasalariga bo‘linadi. Xususiy tibbiyot muassasalari o‘z faoliyatini Sog‘liqni saqlash vazirligi bergan ruxsatnoma (litsenziya) asosida olib boradi. Davlat tibbiyot muassasalari respublika sog‘liqni saqlash tizimida asosiy o‘rin egallaydi. Davlat tibbiyot muassasalari uch bosqichga: respublika, viloyat va tuman (shahar, qishloq) bosqichlariga bo‘linadi.

Agar tibbiy xizmatlarni shartli ravishda uch turga: birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, ixtisoslashgan tibbiy yordam va yuqori texnologik tibbiy yordamga ajratsak, bu xildagi xizmatlar turli tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘rsatilishini ta’kidlash kerak bo‘ladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami o‘z ichiga ancha keng tarqalgan kasalliklar, jarohatlar, zaharlanish va boshqa shu kabi vaziyatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatadi, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi, o‘ta muhim kasalliklarga qarshi profilaktik tadbirlarni bajaradi, oila, onalik va bolalikni muhofaza etishga oid choralarni ko‘radi,

fuqarolarga turar-joylariga qarab tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi.

Masalan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, uning viloyatlardagi filiallari, tuman (shahar) kasalxonalarining shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari, shuningdek, qishloq vrachlik punktlari va shahardagi oilaviy poliklinikalar tomonidan ko'rsatiladi.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam profilaktika, diagnostika, davolashning maxsus usullari talab etiladigan kasalliklarda ko'rsatiladi.

Yuqori texnologik tibbiy yordam diagnostika, davolashning maxsus usullari hamda murakkab tibbiy texnologiyalar va uskunalardan foydalanishni talab qiladigan kasalliklarda ko'rsatiladi.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam respublika davolash-profilaktika muassasalari, respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, ixtisoslashgan kasalxonalar, dispanserlar, tuman (shahar) tibbiy birlashmalari kabilar tomonidan ko'rsatiladi.

Yuqori texnologik tibbiy yordam bugungi kunda respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari, viloyat ixtisoslashgan kasalxonalari, dispanserlari va yuqori texnologik uskunalardan foydalanuvchi boshqa tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladi.

Davlat sog'liqni saqlash tizimi shuningdek, SPIDga qarshi kurash respublika va viloyat markazlari, qon xizmati, viloyat qon quyish stansiyalari, respublika, viloyat va tuman (shahar) davlat sanitariya-epidemiologiya markazlari, ilmiy-tekshirish institutlari, oliy o'quv yurtlarini ham o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash tizimining murakkabligi ushbu tizim oldiga respublika fuqarolari salomatligini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qanday vazifalar qo'yilganidan kelib chiqadi. Shunisi ravshanki, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi ko'p jihatdan uni moliyalashtirish tartibiga bog'liq.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'liqni saqlash tizimini yuz foiz davlat tomonidan moliyalashtirish maqsadga muvofiq kelmaydi. Shu bois respublikada 1998 yilda boshlangan islohotlar sog'liqni saqlash tizimining byudjet, xususiy va moliyalashtirishning aralash shakli qo'llaniladigan tibbiyot muassasalaridan bir yo'la foydalaniladigan modelini yaratishni ko'zda tutadi.

Mazkur model birinchi navbatda kafolatlangan hajmdagi bepul tibbiy-sanitariya xizmati bilan ta'minlashni va shu bilan sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy bazasini aralash va xususiy xizmat shaklini rivojlantirish hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Bunda fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan bahramand bo'lish va ijtimoiy himoyaga bo'lgan konstitutsion huquqi tamoyillariga rioya etilishi hamda aholining turli xildagi, ham pullik, ham bepul tibbiy xizmatdan teng ravishda foydalana olish imkoniyatini saqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Moliyalashtirish tartibidan kelib chiqqan holda tibbiyot muassasalarini uchta guruhga bo'lish mumkin. Ya'ni: byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar, aralash shaklda moliyalashtiriladigan muassasalar va xususiy moliyalashtiriladigan muassasalar.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konseptsiyasiga muvofiq, davlat quyidagilarni o'z ichiga olgan bepul tibbiy-sanitariya xizmatlarining taqdim etilishini ta'minlaydi:

- tez, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishi;
- sog'liqni saqlashning birlamchi bosqichlarida va qator davlat, avvalo qishloq joylardagi davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi;
- aholini qator yuqumli kasalliklarga qarshi emlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklar (sil, onkologik, ruhiy, giyohvandlik, endokrinologik kasallar va kasb kasalligiga uchragan bemorlar)ga oid ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish;
- bolalarni tekshiruvdan o'tkazish va davolash (pullik kasalxonalardan tashqari);
- 15-17 yoshdagi o'smirlar va chaqiruv komissiyasi yo'llanmasi bilan kelgan chaqiruv yoshidagilar (18-27 yosh)ni tekshiruvdan o'tkazish va davolash;
- tug'ruqqa yordam xizmatlarini ko'rsatish (pullik kasalxonalardan tashqari);
- davlat davolash-profilaktika muassasalarida bemorlarning imtiyozli toifalari (nogironlar, urush faxriylari, yetimlar)ni davolash.

Tibbiy-sanitariya xizmatlarining haqiqiy kafolatlangan hajmi sog'liqni saqlash tizimining davlat muassasalari tomonidan ko'rsatiladi. Natijada sog'liqni saqlashning byudjet moliyalashtirilishi quyidagilarni ko'zda tutadi: - aholiga shoshilinch va zarur tibbiy yordam ko'rsatish, xizmat ko'rsatilayotgan hududdagi aholi jon boshiga sarflash me'yorlaridan kelib chiqqan holda immunizatsiya va yuqumli kasalliklarga qarshi emlash;

- tug'ruqqa ko'maklashish, bemorlarning imtiyozli toifalarini ambulator sharoitda tekshiruvdan o'tkazish va davolash, ijtimoiy ahamiyatga molik va atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga belgilangan me'yorlar bo'yicha davolangan bemorlarga ajratiladigan mablag'lardan kelib chiqqan holda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish;

Aralash moliyalashtirilishi quyidagilar uchun ko'zda tutilgan:

- tuman, shahar va ko'p tarmoqli davolash-profilaktika muassasalari, bepul tibbiy yordam tizimiga kirmagan ilmiy-tekshirish institutlari klinikalarida bemorlarni (imtiyozli toifalardan tashqari) tekshiruvdan o'tkazish va davolash;
- ixtisoslashgan davolash muassasalarida bemorlarning imtiyozli toifalari (nogironlar, urush faxriylari, yetimlar)ni tekshiruvdan o'tkazish va davolash;
- alohida ko'p tarmoqli bolalar kasalxonalari.

Respublikamizda davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy-sanitariya xizmatlari hajmi doirasida bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi byudjet moliyalashtirilishi hisobiga ta'minlanadi. Bu o'z navbatida mamlakatda ma'lum darajada majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish zaruriyatini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolar salomatligini muhofaza etish to'g'risidagi qonuni hamda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasiga muvofiq, davlat sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalaridan biri tibbiy sug'urtadan tushadigan mablag'lardir. Bugungi kunda respublikada majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan turli ko'rinishlari keng tadbiq etilyapti.

Masalan, "transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash", «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" hamda "tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish". Majburiy sug'urtaning bu turlari birinchi navbatda yo'l-transport hodisalari yoki xizmat vazifalarini ado etayotgan vaqtda yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalardan ijtimoiy himoyani kafolatlash va ta'minlashga qaratilgan.

Tabiiy ravishda «Majburiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish sog'liqni saqlash tizimiga nima beradi» degan savol tug'ilishi mumkin. Agar iste'molchi nuqtai nazaridan yondoshiladigan bo'lsa, bugungi kunda u birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini va ixtisoslashgan tibbiy yordamning kafolatlangan tibbiy-sanitar yordam doirasidagi ba'zi turlarini (ijtimoiy ahamiyatga molik, atrofdagilarga xavf solishi mumkin bo'lgan kasalliklar, tug'ruqqa yordam xizmatlari) bepul olishi mumkin.

Ixtisoslashgan tibbiy yordamning boshqa turlari va yuqori texnologik tibbiy yordam iste'molchi uchun pullik bo'ladi. Bundan tashqari, pullik tibbiy xizmatlar shuningdek, xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ham ko'rsatiladi.

Bayon etilganlarni hisobga olib, majburiy tibbiy sug'urtani pullik tibbiyot qismida joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu fuqarolarning tibbiy xizmatlar uchun xarajatlarini bir maromda taqsimlash va tibbiy xizmatlar uchun belgilangan hajmda haq to'lashini kafolatlaydi.

Ixtisoslashgan tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning asosiy qismi, davolangan har bir holat uchun haq to'lash usulida moliyalashtirishga bosqichma-bosqich o'tayotgani bois, moliyalashtirishning bu usuli tibbiy sug'urta mexanizmi bilan muvaffaqiyatli tarzda bog'lanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish birinchi navbatda, vakolatli davlat organi tomonidan yagona klassifikator, shuningdek, uning asosida tibbiy xizmat turlarining narxlarini shakllantirish standartlarini tatbiq qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlarning majburiy sug'urta bilan qoplanadigan hajmini belgilash kerak bo'ladi.

Ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarning odatdagi tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- bemorlarni maslahat berish uchun qabul qilish;
- laboratoriya xizmatlari;
- diagnostika xizmatlari;
- ambulator yordam;
- statsionar yordam;
- reabilitatsion yordam.

Tibbiy xizmatlarning klassifikatsiyasi va davlat sog'liqni saqlash tizimi tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning yagona narxlari belgilangandan keyin ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarning alohida fuqaro uchun yillik tarkibi hajmini aniqlash mumkin bo'ladi.

Bu o'z navbatida majburiy sug'urta bilan qoplanadigan tibbiy xizmatlar hajmini belgilashga imkon beradi. Umuman, majburiy sug'urta mexanizmini joriy qilish, fuqarolarning tibbiy xizmatlar uchun xarajatlarining davlat tomonidan belgilangan me'yorining qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Mazkur mexanizm eng kam miqdordagi pullik tibbiy xizmat hajmi hammabop bo'lishini ta'minlash imkonini yaratadi.

Majburiy tibbiy sug'urtani amalda joriy etish shuningdek, bir nechta asosiy masalalarni hal etishni taqozo qiladi. Bular:

- tibbiy sug'urtani qay shaklda joriy etgan ma'qul: ijtimoiy sug'urta shaklidami yoki tijorat sug'urtasi shaklidami;

- majburiy tibbiy sug'urta uchun to'lovlar qaysi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi;

- majburiy sug'urtaning qamrovi qanday bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, majburiy tibbiy sug'urta, ijtimoiy sug'urta yoki sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq majburiy sug'urta shaklida amalga oshirilishi mumkin. Tibbiy sug'urtaning ijtimoiy sug'urta shaklida joriy etilishi Fond tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bu fond majburiy tibbiy sug'urta mablag'larini jamlab, shu mablag'lar hisobiga sug'urtalanuvchilar (sug'urta polislari egalari)ning tibbiy xizmatlari uchun to'lovni amalga oshiradi. Tibbiy sug'urtani bu shaklda tashkil qilish qo'shimcha ma'muriy xarajatlarga olib keladi. Chunki fond respublikaning barcha viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu tuzilma faoliyati sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunga mos kelmaydi va ijtimoiy sug'urtaning ushbu turi va fond faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy-huquqiy aktlar ishlab chiqishni talab etadi.

Lekin tibbiy sug‘urtani tashkil qilishning boshqa varianti ham majud. Bu mamlakatdagi mavjud bo‘lgan va rivojlanayotgan sug‘urta tizimidan foydalangan holda majburiy sug‘urtani tashkil etishdir. Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka binoan, majburiy sug‘urtaning asosiy shartlari va uni amalga oshirish tartibi qonunga muvofiq belgilanadi.

Sug‘urtaning mazkur turi bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta tashkilotlari uchun qonunga muvofiq, majburiy tibbiy sug‘urtaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida talablar belgilanadi. Misol uchun, ma’lum darajadagi ustav kapitali, respublikaning barcha viloyatlarida alohida bo‘linmalarning mavjudligi, shtatda ma’lum bir malakaga ega bo‘lgan vrachlarning mavjudligi yoki shtatida mana shunday malakaga ega shifokori mavjud bo‘lgan assistans kompaniyalar bilan kelishuv imzolanganligi va h.k.

Majburiy sug‘urtaning mazkur turi tibbiy sug‘urtaning ijtimoiy yo‘naltirilgan ko‘rinishi bo‘lgani bois sug‘urta kompaniyalarining bugungi kunda mamlakatda amal qilayotgan boshqa majburiy sug‘urta turlariga o‘xshash ravishda xarajatlari va daromadlari me’yorlari belgilanadi. Bu variant majburiy sug‘urtani mamlakatdagi mavjud sug‘urta tizimidan foydalangan holda joriy etishga imkoniyat yaratib, yangi tizimni yaratish va uni rivojlantirish uchun qo‘shimcha xarajatlar talab etmaydi.

Bundan tashqari, tijorat tashkilotlari hisoblangan sug‘urta kompaniyalari tomonidan tibbiy sug‘urtani amalga oshirish qator o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, sug‘urtalanuvchiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar hajmi va sifatini nazorat qilishga imkon beradi. Sug‘urta kompaniyalari tijorat tashkilotlari bo‘lgani bois tibbiy sug‘urta bo‘yicha mijozni qo‘lga kiritish uchun o‘zaro raqobatlashadi.

Majburiy tibbiy sug‘urta narxlari davlat tomonidan belgilangani bois sug‘urta xizmatlari sifati sug‘urta tashkilotlari uchun yagona raqobat maydoni bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlar uchun me’yordan ortiq haq to‘lamasligi uchun sug‘urta tashkiloti o‘z mijoziga kerakli hajmda va sifatda tibbiy xizmat ko‘rsatilishidan manfaatdor bo‘ladi.

Shuningdek, majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etishda sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar manbaining belgilanishi eng muhim masala hisoblanadi. Bu holda fuqarolarning, korxonalarning daromadlari va byudjet mablag‘lari to‘lov manbalari bo‘lishi mumkin. Majburiy sug‘urta bilan qamrab olinadigan alohida toifadagi fuqarolar uchun yuqorida keltirilgan manbalardan biri yoki u yoxud bu turdagi to‘lov manbalari birgalikda to‘lov manbasi vazifasini o‘tashi mumkin.

Bugungi kunda korxonalarning mablag‘lari ixtiyoriy tibbiy sug‘urta bo‘yicha asosiy to‘lov manbai bo‘lib qolyapti. Bu to‘lovlar korxonalarning xarajatlari bo‘lib, qonunchilikda belgilangan me’yorlarda mahsulot (tovar, xizmat) tannarxini shakllantiradigan xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Majburiy to‘lovlar bo‘yicha to‘lov manbaini belgilash boshqa bir muhim masala bilan bevosita bog‘liq. Bu majburiy sug‘urta qamrovini belgilashdir. Ma’lumki, majburiy sug‘urtaning tamoyillari bu - umumiylik va majburiylikdir. Faqat majburiy sug‘urtaning ma’lum bir turida qatnashuvchilar soni ko‘p bo‘lsagina uning samaradorligi baland bo‘ladi.

Shuningdek, imtiyozli hisoblangan va davlat kafolatlagan tibbiy-sanitariya xizmatlari doirasida yordam olayotgan ba’zi toifadagi fuqarolardan tashqari, barchani qamrab olgandagina majburiy sug‘urta kutilgan samarani berishi mumkin.

Masalan, korxona va tashkilot xodimlarini ish beruvchining mablag‘lari hisobiga sug‘urtalash yoki majburiy sug‘urta uchun aralash to‘lovni qo‘llash mumkin. Bunda majburiy sug‘urta uchun to‘lovlarning bir qismi xodim hisobidan qoplanadi. Bu holda yana bir savol tug‘iladi: boshqa toifadagi fuqarolarni (masalan, ishsizlar, nafaqadagilar) qanday qilib majburiy sug‘urtaga jalb etish mumkin va ular qaysi manbalar hisobiga sug‘urta to‘lovlari to‘laydilar?

Xorijiy amaliyotda odatda mana shunday toifadagi fuqarolar uchun majburiy sug‘urta to‘lovlarini davlat yoki tegishli jamoatchilik fondlari to‘laydi. Demak, fuqarolarning yuqorida keltirilgan toifalari uchun to‘lov manbai bo‘lib bandlik fondi, nafaqa fondi va shu kabilar xizmat qilishi mumkin (ehtimol, fondlarning ushbu xarajatlari davlat byudjeti tomonidan ma’lum darajada kompensatsyalanishi mumkin).

Sog‘liqni saqlash tizimida bugungi kunda ham islohotlar jarayoni davom etayotgan ekan, majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichma-bosqich, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va isloh qilish yo‘nalishlarini hisobga olgan holda joriy etish zarur.

Xususan, majburiy tibbiy sug‘urtaning bosqichma-bosqich joriy etilishi sug‘urta qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirib borishni ko‘zda tutadi. Masalan, agar birinchi bosqichda aholining ishlayotgan qismi majburiy sug‘urta bilan qamrab olinsa, bir muncha vaqt o‘tib, mazkur mexanizm sinab ko‘rilgandan keyin ikkinchi bosqichga o‘tish va majburiy sug‘urta qamrovini yanada kengaytirish mumkin bo‘ladi. Birinchi bosqichda shuningdek, tibbiy xizmatlarga xususiy to‘lov imkoniyati saqlab qolinishi yoki majburiy sug‘urta to‘lovlari orqali haq to‘lash amalga oshirilishi lozim.

Albatta, biron-bir yangi tizimni joriy qilishdan avval uning miqdor va sifat oqibatlari baholanadi. Majburiy tibbiy sug‘urtaning joriy etilishi barcha fuqarolar yoki ish beruvchilarni har yili tibbiy sug‘urta uchun haq to‘lab borishini talab qiladi. Agar majburiy tibbiy sug‘urta uchun sug‘urta tariflari xodimning yillik ish haqi hajmi yoki korxona va tashkilotning yillik mehnatga haq to‘lash fondi hajmidan kelib chiqib belgilanadigan bo‘lsa, u holda tibbiy sug‘urta ish haqi hajmidan qat’iyy nazar, barcha fuqarolarni ma’lum hajmdagi tibbiy xizmat bilan ta’minlash imkonini beradi. Bu

holda tibbiy xizmat xarajatlari xodim yoki ish beruvchi uchun qanchalik katta ekanligini va bu xarajatlar aholi yoki korxonaning daromadi darajasiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini baholash zarur bo'ladi.

Umuman olganda, majburiy tibbiy sug'urta tizimi mamlakat iqtisodiyotidagi xarajatlar hajmini korxona, tashkilot, aholi va davlat byudjeti o'rtasida qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Shu bilan, majburiy tibbiy sug'urta tizimi davlat tomonidan muvofiqlashtirilsa ham, o'zining alohida bo'g'inlarida bozor iqtisodiyoti belgilari va raqobatni mujassamlashtiradi hamda o'z navbatida tibbiy sug'urta mablag'larining maqsadli sarflanishi va ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining oshishiga bevosita sabab bo'ladi. Bu esa mamlakat sog'liqni saqlash tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

18-MAVZU.
SUG‘URTADA RISK TRANSFORMATSIYASI

18.1. Qayta sug‘urtalash tushunchasi va uning amaliy va nazariy asoslari

Qayta sug‘urtalash yordamida sug‘urtalovchilar o‘zlarining ancha muvozanatlashgan sug‘urta portfelini shakllantirishlari mumkin. Bunday portfelning shakllanishi sug‘urta tashkilotlari uchun unchalik keng hududni qamrab olmasdan, o‘xshash sug‘urta qaltisliklari doirasida va o‘zaro ko‘p farqlanmaydigan sug‘urta pullari bilan bir turdagi obyektlar sug‘urtasi shartnomalari sonining yetarlicha ko‘p ekanligini anglatadi. Muvozanatlashgan portfelning yo‘qligi moliyaviy barqarorlik uchun asos yaratuvchi qulay mutanosiblikni jiddiy buzadi.

Qayta sug‘urtalashdan yig‘ilgan sug‘urta mukofoti qiymatidan sug‘urta badali miqdorining oshib ketishi tufayli sug‘urta operatsiyalarini o‘tkazishda sug‘urtalovchida yuzaga keladigan zarar ko‘rish qaltisliklarini kamaytiradi. Qayta sug‘urtalash sug‘urtalovchining yuqori sug‘urta pullari uchun sug‘urta shartnomalarini tuzish imkoniyati kengayishiga yordam beradi[145].

Qayta sug‘urta qilish shartnomalarining tuzilishi sug‘urtalovchilarga o‘z moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida ularning kapitali hajmi va sug‘urta operatsiyalari miqdori o‘rtasidagi munosabatni yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi. Qayta sug‘urta qilish shartnomalarini tuzish imkoniyatining mavjudligi sug‘urtalovchilarga sug‘urtaning yangi turlari bo‘yicha operatsiyalar bilan ko‘proq shug‘ullanishga yordam beradi[146].

Qayta sug‘urta qilish dastlabki shart-sharoitlarining paydo bo‘lishi sug‘urtalovchilar tomonidan avval qabul qilingan sug‘urta qaltisliklarining qayta taqsimlanishidagi zaruratga xizmat qildi. Bunday zarurat sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi va ushbu qaltisliklar muvozanatlashtirilishini ta’minlash maqsadida yuzaga kelgan.

Qayta sug‘urta qilish – bu sug‘urtaning mustaqil turi. Qayta sug‘urta qilishning maqsadi sug‘urtalovchining ehtimoliy moliyaviy yo‘qotishdan himoya qilishdan iborat. Qayta sug‘urta qilish yordamida sug‘urtalovchi o‘zining moliyaviy imkoniyatlari butun qiymatidan oshadigan qaltisliklar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalarini tuzish orqali o‘zining sug‘urta portfeli hajmini oshirishi mumkin.

Qayta sug‘urta qilishning juda ko‘p ta’riflari mavjud. Klassik ta’rifi Buyuk Britaniya qonunchiligiga 19 asrda kiritilgan bo‘lib, unda qayta sug‘urta qilish sug‘urtalovchining avval qabul qilgan qaltisliklarini xavfsizlantirishga mo‘ljallangan sug‘urtalangan qaltislikni yangitdan sug‘urtalash sifatida talqin etilgan. Eng qisqa ta’rif Germaniya Savdo ustavida quyidagicha bayon etilgan: “Qayta sug‘urta qilish – bu sug‘urtalovchi tomonidan olingan qaltislikni sug‘urtalash”.[147]

---

[145] Артамонов А. Практика непропорционального перестрахования. М.: Издательский дом «Страховое ревю», 2001.172 с.

[146] Ахвледиани Ю.Т. Страхование. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. 543 с.

[147] Пфайффер К. Введение в перестрахование М.: «Анкил», 2000. 155 с.

Qayta sug‘urta qilishning ushbu va boshqa ta’riflari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- qayta sug‘urta qilish – bu haqiqiy sug‘urta;
- sug‘urtalovchi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi bo‘yicha olingan qaltislik asl qaltislik deyiladi va qayta sug‘urta qilish shartnomasining asosiy obyekti hisoblanadi;
- qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha ikkinchi tomon faqat sug‘urtalovchi bo‘lishi mumkin. Sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida qonuniy munosabat yuzaga kelmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 959-moddasiga (“Qayta sug‘urta qilish”) muvofiq, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lash xavfi uning tomonidan to‘liq yoki qisman boshqa sug‘urtalovchida (sug‘urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanishi mumkin[148]. Biroq, qayd etish kerakki, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha qaltislik va sug‘urta tovonini to‘lash qaltisligi yoki sug‘urta puli – bu turli qaltisliklar bo‘lib, ulardan birinchisi sug‘urtalanuvchining qaltisligi, ikkinchisi esa sug‘urtalovchining qaltisligi hisoblanadi.

Qayta sug‘urta qilishning asosiy ishitrokchilari:

- sug‘urta kompaniyasi;
- professional qayta sug‘urtalovchi;
- qayta sug‘urta qilish bilan shug‘ullanuvchi birlamchi sug‘urtalovchi;
- qayta sug‘urta qilish brokeri;
- qayta sug‘urta qilish puli[149].

Qayta sug‘urta qilish himoyasiga ehtiyoji bor kompaniyalar orasida birinchi o‘rinda oddiy sug‘urta kompaniyasi turadi. Sug‘urtalashga tavakkalchilikni qabul qilgan va qayta sug‘urtalashga bergan sug‘urtalovchi “sedent” deb ataladi.

Qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha “sessioner” deb ataluvchi professional qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urta qilish himoyasini taqdim etishi mumkin. Professional qayta sug‘urtalovchi – bu faqat qayta sug‘urta qilish bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta uyushmasi. Bunday uyushma to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalarini tuzmaydi va sug‘urtalanuvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘lmaydi. Hozirgi paytda dunyoda 200 atrofidagi professional qayta sug‘urtalovchilar uyushmalari faoliyat yuritadi. Ammo qayta sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlarni birlamchi sug‘urta qiluvchilar ko‘rsatishadi[150].

Qayta sug‘urta qiluvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

- halokatli qaltislik qabul qilinib, sug‘urta hodisasi yuz berganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchining to‘lashga qodir bo‘lmay qolish ehtimolini kamaytiradi;
- texnik qaltislik, yetarlicha baho berilmagan qaltislik, anderraytingning o‘z qaltisligi va turli xatoliklar (inson omili) qaltisliklarining bir qismi olinib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchining buxgalteriya balansini muvozanatlashtiradi;

---

[148] O‘zbekiston Republikasi Fuqarolik Kodeksi, 52-bob. Sug‘urta Xalq so‘zi, 2015-yil.
[149] Абрамов В.Ю. Страхование: теория и практика, М.: Волтерс Клувер, 2007. 512 с.
[150] Сахирова Н.П. Страхование. М.: Проспект, 2006. 740 с.

• katta sug‘urta puliga ega polislar yoki qaltislikning yuqori darajada zararlanishi qayta sug‘urta qilish bilan qoplanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchining sug‘urta portfeli muvozanatini yaxshilaydi;

• qaltislikning mutanosib qismini o‘ziga olib, shuningdek, kerakli zaxiralar qismini taqdim etib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchining yirik qaltisliklarni qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi;

• to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchi tomonidan qaltisliklarni ta’minlashga yo‘naltirilgan kapitalni erkinlashtirib, uning samarali idora qilishi mumkin bo‘lgan kapitali hajmini oshiradi;

Quyida keltirilgan turli xizmatlarni taqdim etish yo‘li bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchining operatsiyalari samaradorligini oshiradi:

- butun dunyo bo‘yicha anderrayting ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va taqdim etish;
- o‘ziga xos, ayrim (noodatiy yoki maxsus qayta sug‘urta qilish) qaltisliklarni baholash va tahlil qilish;
- zararlar haqida ogohlantirish yuzasidan konsultatsiya taqdim etish;
- da’volarni boshqarishda amaliy yordam ko‘rsatish;
- aktuar hisoblarni bajarish;
- sedent xodimlari treningi va o‘qishi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchilarga ularning kapitalini investitsiyalashda, boshqaruv xodimlarni yig‘ishda, hamkorlar (masalan, sug‘urtalash bo‘yicha) izlashda, tashkilotlarning birlashishi, bitim tuzishida va shu kabilarda yordam beradi[151].

Inobatga olish kerakki, qayta sug‘urtalovchilar sug‘urtalovchilar kabi o‘zlari qabul qilgan majburiyatlarni qayta sug‘urtalashlari mumkin. Bunday holatda tuzilgan shartnoma – “retrotsessiya shartnomasi”, majburiyatlarni keyinchalik qayta sug‘urta qilishga beruvchi shaxs – “retrotsedent”, bunday majburiyatlarni o‘ziga qabul qilib oluvchi shaxs – “retrotsessioner” deb ataladi.

Retrotsessiya shartnomasi tuzilishining maqsadi – qayta sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida uning majburiyatlarini muvozanatlashtirish va qaltisliklarni qayta taqsimlashdir.

Shunday qilib, retrotsessiya – bu uchinchi sug‘urtalovchiga o‘z majburiyatlarining bir qismini berish yo‘li bilan qayta sug‘urtalovchi uchun o‘z qaltisliklarini chegaralash va shu tarzda o‘z portfelini muvozanatlashtirish imkonini beruvchi vositadir.

Qayta sug‘urta qilish brokeri sug‘urtadagi broker kabi qayta sug‘urta qilish amaliyoti va qonunchiligi sohasida ekspert hisoblanadi. U qayta sug‘urtalovchining agenti hisoblanadi va sug‘urtalanuvchilar oldida yuridik javobgarlikni olmaydi[152].

Qayta sug‘urta qilish puli – sug‘urtaning barcha portfeli, sug‘urtaning alohida turlari yoki yadroviy reaktor, atom elektrostansiyasi, aviatsiya, farmatsevtika kabi falokatli xarakterga ega alohida xavfli qaltisliklar va boshqa qaltisliklar sug‘urtasi bo‘yicha summaning o‘ziga tegishli qismini ushlab qolishdan yuqori qayta sug‘urta qilishga tegishli barcha qaltisliklarni pulga taqdim etuvchi, sug‘urta kompaniyalarning ixtiyoriy birlashmasi. Pul shaklidagi qayta sug‘urtalashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta

---

[151]Алиев Б.Х., Махдиева Ю.М.Страхование Учебник. М.: ЮНИТИ, 2011. 415 с.

[152]Страхование: Учебник / Под ред. Т.А.Федоровой. 2-е изд., - М.:Экономист, 2006. 875 с.

shartnomalari avval uning alohida ishtirokchilari tomonidan imzolanadi, keyin pulga to‘liq taqdim etiladi.

O‘z ulushini olgan pulning har bir a’zosi nafaqat uning o‘zi qabul qilgan yoki pulga bergan qaltisliklarda, balki shu bilan birga boshqa ishtirokchilar tomonidan pulga kiritilgan boshqa barcha qaltisliklarda ham ishtirok etadi. Pul tomonidan umumiy hisobda imzolangan qayta sug‘urta qilish shartnomalari hajmi oshishi mumkin bo‘lgan qaltisliklardan uning xalos bo‘lishiga yordam beradi.

Qayta sug‘urta qilishda sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalovchilar bilan o‘zaro munosabatlaridan qat’iyy nazar sug‘urta shartnomasi bo‘yicha barcha majburiyatlarni bajarishi lozim bo‘lgan faqat bitta sug‘urta tashkiloti bilan munosabatda bo‘ladi. O‘z navbatida qayta sug‘urtalovchilar sug‘urtalanuvchilar oldida hech qanday majburiyatlarga rasman ega emaslar, faqat sedent da’volari bo‘yicha javob beradi.

Qayta sug‘urta qilishning mohiyati sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida ikki yoki undan ortiq tashkilotlar o‘rtasida sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi tomonidan zararni qoplab berish bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni qayta taqsimlashdan iborat.[153]

Qayta sug‘urta qilish sug‘urtalashdan farqli ravishda ko‘pgina davlatlarda yozib qo‘yilgan qonun hujjatlari doirasidan tashqarida amalga oshiriladi. Arbitraj amaliyoti qayta sug‘urta qilish sohasida o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega emas. Qayta sug‘urta qilish shartnomasining o‘zi qayta sug‘urta qilishni tartibga soluvchi asosiy huquqiy manba hisoblanadi.

Qayta sug‘urta qilish shartnomasi – bu ikki tomon – sedent (qayta sug‘urtalovchi) va sessioner (qayta sug‘urtalanuvchi)lar o‘rtasidagidagi bitim.

Qayta sug‘urta qilish shartnomasi kim bilan va qanday mablag‘ga tuzilganidan qat’iyy nazar asl qaltislik bo‘yicha sug‘urtalanuvchi oldida barcha javobgarlikni uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalovchisi o‘z zimmasiga oladi.

Qayta sug‘urta qilish shartnomalarining mazmuni va ularning shakllarini belgilovchi qoidalarni bir xillashtirish bo‘yicha bir necha marta sa’y-harakatlar bo‘lgan. Ammo xalqaro sug‘urta bozorining tez o‘zgaruvchi talablari bilan yonma-yon qayta sug‘urta qilish shartnomasi amaliyotining doimiy rivojlanishi sababli ushbu sa’y-harakatlar qabul qilinmagan.

Qayta sug‘urta qilishda asosiy yuridik jihatlar quyidagilar:

- qayta sug‘urta qilishda tanlanadigan yurisdiksiya;
- shartnoma tuzish;
- qayta sug‘urta qilish shartnomalaridagi qo‘shimcha shartlar.

Qayta sug‘urta qilish shartnomasi uchun tanlangan yurisdiksiya ushbu kelishuvga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalangan yoki ko‘zda tutilgan yurisdiksiya to‘g‘risidagi qo‘shimcha shartlarda ifodalanadi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ba’zi davlatlarda da’vo va sud joylashgan joyining bevosita bog‘liqligi mavjud bo‘lgandagina sudlar ishlarni qabul qiladi.

Hozirgi kunda ko‘pchilik qayta sug‘urta qilish uyushmalari shartnomalarni tuzish va boshqarish uchun maxsus hududiy bo‘linmalariga ega. Agar qayta sug‘urtalovchi qaltislikni qayta sug‘urta qilishga rozi bo‘lsa, bunday holda u slipda o‘z ulushi yoki javobgarligining summasini, sanani ko‘rsatadi va uni imzolaydi. Slip

---

[153]Грищенко Н.Б. Основы страховой деятельности: Учеб.пособие. М.: Финансы и статистика, 2006. 360 с.

hujjat sifatida yuridik kuchga ega bo'lmaydi, ammo kelgusida qayta sug'urta qilish shartnomasini rasmiylashtirishda bitimni tuzish vaqti dalili bo'lib xizmat qiladi.

Qoidaga ko'ra, qayta sug'urta qilish shartnomalari 1 yanvardan boshlab kuchga kiradi. Shartnomaga keyinchalik kiritiladigan o'zgartirishlar ilovalarda yoki bir-biriga xat yozish orqali kelishiladi.

Qayta sug'urta qilishda standartdagi shartnomalar mavjud emas, ammo ularni tuzish va bahsli masalalarni boshqarishda xalqaro qayta sug'urta qilish biznesida yuz yildan ortiq vaqt davomida qabul qilinib kelinayotgan, ishda qo'llaniladigan urf-odatlardan foydalaniladi[154].

Qayta sug'urta qilish ishtirokchilari yuzaga keladigan ziddiyatlarni sug'urtada qabul qilingan mavjud amaliyot va qoidalardan kelib chiqib sud tartibidan tashqarida hal etishni ma'qul ko'rishadi. Bunday qoidalarning ko'pi barcha qayta sug'urta qilish shartnomalariga deyarli kichkina amaliy o'zgartirishlar bo'lib kiritilgan standart qo'shimcha shartlarda asta-sekinlik bilan shakllanib borgan.

Eng ko'p tarqalgan qo'shimcha shartlar quyidagilar hisoblanadi: sessionerning sedent harakatlari va qarorlariga rioya qilish majburiyatlari haqida hamda sedent faoliyatidagi ishtiroki haqida; kamchilik va xatolar haqida; tekshirish huquqi haqida; zararlarni boshqarishdagi yordam haqida; zararlarni birgalikda boshqarish haqida; arbitraj qo'shimcha shartlar.[155]

Sessionerning sedent harakatlari va qarorlariga rioya qilish majburiyatlari haqida va sedent faoliyatidagi ishtiroki haqidagi qo'shimcha shartlar shundan iboratki, agar vaziyat sug'urtalovchining aybli xatti-harakati bilan yuzaga kelmagan bo'lsa, qayta sug'urtalovchi ushbu tashqi holat bo'yicha zarar ko'radi.

Sedent harakatlari va qarorlariga rioya qilish majburiyati sug'urtalovchining tijoriy faoliyatida qayta sug'urtalovchining ham ishtirok etishini anglatmaydi. Hatto qayta sug'urtalovchi asl mukofotni olib, keyin bankning bankrot bo'lishi oqibatida, sug'urta agentlari tomonidan uni o'zlashtirilishi sababli uni yo'qotganda va shu kabilar bo'lganda ham sessionerda har doim mukofotga egalik huquqi bo'ladi.

Faoliyatda ishtirok etish haqidagi qo'shimcha shart – bu sug'urtalovchi va qayta sug'uralovchi o'rtasida asl qaltislikning bo'linishi haqidagi qo'shimcha shart. Ushbu qo'shimcha shart qayta sug'urtalovchini uning javobgarligi hajmidan ko'p bo'lgan badalni to'lashi yoki majburiyat qabul qilishi yoki qaltislikning qayta sug'urtalangan toifasiga kirmaydigan sug'urta shartnomasi bo'yicha zararlarni kompensatsiya qilishini nazarda tutmaydi.

Kamchilik va xatolar haqidagi qo'shimcha shart shuni nazarda tutadiki, qasddan qilinmagan xato va kamchiliklar sedentni qayta sug'urta qilishni qoplash huquqidan mahrum qilmaydi. Shunga qaramay, sug'urtalovchi aniqlangan har qanday kamchilik haqida qayta sug'urtalovchini zudlik bilan xabardor etishi lozim.

Tekshirish uchun huquq haqidagi qo'shimcha shartga muvofiq qayta sug'urtalovchi sedentning qayta sug'urta qilish shartnomasiga doir hujjatlarini tekshirish huquqiga ega. Birinchidan, qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalangan qaltisliklar va ko'riladigan zararlar to'g'risida hech qachon aniq ma'lumotni olmaydi.

---

[154] Журавлев Ю. Страхование и перестрахование (теория и практика) М.: Анкил, 1993. 184 с.

[155] Измайлов В.Г. Метод создания оптимальной перестраховочной программы. // Страховое дело №5. 2002.

Ikkinchidan, qayta sug‘urta qilish shartnomalari tuzilayotgan ko‘p hollarda sessioner o‘z hamkorining ishonchliligi haqidagi ma’lumotni oldindan ololmaydi.

Zararlarni boshqarishda yordam berish haqidagi qo‘shimcha shart shuni ko‘zda tutadiki, javobgarlik va zararning miqdori haqidagi masalani hal etish maqsadida qayta sug‘urtalovchini xabardor etish uchun sug‘urtalovchi e’lon qilingan zararlar to‘g‘risida qayta sug‘urtalovchiga barcha qo‘shimchalar ma’lumotlar bilan taqdim etishi lozim.

Amalda barcha shartnomalarda kelishmovchiliklar kelib chiqqanda yagona va vakolatga ega bosqich sud emas, balki ijtimoiy arbitraj komissiyasi bo‘lishi nazarda tutilgan qo‘shimcha shart mavjud[156].

Quyidagilar qayta sug‘urta qilish shartnomasi ishtirokchilari hisoblanishadi:

1. №1 sug‘urtalovchi ikkita iqtisodiy vazifani bajaradi va ularning har biri bo‘yicha maxsus nom oladi. Sug‘urtalovchidan qaltislikni (boshqa sug‘urtalovchilar o‘rtasida uni joylashtirish maqsadida) qabul qiluvchi iqtisodiy subyekt sifatida qayta sug‘urtalovchi deb nomlanadi. Boshqa sug‘urtalovchiga (№2) qaltislikni (qisman yoki to‘liq) beruvchi subyekt sifatida №1sug‘urtalovchi sedent deb nomlanadi.

2. №2 sug‘urtalovchi ham ikkita rolni o‘ynashi mumkin. №1 sug‘urtalovchi - sedentdan qaltislikni (qisman yoki to‘liq) qabul qiluvchi shaxs sifatida №2 sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalovchi – sessioner deb nomlanadi, qaltislikni №3 sug‘urtalovchiga beruvchi shaxs sifatida u retrotsedentga aylanadi. Aniqroq tasavvur qilish uchun tushunchalar o‘zaro bog‘liqligi ifoda etilgan chizmani taqdim etamiz (18.1-rasm).

Faoliyat jarayonida sug‘urta kompaniyasi o‘z moliyaviy imkoniyatlarini oshirib yuboradigan zararlar uchun javobgar bo‘ladigandek tuyulishi mumkin. Qayta sug‘urta qilishsiz yirik qaltisliklarni ma’lum ulushlarda bir nechta sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida joylashtirishga, ya’ni birgalikda sug‘urta bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri kelgan bo‘lar edi. Shunday qilib, qayta sug‘urta qilish himoyasi sug‘urtalovchilar hajmini oshirish vositasi, ya’ni o‘ziga yirik qaltisliklarni qabul qilish imkoniyati hisoblanadi.



18.1-rasm. **Sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilishning o‘zaro bog‘liqligi**[157]

[156]Ивасюк В.В. Перестрахование в России: проблема терминологии // Атлас страхования. 2010, № 4.
[157] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

Iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar, keskin o‘zgarishlar, falokatlar va boshqa shu kabilar tufayli sug‘urtalovchining ziyon ko‘rishligi sezilarli darajada farqlanishi mumkin bo‘lgan tarixdagi davrlar kabi kompaniya moliyaviy natijalarining keskin o‘zgarishidan qochishga intiladi.

Qayta sug‘urta qilish yirik zararlarni yuzaga keltiruvchi, kutilmaganda yuz berishi mumkin bo‘lgan yirik falokatli yoki vaqt o‘tishi bilan oshib boruvchi (kumulyativ) qaltisliklarni qoplash uchun foydalanilgan bo‘lishi mumkin.

Agar qayta sug‘urta qilingan bo‘lsa, sedentning ushlab qoladigan o‘ziga tegishli qismi me’yoridan oshadigan to‘lovini qayta sug‘urtalovchi ta’minlaydi va sug‘urta badali uchun to‘lanadigan summaning og‘irligi bitta sug‘urta kompaniyasi zimmasiga tushmaydi.

Shu tarzda qayta sug‘urta qilish juda katta zararlarda moliyaviy himoyani taqdim etadi, buning natijasida kompaniyaning moliyaviy samaradorligini muvozanatlashtirishga yordam beradi.

Kompaniyaning maqsadli pul fondlariga kelib tushadigan sug‘urta mukofotlari tugallanmagan shartnomalarga tegishli bo‘lib, sug‘urtalovchining o‘ziga qarashli mulki hisoblanmaydi. Sug‘urtalovchi javobgarligining o‘lchamini ifodalaydi, ya’ni ishlab topilmagan mukofot hisoblanib, maxsus zaxiraning (ishlab topilmagan zaxira mukofoti – (RNP) jamlanishiga yo‘naltirishi lozim. Shunday qilib, ishlab topilmagan zaxira mukofoti sug‘urta himoyasi hali tugamagan davrda oldindan mukofotning to‘lanishi daligini ifodalaydi.

Qayta sug‘urta qilishdan ushbu zaxira hajmini kamaytirish uchun foydalanish mumkin. Chunki ba’zi, ayniqsa yangi yo‘nalishlar bo‘yicha qaltisliklarni qabul qilish imkoniyati yana paydo bo‘layotgan sug‘urtalovchilar uchun ishlab topilmagan zaxira mukofoti hajmlari bo‘yicha talablar chegaralanishi mumkin. Qayta sug‘urta qilish sug‘urtalovchiga yangi yo‘nalishlarni rivojlantirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish imkonini beruvchi ishlab topilmagan zaxira mukofoti talab darajasini kamaytiradi.[158]

Yuqoridagilarni inobatga olib, biz qayta sug‘urta qilishga quyidagi ta’rifni keltirishimiz mumkin: qayta sug‘urta qilish – bu bir sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan boshqa sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi)ning sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha ma’lum shartlar asosida qaltisliklarni o‘ziga qabul qilishi. Shunday qilib, qayta sug‘urta qilish – bu sug‘urtalovchi o‘ziga tegishli sug‘urta operatsiyalari rentabelligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida sug‘urtalanuvchi bilan shartnoma tuzayotib, o‘zi qabul qilgan qaltisliklarning bir qismini kelishilgan shartlar asosida boshqa sug‘urtalovchilarga berishiga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

18.2. qayta sug‘urta qilishning asosiy turlari va ularning qo‘llanishining o‘ziga xosliklari

Qayta sug‘urta qilish sug‘urtalovchi, shuningdek, butun sug‘urta bozori moliyaviy holatini mustahkamlash bo‘yicha sug‘urta mexanizmining asosiy

[158] Ежова А.Ю. Непропорциональное перестрахование: особенности учета операций перестрахователем // Налогообложение, учет и отчетность в страховой компании. 2009, № 5.

vositalaridan biri hisoblanadi. Qayta sug'urta qilish munosabatlari faqat sug'urtalovchilar o'rtasida yuzaga keladi va boshqa sug'urtalovchiga sug'urta majburiyatlarining ortiqcha qismini berish yo'li bilan sug'urta majburiyatlari uning imkoniyatlarini oshirgan sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi.

Aslini olganda, sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchilar tomonidan qabul qilingan qaltisliklarning qayta taqsimlanishi bevosita qayta sug'urta qilish munosabatlarini keltirib chiqaradi.

18.1-jadval

Qayta sug'urta qilishning shakl va turlari[159]

Qayta sug'urta qilish tashkilotining shakli							
Majburiy emas			Majburiy				
Muta-nosib	Mutanosib emas		Mutanosib			Mutanosib emas	
	Excess Ofloss	Stoploss	Quota Share	Surplus	Facultative obligatory	Excesso floss	Stoploss

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari qayta sug'urtalovchilarning shartnomada qo'shgan hissasi, mukofot stavkalari, qayta sug'urtalovchining o'zida ushlab qolishi, komission chegirmalar, qarorlarni qabul qilishda tomonlarning erkinligi va shu kabilar bo'yicha farqlanib, har bir aniq hodisada o'ziga xos xususiyatga ega. Xalqaro bozorda qayta sug'urta qilish 18.1-jadvalda ko'rsatilganidek turli shakl va turlarda amalga oshiriladi.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari tomonlari (sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi) qaltisliklarni qayta sug'urta qilishga berish va o'zaro huquqiy munosabatlarni rasmiylashtirish shakli bo'yicha quyidagilarga ajratiladi:

- fakultativ (ixtiyoriy);
- obligator (majburiy);
- fakultativ-obligator, (ixtiyoriy-majburiy).

Qayta sug'urta qilishning majburiy bo'lmagan shakllarini mohiyati shundan iboratki, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini tuzayotganda har safar uni qayta sug'urta qilish yoki qilmaslik, sug'urta qilingan majburiyatning qaysi qismi uchun javobgarlikni olishi, qayta sug'urta qilish shartnomasini kim bilan va qanday shartlarda tuzish haqida qaror qabul qiladi.

Qayta sug'urtalovchilar ham o'z tomonlaridan shartnomani tuzishga rozi bo'lishlari yoki rad etishlari, qayta sug'urta qilishda o'zlarining shartlari asosida qaltisliklarni qabul qilishni talab qilish huquqiga ega.

18.2-rasmda usullar (shakllar), guruhlar va turlari bo'yicha qayta sug'urta qilish tasnifi berilgan.

[159] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.



18.2-rasm. **Qayta sug‘urta qilish tasnifi**[160]

Hozirgi vaqtda sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlarda qayta sug‘urta qilishning yetakchi shakli hisoblangan obligator (kelishilgan) qayta sug‘urta qilishning mohiyati shundan iboratki, tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasining shartlariga mos keladigan ushbu barcha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha qayta sug‘urtalanuvchi o‘zining majburiyatlarini oldindan kelishilgan hajmda qayta sug‘urtalovchiga berishga majbur.

Boshqa tomondan, qayta sug‘urtalovchi tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi shartlariga mos keluvchi qayta sug‘urtaga olish uchun unga taklif etilgan sedentning barcha majburiyatlarini qabul qilish majburiyati oladi. Shunday qilib, fakultativ qayta sug‘urta qilishdan farqli ravishda qayta sug‘urtalanuvchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida kelishilgan munosabatlar majburiy xarakterga ega.

Qayta sug‘urta qilishning fakultativ-obligator shakli qayta sug‘urtalanuvchiga uning qaysi va qanday hajmdagi qaltisliklarni qayta sug‘urtalovchiga berish bo‘yicha erkin qaror qabul qilishini ta’minlaydi. O‘z navbatida oldindan kelishib olingan shartlar bo‘yicha taklif etiladigan qaltisliklar yoki ularning ulushini qayta sug‘urtalovchi qabul qilishga majbur.

Boshqacha aytganda, ushbu holatda fakultativlik qayta sug‘urtalanuvchi uchun taklif etiladi, obligator qismi esa qayta sug‘urtalovchiga tegishli bo‘ladi. Qayta sug‘urtalanuvchi sug‘urta portfelidagi qaltisliklarni seleksiyalash orqali ancha xavfsiz qayta sug‘urta qilishga berishi mumkin bo‘lishi uchun shartnoma foydasiz va xavfli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday shartnomalar faqat qayta sug‘urtalovchilarning butunlay ishonchiga kirgan sug‘urtalanuvchilar bilan tuziladi.[161]

---

[160] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

[161] Артамонов А. Практика непропорционального перестрахования. М.: Страховое ревю, 2001. 172 с.

Mutanosib qayta sug‘urta qilishning eng sodda turi – kvotali yoki ishchi shartnoma. Uning shartlariga muvofiq qayta sug‘urtalanuvchi sug‘urtaning ma’lum turi yoki qayta sug‘urtalashning bir-biriga yaqin guruhi bo‘yicha sug‘urtaga qabul qilingan qaltisliklarning barchasini qayta sug‘urtalovchi bilan kelishgan ulushda uning shartlariga ko‘ra qayta sug‘urtaga beradi.

Qayta sug‘urtalovchiga ushbu taqsimlangan ulushda unga belgilangan sug‘urta mukofoti (sug‘urta badali) beriladi, qayta sug‘urtalovchi esa sug‘urta hodisasi yuz berganda qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘langan sug‘urta zararlarini ushbu taqsimlangan ulushda unga to‘lab beradi boshqacha aytganda, kvotali shartnomada sessionar ma’lum ulushda sedent zararini butunlay taqsimlaydi.

Ekssedent shartnomasi bo‘yicha qayta sug‘urta qilish mexanizmida “o‘ziga tegishli qismini ushlab qolish” deb nomlanadigan omil aniqlashtiruvchi omil hisoblanadi. U sug‘urtalangan qaltisliklarning faqat ma’lum bir qismi (limiti) uchun qayta sug‘urtalanuvchi o‘zining javobgarligini qoldiradigan, qolganini esa qayta sug‘urtalovchiga beradigan sug‘urta pulining ma’lum darajasini o‘zida ushlab qolishni ifodalaydi.

Yuz berishi mumkin bo‘lgan zararni qoplashda sug‘urtalovchining maksimum ishtiroki “ekssedent” deb nomalanadi. Qayta sug‘urtalanuvchi uchun manfaatli bo‘lgani sababli ekssedent qayta sug‘urta qilish shartnomalari amaliyotda kvotali qayta sug‘urta qilishga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi.

Kvotali-ekssedent qayta sug‘urta qilish shartnomasi sanab o‘tilgan ikkita turning bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanishini ifodalaydi. Sug‘urtaning ushbu turi portfeli kvotali qayta sug‘urtalanadi, o‘rnatilgan kvotalar (normalar)dan yuqori qaltisliklarni sug‘urtalash summasi esa o‘z navbatida ekssedent shartnomasi tartiblari asosida qayta sug‘urta qilinadi.[162]

Nomutanosib qayta sug‘urta qilishda sug‘urta pullari, sug‘urta badallari va sug‘urta to‘lovlari mutanosib qayta sug‘urta qilishdan farqli ravishda sedent va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida o‘zaro nomutanosib taqsimlanadi. Bunday qayta sug‘urta qilish sug‘urta to‘lovlari miqdorining shartnoma ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishi asosida amalga oshiriladi va ulardan har biriga to‘g‘ri keladigan qiymatni chegaralaydi. Shu bilan birga, agar sug‘urta puli hajmi kelishib olingan me’yordan (sug‘urtalovchining ustunligi) oshsagina, ushbu holatda qayta sug‘urtalovchining sug‘urta pulini amalga oshirish majburiyati yuzaga keladi.

Nomutanosib sug‘urta shartnomalari turlari quyidagilar: zararlar oshib ketishini qayta sug‘urta qilish (zarar ekssedenti); ma’lum turdagi qaltisliklar (zarar keltirish ekssedenti) bo‘yicha zarar ko‘rishning oshib ketishini qayta sug‘urta qilish. Zarar ekssedenti shartnomasi nomutanosib qayta sug‘urta qilishni qoplashning keng

[162] Ахвледиани Ю.Т. Страхование. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - 543 с.

tarqalgan shakli hisoblanib, yirik (halokatli) zararlardan sug'urta tashkilotlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Uning shartlariga ko'ra, sug'urtalangan qaltislik bo'yicha zararning yakuniy qiymati sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta pulidan oshsagina, qayta sug'urta qilish kuchga kiradi. Bu holatda qayta sug'urtalovchining ushbu summadan yuqori javobgarligi ham ma'lum limit bilan chegaralanadi.

Zarar keltirish ekssedenti shartnomasi yoki stop lose (stoploss) foiz yoki qiymat shartnomada kelishilganidan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasining zarar ko'rishini himoya qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Odatda qayta sug'urtalanuvchi uning javobgarligidagi moliyaviy manfaatdorlikni yo'qotmasligi hisobga olinib, amal qilinadigan shartnomadan yuqori zarar belgilanadi, ya'ni shartnomaning maqsadi qayta sug'urtalanuvchining foydasini kafolatlash emas, uni faqat qo'shimcha yoki favquloddagi yo'qotishlardan himoya qilish hasoblanadi. Zarar keltirish ekssedenti shartnomasi bo'yicha qayta sug'urtalovchi javobgarligining limitlari zarar ko'rishning ma'lum foizlari doirasida belgilanadi.

Qayta sug'urta qilishning quyidagi ikkita asosiy shakli mavjud: fakultativ va obligator va ikki aralash: fakultativ-obligator va obligator-fakultativ.[163]

Fakultativ qayta sug'urta qilish – bu qayta sug'urta qilishning eng boshlang'ich shakli. Qayta sug'urta qilishga qaltisliklarni qabul qilishning ixtiyoriylik xususiyati buning uchun xarakterli hisoblanadi. Fakultativ qayta sug'urta qilishda qayta sug'urtalanuvchi qayta sug'urtalovchiga har bir aniq qaltislikni alohida taqdim etadi.

Bu taklif qaltislik haqida eng muhim ma'lumotlarni (sug'urtalanuvchi, sug'urta obyekti, shartnomaning amal qilish muddati, sug'urta qaltisliklari, sug'urta puli va mukofoti, qayta sug'urtalanuvchining o'zi ushlab qoladigan ulushi, qayta sug'urta qilishda taklif etiladigan qaltislikning ulushi) o'zida aks ettiradigan, qayta sug'urta qilishning slip shaklida rasmiylashtiriladi.

Fakultativ sug'urta sug'urtaning asl shartnomasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, shuning uchun sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasidagi barcha hisoblar to'lov shartlaridan mustaqil sug'urta shartnomasida kelishilgan tarzda amalga oshiriladi.

Obligator qayta sug'urta qilish shartlariga ko'ra, sedent shartnomada tafsilotlari keltirilgan barcha qaltisliklarni qayta sug'urta qilishga berishi lozim, qayta sug'urtalovchi esa bunday qaltisliklarni qabul qilishga majbur.

Sug'urtaning ma'lum turlari yoki barcha sug'urta portfeli bo'yicha qayta sug'urta qilish himoyasini avtomatik ravishda olish imkonini berishi bilan qayta sug'urta qilishning ushbu turi sug'urtalovchi uchun ko'proq foydalidir.

Qayta sug'urtalovchi mukofot-zararlar borderosi asosida har chorakda bir marta u tomonidan qayta sug'urtalangan qaltisliklar haqida ma'lumot olib turadi. Mukofot-

[163] Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2000. P. 416.

zararlar borderosi qayta sug‘urta qilishga beriladigan qaltisliklar va ushbu qaltisliklar zararlari bo‘yicha to‘lovlar ro‘yxati aks etgan sug‘urtalovchining sug‘urta portfelidan ko‘chirma taqdim etishi bilan ahamiyatlidir. Fakultativ-obligator qayta sug‘urta qilishda sug‘urtalovchi qayta sug‘urta qilishga qaltisliklarning hammasini emas, faqat uning ma’lum turlarini berish huquqiga ega, qayta sug‘urtalovchi esa ularni qabul qilishga majbur[164].

Obligator-fakultativ qayta sug‘urta qilishda qaltislikni berish majburiyati qayta sug‘urtalovchi uchun mo‘ljallanadi, shartnomaning fakultativ qismi esa qayta sug‘urtalovchiga tegishli bo‘ladi. Hamkorlarning faqat ma’lum munosabatlaridagina bunday shartnomani tuzish imkoniyati bor.

Retrotsessiyaga ehtiyoji bor qayta sug‘urtalovchilar o‘zlari qayta sug‘urta qilish yoki retrotsessiya shartnomalarini tuzgan hamkorlari bilan birinchi navbatda muloqotga kirishadilar. Qayta sug‘urta qilish yoki retrotsessiya shartnomasi – bu o‘zaro ishonch asosidagi shartnoma hisoblanadi. Unga muvofiq, qayta sug‘urtalovchi sedent bilan qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzganidan keyin o‘z navbatida undan qayta sug‘urta qilishga olingan qaltisliklarni ayirboshlash uchun qaltisliklarning bir qismini sedentga qayta sug‘urta qilishga beradi.

Qayta sug‘urta qilish fakultativ shakllarining ustunliklari quyidagilar:

Qayta sug‘urtalovchi uchun: qayta sug‘urta qilish uchun olinayotgan obyekt va sug‘urta bozori darajasi haqida to‘liq ma’lumot olish, shartnomaning har bir shartiga qo‘shimcha yoki o‘zgartirish kiritish imkoniyatini beradi.

Sedent uchun: muvozanatlashgan sug‘urta portfelini shakllantirish va o‘z moliyaviy barqarorligini ta’minlash (masalan, agar sug‘urtalovchi juda yuqori qiymatdagi obyektni sug‘urtaga qabul qilayotganda) uchun haqiqatda zarur bo‘lganda qayta sug‘urta qilishga tayanish imkoniyati.

Qayta sug‘urta qilish fakultativ shakllarining kamchiliklari quyidagilar: qayta sug‘urtalovchi uchun barqaror sug‘urta portfelini shakllantirishning qiyinligi.

Sedent uchun: qayta sug‘urtalovchilarning qayta sug‘urta qilishni rad etishlari mumkinligi sababli sug‘urta shartnomasini tuzishda sug‘urtalovchilarda maqbul shartlarda va tez qayta sug‘urta qila olish kafolatining yo‘qligi. Qayta sug‘urta qilish operatsiyasini kelishish zarurati, agar ushbu jarayon uzoq muddat davom etsa, u holda sug‘urtalovchi boshqa sug‘urta tashkilotida sug‘urtalanuvchining sug‘urta shartnomasini imzolashi ehtimolini tavakkal qiladi.

Ushbu shartnomalarni tuzish uchun xarajatlarning yuqoriligi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida qayta sug‘urta qilishga doir tuzilgan shartnomalar haqidagi yetarlicha ma’lumotlarning qayta sug‘urtalovchilarga taqdim etish zarurati tijorat sirlarini o‘zida jamlagan ma’lumotlarning raqobatchilar qo‘liga tushib qolishiga olib kelishi mumkin.[165]

Hozirgi kunda sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlarda ushbu kamchiliklar fakultativ qayta sug‘urta qilishning yordamchi rolini bajarishiga olib kelmoqda va faqat quyidagilarga moslashmoqda:

---

[164] Пфайффер К. Введение в перестрахование М.: Анкил, 2000. 155 с.

[165] Мюллер П. Страхование промышленных объектов и установок в Российской Федерации - точка зрения международного перестраховщика// Атлас страхования. 2009. № 9.

♦ u bu sabablar bilan obligator sug‘urta qilishdan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi (masalan, obligator shartnomasi bo‘yicha limitning oshib ketishi yoki mumkin emasligi);

♦ obligator asosida qayta sug‘urta qilishning ushbu sabablar bilan sedent uchun foyda keltirmasligi (masalan, sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolining yuqoriligi bilan bog‘liq);

♦ sedent obligatorga qo‘shimcha ravishda fakultativ qayta sug‘urta o‘tkazishni xohlaydi (masalan, obligator qayta sug‘urta qilish bo‘yicha o‘ziga tegishli javobgarlikning bir qismini qayta sug‘urta qilish);

♦ fakultativ qayta sug‘urta qilish shartnomalarini tuzayotib, sedent o‘z biznesini kengaytirishni xohlaydi.

Qayta sug‘urta qilishning obligator formasining afzalliklari qayta sug‘urta qiluvchi uchun: obligator qayta sug‘urta qilish sedentlar bilan doimiy aloqalar kafolatini beradi, buning natijasida, portfelda qayta sug‘urta qilish shartnomalari sonining yetarlicha ko‘p bo‘lishi uning biznesini kengaytiradi.

Sedent uchun: qayta sug‘urtalanmagan qaltislik uchun sug‘urtalovchining majburiyatiga yo‘l qo‘yilmaydi, shuningdek, har safar qayta sug‘urtalovchini izlash va shartnoma shartlarini u bilan kelishish zarurati yo‘qoladi. Odatda qayta sug‘urta qilish shartnomasining muddatini yangi muddatga uzaytirish avtomatik ravishda yuz beradi. Qayta sug‘urta qilish bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlar kamaytiriladi.

Qayta sug‘urta qilish obligator shakllarining kamchiliklari sedent uchun: sug‘urtalovchi nostandart sug‘urta shartnomasini tuzayotgan holatlarda, uni zarur qayta sug‘urta himoyasi bilan ta’minlash imkoniyatining yo‘qligi. Sug‘urtalovchi o‘z javobgarligida butunlay qoldirishi mumkin bo‘lgan shartnomalarni, majburiyatlarni qayta sug‘urta qilish uchun berishga majbur bo‘ladi, bu uning sug‘urta mukofoti hajmini kamaytiradi[166].

Fakultativ-obligator qayta sug‘urta qilish. Bu usul sedentga qaysi qaltisliklar va ularni qanday miqdorda qayta sug‘urtalovchiga berish haqida mustaqil qarorlar qabul qilish erkinligini beradi. O‘z navbatida, qayta sug‘urtalovchi qaltisliklarning qabul qilingan ulushini oldindan kelishilgan shartlar asosida qabul qilishga majbur[167].

Qayta sug‘urta qilish shartnomalarini tuzishda quyidagi ikkita usul belgilab olinadi: mutanosib va nomutanosib qayta sug‘urta qilish.

Mutanosib qayta sug‘urta qilishning o‘ziga xosligi shundan iboratki, sug‘urta pullari, sug‘urta badallari va sug‘urta to‘lovlari qayta sug‘urtalanuvchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida mutanosib, ya’ni ular tomonidan qabul qilingan javobgarlik ulushlariga muvofiq taqsimlanadi. Shu bilan birga, shartnoma tomonlari o‘rtasida taqsimlangan sug‘urta pullaridan kelib chiqib, ularning har biriga to‘g‘ri keladigan majburiyatlar hajmi aniqlashtiriladi.

Mutanosib qayta sug‘urta qilish shartnomalari shartlari sug‘urta pulining ma’lum qismi uchun javobgarlik (o‘ziga tegishli qismini ushlab qolish) qayta sug‘urta qildiruvchining o‘zida qolishini nazarda tutadi va qolgan qismini qayta sug‘urta qilish uchun beradi. Mutanosib qayta sug‘urta qilish shartnomasi qayta sug‘urtalovchi

---

[166]Клементьев В.В. Развитие перестрахования — роль государства / Электронный ресурс. URL: http://www.insur-info.ru/re-insurance/

[167]Радченко В.И. Об актуарных расчетах в перестраховании // Финансы. 2011, №2.

tomonidan komission mukofotning qayta sug'urtalanuvchiga amalda har doim to'lab berilishini va ko'pincha tantema holatini (foydaning ma'lum qismini mukofot shaklida to'lab berish) nazarda tutadi.

Mutanosib qayta sug'urta qilishda o'z navbatida quyidagilar ajratiladi: kvotali qayta sug'urta qilish; ekssedent summasi usuli bo'yicha qayta sug'urta qilish; kvotali-ekssedent (aralash). Mutanosib qayta sug'urta qilishning mohiyati quyidagicha: qayta sug'urta qilishni taqdim etish sug'urta puli hajmiga bog'liq bo'lmay, faqat zararning miqdori bilan aniqlashtiriladi, ya'ni alohida qaltislik bo'yicha javobgarlik mutanosib bo'linadi va asl mukofotga muvofiqlik bo'lmaydi.[168]

Nomutanosib qayta sug'urta qilishda sug'urta pullari, badallari va to'lovlari sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasida nomutanosib taqsimlanadi. Qayta sug'urtalovchining sug'urta badalini to'lash majburiyati faqat sug'urta badalining hajmi oldindan kelishilgan me'yor (sedentning ustunligi)dan oshgan holatdagina yuzaga keladi. Ushbu qayta sug'urta qilishning asosiy maqsadi sug'urtalovchilarni bitta hodisa oqibati (qaltisliklar kumulyasiyasi) uchun katta miqdordagi to'lovni amalga oshirish zarurati yoki bitta obyekt bo'yicha yirik sug'urta badalini amalga oshirish kabilarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yirik zararlardan himoya qilishdan iborat.

Nomutanosib qayta sug'urta qilishning o'ziga xosliklaridan biri shundan iboratki, sug'urtalovchining qayta sug'urtalanyotgan to'lovlari odatda har biri turli kompaniyalarda qayta sug'urtalangan bo'lishi mumkin bo'lgan darajalarda taqsimlanadi. Masalan, 1 mln AQSH dollaridan oshmaydigan to'lovlar uchun butunlay sug'urtalovchining o'zi, 1 mln AQSH dollaridan 2 mln AQSH dollarigacha birinchi qayta sug'urtalovchi (birinchi darajadagi shartnoma), 2 mln AQSH dollaridan 3 mln AQSH dollarigacha ikkinchi qayta sug'urtalovchi (ikkinchi darajadagi shartnoma) va shu kabi javob berishi mumkin. Ushbu shaklda taqsimlanishning sababi, eng avvalo javobgarligi darajasidan yuqori bo'lmagan operatsiyalar (o'z imkoniyatlari bilan qoplash) yoki qoplashning yuqori (halokatli) darajalariga qayta sug'urtalovchilarning tez moslashishi uchun zarur qayta sug'urta qilish himoyasi bilan ta'minlash vazifasini yengillashtirishdan iborat.

Amalga oshirish shakli bo'yicha qayta sug'urta qilish fakultativ va obligatorga bo'linadi: qayta sug'urta qilish operatsiyalarini amalga oshirish usullari bo'yicha qayta sug'urta qilish quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kvotali – sug'urta mukofoti va qayta sug'urtalovchi javobgarligi bo'yicha ma'lum mutanosiblikni saqlab, qabul qilinayotgan qaltisliklar bo'yicha majburiyatlarning bir qismidan voz kechishni sug'urtalovchining zimmasiga yuklash. Soddalashtirilgan xarakterga ega ushbu shakl amalda sug'urtaning barcha sohalarida

[168]Тереньтьева А.С., Раквиашвили А.А. Теоретические особенности перестрахования // Страховое дело №5, 2009.

qo'llaniladi va ma'lum ulushdagi sug'urta qaltisligi o'zgarib turishini kamaytirishga yordam beradi.

2. Eksedent – sug'urtalovchining mustaqil to'lash imkoniyati mavjud bo'lib (o'ziga tegishli qismini ushlab qolib) va faqat shundan keyin sug'urta pulining qolgan qismini qayta sug'urta qilishga beradigan, bitim tabiatidan qat'iy nazar sug'urtalovchi uchun belgilashga yordam beradigan summa.

3. Sug'urta qilingan sug'urta obyekti bo'yicha sof zararning oxirgi qiymati sug'urta shartnomasidagi limitdan oshib ketgan taqdirdagina zarar ekssedenti shartnomasi kuchga kiradi. Qayta sug'urta qilishning bunday shaklini mutanosib himoya shakllariga qo'shimcha sifatida, shuningdek, halokatli xarakterga ega qaltisliklarga nisbatan qo'llash samaraliroqdir.

Zarar ekssedenti va zarar keltirish ekssedenti shartnomalari asosidagi nomutanosib qayta sug'urta qilish qayta sug'urta qilishning ko'plab shakl va usullari orasida milliy sharoit uchun istiqbolli hisoblanadi. Birinchidan, bunday shartnomalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha uncha katta bo'lmagan xarajatlar, va ikkinchidan, zararlar, ayniqsa, ko'payish tendensiyasiga ega yong'in, toshqin, texnogen avariya va boshqa hodisalar, tozalik va ziyondan zararlar ko'lamining o'sishi mumkinligi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aynan nomutanosib qayta sug'urta qilish bunday holatlarda sug'urta kompaniyalarni xonavayron bo'lishdan samarali himoya qiladi.

Ularning orasida daromadlar parametrining ilmiy asoslangan pasayish darajasi omillari ochib berilgan:

- ✓ yetarlicha statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi;
- ✓ rossiya sharoitlariga mos keladigan zararlarning uslubiy hisoblari va aniqlashtiruvchi kriteriyalarining takomillashtirilmaganligi;
- ✓ rossiya qonunlarining takomillashtirilmaganligi va qayta sug'urta qilish biznesining shaffof emasligi;
- ✓ kompaniyalar xodimlari malakasining yetarli emasligi.

Qayta sug'urta qilish faoliyatining doimiy rivojlanishda bo'lishi va kelajakda qayta sug'urta qilishni amalga oshirishda yangi uslublar (shakllar), guruhlar va turlar paydo bo'lishi ehtimoli inobatga olinib, qayta sug'urta qilishning uslublar (shakllar), guruhlar va turlari bo'yicha biz taklif etayotgan tasnifi barcha masalalarni o'zida qamrab olmaydi.

19-MAVZU.
SUG'URTA TASHKILOTINING IQTISODIY- MOLIYAVIY FAOLIYATI

19.1. Sug'urta faoliyatida iqtisodiy munosabatlar va ularning paydo bo'lishi

Sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun sug'urta tashkilotlari sug'urta badallari hisobidan pul mablag'lari fondini tashkil qiladi. Pul fondini yetishmasligi uning moliyaviy ahvolini murakkablashtirishi mumkin. Sug'urta fondlari maqsadli ishlatiladi va zararlar yuz bergan vaqtida qoplama berish uchun ishlatiladi. Sug'urta fondi mablag'lari davlat tomonidan olib qo'yilishi va soliqqa tortilishi amaldagi qonunchilikda taqiqlanadi.

Sug'urta tashkilotlari vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini, zaxiralarni investitsiya qilish orqali qo'shimcha daromad oladi.

Sug'urta sohasidagi munosabatlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug'urta tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar;
- fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Har-bir munosabat yo'nalishida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xarakterga ega bo'lgan munosabatlari mavjud.

Yalpi milliy daromadning qayta taqsimlanishi natijasida sug'urta fondlari tashkil qilinadi va moliyaviy munosabatlarining dastlabki urinishi yuzaga keladi.

Sug'urta fonlari turlicha guruhlanadi. Ular sug'urta fondlariga, sug'urta zaxiralariga bo'linishi mumkin.

O'z navbatida sug'urta fondlari markazlashgan va markazlashmagan fondlarga ham bo'linadi. Markazlashgan fondlar makroiqtisodiy maqsadlarda shaklantiriladi. Markazlashmagan fondlarga sug'urta tashkilotlarining fondlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta fondlari tashkil qilinadi. Sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari sug'urta zaxiralari deyiladi.

Asosiy sabab, sug'urta hodisalari yuz berishi vaqt bo'yicha va makonda farqlanishi mumkin. Ayrim yillari sug'urta hodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq zararlar ketirishi mumkin. Agar sug'urta hodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlariga nisbatan ortiq bo'lsa. Bunday holatlarda sug'urta zaxiralari mablag'laridan foydalanadi.

Sug'urta faoliyatida moliyaviy munosabatlar sug'urta fondlaridan foydalanish jarayonlarida yuzaga keladi. Sug'urta fondlari mablag'lari sug'urta qoplamalari to'lash orqali ishlatiladi.

Mol-mulk va javobgarlik sug‘urtasida sug‘urtalanuvchining uchinchi shaxsning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug‘urta fondidan to‘lanadigan pul mablag‘i sug‘urta qoplamasi deb ataladi. Sug‘urta qoplamasi sug‘urta summasi me’yorida amalga oshiriladi.

Sug‘urta munosabatlari moliyaviy munosabatlar bo‘lsada moliyaviy munosabatlardan va kredit munosabatlardan o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Sug‘urta munosabatlarida sug‘urta fondlari faqat sug‘urta fondi qatnashchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug‘urta fondining qatnashchilari chegaralangan hisoblanadi.

Sug‘urta munosabatlari moliya munosabatlaridan qatnashchilarning soni bilan ham farq qiladi. Moliya munosabatlarida, xususan davlat byudjetining qatnashchilari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Davlat byudjeti qatnashchilariga pul mablag‘lari yordam berilishi adresli xarakterga ega emas. Sug‘urta fondi qatnashchilariga sug‘urta qoplamalari berish adresli xarakterga ega.

Hayot sug‘urtasida sug‘urta tashkilotlari sug‘urta qildiruvchilarga ssudalar berish bilan ham shug‘illanadilar. Sug‘urtaning ushbu belgisi kredit munosabatlariga uni yaqinlashtiradi.

Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati bilan shug‘illanishi ma’lum. Ularning investitsiya faoliyatlari jarayonlarida ham moliyaviy munosabatlar yuzaga kelishini takidalash zarur.

Sug‘urtada moliyaviy munosabatlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki sug‘urta fondlari qaytarilish xarakteriga ega. Sug‘urta hodisasi olib kelgan zararlar sug‘urta fondi qatnashchilariga qaytariladi. Natijada sug‘urta fondi tor doirada qayta taqsimlanadi.

Moliya iqtisodiy munosabatlar barcha qayta ishlab chiqarish jarayonlarida, xo‘jalik yuritishning etaplarida, ijtimoiy sohalarning barcha sohalarida yuzaga keladi. Sug‘urta ishlab chiqarishi munosabatlarida ijtimoiy zaruratni anglatuvchi stexik munosabat – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Sug‘urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasiga bo‘ysinuvchi hisoblanadi. Moliya sifatida sug‘urta pul shaklidagi qiymatning shakllantirish va maqsadli ishlatish bilan bog‘li daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida yuzaga keladi.

Ammo, moliya daromad va jamg‘armalarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida yuzaga kelsa, sug‘urta tasodifiy hodisa keltirgan zararlarni qoplab berish maqsadida daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida yuzaga keluvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy asoslarida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy potensiali va resurslar muhim ahamiyat kasb etadi va keyingi paragrafda ko‘rib chiqiladi.

19.2. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari va moliyaviy natijasi

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy potensiali o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar manbaasi asosida shallanadi. Shu ma’noda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari ularning moliyaviy potensialini belgilab beradi. Sug‘urta tashkilotlarining xususiy kapitali ularni davlat ro‘yxatiga olishda shallantiriladi.

Xususiy kapital sug‘urta tashkilotlari uchun faoliyatni boshlashning dastlabki vaqtida asosiy moliyaviy resurs hisoblandi. Xususiy kapital turli xil manbalardan to‘ldiriladi. Dastlab ta’sischilar tomonidan kiritilsa, keyinchalik korxonaning daromadlari va boshqa manbalar hisobidan to‘ldiriladi. Sug‘urta tashkilotlarining jalb qilingan mablag‘lari daromad shaklida kelib tushuvchi sug‘urta mukofotlari hisobidan (sug‘urta zaxirasi sifatida), bank kreditlari, ish haqi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kreditorlik qarzlar hisoblanadi.

U balans passivining ikkinchi bo‘limida “Majburiyatlar” deb nomlanadi. Bulardan tashqari haridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, ko‘zda tutilgan daromadlar, harajatlar va to‘lovlar zaxirasi, dargumon qarzlar bo‘yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo‘limda aks ettiriladi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy potensialini va resurslarini shakllanishida sug‘urta tashkilotining oladigan daromadlari va sarf qilinuvchi xarajatlari asosiy manbaa hisoblanadi. Sug‘urta tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari asosida uning moliyaviy natijasi hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda barcha buxgalteriya hisobiga oid me’yoriy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori asosida tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy naijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligda 2005 yil 18 oktyabrda 1517-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sug‘urta tashkilotlarining xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida Nizom”ga asosan amalga oshiradilar.

Sug‘urta tashkilotlarining daromadlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin[169]:

1. Sug‘urta faoliyatidan daromadlar;
2. Sug‘urta faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar;
3. Sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatdan olinadigan daromadlar.

Sug‘urta faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- sug‘urta, birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelib tushadigan sug‘urta mukofotlari;
- sug‘urta zaxirasining qaytim summasi (sug‘urta zaxirasining keyingi yilga o‘tadigan qismi);

---

[169] Mahsulotlar (ishlar,xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 05.02. dagi 54-sonli Qarori. “Norma” elektron manbaa.

- qayta sug‘urtaga berilgan shartnomalar bo‘yicha olingan komission mukofotlar, tant’emalar va boshqalar;

- sug‘urta agenti, sug‘urta brokeri, syurveyer va avariya komissari xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun komission mukofotlar;

- qayta sug‘urtaga berilgan sug‘ura shartnomalari bo‘yicha qayta sug‘urtalovchilar tomonidan zararning qoplangan qismi.

Sug‘urta faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- sug‘urta zaxiralarini joylashtirishdan olingan daromadlar;

- qayta sug‘urtaga qabul qilingan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha depo mukofotlarga hisoblangan foiz daromadlari;

- sug‘urta hodisasining sodir bo‘lishida aybdor hisoblangan shaxsdan zararni qoplashni talab qilish huquqidan foydalanish orqali olingan daromadlar.

Sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- asosiy vositalar, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;

- o‘tgan davrlarda hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzlarini qoplash uchun kelib tushgan summalar;

- hisobdan chiqarilgan kreditorlik qarzlari;

- qonunchilik bilan cheklanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlar.

Sug‘urta tashkilotlarining xarajatlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilinadigan ajratmalar;

2. Qayta sug‘urtaga qabul qilingan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari

3. Qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha to‘langan komission mukofotlar va tantemalar

4. Ish yuritish xarajatlari:

- sug‘urta tashkilotining xodimlariga to‘lanadigan mehnat haqi;

- sug‘urta agenti va brokeri xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘langan komission haqlar;

- sug‘urta agentlarining sug‘urtalanuvchilar joylashgan joylarga borish va qaytish xarajatlari;

- sug‘urta tashkilotining boshqaruv apparati xodimlarini saqlash, kompaniyaning bo‘linma, filiallarini saqlash ularning moddiy texnik bazasini ta’minlash xarajatlari;

- sug‘urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatgan boshqa tashkilotlarga to‘lanadigan xaqlar;

- sug‘urta polislari blanklari, kvitansiyalari, ariza, mulkni ko‘rikdan o‘tkazish, sug‘urta hodisasining yuz berganligi to‘g‘risida dalolatnomalar blanklarini tayyorlash xarajatlari va boshqalar;

- sug‘urta tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq safar xarajatlarining barchasi;

- boshqa sug‘urta tashkilotlarining vakillarini qabul qilish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar;

- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar;

- reklama xarajatlari;

- axborot va konsultativ xizmatlarni to‘lash;

- yillik balans va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni matbuotda chop ettirish xarajatlari;
- asosiy vositalarning qayta tiklanishi uchun qilinadigan ammortizatsiya ajratmalari;
- nomoddiy aktivlarning ammortizatsiyasi;
- majburiy sug‘urta bo‘yicha qilinadigan xarajatlar;
- o‘z mol-mulkini ixtiyoriy sug‘urtalash bilan bog‘liq xarajatlar;
- banklardan olingan kreditlar bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlar;
- soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy tartibdagi yig‘imlar va to‘lovlar;
- byudjetdan tashqari fondlarga majburiy ajratmalar.

Daromadni aniqlashda va daromad (foyda) solig‘ini hisoblashda “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy naijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom”da nazarda tutilgan jihatlar hisobga olinadi.

Sug‘urtalovchining sug‘urta va moliyaviy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq boshqa xarajatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:
- sug‘urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan zararlar;
- qayta sug‘urtalash mukofotlari bo‘yicha kompaniya tomonidan hisoblangan foizlar;
- sud bilan bog‘liq xarajatlar;
- undirib olish mumkin bo‘lmagan debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish;
- avval vujudga kelgan qarzlardan voz kechish;
- moddiy qimmatliklarni sotish va yo‘qotishdan olingan zararlar;
- tabiiy ofatlar va boshqa hodisalar oqibatida yetgan zararlar.

O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlari moliyaviy natijalarini 2005 yil 18 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sug‘urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq shakllantiradilar.

Sug‘urta xizmatining tannarxiga quyidagi xarajatlar qo‘shimcha ravishda qo‘shilishi lozim:
- sug‘urtalash (birgalikda sug‘urtalash) shartnomalari bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari summasi;
- sug‘urta hodisasi bo‘yicha zararlarni bartaraf etish va sug‘urta qoplamasini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar;
- baxtsiz hodisalar, sug‘urtalangan mulkning shikastlanishi yoki zararlanishini oldini olish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish zaxirasiga qilinadigan ajratmalar;
- qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha hisoblangan komission mukofotlar va tantemalar.

Mazkur Nizomga asosan sug‘urta tashkilotining sug‘urta xizmatlarini sotishdan tushgan sof tushumi quyidagi tartibda aniqlanadi:
- sug‘urtalash va birgalikda sug‘urtalash bo‘yicha (birgalikda sug‘urtalash shartnomasida belgilangan ulush doirasida), kelib tushgan mukofotlarning umumiy hajmidan qayta sug‘urtaga berilgan shartnomalar bo‘yicha mukofotlar chegirilgan holda;

- plyus qayta sug'urtaga qabul qilingan sug'urta shartnomalari bo'yicha kelib tushgan mukofotlar;

- plyus/minus qayta sug'urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasining o'zgarish natijasi (keyingi matnlarda RNP);

- plyus/minus qayta sug'urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining o'zgarish natijasi;

- plyus/minus qayta sug'urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining o'zgarish natijasi;

- plyus/minus qayta sug'urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiraning o'zgarish natijasi;

- plyus/minus qayta sug'urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi boshqa texnik zaxiralarning o'zgarish natijasi;

- plyus sug'urta agenti, brokeri, vositachisi xizmatlarini ko'rsatganlik uchun komission va boshqa hisoblangan mukofotlar;

- syurveyer, avariya komissari-adjaster xizmatlarini ko'rsatganligi uchun mukofotlar;

- bevosita sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

Sug'urta tashkilotlarida bajarilishi majburiy bo'lgan to'lov layoqati normalarini va ularni aniqlash tartibini, alohida tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilarning majburiyatlari cheklangan yo'l qo'yiladigan miqdorini hisoblab chiqish metodikasini hamda majburiyatlarning jami miqdorini, sug'urtalovchilarning to'lovga layoqatliligi bo'yicha axborot berish tartibi va muddatlarini belgilash, to'lovga layoqatlilikning belgilangan normativlarini va ularning moliyaviy barqarorligiga qo'yiladigan boshqa talablarni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi davlat sug'urta nazorati inspeksiyasining vakolat doirasiga kiradi.[170]

O'zbekiston Respublikasida sug'urtachi va qayta sug'urtachining to'lov layoqati "Sug'urtachi va qayta sug'urtachilarning to'lov layoqati to'g'risida"gi Nizomga asosan tartibga solinadi. Mazkur nizom 2008 yilning 22 aprelida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 41 sonli buyruq bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yilning 12 mayida 1806 son bilan ro'yxatga olingan.

Sug'urtachilarni va qayta sug'urtachilarning to'lov layoqati ularning moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarilishini bildiradi. To'lov layoqatining asosini ustav kapitalining shakllanganligi, zaxiralarning yetarliligi va qayta sug'urta tizimi tashkil qiladi. Sug'urtachi va qayta sug'urtachining to'lov layoqatini aniqlashda to'lov layoqatining me'yorlaridan foydalaniladi.

To'lov layoqatining me'yorlariga quyidagilar kiradi:

- to'lov layoqatining marjasining yetraliligi;

- alohida risklar bo'yicha sug'urtachi va qayta sug'urtachiga ruhsat berilgan maksimal javobgarlik miqdori.

Sug'urtachining to'lov layoqatini ko'rsatkilarini aniqlashda buxgalteriya hisobi va hisobotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

---

[170] O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Sug'urta faoliyati to'g'risida". T.: 2002 y., 5-aprel // Xalq so'zi gazetasi, 2002-yil 28-may.

Sug‘urtachilarning to‘lov layoqati ko‘rsatkichlariga yuqorida keltirilgan nizomda belgilangan to‘lov layoqatining me’yorlari, aktivlarni joylashtirish talablari, qayta sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha talablar kiradi.

To‘lov layoqati marjasining yetarliligi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. To‘lov layoqati uning miqdori birdan kam bo‘lmasligini talab qilinadi. To‘lov layoqati marjasining yetarliligi haqiqatdagi to‘lov layoqatining marjasini uning me’yorlashgan miqdoriga bo‘lib topiladi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$TQME = \frac{TKM\Phi}{TKMX}.$$

TQME – To‘lov layoqatining marjasini yetarlilik me’yori;

TKMF – to‘lov layoqatining marjasini haqiqatdagi miqdori;

TKMX - to‘lov layoqati marjasining me’yori.

Umumiy sug‘urta sohasida, yoki faqat qayta sug‘urta sohasida faoliyat yurituvchi sug‘urta tashkilotlari uchun to‘lov layoqatining marjasini me’yoriy miqdori quyidagi uchta miqdordan eng kattasi hisoblanadi[171]:

-Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka asosan sug‘urta tashkilotlari uchun belgilangan ustav kapitalining minimal miqdori;

-“Mukofot usuli” bo‘yicha hisoblangan miqdor;

-“To‘lov usulida” hisoblangan miqdor.

“Mukofot usuli” bo‘yicha hisoblangan miqdor umumiy sug‘urta tarmog‘i uchun belgilangan tuzatish koeffitsientini oldingi o‘n ikki oyda, barcha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlarining 20% ga ko‘paytirish orqali topiladi.

Bunda hisoblab chiqilgan sug‘urta mukofotidan bekor qilingan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha qaytarilgan sug‘urta mukofotlari miqdori ayirib tashlanadi. 11 va 13 klasslar bo‘yicha sug‘urta shartnomalarida belgilangan sug‘urta mukofotlarining miqdori 50% ga oshiriladi. Sug‘urta faoliyatini amalga oshirganiga 12 oy bo‘lmagan sug‘urta tashkilotlari hisob-kitob muddati qilib litsenziya olingan vaqtdan boshlab hisobot davri oxiriga qadar muddat olinadi.

“To‘lov usulida” hisoblangan miqdor umumiy sug‘urta tarmog‘i uchun belgilangan tuzatish koeffitsentini quyidagi ko‘rstakichlarning summasini 10%ga ko‘paytirish orqali otiladi:

-oxirgi 36 oy ichida sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta qoplamalari summasi. Bunda 11 va 13 klasslar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta qoplamalari 50% ga oshiriladi;

-hisobot sanasida mavjud bo‘lgan, xabar qilingan lekin tartibga solinmagan zararlar zaxirasi. Bunda 11 va 13 klasslar bo‘yicha xabar qilingan lekin tartibga solinmagan zararlar zaxirasi 50% ga oshiriladi.

Sug‘urta faoliyatini amalga oshirganiga 36 oy bo‘lmagan sug‘urta tashkilotlari hisob-kitob muddati qilib litsenziya olingan vaqtdan boshlab hisobot davri oxiriga qadar muddat olinadi.

---

[171] Положение о платежеспособности страховщиков и перестраховщиков. Утверждено приказом министра финансов от 22.04.2008г,№41, зарегистрировано МЮ от 12.05.2008г. №1806

Umumiy sug‘urta tarmog‘i uchun tuzatish koeffitsenti oldingi 36 oy ichida hisoblangan jami sug‘urta qoplamalari va qayta sug‘urtachining ulushi o‘rtasidagi farqni shu davrda hisoblangan sug‘urta qoplamalariga bo‘lish orqali aniqlanadi. Umumiy sug‘urta tarmog‘i uchun belgilangan tuzatish koeffitsenti 0.5 dan kam bo‘lmasligi kerak. Tuzatish koeffitsenti 0.5 dan kam bo‘lgan hollarda 0.5 tuzatish koeffitsenti sifatida olinadi.

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi sug‘urtachining sug‘urta faoliyatini amalga oshirganiga 36 oydan kam muddat bo‘lgan bo‘lsa, tuzatish koeffitsenti 1.0 olinadi.

Hayot sug‘urtasi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi sug‘urtachilar uchun to‘lov layoqatining marjasi me’yori sifatida quyidagi kattaliklardan eng yuqorisi tanlanadi:

-Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka asosan sug‘urta tashkilotlari uchun belgilangan ustav kapitalining minimal miqdori;

-quyidagi ikki kattalikning yig‘indisi:

a) mukofotlar zaxirasining 5% ni hayot sug‘urtasi tarmog‘i uchun belgilangan tuzatish koeffitsentiga ko‘paytirilgan natija;

b) umumiy sug‘urta tarmog‘ining 1 va 2 klasslari uchun belgilangan tuzatish koeffitsentini quyidagilardan eng katta bo‘lgan miqdorga ko‘paytirish natijasi:

- umumiy sug‘urta tarmog‘ining 1 va 2 klasslari bo‘yicha oxirgi 12 oyda jami yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining summasini 20%dan muddatidan oldin bekor qilingan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlarini ayirmasi;

- umumiy sug‘urta tarmog‘ining 1 va 2 klasslari bo‘yicha oxirgi 36 oyda jami hisoblangan sug‘urta qoplamalarining 10% va hisobot sanasiga yig‘ilgan umumiy sug‘urta tarmog‘ining 1 va 2 klasslari bo‘yicha xabar qilingan, lekin tartibga solinmagan zararlar zaxirasi summasi.

Sug‘urta faoliyati 12 va 36 oydan kam bo‘lgan, yangi tashkil qilingan sug‘urta tashkilotlari hisob-kitob uchun litsenziya olingan sanadan hisobot sanasiga bo‘lgan davr olinadi.

Hayot sug‘urtasi tarmog‘i uchun tuzatish koeffitsenti qayta sug‘urtachining ulushi ayirilgan jami mukofotlar zaxirasining jami mukofotlar zaxirasiga nisbati bilan hisoblanadi. Hayot sug‘urtasida tuzatish koeffitsentining minimal miqdori 0.85 dan kam bo‘lishi mumkin emas. Agar tuzatish koeffitsenti 0.85 dan kam bo‘lsa, 0.85 koeffitsent qo‘llaniladi.

To‘lov layoqatining haqiqatdagi miqdori sug‘urtachining xususiy mablag‘lari manbasidan quyidagi ko‘rsatkichlarni ayirish natijasida hosil qilinadi:

- asosiy faoliyatda foydalaniluvchi dasturiy ta’minotdan tashqari bo‘lgan, umumiy aktivlarining 10% dan oshmagan miqdordagi nomoddiy aktivlar miqdori. Dasturiy ta’minot qiymati boshlang‘ich bahoda inobatga olinadi;
- ustav kapitali bo‘yicha ta’sischilarning qarzdorligi;
- maqsadli tushumlar va kutilayotgan to‘lovlar va xarajatlar bo‘yicha zaxira;
- ta’sischilar o‘rtasida taqsimlanishi rejalashtirilayotgan taqsimlanmagan foydaning qismi;
- hissadorlarga, ta’sischilarga, ishchilarga berilgan qarzlar va ularga hisoblangan foiz;
- bog‘liq shaxslar bilan bog‘liq debitorlik qarzlari;

- shartnomada belgilangan to‘lash muddatidan uch oy davomida to‘lanmagan sug‘urta mukofotlarining miqdori;
- berilgan kafolatlar;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha debitorlik qarzlari.

Sug‘urtachilarning jami sug‘urta majburiyatlari va alohida risk turlari bo‘yicha majburiyatlarning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan miqdorlari.

Alohida risk turlari bo‘yicha sug‘urtachining majburiyatlarini miqdori xususiy mablag‘lari va sug‘urta zaxiralarining 20% dan oshmasligi talab qilinadi. Belgilangan me’yordan oshgan sug‘urta majburiyatlari faqat qayta sug‘urtalash sharti bilan olinishi ruxsat beriladi.

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi va faqat qayta sug‘urta bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta tashkilotlarining majburiyatlarining maksimal miqdori xususiy mablag‘lar manbasining 200%dan oshmasligi talab qilinadi. Yoki me’yordan oshgan majburiyatlar qayta sug‘urtalanishi zarur.

Qayta sug‘urta operatsiyalariga qo‘yiladigan talablar.

Litsenziyada ruxsat berilgan klasslar bo‘yicha risklarni qayta sug‘urtaga qabul qilinishi mumkin.

Qayta sug‘urtalanuvchi risklarni qayta sug‘urtaga faqat tasdiqlangan qayta sug‘urtachiga berishi ruxsat beriladi.

Tasdiqlangan qayta sug‘urtachi quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- faqat qayta sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari;
- sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan va qonunchilikda belgilangan minimal ustav kapitaliga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari (qayta sug‘urta uchun);
- quyidagi reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan chet el sug‘urta kompaniyalari:
- «Moody’s Investors Services» (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha «Vaa3»dan past bo‘lmagan;
- «Standard & Poor’s Corporation» (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha «VV+»dan past bo‘lmagan;
- «Fitch, Inc» (Buyuk Birtaniya) agentligi tasnifi bo‘yicha «VV–»dan past bo‘lmagan;
- «A.M. Best Company, Inc.» (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha «V+»dan past bo‘lmagan;
- «Ekspert-RA» (Rossiya Federatsiyasi) reyting agentligi tasnifi bo‘yicha «A++»dan past bo‘lmagan reytingga ega bo‘lgan chet el sug‘urta kompaniyalari qayta sug‘urta bilan shug‘ullanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarisida, chet el sug‘urta kompaniyasiga beriladigan majburiyat miqdori, har – bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha , 95%dan oshmasligi talab qilinadi.

Chet el sug‘urta kompaniyasiga qayta sug‘urta uchun berilgan sug‘urta shartnomalarida sug‘urtachining ulushi haqiqatdagi to‘lov layoqatining marjasini 5% dan kam bo‘lmasligi lozim. Eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat risklaridan va chet elga chiquvchilarni sug‘urtalash bundan mustasno.

To‘lov layoqati me’yorlarining hisob-kitoblarini taqdim qilish muddati va tartibi, sug‘urtachilarning aktivlarini joylashtirish talablari. Qayta sug‘urta operatsiyalariga bo‘lgan talablar.

Sug‘urta tashkilotlari chorak yakunida keyingi oyning 25 sanasiga qadar davlat sug‘urta nazoratiga to‘lov layoqati me’yorlari, aktivlarni joylashtirish to‘g‘risida, qayta operatsiyalar to‘g‘risida hisob – kitoblar topshiradilar.

Agar sug‘urtachining to‘lov layoqati marjasining me’yorlari hisobot davrida 1 dan 0.5 ga qadar tushib ketsa 10 kun muddatda davlat sug‘urta nazoratiga moliyaviy holatni yaxshilash bo‘yicha choralarni tasdiqlash uchun taqdim qilishi zarur.

Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar 6 oy muddatga ishlab chiqiladi. Chora-tadbirlarda sug‘urta tashkilotini moliyaviy holatini yaxshilash bo‘yicha kompleks ishlar nazarda tutiladi. Kompleks chora-tadbirlarda sug‘urta tashkiloti ustav kapitali miqdorini o‘zgartirish, qayta sug‘urta operatsiyalari chegaralarini kengaytirish, tarif siyosatini o‘zgartirish, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish, aktivlar tarkibini o‘zgartirishlarni nazarda tutishi mumkin.

Agar kompleks chora-tadbirlarda ustav kapitalini o‘zgartirish nazarda tutilgan bo‘lsa, ta’sischilarni roziligi talab qilinadi.

Davlat sug‘urta nazorati taqdim qilingan hisobotlarni va kompleks chora-tadbirlarni tahlil qilib moliyaviy holatni o‘zgartirish bo‘yicha takliflar beradi va nazorat qiladi.

Hisobot davri yakunida sug‘urtachining to‘lov layoqati marjasining yetarliligi 0.5 dan past bo‘lsa litsenziyaning amal qilish kuchi tugattiriladi.

Sug‘urta tashkilotlari tomonidan maksimal majburiyatlarni olish talablari buzilgan hollarda Davlat sug‘urta nazorati inspeksiyasi kamchilikni tuzatish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Sug‘urta tashkiloti bir oy davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishi zarur.

19.3. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili

Sug‘urta majburiyatlarining hajmi sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Sug‘urta majburiyatlari xo‘jalik faoliyatining boshqa turlaridagi majburiyatlardan farq qiladi. Bundan tashqari sug‘urta majburiyatlarini sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida ham ko‘rsatishimiz mumkin.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarini dinamikasi o‘sish tendensiyasiga ega. Sug‘urta tashkilotlarining aktivlarini tarkibini tahlil qilib ko‘ramiz. Sug‘urta tashkilotlarining jami aktivlarini summasini 100 foiz deb qaraydigan bo‘lsak, ularning 80.3%ni moliyaviy va kapital qo‘yilmalar tashkil qiladi. Bu sug‘urta tashkilotlarining jami aktivlarini 80.3% investitsiyaga yo‘naltirlishi ko‘rsatadi. Sug‘urta tashkilotlarining jami aktivlarining 6.3 % pul mablag‘lari tashkil qiladi. Bu sug‘urta tashkilotlarining bank hisob raqamlaridagi , g‘aznadagi va boshqa hisob raqamlarda aks etgan pul mablag‘lari hisoblandi. Sug‘urta tashkilotlari pul mablag‘laridan joriy xarajatlar, sug‘urta qoplamalarini to‘lash uchun sarf qilinadi.

Sug‘urta tashkilotlarining debitorlik qarzlari ham ularning moliyaviy xo‘jalik faoliyatida katta hamiyat kasb etadi. Jami aktivlar tarkibida sug‘urta tashkilotlarining debitorlik qarzlari 4.6%ni tashkil qiladi. Barcha sug‘urta tashkilotlari o‘z faoliyatini amalga oshirishda tegishli asosiy vositalarga ega hisoblanadi. Sug‘urta tashkilotlarining asosiy vositalarining miqdori jami aktivlarining 5.0% ni tashkil qiladi.

Sug‘urta tashkilotlarining barqarorligi davlat tomonidan nazorat qilinsada nazarimzda sug‘urta faoliyatining ushbu sohasida muammolar yetarli hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlarining barqarorligining asosiy shartlaridan biri belgilangan ustav kapitalining minimal miqdorini shakllantirishdir. Hozirgi vaqtda umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yuritiuvchi sug‘urta tashkilotlari uchun 1,5 mln yevro, hayot sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchilar uchun 2.0 mln. Yevro, majburiy sug‘urta faoliyati bilan shug‘illanuvchilar uchun 3.0 mln. Yevro, qayta sug‘urta faoliyati bilan shug‘illanuvchi sug‘urta tashkilotlari uchun 6 mln yevro miqdorida minimal ustav kapitali belgilangan.

Sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta zaxiralarini shakllantirish tartibida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Ishlab topilmagan mukofotlar, xabar qilingan, lekin bartaraf qilinmagan, sodir bo‘lgan lekin xabar qilimagan zararlar bo‘yicha zaxiralar sug‘urta tashkilotlari tomonidan majburiy tarzda tashkil qilinadi. Ammo, sug‘urta tashkilotlarining zararlilikni tebranishi bo‘yicha sug‘urta zaxirasi ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi.

Sug‘urta tashkilotlarida zararlilik tebranishi doimiy xarakterga ega. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi yuz berayotgan sharoitda zararlilikni tebranishi yanada ortadi. Zararlilikning tebranishini ixtiyoriy tartibda shakllantirilishi zararlar miqdori oshgan hisobot davrida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi yomonlashishi mumkin. Chunki ushbu zaxira turi sug‘urta tashkilotlari tomonidan shakllantirilmasligi ham mumkin.

Zararlar miqdori oshgan davrda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida zararlilik tebranishi bo‘yicha tashkil qilishni majburiy o‘rnatish taklif qilinadi. Ushbu taklifni amalga tadbiq qilinishi sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini samarasini oshishiga olib keladi.

Sug‘urta zaxiralarini investitsiyaga yo‘naltirish sohasida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Sug‘urta tashkilotlarining aktivlarini joylashtirishga qo‘yilgan talablarga e’tibor qilsak, kredit uyushmalarining depozitlariga sug‘urta tashkilotlarining ustav kapitalini 10% miqdorigacha joylashtirish mumkinligi me’yorlashtirilgan.

Ammo, hozirgi vaqtda kredit uyushmalari qo‘yilgan depozitlarga bank muassalariga nisbatan katta miqdordagi foiz to‘lanadi. Shu sababli, joylashtiriluvchi

aktivlarning daromadlilik darajasini oshirish maqsadida kredit uyushmalariga qo'yiluvchi depozit miqdorini chegarasini 10% dan 20% gacha oshirish taklif qilinadi.

Bundan tashqari, davlat sug'urta nazorati ruxsati bilan ta'sischilarga qarz berish ruhsat berilgan, agar qarz miqdori ustav kapitalining 30%dan miqdorida bo'lsa, bunday holatlarda berilgan qarzni nazorat qilish imkoniyatlari cheklanadi. Chunki ta'sischilar o'zlarining mavqelaridan foydalanib, sug'urta tashkilotlariga bosim o'tkazishi mumkin.

Bunday noxush holatlarga barham berish maqsadida ta'sischilarga qarz berishni taqiqlash zarur. Ushbu taklifni amalga tadbiq qilinishi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlanishiga imkon beradi.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosiy usullaridan biri qayta sug'urta mexanizmidan foydalanishdir. Afsuski respublika sug'urta bozorida qayta sug'urta faoliyati talab darajasida rivojlanmagan. O'zbekiston sug'urta bozorida ixtisoslashgan tartibda faqat bitta sug'urta kompaniyasi qayta sug'urta xizmati ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarisida, chet el sug'urta kompaniyasiga beriladigan majburiyat miqdori, har – bir sug'urta shartnomasi bo'yicha , 95%dan oshmasligi talab qilinadi.

Chet el sug'urta kompaniyasiga qayta sug'urta uchun berilgan sug'urta shartnomalarida sug'urtachining ulushi haqiqatdagi to'lov layoqatining marjasini 5% dan kam bo'lmasligi lozim deb belgilangan. Nazarimizda ushbu belgilangan me'yor darajasini kamaytirish qayta sug'urtaning rivojlanishiga imkon beradi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarisida, chet el sug'urta kompaniyasiga beriladigan majburiyat miqdori, har – bir sug'urta shartnomasi bo'yicha , 50% dan oshmasligini me'yor sifatida kiritilish lozim.

20-MAVZU.
SUG‘URTA TASHKILOTI FAOLIYATINI BYUDJETLASHTIRISH

20.1. Sug‘urta faoliyatini rejalashtirishning maqsad va vazifalari

Sug‘urta tizimi respublika iqtisodiyotining barqaror va ishonchli rivojlanishiga xizmat qilishi, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, fuqarolar va xo‘jalik subyektlari mol-mulkini sug‘uratlash uchun qo‘shimcha asos yaratishi lozim. Sug‘urta masalalari ijtimoiy ta’minot muammolariga bevosita bog‘liq. Zamonaviy sug‘urta sanoatini yaratish davlatga:

- tabiiy-texnogen xususiyatga ega kutilmagan xarajatlarni qoplash borasida davlat byudjetiga tushayotgan og‘irlikni kamaytirish;
- bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida sug‘urtalash orqali ijtimoiy ta’minotning ba’zi muammolarini xal etish (pensiya jamg‘armalari to‘lovi, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik yoki boquvchisining o‘limi, ishsizlik uchun nafaqalar, tibbiy xarajatlarni qoplash);
- aholi va tashkilotlarning omonatlarini milliy iqtisodiyotga uzoq muddatli asosda jalb etish imkonini beradi.

20.1-jadval

Sug‘urta va ishlab chiqarish faoliyatlarini biznes planlarining solishtirma tahlili[172]

Ishlab chiqarish faoliyati	Sug‘urta faoliyati
1.Bo‘lim. Tovar va xizmatlar 2.Bo‘lim. Tovarlarni sotish bahosi 3.Bo‘lim. Raqobatchilar to‘g‘risida ma’lumotlar 4.Bo‘lim. Marketing rejasi 5.Bo‘lim. Tashkiliy reja 6.Bo‘lim. Ishlab chiqarish rejasi 7.Bo‘lim. Huquqiy reja 8.Bo‘lim. Turli risklarni boshqarish rejasi 9.Bo‘lim. Moliyaviy reja.	1. Bo‘lim. Sug‘urta mukofotlari tushimi rejasi. 2.Bo‘lim. Qayta sug‘urtalash bo‘yicha reja 3.Bo‘lim. Sug‘urta zaxiralarini joylashtirish rejasi 4.Bo‘lim. Daromadlar va xarajatlarning qo‘shma balansi: Pul oqimlari rejasi, daromadlar rejasi, moliyaviy reja, aktiv va passivlar prognozi, to‘lov qobiliyati prognozlari

Sug‘urta tashkilotlari faoliyati ko‘p jihatdan, aholining fuqarolar mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan banklar va pensiya jamg‘armalari singari sug‘urta institutiga nisbatan ishonchi darajasiga bog‘liq. O‘z navbatida, sug‘urtani rivojlantirish qonunchilik bazasining mukammalligi davlatning soliq-byudjet va pul-kredit siyosatining samaradorligi, sug‘urta faoliyati ustidan nazorat sifatida va sug‘urta tashkilotlari faoliyatining ishonchliligiga bog‘liq.

Sug‘urta menejmentining maqsadi – kompaniya bo‘linmalarining o‘zaro gorizontal aloqalarini shakllantirish, informatsion texnologiyalarni qo‘llash, inson

[172] Муаллифлар жамоаси томонидан тайёрланди.

omili rolini kuchaytirish va shu bilan birga mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish evaziga kompaniyaning funksional bo‘linma tarkiblarini boshqarishni sifat jihatdan oshirishga erishishdir.

Sug‘urtani boshqarish tizimini qayta qurish uchun respublika sug‘urta tashkilotlari mustaqil sug‘urta tashkilotlariga aylantirildi va sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi yangi qonun qabul qilindi.



20.1-rasm. **Sug‘urta tashkiloti byudjetini rejalashtirishning algoritmi**[173]

Sug‘urta faoliyatini byudjetlashtirish – bu uning moliyaviy faoliyatini rejalashtirish, tahlil va nazorat qilish jarayonidir. Sug‘urta faoliyatini byudjetlashtirishda, rejalashtirish katta ahamiyatga ega. Sababi rejalashtirish orqali qo‘yilgan maqsadga erishishning optimal variantlari ishlab chiqiladi.

Sug‘urta tashkiloti byudjetini shaklantirishda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- statistik – sug‘urta tashkilotining moliyaviy faoliyatiga qaratilgan byudjet;
- egiluvchan – aniq faoliyatga qaratilgan byudjet;
- tadrijiy – oldingi yillar ma’lumotlari asosida shaklantiriladigan byudjet;
- boshlang‘ich byudjet – noldan shakllanadigan byudjet, bozordagi mavjud holat va yangi ma’lumotlar asosida shakllanadi.

Sug‘urta tashkilotida byudjetlashtirish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi.

[173] Муаллифлар жамоаси томонидан тайёрланди.

Birinchi bosqich – sug‘urta faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlar prognozini shakllantirish, sug‘urta tashkilotining tashkiliy strukturasi, biznes jarayonlarini aniqlash va boshqaruvni tashkil etish.

Ikkinchi bosqich – sug‘urta tashkiloti faoliyatini prognozlashtirish va byudjetini shakllantirish.

Uchinchi bosqich – boshlang‘ich byudjet ijrosini tahlil va nazorat qilish.

2. Byudjetlashtirishning zamonaviy tizimlari.

Hozirgi kunda sug‘urta tashkilotlarining quyidagi byudjet turlari mavjud.



20.2-rasm. **Sug‘urta tashkilotlarining byudjet turlari.**[174]

Sug‘urta tashkilotining operatsion byudjeti. Operatsion byudjetga sug‘urta tashkiloti faoliyatining yo‘nalishlarini aks ettiruvchi daromadlar va xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.

Sug‘urta mukofotlari tushumi byudjeti. Bunda keyingi yil uchun qancha sug‘urta mukofotlari yig‘ilishi, sug‘urta shartnomalar soni, sug‘urta turlari va ular bo‘yicha tarif stavkalar, qayta sug‘urta bo‘yicha ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.

Sug‘urta to‘lovlari byudjeti. Bu tuzilgan va uzaytirilishi mumkin bo‘lgan sug‘urta shartnomalarining zararlilik darajasi ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda to‘ziladi. Agar sug‘urta to‘lovlari byudjeti ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lsa, unda byudjet sug‘urta mukofotlari byudjetiga muvofiq ravishda tuziladi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida to‘langan sug‘urta mukofotlari va to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta to‘lovlari hisobga olinadi.

Qayta sug‘urta byudjeti. Sug‘urtaga qabul qilingan risklari va o‘z mablag‘lari hajmiga qarab shakllantiriladi. Byudjet ma’lumotlari sug‘urta mukofotlari hajmi va qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar hajmi ma’lumotlari asosida shakllanadi.

[174] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

Sug'urta zaxiralari byudjeti. Bu sug'urta tashkilotining sug'urta shartnomalari hajmining aktuar hisob-kitoblar natijasidagi majburiyatlarini aks ettiradi. Byudjetni shakllantirishda ma'lum bir turdagi metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar sug'urta mukofotlari tushumi hajmlari, o'z mablag'lari ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta rezervlarini joylashtirish byudjeti. Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosan shakllanadi.

Sug'urta tashkilotining tashkiliy byudjeti. Bu sug'urta tashkilotining bo'limlari ma'lumotlari, talabnomalari asosida shakllanadi va sug'urta tashkilotining mavjud moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib muvofiqlashtiriladi.

Marketing va reklama byudjeti. Bu byudjet alohida sug'urta turlari yoki sug'urta tashkilotining umumiy faoliyati bo'yicha shakllanadi.

Informatsion texnologiyalar va texnik ta'minot byudjeti. Bu byudjet o'z ichiga kompyuter va orgtexnika, aloqa xizmatlari xarajatlaridan tashkil topadi.

O'qitish va qayta o'qitish byudjeti (mehnat resurslar byudjeti). Marketing va reklama byudjeti, informatsion va texnik ta'minot byudjeti va o'qitish byudjetlari investitsion xarakterga ega, sababi, ular joriy yoki istiqboldagi xarajatlarni qamrab oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki sug'urta tashkilotlari bir nechta turdagi mayda byudjetlarni shakllantirishlari mumkin. Undan tashqari katta sug'urta tashkilotlari ularning umumlashgan variantlarini tashkil etishlari mumkin.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar oqibatida ko'rish ehtimoli bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi va rivojlandi.

Shunday anglanilgan zarurat - aniq sug'urta manfaatlari negizida, sug'urta munosabatlari yuzaga keldi. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlardir. Bu o'rinda, sug'urta munosabatlari yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhim ekanligini ta'kidlash lozimdir.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'iy nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Sug'urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. «Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi».[175]

«Shu narsa aniqki, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar... sug'urta tizimisiz samarali yashash, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas».[176]

Sug'urtalovchilar faoliyati mijoz (sug'urtalanuvchi)lar bazasi bilan shakllanishi bo'yicha, sug'urtalanuvchilar esa ishlab-chiqarish faoliyatida o'zlarini shaxsiy

---

[175] O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni- "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2002-yil, 4-5-son, 68-modda.

[176] Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. Prezident I.Karimovning 1999-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2000-yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// T: O'zbekiston, 2000.

qiziqishlarini qondirishlari bilan xarakterlanadi. Sug'urtalovchilar o'zlarining sug'urtalanuvchilari ko'payishi hamda foyda olishdan manfaatdordirlar. Chunki, boshqa iqtisodiy faoliyat turlari kabi sug'urta sohasi ham tijorat faoliyatiga tegishli bo'lib, asosiy maqsadi foyda va daromad olishdir.

Har qanday bozorda bo'lgani kabi sug'urta bozorida ham, sug'urta xizmatlari sifat jihatidan mukammalligini hamda narh jihatidan hammabop va hamyon ko'taradigan bo'lishini ta'minlovchi - raqobatdir. Sug'urta bozoridagi raqobat muhiti aksariyat, ma'lum darajada sug'urta kompaniyalar boshqaruvi (menedjmenti) tomonidan shakllantiriladi. Qolaversa, sug'urta menedjmenti sug'urta faoliyatini tashkil etishda muhim tarkibiy element hisoblanib, sug'urta unumli faoliyat ko'rsatib, ishlab turishini ta'minlovchi faoliyat turlari majmuidir.

Ingliz tilidan olingan "management" tushunchasi boshqaruv, tashkil etish, boshliqlikni amalga oshirmoq mazmunini anglatadi. Umumilmiy lug'atlarda ushbu tushunchaga bir nechta izoh va sharhlar mavjud:

Sug'urta menedjmenti – bu sug'urta tashkilotda ishlaydigan odamlarni o'zaro moslangan harakati orqali ushbu tashkilotni maqsadiga erishish.

Sug'urta menedjmenti – bu odamiy va moddiy resurslarni o'zaro moslangan foydalanishi orqali sug'urta tashkilotini maqsadiga erishish uchun rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat jarayoni.

Vaholanki ushbu ta'riflar turli bo'lsada, shunga qaramasdan, ularni tarkibida uchta umumiy belgi bor:

- *boshqarishda albatta maqsad mavjudligi ko'rsatiladi;*
- *ushbu faoliyatni o'ziga xos zakovatli fe'li belgilanadi;*
- *boshqarish tashkilotda amalga oshirilishi ma'lum qilinadi.*

Sug'urta menedjmenti – bu bozor munosabatlariga xos bo'lgan alohida boshqarish turi. Sug'urta menedjmenti boshqaruvni iqtisodiy usullariga asoslangan va sug'urta faoliyatini foyda keltirishiga va daromadliligiga qaratilgan.

Sug'urta menedjmenti – bu kasbiy boshqaruvdir. Sug'urta menedjmenti – bu sug'urta kompaniya faoliyati boshqaruvini aniq sharoitlarini har tomonlama tahlil qilishiga, yangiliklar loyihalarini ishlab chiqishga, sug'urta kompaniya rivojlanishini taktika va strategiyasini ishlab chiqishga va boshqalarga qaratilgan tashkiliy faoliyatni turidir. Menedjment tushunchasi dastlab Amerikada kelib chiqqan va dastlabki o'zini uy xo'jaligi yuritish qobiliyatini yoki qanaqadir ishlar bajarishni anglatgan. Jamiyat, ayniqsa kapitalistik iqtisodiyot rivojlangan sari «menedjment» tushunchasi ham tabiiyki o'zgargan.

Qachonki birtalay yangi kasblar va mehnat turlari namoyon bo'lganda ayrim ko'rinishdagi faoliyat turida – boshqarish faoliyatida ehtiyoj zarurat bo'ladi. Shu tarzda, menejment odam faoliyatini mustaqil shakliga - ishlab chiqarishni boshqarishiga – aylanganda va u mutaxassislarni ayrim guruhi – kasbiy menedjerlar – tomonidan amalga oshiriladi.

Zamonaviy bosqichda menedjment o'zida boshqaruvga mehnat turi sifatida qo'yiladigan talablar xilma-xilligini aks ettiradi. Menedjment bo'yicha zamonaviy adabiyotda eng ko'p uchraydigan atama - «tashkilot». Keng ma'noda u umumiy maqsadga ega bo'lgan insolar (ikki yoki ko'proq) guruhini anglatadi.

Menedjment - bu boshqarishni eng unumli tashkil etish va optimallashtirish tizimi to‘g‘risidagi fanidir. Hozirgi paytgacha sug‘urta menedjmenti tushunchasini tariflash bo‘yicha yagona yondashuv yo‘q. Sug‘urta menedjmenti mazmuni turlicha talqin qilinadi. Iqtisodchilarning sug‘urta menedjmentini ifodalovchi izoh va talqinlari xilma-xildir. Albatta, bu hol ajablanarli emas.

Chunki jamiyat rivojlanishi, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida ixtisoslashgan mehnat faoliyati doirasini ancha kengaytirdi. Iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish modellariga o‘tish sharoitida yangi texnologiyalar yangi qarorlarni talab qilganidek, ularni tushunishning ham yangi bosqichi talab etiladi. So‘zni tor ma’nosida sug‘urta menedjmentni sug‘urta kompaniya ishchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog‘lashadi; keng ma’nosida - sug‘urta kompaniyasi va uni ishchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog‘lashadi.

Sug‘urta menedjmentiga berilgan mavjud izoh va talqinlarni tahlilidan kelib chiqib, mazkur dissertatsiya ishiga asos qilib quyidagi talqinni qabul qilish mumkin: sug‘urta menedjmenti - sug‘urta kompaniyasi va ishchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.



20.3-rasm. **Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini boshqarish funksiyalari**[177]

Sug‘urta faoliyatida tezkor boshqarishni obyekti – bu faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyasi. Bozor iqtisodiyot sharoitida har bir faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urtachini ikkita muommo hayajonlantiradi: qanday qilib mijozlarga eng unumli xizmat ko‘rsatish va qanday qilib boshqarish sifatini oshirish. Sug‘urta kompaniya faoliyatini boshqarish funksiyalari 20.3-rasmda keltirilgan.

Sug‘urta menedjmenti sug‘urtaning mazmun mohiyati bo‘lib hisoblanadi. SHuning uchun ham sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta menedjmentning samaraliligini baholash, daromadni ko‘paytirish va sug‘urta kompaniyani bozor bohosini oshirishda birinchi qadam bo‘lib hisoblanadi.

[177] Ефимов С.Л. Организация управления страховой компанией: теория, практика, зарубежный опыт. - 38с.

20.3. O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta menedjmentning zamonaviy holati

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta kompaniyalar faoliyatini boshqarish davomida quyidagi bosqichlarni belgilash mumkin (20.4 rasm):

- sug‘urta mahsulotlarni sotish;
- marketing ishlarini olib borish;
- yangi sug‘urta mahsulotlarni ishlab chiqish va borini takomillashtirish;
- ta’minlash xizmatlari amalga oshirish.



20.4-rasm. **Sug‘urta kompaniyani boshqaruvini amalga oshiradigan faoliyatlar**[178]

O‘zbekiston sug‘urta bozorida asosiy salmoqni agentlar orqali sotuv, so‘ng banklar va boshqa kanallar tashkil qiladi. Buning sababi shuki, sug‘urta bozori endigina rivojlanish jarayonida potensial sug‘urtalanuvchiga sug‘urta kabi murakkab mahsulotni tanishtirish, uning afzallik tomonlarini ko‘rsata bilish va shu tariqa iste’molchilar ehtiyojini rivojlantirish va doimiy ravishda qondirib borish vazifasini agentlar bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta kompaniyalari faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning shakllanishi deb potensial iste’molchilarga maqsadli ta’sir natijasida Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab darajasini muayyan sug‘urta kompaniyasi amalga oshirayotgan taklifiga yaqinlashtirish deb tushuniladi.

Potensial iste’molchilarga ta’sir ko‘rsatishning quyidagi usul va vositalar: aniq maqsadga yo‘naltirilgan reklama, sug‘urta shartnomalari tuzish soxasidagi tashkiliy tadbirlar majmuidan, narxning shakllanishi, sug‘urta xizmatlari tariflarini tabaqalashtirishdan va qo‘shimcha xizmat ko‘rsatishlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Sug‘urta sharnomasining tuzilishi muayyan sug‘urta kompaniyasining xizmatiga bo‘lgan talabning shakllanishining yakunlovchi bosqichidir. Bunda potensial sug‘urtalanuvchi hali sug‘urta kompaniyasining mijozi bo‘lmaganligi sababli sug‘urta xizmatlariga talabni jonlantirishga ahamiyat berish muhimdir.

[178] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

Sug‘urta xizmati ko‘rsatishning yuqori darajada madaniyatli bo‘lishi potensial sugrtalanuvchilarda sug‘urta xizmatlariga talabning shakllanishi garovidir. Shuning uchun muayyan sug‘urtalovchi ko‘rsatadigan servis darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning sug‘urta xizmatlari talabi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Lekin servis darajasini oshirish xarajatlarni ko‘paytirishga olib keladi. Bu holda sug‘urtalovchi amalga oshiradigan marketing xizmatining vazifasi xizmat ko‘rsatish bilan sug‘urta xizmatlariga talabning iqtisodiy omillari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatning qonuniyligini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Sug‘urtalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish sifat mezoni ular tomonidan e’tirozlarni yo‘qligi hisoblanadi.

Sug‘urta kompaniyalarining faoliyati davomida sug‘urta xizmatlariga talabni shakllanishida quyidagi bosqichlarni belgilash mumkin:

- Sug‘urta bozorini o‘rganish va tahlil qilish uchun kerakli axborotlarni to‘plash;
- Aniq sug‘urta xizmati turlariga talabni o‘rganish va ularning raqobat qodir narxlarini aniqlash;
- Sug‘urtalovchininng reklama faoliyatini tadqiq etish.

Sug‘urta bozoriga chiqishda axborotlarni to‘plash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Marketing axborotlari birlamchi va ikkilamchi ma’lumotlardan iborat bo‘ladi. Birlamchi ma’lumotlar aniq masalani yechish maqsadida yangitdan to‘planadi. Ikkilamchi ma’lumotlar esa mazkur muammoning yechimiga to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan va oldindan tayyorlangan ma’lumotlardir.

Undan tashqari, birlamchi ma’lumotlarni yigish faqat ikkilamchi ma’lumotlar yetishmay qolganligi uchun zarur bo‘ladi. Sug‘urta kompaniyasi axborotlar to‘plash orqali bozorda:

- aniq ustuvorlikka erishadi;
- moliyaviy xavfsizlikni ta’minlaydi va mavqei tushib ketishining oldini oladi;
- sug‘urtalanuvchilarning munosabatini aniqlaydi;
- tashqi muhitni nazorat qiladi;
- strategiyani boshqaradi;
- faoliyatini baxolaydi;
- reklamasiga ishonchni oshiradi;
- qarorlarini asoslaydi;
- kelajagiga ishonch xosil qiladi;
- samaradorligini yaxshilaydi.

Ammo marketing axborot tizimida biror aniq bozorga kirish muammosi belgilanmaguncha ikkilamchi axborotlar o‘rganilmaydi. Shu bilan birga ikkilamchi axborotlar to‘la o‘rganilmaguncha birlamchi ma’lumotlar to‘planmaydi.

Bozorda pozitsiyalash – bu shubxa tug‘dirmaydigan, boshqalaridan aniq farq qiladigan, bozorda eng istalgan joyda bo‘lgan va istemolchilarning ongida turadigan sug‘urta mahsulotini taminlashdir. Ana shunday xulosani hisobga olgan holda sug‘urtachi ikki yo‘ldan borib bozorda o‘rnini (pozitsiyasini) tanlab olishi mumkin.

Birinchi yo‘l-o‘zini, mavjud sug‘urtalovchi raqobatchilar bilan birga bozorda yonma-yon turib pozitsiyalash va bozor ulushi uchun kurashni boshlash. Aynan ana shu yo‘lni tanlash sug‘urtalovchining raqobatchi mahsulotidan afzalroq mahsulot yaratishga, ikkita raqobatchini yetarli darajada sig‘dira oladigan bozorning kattaligiga, u raqobatchinikiga qaraganda ko‘proq resurslarga egaligiga, tanlangan pozitsiyasi

sug‘urtalovchining kuchli ishchanlik tomonlarining xususiyatlariga to‘laroq, javob berishiga bo‘lgan ishonchi kurashishga asos bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘l hali bozorda paydo bo‘lmagan va qondirilmagan ehtiyojini qondirishga mo‘ljallangan sug‘urta mahsulotini ishlab chiqib erkin segmentchani egallab olishdir.

Lekin bunday qarorga kelishdan oldin sug‘urtalovchi quyidagilarga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak:

1. Bunday sug‘urta maxsulotini yaratish uchun texnik imkoniyatlarga;
2. Rejalashtirilayotgan baxolar doirasida mahsulot yaratishga bo‘lgan iqtisodiy imkoniyatlarga;
3. Bunday sug‘urta mahsulotini avzal ko‘ruvchi istemolchilarning yetarli darajadagi miqdoriga.

Agar oldinga qo‘yilgan masalalarga bo‘lgan javoblar ijobiy tus olsa bu «bo‘shlikni» to‘ldirishning choralari ko‘riladi. Sug‘urtalovchi o‘z o‘znini topishi (pozitsiyalanish) haqida qarorga kelgandan so‘ng marketing kompleksining qolgan mayda ishlarini ishlab-chiqish bilan shug‘ullaishi mumkin.

Lekin tanlangan segmentlarni aniq mo‘ljal qilish minimal tavakkalchilikni aniqlashga qaratilishi kerak. Sug‘urtalovchi bozorning muayyan maqsadli bo‘g‘ini (segmenti)ga kirib borish strategiyasini tanlab strategik rejalashtirish va marketing majmui (kompleksi)ni rejalashtirishga kirishadi.

Bozorlar xaridorlardan tashkil topadi, xaridorlar esa o‘z navbatida bir-birlaridan turli mezonlar bilan farq qiladilar, yani ularning extiyojlari mulkiy munosabatlariga muvofiq turlicha bo‘ladi, moddiy imkoniyatlari olgan extiyojlari darajasiga, urf-odatlari va qiliqlaridagi farqlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu pozitsiyalarninig har biridan bozorni segmentlarga ajratish uchun foydalanish mumkin.

Aslida har bir xaridor bozorning aloxida bir bo‘g‘ini ekanligini hisobga olib, sotuvchi xar kim uchun aloxida bir marketing dasturini ishlab chiqishi lozim. Biroq sug‘urta tovarlarini har bir muayyan xaridornigan extiyojini qondiradigan qilib moslashtirib bo‘lmasa kerak. Bir-birlaridan o‘zlarining sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan talablari va o‘zlarining javob tarzidagi marketing reaksiyalari bilan farq qiladigan istemolchilarning keng toifalarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Sug‘urta menedjmentni muhim qismi - aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish dir. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urta tariflarini ishlab chiqish va zaxiralarini shakllantirishda aktuar hisob-kitoblarning zamonaviy uslublaridan foydalanish qoniqarsizdir. Hali yosh tarmoq bo‘lganligi sababli, bu sohada ishlovchi zamonaviy bilim va yetarli darajada malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi ham sezilib turadi.

Tajribali mutaxassislarning tanqisligi sug‘urta mahsulotini yaratishdan boshlab, uni sug‘urtalanuvchilarga yetkazishgacha va undan keyinga jarayonlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda aktuar xizmatlari aksariyat sug‘urta kompaniyalarda o‘zlarining aktuar bilim talablariga javob bermaydigan xodimlari tomonidan amalga oshirilayotganligi sug‘urta bozorida aktuariylar yetishmasligidan dalolatdir. Chunki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 6 sentyabrdagi 82-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Aktuariy malaka sertifikatini

berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom[179] asosida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo‘lgan faqat ikkita aktuariy mavjud.[180]

Sug‘urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish, sug‘urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash hamda tekshirilayotgan sug‘urta obyekti bo‘yicha xulosa tuzish bo‘yicha xizmatlar sug‘urta menedjmentni ajralmas qismidir.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta syurveyeri vazifalari adjasterlar vazifalari bajarilishi kabi sug‘urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo‘lmagan xodimlari tomonidan bajarilmoqda. Respublikamizda aniq bir yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan sug‘urta syurveyerlik tashkiloti mavjud emas. Albatta, bu sug‘urta bozori rivojlanishi va sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urta qaltisliklarni qabul qilishda salbiy holatlardan biridir.

Qaltisliklarni sug‘urtaga qabul qilish jarayoni uslubiy ta’minlanmaganlik va sug‘urta bozori rivojlanib borayotgan bir paytda sug‘urta kompaniyalarining shaxsiy sug‘urta turlari bo‘yicha sifatli sug‘urta ekspertizani amalga oshirilishiga bo‘lgan talablari kuchayib bormoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta menedjmenti vazifalari, bir shaxs tomonidan emas balki sug‘urta agenti, sug‘urta brokeri, sug‘urta syurveyeri hamda adjaster kabi sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan yoki sug‘urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo‘lgan xodimlari tomonidan bajarilmoqda.

Sug‘urta rivojlanishining tendensiyalari, inson, jamiyat, davlat va iqtisodiy faoliyat subyektlarining manfaatlarini turli hil qaltisliklardan himoya qilish instrumentini tashkil etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda sug‘urta ekspertiza, sug‘urta kompaniyasini operativ boshqarishning asosiy qismi hisoblanadi, sug‘urta ekspertiza natijalari esa ma’lum darajada sug‘urta kompaniyasi operatsiyalarining natijalarini belgilab beradi.

---

[179] "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2007-yil, 41-42-son, 423-modda.

[180] Актуарий либо прав, либо может это доказать. Бизнес-вестник востока. Деловая газета. 2008-yil 4-noyabr 88 (1093)-son. 8-bet.

21-MAVZU
SUG'URTA TASHKILOTI DAROMADLARI VA XARAJATLARI

21.1. Sug'urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhlanishi

Sug'urta tashkiloti hayotni sug'urta qilish borasida tuzilgan har bir shartnomada turli darajadagi sug'urta tarifini qo'llashi yoki daromadlilik me'yorini har bir shartnoma bo'yicha mustaqil ravishda hisoblab chiqishi va belgilashi mumkin. Hayotni sug'urta qilish klasslari bo'yicha daromadlilik me'yorlari qat'iyy belgilangan bo'lishi, uning tarif stavkalariga o'zgarishlar kiritish esa, davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim.[181]



21.1-rasm. **Sug'urta tashkilotlari daromadlarining manbalari va tarkibi.**[182]

Sug'urta tashkilotlarida asosiy daromad va xarajatlar hisobi o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Sug'urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat

[181] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993, 350 pg

[182] Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

bilan shug‘ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag‘larining jami uning daromadi hisoblanadi.

Sug‘urta tashkiloti daromadlarini guruhlashning turli variantlari mavjud. Ular ichida manbalarga ko‘ra, olingan daromadlarni uch guruhga bo‘lishga asoslangan variant keng qo‘llaniladi (21.1-chizma):

A) sug‘urta faoliyatidan olingan daromadlar. Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar sug‘urtachi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bu daromadlarning asosiy qismi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha undirilgan mukofotlar hisobiga shakllantiriladi.

Sug‘urta tashkilotining mukofot tushumlari hajmiga sug‘urta majburiyatlari portfelining tarkibi va tuzilishi, tarif siyosati, marketing strategiyasi hamda boshqa qator omillar o‘zaro bog‘liqlikda ta’sir etadi.

Masalan, ishlab chiqilgan marketing strategiyasini unga mos bo‘lgan tarif siyosatisiz amalga oshirib bo‘lmaydi, o‘z navbatida, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan marketing strategiyasi sug‘urta portfeli balanslashuvini ta’minlaydi va aksincha.

Sug‘urta tashkilotining mukofot tushumlariga bozor kon’yunkturasi, inflyasiya sur’ati, me’yoriy qonunchilik bazasi, amaldagi soliqqa tortish tizimi, sug‘urta bozorining monopollashganlik darajasi, kredit foizi dinamikasi, mamlakatdagi ijtimoiy himoyaning holati va boshqa qator omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar ta’sirining qandayligidan qat’iyy nazar amaliyotda sug‘urta tashkilotining mukofot tushumlari oqimi ortishi yoki kamayishi hodisasi kuzatiladi.

O‘zaro kelishuv shartnomasiga muvofiq sug‘urta tashkiloti sug‘urta riskining ma’lum ulushi bo‘yicha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Bu jarayonda u sug‘urta operatsiyalarini birgalikda sug‘urtalash mexanizmi orqali sug‘urta mukofotining mos bo‘lgan qismi o‘z hisobiga o‘tkazilishidan ham daromad olishi mumkin.

Sug‘urta tashkilotining yana bir daromad manbai qayta sug‘urta tizimida qatnashish orqali mukofotlar ulushini undirishdir. Bu ulushning qanday kattalikda bo‘lishi qayta sug‘urtalashning rivojlanganlik darajasi, unga bo‘lgan talab, qayta sug‘urtalovchilarning kasbiy yetukligi kabi omillar hamda birlamchi sug‘urta bozori ko‘lami, sug‘urta risklarining hajmi kabilarning ta’siriga bog‘liqlikda kechadi.

Sug‘urta tashkiloti qayta sug‘urtalashni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lsa, u sug‘urta hodisasi yuz berganda shartnoma shartlariga binoan qayta sug‘urtalashga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha zarar qoplamasidagi ulushini ham undirib oladi.

Sug‘urta tashkiloti vositachilik vazifasini ham bajarishi mumkin. Masalan, riskni qayta sug‘urtalashga o‘tkazish jarayonida sug‘urtachi vositachilik haqini undirib oladi. Sug‘urta tashkiloti ayrim holatlarga ko‘ra, riskni boshqa sug‘urtachiga siylov etishi orqali vositachilik va brokerlik rag‘batlantirishlarini olishdan ham daromad ko‘rishi mumkin.

Teng ulushdagi qayta sug‘urtalash shartnomasida qayta sug‘urtachiga tantem to‘lovlari ham nazarda tutilishi sug‘urtachining qayta sug‘urtalovchining foydasida o‘z ulushiga ega bo‘lishi shaklidir.

B) investitsiya joylashtiriluvidan olingan daromadlar. Sug‘urta tashkilotining ushbu faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq emas. Sug‘urtachining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug‘urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi. Odatda, sug‘urta mukofotlari ma’lum vaqt oralig‘ida sug‘urtachi

ixtiyorida bo'lishi davrida amaldagi me'yoriy qoidalarga asoslanib, daromad aktivlariga joylashtirilishi unga investitsiya daromadlarini keltiradi. Investitsiya imkoniyatlari bo'yicha uzoq muddatga hayotni sug'urtalash zaxiralari ko'proq manfaatlidir.

Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlari tarkibi[183]:

- bank jamg'armalari foizlari;
- aksiyalardan dividend foizlari;
- qimmatli qog'ozlardan daromadlar;
- ko'chmas mulkdan olingan daromadlar kabilardan iborat bo'ladi.

Bu faoliyatning ahamiyatli jihati shundaki, sug'urtachi o'z mijozlariga bonus to'lovlarini aynan investitsiya joylashtiriluvidan oladigan manbalari hisobidan to'laydi.

Investitsiya bozorlari rivojlangan mamlakatlarda ushbu faoliyatdan sug'urtachining olgan daromadlari ayrim sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelgan zararlarni qoplash imkoniyatini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan sug'urta tashkiloti investitsiya faoliyatini samarali olib borishi uning daromad manbalari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

D) sug'urta tashkilotining boshqa daromadlari. Sug'urtachi sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishi va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari boshqa faoliyatdan ham daromad olishi mumkin.

Bunday daromadning manbalari:

- depo mukofotlar hisobiga o'tkazilgan foiz summalari;
- regress tartibida olingan summalar;
- asosiy fondlar, moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- ijarachilik faoliyatidan olingan daromadlar;
- sug'urta zaxiralarining qaytim summalari;
- o'qitish, maslahat ishlarini olib borish bo'yicha undirilgan to'lovlar hisoblanadi.

Sug'urtachining sug'urta xizmatlarini sotuvidan tashqari olgan daromadlari asosan o'z filiallariga ish qog'ozlarini (hisobot blanklari va shu kabilarni) tayyorlab berish, ularning yangi «mahsulot» ini reklama qilish kabilar hisobiga olinadi. Ayrim hollarda ular ijara munosabatlari orqali ham shakllantiriladi. Sug'urtachining sotuvdan tashqari daromadlarini hajmi sug'urta tashkilotining kattaligiga bog'liqdir.

Sotuvdan tashqari daromadlarni olish uchun amalga oshirilgan xarajatlarni sug'urta faoliyatiga yoki sug'urtadan boshqa faoliyatga taalluqli ekanligini aniqlash murakkab kechadi. Shuningdek, sug'urta tashkiloti ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha sug'urtalashni amalga oshirmayotgan bo'lsa-da, uni yo'lga qo'yish yuzasidan xarajatlarni sotuvdan tashqari daromadlari hisobiga bajaradi.

Ma'lumki, sug'urtada risklar transformatsiyasi jarayonida hamda bosh tashkilot va filiallar (yakuniy moliyaviy natija balansi yoki hisob raqamiga egaligiga ko'ra) o'rtasida mas'uliyat taqsimotining mexanizmi turlichadir.

---

[183] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. P- 44

Sug'urta faoliyati – sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug'urtalanuvchining zararini qoplash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos iqtisodiy faoliyat turidir. Sug'urta hodisasi yuz berishi yoki bermasligiga ko'ra qoplama to'lashning ilmiy asoslanganlik (o'rganilgan, hisoblangan, aniqlangan) me'yorini belgilash va ko'rilgan zararni sug'urta tashkilotining zaxira fondidan to'lash maqsadga muvofiqdir[184].

Sug'urta hodisasining yillar bo'yicha yuz berishi ehtimolligi turlichadir. Ayrim aniq bir yilda bu hodisalarning soni ko'p bo'lishi ham mumkin. Aynan shu yil bo'yicha sug'urta tashkilotining faoliyati zarar bilan tugashi mumkin. Zaxira fondining mablag'i yetishmasligi holatida sug'urta tashkilotida qolgan daromad hisobidan uning har yilgi zaxira fondiga ajratma me'yorini qayta ko'rib chiqish zarur. Statistik ma'lumotlarga asoslanib, qayd etish kerakki, sug'urtaning ko'p turlari bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta qoplamasi undirilgan mukofotlari summasiga nisbatan past foizlarni tashkil etadi. Shunga asoslanib, tariflarni oshirish emas, balki uning tarkibini o'zgartirish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Qayta sug'urtalash shartnomasini tuzishda qayta sug'urtalovchi (xalqaro terminda «sedent») qayta sug'urtalash mukofotining ma'lum qismini yoki hammasini deponentga o'tkazishi nazarda tutilishi mumkin. U shartnoma davri tugashi hamda sug'urta hodisasi yuz bermagan taqdirda mazkur mukofotlar hisobidan olingan depo foizlari bilan birgalikda qayta sug'urtalovchi hisobiga o'tkaziladi. Uning hajmi (foizda) shartnomada qayd etilgan bo'ladi.

Shunday kafolat berilishi qayta sug'urtalash mukofotlarini moliyaviy zaxira sifatida ishlatish imkoniyatini oshiradi.

Fuqarolik qonunchiligiga binoan sug'urta tashkiloti o'z mijozi manfaatlarini himoya qiluvchi vakil sifatida sug'urta hodisasiga sababchi bo'lgan aybdor shaxsga regress da'vo qilish huquqiga ham egadir. Odatda regress tartibidagi summa sug'urtachi o'z kafilligini bajarib bo'lganidan keyin undiriladi. Bunday faoliyat natijasida undirilgan summa sug'urta tashkilotining sug'urta ta'minoti to'lovlari bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun manba hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida o'z faoliyatida foydalanilayotgan asosiy fondlarini sotish huquqiga egadir. Shunda faoliyat bo'yicha sug'urtachining foydasi asosiy fondni sotishdan olgan tushum summasi bilan mulkning balans (qoldiq) bahosida hisobdan chiqarish summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Sug'urta tashkilotining mulki ijaraga berilishi mumkin. Masalan, ko'chmas mulk obyektlari hamda asosiy fondlardan ayrim hollarda ijara obyekti sifatida foydalaniladi. Bu faoliyat natijasida undirilgan ijara to'lovi ham sug'urtachining daromadi hisoblanadi.

---

[184] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. P-32

Sug‘urta tashkilotining yana bir daromad manbai o‘qitish, maslahat ishlari uchun undirilgan to‘lovlar summasi, shuningdek, risk-menejment bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishi, dastur «mahsulot»larini o‘rnatib berishi kabilar hisoblanadi. Bu daromadlar sug‘urtaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxldor bo‘lmasa-da, ammo u bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanadi.

Sug‘urta tashkiloti daromadining shakllanish mexanizmi, tarkibi va tuzilishini o‘rganish uning o‘ziga xos faoliyat turi ekanligini namoyon etadi.

21.2. Sug‘urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi

Sug‘urtachining jami mablag‘lar sarfi sug‘urta «mahsulot»i tannarxini tashkil etadi. U amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi hamda sug‘urtachi xarajatlarning tarkibini belgilashi uchun asos hisoblanadi. Soliqqa tortish bazasini aniqlashda sug‘urtachining jami xarajatlari va ularning tarkibini aniqlashtirish ham talab etiladi.

Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining tarkibi ham xilma-xildir (22.1-jadval). Sug‘urta tashkilotining xarajatlari sakkiz turdan iborat bo‘lib, har bir tur o‘z navbatida, asosiy va maqsadli faoliyat hamda xarajatlarning amalga oshirilishi vaqtiga qarab guruhlanadi. Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining turlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular o‘z ahamiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

A) sug‘urtani amalga oshirish xarajatlari. Bu xarajatlar sug‘urtachi faoliyatini moliyalashtirish uchun amalga oshiriladi. Sug‘urta tashkiloti faoliyatini tahlil etishda mazkur xarajatlar tarkibini ma’lum belgilariga ko‘ra guruhlash maqsadga muvofiqdir.

Sug‘urtachining faoliyati jarayonida mablag‘lar sarf etilishi yuzasidan belgilangan vazifalarga ko‘ra, sug‘urta tashkiloti daromadi va zararlari haqidagi hisobotiga mos ravishda sug‘urta ishini yuritish xarajatlari tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin:

- shartnomalarni tuzish va bajarish xarajatlari;
- investitsiya faoliyati bo‘yicha xarajatlar;
- boshqaruv xarajatlari.

B) sug‘urta ishini yuritish xarajatlari sarflanishiga ko‘ra quyidagicha bo‘lish mumkin:

- ish haqi to‘lovlari;
- davlat fondlariga ajratmalar, xodimlarni tayyorlash xarajatlari, reklama hamda marketing xarajatlari, xo‘jalik xarajatlari va boshqalar;

Sug‘urta ishini yuritish xarajatlarining yuzaga kelishi davriga ko‘ra, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- sug‘urta shartnomasini tuzish uchun oldindan qilingan (ish qog‘ozlarini tayyorlash, statistik ma’lumotlarni yig‘ish, tarif hisob-kitoblari va shu kabi) xarajatlar;

21.1-jadval

Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining turlari va ularning tasniflanishi[185]

t/r	Xarajat turlari	Xarajatlarning tasnifi		
		Asosiy faoliyat bo‘yicha	Maqsadli faoliyat bo‘yicha	Amalga oshirilish vaqtiga ko‘ra
1	Ma’muriy-xo‘jalik yuritish xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	Shartnomani amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
2	Vositachilik taqdirlashlarini undirish xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
3	Reklama va marketing xizmati xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
4	Maxsus ish qog‘ozlarini tayyorlash xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
5	Sug‘urta zaxiralariga ajratmalar	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
6	Qayta sug‘urtalash xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
7	Investitsiya joylashtiriluvi xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
8	Sug‘urta qoplamasi xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Sug‘urta hodisasi yuz berganda

- sug‘urta shartnomasi tuzish davrida qilingan (xalqaro terminda «acquisition») xarajatlar;

- sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida qilingan (masalan, riskni qayta sug‘urtalashga o‘tkazish bo‘yicha) xarajatlar;

- sug‘urta hodisasi yuz berganda (sabablarini o‘rganish va uning oqibatlarini tugatish uchun) qilinadigan xarajatlar.

[185] Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Sug‘urta ishini yuritish xarajatlarini, shuningdek, ayrim sug‘urta turi yoki shartnomasiga daxldor bo‘lgan o‘zgaruvchan va barcha tuzilgan sug‘urta shartnomalari portfeliga aloqador bo‘lgan doimiy guruhlarga ham bo‘lish mumkin.

Xalqaro amaliyotda sug‘urta tashkilotining xarajatlari akvizitsiya (ommaviy-tashkiliy kompleks tadbirlar), inkassatsiya (sug‘urtaning ayrim turlari bo‘yicha mukofotlarning naqd pullarda qabul qilinishi), likvidatsiya (sug‘urta hodisasi yuz berganligi yuzasidan sug‘urtalanuvchi arizasida bayon qilingan talablarning qondirilishi) va boshqaruvga oid kabi turlardan iboratdir.

Sug‘urta tashkiloti daromad va xarajatlarini sug‘urta faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi o‘rni va roliga qarab tasniflash ko‘proq maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagichadir:

- sug‘urta himoyasini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan (sug‘urta operatsiyalari hamda investitsiya joylashtiriluvi bo‘yicha) daromad va xarajatlar;
- sug‘urta himoyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan boshqa daromad va xarajatlar.

Sug‘urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi hamda ularni hisoblash ko‘p jihatdan milliy sug‘urta qonunchiligi me’yorlariga ham bog‘liqdir.

Shuningdek, sug‘urta tashkilotining daromad va xarajatlariga amaldagi soliq qonunchiligiga binoan to‘lanadigan daromad (foyda) solig‘ining soliq bazasini aniqlash uslubiyati hamda stavkalari darajasi ham ta’sir etadi.

21.3. Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi

Sug‘urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi bo‘yicha yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, uni aniqlash bo‘yicha quyidagi uslubiyatni taklif etamiz:

$$SM = SMs + SMqs + O‘MZo‘ \ (1),$$

Bu yerda: SM- ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari summasi;
SMs – bevosita sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlari summasi;
SMqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlari summasi;
O‘MZo‘ – o‘zlashtirilmagan mukofotlar zaxirasining o‘zgarishi.

$$UNz = Nz + Nvt \ (2),$$

Bu yerda: UNz – ko‘rilgan zararning umumiy netto qismi;
Nz – ko‘rilgan zararning netto qismi;
Nvt – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarining netto qismi.

$$Nz = SM - SQs - (SQqs - SQqsq) \ (2.1),$$

Bu yerda: SQs – to‘langan sug‘urta qoplamalari;
SQqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari;
TSQqsq – qayta sug‘urtalash shartnomalariga ko‘ra, qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘langan sug‘urta qoplamalari.

$$Nvt = VTqs + VSqs \ (2.2),$$

Bu yerda: VTqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlari;
VSqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik siylovlari.

$$Tsx = UNz - (YUk + SMqsrr + SQs + VTqs + Zm + SQqs) \ (3)$$

Bu yerda: Tsx – sug‘urta xizmatlarining tannarxi.

YUk – sug‘urta ishini yuritish xarajatlari;

SMqsrr – qayta sug‘urtalash va retrotsessiyaga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari;

VTqs- vositachilik to‘lovlari va brokerlik siylovlari, qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari;

Zm – zaxira fondiga o‘tkazilgan mablag‘lar.

21.2-jadval

Sug‘urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini hisoblash:

	(so‘m hisobida)
(+) Bevosita sug‘urtalash bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari	910786.8
(+) Qayta sug‘urtalash shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari	6741.1
(+) O‘zlashtirilmagan mukofotlari zaxirasini o‘zgartirish	314695.1
(=) Ishlab topilgan mukofotlar	1232223
(-) To‘langan sug‘urtaviy qoplamalar	1188750.1
(-) Qayta sug‘urtalash shartnomalariga binoan qilingan qoplama to‘lovlari bo‘yicha zararlar	506.3
(+) Qayta sug‘urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko‘ra, qayta sug‘urtalovchilar tomonidan qilingan qoplamalar bo‘yicha zararlar	-
(=) Ko‘rilgan zararlarning netto qismi	1189256.4
(+) Qayta sug‘urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko‘ra hisoblangan qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlari	-
(+) Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha hisoblangan vositachilik to‘lovlari	840.8
(=) Qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarining netto qismi	840.8
(-) Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari	5136.5
(-) Qayta sug‘urtalash va retrotsessiyaga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari	-
(-) Bevosita sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urtaviy to‘lovlari (sug‘urta qoplamalari)	-
(-) Hisoblangan vositachilik va brokerlar siylovlari. Qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari	321.4
(-) Zararlarni qoplash zaxirasiga o‘tkazilgan mablag‘lar	1153961.8
(-) Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan risklar bo‘yicha qilingan qoplama to‘lovlarning ulushi	-

$$YAD(Z) = D(Z)af \pm D(Z)bf \ (4),$$

Bu yerda: YAD(Z) – yalpi daromad yoki zarar (soliq to'langunga qadar bo'lgan daromad yoki zarar);

D(Z)af- asosiy faoliyatdan olingan daromad yoki zarar;

D(Z)bf – boshqa faoliyatdan daromad yoki zarar.

$$D(Z)af = Ns \pm Nz \pm Nvt \pm YUk - DX \ (4.1),$$

Bu yerda: Ns – sug'urta mukofotlarining netto qismi;

DX – davr xarajatlari.

$$D(Z)bf = Dbf - Xbf \ (4.2),$$

Bu yerda: Dbf – boshqa faoliyatdan daromadlar;

Xbf – boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar.

Sug'urta tashkiloti daromadi (foydasi)ni aniqlashning keltirilgan uslubiyatini joriy etish masalasiga (21.2-jadval) to'xtaladigan bo'lsak, bu borada sug'urta ishini amalga oshirish xarajatlariga kiritilgan sug'urta xizmatlarni tashkil etish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi yangi Nizomni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Bunda sug'urta xizmatini ko'rsatish (sotish)dan tushgan yalpi foyda quyidagicha hisoblanadi:

(=) Ishlab topilgan mukofotlarining netto qismi	1232223
(+) Ko'rilgan zararlarning netto qismi	1189256.4
(+) Qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi	840.8
(-) Sug'urta ishini yuritish xarajatlari	5136.5
(-) Davr xarajatlari	226235.7
(-) Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari	-
(=) Asosiy faoliyatdan olingan foyda	189246.4
(+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyatdan olingan daromad	214343.3
(+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyat uchun qilingan xarajat	-
(=) Soliq to'langunga qadar bo'lgan daromad (foyda) yoki zarar	25096.9

Taklif etilayotgan uslubiyatga ko'ra, keltirilgan ma'lumotlarda ishlab topilgan sug'urta mukofotlari summasi 1232223,0 bo'lgan bo'lsa, shundan 910786,8 bevosita sug'urtalash mukofotlari, 6741,1 qayta sug'urtalash bo'yicha mukofotlari va nihoyat, 314695,1 so'mini o'zlashtirilmagan mukofotlar summasi tashkil etgan.

To‘langan sug‘urta qoplamalari 1188750,1 qayta sug‘urtalash shartnomalariga binoan qoplama to‘lovlari bo‘yicha zararlar 506,3; ko‘rilgan zararlarning netto qismi 1189256,4; qayta sug‘urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha hisoblangan vositachilik to‘lovlari 840,8; qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarning netto qismi 840,8; sug‘urta ishini yuritish xarajatlari 5136,5; hisoblangan vositachilik hamda brokerlar siylovlari, qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari 321,4; zararlarni qoplash zaxirasiga o‘tkazilgan mablag‘lar 1153961,8 ming so‘mni tashkil qilgan.

Keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda sug‘urta xizmatini ko‘rsatishdan tushgan yalpi foydani aniqlash uchun ishlab topilgan mukofotlarning netto qismi (1232223), ko‘rilgan zararlarning netto qismi (1189256,4), qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarning netto qismi (840,8) yig‘indisidan sug‘urta ishini yuritish xarajatlari (5136,5), davr xarajatlari (226235,7), xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish va xo‘jalik xarajatlari jamisini ayirish orqali asosiy faoliyatdan olingan foyda (189246,4 ming so‘m) hisoblab topiladi. Shundan so‘ng, investitsion-moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar yig‘indisini qo‘shish orqali balansdagi (25096,9 ming so‘m) foyda summasi aniqlanadi.

22-MAVZU.
SUG‘URTA TASHKILOTI ZAXIRALARI

22.1. Sug‘urta zaxirasi haqida tushuncha.

Sug‘urta zaxiralari bu – sug‘urta qildiruvchi tomonidan so‘m yoki xorijiy valyutada to‘langan sug‘urta mukofotlari hisobiga sug‘urtalovchi tomonidan shakllantiriladigan hamda sug‘urtalovchining balansida aktiv yoki majburiyat ko‘rinishida hisobga olinadigan, sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish, zararlarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar.

Sug‘urta zaxiralari sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtaning har bir turi (klassi) bo‘yicha sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash nazarda tutilgan valyutada shakllantiriladi.



22.1-rasm. **Sug‘urta zaxiralari tarkibi**[186]

[186] Moliya Vazirligining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug‘I bilan tasdiqlangan "Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida NIZOMI" asosida tayyorlandi.

Sug‘urtalovchi buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug‘urta zaxiralari hajmini hisoblaydi. Sug‘urta zaxiralari hisob-kitobi sug‘urtalovchining hisob va hisobot ma’lumotlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro‘yxatga olingan Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug‘i bilan tasdiqlanagan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida NIZOMI” asosida sug‘urta zaxiralari shakllantiriladi. Shuningdek, mazkur nizom sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta zaxiralarini hisoblash uslubi hamda shakllantirish va joylashtirish tartibi talablarni belgilaydi.

Har bir hisobot sanasiga har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini hisob-kitob qilish uchun zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlar sug‘urtalovchi tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan sanadan boshlab, 3 yildan kam bo‘lmagan muddatda saqlanishi lozim.

Xususan, quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlarning saqlanishi lozim:

- ❖ shartnoma (polis, guvohnoma, kvitansiya) raqami;
- ❖ shartnomaning kuchga kirgan sanasi (sug‘urtaning amal qilishining boshlanish sanasi);
- ❖ shartnomaning amal qilish muddati;
- ❖ sug‘urta puli (pullari) miqdori (miqdorlari);
- ❖ hisoblangan sug‘urta mukofoti (badallari) miqdori;
- ❖ sug‘urta mukofoti (badallari) hisoblangan sana;
- ❖ sug‘urta mukofotining (badallarining) miqdori (miqdorlari) va to‘langan sanasi (sanalari);
- ❖ shartnoma tuzganlik uchun hisoblangan mukofot miqdori;
- ❖ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda sug‘urta mukofotidan (badallaridan) ajratmalar miqdori;
- ❖ shartnomani muddatidan oldin tugatish sanasi;
- ❖ shartnoma shartlarini o‘zgartirish sanasi (sanalari);
- ❖ shartnomaning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan sug‘urta qildiruvchilarga (qayta sug‘urta qildiruvchilarga) qaytarilgan sug‘urta mukofoti (badallari) miqdori;
- ❖ sug‘urta mukofotini (badallarini) qaytarish sanasi;
- ❖ sug‘urta hodisasi (hodisalari) to‘g‘risida ariza tushgan sana (sanalar);
- ❖ sug‘urta hodisasi (hodisalari) yuz bergan sana (sanalar);
- ❖ xabar qilingan zarar (zararlar) miqdori (miqdorlari), shuningdek, uni bartaraf etish jarayonida xabar qilingan zarar (zararlar) miqdorining (miqdorlarining) o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot;
- ❖ sug‘urta to‘lovi (to‘lovlari) sanasi (sanalari);
- ❖ sug‘urta to‘lovi (to‘lovlari) miqdori (miqdorlari);
- ❖ sug‘urta to‘lovini (to‘lovlarini) to‘lashni rad etish sanasi (sanalari).

Ko‘rsatilgan ma’lumotlar ata ron ma’lumotlar bazasi, shuningdek, Tuzilgan sug‘urta shartnomalarini hisobga olish jurnali, Zararlar va muddatidan oldin tugatilgan sug‘urta shartnomalarini hisobga olish jurnali, qayta sug‘urta qilishga qabul qilingan shartnomalarni hisobga olish jurnali, qayta sug‘urta qilishga qabul qilingan

shartnomalar bo'yicha zararlarni hisobga olish jurnali uchun ham majburiy rekvizitlar hisoblanadi. Sug'urtalovchi sug'urta zaxiralari hisob-kitobini ko'rsatilgan registrlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida amalga oshiradi.

22.2. Sug'urta zaxiralarining turlari.

Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (IMZ) – bu sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi bo'yicha hisoblangan, keyingi hisobot davrlarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, kelgusi to'lovlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mo'ljallangan hisobot davrining chegaralaridan chiquvchi shartnomaning amal qilish davriga tegishli sug'urta mukofotining qismi.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (XZZ) sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga xabar qilingan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan sug'urta qildiruvchining mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararni (ziyonni) miqdorini baholash va kamaytirish bilan bog'liq ekspert, maslahat yoki boshqa xizmatlarga haq to'lash uchun sug'urtalovchiga zarur bo'lgan pul mablag'lari summasini to'lash bo'yicha sug'urtalovchining hisobot sanasiga bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

XZZ har bir bartaraf etilmagan da'vo bo'yicha aniqlanadi. Agarda zarar to'g'risida xabar qilingan bo'lib, uning miqdori aniqlanmagan bo'lsa, hisob-kitob uchun sug'urta pulidan katta bo'lmagan eng yuqori ehtimoli kutilgan zarar miqdori olinadi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ) sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda xabar qilinmagan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan, o'z ichiga zararlarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlarni olgan, sug'urtalovchining hisobot sanasiga majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi har bir sug'urta turi bo'yicha alohida, sug'urtalovchining ushbu sug'urta turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish yuzasidan yig'ilgan statistikani inobatga olgan holda, hisoblanadi.

Umumiy holda, SXZZ har bir sug'urta turi bo'yicha hisoblangan SXZZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Biroq ushbu summa umumiy sug'urtada (qayta sug'urta qilishda) har qanday holda hisobot davriga qadar o'n ikki oy mobaynida umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti summasining 10 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi

bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan.

Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi (OCHZ) baxtsiz hodisalarni, sug‘urta qilingan mulkni yo‘qotish yoki shikastlanishini ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish, shuningdek sug‘urta hodisalarining sodir bo‘lishini ogohlantirish va oldini olishga yo‘naltirilgan boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan.

OCHZdan moliyalashtiriladigan ogohlantirish chora-tadbirlarining aniq ro‘yxati, shuningdek OCHZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi sug‘urtalovchi tomonidan ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to‘g‘risidagi nizomda belgilanadi.

Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to‘g‘risidagi nizom sug‘urtalovchi tomonidan tasdiqlanadi va Davsug‘urtanazorat bilan kelishilishi lozim.

OCHZ sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotlaridan ajratmalar yo‘li bilan shakllantiriladi.

Falokatlar zaxirasi (FZ), ko‘p sonli sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish zaruratini keltirib chiqargan yengib bo‘lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibati hisoblangan, favqulodda yetkazilgan ziyonni qoplashga mo‘ljallangan. FZ shartlarida yengib bo‘lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash munosabati bilan sug‘urtalovchining sug‘urta to‘lovini amalga oshirishi majburiyatini ko‘zda tutuvchi sug‘urta turlari bo‘yicha shakllantiriladi.

Falokatlar zaxirasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug‘urtalovchi tomonidan belgilanadi va Davsug‘urtanazorat bilan kelishiladi.

Zararlilikning tebranishi zaxirasi (ZTZ), sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta tarifining netto-stavkasini hisoblash uchun asos bo‘lgan kutilayotgan zararlilik darajasidan hisobot davridagi zararlilik darajasi yuqori bo‘lgan holatda, sug‘urtalovchining sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga mo‘ljallangan.

Zararlilikning tebranishi zaxirasining miqdori yalpi hisoblangan sug‘urta mukofotining 10 foizidan oshmasligi lozim.

ZTZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug‘urtalovchi tomonidan belgilanadi va Davsug‘urtanazorat bilan kelishiladi.

Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi (ANZ) faqat hayotni sug‘urta qilish sohasida faoliyat yuritadigan sug‘urtalovchi tomonidan tashkil etilishi mumkin va mukofotlar zaxirasining 20 foizidan ortiq bo‘lmasligi lozim.

ANZ sug‘urtalovchi tomonidan ANZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlarini Davsug‘urtanazorat bilan kelishilgandan keyingina tashkil etilishi mumkin.

Foydani aniqlashda texnik zaxiraning kamayishi sug‘urtalovchining daromadini, texnik zaxiraning ko‘payishi esa zararini namoyon etadi.

Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblash uchun sug‘urta faoliyati to‘rtta hisob guruhlariga bo‘linadi:

22)*1-hisob guruhi:*

- ❖ baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish (1-klass);
- ❖ kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish (2-klass);

❖ er usti transport vositalarini sug‘urta qilish (3-klass);
❖ harakatlanadigan temir yo‘l tarkibini sug‘urta qilish (4-klass);
❖ aviatsiya sug‘urtasi (5-klass);
❖ dengiz sug‘urtasi (6-klass);
❖ yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urta qilish (7-klass);
❖ mol-mulkni olovdan, tabiiy ofatdan (8-klass) va zarardan sug‘urta qilish (9-klass);
❖ avtofuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish (10-klass);
❖ aviatsiya (11-klass) va dengiz (12-klass) sug‘urtasi doirasida javobgarlikni sug‘urta qilish;
❖ umumiy fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish (13-klass) (qarz oluvchilarning kreditni to‘lamaganligi uchun javobgarligini sug‘urta qilishdan tashqari);
❖ huquqiy himoya bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta qilish (17-klass);
❖ noproporsional qayta sug‘urta qilish shartnomalari (har bir qayta sug‘urtaga qabul qilingan shartnoma (shartnomalar) bo‘yicha qayta sug‘urta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararning sodir bo‘lishi borasida sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sug‘urta to‘lovidagi oldindan o‘rnatilgan ulushni qoplash bo‘yicha qayta sug‘urtalovchining majburiyati paydo bo‘luvchi shartlarga ega bo‘lgan qayta sug‘urta qilish shartnomalaridan tashqari qayta sug‘urta qilish shartnomalari).

b) 2-hisob guruhi:

❖ kreditlarni sug‘urta qilish (14-klass);
❖ kafillikni (kafolatlarni) sug‘urta qilish (15-klass);
❖ boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish (16-klass) (qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosilini sug‘urta qilishdan tashqari);
❖ qarz oluvchilarning kreditni to‘lamaganligi uchun javobgarligini sug‘urta qilish (13 klass);

v) 3-hisob guruhi:

❖ sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati boshlanishining va tugashining noaniq («ochiq») sanalariga ega bo‘lgan sug‘urta shartnomalarini tuzish imkoniyatini nazarda tutuvchi sug‘urta turlari;

g) 4-hisob guruhi:

❖ qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosilini sug‘urta qilish (16 klass).

Sug‘urta zaxiralarini hisoblash uchun sug‘urtalovchi har bir hisob guruhi ichida sug‘urta shartnomasining shartlari, sug‘urta obyektlari, sug‘urta obyektlarining joylashuvi va sug‘urta tavakkalchiliklari ro‘yxatiga bog‘liq holda qo‘shimcha hisob guruhlarini kiritishi mumkin.

Har bir qayta sug‘urtaga qabul qilingan shartnoma (shartnomalar) bo‘yicha qayta sug‘urta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararning sodir bo‘lishi borasidagi sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sug‘urta to‘lovidagi oldindan o‘rnatilgan ulushni qoplash bo‘yicha qayta sug‘urtalovchining majburiyati paydo bo‘luvchi shartlarga ega bo‘lgan proporsional qayta sug‘urta qilish shartnomalari tegishli sug‘urta shartnomalariga oid hisob guruhlariga kiritiladi.

Sug‘urtalovchi tomonidan belgilangan guruhlanish bo‘yicha bir nechta hisob guruhlariga taalluqli bo‘lgan shartnoma tuzilgan taqdirda, sug‘urta zaxiralarini hisoblash maqsadida ko‘rsatilgan shartnomaning muayyan hisob guruhiga to‘g‘ri

keluvchi har bir qismi tegishli hisob guruhiga taalluqli alohida shartli shartnoma sifatida hisobga olinadi.

Shartnomaning kuchga kirish sanasi (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasi) shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotini (badallarini) hisoblash sanasidan kechroq bo'lsa va sug'urta zaxiralarining hisob-kitobi shartnomaning kuchga kirish sanasiga (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasiga) qadar amalga oshirilgan taqdirda, ishlab topilmagan mukofot zaxirasini hisoblash maqsadida ishlab topilmagan mukofot zaxirasi shartnoma bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofoti (badallari) (sug'urta brutto-mukofoti) miqdoriga teng deb qabul qilinadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha alohida «pro rata temporis» usuli — ishlab topilmagan mukofotni hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatiga proporsional holda hisoblash orqali hisoblanadi.

Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisob-kitob uchun qabul qilingan bazaviy sug'urta mukofotining hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatining (kunlarda) sug'urta shartnomasining butun amal qilish muddati (kunlarda) nisbatiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$И_{мi} = Б_{мi} \times \frac{Т_i - М_i}{Т_i},$$

bu erda:

Imi — i-shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan mukofot;

Bmi — i-shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti;

Ti — i-shartnomaning kunlardagi amal qilish muddati;

Mi — i-shartnomaning kuchga kirishidan boshlab hisobot sanasigacha bo'lgan kunlar soni.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi har bir shartnoma bo'yicha «pro rata temporis» usuli orqali hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi «1/24» usuli bo'yicha ham hisoblanishi mumkin.

Ishlab topilmagan mukofotni (ishlab topilmagan mukofot zaxirasini) «1/24» usuli orqali hisoblash uchun bitta hisob guruhiga taalluqli bo'lgan shartnomalar kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruhlarga amal qilish muddati (oylarda) bir xil bo'lgan va amal qilishining boshlanish sanasi bir xil oylarga to'g'ri keluvchi shartnomalar kiritiladi.

Kichik guruhga kiruvchi shartnomalar bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining umumiy summasi kichik guruhga kiruvchi har bir shartnoma bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) «1/24» usuli bo'yicha hisoblanganda, quyidagi shartlar qo'llaniladi:

sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanish sanasi deb oyning o'rtasi qabul qilinadi;

sug‘urta shartnomasini oylarning butun sonlariga teng bo‘lmagan amal qilish muddati oylarning eng yaqin ata butun soniga teng deb qabul qilinadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) har bir kichik guruh bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofotlari umumiy summasini ishlab topilmagan mukofot zaxirasi miqdorini hisoblash koeffitsientlariga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.

Har bir kichik guruh uchun koeffitsient kichik guruhlarga kiruvchi shartnomalarning hisobot sanasiga tugamagan amal qilish muddatining (yarim oylarda) kichik guruhga kiruvchi shartnomalar amal qilishining umumiy muddatiga (yarim oylarda) nisbati sifatida aniqlanadi.

Butun hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi «1/24» usuli orqali har bir kichik guruh bo‘yicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni (ishlab topilmagan mukofot zaxiralarni) qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

Ikkinchi hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati to‘liq tugagunga qadar bazaviy sug‘urta mukofoti miqdorida har bir shartnoma bo‘yicha aniqlanadi.

Uchinchi hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot hisobot sanasiga bazaviy sug‘urta mukofotining 40 foizi miqdorida har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha aniqlanadi.

To‘rtinchi hisob guruhi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati to‘liq tugagunga qadar bazaviy sug‘urta mukofotining 75 foizi miqdorida har bir shartnoma bo‘yicha aniqlanadi.

22.3. Hayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zaxiralarini shakllanishi.

Hayotni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha kelgusidagi to‘lovlarni ta’minlashga oid majburiyatlarni bajarish va sug‘urta polisining kafolati asosida qarz berish uchun mo‘ljallangan.

Mukofotlar zaxirasi quyidagilardan iborat:

- hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira (HJZ);
- hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxira (HZ).

Mukofotlar zaxirasi hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira va hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxirani qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

Hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati to‘liq tugagunga qadar yoki sug‘urta hodisasi yuz bergunga qadar bazaviy sug‘urta mukofotining 92 foizidan va uni joylashtirishdan (unga hisoblangan foizlardan) olinadigan investitsiya daromadining 50 foizidan kam bo‘lmagan hajmda har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblanadi. Bunda HJZning olingan hajmi sug‘urta shartnomasi bilan belgilangan qaytarib sotib olish summasidan (sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilinganda kafolatlangan) kam bo‘lmasligi lozim.

Umumiy holda HJZ har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan HJZlarni qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

Hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxira har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha «pro rata temporis» yoki «1/24» usuli bilan hisoblanadi.

Umumiy holda HZ har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan HZlarni qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. Zararlar zaxirasi o‘z ichiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasini oladi.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo‘lgan davrlarda sodir bo‘lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug‘urtalovchiga xabar qilingan sug‘urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan sug‘urta qildiruvchining mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararni (ziyonni) miqdorini baholash va kamaytirish bilan bog‘liq ekspert, maslahat yoki boshqa xizmatlarga haq to‘lash uchun sug‘urtalovchiga zarur bo‘lgan pul mablag‘lari summasini to‘lash bo‘yicha sug‘urtalovchining hisobot sanasiga bajarilmagan yoki to‘liq bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

XZZ har bir bartaraf etilmagan da’vo bo‘yicha aniqlanadi. Agarda zarar to‘g‘risida xabar qilingan bo‘lib, uning miqdori aniqlanmagan bo‘lsa, hisob-kitob uchun sug‘urta pulidan katta bo‘lmagan eng yuqori ehtimoli kutilgan zarar miqdori olinadi.

XZZ xabar qilingan zararlarni hisobga olish jurnalida ro‘yxatga olingan hisobot davridagi xabar qilingan zararlar summasining hisobot davridan oldingi davrlarda bartaraf etilmagan zararlar summasiga qo‘shilgan va hisobot davrida to‘langan zararlar summasiga kamaytirilgan, hamda hisobot davrida bartaraf etilmagan da’volar summasidan uch foizgacha miqdorda zararni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar qo‘shilgan summaga mos keladi.

Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo‘lgan davrlarda sodir bo‘lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug‘urtalovchiga hisobot davrida yoki unga qadar bo‘lgan davrlarda xabar qilinmagan sug‘urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan, o‘z ichiga zararlarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlarni olgan, sug‘urtalovchining hisobot sanasiga majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi har bir sug‘urta turi bo‘yicha alohida, sug‘urtalovchining ushbu sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish yuzasidan yig‘ilgan statistikani inobatga olgan holda, hisoblanadi.

Umumiy holda, SXZZ har bir sug‘urta turi bo‘yicha hisoblangan SXZZlarni qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. Biroq ushbu summa umumiy sug‘urtada (qayta sug‘urta qilishda) har qanday holda hisobot davriga qadar o‘n ikki oy mobaynida umumiy sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofoti summasining 10 foizidan kam bo‘lmasligi lozim.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) keyingi yillarda sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);
- sug'urtalovchilarning transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha To'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga to'laydigan majburiy badallari;
- boshqa ko'rsatkichlar.

FJMS BZni hisoblash maqsadida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 25 foizi miqdorida o'rnatiladi.

FJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug'urtalash ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug'urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

FJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha xarajatlar miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

- hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlari;

➢ ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o'zgarishi.

Hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

➢ hisobot davrida sug'urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari (badallari);

➢ hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

Quyidagilardan iborat bo'lgan hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlash xarajatlari:

➢ sug'urtalovchilarning to'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga hisobot davri uchun to'laydigan majburiy badallari;

➢ ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko'payish tomonga o'zgarishi;

➢ hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo'lsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ko'rsatilgan ortiq summaga ko'payadi.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromadlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Agar sug'urtalovchi hisobot davri boshiga qadar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblamagan bo'lsa, mazkur zaxira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo'lsa, mazkur zaxira nolga teng deb qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);
- boshqa ko'rsatkichlar.

IFJMS BZni hisoblash maqsadida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 30 foizi miqdorida o'rnatiladi.

IFJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug'urtalash ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug'urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

IFJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha xarajatlar miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

23-MAVZU.
SUG‘URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATI

23.1. Sug‘urtalovchining investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari

Iqtisodiyotimizda investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan va o‘tgan vaqt ichida ular ancha takomillashtirildi. Investitsiya faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilgan qonunda ko‘rsatilishicha, investitsiya bu - iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Investitsiya faoliyati haqidagi qonunning 2-moddasida asosiy tushunchalar quyidagicha qo‘llaniladi:

- investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar;
- investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui;
- investor - o‘z mablag‘larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;
- investitsion faoliyat ishtirokchisi - investor buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsion faoliyatni ta’minlovchi investitsiya faoliyati subyekti;
- reinvestitsiyalar - investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

Investitsiya faoliyati haqidagi qonunning 3-moddasida investitsiyalarning belgilanish obyekti bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi. Kapital, innovatsion, ijtimoiy.[187]

Kapital investitsiyalarga asosiy fondlarni yaratish va qayta ishlab chiqarish shu bilan bir qatorda moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘yiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsion investitsiyalarga yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqarishga qo‘yiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalarga inson imkoniyatlarini rivojlantirish, shuningdek moddiy bo‘lmagan boyliklarni rivojlantirishga qo‘yiladigan investitsiyalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi 68-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Nizomda sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyatining obyektlari quyidagicha etib belgilangan:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari;
- ✓ xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog‘ozlari;

---

[187] O‘zbekiston Respublikasining 24.12.1998-yildagi Ўзбекистон Республикасининг 24.12.1998 йилдаги №719-raqamli «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni

✓ bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);

✓ kredit tashkilotlariga qo'yilgan omonatlar (depozitlar);

✓ ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;

✓ yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo'lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar.

Mazkur Nizomga ko'ra sug'urtalovchi sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etishi kerak:

▪O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom» bilan belgilangan sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablarga va O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizom» bilan belgilangan sug'urta zaxiralarini joylashtirish tartibiga oid talablarga rioya qilish;

▪moliyaviy, texnik va axborot resurslari mavjudligini ta'minlash;

▪mablag'larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi haqida mas'ul shaxsning yozma xulosalarini olish;

▪mas'ul shaxsning ushbu Nizom bilan belgilangan malakaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziririning 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida»gi Nizomda sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga oid talablar belgilangan. Unga ko'ra:

➢ sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 50 foizi miqdori;

➢ sug'urtalovchining va qayta sug'urtalovchining har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalining 30 foizidan oshmasligi shart, (sug'urta faoliyati, shuningdek sug'urta faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiradigan sho'ba korxonalar bundan mustasno);

➢ sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlari ko'chmas mulk obyektlariga joylashtirilganda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 50 foizidan ortig'ini bitta yer uchastkasi yoki ko'chmas mulkning boshqa obyektiga yoxud bitta obyekt sifatida ko'rilishi mumkin bo'lgan yer uchastkalari va ko'chmas mulk obyektlari majmuiga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi;

➢ sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini bank omonatlariga (depozitlariga) joylashtirishda, bitta tijorat bankiga joylashtirilgan omonat sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 40 foizidan oshmasligi shart.

➢ sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini kredit tashkilotlarida (tijorat banklaridan tashqari) omonatlarga (depozitlarga) joylashtirishda, omonatlarning (depozitlarning) umumiy summasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 10 foizidan oshmasligi shart.

➢ sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda ishtirok etish bo'yicha boshqa huquqlari, agar qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 30 foizidan oshmasligi shart[188].

Shu bilan birga sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini quyidagi yo'llar bilan joylashtirish taqiqlanadi:

❖ intellektual mulkka qo'yilmalar (dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, adabiyot, firma nomlari va tovar belgilarini xarid qilish bundan mustasno);

❖ mazkur Nizomda nazarda tutilgan hollardan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarz shartnomasini tuzish (moliyaviy yordam berish).

Shu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish tartibi va muddatlari belgilangan:

➢ sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) to'lov qobiliyati normativlari hisob-kitobini va sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak, chorak o'tgandan keyingi oyning 25 sanasigacha Davsug'urtanazoratga taqdim etishadi;

➢ umumiy sug'urta sohasida yoki faqat qayta sug'urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchining to'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi hisob-kitobi mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq keltirilgan shakl bo'yicha taqdim etiladi;

➢ hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchining to'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi hisob-kitobi mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq keltirilgan shakl bo'yicha taqdim etiladi.

Shuningdek to'lov qobiliyati normativlariga va sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilmaslik holatlarida[189]:

✓ hisobot davridagi (chorak, yarim yil, 9 oy, 1 yil) faoliyat yakunlari bo'yicha to'lov qobiliyati marjasining yetarlilik normativi 1 dan 0,5 gacha kamaygan taqdirda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) kamchilik aniqlangan sanadan boshlab o'n kun ichida moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqadi va Davsug'urtanazoratga kelishish uchun taqdim etadi;

✓ chora-tadbirlar majmuasi kamchilik aniqlangan sanadan boshlab olti oydan ko'p bo'lmagan muddat uchun ishlab chiqiladi va moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish tadbirlarini, muddati va ushbu tadbirdan kutilayotgan natijalari ko'rsatilgan holda, o'z ichiga olishi lozim;

---

[188] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida»gi Nizom.

[189] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida»gi Nizom.

✓ chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda, sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) moliyaviy ahvolini eng qisqa muddatlarda sog'lomlashtirishga olib keluvchi chora-tadbirlar ustuvor, deb qaralishi lozim;

✓ chora-tadbirlar majmuasida ustav kapitali miqdorining o'zgarishi, qayta sug'urta qilish operatsiyalarining kengaytirilishi, tarif siyosatining o'zgartirilishi, debitor va kreditor qarzlarning qisqartirilishi, aktivlar tuzilmasining o'zgarishi, shuningdek to'lov qobiliyatini saqlab turuvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa usullarning qo'llanilishi ham nazarda tutilishi mumkin;

✓ zarur hollarda, Davsug'urtanazorat sug'urtalovchiga (qayta sug'urtalovchiga) vujudga kelgan holatning sabablarini o'rganish va sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishga ko'maklashish uchun o'zining vakilini yuborish huquqiga ega;

✓ sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) rahbari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasi Davsug'urtanazoratga ikki nusxada taqdim etiladi. Agar chora-tadbirlar majmuasida ustav kapitalini ta'sischilar (aksiyadorlar) mablag'lari hisobidan o'zgartirish nazarda tutilgan bo'lsa, chora-tadbirlar majmuasi ta'sischilar bilan kelishilgan bo'lishi kerak;

✓ taqdim etilgan chora-tadbirlar majmuasi va hisobotlarning tahlili asosida Davsug'urtanazorat sug'urtalovchiga (qayta sug'urtalovchiga) moliyaviy ahvolni yaxshilash bo'yicha maslahatlar beradi, shuningdek chora-tadbirlar majmuasida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

✓ hisobot davridagi (chorak, yarim yil, 9 oy, 1 yil) faoliyat yakunlari bo'yicha to'lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi 0,5 dan kamaygan taqdirda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) litsenziyasi(lari)ning amal qilishi to'xtatib turiladi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi;[190]

✓ sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori yoki majburiyatlari jamining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori normativlari, hamda sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinmagan taqdirda, Davsug'urtanazorat sug'urtalovchiga (qayta sug'urtalovchiga) yo'l qo'yilgan kamchiliklarni, ammo sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ko'rsatmani olgan sanadan boshlab bir oydan ko'p bo'lmagan muddatda bartaraf etishi to'g'risida ko'rsatma beradi;

✓ kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilgandan so'ng uch kun ichida, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) Davsug'urtanazoratga tegishli hisob-kitoblar va kamchiliklarni bartaraf etilganligi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi shart;

✓ sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan mazkur Nizomda belgilangan normativ va talablarga rioya qilinmagan, moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirish bo'yicha choralar ko'rilmagan, sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish chora-tadbirlar belgilangan muddatda erishilmagan taqdirda, belgilangan muddatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf

---

[190] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida»gi Nizom.

etish to‘g‘risidagi Davsug‘urtanazorat ko‘rsatmasini bajarmagan taqdirda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) litsenziyasining amal qilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.

23.2. Sug‘rtalovchining investitsion jarayonlarda ishtirok etish shart-sharoitlari

Sug‘urtalovchilar tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlar jamg‘arma hajmini oshiradi. Biznesni yuritish bilan bog‘liq xarajatlar, da’vo va aksiyador dividentlariga sarflangan to‘lovlar jamg‘arma hajmini kamaytiradi. Sug‘urtalovchi ko‘p yil davomida faoliyat ko‘rsatish uchun jamg‘armani yildan-yilga mustahkamlab borishi zarur. Shu bilan birga kompaniya menejerlari bu mablag‘larni bank depozitida ma’lum foiz olish maqsadida ushlab turishadi.

Agar menejerlar jamg‘arma mablag‘larini bank kabi turli obyektlarga investitsiya qilsalar, ular katta daromad olishlari mumkin. Bank foiz to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lgan mijozga berishi ham mumkin. Mijozdan olingan pul mablag‘lari omonatchi to‘lovini va bank xarajatlarini qoplashi lozim. Shuningdek sug‘urta jamg‘armasining menejerlari bevosita qarz berishi mumkin. Sug‘urtalovchilar bank bo‘lmaganligi tufayli ular bu ishni aksiyalar sotib olish orqali amalga oshiradi.

Sug‘urtalovchilar o‘zlari mas’ul bo‘lgan jamg‘armalar mablag‘larini boshqa usul bilan ham joylashtiradi. Masalan ijaraga berish va obyektlarni qurish, shuningdek turli moliyaviy instrumentlarni ishlatish usullari orqali amalga oshiradilar.[191]

1979 yildan boshlab yangi tashkil etilgan sug‘urta kompaniyalarga bir vaqtning o‘zida umumiy sug‘urtalash va hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanish taqiq etilganligi to‘g‘risidagi qonuni harakatga tushgan edi. Mavjud bo‘lgan ko‘p tarmoqli kompaniyalar faoliyatning ikki turini alohida alohida olib boradi.

Bu holat mantiqiydir. Chunki mazkur sug‘urta jamg‘armalar mohiyatan bir-biridan farqlanadi. Hayot sug‘urtasi bilan bog‘liq mablag‘lar uzoq vaqt davomida yig‘iladi. Agar jamiyat barqaror bo‘lib jamg‘arma oqilona boshqarilsa, unda jamg‘armaning faqat oz qismi to‘lovlarga sarflanadi. Shunday qilib hayot sug‘urtasi jamg‘armasining boshqaruvi uzoq muddatli xususiyatiga ega.

Demak uning mablag‘larini qisqa vaqt ichida foyda keltirmaydigan, masalan, aksiyalarga, ko‘chmas mulkka va boshqa yo‘nalishlarga jalb qilish mumkin (bunday holatda mablag‘lar besh yigirma besh yillar davomida kapital o‘sishini va yaxshi daromad kelishini ta’minlaydi). Agar bunday investitsiyalar yuqori likvidli instrumentlarga bo‘lgan qurilmalar bilan balanslangan bo‘lsa, unda qurilmalarning barchasi (portfel) hayotni sug‘urtalash bo‘yicha kompaniyalarning investitsion siyosatini optimallashtiradi.

Menejerlarga sug‘urta da’vosi bo‘yicha muddatli to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetarli bank hisobidagi pul yoki yuqori likvidli aktivlar kerak. Qolgan zaxiralarni ular o‘z xohishiga ko‘ra ishlatishi mumkin. Ishonchlilik va daromadlilik rejalashtirish jarayonini ta’riflashda ikki bosh omil hisoblandi.

---

[191] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

Ishonchlilik deganda, mablag'larni ishonchli boshqariladigan kompaniyalarga yoki muvaffaqiyatli bo'ladigan loyihalarga kiritish tushuniladi. Hatto yuqori foyda keltirishni va'da qilgan spekulyativ yoki riskli korxonalarga malbag'larni kiritmoqchi bo'lgan menejerlar o'ta mas'uliyatsiz ishga qo'l urgan bo'lar edi (risk mavjud holatda mazkur kiritmalar iqtisodiy konyuktura, ijtimoiy yoki siyosiy omillar o'zgarishi natijasida qolib ketishi mumkin).

Daromadlilik jamg'armaga kelayotgan joriy pul oqimini ta'minlash uchun zarur. Ba'zida menejerlarga o'ta riskli holatda mablag'larni kiritish evaziga yuqori daromad olishni va'da qilishadi.

Bunday holatlardan investorlar o'zini saqlashi lozim.

Investitsiyalar bo'yicha sug'urta kompaniyalarining menejerlari doimo yuqori daromad olishdan manfaatdor bo'lganligi tufayli nazarda tutilgan barcha kiritmalar ishonchlilik nuqtai nazarda ko'rib chiqilishi lozim[192].

Umuman olganda hayot sug'urtasi jamg'armalari investitsiyalarning quyidagi holatlarini qayd etish mumkin:

❖ shartnomalar uzoq muddatli bo'lishi lozim: qo'yilgan xatolar sug'urtalanganlarga zarar keltiradi. Shuning uchun sug'urta mukofotlarining tushishi barqaror va doimiy bo'lishi lozim.

Xarajatlar ularning miqdori va vaqt doirasida taqsimlanishiga nisbatan asosli va sinchkovlik bilan baholanishi lozim; ular favqulotda kerak bo'lganda jamg'armalarga murojaat etish xususiyatidan xoli bo'lishi lozim;

❖ inqiroziy risk ehtimolligi minimallashtirilishi lozim;

❖ sug'urta mukofotlari polis xarakati davomida olingan foydani hisobga oladi. Hayotni sug'urtalash jamg'armasi o'zining to'lovligini o'z investitsiyalari va sug'urta kompaniyalaridan tushgan mablag'lar hisobidan qoplaydi. Shuning uchun ishlab olingan mablag' sug'urta mukofotlarini hisoblashda nazarda tutilgan summaga to'g'ri kelishi lozim;

❖ investsion siyosat anderrayting bo'yicha faoliyat kabi muhimdir. Sug'urtalanuvchilar manfaatida boshqarilidigan hayot sug'urtasining katta miqdordagi zaxiralar umumiy sug'urtalash kompaniyalarining zaxiralaridan ancha ko'pdir;

❖ shartnomalar uzoq muddatga ega bo'lganligi sababli sug'urta to'lovlarini hiosob-kitob qilishda inflyatsiya bilan bog'liq jarayonlarni ham e'tiborga olish lozim;

❖ Kafolatlangan sotib olinuvchi annuitetlar va naqd pul bilan to'lov imkoniyati bor annuitetlar va daromad kuponlari investitsiyalarga nisbatan boshqacha yondashuvni, masalan, katta likvidlilikni talab qiladi[193].

Bunday xususiyat itnvestitsiyalar sohasida ba'zi bir oqibatlarn belgilab beradi:

---

[192] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993

[193] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

✓ Shartnomar uzoq muddadli (60 yildan ko‘proq muddat) bo‘lganligi sababli hayot sug‘urtasi jamg‘armalari oddatda o‘z mablag‘larini uzoq muddadli qimmali qog‘ozlarga kiritadi;

✓ hayot sug‘urtasi jamg‘armalari kompaniyalarining daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lganligi sababli va barcha sug‘urta qoplamalar, zararlar va shu kabilar mukofot va investitsiyalardan kelgan daromad hisobidan to‘lanilishi lozim bo‘lganligi sabali hayot sug‘urtasi jamg‘armalarini qisqaa muddadli qimmatli qog‘ozlarga kiritish kerakligiga talab qolmaydi:

✓ aktuariylarning tarjibasi shundan dalolat beradiki, polislar bo‘yicha mas’uliyat xarakatining tugatish muddatini investitsion portfeldagi bitimlar xarakatinining tugatish muddatlari bilan kelishish hayot sug‘urtasi kompaniyalari uchun eng qulay siyosatdir.

Nazariyadan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, qisqa muddatli bitimlarda xato qilmasdan uzoq muddatli bitimlarda xato qilish yaxshiroq. Hayot sug‘urtasining aksariyat investitsiyalari o‘rta va uzoq muddat, pensiya jamg‘armalari kiritmalari qisqa muddat asosida tuziladi.[194]

23.3. Pay fondiga va umumiy sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini investitsiyalash

Pay jamg‘armasi bilan bog‘liq sug‘urta hayot sug‘urtasining o‘ziga xos turi hisoblanadi.

Pay jamg‘armasi omonatchilari o‘zlarining investitsiyalari haqidagi qarorini professional menejralarga topshiradi. Agar investor uchta katta bo‘lmagan summaga ega bo‘lib uni investitsiya qilmoqchi bo‘lsa, u o‘ziga mos jamg‘armalarni tanlab olishi mumkin va o‘z omonatlarini bir nechta kompaniyalar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin. Buni yirik investor ham amalga oshirishi mumkin. U o‘zining omonatlarini turli ixtisoslashtirilgan jamg‘armalarga joylashtiradi.

Bu tarzda investitsiya qilingan mablag‘lar oddiy hayot sug‘urtasi jamg‘armalaridan o‘zining shartnoma mazmuni bilan ajralib turadi. Masalan:

- investitsiyadan olingan foyda kafolatlanmagan. Olingan sug‘urta mukofotlari (boshqaruvga ketgan xarajatlar va sug‘urtalanuvchilarga sarflangan summalarni chegirib tashlangan holda) o‘z paychilari uchun to‘lovga mo‘ljallangan turli aktivlarni qamrab olgan pay jamg‘armalarini sotib olish uchun ishlatiladi. Paylarning va jamg‘armaning asosiy aktivlari miqdoriga qarab foyda miqdori katta yoki kichik bo‘lishi mumkin;

[194] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

- turli jamg‘armalar turli darajadagi risklarni taklif etishadi: ya’ni; risk qancha yuqori bo‘lsa kutilayotgan foyda shuncha ko‘p bo‘ladi va aksincha. O‘ta ko‘p turli xil takliflar qisman shu bilan izohlanadi;

- raqobat daromadlilikka ta’sir qiladi. Ya’ni maksimal foyda unga bog‘liq bo‘ladi. Ammo aksariyat hollarda ixtisoslashgan jamg‘armalarning vazifalariga muvofiq bo‘lishi mumkin;

- polis egalari o‘z mablag‘larini bir jamg‘armadan ikkinchi jamg‘armaga o‘tkazish huquqiga ega bo‘lganda, paylarni birinchi talab qilganda sotib yuborish kerakligi yuzaga kelishi mumkin;

- paylarga erishish oson bo‘lgan jamg‘armalarga asosiy investitsiyalarni cheklash uchun jamg‘armani doimiy ravishda (ko‘p holatlarda – har kuni) baholash lozim.[195]

Hayot sug‘urtasi zaxiralaridan farqli ravishda umumiy sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta zaxiralarining investitsiyalari mutlaqo boshqacha tartiblanishi lozim.

Har yili zarar va sug‘urta qoplamasiga sarflanayotgan umumiy sug‘urtaning sug‘urta zaxirasining ulushi hayot sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta zaxirasi ulushidan sezilarli ravishda ko‘pdir.

Sug‘urtada sug‘urta mukofotidan kelayotgan daromad ancha kamdir: aksariyat shartnomalar qisqa muddatlidir. Ya’ni mijozlar har yili sug‘urtalovchini o‘zgartirishi mumkin.

Investitsiyaning mazkur turining o‘ziga xos xususiyatilari quyidagicha ta’riflanishi mumkin:

- zaxiralar miqdori sug‘urta mukofotlariga qaraganda hayot sug‘urtasidagidan ancha kam;

- iqtisodiy qiyinchilik davrlarida sug‘urta qoplami o‘sish tendensiyasiga ega. Mijozlar mulkni beparvolik bilan ishlatishga majbur bo‘ladi, transport vositalarini ishlatishda past xarajatlarga o‘rganib qoladi va hakozo;

- noqulay omillar ko‘p hollarda hayot sug‘urtasiga nisbatan katta ahamiyatga ega;

- qayta sug‘urtalashga qaramasdan halokatli risk yuzaga kelishi mumkin. bu esa katta hajmda pul mablag‘larini tezkorlik bilan to‘lab berishni taqozo etadi.

Oldini olish investitsiyaning ba’zi bir tamoyillari hayotda qo‘llaniladigan hayot sug‘urtasi tamoyillari bilan mos keladi. Shu bilan birga qo‘shimcha holatlar ham mavjud:

- sug‘urta qoplamasini to‘lab berishda pullarning naqdligi katta ahamiyatga ega. Bu esa investitsiyalar qisqa muddatga kiritilishi yoki bo‘lmasa ularni

---

[195] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

oson va tez pulga aylantirib olishni talab qiladi. [196] Masalan, moddiy mulkka kiritilayotgan investitsiyalar bu maqsadlarga to'g'ri kelmaydi.

Shu bilan birga ba'zi sug'urta e'tirozlari masalan, mas'uliyatlikni sug'urtalash bilan bog'liq e'tirozlar uzoq vaqt davomida to'liq to'lanmay turishi mumkin. Shu munosabat bilan investitsiya qilinmay turilishi mumkin, ammo ular real qiymatni saqlab qolishi va daromad keltirishi lozim. Mazkur usul daromad yig'ilishi va qoplamani to'liq to'lab berishi uchun kerak bo'ladi.

Shuningdek halokatlilik riski qisqa muddatli portfelida qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni ushlab turishga olib keladi. Mazkur qimmatli qog'ozlarning kursi kam tebranish xususiyatiga ega bo'lib, kapitalning yo'qotish ehtimolini kamaytiradi.

Halokatli riskga kelganda ba'zi bir olimlar uni investitsion sohadagi yechimlarda inkor qilishni tavsiya etadi. Asosiy g'oya shundan iboratki, katta summa kerak bo'lib qolganda bankdan overdraft olish maqqulroqdir. Overdraft qiymati uzoq vaqtdan keyin majburiy yuqori likvidlik bilan bog'liq bo'lgan omonat foizidan yo'qotishlardan kamroq bo'ladi.

Bunday overdraft aktivlar bilan muvozanatlashgan bo'lishi lozim. Bu aktivlarni sug'urtalovchi overdraftni to'lashda bartaraf etishi mumkin. Mazkur holda bank uchun naqd pul bilan bilan bog'liq muammoni yechishda kerak bo'ladi[197].

---

[196] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

[197] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.

24-MAVZU.
SUG'URTALASHDA BIZNES JARAYONLAR REINJINIRINGI

24.1. Sug'urta kompaniya biznes jarayonining reinjiniringi

Reinjiniring – bu "harajatlar, sifat, xizmat ko'rsatish va jadallashtirish darajasi kabi zamonaviy biznes uchun asosiy bo'lgan natijaviylik ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlarga ega bo'lish maqsadida biznes jarayonlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va keskin o'zgartirishdir".[198]

Mazkur holatda to'rt asosiy tushuncha mavjud. Birinchi asosiy tushuncha *fundamental* so'zi bilan bog'liqdir. Reinjiniring "noldan" boshlanadi - hech qanday tayyor taxminlar oldindan belgilanganmaydi. Gap shundan iboratki, reinjiringga kirishgan kompaniyalar odatda biznes jarayonda o'rnashib qolgan an'anaviy yondashuvlardan voz kechishi lozim. Eng avvalo reinjiniring kompaniya amalda haqiqatan nima qilish kerakligini va undan so'ng u ishni qanday bajarish keraklini aniqlashtirish lozim. Reinjiniringda har qanday holat, obyekt shunchaki mavjud deb qabul qilinmaydi. Reinjiniring mavjud borliqni rad etadi va nima bo'lish kerak degan maqsadga harakat qiladi.

Ikkinchi asosiy tushuncha – *keskin o'zgartirish*. Reinjiniringda keskin qayta loyihalashtirish mavjud barcha tuzilmalar va metodlarni hisobdan chiqarib, ishning mutlaqo yangi usullarini yaratishni nazarda tutadi. Biznesda reinjirigni amalga oshirish - bu biznesni takomillashtirishni, uni modernizatsiyalashni yoki o'zgartirishlar kiritishni emas, balki uni yangi tashkil etishni bidiradi

Uchinchi asosiy tushuncha *mohiyatan* so'zi bilan bog'liqdir. Reinjiniring uncha katta bo'lmagan, qo'shimcha yaxshilanish va yangilanishlar bilan mutloq bog'lanmagan. U natijaviylikni keskin o'sishini taminlashga qaratilgan. Biror bir holatda keskin va jiddiy o'zgartirishga ehtiyoj sezilgan holatda reinjiniring kerak bo'ladi. Qisman amalga oshirilgan ijobiy o'zgartirishlar nozik va ehtiyotkorlikni talab qiladi; mohiyatan jiddiy oz'gartirish keskinlik bilan eski, o'z muddatini o'tab bo'lgan narsalardan voz kechib, ularni yangi hayotchan narslar bilan almashtirishni nazarda tutadi.

To'rtinchi asosiy tushuncha - bu *jarayon* so'zi bilan bog'liq. M. Hammer va D. Champi biznes jarayonini "turli xil faoliyat majmuasi sifatida belgilaydi, uning doirasida bir yoki bir necha turdagi resurslar ishlatiladi va bu faoliyat natijasida iste'molchi uchun qiymatga ega bo'lgan mahsulot yaratiladi".

Shunday qilib, kompaniya biznes jarayonlarining samarali qurilishi ko'pgina olimlar tomonidan bozorda uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil

---

[198] Michael Hammer, James Champy. Reengineering the Corporation: A Manifesto for Business Revolution. HarperBusiness; Rev Upd edition. 2006. October 10. P. 9-34.

sifatida baholanadi. Ularga qo‘shilgan holda, sug‘urta kompaniya biznes jarayonlari yaratilishini ko‘rib chiqamiz.

Sug‘urta kompaniyaning asosiy biznes jarayonlari quyidagilardan iborat:



Rasm 24.1. **Sug‘urta kompaniyalarining biznes jarayonlari**[199]

Masala shundan iboratki, qanday qilib bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq va ular qanday muvofiqlashtiriladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonlar bir-biriga quyidagicha bog‘liqdir:

a) *an'anaviy* tarzda (bugungi kunda ko‘pgina mahalliy sug‘urta kompaniyalarida mavjud), ya’ni yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalarni (jarayonlarni) bajaradigan bo‘linmalar parallel ravishda mavjud va ular vertikal bo‘yicha bir markazdan boshqariladi yoki bu funksiyalar bir xodim tomonidan amalga oshiriladi;

b) innovatsion tarzda, ya’ni asosiy funksiyalarni bajaradigan bo‘linmalar o‘zaro muvofiqlashtirilib, gorizontal texnologik zanjirning halqasi bo‘lib hisoblanadi.

Ikkinchisi sug‘urta kompaniyaning biznes jarayonlarini reinjiniring (SKR) etish natijasida yuzaga keladi.

SKRning asosiy mazmuni - funksional tuzilmaviy bo‘linmalarini boshqarishidan voz kechib, biznes jarayonlarini boshqarishga o‘tish, ya’ni sugurtachi va sug‘urta xizmati sifati va talablariga to‘liq mos kelish.

Reinjiniringning maqsadi kompaniyaning bo‘linmlari o‘rtasida gorizontal aloqalarni shakllantirish, axborot texnologiyalarini joriy qilish, inson omili rolini

[199] O‘quv adabiyotlar asosida tayyorlangan.

kuchaytirish va shu bilan mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash orqali kompaniya boshqaruv sifatini oshirishdan iborat.



24.2-rasm. **Reinjiniring vazifalari**[200]

SKR mazmunini yanada aniqroq tasavvur qilish maqsadida sug‘urta kompaniyalar rivojlanishining eng yangi tarixiga murojat qilamiz. Sug‘urta bozori rivojlanishining boshlang‘ich bosqichida (o‘tgan asrning 80 yillari oxiri va 90 yillarining boshlari) sug‘urta kompaniyalarining barcha xodimlari sug‘urta faoliyatiga tegishli barcha ishlarini birga bajarar edi: mahsulotlar yaratardi, ularni sotardi, risklarni baholardi, sug‘urta shartnomalar tuzardi, ularni kuzatib borardi, zararlarni tartiblashtirardi va hokazo ishlar bilan shug‘ullanardi.

Sug‘urta kompaniyalar aslida foyda oishga qaratilgan tijorat tuzilma bo‘lganligi sababli ularning asosiy vazifasi sotuvlar bo‘ladi. Sotuvlarni sug‘urta kompaniya sotuvchisi amalga oshirganligi sababli u sug‘urta kompaniyasida asosiy shaxsga aylanadi. Shu bilan birga ilgari yuqorida ko‘rsatilgan vazifalar ham sugurta xizmatlari sotuvchisining zimmasiga yuklanardi. Ularni bajarish juda ko‘p vaqt olardi. Shunga qaramasdan, sotuv hajmi oshardi, ammo sotuvchilar faqat sotish bilan shug‘ullanganda u yanada ko‘proq oshardi, bu bir tomondan, ikkinchi

[200] O‘quv materiallari asosida tayyorlandi.

tomondan, sotuv hajmi oshganda uning vaqti eskilariga xizmat qilishga emas, balki shu vaqtni yangi mijozlarni axtarishga sarflanishi mumkin edi.
Ma'lumki, raqobat ixtisoslashuvga olib keladi va ixtisoslashuv kasbiy mahoratni talab qiladi. "Ozod bo'lgan" marketologlarga, anderrayterlarga, aktuariylarga va hokazolarga ehtiyoj yuzaga keldi.

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalarining aksariyatida chiziqli funksional boshqaruv tuzilmasi mavjud bo'lib, u kompaniyaning o'sib borayotgan salohiyatini to'xtatib turadi va uni to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi. Chunki bunday boshqaruv tizimida bo'linmalar yuqoridan vertikal ravishda kelgan signal va buyruqlarni qabul qiladi.

Bunday tuzilmalar sotuvchilarning talab va ehtiyojlarini tezkor va to'liq qondirolmaydi, demak, mijozlar talablariga javob bera olmaydi. (24.3-rasm).



24.3-rasm. **Sug'urta kompaniyasining an'anaviy modeli**[201]

Shuning uchun sug'urta kompaniyalari ichida funksiyalarni taqsimlash asta-sekin sodir bo'lib, marketing, anderrayting, zararlarni taqsimlash, bek-ofis va hokazo maxsus bo'linmalar shakllana boshlanadi.

Shunday qilib, biznes jarayonlarga mos ravishda ixtisoslashgan bo'linmalar bo'yicha vazifalarni taqsimlash sug'urta kompaniyalarida gorizontal aloqalarni shakllantirishda SKR bosh xususiyati bo'lib qoladi.

Funksiyalarni taqsimlash asosida kompaniyaning tubdan farqli tashkiliy va xodimlar tuzilmasi shakllanadi.

Birinchi tuzilma asosini sotuvchilarning ko'p funksiyaga ega bo'lishiligi va boshqaruvning bir chiziqli ekanligi tashkil qiladi. Unda sug'urtani ta'minlovchi

[201] O'quv materiallari asosida tayyorlandi.

xizmatlar bosh direktorga bo'ysunadi va sotuvchining demak, mijozlar talablariga uncha sezgir bo'lmaydi. Reinjiniring tuzilmasi boshqacha ko'rinishda bo'ladi.



24.4-rasm. **Sug'urta kompaniyasining reinjiniring modeli**[202]

Sug'urta faoliyatining asosiy biznes-jarayonlari taqsimlangan vazifalarga ega. Shuning uchun ularni bajarish uchun maxsus bo'linmalar tashkil etildi.

Bunda har bir xodim o'zining ishi bilan shugullandi. Marketologlar bozorni tadqiq qilishdi va sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talablarni aniqlashdi, uslubchilar sug'urta mahsulotlarni yaratishdi, sotuvchilar sotish bilan band bo'lishdi, anderrayterlar risklarni baholashdi, bek-offis shartnomalarni rasmiylashtiridi, mijozlarga xizmat ko'rsatishdi.

Jarayonni tashkil qilishda barcha bo'linmalarning faoliyati bitta asosiy maqsadga, ya'ni kompaniyaning sotuvchilari va mijozlariga tezkor va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish evaziga sotuv hajmlarini ko'paytirishga erishish.

Bunday tashkillashtirishda boshqa bo'linmalar sotuvchilarga xizmat ko'rsatish vazifalarini bajaradi: metodologiya va sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqarish

[202] O'quv materiallari asosida tayyorlandi.

boshqaruvi sotuvchining ehtiyojlarini qondiradi (ular orqali mijozlar ehtiyojini qondiradi), bek-ofis va andarrayting boshqaruvi ham sotuvchilar va mijozlarga xizmat ko'rsatadi, buxgalteriya bo'limi o'z vaqtida sug'urta to'lovlarini amalga oshiradi, ya'ni zararlarni tartiblashtirish boshqaruviga, demak, mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

Jarayonli yondashuvda xizmat ko'rsatishning to'liqligi, sifati va o'z vaqtida bo'lishi (sotuvchi, mijoz, boshqa bo'linmalar va hokazolarga xizmat ko'rsatish) kompaniya barcha bo'linmalarining asosiy mezonlari bo'lib hisoblanadi. Bunday reinjinering tuzilma an'anaviy turiga nisbatan bir qator afzaliklarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Personal faoliyatini ixtisoslashtirish, xodimlar kasbiy mahoratining yuqoriligi.

2. Xodimlardan ularning psixologik xususiyatlariga muvofiq foydalanish. Sir emaski, ichki tahliliy mushohodaga ega bo'lgan shaxslar aktuariy va anderrayting sifatida ko'proq foyda keltiradi. Muloqotga yaxshi kirishuvchi shaxslar sotuvchi bo'lib ishlab ko'proq samara beradi.

3. Sotuvchilarni o'zlari uchun noma'qbul bo'lgan vazifalarni bajarishdan ozod qilish savdoga ko'proq vaqt ajratishga imkon beradi, demak ko'proq sug'urta mukofoti tushishi mumkin.

4. Bo'linmalar o'rtasida kuchli texnologik aloqalarni o'rnatish amalda vertikal (an'anaviy) boshqaruv tuzilmasidan gorizontal ko'rinishiga va vakolatlarni quyi bo'linmalarga berishga imkon yaratadi.

Bunday sharoitda menejerning asosiy vazifasi turli va ko'p xizmatlarni yuqoridan quyi yo'nalishga qarab boshqarish emas, balki texnologik halqalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat bo'ladi. Yuqoridan pastga boshqaruvchi raxbarlar o'rniga texnologik zanjirning alohida halqasini, shuningdek butun biznes jarayonni boshqaruvchi menejerlar kelmoqda. Bu BJRning asosiy belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi.

5. Axborot texnologiyalari ko'plab mijozlarga tez va samarali xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

6. Shunday qilib, biznes jarayonini reinjiniringi natijasida alohida bir biri bilan bog'lanmagan vazifalarga qaratilgan sug'urta kompaniyaning bir chiziqli tuzilmasi yangisi bilan almashtiriladi. O'rniga kelgan yangi tuzilmada asosiy biznes jarayon bo'yicha gorizontal texnologik aloqalar shakllanadi. Ularning boshqarishini jarayon menejerlari amalga oshiradi. Chizmada buni quyidagicha ifodalasa bo'ladi.



24.5-rasm. **Sug'urta kompaniyasining biznes jarayoni modeli**[203]

Bosh menejer (prezident) biznes-jarayon menejerlari (vitse-prezidentlari) ishini muvofiqlashtiradi va ko'p sonli biri biri bilan kuchsiz bog'liq bo'lgan xizmatlarni boshqarmaydi. Besvosita sug'urtachi (sug'urta xizmati iste'molchisi) bilan bog'liq bo'lgan sug'urta xizmatlari sotuvchisi ushbu zanjirning markazida joylashganligi sababli barcha biznes-jarayon iste'molchi talabini qondirishga qaratilgan, ya'ni bunday reinjiring tuzilma bozorga yo'naltirilgan.

BJIning maqsadlari, vazifalari va mazmunini tahlilidan kelib chiqib bir qancha unga tegishli ustuvorliklarni qayd qilish mumkin:

1. Reinjiniring - eskirgan aqidalar, me'yorlar va qoidalardan keskin va batamom voz kechishni bildiradi. Agar reinjiniring (ingliz tilida engineering) loyihalash, ixtiro qilish, o'ylab topish degan ma'nolarni bildirsa, reinjiring ishchi jarayonlarni qayta loyihalash, ya'ni bor uyni tekislab, uning o'rnida yangi uy qurish degan ma'noni anglatadi.

2. Reinjiniring firmada nafaqat kichik ta'mir ishlarini, balki biznesda ahamiyatli o'zgarshlarni (oldingi holatni katta o'zgartirish kiritish) amalga oshirishga qaratilgan.

[203] O'quv materiallari asosida tayyorlangan.

3. Reinjiniring – bu kreativlikni va tashabbusni talab qiluvchi innovatsion va ijodiy ish hisoblanadi. U kompaniyada inqilobiy o'zgartirish kerakligini anglash natijasida qo'llanilishi mumkin.

4. Reinjiniring - bu jarayon menejeri boshlig'idagi boshqarish foydasiga funksional xizmatlari boshqarishidan voz kechishdir.

Shunday qilib, biznes-jarayonlarning reinjiringi raqobot ustunligiga erishishdagi og'ir yo'lning boshlanishi hisoblanadi va u operatsion reinjiringdan boshlanadi.

24.2. Sug'urta kompaniya reinjiringini muvaffaqiyatli amalga oshirish algoritmi va shartlari

Sug'urta kompaniyasi reinjiringi tashkliy qurilmalarni sindirish va kompaniyaning barcha faoliyatini o'ylamasdan o'zgartirishdan iborat emas. Jarayon ong, kompaniyaning sababiyat manbalaridagi keskin o'zgarish, uni baholash mezonlari va sinovdan o'tkazilayotgan kompaniyaning asosida turuvchi qadriyatlar bilan bog'liqdir. Reinjiring mushohodalashning yangi tizimini qabul qilish uchun minglab kishilarning o'zgartirilgan ishonchlarini qamrab oladi. Shu bilan birga ularning moyilligi ishlarning joriy holatiga nisbatan tarafdorligiga asoslanadi. Gapning mazmuni shundan iboratki, noaniq bo'lgan ulkan qayta qurilishni muvaffaqiyatli yakuniga ishonchini shakllantirish haqida boradi. Bu yerda hal qiluvchi rol sug'urta kompaniyaning menejmentiga bog'liqdir.

Sug'urta kompaniya biznes jarayonlari reinjiringi mazmunan ijodiy va innovatsion jihatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kundagi mavjud vaziyat raqobatning keskin kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda innovatsiyalar sug'urta kompaniyasining barcha faoliyatining ajralmas unsuriga aylanib bormoqda va uning rivojlanishining asosiy omili va sharti hisoblanadi.

Innovatsiyalar uzoq muddatli istiqbolda bozorda o'z o'rnini, mavqeini saqlab qolish va mustahkamlashni maqsad qilgan tashkilotning strategik boshqaruvida muhim rol o'ynaydi. Biroq, hozirga qadar tashkilotlarning ichida individual va guruh darajada innovatsion yondashuvlar uncha rivojlanmagan va talab darajada baholanmagan.

Yaxshi g'oya va takliflar ko'pincha byurokratik sansalorlikka o'ralashib qoladi yoki o'z-o'zini qoniqtirish holatidan uzoqqa bormaydi, yoki bo'lmasa uni qabul qilmasligidan xavfsirab hatto rahbariyat muhokamasiga olib chiqmaydi. Natijada, ko'plab firmalar o'z xodimlarining innovatsiyalarga intilishidan foyda ololmaydi.

Agar tashkilot yangilikni oqimga qarshi suzish kabi tabiiy jarayonga zid deb hisoblasa, unda u hech qachon amalga oshirilmaydi. Innovatsiyalar odatdagi, oddiy ishlarning ajralmas qismi bo'lishi lozim. Buning uchun innovatsion faoliyat jamoada ijodiy muhitni yaratishni talab qiladi.

Innovatsiya buyruq asosida paydo bo'lmaydi, ko'rsatmalar faqat teskari natija berishi mumkin. Xodimni haftada besh marta ishga kelishga va kuniga sakkiz soat

xizmat qilishga majburlash mumkin. Lekin uni hech qachon yuqori darajada ishlashga majbur qila olmaysiz.

Xodim o'ziga nisbatan diqqat-e'tiborni ko'rsa, tashkilotning bir qismiga egaligini sezsa o'shanda innnovatsion mahsulot yuzaga kelishi mumkin. Oqibatda seziladigan narsalar (ishonch, diqqat-e'tibor, g'amho'rlik) yaqqol natija, ya'ni foyda keltiradi.

Natijada, innovatsion muhit - bu inson o'zini erkin, to'liq ravishda maqsadga intilishini, ijodiy ishga tayyorligini sezadigan muayyan ko'rinishda shakllangan sharoitdir.

O'zgarish jarayoni alohida olingan insonning boshida shakllanadi, biroq u butun korporatsiyaning miyasida tug'iladi. Bu keskin o'zgarish sodir bo'lishi uchun kerak bo'lgan dastlab bir kishi, keyin bir necha kishilar, so'ng ko'pchilik va, nihoyat, omma tomonidan amalga oshirilgan tanlov natijasi, xayrixohlik harakatidir. Harakatsizlik natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan oddiy o'zgarishdan farqli o'laroq, bu o'zgarish butun tashkilot miqyosidagi doimiy sababiyat va umumiy maqsadlarga erishishga intilishning natijasi hisoblanadi.

Reinjiring g'oyasi asosida qayta tashkillashtirilgan kompaniya obrazini shakllantirish ishlari olib boriladi. Bu reinjiringning *birinchi* bosqichi hisoblanadi. Uning maqsadi yangi kompaniyaga nisbatan nuqtai nazarni ishlab chiqishdir. Bu yerda birinchi bo'lib quyidagi masalalarni yechish lozim:

- kompaniyaning strategik maqsadlarining reinjiring kompaniyaning yangi maqsadlarga muvofiqligini ta'minlash lozim;
- bench-marketingni amalga oshirish lozim, ya'ni kompaniyani boshqa raqobotbardosh kompaniya bilan solishtirib chiqish kerak;
- kompaniya mahsuloti va xizmatiga bo'lgan mijozning talabini to'liq qondirish yo'llari va usullarini aniqlash lozim;
- kompaniyaning ichki mijozlari, birinchi navbatda sotuvchilarning kompaniyaning biznes-jrayoniga bo'lgan talablarini aniqlashtrish lozim;
- yangi kompaniyani ixtisoslashtirish maqsadida mavjud bo'lgan kompaniya qanday faoliyat olib borishini tushunish lozim.

Dastlab biz sug'urta kompaniyaning reinjiringini maqsad va vazifalarini ishlab chiqish jarayonini batafsil ko'rib chiqqan edik. Shu sabab yana bir bor uni qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj yo'q. Reinjiring bo'yicha olib boriladigan ishga ruxsat beruvchi reinjiniringni amalga oshirish kerakligi haqidagi hujjatlarni (derektivani) tayyorlash birinchi bosqichning natijasi bo'lishi mumkin. Derektiva mavjud bo'lgan personalga biznesda o'zgarish kerakligini, bunday holatda faoliyat olib borish mumkin emaslik sababalarini tushuntirishi lozim. Reinjiring boshlanishi to'g'risidagi hujjat quyidagi holatlarni aniq tushuntirish lozim:

1. Kompaniyaning tashqi muhiti. Kompaniya mijozlarining kutishlari va talablari. Mavjud bo'lganlarga nisbatan mijozlar ehtiyojlarini qondirishning yana qanday samarali usuli bor?

2. Sug'urta bozoridagi raqobatni kuchayishi va raqobatchilar tomonidan mijozlar ehtiyojlarini qondirish yo'llari. Raqobatchilarga nisbatan mijozlarga

yashiroq xizmat ko‘rsatish uchun nima qilish kerak va qanday xizmat qilish kerak, qanday qilib amalga oshirilishi mumkin?

3. Kompaniyaning ichki muhiti. Nima uchun ish uslublarini qayta ko‘rib chiqish va biznes jarayonlarini tubdan o‘zgartirish zarur? Nimani qayta tuzish kerak? Reinjiringni amalga oshirmasligining oqibatlari qanday?

Ko‘rsatma kompaniya boshqaruvi va uning barcha xodimlari uchun xolisona, ochiq va tushunarli bo‘lishi kerak. Kompaniya rahbariyati, albatta, direktivaning g‘oyasini qo‘llab-quvvatlamog‘i kerak va ishchilar kompaniyani qayta tashkillashtirish kelajakda juda muhim ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Sug‘urta kompaniyasini qayta tashkil etishdagi ikkinchi bosqichi mavjud kompaniyaning modelini ta’riflashdir. Ushbu bosqichga bo‘lgan ehtiyoj haqida ikkita fikr mavjud. Birinchi yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydiganlar mavjud bo‘lgan oldingi dunyoqarashalardan voz kechib, reinjiringni noldan boshlash kerak, deb hisoblashadi. Ushbu “inqilobni” tushunib, deyarli, amalda qo‘llash mumkindek tuyuladi. Biroq, O‘zbekistonda shakllangan o‘ziga xos mentalitetni hisobga olib, bunday yondashuvni amalda qo‘llash tavsiya etilmaydi. Biz juda tezlik bilan yo‘q qilamiz va juda sekinlik yaratamiz. Shuning uchun, fikrimizcha, qiyinchiliklar, nozik holatlar va mavjud bo‘lgan biznes natijalari anglashilganda keskin o‘zgarishlar ishlarini olib borish bo‘yicha yondashuvlardan foydalanish lozim. Biror narsani o‘zgartirish uchun biror narsani bilish kerak.

Mavjud kompaniyaning modelini yaratish (teskari reinjiring) quyidagilarga, ya’ni:

- kompaniyaning mavjud biznes-jarayonlarini tushunishga;
- yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlarni hujjatlashtirilgan shaklda tavsiflashga;
- biznesni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlashga;
- mijozlar ehtiyojlarini qondirish jarayonida protseduralar, me’yorlar va biznes qoidalari ta’sirini, shuningdek, kompaniyaning turli bo‘linmlarining o‘zaro harakatini o‘rganishga;
- birinchi, “qo‘pol” shaklda yangi biznes modeli yaratishga imkon beradi.

Mavjud biznesni muqobil ravishda tushunmasdan, uni o‘zgartirishning optimal usullarini tanlab bo‘lmaydi. Bundan tashqari, teskari reinjiringni amalga oshirish uchun kompaniyaning mavjud xodimlarini jalb qilish kerak. Har bir xodimga modellarni yasashda ishtirok etish imkonini berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan kompaniya xodimlarining mavjud biznesni ta’riflashda ishtiroki undagi o‘ziga xos bo‘lgan nozik joylarini ko‘rishga, qayta qurishni anglashaga yordam beradi.

Harakatdagi biznes modeli umuman olganda biznes holatini aks ettiruvchi umumiy funksional ta’riflarni va sotish, mijozga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha alohida jarayonlarning to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni qamrab oladi. Mavjud

bo‘lgan biznes modelini ta’riflashda u yoki bu jarayonlar samarasini aniq o‘lchagichlari qo‘llaniladi. Bu esa olinayotgan natijalarni reinjiring jarayonini amalga oshirishdan so‘ng kompaniya ega bo‘lgan natijalar bilan solishtirish uchun juda muhimdir.

Ikkinchi bosqichdan mantiqan kelib chiqadigan uchinchi bosqich yangi kompaniya modelini ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Yangi biznes modelini yaratish bo‘yicha aniq harakatlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, yangi biznesning umumiy funksional modeli ishlab chiqilmoqda, unda kichik ta’riflari bor kichik tizimlar va model obyektlari mavjud. Umumiy hujjatda (reinjiring konsepsiyasi) reinjiring maqsadi va vazifalari aniqlanadi, sug‘urta kompaniyaning asosiy biznes-jarayonlari, ularning kompaniya faoliyatidagi o‘rni, bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning umumiy tamoyillari ta’riflanadi.

Bundan tashqari, bu yerda kompaniya erishmoqchi bo‘lgan yangi qadriyatlar va ideallar, olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirok etish uchun xodimlarnining sababiyat tizimi belgilanadi. Korporativ axborot tizimini yaratish vazifalari aniqlandi.

Ikkinchidan, isloh qilingan biznesning raqobatbardosh kichik tizimlari modellashtiriladi. Kichik tizimlar ishni bitta biznes-jarayonda, masalan: sug‘urta mahsulotini yaratish, sotish, anderrayting va hokazolarda ifodalaydi. Shu bilan birga, biznesdagi jarayonlar funksional bo‘linmalar orqali qanday ishlash kerakligi belgilab beriladi.

Uchinchidan, modellashtirilgan aniq kichik tizimlar muayyan hujjatlarda, masalan, turli ko‘rsatma, qoidalar va hokazolarda o‘z aksini topadi. Xususan, kompaniya bo‘linmalarning o‘zaro hamkorligi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma:

- sug‘urta shartnomasini tuzishda sotuvchi bo‘linmalar, bek-ofis, anderrayting o‘rtasidagi;
- sotish jarayonida mijoz va sotuvchi bo‘linmalar o‘rtasidagi;
- sug‘urta voqeligini ko‘rib chiqish jarayonida zararlarni tartiblashtirishda mijoz va bo‘linma o‘rtasidagi;
- mijozga xizmat ko‘rsatishda ishtirok etuvchi boshqa bo‘linmalar (yuridik bo‘linma, buxgalteriya hisobi, qayta sug‘urta qilish va boshqalar) o‘rtasidagi tamoyillar, me’yorlar ishchi protseduralarni belgilab beradi.

Shu bilan birga yo‘riqnomada aniq ko‘rsatkichlar, ya’ni sug‘urta shartnomasini tayyorlash va bajarish vaqti, anderrayting protseduralari va boshqalar belgilanadi. Bundan tashqari, ko‘rsatilgan hujjatda lozim bo‘lgan blanklar va ilovalar bor. Kompaniyaning hujjat aylanmasi ham tegishli qoidalar bilan tartibga solinadi.



24.6-rasm. **Sug'urta kompaniyasi reinjiringi bosqichlari**[204]

To'rtinchidan, reinjiringni joriy etish rejasi va uni amalga oshirish bilan bog'liq aniq tadbirlar va muddatini ishlab chiqish yangi biznes modelini yaratish bosqichining so'nggi qadami hisoblanadi. Reinjiring sug'urta kompaniyasi modelini va uni joriy etish bo'yicha ishlarni rejalashtirishdan so'ng *to'rtinchi bosqich* – qayta loyihalashtirilgan biznes-jarayonlarning joriy etish ishlari boshlanadi.

Bu kompaniyaning faoliyatida murakkab va juda muhim holat, chunki yangi jarayonlar joriy etiliyotgan bir vaqtda kompaniyalar ishlayotgan atrof-muhitni o'zgartirmasdan mavjud bo'lgan jarayonlarni davom ettirish kerak. Boshqacha qilib aytganda, kompaniya mijozlari tashkiliy chora-tadbirlar o'tkazilayotgan bir vaqtda noqulalyiklarni sezmasligi lozim. Shu bilan birga, yangi sharoitda kompaniya bilan ishlash tajribasini orttirish maqsadida jarayon o'zgartirilishi ham mumkin. Bunday holda, mijoz yangi jarayonni aniq anglashi va uni to'liq qabul qilishi kerak.

Har qanday holatda, sug'urta kompaniya reinjiringini muvaffaqiyatli o'tkazish ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiysi quyidagilardan iborat:

Birinchisi. Agar kompaniyada ushbu loyihaning yetakchisi bo'lmasa, loyihani reinjiniring bo'yicha amalga oshirish imkoniyati bo'lmaydi. Yangi g'oyalar bir nechta, hatto bir kishining boshida tug'ilishi mumkin. O'tkazish jarayonini boshqaradigan odamlar uning yo'nalishini sezilarli darajada belgilab beradi. Shu sababli, ertangi kun rahbarlarini bugun saylash kelajak kompaniyaning butun yo'nalishini belgilab beradi.

[204] O'quv materiallari asosida tayyorlangan

Yetakchi boshqalar ko'rmaydigan kelajakdagi imkoniyatlarni ko'radi. U aniq va tushunarli qilib o'z tushunchalarini konsepsiyada ifodalaydi. Konsepsiya aslida kompaniya qanday bo'lishi va qanday yo'nalishda rivojlanishi kerakligini ko'rsatib beradi.

Yetakchi bu konsepsiyani amalga oshirish mumkinligini tushuntirib, uni qabul qilinishiga harakat qiladi va uning joriy etilishi har bir xodimning ulushiga bog'liq ekanligini uqtiradi. Yetakchi o'z rahbarligini misolda namuna qilib ko'rsatib, xodimlar muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlaydi va ularni mazkur konsepsiyani amalga oshirishga undaydi. Rahbar tufayli oddiy odamlar nooddiy ishlarini bajarishga qodir bo'la oladi.

Rahbar nafaqat tashkiliy tuzilmani quradi yoki uni o'zgartiradi, balki har bir kishining tanlangan vazifalarini, imkoniyatlarini inobatga olgan holda va xodimlarni to'g'ri tanlab, tashkilotning to'g'ri tuzilmasidan iborat infratuzilmani yaratadi.

Ikkinchisi. Reinjiniring, shubhasiz, yangilik bo'lganligi tufayli, firmaning yangilikka munosabat bildirishi, innovatsiyalarni, ilmiy – texnik yutuqlarni qabul qilinishi reinjiniring jarayonlarini muvaffaqayatli o'tkazishning muhim shartlaridan bir hisoblanadi. Bunga yuqori darajada moyilligi bor tashkiliy muhit noanan'anaviy innovatsiya yechimlarni tashabbus bilan izlashga yordam berishi lozim.

Ijodiy izlanishlar muhitini qo'llab-quvvatlash menejerlarning bevosita vazifasidir. Kompaniyadagi yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi omillar quyidagilardir: novatorlarni ushbu faoliyat uchun kerakli vosita va resurslar bilan ta'minlash, kompaniya rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi, qo'rquvsiz erkin bahs-munozaralarni joriy etish, novatorlarning xatolariga va muvaffaqiyatsizliklariga sabrlilik bilan munosabatda bo'lish.

Bundan tashqari, xodimlarni uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga nisbatan o'z fikrlarini bildirish imkoniyatlari, ishchi guruhlar uchrashuvlarini o'tkazish va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, innovatsiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi omillar kompaniyada bo'lishi mumkin, masalan: rahbariyatni quyidan taklif qilinayotgan g'oyalarga ishonchsizlik bildirilishi, byurokratiya va sansalorlik, raxbar xodimlarda "hammasini biluvchi" kasalligining yuzaga kelishi, novatorning har bir harakatini nazorat qilish va hokazolar.

Albatta, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun uni rivojlantiruvchi omillarga yo'l ochib berish lozim, to'siqlarni bartaraf etish kerak.

Uchinchidan. Reinjiringni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy va hal qiluvchi sharti kompaniya rahbariyatining uning zarur ekanligiga ishonish, uni mulkdorlar va top-menejerlar tomonidan qo'llab-quvvatlashdir. Busiz reinjiring bo'yicha tashabbuskorlarning barcha sa'y-harakatlari behuda bo'ladi.

To'rtinchidan. Reinjiniring loyihasi kompaniyaning rahbariyati boshqaruvi ostida amalga oshirilishi kerak. O'zgarishlarni boshqargan rahbar kompaniyada katta vakolatga va u loyiha uchun javobgar bo'lishi lozim. Reinjiniring maqsadlari

va kutilayotgan natijalarni real baholovchi, ishni amalga oshirish muddati, unga sarflanadigan kuch va moliyalashtirish haqida tasavvurga ega bo'lgan kompaniyalarda yutuqlar ko'proq bo'ladi. Aniq va oqilona boshqaruv loyihaning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Reinjiniringni amalga oshirishdan oldin, yetakchi loyihani amalga oshirish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan xabardor bo'lishi kerak.

U turli sababli yangi o'yin qoidalarini qabul qilmaydigan eski kompaniya va xodimlarning bosimiga qarshi turishi lozim. Ularning ro'kach qilgan sabablari har xil bo'lishi mumkin: vakolat va imtiyozlarni yo'qotish bilan bog'liq qo'rquv, noaniqlikdan shubhalanish, amalga oshiriladigan ishlarga ishonmaslik, yangi tuzilmaning shaffovligi sababli noqonuniy daromadlarni yo'qotish. Bunda kompaniyadan ketaman deb qo'rqitish, reinjiringni amalga oshirishga turli yo'llar bilan qarshi harakat qilish bilan bog'liq oshkora va yashirin qarshi chiqishlar bo'lishi mumkin. Loyiha rahbari reinjiniringni nafaqat amalga oshirish mumkinligiga, balki kompaniya omon qolish uchun u juda zarur ekanligiga odamlarni ishontirishi kerak. U umumiy g'oyani soddalashtirishga, unga nisbatan nojo'ya gaplarni tarqatishga yo'l qo'ymasligi lozim. U reinjiringni o'z vaqtida amalga oshirishga barcha imkoniyatlarini ishlatishi kerak.

Beshinchidan. Loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hamkorlik muhitni tashkil qilishga vakolati bor, reinjiring g'oyasini qo'llab-quvvatlaydigan kompaniya xodimlarining faol ishtiroki kerak bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishdan va sotishning o'sishidan manfaati bor savdo bo'linmalarining xodimlari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, sug'urta shartnomasi tuzish paytida risklarni baholashga professional yondashivuga manfaat bildirgan anderrayterlar reinjiniring g'oyalarini faol qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shu bilan birga, xodimlar kompaniyani isloh qilish jarayonida faol ishtirok etishlari uchun, ular loyiha nima uchun amalga oshirilayotganini, yangi vazifalarini qabul qilishini tushunishi va ularni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Shuning uchun, rahbarlar aniqlanganidan so'ng, o'zgarishlar dasturini barcha xodimlarga taqdim etiladi. Safarbarlikning ushbu bosqichi ko'plab xodimlarni qamrab oladigan kommunikativ jarayonni yaratishdan iborat; u ish dasturida kompaniyani butunlay qamrab oladi. Yetakchi jamoa majlislari kabi mexanizmlardan foydalangan holda, dasturni shaxsan o'zi boshqarayotganligini bildirib, o'ziga katta rolni belgilab oladi. Bu yerda diqqat-e'tibor hajmga qaratilgan bo'ladi. O'zaro hamkorlik asosiy unsur hisoblanadi. Tashkillashtirishning pastroq sathlarida o'zgarish jarayonlarga jalb qilingan kishilar muloqotda asosiy rol o'ynaydi. Agar ularni oldingi vazifalaridan ozod qilishsa, samarali ishlab, o'zgarishlarda faol ishtirok eta boshlaydi.

Odatda bu odamlar juda qimmatli bilimga ega bo'lib, hurmatli xodimlar hisoblanadi, atrofdagilar ular fikrlariga quloq solishadi. Kompaniyadagi eng iqtidorli odamlarning aksariyati o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilganda, barcha xodimlar bunga e'tibor qaratishadi.

Oltinchi. Reinjiniringni amalga oshirishda muayyan muammolarni hal etishga qaratilgan biznes-jarayon jamoalarini shakllantirish. Bu jamoalar o'z rivojlanish dinamikasiga ega bo'lib, boshqaruvda e'tiborni talab qiladi. O'zgarishlarda ishtirok etayotgan agent mazkur jamoaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U ishning vertikal va gorizontal muvofiqligini ta'minlaydi va shunday qilib har bir jamoaning say-harakatlarini o'zgarishlar bo'yicha umumiy harakatlar bilan uyg'unlashtiradi.

Jamoa tarkibi juda muhimdir. U oraliq vazifani bajaruvchi ko'p vakillardan iborat bo'lishi lozim. Bunday tartib biznesga bo'lgan yaxlit va har tomonlama qarashlar asosida yuzaga keladigan muammolarni chuqur tushunishga ko'mak beradi. Faqat shunga o'xshash turli tarkibli guruhlar aniq va ixtisoslangan bilimlarga ega bo'ladi. Ular nima qilish kerakligini biladi va sezilarli foyda keltiruvchi harakatlarni belgilab beradi. Bunday harakatlar odatda asosiy ishchi guruh tomonidan yaratilgan va jamoaning manfaat doirasida faoliyat olib boruvchi kichik guruhlar tomonidan bajariladi.

Jamoa ishi davomida biznes-jarayon bilan shug'ullanuvchi menejer aniqlanib, shakkllanadi. Ular boshqaruvni va xodimlar – jamoa a'zolari say harakatlarini muvofiqlashtiradi.

Yettinchi. Reinjiniring bo'yicha loyiha o'z byudjetiga ega bo'lishi lozim, chunki islohotlarni amalga oshirish, xodimlarni ishga olish va o'qitish, korporativ axborot tizimini yaratish, maslahatchilarni jalb qilish va hokazolar ma'lum xarajatlarni talab qiladi.

Sakkizinchisi. Reinjiniringni texnologik qo'llab-quvvatlash o'zgarishlarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Kompaniyadagi yangi biznes-jarayonlari axborot texnologiyalari yordamida mustahkamlanishi kerak. Reinjiniringli sug'urta kompaniyasi ishlashini ta'minlaydigan korporativ axborot tizimi tatbiq etilmasa, loyiha muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

24.3. Reinjiniring sug'urta kompaniyasining qisqacha tavsifi

Biz reinjiniringli sug'urta kompaniyasining tarkibi va mazmunini, shuningdek, uni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va qoidalarini ko'rib chiqdik. Reinjiniring ijodiy va innovatsion jarayon bo'lgani uchun, bu yerda bir xil model va standartlar yo'q. Hayot shart-sharoitdan kelib chiqib, islohot jarayonini o'zgartirishi mumkin. Biroq, asosiy metodologik yondashuvlar aniq va ular e'tiborga olinishi kerak.

Taqiqotimiz yakunida reinjiniringli sug'urta kompaniyaning ko'rinishini oddiy ta'rifida, shuningdek biznes-jarayonlarni qayta loyihlashtirishnig o'ziga xos jihatlarida to'xtalsak mantiqan to'g'ri bo'lar edi. Chunki butun islohot jarayonining yakuniy maqsadi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan yangi kompaniya tashkil etishdan iborat:

1. Kompaniyani vazifa bajaruvchi bo‘linmalariga bo‘lishdan biznes-jarayon jamoalariga o‘tish. Kompaniyaning mijozlarga yanada yaxshi xizmat ko‘rsatishga qaratilgan sa’y harakatlarining birlashishi kompaniyani sug‘urta mahsulot yaratilishini oddiy jarayonlarga, uning sotilishiga, sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishga bo‘lish orqali erishiladi. Shu bilan birga, yakka tartibdagi individual vazifalar yaxlit biznes jarayoniga kiritiladi.

Masalan, savdoni amalga oshirish jarayoni sug‘urta mahsulotini yaratishni, sotishni, sug‘urta shartnomalarini tayyorlash va rasmiylashtirishni, shuningdek anderraytingni qamrab oladi. Bunday holda, biznes-jarayoni menejeri boshchiligidagi barcha jarayon uchun mas’ul bo‘lgan jamoa tuziladi. Ishtirokchilarning biznes jarayonlaridagi aloqalari tegishli me’yorlar, protseduralar va qoidalar bilan belgilanadi.

2. Jarayonlarning reinjiringi an’anaviy yondashuvga xos bo‘lgan ishning chiziqli tartiblashtirishdan ozod qiladi. Ishlarning tabbiy tartibda bajarishga (ya’ni imkon bor joylarda ishlarni pararllel bajarishga) imkon berib, jarayon bajarilishini tezlashtiradi. Masalan, sug‘urta xizmatlarining sotuvchisi sug‘urta shartnomasini rasmiylashtirish uchun operatsion ko‘mak markaziga arizani va mijoz so‘rovnomasini taqdim etdi. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish paytida sotuvchi boshqa mijozlarga sug‘urta xizmatlarini sotishi bilan shug‘ullanishi mumkin.

3. Bir ish jarayonida xodimlarni ixtisoslashuvi mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqtini ancha qisqartiradi. Xatolar soni kamayadi va bu xatolarni bartaraf etish uchun maxsus guruhlarni saqlashga hojat bo‘lmaydi. Namunaviy sug‘urta shartnomalariga ega bo‘lgan bek-ofis xodimlari savdo bo‘linmalari xodimlariga qaraganda yangi shartnomani ancha tez tayyorlaydi. Biznes-jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida mas’uliyatlar aniq bo‘linganligi sababli bitta jarayon ichidagi boshqaruv ancha yaxshilanadi.

4. Vakolatlarni quyi bo‘g‘inlariga yo‘llash qaror qabul qilishning markazsizlantirishiga olib keladi va buninng natijasida “jarayon vertikal bo‘ylab siqiladi”.

Anderraytinglar va operatsion qo‘llab-quvvatlash markazlari xodimlari o‘zlariga ajratilgan mas’uliyat limitiga muvofiq sug‘urta shartnomasini tuzish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilishi natijasida vertikal siqilish yuzaga keladi.

Ishni an’anaviy tarzda tashkil qilishda quyi bo‘linma xodimi qaror qabul qiluvchi yuqorida turuvchiga murojaat qiladi. Bu, o‘z navbatida, qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi, mijozga xizmat ko‘rsatish muddatni cho‘zadi. Reinjiniring hamma narsani tabiiy joyga qo‘yadi. Qaror rahbarlar tomonidan emas, balki o‘z vakolatlari doirasida mutaxassislar qabul qiladi. Masalan, anderraytingga nafaqat sug‘urta shartnomasi loyihasini ko‘rib chiqish, balki uni imzolash huquqi

ham berilgan. Qaror biznes jarayoni doirasidan tashqarida emas, balki uning ichida qabul qilinishi sababli mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqti sezilarli darajada tezlashadi.

5. Kelishuvlar va boshqaruv ta'sirlarni kamaytirish. Bitta biznes-jarayon ichidagi protseduralar rasmiylashtirilishi tufayli holisona sharoit yuzaga keladi. Unga muvofiq jarayon ishtirokchilarining barcha harakatlari mazmunan, vaqt va vazifa bo'yicha aniqlanadi. Jarayonga qaritilgan harakatlar dasturiga muvofiq u "avtomatik" tarzda ishlaydi. Bunday sharoitda har bir xodimning harakatini doim nazoratini boshqarishga ehtiyoj qolmaydi. An'anaviy jarayonlar tekshirilib turiladi, ular boshqariladi. Bularning barchasi mijoz uchun hech qanday ahamiyatga ega emas. Tekshiruvchilar ijro etuvchilardan belgilangan qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Tekshiruvlarning maqsadga muvofiqligi sharoitida ko'pgina sug'urta kompaniyalar mazkur o'tkazilayotan tekshiruvlarga qancha mablag'lar sarflashi haqida o'ylamagan edi. Amalda ko'p holatlarda tekshiruv qiymati uning o'tkazmasligi natijasida yuzaga kelgan yo'qotishlar qiymatidan ancha yuqori bo'lgan.

Reinjiniring natijasida muayyan masala bo'yicha kelishuvlar miqdori kamayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, bunday hujjatlarni kelishish shart emas, chunki ularni imzolash tartibi belgilangan bo'ladi.

Ikkinchidan, nostandart masalalarni ko'rib chiqishda biznes jarayonida ishtirok etuvchilarga tegishli vakolatlar beriladi.

6. Boshqarishning aralashma tamoyili–markazlashtitirilgan-markazlash-tirilmagan. An'anaviy kompaniyalarda barcha jarayonlar, shu jumladan qaror qabul qilish qat'iy markazlashtirish tamoyillari asosida qurilgan bo'lsa, reinjiniring sug'urta kompaniyasida bo'linmalar avtonom holda harakat qilib, markazlashtirilgan ma'lumotlar bazadan foydalanish imkoniyati mavjud. Masalan, turli hududlarda faoliyat yuritadigan sug'urta kompaniyalari filiallari o'z bizneslarini mustaqil ravishda olib boradi. Shu bilan birga ular onlayn axborot texnologiyalari orqali korporativ axborot tizimiga kirish imkoniyatiga ega. Tegishli ruxsat olish uchun bosh kompaniyaga murojaat qilish faqat nostandart holatlarda yuzaga keladi.

Sug'urta kompaniyasini reinjiniringi biznes-jarayonlarni qayta tuzishdan boshlanadi. Biroq, uning mazmuni bu bilan cheklanmaydi. Gap shundaki, biznes jarayonlarning radikal o'zgarishi kompaniyaning barcha sohalarini qamrab oladi.

Birinchidan, ish tartibi va odamlarni tashkil qilish tartibi o'zgartiriladi. Funksional birliklar o'rniga ular jamoalarga qo'shiladi. Bundan kompaniyaning yangi tashkiliy tuzilishi kelib chiqadi. Jarayonli jamoalarda ishlaydigan xodimlar mijozlar ehtiyojlarini qondirish manfaatli bo'lishi uchun boshqaruv va

sababiyatlarning oqilona tizimlari kerak bo‘ladi. Ular yangi qadriyat tizimini shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Sug‘urta kompaniyasi uchun biznes-jarayonning reinjiniring oqibatlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Asosida funksional birliklar emas, balki jarayon guruhlar turgan yangi tashkiliy tuzilmaga o‘tish. Ish qayta tashkil etilgandan so‘ng, butun jarayonni bajarishda birga harakat qiluvchi jarayonli jamoa kishilarni tashkil etishda mantiqiy usul bo‘lib hisoblanadi. Reinjiniringning birinchi bosqichida jarayon guruhida bitta biznes jarayonida ishlarni bajarish uchun yuborilgan funksional bo‘limlarining vakillari ishlashi mumkin.

Ikkinchi bosqichda jarayon komandalari bo‘limlardan tashkil topgan eski boshqaruv tuzilmani to‘liq o‘zgartiradi. Jarayon guruhi - muayyan turdagi ishlarni boshdan oyog‘igacha bajarish uchun tabiiy ravishda yuzaga kelgan tashkiliy birligidir. Masalan, sug‘urta qoplamasini to‘lash kabi jarayonni ko‘rib chiqamiz. An’anaviy sug‘urta kompaniyasida sug‘urta qilingan hodisaning yuzaga kelishi haqidagi ariza mijoz muloqot qilgan sotuvchi bo‘linmaga kelib tushadi.

Mijozga sug‘urta qoplamasini to‘lash uchun sotuvchi sug‘urta hodisasi yuzaga kelganligi haqidagi qaydnomani huquqiy bo‘linma, buxgalteriya va hokazolar bilan kelishishi lozim. Reinjiniring sug‘urta kompaniyasida mijozning arizasini qabul qiladigan, sug‘urta hodisasini tekshirishni amalga oshiradigan, sug‘urta badalini to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qiladigan jarayon komandasi (operatsion yordam markazi) tashkil etiladi.

Buning uchun jamoada yuristlar, zararni baholash bo‘yicha ekspertlar va boshqa mutaxassislar ishlashadi. Ular biznes jarayonida “sug‘urta tovonini to‘lash” barcha ishlarni bajarishadi. Jarayonli jamoalar tashkil etilganda, tashkilotning tashkiliy tuzilmasi ko‘p bosqichli (ierarxik) ko‘rinishdan “tekis” tuzilmaga o‘zgaradi, chunki ko‘plab qarorlar jamoada qabul qilinadi. An’anaviy tuzilmadagidek ierarxik bosqichlarda joylashgan barcha tuzilmalar bilan qarorlarni kelishishga hojat qolmaydi.

2. Ko‘pgina qarorlar jarayon guruhida qabul qilinganligi sababli, menejerlarning nazorat vazifalari ham shunga mos ravishda trenerlik mazmun bilan almashtiriladi. Jarayon komandasi o‘z jarayonini bajarish uchun to‘liq javobgar bo‘lganligi sababli, menejer tomonidan ijrochilar ustidan nazorat qilish ta’siri bartaraf etiladi. Biznes jarayoni menejerlarining vazifalari jamoa haraktlarini muvofiqlashtirishga, jarayon bajarilishida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda jamoa a’zolariga yordam ko‘rsatishga qaratiladi. tashkil qilish, jamoaning sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirishdan iborat. Shunday qilib, menejer trenerga aylanadi, kerak bo‘lsa, jamoaga o‘z ishini eng maqbul yo‘l bilan bajarishga yordam beruvchi o‘ynovchi-trener vazifasini bajara oladi.

3. Sug‘urta kompaniyasining xodimlari ham o‘zgaradi.

Birinchidan, ishni butunlay tugatish xodimlardan yuqori bilim va kasbiy mahoratni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, kompaniya tomonidan xodimlar uchun uzluksiz ta’lim tizimini yaratilishiga olib keladi. Yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish jamoa a’zolarining ichki ehtiyojiga aylanadi, chunki bularsiz mijoz talabini to‘liq qondirib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, biznes jarayoni jamoada ishlayotgan ijrochilarning maqsadlari o‘zgaradi. Reinjiniring kompaniyaning madaniyatida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi va barcha biznes jarayonlar ishtirokchilarida ular boshliqlar uchun emas, balki mijozlar uchun ishlayotganligi to‘g‘risida tasavvurni shakllantiradilar. Qadriyatlar o‘ziga xos ravishda qayta baholanadi, bu esa ish natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Bunday qadriyatlar tizimini qo‘llab-quvvatlash keskin o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan reinjiringli sug‘urta kompaniya xodimlarida sababiyat paydo bo‘lishiga olib keladi. Odamlar ishlab berilgan vaqti miqdori va lavozimi uchun emas, balki mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun pul olishadi. Shuningdek sug‘urta mukofoti hajmi ham oshib boradi.

Reinjiniring ish haqining asosiy qoidalarini sug‘urta kompaniya tomonidan qayta ko‘rib chiqishga olib keladi. Ishchilar daromadlarining asosiy qismi endi qat’iy kafolatlangan ish haqiga emas, balki miqdoriy va sifatli o‘lchovlarga ega bo‘lgan ishlarning aniq natijalariga bog‘liq bo‘lib qoladi.

5. Reinjiniring kompaniyaning axloqiy va ijodiy muhitiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi va bu butun jamoaning jipslashiga yordam beradi. Reinjiniringdan so‘ng ish nafaqat moddiy, balki ma’naviy qoniqish keltiradi. Chunki reinjiniring uni amalga oshiruvchilarda o‘z sa’y-harakatlari to‘liq bajarilishi, maqsadlarga erishishi bilan bog‘liq ijobiy hissiyot o‘yg‘otadi. Jarayonni amalga oshirayotganlar tadbirkorga o‘xshab ketadi, chunki jarayon jamoasining asosiy maqsadi mijozning ehtiyojlarini qondirish va daromad olishdir.

Bundan tashqari, ish ko‘proq quvonch keltiradi, chunki kasbiy o‘sish va o‘qitish natijasida u xodimlarga rivojlanishga imkon beradi. Xodimlarning malakasi va tajribasi oshishi natijasida ularning bajaradigan vazifalarining chegarasi kengayib, mazmuni chuqurlashib boradi.

Shunday qilib, biznes jarayonlari reinjiniringi kompaniyaning barcha faoliyat turiga ta’sir ko‘rsatadi va undagi barcha holatlarni, ya’ni biznes jarayonlarni, xodimlarni, ularning sababiyati tizimini va qadriyat maqsadlarini o‘zgartiradi.

25-MAVZU.
SUG'URTA MENEJMENTI VA PERSONALNI BOSHQARISH

25.1. Menejment tushunchasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Menejment - bu inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida unga "boshqaruv hokimiyati va san'ati", "resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar tushuniladi", deb ta'rif berilgan.

Ushbu har bir kategoriyalarda iqtisodiy qaror qabul qiluvchi shaxsga rentabellikning notekis ko'tarilish sabablari ko'rsatilgan va shuningdek, qaror qabul qiluvchiga tushunchalarning xilma-xillik sabablari tushuntirilgan. Birinchi segmentda birinchi obektiv vazifa botiqlik boshqalarida esa menejerlarning riskka qarshi o'zini qanday tutishi haqida gap ketgan. Biz bu har bir nazariyani tushuntirish bilan boshlaymiz[205].

Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment - bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, insonlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan boshqaruv - bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Bugungi kunda menejment va boshqaruv to'g'risida quyidagi umum qabul qilingan fikrlar mavjud:

25.1-jadval

Menejment va boshqaruv haqida fikrlar[206]

Boshqaruv	Yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov	Menejment
	Faoliyat turi, funksiya	
	Jarayon	
	Tashkilotlarni boshqaruvchi kishilar	
	Boshqaruv apparati yoki organi	

Bozor iqtisodiyotida tanlash qoidasi yanada jiddiylashadi. Zero, ishlab chiqarish (xizmat) uchun resurslar to'g'ri tanlangandagina va ulardan samarali foydalangandagina xarajatlar yuqori foyda keltirishi mumkin.

Har qanday faoliyatning ijobiy natija berishi, eng avvalo, tanlovni to'g'ri bajara olishga, ma'qul va ishonchli qarorni qabul qila olishga hamda bu qarorning bajarilishini nazorat qila olishga bog'liq. Masalan, yuqori foyda olish quyidagi uchta jihat bo'yicha to'g'ri tanlovni va ishchan qaror qabul qilinishini talab qiladi.

---

[205] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005, 8 P.

[206] Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

Risk menejmenti mijozlarga to‘liq xizmatlar yig‘indisini taklif etish imkoniyatini beradi, risk va sug‘urta sohasidagi masalahat sifatidagi sug‘urtalovchilarga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Bu esa ularga boshqa oddiy, chegaralangan sug‘urta xizmatlarini taklif etuvchi sug‘urtalovchilarga nisbatan katta imtiyoz yaratadi.[207]

Ma’lumki, biror ashyo (resurs yoki tovar) qancha kamyob bo‘lsa, uning narxi shuncha baland bo‘ladi va binobarin, uni sotib olmoqchi bo‘lganlar shuncha kam bo‘ladi. Iqtisodchilar buni narxlarning cheklovchilik samarasi deb ataydilar.

Narxning oshishi ishlab chiqaruvchilar safini ko‘paytirishga, narxning tushishi esa ishlab chiqaruvchilarning kamayishiga, ularning bir qismini bozordan bezdirishga olib keladi. Iqtisodchilar narxlarning bunday ta’sirini ishlab chiqarishga turtki vazifasi deb ataydilar.

Foydaga ta’sir etuvchi bu uch unsurning mohiyatini tushungan boshqaruvchigina tanlovni to‘g‘ri amalga oshirishi va ishchan qarorni qabul qila olishi mumkin. Boshqarish san’ati va mahorati, ya’ni menejment kundagina namoyon bo‘lishi, pirovardda esa yuqori foyda olishga erishilishi mumkin. Shunday qilib, sodda qilib aytganda: Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Riskni boshqarishni asoslash va tashkil qilish menejmentda muhim o‘rin egallaydi. Amaliyotda moliya-sanoat, xolding kabi diversifikatsiyaning shakllari qo‘llanib kelinmoqda

Difersifikatsiya - bu bir nechta ob’etlar o‘rtasida riskni taqsimlash.

Sekyutritizatsiya - bu kreditlash operatsiyasini ikki qismga bo‘lish:

- ✓ kredit berish shartini ishlab chiqish;
- ✓ shartnoma tuzish.

Limitlash - bu investitsiyaning miqdor chegarasini belgilash. Asoslashning bir nechta nazariyasi mavjud.

Riskni boshqarishni motivlash deganda bozor subyektlari, davlat tashkilotlari riskni kamaytirish borasida ish olib boradi.

Motivlash - odamni xarakatga majbur qiluvchi talab.

Riskni boshqarishga rag‘batlantirish subyektlariga riskni kamaytirishga undash.

Davlat bozor subyektlarining xarakatini risk miqdorini kamaytirishga motivlash turli usullar bilan amalga oshiriladi: huquqiy normalar bilan (ba’zi faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga ruxsat berish yoki takiqlash) ma’muriy yo‘l bilan yong‘in nozirlari va texnik nazorati idoralari bilan), soliq siyosati bilan.

O‘z navbatida korxona o‘z ishchilarini risk natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar miqdorini kamaytirishga motivlash lozim. Bu ishchilar mehnat xaqiga mukofot, qo‘shimcha ish xaqi to‘lash usullari bilan amalga oshiriladi.

Sug‘urta sohasida ham motivlash usullari qo‘llaniladi. Sug‘urtada zara miqdorini kamaytirish maqsadida sug‘urta qilingan mamlakat sug‘urta qilingan mol-mulk egasi mol-mulki zarardan asrab qolish chora-tadbirlarini qo‘llashi lozim. U tomomnidan qilingan xarajatlar sug‘urtachi tomonidan qoplab beriladi.

---

[207] Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. 325 P.

Amaliyotda korxona va tashkilotlarning mol-mulk sug'urtasida avtoronsport egalarining javobgarligi sug'urtasida motivlash uchun bonuslar ishlatiladi.

Aksincha, sug'urtalanuvchi qasddan sug'urtadangan mulkka zarar yetkazgan bo'lsa, sug'urta qoplamasi to'lanmaydi.

Boshqaruv samarasini oshirish uchun riskni boshqarishni to'g'ri tashkil qilinishi lozim. Riskni boshqarishni tavshkil qilish - bu riskdan himoyalanish vositasi sifatida tizim shakllantirishdir.

Tashkil qilish maqsadga erishish vositasi sifatida quyidagi instrumentlardan foydalaniladi:

Bo'limlarga bo'lish, ularni ixtisoslashishi, motivlash, hokimiyat yo'lboshchilik, konflikt.

Tashkil qilishning muhim tomoni riskni boshqarish bo'yicha majburiyatni taqsimlashdir. Riskni boshqarish borasida majburiyatni taqsimlashda biron bir holat yuz berganda ishchilarning nima ish bilan shug'ullanishi, ish faoliyatining qaysi sohasiga javob berishni belgilanadi.

Riskni boshqarish texnologiyasi menejmentda muhim o'rin egallaydi. Riskni boshqarish texnologiyasi bu malaka va ko'nikmalarni, jihozlarni infrastrukturani instrumentlarni, texnik bilimlarni umumlashtirib qarashdir.

Kommunikatsion va ma'lumot jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari riskni boshqarishni tashkil qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Global risklarni boshqarish xavsizlik kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Uning funksiyasiga riskni o'z vaqtida topish va global riskni boshqarish kiradi.

Bundan tashqari:

- Tashqi ishlar vazirligi tashqi siyosiy risklarni boshqaradi;
- Mudofaa vazirligi tashqi harbiy risklarni boshqarish;
- Tashqi aloqalar vazirligi tashqi iqtisodiy risklarni boshqarish;
- Moliya vazirligi tashqi va ichki moliyaviy risklarni boshqarish bilan;
- Favqulotda holatlar idorasi tabiiy ofat bilan bog'liq risklarni boshqarish;
- Ichki ishlar vazirligi ichki ijtimoiy risklarni boshqarish bilan shug'illanadi.

Korxona kesimida korxonada birinchi shaxs global risklarni boshqarish bilan shug'ullanishi lozim. Tijorat direktori bozor faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarish bilan shug'ullanishi lozim. Tijorat direktori bozor faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarish, bosh muxandis texnogen risklarni boshqarish, moliyaviy direktor moliya va investitsiya risklarini boshqarish bilan shug'ullanadi.

Boshqaruv qarorini tayyorlashga qarorni qabul qilgan shaxs boshchilik qiladi.

Qarorni tayyorlash shaxs muammosini aniqlashi, muammoni yechish bo'yicha vazifani belgilashi zarur.

Riskni boshqarish bo'yicha qaror tayyorlashda quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- qaror qabul qiluvchi shaxs qanaqa ma'lumotga ega;
- ma'lumotning noaniqlik darajasi;
- riskni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida qanaqa vositalar va resurslarga ega;
- son miqdorining kattaligi, obyekt turi;
- qarorni qabul qilinishi yoki qilinmasligi qanaqa natijaga olib kelishi mumkin;
- riskni boshqarish bo'yicha qaror tayyorlovchining malakasi;

Riskni boshqarishda nazorat va javobgarlik ham muhim o'rin egallaydi. Riskni boshqarishni nazorat qilish ostida quyidagi jarayon nazarda tutiladi;

- o'ziga xos faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona uchun riskni qabul qilish mumkin bo'lgan darajasi;
- riskni boshqarishni tashkil qilishda qo'yilgan maqsadga erishiladi;
- faktni aniqlash va tashkilot faoliyatida risk muammosini belgilash;

Menejmentda nazorat bir aktivli yoki jarayoni bo'lishi mumkin.

Bir aktivli tartibda riskni boshqarishni nazorat qilish bu alohida chora tadbirlar:

- risk-muammoni aniqlash yo'nalishi;
- tashkilot riskini boshqarishda haqiqatda qo'yilgan maqsadga erishganligini tekshirish va tasdiqlash, tashkilot mavjud riskni o'zi boshqara olishi mumkin;
- tashkilotning riskni boshqarish tizimidagi muammoni aniqlash.

Riskni boshqarishni jarayonli nazorati-bu riskni boshqarishni vaqt va fazo bo'yicha tekshirilishi yig'indisi. Bunda nazoratga katta e'tibor beriladi. Ammo bundan tashqari nazoratni loyihalashtirish xavfli va quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- soha faoliyatini chegaralash mumkin;
- samarasiz shtatlarning sonini ortishi va nazorat bilan shug'ullanuvchi ishchilar soni oshishga olib kelishi mumkin;
- muomala xarajatlarining ortishi natijasida mahsulotning raqobatbardoshligi susayishi mumkin.

Riskni boshqarish bo'yicha qarorni qabul qilish va bajarish uchun javobgarlik riskini boshqarish samarasini oshirish muhim omildir.

Riskni boshqaruvchi menejer boshqaruv qarorini tayyorlashda javobgarlik darajasini belgilashi lozim. Menejer javobgarligi, qaror qabul qilib zararga yo'l qo'yilmasa paydo bo'ladi.

25.2. Sug'urta menejmentining funksiya va vazifalari

Sug'urta menejmenti funksiyalari ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tug'iladi.

Boshqaruv funksiyalarining mohiyati, klassifikatsiya va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun o'ta muhimdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

G'arb menejmentining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini turkumlashda eng avvalo uning quyidagi asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik berishadi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- nazorat;
- rag'batlantirish (motivatsiya).

Bu funksiyalar boshqaruvning barcha bo‘g‘inlarida va hamma bosqichlarida quyidagi izchillikda amalga oshiriladi.

Demak, boshqarish dastlab rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni tartibga solish, muvofiqlashtirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu yerda rag‘batlantirish barcha funksiyalar jarayonida o‘z aksini topadi[208].

Bu funksiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo‘ladi. Ularni, shuningdek, boshqaruvning hamma tomonlarini qamragan funksiyalar deyish mumkin, chunki ular boshqaruv tizimini ham bo‘yiga (vertikal tomondan), ham eniga (gorizontal tomondan) qamrab oladi.

Sug‘urta menejmenti funksiyasini turkumlashning ikkinchi yondashuvida boshqarish ishini aniq ijrochilar bo‘yicha taqsimlashga ustuvorlik beriladi. Bunda bir butun aniq funksiyalar tizimi ajratiladi. Masalan, zamonaviy g‘arb firmalarida ishlab chiqarishga oid 20-25 tadan kam bo‘lmagan funksiyalar ajratiladi. Bular quyidagilardir:

- ❖ asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- ❖ qo‘shimcha ishlab chiqarishni boshqarish;
- ❖ ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- ❖ marketingni boshqarish;
- ❖ moliyaviy boshqarish;
- ❖ sifatni boshqarish;
- ❖ mehnatni boshqarish;
- ❖ xodimlarni boshqarish;
- ❖ innovatsiyani boshqarish va hokazo.

Bunday holda ishlab chiqarishni boshqarish faoliyatining ayrim turlari va sohalari alohida ajralib turadi.

Sug‘urta menejmentining yuqoridagi sanab o‘tilgan asosiy funksiyalari ularning ishlab chiqarishni boshqarish jarayonidagi o‘rni o‘ta muhim va zarur bo‘lganligi tufayli yanada batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Sug‘urta menejmenti faoliyatining turlariga ko‘ra, funksiyalar quyidagicha bo‘ladi:

❖ boshqarishning iqtisodiy funksiyalari; ya’ni:
- mablag‘larning doiraviy oborotini amalga oshirish;
- mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish;
- marketing xizmatini uyushtirish;
- foyda olishni ta’minlash;

❖ boshqarishning sotsial funksiyalari, ya’ni:
- mehnat sharoitini yaxshilash,
- xodimlarning uy-joyga ehtiyojini, ehtiyojlarini qondirish;
- moddiy rag‘batlantirishni ta’minlash;
- ijtimoiy himoyani ta’minlash va h.k.

---

[208] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005,p.4

❖ boshqarishning ma'naviy - ma'rifiy funksiyalari, ya'ni:
-xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash;
-xodimlarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish.

❖ boshqarishning tashkiliy funksiyalari[209], ya'ni:
-ishlab chiqarishni tashkil qilish;
-o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish;
-barcha bo'g'in va bo'limlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, huquq berish va boshqarish apparati xodimlari o'rtasida mas'uliyatlarni belgilash;
-boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish va h.k.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, komponentlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun boshqarish jarayonida ularning birortasi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Sug'urta menejmentining funksiyalaridan yana biri - bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta'minlashdir. Har bir korxona qandaydir bir tarmoqqa (sektorga) kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligidan mahalliy ishlab chiqarish - hududiy kompleksiga kiradi.

Boshqarish jarayonida bu funksiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutishi lozim. Tarmoqqa doir bo'lgan boshqaruv funksiyalari zarur. Busiz tarmoq «yo'qoladi», yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taalluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo'ladi.

Biroq, ayni vaqtda, boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funksiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tarmoqlar (sektorlar)ga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o'rnatilishini ta'minlaydi. Hududiy funksiyalar idorachilik govlarini yo'qotish, noratsional tashuvlarni kamaytirish va pirovardida, samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqorida qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari ham bor.

Sug'urta menejmentning o'ziga xos aniq funksiyalari deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga konkret biriktirilgan ishlar, mas'uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmuasi tushuniladi.

Tegishli funksiyalarning to'la-to'kis va sifatli bajarilishi uchun ishlab chiqarishning muntazam yoki umumiy rahbarlari-direktor, uning o'rinbosarlari, bo'gin va bo'limlar boshlig'i, shuningdek, xizmat ko'rsatish bo'limlari rahbarlari - kadrlar bo'limi boshlig'i, reja-iqtisod bo'limi boshlig'i va boshqalar mas'uldirlar.

Bu vazifalar tashkiliy boshqaruv orqali hal etiladi. Buning obyektlari: boshqaruv tizimlarini hamda struktura (tuzilma)larini shakllantirish, boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini va boshqa qoida yoki tartiblarni (reglament) ishlab chiqishdan iboratdir. Sug'urta boshqaruvining funktsiyalarini rivojlantirish ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik usullar yordamida amalga oshiriladi.

---

[209] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005, 3 P.

Qarorlarning qabul qilinishi odatdagi va istiqbolli boshqarishning muhim obyektlari bo'lishi mumkin. Istiqbolli boshqarishda uzoq muddatli maqsadlarni qo'yish sug'urta kompaniyasining kelajakda hayotiyligini ta'minlash yo'llarini belgilab beradi.

- Joriy boshqaruvda muayyan vazifalarni hal qilish;
- Ularni insoniy, moddiy, axborot va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish;
- Erishilgan natijalar bo'yicha tahlil va nazoratni ta'minlash;
- Zarur hollarda tegishli tuzatishlar kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Sug'urta faoliyatining joriy va istiqbolli boshqaruv obyektlari:

1. Sug'urta tashkilotini boshqarish;

- sug'urta tashkilotining asosiy parametrlarini tanlash;
- sug'urta xizmatlarining turlari va hajmini aniqlash;
- sug'urta sohasida zarur insoniy va moddiy resurslarni rivojlantirish;
- marketing faoliyatini asosiy yo'nalishlari;
- o'zaro tuzilmaviy bo'linmalari;
- hududiy tarmoq boshqaruvi tizimi;
- yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish;
- nazorat qilish vazifalari;
- boshqa masalalar;

2. Marketing boshqaruv - reklama, sug'urta bozorida axborot va sug'urta xizmatlari, sug'urta tashkilotiga bo'lgan yangi turdagi takliflarni yig'ish joriy va istiqbolli bozor sharoitlari, raqobatchilar haqida ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha vazifalar bilan shug'ullanadi;

3. Kadrlar boshqaruvi - kadrlarni tanlash, joylashtirish, ularni malakasini oshirib borish, haq to'lash va imtiyozlar belgilash, xodimlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iborat;

4. Xatarlarni boshqarish - xatarlarni aniqlash, xatarlarni baholash, xatarlarni boshqarish joyini tanlash, xatarlarning boshqarishni amalga oshirish, natijalarni baholash va xatarlarni boshqarishda uning huquqiy jihatlarini belgilash;

5. Sug'urta kompaniyasi boshqaruvining barqarorligi:

- sug'urta kompaniyasining byudjet va moliya rejasini tuzish;
- uning moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash;
- sug'urta zaxiralarini joylashtirish va uni oshirish tizimini ishlab chiqish;
- mablaglarni investitsiyalashtirish;
- hozirgi va kelgusidagi moliyaviy holatni baholash;
- Normativ stavkalarning Davlat sug'urta nazorati tavsiyalariga muvofiqligi;
- vakolatli tarif siyosati va qayta sug'urtalash tizimiga o'tkazish.

6. Sug'urta xavfsizligini boshqarish:

- sug'urta tashkilotining tijorat siri bilan bogliq ko'rsatkichlarini qayta ishlash;
- xodimlarga iqtisodiy va texnik uquvlar o'tkazish va ularni sinovdan o'tkazish;
- ma'lumotlarni muhofaza qilish va ulardan noqonuniy foydalanishdan himoya qilishda kompaniya xodimlari va ofis xavfsizlik tizimi mas'uliyatini oshirish[210].

[210] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005, 7 P.

Ushbu maqsadga erishish, ya'ni odamlarning birgalikdagi faoliyati, natijasida amalga oshiriladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish (muvofiqlashtirish vazifasi bir rahbar, shuningdek har qanday xodim sifatida bu maqsadni bajarishda foiz muayyan natijalariga erishmoqda. Bu vazifani bajarishda mehnat turtki (asoslash xususiyati) yordam beradi.

25.3. Sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlash menejmenti

Bugungi amaliyotda xodimlarni boshqarish muammosiga ikki xil yondoshuv mavjud:

- ✓ inson resurslarini boshqarish;
- ✓ xodimlarni boshqarish.

"Inson resurlarini boshqarish" tushunchasi boshqarishning strategik jihatlarini, shuningdek ijtimoiy rivojlanish masalalarini o'z ichiga oladi va ularga ustuvorlik beriladi. "Xodimlarni boshqarish" tushunchasi esa ko'proq kadrlar bilan tezkor ishlashni anglatadi.

Shuningdek sug'urta kompaniyasi yerlarida moliyaviy yomon ahvol katta miqdorda qiymatning ko'tarilishi, golib kelishi haqida dalil mavjud, qiymatning o'sishi inqiroziy jarayonlar: qonuniy qiymatlar va ehtimol menejmentning haqiqiy iqdisodiy baho yaratishdagi e'tiborining og'ishini qo'llab-quvvatlaydi[211].

Agar birinchi yondoshuv davlat miqyosida bandlik va uni muvofiqlashtirish vazifalaridan kelib chiqsa, ikkinchi yondoshuv bevosita sug'urta kompaniyasi darajasidagi mehnat munosabatlari va ularni muvofiqlashtirishdan kelib chiqadi. Bu holatni bizni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarda izohlash mumkin.

Xodimlarni boshqarish deganda sug'urta kompaniyasida band bo'lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish bo'yicha o'zaro bog'langan tashkiliy - iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar tizimi tushuniladi.

Funksional boshqaruv deganda bevosita kadrlar masalasini yechish bilan bog'liq masalalar, ya'ni kadrlarni tanlash, ishdan bo'shatish, malakasini oshirish, ish xaqi va hokazolar tushuniladi.

Tashkiliy boshqaruv tushunchasi kadrlar ishi uchun bevosita javob beruvchi barcha shaxs va boshqarmalar, ya'ni rahbarlar, kadrlar bo'limi, kasaba uyushmalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta kompaniyasida band bo'lgan barcha xodimlar ikki toifadan iborat:

- xizmat ko'rsatuvchilar;
- boshqaruvchilar (rahbarlar, mutaxassis-menejerlar).

Xodimlarni, ya'ni inson omilini boshqarish quyidagi jihatlarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Sug'urta kompaniyalarini boshqarish tizimida mehnat resurslarini boshqarish juda ham murakkabdir. Chunki, xizmatlar ko'rsatish va boshqarish masalalarining markazida odamlar - ishchilar, mutaxassislar va rahbarlar turadi. Sug'urta

[211] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005, 4 P.

kompaniyasi oldida turgan maqsadga erishish va rejalarning bajarilishi faqat shular ishtirokida bo'ladi.

Inson omilini hisobga olmaslik, insonga e'tiborsizlik oxir-oqibatda, sug'urta faoliyati samaradorligini pasayishiga olib keladi. Mehnat resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi ishchilar va xodimlarning qobiliyatlarini, yanada jadal va unumli mehnat qilishga safarbar etishdir.

25.2-jadval

Inson resurslarini boshqarish[212]

BOSHQARISH TURLARI	
FAOLIYAT SOHASIGA QARAB	
Inson resurslarini boshqarish (strategik yondoshuv)	Xodimlar bilan ishlash
NIMAGA USTUVORLIK BERILISHIGA QARAB	
mutloq yangi vazifalarni yechishga; - global; - uzoq muddatli vazifalarni yechishga qarab	ma'muriy aralashuvga zaruriyat tug'iladigan kundalik muammolarni echishga
QANDAY FUNKSIYALARNI BAJARISHIGA QARAB	
inson resurslarini rejalashtirish shaxsiy qobiliyat va malakani oshirish; kompaniyaning xodimlarga sarflanadigan xarajat doirasida xodimlar uchun xarajatlarni rejalashtirish	kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish mehnat motivatsiyasini boshqarish texnika xavfsizligini nazorat qilish nizolarni hal qilish
BAJARILISHI TO'G'RISIDA KIMGA MA'LUMOT BERILADI	
Kompaniya bosh menejeriga	Bosh menejer o'rinbosari

Mavjud xodimlarni baholashda, eng avvalo ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga, xususan mehnat bozoridagi vaziyatga e'tiborni qaratmoq lozim. Zero, mehnat bozoridagi holat, ko'p jihatdan quyidagilarga bog'liq:

- ❖ aholi soni, yoshi, jinsi salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ❖ tarmoq va hududiy bandlikdagi o'zgarishlarga;
- ❖ qo'shimcha ishchi kuchini yollash darajasiga;
- ❖ ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'atiga;
- ❖ mehnat resurslarini boshqarish usuliga va hokazo.

Ichki omillarni baholash uchun quyidagi ma'lumotlar tahlilini bajarmoq zarur;

- ❖ doimiy band bo'lgan xodimlar soni, familiyasi, yashash joyi, ishga qabul qilingan vaqti va hokazo;
- ❖ xodimlarning tarkibi (malakasi, mutaxassisligi, yosh tarkibi, milliy tarkibi, nogironlar salmog'i, ishchi va xizmatchilar va hokazo).
- ❖ xodimlar qo'nimsizligi;
- ❖ ish kunining davomliligi (to'liq yoki qisman bandligi, necha va qaysi smenada

[212] Nazariy ma'lumotlar asosida mustaqil ishlab chiqildi.

ishlashi, ta'tilning davomliligi va hokazo);

❖ ish xaqi, uning tarkibi, qo'shimcha ish xaqi, ta'rif yoki ta'rifdan yuqori to'lov va hokazo.

Qayd qilingan tashqi va ichki omillarning ta'sirida mehnat bozoridagi vaziyat o'zgarib turadi va shunga mos ravishda mehnat resurslariga bo'lgan talab va taklif ko'lami aniqlanadi.

Mehnat resurslariga bo'lgan talabni rejalashtirish xodimlarni rejalashtirish jarayonining boshlang'ich bosqichi bo'lib, uni tuzishda quyidagi ma'lumotlar asos vazifasini bajaradi[213]:

- mavjud va rejalashtirilayotgan ish joylari;
- tashkiliy va texnik tadbirlar rejasi;
- shtatlar ro'yxati va bo'sh lavozimlarni to'ldirish rejasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv vazifalarining murakkablashuvi sug'urta kompaniyasi rahbarlariga xodimlarni to'g'ri tanlash, ularni joi-joyiga qo'yish va tayyorlash ishlariga juda katta ma'suliyat bilan yondoshishni talab qiladi. Bu yerda so'z, eng avvalo ish tavsifi va ishga qabul qilinadigan xodimga nisbatan talablarni belgilash to'g'risida borayapti.

Xodimlarni boshqarish samaradorligi, ko'p jihatdan xodimlarni tanlashga bog'liq. Xodimlarni tanlash - bu ikki tomonli jarayondir. Bir tomondan, sug'urta kompaniyasi da'vogarga ish berish yoki bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan da'vogar, agar uni ishga taklif qilishsa, u bu taklifni qabul qilishi kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi. Bu jarayonda rahbar quyidagi holatlarga o'z e'tiborini qaratmog'i lozim:

✓ da'vogarlarni, ayniqsa, o'zi to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni taqdim etganlarni bilib olish uchun iloji bo'lgan barcha tadbirlarni ko'rmoq kerak.

✓ ochiq berilgan tavsiyalarga ortiqcha ishonmasdan, o'zingiz shaxsan, surishtirib bilganingiz durust. Ancha ochiq fikr olish uchun nomzodning sobiq ish beruvchisiga qo'ng'iroq qilish yoki u bilan shaxsan uchrashish lozim. O'sha rahbarning mazkur xodimdan ajralayotganiga qanday qarayotganini e'tibor bilan kuzatish kerak.

✓ har bir da'vogarning oilaviy xotirjamligini surishtirib ko'rish lozim.

✓ birinchi navbatda shuni ta'minlamoq kerakki, ishga qabul qilinayotgan odam muzokaralar chog'ida o'zining bo'lajak ishining barcha xususiyatlarini tasavvur qilsin, kelgusida xafa bo'lib yurmasin, bunda biron bir salbiy hollarga yo'liqmasin.

✓ da'vogarga berilgan baholar va tavsiyalarni tahlil qilganda, shuningdek muzokaralar olib borilganda:

a) uning topshirilayotgan ishni bajara olishiga;
b) zarur bo'lib qolganda kasbiy ma'lumotini oshira bilishiga;
d) texnikaga nisbatan e'tiboriga;
e) fe'l-atvoriga;
f) xalolligi, mulohazaliligi, turmushda hozir-nozirligi va to'g'riligiga:
g) tashabbuskorligi, hayotga talabchanligiga;
h) ishga hamda ish kunining davomiyligiga;
j) og'ir sharoitda o'zini tutishiga;

---

[213] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005, 8 P.

i) salomatligi, tashki ko'rinishi, vaqtni taqsimlay bilishiga;

l) hunari va bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlariga diqqat qilish lozim.

m) har bir da'vogarga, u bilan turmushi to'g'risida suhbatlashish va barcha zarur savollarga javob olish uchun yetarli darajada vaqt ajratish kerak[214].

Bulardan tashqari unutmaslik kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishni bajarishga yaroqligina bo'lib qolmay, balki sug'urta kompaniyasining boshqa xodimlari bilan chiqishib ketadigan ham bo'lish kerak.

Agar u so'nggi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mustaxassisning ham bahridan o'tish kerak. Ishga qabul qilingan odam o'z hamkasblariga qo'shilib ketganda o'zini o'z uyidagidek his etishi muhimdir. U o'z burchlarini qanday eplayotganini diqqat bilan kuzatishi, bunda unga yordam berishi kerak, uning yangi joyda o'zini tutib olish uchun vaqt kerakligini anglamoq lozim.

Sug'urta kompaniyalarida xodimlarni tanlash va ularga adolatli baho berish boshqarishning eng murakkab qirralaridan hisoblanadi. Shu sababli, ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yishda zarur mas'uliyat bilan yondoshilmasa, ish yakunlari kutilgan samarani bermasligi aniq.

Xodimlarni tanlash uslubi qanchalik puxta ishlab chiqilgan bo'lsa, shunchalik sug'urtalovchining mehnat faoliyatida kutilmagan samaradorlikka tez erishish amaliyotda isbot etilgan.

Sug'urta kompaniyalarida xodimlarni tanlashda ularning ko'p qirrali xislatlarini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi maxsus usullar qo'llaniladi:

- ❖ anketa ma'lumotlarini tahlil qilish usuli;
- ❖ ruhiy test o'tkazish usuli;
- ❖ amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli;
- ❖ malakaviy test o'tkazish usuli;
- ❖ taqrizlarni tekshirish usuli;
- ❖ suhbat o'tkazish usuli;
- ❖ attestatsiyadan o'tkazish usuli;
- ❖ reyting usuli.

Baholash mezonlari va qaysi bir usullar samaraliroq yoki an'anaviy usul ekanligini tasvirlovchi ko'rsatkichlarni quyidagi 26.3-jadvalda keltiramiz.

Ko'rib turibmizki, xodimning intellektual qobiliyatini baxolashda ruhiy testlarni va amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli ko'proq samara berar ekan. Suhbat o'tkazish esa mazkur sifatni aniqlashda odatiy usul bo'lib hisoblanadi. Ammo bu usul 5, 6, 7, 8 va 9 sifatlarni aniqlashda samarali usullar katoriga kiradi[215].

Izoh: (++) - mazkur sifatni baxolash uchun samaraliroq usul.

(+) - keng va tez-tez qo'llaniladigan an'anaviy usul.

Bu usullar rahbar xodimlarning ham quyidagi xislatlarini aniqlash imkonini beradi:

Ijtimoiy-fuqarolik yetukligi, ya'ni:

- ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatidan yuqori qo'ya olishi;
- tanqidni qabul qila olishi va o'z-o'zini tanqidga moyillik darajasi;

---

[214] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress, 2005, 13 P.

[215] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress, 2005, 6 P.

- jamoa ishlariga faol qatnashishi;
- siyosiy, ma'naviy yetukligi.

25.3-jadval

Xodimlarni tanlash va ularga baxo berish usullari

№	Baholanuvchi sifatlar	Anketa ma'lumotlarini tahlili	Ruhiy test-larni o'tkazi-sh	Amaliy ish o'yin-lari	Malakaviy testlar o'tkazish	Taqriz-larni tekshirish	Suxbat o'tkazish
1	Idrokliligi (intellekt)		++	++			+
2	Bilimdonligi (umumiy, iqtisodiy va	+			++		+
3	Kasbiy bilimi va tajribasi	+		+	++	+	+
4	Tashkilotchili qobiliyati va tajribasi	+		++	+	+	+
5	Kirishimligi va tajribasi		+	++			++
6	Shaxsiy xislatlari va qobiliyati		++	+		+	++
7	Sog'lig'i va ish qobiliyati	+		+		+	+
8	Tashqi ko'rinishi va o'zini tuta bilishi			+			++
9	Motivatsiya						++

Mehnatga bo'lgan munosabati, ya'ni:

- berilgan topshiriqqa bo'lgan mas'ullikni sezish darajasi;
- kishilarga bo'lgan e'tiborliligi;
- o'zining va boshqalarning intizomiga bo'lgan talabi;
- ishidagi estetik (badiiy) daraja.

Bilim darajasi va ish tajribasi, ya'ni:

- egallayotgan lavozimiga ixtisosligining mos tushishi;
- sug'urta faoliyatini boshqarishning obyektiv asoslarini bilishi;
- boshqarishning ilg'or usullarini bilishi;
- mazkur kompaniyadagi ish staji;
- omilkorligi;
- yangilikni xis qila olish tuyg'usi va h.k.

Tashkilotchilik qobiliyati, ya'ni:

- boshqaruv tizimini tashkil qila olishi;
- o'z mehnatini tashkil qila bilishi;

- ishchan majlislarni olib bora olishi;
- o‘z imkoniyatlarini va mehnatini baholay olishi;
- boshqalar imkoniyati va mehnatini baxolay olishi.

Odamlar bilan ishlay olishi, ya’ni:

- bo‘ysinuvchilar bilan til topa bilishi;
- turli korxonalar rahbarlari bilan ishlay olishi;
- jamoani jipslashtira olish qobiliyati;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘ya olish qobiliyati;

Hujjatlar va axborotlar bilan ishlay olishi, ya’ni:

- maqsadni aniq va qisqa qo‘ya bilishi;
- farmoyish, buyruq va amaliy xatlarni tuza bilishi;
- hujjatlarni o‘qiy olish qobiliyati;
- topshiriqlarni aniq bera olishi;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalarini bilishi va ularni o‘z ishida qo‘llay olishi;

Ma’naviy-axloqiy xislatlari, ya’ni:

- halol, vijdonli, to‘g‘ri;
- insofli, muruvvatli;
- xushmuomala, og‘ir, vazmin;
- chidamli, sabotli;
- kamtar, sodda;
- sog‘lom.

Har bir aniq holatda qayd qilingan xislatlar ekspertlar tomonidan (mazkur ishga qabul qilinayotgan xodimga mosini) tanlab olinadi va aksincha unga mos keluvchi boshqa xislatlar bu tarkibda bo‘lmasa, u holda qo‘shimcha maxsus fazilatlar baholash mezonlariga kiritiladi.

Baholashning belgilab qo‘yilgan tartibi attestatsiya deb ataladi. U mutaxassislarning lavozimga layoqatini, malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlashga va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berishga, shuningdek, ishdan chetlatishga xizmat qiladi[216].

Attestatsiya jarayonida xodimlarning malakasiga, uning bajarayotgan ishiga yoki lavozimiga loyiqliliga xolisona baho berilishi kerak. Attestatsiya qilinayotgan xodimning ishiga baho berishda, uning reja topshiriqlarini bajarishdagi shaxsiy xizmati, mehnat intizomi, o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi kabilar inobatga olinishi zarur. Ana shular asosida attestatsiya qiluvchilar ochiq ovoz berish yo‘li bilan quyidagi baholarni berishi mumkin:

- bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- xodim ko‘rsatilgan nuqsonlarni keyingi o‘tkaziladigan attestatsiyagacha yo‘qotsa, bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- egallab turgan lavozimiga loyiq emas.

Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlashni boshqarishda ana shu xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muhim o‘rin tutadi.

---

[216] David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procress 2005, 3 P.

26-MAVZU.
SUG‘URTA BOZORINING TARKIBI, HOLATI VA MUAMMOLARI

26.1. Sug‘urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari

Har bir bozorda sotuvchi va xaridor bo‘ladi hamda ular o‘rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug‘urta bozorida ham sotuvchi (sug‘urtalovchi) va xaridor (potensial sug‘urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu yerda potensial sug‘urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potensial sug‘urtalanuvchini to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtananuvchi, deb atasak katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz.

Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug‘urta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug‘urta “mahsulotini” sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug‘urtalovchilar bilan tegishli sug‘urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potensial sug‘urtalanuvchilar deb ataladi.

Endi, sug‘urtalovchilar haqida gapiradigan bo‘lsak, sug‘urtalovchi - bu mamlakat xududida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug‘urtalash o‘zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir.

Ko‘rinib turibdiki, sug‘urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo‘lishi va sug‘urtaga bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalar bilan shug‘ullanmasligi zarur.



26.1-rasm. **Sug‘urta bozori haqida umumiy tushunchalar**[217]

Sug‘urtalovchilar bozorga o‘zlarini ishlab chiqargan o‘ziga xos mahsuloti - sug‘urta xizmatini taklif etadilar. Ushbu xizmatlar yuzlab, minglab sug‘urta

[217] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

kompaniyalari tomonidan sotilishi mumkin. O‘z-o‘zidan, bu holat sug‘urta bozorida potensial mijozlarni jalb etish uchun sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi va “mahsulot”ning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



Eng asosiysi, potensial sug‘urtalanuvchi har tomonlama o‘zining talabini qondiradigan “mahsulot”ga ega bo‘ladi. Bayon etilganlar quruq gap emas, balki bugungi kunda iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar bozorida ro‘y berayotgan oddiy haqiqatdir.



26.2-rasm. **Sug‘urta bozorni shakillanishini shartlari**[218]

Sug‘urta bozorining mohiyatini chuqurroq anglab olish uchun kundalik hayotimizdan oddiy bir misol keltirsak maqsadga muvofiqdir.

O‘zimiz yoki bolalarimizga kiyim-kechak sotib olish uchun buyum bozoriga boramiz. Aytaylik, birorta kiyim, aniqrog‘i, ko‘ylak sotib olmoqchimiz. Bozorda

[218] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

ko'ylakning har xili mavjud, baholari ham, narxi ham turlicha. Biz, albatta, sifati yaxshisini va bahosi arzonini sotib olamiz. Sug'urta bozorida ham aynan shu jarayon yuz beradi.

Sug'urta kompaniyasi o'z mahsulotini bozorda sotar ekan, zimmasiga katta mas'uliyat olganligini unutmasligi kerak. Chunki, sug'urtalovchi ozgina sug'urta mukofoti evaziga yirik miqdordagi riskni qabul qilib oladi va sug'urta hodisasi ro'y berganda zimmasidagi sug'urta qoplamasini to'lashi shart.

Shu o'rinda, biz sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishni istagan yoki muayyan sug'urta xizmatiga ehtiyoj sezgan shaxslarga sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin sug'urta kompaniyasining moliyaviy axvoli, balansi bilan albatta tanishib chiqishlarini maslahat qilamiz.



26.3-rasm. **Sug'urta munosobatlarini amalga oshirish jarayonlari**[219]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi, sug'urta xizmatining ham bahosi talab va taklif asosida paydo bo'ladi hamda bu baho o'zining pastki va yuqori chegaralariga ega. Sug'urta tushumlarining miqdori sug'urta to'lovlari va sug'urta tashkilotlari xarajatlari miqdoriga teng bo'lishi sugurta bahosining pastki chegarasini bildiradi.

Bunday sharoitda sug'urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda ololmaydi. Ko'p hollarda sug'urta bozoridagi keskin raqobat, sug'urta tashkilotlarining potensial mijozlarni jalb etish maqsadida tarif stavkalarini kamaytirishga majbur etadi. Chet mamlakatlarda, sug'urtalovchilar sug'urta faoliyatidan zarar ko'rganda, bu zarar investitsiyadan keladigan daromad hisobidan qoplanadi.

Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga yetarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada

[219] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

– Aholini etnik tarkibi, milliy an'analari va mentaliteti.
– Sug'urtachini moddiy, ishchi va boshqa resurslari.

Sug'urta bozorni ichki muhiti

– Sug'urta mahsulotlari.
– Sug'urta xizmatlarni sotish tizimi.
– Sug'urta xizmatlarga talabni shakllantirish tizimi.
– Sug'urtachini infratuzilmasi.
– Sug'urtachini moliyaviy resurslari.
– Sug'urtachini moddiy, ishchi va boshqa resurslari.
–



26.5-rasm. **Sug'urta bozorini institutsional alomati bo'yicha tasniflash**[221]

Sug'urta bozorlari hududiy bo'linish bilan bir qatorda sug'urta turlariga qarab ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sug'urta bozori ikkiga bo'linadi:

1) Hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari bozori;
2) Umumiy sug'urta xizmatlari bozori.



[221] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o‘tishi bilan bozorda sug‘urta xizmati ko‘rsatish turlarining ko‘payishi bilan, o‘z-o‘zidan tarif stavkalari kamayadi.

26.2. Sug‘urta bozorining turlari va ularga umumiy tavsifnoma

Sug‘urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug‘urta bozorlariga bo‘linadi.



26.4-rasm. **Sug‘urta bozorini hududiy alomatlari bo‘yicha guruhlanishi.**[220]

Milliy sug‘urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug‘urta muassasalarini va ularni faoliyatini o‘z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug‘urta bozori Amerika Qo‘shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig‘iladigan sug‘urta tushumlarining 43 foizdan ortig‘i AQSH hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bu yerda hayotni sug‘urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan ba’zi birlari dunyo sug‘urta bozorida ham oldingi o‘rinlardadir.

Mintaqaviy sug‘urta bozori deganda savdo, iqtisodiy va boshqa jihatlardan o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan bir nechta mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Yevropa Ittifoqining sug‘urta bozori yirik mintaqaviy bozordir.

Xalqaro sug‘urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug‘urta faoliyatini olib boruvchi alohida mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Jumladan, hozirgi vaqtda Yaponiya sug‘urta bozorining xalqaro darajada muhim o‘rni bor va keyingi o‘n yillikda Yaponiya sug‘urtachilari dunyo bozorida yetakchilik qilib kelishmoqda.

Sug‘urta bozorining sirtqi muhiti

- Sug‘urta sohasidagi davlat siyosati.
- Iqtisodiyotning umumiy holati.
- Jahon sug‘urta bozorini kon’yunkturasi.
- Aholini ko‘pligi va yashash darajasi.

[220] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi.

26.6-rasm. **Mustaqil O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining bosqichlari**[222]

O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishi davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo‘lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug‘urta an’analari va madaniyati hisobga olingan xolda isloh etilgan va milliy sug‘urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin-astalik bilan tubdan o‘zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o‘tgan[223].

Respublikamiz sug‘urta bozori isloh etilishini birinchi bosqichi (1991-1996 yillar) sug‘urta bozoriga xususiy sug‘urta kompaniyalarni kirib kelishi va Davlat sug‘urtasi (Gosstrax)ni transformatsiyasi jarayoni boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, shakllanayotgan tadbirkorlikning huquqiy bazasi bilan qo‘llab-quvvatlangan.

1991 yilning o‘zida milliy iqtisodiyotimizni isloh qilinishini qonuniy rasmiylashtirilishiga asos solgan “O‘zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik xaqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida”gi kabi o‘sha davrning progressiv qonunlari qabul qilingan. “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi” (kodeksning 52-bobi sug‘urta masalalariga bag‘ishlangan) amalga kiritilguniga qadar (mart 1997 yil) “O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida”gi qonun xo‘jalik yurituvchilar tomonidan Respublikamizning o‘ziga xos iqtisodiy konstitutsiyasi sifatida qaralgan.

1992 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qarori bilan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979 yil 9 oktyabrdagi “O‘zbekiston SSR davlat tekshirish organlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 700-sonli qarori bekor qilinib, “O‘zbekiston davlat sug‘urta organlari to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan.

Ushbu Nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi (“O‘zdavsug‘urta”) va unga bo‘ysunuvchi davlat sug‘urta boshqarmalari va nazorat muassasalari O‘zbekiston Respublikasi davlat sug‘urta organlari hisoblangan. “O‘zdavsug‘urta” O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida bo‘lib, to‘la xo‘jalik mustaqilligi sharoitida ish olib borgan va davlat sug‘urta organlarining yagona tizimini tashkil etgan[224].

Bu davrda nodavlat sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritgan bo‘lsalarda, sug‘urta sohasida Davlat sug‘urta organlari ustun kelgan. Chunki, “O‘zdavsug‘urta” butun Respublika bo‘yicha tarqalgan keng tarmoqga va barqaror davlat strukturasi imijiga ega bo‘lgan.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 23 dekabrdagi qarorlari bilan amalga kiritilgan, fuqarolarga qarashli mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi va qishloq xo‘jaligi korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi kabi va boshqa sug‘urtaga oid qonun hujjatlari “O‘zdavsug‘urta”ga majburiy sug‘urtani amalga oshirishga ustunlik bergan.

---

[222] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi..

[223] Умаров С.А. “Становление и развитие рынка страховых услуг в Узбекистане»,//Страховое дело, 2007 йил январь. 1-сон. 32-35 бетлар.

224 "O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami" T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 1992, 12-son, 40-modda.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, erkin raqobatni talab qilishi va O‘zbekiston Respublikasida sekin astalik bilan Davlat sug‘urta tashkiloti o‘rnida yangi sug‘urta tashkilotlarini tuzish zaruriyati tug‘ilganligi sababli, 1993 yil 6 mayda tijorat sug‘urtasi amalga oshirilishiga, sug‘urta faoliyati davlat nazoratiga va milliy sug‘urta bozorida chet el sug‘urtalovchilarning faoliyat yuritishlariga huquqiy asos solgan hamda “O‘zdavsug‘urta”ning yakka hokimligini bartaraf etilishiga manba bo‘lib hizmat qilgan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun amalga kiritildi.

Lekin, 1997 yilga qadar barcha nodavlat sug‘urta kompaniyalari xissasiga umumiy sug‘urta mukofotlari tushumining bir foizidan ham kam bo‘lgan ulush to‘g‘ri kelgan[225].

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonuni amalga kiritilganidan so‘ng, 1994 yil aprelda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalarning sug‘urta himoyasini ta’minlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 206-sonli qaroriga asosan “O‘zbekinvest” milliy sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Shu yilning o‘zida MDX davlatlari ichida birinchi bo‘lib, ustav sarmoyasi 100 million AQSH dollari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasiga yo‘naltirilayotgan xususiy chet el investitsiyalarini siyosiy tavakkalchiliklardan sug‘urtaviy ta’minlaydigan “O‘zbekinvest Interneshnl” kompaniyasi tashkil etildi va London shahri (Buyuk Britaniya)da ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Bundan tashqari Respublikamiz hududida “Uz-AIG” va “Uzbeksug‘urta-AON-Lixu” qo‘shma sug‘urta kompaniyalari, “Umid”, “Yo‘lovchi” kabi xususiy kompaniyalar va boshqa 60taga yaqin davlat va xususiy sug‘urta kompaniyalari[226]faoliyat yuritgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 26 iyuldagi “Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug‘urta yo‘li bilan himoya qiluvchi agentlikni tashkil qilish to‘g‘risida»gi farmoni bilan tadbirkorlikni va kichik biznesni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik harakati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini hamda kreditorlarga qarz kapitali evaziga kafolatlar berilishini ko‘zda tutuvchi dasturlarni ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar vujudga keltirilishi maqsadida 10,0 million so‘m ustav jamg‘armasi bilan «Madad» sug‘urta agentligi tashkil etildi.

1993 yil 7 mayda qabul qilingan “Umumiy foydalanishdagi xavo, temir yo‘l, ichki suv va avtomobil transporti yo‘lovchilarining majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va xarbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi, 1994 yil 16 iyuldagi “Ko‘mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi to‘g‘risida”gi hamda 1994 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida transport vositalari va boshqa o‘ziyurar mashina hamda mexanizmlar egalari fuqarolik javobgarligining majburiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qarorlari ayrim sohalarda risklarni kamaytirishga, ushbu sug‘urta turlarini amalga oshiruvchi sug‘urta kompaniyalari

---

[225] Мирсодиқов М.А. “Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны”. O‘zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.) T.: “Moliya”, 2005.125 b.

[226] Чжен В.А ва boshqalar. Bozor qonuniyati asoslari. T.:“Toshpoligrafkombinat”, 1996. B. 385-386.

26.6-rasm. **Mustaqil O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining bosqichlari**[222]

O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishi davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo‘lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug‘urta an’analari va madaniyati hisobga olingan xolda isloh etilgan va milliy sug‘urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin-astalik bilan tubdan o‘zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o‘tgan[223].

Respublikamiz sug‘urta bozori isloh etilishini birinchi bosqichi (1991-1996 yillar) sug‘urta bozoriga xususiy sug‘urta kompaniyalarni kirib kelishi va Davlat sug‘urtasi (Gosstrax)ni transformatsiyasi jarayoni boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, shakllanayotgan tadbirkorlikning huquqiy bazasi bilan qo‘llab-quvvatlangan.

1991 yilning o‘zida milliy iqtisodiyotimizni isloh qilinishini qonuniy rasmiylashtirilishiga asos solgan “O‘zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik xaqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida”gi kabi o‘sha davrning progressiv qonunlari qabul qilingan. “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi” (kodeksning 52-bobi sug‘urta masalalariga bag‘ishlangan) amalga kiritilguniga qadar (mart 1997 yil) “O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida”gi qonun xo‘jalik yurituvchilar tomonidan Respublikamizning o‘ziga xos iqtisodiy konstitutsiyasi sifatida qaralgan.

1992 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qarori bilan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979 yil 9 oktyabrdagi “O‘zbekiston SSR davlat tekshirish organlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 700-sonli qarori bekor qilinib, “O‘zbekiston davlat sug‘urta organlari to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan.

Ushbu Nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi (“O‘zdavsug‘urta”) va unga bo‘ysunuvchi davlat sug‘urta boshqarmalari va nazorat muassasalari O‘zbekiston Respublikasi davlat sug‘urta organlari hisoblangan. “O‘zdavsug‘urta” O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida bo‘lib, to‘la xo‘jalik mustaqilligi sharoitida ish olib borgan va davlat sug‘urta organlarining yagona tizimini tashkil etgan[224].

Bu davrda nodavlat sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritgan bo‘lsalarda, sug‘urta sohasida Davlat sug‘urta organlari ustun kelgan. Chunki, “O‘zdavsug‘urta” butun Respublika bo‘yicha tarqalgan keng tarmoqga va barqaror davlat strukturasi imijiga ega bo‘lgan.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 23 dekabrdagi qarorlari bilan amalga kiritilgan, fuqarolarga qarashli mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi va qishloq xo‘jaligi korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi kabi va boshqa sug‘urtaga oid qonun hujjatlari “O‘zdavsug‘urta”ga majburiy sug‘urtani amalga oshirishga ustunlik bergan.

---

[222] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlandi..

[223] Умаров С.А. “Становление и развитие рынка страховых услуг в Узбекистане»,//Страховое дело, 2007 йил январь. 1-сон. 32-35 бетлар.

224 "O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami" T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 1992, 12-son, 40-modda.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, erkin raqobatni talab qilishi va O‘zbekiston Respublikasida sekin astalik bilan Davlat sug‘urta tashkiloti o‘rnida yangi sug‘urta tashkilotlarini tuzish zaruriyati tug‘ilganligi sababli, 1993 yil 6 mayda tijorat sug‘urtasi amalga oshirilishiga, sug‘urta faoliyati davlat nazoratiga va milliy sug‘urta bozorida chet el sug‘urtalovchilarning faoliyat yuritishlariga huquqiy asos solgan hamda “O‘zdavsug‘urta”ning yakka hokimligini bartaraf etilishiga manba bo‘lib hizmat qilgan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun amalga kiritildi.

Lekin, 1997 yilga qadar barcha nodavlat sug‘urta kompaniyalari xissasiga umumiy sug‘urta mukofotlari tushumining bir foizidan ham kam bo‘lgan ulush to‘g‘ri kelgan[225].

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonuni amalga kiritilganidan so‘ng, 1994 yil aprelda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalarning sug‘urta himoyasini ta’minlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 206-sonli qaroriga asosan “O‘zbekinvest” milliy sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Shu yilning o‘zida MDX davlatlari ichida birinchi bo‘lib, ustav sarmoyasi 100 million AQSH dollari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasiga yo‘naltirilayotgan xususiy chet el investitsiyalarini siyosiy tavakkalchiliklardan sug‘urtaviy ta’minlaydigan “O‘zbekinvest Interneshnl” kompaniyasi tashkil etildi va London shahri (Buyuk Britaniya)da ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Bundan tashqari Respublikamiz hududida “Uz-AIG” va “Uzbeksug‘urta-AON-Lixu” qo‘shma sug‘urta kompaniyalari, “Umid”, “Yo‘lovchi” kabi xususiy kompaniyalar va boshqa 60taga yaqin davlat va xususiy sug‘urta kompaniyalari[226]faoliyat yuritgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 26 iyuldagi “Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug‘urta yo‘li bilan himoya qiluvchi agentlikni tashkil qilish to‘g‘risida»gi farmoni bilan tadbirkorlikni va kichik biznesni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik harakati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini hamda kreditorlarga qarz kapitali evaziga kafolatlar berilishini ko‘zda tutuvchi dasturlarni ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar vujudga keltirilishi maqsadida 10,0 million so‘m ustav jamg‘armasi bilan «Madad» sug‘urta agentligi tashkil etildi.

1993 yil 7 mayda qabul qilingan “Umumiy foydalanishdagi xavo, temir yo‘l, ichki suv va avtomobil transporti yo‘lovchilarining majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va xarbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi, 1994 yil 16 iyuldagi “Ko‘mir, neft, gaz qazib olish va geologiya-razvedka ishlari tizimi xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi to‘g‘risida”gi hamda 1994 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida transport vositalari va boshqa o‘ziyurar mashina hamda mexanizmlar egalari fuqarolik javobgarligining majburiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qarorlari ayrim sohalarda risklarni kamaytirishga, ushbu sug‘urta turlarini amalga oshiruvchi sug‘urta kompaniyalari

---

[225] Мирсодиков М.А. “Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны”. O‘zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.) T.: “Moliya”, 2005.125 b.

[226] Чжен В.А ва boshqalar. Bozor qonuniyati asoslari. T.:“Toshpoligrafkombinat”, 1996. B. 385-386.

strukturasini rivojlanishiga xizmat qilib, sharoit yaratgan holda sug'urta sohasidagi shu davrning sug'urta sohasini rivojlanishi uchun sharoit yaratib bergan muhim qonun hujjatlari bo'ldi.

Ikkinchi bosqich (1997-2002 yy.)ni bugungi kunda peshqadam bo'lgan sug'urta bozorining asosiy ishtirokchilari shakllangan bosqich deb atasak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu bosqichda, Hukumatimiz rahnamoligida bozor iqtisodiyoti sharoitiga xos yirik sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasiga aylantirildi. Kompaniyaning ustav sarmoyasi 60 million AQSH dollariga tenglashtirildi va daromaddan olinadigan soliqdan hamda mulk solig'idan besh yil muddatga ozod qilinib, soliq solishdan ozod qilingan barcha mablag'lar kompaniyaning ustav sarmoyasini hamda uning sug'urta zaxiralari jamg'armasini ko'paytirishga yo'naltirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi PF-1713-sonli farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Davlat sug'urta Bosh Boshqarmasi negizida ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida 2 000,0 million so'm ustav jamg'armasi bilan "O'zagrosug'urta" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va shu bilan sug'urta soxasidagi davlat monopoliyasiga barham berildi[227].

"O'zagrosug'urta" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi ham daromad solig'i va mulk solig'i to'lashdan besh yil muddatga ozod qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 fevraldagi PF-1713-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 martdagi «O'zagrosug'urta» Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'grisida"gi qarori bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, korxonalar va qishloq joylarida yashovchi aholi mulkiy manfaatlarining sug'urta himoyasi kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 31 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari to'grisidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi va 1993 yil 23 dekabrdagi "Jamoa, davlat xo'jaliklari va boshqa davlat qishloq xo'jalik korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug'urtasi to'grisida"gi qarorlari bekor qilindi.

Ko'p o'tmay, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 14 martdagi 144-sonli qarori bilan "Kafolat" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va Respublika shaharlarida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish "Kafolat" Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi

[227] Мирсодиков М.А. "Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны". – O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.) T.: Moliya, 2005. 125 b.

faoliyatining ustuvor sohasi etib belgilandi. Shuningdek, mazkur sug‘urta kompaniyasi sug‘urtaning majburiy davlat turlarini o‘tkazishga vakil qilindi.[228]

Shu tariqa, bu davrda sug‘urta bozori bo‘lindi, ihtisoslashdi. “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi tashqi iqtisodiy faoliyat va chet el investitsiyalari sohasida, “O‘zagrosug‘urta” Davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalashda va qishloq joylarida transport egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasini amalga oshirishda, “Kafolat” Davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi shahar joylarida transport egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasini va boshqa majburiy davlat sug‘urtasi turlarini amalga oshirishda hamda shaharlarda joylashgan yuridik hamda jismoniy shaxslarni sug‘urtalashda, «Madad» sug‘urta agentligi esa tadbirkorlik va kichik biznesni sug‘urtalashda faoliyat ko‘rsatib, mashg‘ul bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (mart 1997 yil) amalga kiritilishi bilan sug‘urta bozorining asosiy va muhim bo‘lgan qonun hujjatlari shakllanishi o‘z nihoyasiga yetdi. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonuniga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, sug‘urtaning majburiy turlarini amalga oshirishdagi Davlat sug‘urta tashkilotlarining yakkahokimligini bartaraf etdi va bu holat nodavlat sug‘urta tashkilotlari rivojlanishining rag‘batlantiruvchi omili bo‘lib xizmat qildi.

Bu bosqichni O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini Davlat tomonidan nazorat qilishni shakllanishi bosqichi deb ham atash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 iyuldagi “Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Vazirlikning markaziy apparatida sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi[229].

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan Respublikada faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlari zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida qayta ro‘yxatdan o‘tish majburiyati yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarini qayta ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom”ga muvofiq qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan sug‘urta tashkilotlariga berilgan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma o‘ziga xos litsenziyani ifoda etgan[230].

Bu davrda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urta tashkilotlarining

---

[228] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-martdagi 144-sonli “Kafolat” Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori. -“Norma” huquqiy bazasi.

229 "Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан", Т.: Министерство Юстиции Республикаи Узбекистан. 1998 г., № 7, ст. 24

[230] “Временное положение о порядке перерегистрации страховых организаций, осуществляющих деятельность на территории Республики Узбекистан”, 1998-yil 14-avgustda 40-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. (Adliya vazirligining 2001-yil 14-iyuldagi 93-mx-sonli buyrug‘i bilan davlat reestridan chiqarilgan.) -“Norma” huquqiy bazasi.

aktivlariga doir majburiyatlarini me'yoriy nisbatlariga alohida talablar qo'yildi, sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan sug'urta tashkilotlari faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risida yo'riqnoma tasdiqlandi, davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etilayotgan qurilishlardagi qurilish tavakkalchiliklari majburiy sug'urtasi joriy etildi, sug'urta tashkilotlari mansabdor shaxslarini attestatsiyadan o'tkazishni, sug'urta agentlari faoliyatini [231], sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta rezervlarini joylashtirilishini hamda hayot sug'urtasidan tashqari sug'urta turlari bo'yicha sug'urta rezervlarini shakllantirishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston sug'urta bozori shakllanib, rivojlanishining uchinchi bosqichi 2002 yil boshida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan boshlanib bugungi kunda ham davom etmoqda.[232]

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni sug'urta munosabatlari ishtirokchilarining aniq huquq chegaralarini, sug'urta faoliyati ishtirokchilari tarkibini belgilab berdi. Sug'urta ikki sohaga, hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish) va umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urtaqilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari) sohalariga bo'lindi. Sug'urta sohalari esa sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta turlari (klasslari)ga bo'lindi.

Sug'urta xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, respublikada sug'urta bozorini taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug'urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi farmoniga muvofiq mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilindi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsad, ya'ni mazkur tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shahobchalarini tashkil etishga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirildi. Shuningdek, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-harajatlari daromad

---

[231] "Положение о страховых агентах, осуществляющих свою деятельность на территории Республики Узбекистан", 2000-yil 3-martda 28-son bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan. (Moliya vazirligining 2003-yil 28-yanvardagi 19-sonli buyrug'i bilan o'z kuchini yo'qotgan) -"Norma" huquqiy bazasi.

[232] Мирсодиков М.А. "Этапы реформирования страхового рынка республики как важнейшего элемента финансовой инфраструктуры страны". – O'zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.) T.: Moliya, 2005.125-126 b.

(foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanishi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori[233] O'zbekiston sug'urta bozorida keskin burilish yasadi. Ilk bor sug'urtalovchilarning eng kam miqdorlariga qat'iyy talablar belgilandi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom, sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlandi. Sug'urta faoliyati bobidagi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotdi, ayrimlariga sug'urta faoliyatini, jumladan majburiy sug'urta turlarini erkinlashtirish, sug'urta bozorida raqobatni shakllantirish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bu bosqichda bir qator sug'urta agentlari faoliyatini, sug'urtalovchilarning aktivlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi, sug'urtalovchining rahbariga va bosh buxgalteriga bo'lgan malaka talablari me'yorlari, sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi, sug'urtalovchilarning alohida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlari, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p xajmi va to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qayta ishlandi va yangilari qabul qilindi.

Davlat tomonidan sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishga sharoit yaratuvchi hujjatlardan biri bulib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"gi qarori bo'ldi. Mazkur qaror bilan sug'urta bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar 2006 yil1 apreldan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etildi.

Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek sug'urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[234] bilan 2007 - 2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

---

233 "Собрание законодательства Республики Узбекистан", Т.: Министерство Юстиции Республикаи Узбекистан. 2002 г., № 22, ст.180. "Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан", Т.: Министерство Юстиции Республикаи Узбекистан. 2002 г., № 11, ст. 72

234 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2007-yil 15-son, 158-modda.

Dasturda sug'urtalash, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va normativ-huquqiy bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini, import-eksport operatsiyalarini sug'urtalash, hayotni uzoq muddatga sug'urtalash, shu jumladan, sug'urtaning jamg'arma turlari sohasida sug'urta xizmatlari hajmini, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, respublika sug'urta bozorini xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalash, sug'urta sohasi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur qaror bilan sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va faoliyat ko'satayotgan sug'urta kompaniyalari (sug'urtalovchilar)ga ustav kapitali miqdorlariga bo'lgan talablar oshirildi.

Sug'urta bozori kon'yunkturasini o'rganish, uning yuqori darajada ochiq-oydinligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, sug'urta xizmatlari hajmlarini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, potensial xorijiy investorlarga mablag'larni O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasiga investitsiyalashda ko'maklashish, respublika aholisi o'rtasida sug'urtalash masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish, sug'urtalash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta bozori professional qatnashchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish masalalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lgan O'zbekiston sug'urta bozori professional qatnashchilari uyushmasi tashkil etildi.[235]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ- 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "Sug'urta agentlari to'g'risida"gi, "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida"gi nizomga hamda "Sug'urta faolyati to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom hamda sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2007-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturiga muvofiq 2008 yil 21 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

---

[235] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2007-yil 15-son, 158-modda.

Sug‘urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug‘urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug‘urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan muhim hujjat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi PQ-872-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.[236]

Mazkur qaror bilan sug‘urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlariga bo‘lgan talablar oshirildi, sug‘urtalovchilarga qimmatli qog‘ozlar bozorida tegishli litsenziyasiz investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqi berildi.

Prezidentimizning “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Davlat qo‘mitasining birgalikdagi qarori bilan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug‘urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

Sug‘urta faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 8 sentyabrdagi 202-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sug‘urta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga kirishiga rozilik berildi. Bu o‘z o‘rnida sug‘urta nazorati bobidagi xalqaro tajribalar Respublikamizga kirib kelishiga va sug‘urta bozori rivojlanishiga o‘ziga xos zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston sug‘urta bozori sug‘urta sohasidagi davlat siyosati tufayli rivojlanib, shakllangan va bugungi kunda sug‘urta faoliyatini tartibga solish bo‘yicha eng muhim va asosiy huquqiy baza yaratilgan. U sug‘urta faoliyatining turli jihatlarini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, shuningdek bir qator boshqa sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti va me’yoriy-huquqiy hujjatlardan iboratdir.

Bayon qilinganlarning hammasi sug‘urta sohasi, ya’ni O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishi, shu jumladan sug‘urtalash ishlari amaliyoti xususan sug‘urta anderraytingi rivojlanishi uchun asos bo‘lib, shart-sharoit yaratmoqda. Oxirgi yillar davomida aholining sug‘urtaga bo‘lgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sug‘urtalovchilarga bo‘lgan ishonchi ortmoqda.

---

[236] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2008. 20-21 (312-313)-son. 25-26-betlar.

27-MAVZU.
SUG'URTA MARKETINGI VA UNING INSTRUMENTLARI

27.1. Sug'urta marketingining iqtisodiy mohiyati

Marketing tovarlarni ishlab chiqarish, xaridorlarga kerakli vaqt, miqdor va sifatda, shuningdek, yuqori samara hamda foyda evaziga sotishni tashkil etish, boshqarish maqsadida vujudga keldi va xizmat qilmoqda. Iqtisodchi olimlarning hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, marketing xizmatlari uchun sarflanadigan har bir dollar o'z egasiga 10 dollar sof foyda keltirar ekan.

Marketing ingilizcha «market» — bozor so'zidan olingan bo'lib, o'zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab davrni bosib o'tdi.

Marketing elementlari hozirgi respublikamiz hududida qadim-qadimlardan ma'lum bo'lib, u ayniqsa, eramizdan oldingi II asrdan eramizning XVI asrigacha Buyuk Ipak yo'li nomi bilan mashhur karvon yo'li o'tgan mamlakatlarda keng qo'llanilgan. Bunda karvonsaroylar katta xizmat ko'rsatgan. Ularda har xil mamlakatlardan kelgan siyosatchi, tadbirkor, savdogar, vositachilar uchrashar va har xil iqtisodiy masalalarni, ishlab chiqariladigan tovarlarning assortimenti, sifat ko'rsatkichlari, o'lchov birligi, ularga bo'lgan talab va taklif, baholar, soliqlar, xizmatlar va hokazolar haqida axborotlar yig'ilar, tahlil qilinar, o'rtoqlashilar, kelishilar, shartnomalar tuzilar va amalga oshirilar edi.

Umuman, marketingning paydo bo'lish va shakllanishi tarixi ham uzoq o'tmishga ega bo'lib, bozorlarning paydo bo'lishidan boshlanadi. Tovar va xizmatlarga bo'lgan talabgorlarni, iste'molchilarni, ularning ehtiyojini, tovar va xizmat haqqi to'lay olish qobiliyatlarini aniqlash marketingning paydo bo'lishida asos bo'lib xizmat qilgan. Bular hozirgi kunda ham korxona ochishning ilmiy-texnikaviy asoslaridan, marketingning muhim vazifalaridan hisoblanadi va marketing vositalari, usul va uslubiyatlaridan foydalanib hisob-kitob qilinadi.

Keyinchalik korxonalar faoliyat doirasining kengayib borishi, ish hajmining o'sishi, iste'molchilarning ko'payishi korxonalar tarkibida maxsus ixtisoslashgan marketing bo'limlari, guruhlari va boshqarmalarni tashkil etishni taqozo etdi. Hozirgi kunda respublikamiz korxonalarining deyarli hammasida shunday maxsus marketing xizmati, guruh yoki bo'limlari tashkil etilgan.

Sug'urta marketingi sug'urta qiluvchi va sug'urtalanuvchining o'zaro manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga yo'naltirilgan munosabatlar tizimidir. Sug'urta marketingi deganda ko'pincha sug'urta qiluvchi tomonidan iste'molchining ehtiyojlarini imkon qadar to'la qondirish orqali foydani maksimallashtirish tushuniladi. Sug'urta marketingini bunday ifodalash bir muncha tor bo'lsada, bugungi kunda keng tarqalgan va asosiy ta'rif bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta marketingi umumiy marketing kabi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- bozorni va o'z sug'urta portfelini tadqiq etib borish;
- sug'urta mahsulotlari (xizmatlari)ga bo'lgan talabni ishlab chiqish;
- sug'urta mahsulotlarini bozorga olib chiqish.

Bozorni tadqiq qilish bu – ehtimoldagi mijozlar guruhlaridan sug'urta xizmatiga jalb etilgan taqdirda sug'urta qiluvchiga eng ko'p foyda keltirishi mumkin bo'lganlarini topish nuqtai nazaridan o'rganishdan iborat. Sug'urta bozorini o'rganish bu bozorni tabaqalashtirilishini, ya'ni maqsadga muvofiq tabaqalarni ajratib olinishini ko'zda tutadi va ehtimoldagi mijozlarning quyida keltirilgan xususiyatlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi.

- mijozlarning sug'urtaga ehtiyojlari;
- jug'rofiy va ijtimoiy-siyosiy taqsimlanishi;
- iste'molchilarning to'lov qobiliyati;
- sug'urta mahsulotidan foydalanishga rag'bat uyg'otish maqsadida mijozlarga reklama yoki boshqa vositalar orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari;
- mijozlarni kompaniyaga jalb etish qiymati;
- mijozlarning sug'urta ehtiyojlari va qiziqishlari evolyutsiyasining yo'nalishlari;
- sug'urta bozoridagi raqobatning va raqobatchilarning ehtimoldagi xatti-harakatlari;
- sug'urtalanuvchilarning turiga ko'ra sug'urta holati vujudga kelishi xatarliligi darajasini baholash;
- ehtimoldagi sug'urtalanuvchilarning turli toifasi uchun sug'urta holatining o'rtacha qiymatini baholash.

Sug'urta portfelini tadqiq etish bu – sug'urta holatlari vujudga kelishi ehtimollarini tahlil qilish va mijozlarning turli xususiyatlariga: jug'rofiy joylashuvi, kasb-kori, faoliyat turi, jinsi, yoshi, sug'urtalanayotgan mol-mulk yoki boshqa boyliklar ustidagi xatarning xususiyatiga bog'liq ravishda kompaniya uchun ana shu sug'urta holatlari qiymatini hisoblashdan iboratdir.

Sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabni ishlab chiqish bu – ana shu mahsulotning sug'urtalanuvchilar manfaatlarini eng ko'p darajada qanoatlantiradigan va iste'molchilik qiziqishlariga sug'urta mahsulotini tashkil etish jihatidan mos keladigan xususiyatlarini aniqlash jarayonidir.

Buning ichiga quyidagilar kiradi:

- sug'urtalash uchun qabul qilinayotgan manfaatlar (sug'urta obyektlari);
- sug'urta xatarlari (sug'urtaning qoplanishi);
- sug'urta mahsulotining narxi;
- sug'urtalovchi tomonidan zararni qoplashdan tashqari taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlar (yuridik xizmat, talofatga uchragan mol-mulkni ta'mirlash va h.k.)
- sug'urta shartnomasi amal qilgan muddatda mijozga ko'rsatiladigan xizmatning to'laligi va sifati.

Sug'urta mahsulotlarini bozorga olib chiqish (kommersializatsiyalash) quyidagilardan iborat:

• mavjud sug'urta mahsulotlari va ularning ijobiy xususiyatlari to'g'risida ehtimoldagi iste'molchilarni boxabar etish, ehtimoldagi sug'urtalanuvchini sug'urta qoplamasini sotib olish zarurligiga ishontirish (sug'urta mahsulotining maqsadli reklamasi);

• sug'urta mahsuloti sotilishini butun sug'urta kompaniyasi to'g'risidagi tasavvur va shon-shuhratini oshirish orqali rag'batlantirish (sug'urta qiluvchining imij reklamasi);

• eng samarali sotuvni ta'min etadigan sug'urta mahsulotini yetkazib berish tizimini yaratish;
• sug'urta qiluvchilar uchun imtyozlar, sug'urta mahsuloti sotuvchilari uchun mukofotlar tizimini joriy etish, sotuv o'tkazilayotgan joyda tanlovlar, lotereyalar, reklama o'tkazish orqali sug'urta mahsulotini o'tkazishni rag'batlantirish.

Sug'urta ishida marketing o'tkazishning pirovard maqsadini qisqacha qilib quyidagi ta'rif bilan ifodalash mumkin: «Shunday sug'urtalanuvchilarni topish zarurki, ular kompaniyaga o'zlarini jalb etish uchun va mavjud sug'urta ehtiyojlarini qondirish uchun qilingan sarf-xarajatdan ko'proq naf keltirsinlar. Bu mijozning ko'nglini topa bilish san'atdirki, undan bir vaqtning o'zida sug'urta kompaniyasi xo'jayinlarini ham qanoatlantira bilish shart».

Shu sababli, sug'urta sohasidagi marketingda mavjud va ehtimoldagi sug'urta bozorining (mijozlarning) tahliliga suyanilmas ekan, samaraga erishish qiyin, ya'ni sug'urta marketingi asosan mijozlarning va bozorning daromadliligini oldindan tahlil qilishga, ularni jalb eta bilish va saqlab qolish qobiliyatiga bog'liq.

27.2. Sug'urta marketingiining maqsad va vazifalari

Sug'urta marketingi sug'urta tashkilotlarini sug'urta bozorida ishlash uslubi, sug'urta bozori metodologiyasi bo'lib, potensial sug'urtalanuvchilar va ularning talab istaklarini o'rganish, ularga mos sug'urta mahsulotlar yaratish, narx belgilash, sug'urta mahsulotilarnii yetkazib berish, taqdim etish, sotish, xizmat ko'rsatishni uyushtirish usullari, vositalari, tartib-qoidalari majmui hisoblanadi. Bularning hammasi birinchi asosiy maqsadga talab bilan taklifni o'zaro muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan to'rtta sug'urta marketingining muqobil maqsadlarga ajratiladi.

1. Iste'mol darajasini oshirish;
2. Potensial sug'urtalanuvchilarni qondirilishini maksimallashtirish;
3. Iste'mol tanlovini maksimallashtirish;
4. Sug'urta bozorida xizmatlar sifatini oshirish.

Iste'mol darajasini oshirish sug'urta tashkilotlari foydasini o'sishga olib keladi, xizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

Potensial sug'urtalanuvchilarni qondirilganligini maksimallashtirish iste'mol kutayotgan sug'urta mahsuloti (xizmat) xossalariga to'liq mos kelishiga erishishni ko'zlaydi.

Iste'mol tanlovini maksimallashtirish potensial sug'urtalanuvchilarga shunday sug'urta mahsuloti (xizmat)larni turli xillarini ko'rsatib, ularning xodimlariga to'liq mos keluvchi sug'urta bozorida sug'urta mahsulotilarni qidirib topish mumkin bo'lgan sug'urta mahsulotilarni mujassamlashtiradi.

Sug'urta marketingining asosiy tamoyillari:

1. Iste'molchiga yo'naltirilganlik.
2. Kelgusiga yo'naltirilganlik. Sug'urta tashkilotlari sug'urta marketingi faoliyatini qisqa muddatli natijalariga emas, balki uzoq muddatli natijalariga mo'ljalni olgan bo'lishi kerak.

3. Oxirgi amaliy natijalarga erishishga yo‘naltirilganlik.

Sug‘urta marketingi faoliyati natijasi o‘lchamli bo‘lishi kerak (sug‘urta bozori ulushi, sotish hajmi, foydaning o‘sishi).

Sug‘urta marketingi tamoyillari sug‘urta marketingii asosini va uning mohiyatini ochib beruvchi holat, talabdir. Sug‘urta marketingini mohiyati – sug‘urta mahsulotini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish albatta iste’molchiga, talab ishlab chiqarish imkoniyatlarini doimo sug‘urta bozori talabiga mo‘ljallashdan iborat.

Sug‘urta marketingi mohiyatidan quyidagi asosiy tamoyillar kelib chiqadi:

- potensial sug‘urtalanuvchilarga nima kerak bo‘lsa o‘shani ishlab chiqarish kerak;
- sug‘urta bozoriga sug‘urta mahsulotlar va xizmatlar taklifi bilan emas, balki potensial sug‘urtalanuvchilar muammolarini yechish vositalari bilan ishlash;
- sug‘urta mahsulotini yaratishni ehtiyoj va talabni tadqiq qilgandan so‘ng tashkil etish kerak;
- sug‘urta marketingi konsepsiyasi vositalarini qo‘llash asosida sug‘urta marketingi dasturini shakllantirishga olib keluvchi qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun kompleks yondoshish va maqsadli dastur uslubini ishlatish;
- sug‘urta mahsulotini iste’molchiga siljitishni barcha bo‘g‘inlarini sug‘urta marketingi bilan qamrab olish maqsadida bir vaqtni o‘zida maqsadli yo‘naltirilgan ta’sir asosida sug‘urta bozori talabiga mos keluvchi sug‘urta mahsuloti ishlab chiqarish strategiya va taktikasini qo‘llash;
- sug‘urta tashkiloti faoliyatini va sug‘urta marketingi xizmatini sug‘urta bozorida sug‘urta mahsuloti xulq-atvorini bashorat qilishi va strategik rejalashtirishni amalga oshirish asosida samarali kommunikatsiyani uzoq muddatli istiqboliga mo‘ljal olish;
- sug‘urta mahsulotini yashash davrini barcha bosqichlarini ishlab chiqarish va sug‘urta mahsuloti taqsimlashni ijtimoiy va iqtisodiy omillarini hisobga olish;
- sug‘urta tashkiloti rejasiga nisbatan sug‘urta bozorini birlamchi ekanligini eslash;
- talab va taklifni balanslashtirish maqsadida rejalarni tarmoqlararo koordinatsiyalash va o‘zaro ta’sirini ushlab turish;
- sug‘urta mahsuloti sug‘urta bozori yoki sug‘urta tashkiloti imidji (obro‘yi) va raqobatli afzallikni qidirish va shakllantirish jarayonida aniq holatda agressivlikka, hujumkorlikka, faollikka intilish, umumiy holda sug‘urta marketingining asosiy tamoyillari – bu sug‘urta bozorini bilish, unga moslashish va sug‘urta bozoriga ta’sir o‘tkazishdan iborat.[237]

Sug‘urta marketingining mohiyati va maqsadlaridan quyidagicha asosiy tamoyillari kelib chiqadi:

- potensial sug‘urtalanuvchilarga yo‘naltirilgan tamoyil;
- istiqbolga yo‘naltirilgan tamoyil, ya’ni subyekt faoliyati istiqbolga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur;
- pirovard ko‘rsatkichga erishishga yo‘naltirilgan tamoyil, ya’ni sug‘urta bozori hissasini, foydani oshishi va hokazolar.

---

[237] Seth Kravitz, Lev Barinskiy, Matt Wilson “Mastering Insurance Marketing” UK, 2010. 7-8 pg.

Mumkin bo‘lgan maksimal yuqori iste’molga erishish. Ko‘pchilik rahbarlar sug‘urta marketingining maqsadi - ishlab chiqarishning maksimal o‘sishi va sug‘urta tashkilotining boyishida asosiy omil yuqori iste’molga erishishni rag‘batlantirishda deb biladilar. Bu fikrni boshqacha ifodalasak, odamlar qancha ko‘p sotib olsa va qancha ko‘p iste’mol qilishsa, shuncha baxtli bo‘ladilar degan ma’noni anglatadi. Lekin, ba’zi bir kishilar moddiy boyliklar massasining ortishi katta baxtga erishishdan dalolatdir degan fikrga shubha bilan qaraydilar. Demak, sug‘urta marketingining maqsadi faqat mumkin bo‘lgan maksimal iste’molga erishishdangina iborat emas ekan.

Potensial sug‘urtalanuvchilarning talabining maksimal qondirilishiga erishish. Bu nuqtai nazarga muvofiq sug‘urta marketingi tizimining asosiy maqsadi mumkin bo‘lgan maksimal yuqori iste’molga erishish emas, balki potensial sug‘urtalanuvchilarning talabini maksimal qondirishdan iboratdir.

Bu degani sug‘urta mahsuloti massasi iste’moli ko‘p bo‘lsada, u biron-bir ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin. Ularning ahamiyatliligi, sug‘urta mahsuloti massasining ko‘pligi bilan emas, balki bu sug‘urta mahsuloti massalarining qanchalik darajada potensial sug‘urtalanuvchilarning talabini qondira olishi bilan o‘lchanadi. Afsuski, potensial sug‘urtalanuvchilarning talabining qondirilish darajasini o‘rganish to hozirgi kungacha muammoligicha qolmoqda.

Potensial sug‘urtalanuvchilarga keng assortimentdagi sug‘urta mahsulotlarni tanlashga imkoniyat yaratish. Ba’zi bir sug‘urta bozori mutaxassislari sug‘urta marketingi tizimining asosiy maqsadi sug‘urta mahsulotlari xilma-xilligini maksimal ta’minlash va potensial sug‘urtalanuvchilarning keng assortimentdagi sug‘urta mahsulotlarni tanlashiga imkoniyat yaratishdan iboratdir deb hisoblaydilar. Tizimning maqsadi iste’molchining talabiga to‘liq mos keladigan sug‘urta mahsulotini topishiga yordam berishdan iborat bo‘lishi kerak.

Sug‘urta marketingining asosiy maqsadi, uning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining obyektiv sabablari, zarurati bilan belgilanadi. Yuqorida qayd qilinganidek, sug‘urta marketingi eng avvalo sug‘urta mahsulotlar to‘planib, sotilmay qolgan va iqtisodiyot inqirozi kuchaygan sharoitda, uni shu inqirozdan chiqarish quroli sifatida ixtiro qilingan, yaratilgan ekan.

Uning maqsadi nihoyatda keng va murakkab masalalarni hal qilishga qaratilgandir. U sug‘urta mahsulotlarini sug‘urtalanuvchilar ehtiyojiga moslashtirib, talab va taklifni muvozanatiga erishgan holda, uni tashkil etgan sug‘urta tashkilotlariga yuqori foyda keltirishdir. Bunga erishish uchun sug‘urta marketingi quyidagi muhim vazifalarni hal etmog‘i lozim:

- xaridorlar (istemolchilar) ehtiyojini o‘rganish va aniqlash;
- sug‘urta mahsulotilariga bo‘lgan ichki va tashqi talablarni o‘rganish;
- sug‘urta tashkilotining faoliyatini xaridorlar ehtiyojiga moslashtirish;
- avvalo talab va taklif to‘g‘risida olingan ma’lumotlar asosida sug‘urta bozorini o‘rganish;
- sug‘urta mahsulotlari reklamasini tashkil etish, xaridorlarni sug‘urta mahsulotlarni sotib olishga qiziqishini ortirish;
- sug‘urta mahsulotini yaratuvchi yoki uni sotuvchi sug‘urta tashkiloti tadqiqotlarini amalga oshirish uchun ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish;

o sug‘urta mahsulotini sug‘urta bozoriga chiqarishdagi barcha xizmatlar to‘g‘risida ma’lumotlar olish;

o to‘ldiruvchi sug‘urta mahsulotlar va o‘rnini bosuvchi sug‘urta mahsulotlar to‘g‘risida axborotlar yig‘ish;

o sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan talabni istiqbollash, ularni amalga oshirishni nazorat qilishdan iboratdir.

Sug‘urta marketingi axborotlarini tizimli tahlil qilish, talab va taklifning taxminiy hisobini ishlab chiqishga imkon beradi. Busiz esa sotishning maqbul darajasini belgilash mumkin emas. Bunday darajada odatda, minimum, maksimum oralig‘ida hisoblab chiqiladi. Sug‘urta marketingi maqsadiga erishishda reklama ham muhimdir. Reklamaning vazifasi - mavjud sug‘urta bozori segmentini mustahkamlash, yangi xaridorlarni jalb qilish, yangi sug‘urta bozorilar tashkil qilishdir.

Sug‘urta marketingii tizimida reklamaning asosiy xususiyati - uzluksiz ta’sir va doimiy yangilanishdir. SHu bilan birga xaridor psixologiyasi sug‘urta mahsuloti va sug‘urta tashkiloti markasiga bog‘lanib qolish xususiyati (imidj)ga ham egadir.[238]

Sotishni rag‘batlantirish - sug‘urta marketingining vazifalaridan biri bo‘lib, sug‘urta bozoriga chiqarilgan sug‘urta mahsulotini rejalashtirilgan sotish darajasini ta’minlashga imkon beradi. Bu foyda olish demakdir. Sotishni rag‘batlantirishning quyidagi faol shakllari mavjud - ko‘rgazma-savdo, yarmarkalar, maxsus savdo agentlari xizmatidan foydalanish va arzon baholar.

Sug‘urta marketingi tizimida sotish siyosati - bu sug‘urta mahsuloti davriy harakatini tashkil etish jarayonidir. U sug‘urta mahsuloti massasining sug‘urta tashkilotlaridan to iste’molchigacha bo‘lgan harakatining har bir bosqichida qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir qilishning aniq tahlilini talab qiladi. Bu holda sotish deganda ishlab chiqarish bilan savdo orasidagi barcha aloqalar tushuniladi.

Har tomonlama o‘ylab yuritilgan sug‘urta mahsuloti siyosati resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Sug‘urta mahsuloti siyosati har bir ishlab chiqarilgan mahsulotning aniq potensial sug‘urtalanuvchilar guruhiga mo‘ljallangan bo‘lishini ta’minlaydi. Ya’ni, har qanday sug‘urta mahsuloti aniq iste’mol manziliga ega bo‘lishi kerak.

Bizning ichki sug‘urta bozorimiz, unga chiqarilgan sug‘urta mahsuloti assortimentining, amalda mavjud bo‘lmagan «o‘rtacha» deb ataluvchi iste’molchiga mo‘ljallanganidan juda ham yutqazadi. Chunki xaridor qiziqishi va didiga qarab taqsimlangan sug‘urta mahsulotilarni tanlash imkonini bermaydi. Sug‘urta marketingi yondashuvida bunday vaziyatlar yuz berishidan mustasno.

Yuqorida sanab o‘tilgan sug‘urta marketingi harakatlarining barchasidan bir vaqtda foydalanish lozim. Sug‘urta marketingining sanab o‘tilgan maqsadlari va vazifalari sug‘urta bozori faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida to‘liq tushuncha bera olmaydi. Chunki sug‘urta bozori muammolarini to‘liq hal qilish uchun tayyor retseptning o‘zi bo‘lishi mumkin emas.

Sug‘urta marketingini qo‘llashdan oldin avvalambor sharoitni, eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini hisobga olish lozim. Chunki sug‘urta

---

[238] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993. 331 p.

marketingi - murakkab, harakat va sabr-toqat talab qiluvchi, shu bilan birga tez samara beruvchi ishdir. U bir tomondan aholining yetarli darajada yuqori bo'lgan ehtiyoji va talabiga, uning xarid qobiliyatiga, ikkinchi tarafdan sug'urta mahsuloti va xizmatlarni tanlashdagi erkinlikka javob berishi kerak.

Sug'urta bozorini harakatining katta radiusini ta'minlash uchun sug'urta mahsuloti assortimentini tez o'zgartirish, uni ommaviy ravishda o'zlashtirishga javob beradigan bo'lishi lozim. Bularning barchasi talab va taklifni muvozanatlashtirishga imkon beradi.



27.1-rasm. **Sug'urta marketingini vazifalari**[239]

Bundan tashqari, sug'urta marketingi faoliyat yuritish uchun, sug'urta tashkilotini boshqarish va rejalashtirish tizimidan, taqsimot, ichki sug'urta bozoridagi va tashqi savdodagi aloqalar, yuqori darajada jihozlangan sug'urta bozori kanallari orqali realizatsiya qilishdan iborat tashkiliy masalalarni hal qilish zarur.

Bugungi kunda barcha sug'urta mahsuloti sug'urta tashkilotlari, potensial sug'urtalanuvchilar va shu bilan birga boshqa soha xodimlari ham sug'urta marketingi nuqtai nazaridan fikrlay olishlari va undan samarali foydalanishlari lozim. Sug'urta marketingini vazifalari quyidagi rasmda berilgandir.

[239] Chizma mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Sug'urta marketingini bosh vazifasi sug'urta tashkilotining mavjud va potensial imkoniyatlarini baholash va amalga oshirish hamda sug'urta bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish maqsadida imkoniyatlarni aniqlashdan iborat.

Sug'urta marketingi yoki tadbirkorlik faoliyati aniq natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Sug'urta marketingini asosiy maqsadlari sug'urta tashkilotining asosiy maqsadlari bilan o'zaro aloqadordir.

27.1-jadval

Sug'urta tashkilotining asosiy maqsadi[240]

Maqsadlar	Ko'rsatkichlar
Sug'urta bozorini egallash	Sug'urta bozori ulushi, aylanma, sug'urta mahsulotini roli va ahamiyati, yangi sug'urta bozorilarini qamrab olish
Rentabellik	Foyda, aylanmaga nisbatan rentabellik, shaxs kapitalini rentAbelligi, umumiy kapitalni rentabelligi
Moliyaviy barqarorlik	Kreditga layoqatligi, likvidligi, o'z-o'zini moliyalashtirish darajasi, kapitalni tuzilishi
Ijtimoiy maqsadlar	Ish bilan qoniqish, daromad darajasi va ijtimoiy himoya, ijtimoiy integratsiya, shaxsiy rivojlanish
Sug'urta bozoridagi pozitsiya va prestij	Mustaqilligi, imidj, siyosiy sharoitga munosabati, jamiyatni tan olishi

Sug'urta tashkilotining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- sug'urta sug'urta bozorini egallash;
- rentabellik;
- moliyaviy barqarorlik;
- ishlab chiqarishni ijtimoiy omillarini ta'minlash;
- sug'urta bozoridagi mavjud prestijni tashkillashtirishni tadbiq etilishini mustahkamlash.

Sug'urta marketingi maqsadlari tahlili unga erishish bo'yicha asosiy vazifalarni shakllantirishga imkon beradi. Meffert 1986 yilda 3 ta o'zaro bog'liq sug'urta marketingini kompleks vazifalarini ajratib ko'rsatadi:

1. Talabni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan sug'urta bozori faoliyatiga kiruvchi vazifalar.

[240] Seth Kravitz, Lev Barinskiy, Matt Wilson "Mastering Insurance Marketing" UK, 2010. 7-8 pg.

2. Sug'urta tashkiloti yoki sug'urta sohasiga taalluqli vazifalar.

3. Tashqi muhit va jamiyat sug'urta tashkilotlari bilan bog'liq masalalar.

Sug'urta marketingi vazifalari natijasida sug'urta marketingi jarayonini barcha bosqichlariga mos keluvchi sug'urta marketingi funksiyalari shakllanadi va doimo tartibga solib boriladi.

Marketingning maxsus maqsadlari: — aholi turmush darajasi sifatini oshirish;

Holatiy tahlil.

• ahvol (firma qanday ahvolda?)

• prognoz (ishlarning mavjud holatida firmani nimalar kutayapti?)

• tashqi muhitning ta'siri (u qanday tazyiq o'tkazadi?)

Marketing sintezi.

• maqsadni olg'a surmoq (ahvolni o'zgartirish uchun nimalar qilish kerak?)

• maqsadni baholash (nega endi ayan shunday qilish kerak, nima uchun boshqacha emas?)

• strategik rejalash uchun bir qarorga kelish (hal etilishi asosiy pirovard maqsadga erishmoq uchun zarur bo'lgan vazifalarning bosqichlari qanday bo'lishi kerak?)

Strategik rejalashtirish.

• strategiyani ilgari surmoq (maqsadga erishish uchun qanday harakat qilmoq kerak?)

• strategiyani tanlash (qaysi strategiya yaxshi va nima uchun?)

• taktikani ishlab chiqish haqida qaror.

Taktik rejalashtirish.

• taktikani aniqlash (qanday harakat qilish kerak va nima uchun?)

• shoshilinch rejalar ishlab chiqish (kim, nima, qachon, qanday ish bajarishi kerak?)

• shoshilinch rejani amalga oshirish.

Marketing nazorati.

• ma'lumotlar yig'ish (faoliyatning natijalari qanday?)

• ma'lumotlarni baholash (asosiy pirovard maqsadga qanchalik yaqinlashildi?)

• holatiy tahlil o'tkazish haqida qaror

— bozorda firma mavqeini oshib borishini barcha tadbirlarda ko'zda tutish;

— firma haqida iste'molchilar orasida yaxshi fikrlar saqlanib qolishi bo'yicha izlanishlar olib borish;

— firmalarga ko'proq yangi bozorlarni egallash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishdir.

Marketing faoliyatining barcha turlarini yoritishda, uning umumiy talablari va vazifalarini saqlab qolgan holda, bozorda sotilayotgan tovarlar iste'mol qiymatlaridagi keskin farqlanishi hisobga olinadi.

Shuning uchun ham marketing faoliyati tarkibida eng avvalo: iste'mol tovarlari marketingi, xizmatlar marketingi va ishlab chiqarish vositalari marketingi alohida o'rganiladi.

Iste'mol tovarlari marketingida ko'proq juda xilma xil talablari va didlari bo'lgan aholining bozordagi xatti harakatlariga e'tibor beriladi. Masalan, iste'molchilar turlari, reklama va sotishni tashkil etish markaziy o'rinda ko'riladi.

Xizmatlar marketingi faoliyatida ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi orasida to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish borligi hisobga olinadi. Ko'pchilik xizmatlar, masalan, turizm rivojlanishi bilan kompleks ravishda taklif qilinishini hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish vositalari marketingida avvalo ishlab chiqaruvchilar manfaati va talablari ko'zda tutiladi. Shu tufayli optimal me'yorlashtirilgan va o'ta qattiq kelishilishni talab etuvchi sharoitlar ko'zda tutiladi. Masalan, mashhur Yaponiya tizimi hisoblangan «Kanban» ishlab chiqarish vositalari bozorini shunday aniqlik bilan ishlashini yo'lga qo'yganki, natijada ular zaxiralarini saqlash va qayta ishlashga hojat qolmaydi.

Marketing faoliyatini o'rganishda, mikro va makro qismlarga ham bo'linadi.

Mikromarketing deganda firma (korxona) miqyosidagi bozor faoliyati tushuniladi.

Makromarketing — konsern, assotsiatsiya, vazirliklar darajasidagi bozor muammolarining yechimini topish demakdir.

Korxonalar tomonidan asosan «MIKS» marketing elementi, ularning yuqori tashkilotlari esa qo'shimcha investisiya (sarmoyalar) siyosati, baho tarkibini boshqarish, NIOKRni moliyaviy ta'minoti, davlat buyurtmalari, soliqlar va boshqalar bilan shug'ullanadi.

Marketing fan sifatida quyidagilarga bo'linadi:

- Konversion marketing-agar talab salbiy bo'lsa uni uyg'otadi.
- Rag'batlantiruvchi marketing-talabni oshiradi.
- Rivojlantiruvchi marketing-xaridorlik talabni real talabga aylantiradi.
- Remarketing- tushib borayotgan talabni qayta tiklaydi.
- Sinxromarketing-o'nab turgan talabni barqarorlashtiradi.
- Optimal marketing-talabni ma'lum bir darajaga keltiradi.
- Demarketing-talabni pasaytiradi.
- Qarshi turuvchi marketing – o'lchovsiz talabni tartibga keltiradi.
- Turbo-marketing-iste'mol talabini o'zgratirishda foydalanadi.
- Targeting-e'tibor aniq ist'emolchilarga qaratilagan, (target-maqsad).

27.3. Sug'urta samaradorligini oshirishda sug'urta marketingini ahamiyati

Hozirgi zamon iqtisodiyotida sug'urta marketingi korxonani boshqarish amaliyotlarini maksimal darajada soddalashtirish va uning bozorga, bozor talablariga moslashuvini oshirishga qaratilgan Bu o'zgarishlar sug'urta qiluvchining iste'molchilarning ehtiyojlarini e'tiborga olishiga ketadigan vaqtini qisqartirishga, narxlarni pasaytirishga, mahsulotning va iste'molchiga xizmat ko'rsatishning sifatini oshirishga yo'naltiriladi.

Ayni vaqtda, zamonaviy marketing manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan turli guruhlarning manfaatlarini uyg'unlashtirishdir. Kompaniya egalari o'zlari olayotgan foyda miqdorini oshirishga intiladilar, bunga esa sug'urta mahsuloti narxini oshirish orqali, ya'ni sug'urtalanuvchi hisobidan, shuningdek kompaniya faoliyati uchun xarajatlarni (xodimlarning ish haqi va ishni tashkil etish xarajatlarini) qisqartirish hisobiga erishi mumkin.

Mijozlar esa, aksincha, sug‘urta kompaniyalarining daromadliligini tushirish va xarajatlarni kamaytirish hisobiga narxlarning pasaytirilishini zarur deb hisoblaydilar.

Sug‘urta marketingining vazifasi sug‘urta qiluvchining daromadiga zarar yetmaydigan holda ana shu qarama-qarshilikni kamaytirishdan, sug‘urtalanuvchilarga zarur turdagi va sifatli xizmatlarni taqdim etishdan iborat. Biroq o‘z puli hisobiga imkon qadar ko‘proq xizmat ko‘rsatilishini istovchi sug‘urtalanuvchilarning talabchanligi kuchayib borayotgani sababli keyingi paytda bunga erishish tobora qiyin kechmoqda. [241] Shunday bo‘lsada, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, marketing bu – sug‘urta sohasida Pareto mezoni bo‘yicha resurslarni optimal taqsimlashga erishish vositasidir.

Bu mezonning mohiyati quyidagi formulada ifodalanadi: sug‘urta qiluvchi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etishning biron variantining ustuvorligi, uning barcha ko‘rsatkichlari jihatidan boshqa variantdagidan yomonroq emasligi va hech bo‘lmaganda bitta ko‘rsatkichi jihatidan yaxshiroq ekanligidadir. Optimal variant deb, undan boshqa yaxshirog‘i bo‘lmagan variantga aytiladi.

Pareto bo‘yicha optimallik tushunchasi «resurslarni isrof qilish – nojoz, chunki isrofga yo‘l qo‘yilmasa, shu hisobdan kimgadir yaxshilik qilish mumkin, degan g‘oyadan iborat. Parerto bo‘yicha resurlarning optimal taqsimlanganganligi shuki, bu holda hech kim biron tomonga ziyon yetkazmay turib ahvolni tuzata olmaydi.

Sug‘urta qiluvchi va sug‘urtalanuvchi munosabatlari tizimida bunday holat sug‘urta kompaniyasi samaradorligini oshirishning barcha imkoniyatlaridan foydalanib bo‘linganda vujudga keladi. Bu holda xizmat ko‘rsatishning to‘laligiga va sifatliligiga faqat sug‘urta qiluvchining daromadliligini kamaytirish evaziga erishish mumkin. Pareto bo‘yicha optimal vaziyat holatida sug‘urta qiluvchi – sug‘urtalanuvchi tizimida resurlarni zarur bo‘lmagan maqsadlarga isrof qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jamiyat kim uchun va qanday tarzda ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish masalasini hal etganidan keyin ham hech bo‘lmaganda bitta qatnashchining ahvolini boshqa hech kimga ziyon yetkazmagan holda yaxshilash imkoniyati bo‘lsa, demak resurslarni isrof qilish holati sodir etilayotgan ekan.

Shu sababli, sug‘urta qiluvchi va sug‘urtalanuvchi munosabatlari markentingini Pareto bo‘yicha optimal darajada shakllantirilganda tashkiliy jihatdan va narxlar jihatidan shunday nuqtalarni tanlashga erishiladiki, bunda har ikki tomon uchun ham maksimal samaraga erishuv ta’min etiladi.

Pareto bo‘yicha optimallik muayyan bir vaziyatda jamiyat resurslar isrof etilayaptimi yoki isrof etilmayotganligini namoyon etib beradi. Ammo bu ko‘rsatkich sug‘urta qiluvchi – sug‘urtalanuvchi tizimida resurslarni qay tarzda taqsimlash kerak degan masalani hal etib bermaydi, chunki u uch asosiy iqtisodiy masaladan faqat ikkitasini, ya’ni nima ishlab chiqarish va qanday ishlab chiqarish kerak degan savollarni qamrab oladi.

Eng qiyin savol – sug‘urta qiluvchi va sug‘urtalanuvchi munosabatlari tizimida mavjud bo‘lgan kim uchun ishlab chiqarish kerak va qiziqishlarni (moliyaviy resurslarni) qay tarzda taqsimlash lozim degan masalalarga javob chetda qolib ketadi.

---

[241] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993. 326 p.

Hatto vaziyat nihoyatda tengsiz bo‘lgan holatlarda ham, ya’ni ayrim toifadagi sug‘urta qiluvchilarning manfaatlari mahsulot iste’molchilarining yoki boshqa turdagi bozor subyektlarining manfaatlarini to‘lig‘icha poymol etadigan holatlarda ham, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash (Pareto bo‘yicha) mumkin.

Pareto bo‘yicha resurslarni optimal taqsimlash tushunchasini oddiy bir misol orqali anglab olish oson. Ikkitagina qatnashchisi – sug‘urta qiluvchi va sug‘urtalanuvchi mavjud bo‘lgan soddalashtirilgan tizimni ko‘rib chiqaylik. Iste’molchi uchun sug‘urtaning foydaliligi deganda muayyan miqdordagi sug‘urta mukofoti hisobiga sotib olinayotgan sug‘urta qoplamasining hajmi anglashiladi. Sug‘urta qiluvchi uchun sug‘urtaning foydaliligi – sug‘urta amaliyotlarining daromad keltirishidir.

Quyidagi jadvalda A – B hadi sug‘urta qiluvchining daromadliligi darajalari oralig‘ida, sug‘urtalovchi erishishi mumkin bo‘lgan foydalilikning maksimal darajasini va aksincha natijani ko‘rsatadi. A – B – V maydoni ichidagi har qanday nuqtadan (masalan G dan) had tomonga silji borar ekanmiz, marketing uslublarini qo‘llagan holda, hech bo‘lmaganda qatnashchilardan birining ahvolini ikkinchisiga ziyon yetkazmasdan yaxshilashimiz mumkin.



27.2-rasm. **Sug‘urtaning iste’molchi uchun foydaliligi**[242]

Masalan, bozorni tadqiq etish va sug‘urtalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash sug‘urta kompaniyalari agentlarining diqqatini bozorning ayrim bo‘laklariga qaratish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida sug‘urta qiluvchiga sug‘urta mahsulotining narxini qo‘shimcha ravishda oshirmay turib, samaradorlikka va daromadlilikka erishishga yo‘l ochadi. Natijada sug‘urta qiluvchi olayotgan foyda ko‘payadi, sug‘urta xizmatlari qiymati esa o‘zgarishsiz qolaveradi. Binobarin, had ichida joylashgan nuqtalar Pareto bo‘yicha optimal bo‘lib hisoblanmaydi.

Erishilishi mumkin bo‘lgan foydalilik hadi A – B salbiy og‘ishga ega, chunki, resurslardan birontasi ham sarflanmayotgan va sug‘urta kompaniyasi maksimal samaradorlik bilan faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, bir tomon ahvolining yaxshilanishi,

[242] Chizma mualliflar tomonidan tayyorlandi.

albatta, ikkinchi tomon foydaliligining kamayishiga va tabiiyki, uning ahvolining yomonlashuviga olib keladi.

Sug'urta qiluvchi faoliyati samaradorligini oshirishning barcha marketing imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'lingan chog'da u oladigan foydani ko'paytirishning yagona manbai iste'molchi tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotini o'stirishdan iborat bo'lib qoladi.

A – B hadidan yuqoriroqda joylashgan nuqtalarga sug'urta qiluvchilar va sug'urtalanuvchilar resurslarining cheklanganligi sababli yetishib bo'lmaydi, chunki ular o'rtasidagi munosabatlar tizim ichida o'z nihoyasiga ega: sug'urtalanuvchi sug'urta qoplamasini sotib olish uchun muayyan summadan ortig'ini sarflay olmaydi, kompaniya esa sug'urta amaliyotlarini o'z zarariga o'tkaza olmaydi.

A nuqtasida tizimning barcha resurslari sug'urta qiluvchi ixtiyoriga berilgan. Demak, sug'urta qiluvchi sug'urtalanuvchidan mukofot olar ekan, uning oldida hech qanday javobgarlikka ega bo'lmaydi, ya'ni sug'urta shartnomasiga ko'ra sug'urta summasi no'lga teng – sug'urta mukofotini to'lab beradiyu, sug'urta holati vujudga kelganda uning evaziga hech narsa olmaydi. Pareto mezoni tizim resurslarining samarali taqsimlanishini nazarda tutadi, ammo sug'urtaning foydaliligini sug'urta kompaniyasi va sug'urta mahsulotidan foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar doirasida taqsimlanishi masalasini o'rganmaydi.

Ko'rinib turibdiki, A – B ning oxirgi nuqtalari sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligini marketing jihatdan takomillashtirish masalasini hal qilish uchun yaramaydi. Sug'urta qiluvchilar bo'lmasa, sug'urta bozori ham mavjud bo'la olmaydi, kompaniyalar esa o'z faoliyatlari natijasiga ko'ra muayyan miqdordagi foyda olmas ekanlar, bozorni tark etadilar.

Foydalilikning minimal darajasi sifatida iqtisodiyotning moliyaviy tarmog'i bo'yicha kapital qo'yilmalarining o'rtacha rentabelligini olish mumkin. Sug'urta amaliyotlarining ahamiyati oshgan va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash uchun sug'urta ishini rivojlantirish yoki boshqa maqsadlarga erishish zarurati tug'ilgan paytda, sug'urtaning me'yoriy rent Abelligini oshirish mumkin bo'ladi, ya'ni bu ko'rsatkichni iqtisodiyotning moliyaviy tarmog'i bo'yicha kapital qo'yilmalarining o'rtacha rentabelligi ko'rastikichidan biroz yuqori koeffitsient bilan o'rnatiladi.

Bu koeffitsientning miqdori tegishli davrda sug'urtani rivojlantirish ahamiyatiga mos bo'ladi. Boshqa tomondan, agar sug'urta hizmatlarining narxi juda yuqori bo'lsa, bu xizmatlarga umuman hech kim xaridor bo'lmaydi. Ya'ni sug'urta amaliyotlarining iste'molchi uchun manfaatli ekanligi (muayyan sug'urta mukofoti to'lovlari evaziga olinadigan sug'urta qoplamasining miqdori) bozorda vujudga kelgan holat asosida o'rnatilgan V_{min} qiymatidan kichik bo'lishi mumkin emas. Shu sababli, marketingga oid optimal xulosalar maydoni A – B chizig'ining Z – e kesmasigacha qisqaradi.

G nuqtasidan boshlab Z – e chegarasiga qarab siljish Pareto bo'yicha optimal natijani izlash maydoni hisoblanadi. Butun I – Z – e hududi sug'urta amaliyotlarining me'yoriy rentabelligi darajasi Pr_{norm}dan yuqorida va sug'urta amaliyotlarining minimal foydaliligi V_{min}dan o'ngroqda joylashgan.

Shu sababli u sug'urta kompaniyasi faoliyatini marketing jihatidan takomillashtirish bo'yicha optimal natijani izlash maydoni bo'lib xizmat qilishi mumkin. D – e chizig'idan quyiroqdagi va J – Z chizig'idan chaproqdagi hudud

sug‘urta qiluvchilar uchun zarur bo‘lgan minimal daromadlilik darajasini va sug‘urta qoplamasi miqdorining zarur miqdorini ta’minlamaydi.

B – V kesmasi umuman foyda keltirish jihatidan no‘linchi darajaga teng, A – V chizig‘i esa sug‘urta qoplamasi mavjud emasligini bildiradi. Tabiiyki, foyda ko‘rmaslik sharoitida ko‘plab nodavlat mustaqil sug‘urta kompaniyalari uchun sug‘urtalash ishi o‘z jozibadorligini yo‘qotadi. Umuman olganda, sug‘urta rent A belligining Pr_{norm}dan past darajaga tushib ketishi sarmoyalar biznesning boshqa daromadliroq sohalariga o‘tib ketishiga va shu sababli sug‘urta bozorining qisqarishiga, sug‘urtalanuvchilar uchun daromadlilikning V_{min}dan pasayib ketishi esa sug‘urta shartnomalarini tuzishni rad etilishiga olib keladi.

I – Z – U maydoni ichidagi nuqtalar Pareto bo‘yicha optimal bo‘lib hisoblanmaydi, shu sababli sug‘urta faoliyatini marketing jihatdan takomillashtirishning optimal natijalarini izlash chog‘ida Z – e chegarasidan chiqib ketmaslik zarur.

Umuman aytganda, sug‘urtalanuvchi uchun ustivor foydalilikni hisobga oladigan bo‘lsak, optimal nuqta e nuqtasi bo‘lishi shart. Biroq, sug‘urta ishini rag‘batlantirish ehtiyoji tug‘ilgan paytlarda, sug‘urta rentabelligi darajasini oshiradigan va tegishli ravishda sug‘urta mahsulotining iste’molchilar uchun manfaatliligi darajasini pasaytiradigan qarorlar qabul qilinishi mumkin.

27.4. Sug‘urta marketingining instrumentlari

Sug‘urta qiluvchilarning bozorda qatnashuv shartlariga va ularning o‘zgarishiga javoban yuzaga kelgan marketingga oid dastlabki xatti-harakati reklamaga nisbatan katta e’tibor ajratishdan, sug‘urta ishlarini kengaytirishdan va sotuv uslublarini takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Bunda sug‘urta mahsulotlarining o‘zi amalda hech qanday o‘zgarishga uchramadi.

Sotuvni rivojlantirishga asosiy kuch ajratilar ekan, sug‘urta xizmatlari sifatini va turini albatta yaxshilash orqali mijozlarning qanoatlanish darajasini oshirish majburiy holatga aylanmadi. Vaholanki, sug‘urta marketingi uslublarining joriy etilishi xarajatlarning bir muncha ko‘payishiga olib keldi va bu xarajatlar ko‘pincha sotuv hajmining oshganligi hisobidan to‘liq qoplanmasdan qolardi.[243]

Faqat ana shu davrda sug‘urta ishi jadal rivojlantirilgani, sug‘urta amaliyotlari yuqori daromadli bo‘lgan bozorlarning paydo bo‘lishi (xususan avtomobil egalarining tez o‘sishi sababli avtotransport vositalari egalarining javobgarligi sug‘urtasining joriy etilishi sug‘urta qiluvchilarga bajarilayotgan amaliyotlar ijobiy balans bilan yakunlash imkonini berdi. Ana shu bosqichda sug‘urta ishida marketing o‘rni quyidagi rasmda berilgan.

Sug‘urtalashning dastlabki bosqichlarida marketing bozor talablarini batafsil hisobga olmay turib, ishlab chiqilgan tayyor sug‘urta mahsulotini har qanday yo‘l bilan sotilishini tezlashtirish uchun xizmat qilar edi. Tijorat imkoniyatlari reklama hisobiga, ijtimoiy aloqalarni ishga solish, sotuvni rivojlantirish va rag‘batlantirish orqali mahsulotlarni o‘tkazishni jadallashtirishga qaratilardi.

---

[243] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993. 328 p.

Bozorga avvalgidek, tayyor sug‘urta mahsulotini talabgorlarga taklif etiladigan bir maydon sifatida munosabatda bo‘linar edi.[244]



27.3-rasm. **Sug‘urta ishida marketingning o‘rni**[245]

Saksoninchi yillarga kelib sug‘urta marketingi bo‘yicha ta’lim ishlari quyidagi vositalar yordamida amalga oshirila boshladi:

- sug‘urtalanuvchilarning ehtiyojlarini va qiziqishlarini to‘liqroq hisobga olish, ularning evolyusiyasini o‘rganish;
- raqobatni hisobga olish;
- sug‘urta mahsulotlari narxini nazorat qilib borish;
- yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va ma’lumotlar bazasini shakllantirish, sug‘urta shartnomalariga ishlov berish va ularni tarifikatsiyalash;
- sug‘urta kompaniyalarini va agentlik tarmoqlarini boshqarishda yangi tashkiliy usullardan foydalanish;
- sug‘urta mahsulotlarini sotishda yangi usullarni joriy etish.

Bu davr avvalgi o‘n yillikda bozor faoliyatiga joriy etilgan marketing vazifalari va amaliyotlarining sug‘urta muhitiga moslashuv davri hisoblanadi. Marketing qimmatga tushayotgan (holbuki hozir ham arzon emas), u keltiradigan nafni aniq hisoblashning iloji yo‘q, sug‘urta bozorlarining taraqqiyoti sustlashib qolgan, ular o‘rtasidagi raqobat kuchayib ketgan edi, bundan tashqari iqtisodiy tanazzul eshik qoqib kelayotgandi.

80-yillar davomida sug‘urta qiluvchilar, ishlab chiqrishni tashkil etishda marketingning muhim ahamiyatini tushunib yetdilar va to‘liq ravishda mijozlarning talablariga tayanib, sug‘urta xizmati sifatini oshirish orqali foyda undirish uchun ish ko‘ra boshladilar. Bu bosqichda marketing sug‘urtaning daromadliligini ko‘tarishga

[244] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993. 330 p.
[245] Chizma mualliflar tomonidan tayyorlandi.

qaratilgan sug‘urta mahsulotlari va dasturlarining muvofiqlashtirilgan yig‘ma jildini tashkil eta boshladi.

Moliya sohasida marketing rivojlana boshlagan dastlabki davrdanoq u sug‘urta kompaniyasining unumli va samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun muhim omil ekanligi isbotlandi. Sug‘urta marketingi bu davrda foyda olish manbalarini qidirib topishga ko‘proq moslasha boshladi.

Marketing siyosatini qayta qurishda dastlabki nuqta bo‘lib quyidagi qoida xizmat qildi: har qanday sarmoya qo‘yilishi, shu jumladan marketing ham tegishli ravishda foyda keltirishi shart.

Sug‘urta marketingi tadqiqotlari tajribasiga «marketingni boshqarish» yoki «marketing menejmenti» tushunchalari kirib keldi. Tadbirkorlar marketing sug‘urta kompaniyasi faoliyatining barcha sohalarini boshqarish tizimi tarkibiga kiritilishi va tegishli ravishda ratsionalizatsiya qilinib firma ehtiyojlariga moslashtirilishi zarurligini tushunib yetdilar.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta marketingining bugungi ahvolini shakllantirib bergan mazkur o‘n yillikning eng muhim natijasi – uning ishlab chiqarish jarayonining barcha qismlariga: sug‘urta mahsulotini yaratishdan to uning iste’molchiga sotilishigacha bo‘lgan jarayon ichiga kirib borganligidadir.

Bozorni va sug‘urta yig‘ma jildini tadqiq etish, sug‘urta mahsulotini mijozlarning etiyojlari va qiziqishlari asosida hamda raqobatni hisobga olgan holda shakllantirish sug‘urta marketingining ajralmas bo‘laklariga aylandi. Marketingning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari vujudga keldi.



27.4-rasm. **Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta marketingining tutgan o‘rni.**[246]

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, marketing sug‘urta ishida qo‘shimcha unsur vazifasiga ega bo‘lib, ko‘pgina sug‘urta kompaniyalari uchun (hozirgi kunda ham) yordamchi vosita sifatida tizimning xatti-harakatlarini tartibga solib turadi. Ko‘pgina kompaniyalar o‘z faoliyatlarida hozirgi kunga qadar «eski» sug‘urta mahsulotlarini ishlatib, ularni o‘tkazishning ana’naviy tarmoqlaridan foydalanib kelmoqdalar. Ular

[246] Chizma mualliflar tomonidan tayyorlandi.

marketing talablari asosida qayta shakllantirilgan bo‘lsa hamki, tashkiliy tarkibi jihatidan avvalgi holida qolib ketmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta marketingining tutgan o‘rni quyidagi rasmda keltirilgan.

Sug‘urta marketingining kelajakdagi ravnaqi, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sug‘urta ishini shu tariqa qayta qurishdan iborat bo‘lishi kerakki, bunda ishlab chiqarish jarayoni tuzilishi va sug‘urta mahsulotining o‘zi marketing tadqiqotlari asosida aniqlanadi va bunda ularning iste’molchining ehtiyojlariga maksimal darajada moslanuvchanligi talabidan kelib chiqiladi. Sug‘urtada marketingning istiqboldagi o‘rni quyidagi rasmda keltirilgan.



27.5-rasm. **Sug‘urtada marketingning istiqboldagi o‘rni**[247]

Sug‘urta mahsuloti ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilarning o‘zaro munosabatlarining va manfaatlarni o‘zaro hisobga olishning tizimi sifatida marketingdan barcha turdagi sug‘urta qiluvchilar foydalanishlari mumkin. Biroq aksiyadorlar yoki begona shaxslar, yoxud sug‘urta qiluvchi tomonidan muayyan sifatli sug‘urta xizmati ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgan sug‘urtalanuvchilar bilan sug‘urta qiluvchilarning o‘zaro munosabatlari usuliga qarab, marketing turli shaklga ega bo‘lishi mumkin.

Ammo har qanday holda ham talab va taklif balansiga erishish uchun yo‘naltirilgan marketing kuch-g‘ayratlari tizimi, quyidagi o‘zgarmas bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- sug‘urtalanuvchilar va ehtimoldagi mijozlar to‘g‘risida axborot to‘plash (sug‘urta bozorini tadqiq etish);
- bozor to‘g‘risida umumiy tasavvur va bozorni o‘rganish (sug‘urta bozorini);
- bozor segmentlari bo‘yicha u yoki bu mahsulotga bo‘lgan to‘lovga layoqatli talabni baholash;
- raqobatdoshlarning sug‘urta mahsulotini va marketing strategiyasini tahlil etib borish;

[247] Chizma mualliflar tomonidan tayyorlandi.

- sug‘urta mahsulotini va uni bozorda o‘tkazish strategiyasini ishlab chiqish;
- sug‘urta mahsulotiga narxni shakllantirish siyosatini aniqlash (bazaviy narx, ustamalar va chegirmalar);
- mahsulotni o‘tkazish strategiyasini o‘tkazish tizimini (marketing aksiyasini, reklamani va shu kabilarni hisobga olgan holda) ishlab chiqish;
- sug‘urta marketingining samaradorligini tahlil etish.

Eng mukammal sug‘urta bozorida tashkilotlarning deyarli barcha mahsulotlari sug‘urta brokerlari orqali sotiladi. Ko‘pgina holatlarda milliy sug‘urta bozoridagi brokerlar o‘zlarining xizmatlarini yirik korporatsiyalarga taklif etadilar.

Sug‘urta mukofotlari million funt sterlingda o‘lchanadi, brokerlar esa sug‘urta shartnomalarini tuzish va rasmiylashtirishdan kengroq xizmatlar bilan ta’minlaydilar. Sug‘urta brokerlari ba’zi bir da’volar va qoplamalarni ko‘rib chiqish, obyektlarda syurveyerlik faoliyatini amalga oshirish va riskni boshqarishni va boshqalarni amalga oshira oladi.

Ba’zi bir sanoat tashkilotlari o‘zlarining shaxsiy brokerlik tashkilotlarini tashkil qiladilar.[248]

Marketing tamoyili – bu rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxona ishlab chiqarish-sotish faoliyatini boshqarish to‘g‘risidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar tasnifidir. Bu mohiyatiga ko‘ra, ishlab chiqarishni va mahsulotni sotishni tashkil etish asosiga aniq bilimlar, bozor talablarini hamda iste’molchilar ehtiyojini oldindan ko‘ra bilish va hisobga olish qo‘yiladi.

Marketing tamoyilida korxonalarning o‘z raqobat-bardoshligini oshirish uchun, o‘rta va kichik firmalar uchun esa tobora torayib borayotgan bozorda yashab qolish uchun kurashlaridagi iqtisodiy jihatdan o‘zini tutishlari to‘g‘risidagi G‘arb iqtisodchilarining nazariy, uslubiy va tashkiliy uslubiy qarashlari o‘z ifodasini topadi.

«Marketing, — deb ta’kidlanadi. «Marketing asoslari» nomli asarda, — bu raqobat sharoitlarida firmaning butun strategiya va taktikasini belgilab beruvchi zamonaviy biznes falsafasidir. U firmaning iste’molchiga yo’naltirilgan va mahsulotlarni sotishdan uzoq vaqtgacha eng ko‘p foyda kelishini ta’minlab boradigan sobitqadam ishlab chiqarish — sotish siyosatini o‘zida mujassamlantiradi»,

Marketingning juda ham mashhurligini tushunish kaliti xuddi ana shu ta’rifda. Uning keng tarqalishiga ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy tizimi va bozorida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar ko‘p jihatdan ko‘maklashdi.

Mutlaq ko‘pchilik Yevropa mamlakatlarida, AQSH va Yaponiyada ichki bozor o‘zining haddan tashqari to‘yganligi, sanoat tovarlarining tez yangilanishi va turi (xili) o‘zgarib turishi bilan ajralib turadi. Masalan, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, AQSH, Yaponiya, Germaniya bozorlariga har yili madaniy-maishiy va xo‘jalik tovarlarining 700 yangi xili, boshqacha aytganda har kuni taxminan ikkitadan yangi mahsulot kelib

[248] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993. 318 p.

marketing talablari asosida qayta shakllantirilgan bo‘lsa hamki, tashkiliy tarkibi jihatidan avvalgi holida qolib ketmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta marketingining tutgan o‘rni quyidagi rasmda keltirilgan.

Sug‘urta marketingining kelajakdagi ravnaqi, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sug‘urta ishini shu tariqa qayta qurishdan iborat bo‘lishi kerakki, bunda ishlab chiqarish jarayoni tuzilishi va sug‘urta mahsulotining o‘zi marketing tadqiqotlari asosida aniqlanadi va bunda ularning iste’molchining ehtiyojlariga maksimal darajada moslanuvchanligi talabidan kelib chiqiladi. Sug‘urtada marketingning istiqboldagi o‘rni quyidagi rasmda keltirilgan.



27.5-rasm. **Sug‘urtada marketingning istiqboldagi o‘rni**[247]

Sug‘urta mahsuloti ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilarning o‘zaro munosabatlarining va manfaatlarni o‘zaro hisobga olishning tizimi sifatida marketingdan barcha turdagi sug‘urta qiluvchilar foydalanishlari mumkin. Biroq aksiyadorlar yoki begona shaxslar, yoxud sug‘urta qiluvchi tomonidan muayyan sifatli sug‘urta xizmati ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgan sug‘urtalanuvchilar bilan sug‘urta qiluvchilarning o‘zaro munosabatlari usuliga qarab, marketing turli shaklga ega bo‘lishi mumkin.

Ammo har qanday holda ham talab va taklif balansiga erishish uchun yo‘naltirilgan marketing kuch-g‘ayratlari tizimi, quyidagi o‘zgarmas bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- sug‘urtalanuvchilar va ehtimoldagi mijozlar to‘g‘risida axborot to‘plash (sug‘urta bozorini tadqiq etish);
- bozor to‘g‘risida umumiy tasavvur va bozorni o‘rganish (sug‘urta bozorini);
- bozor segmentlari bo‘yicha u yoki bu mahsulotga bo‘lgan to‘lovga layoqatli talabni baholash;
- raqobatdoshlarning sug‘urta mahsulotini va marketing strategiyasini tahlil etib borish;

[247] Chizma mualliflar tomonidan tayyorlandi.

- sug‘urta mahsulotini va uni bozorda o‘tkazish strategiyasini ishlab chiqish;
- sug‘urta mahsulotiga narxni shakllantirish siyosatini aniqlash (bazaviy narx, ustamalar va chegirmalar);
- mahsulotni o‘tkazish strategiyasini o‘tkazish tizimini (marketing aksiyasini, reklamani va shu kabilarni hisobga olgan holda) ishlab chiqish;
- sug‘urta marketingining samaradorligini tahlil etish.

Eng mukammal sug‘urta bozorida tashkilotlarning deyarli barcha mahsulotlari sug‘urta brokerlari orqali sotiladi. Ko‘pgina holatlarda milliy sug‘urta bozoridagi brokerlar o‘zlarining xizmatlarini yirik korporatsiyalarga taklif etadilar.

Sug‘urta mukofotlari million funt sterlingda o‘lchanadi, brokerlar esa sug‘urta shartnomalarini tuzish va rasmiylashtirishdan kengroq xizmatlar bilan ta’minlaydilar. Sug‘urta brokerlari ba’zi bir da’volar va qoplamalarni ko‘rib chiqish, obyektlarda syurveyerlik faoliyatini amalga oshirish va riskni boshqarishni va boshqalarni amalga oshira oladi.

Ba’zi bir sanoat tashkilotlari o‘zlarining shaxsiy brokerlik tashkilotlarini tashkil qiladilar.[248]

Marketing tamoyili – bu rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxona ishlab chiqarish-sotish faoliyatini boshqarish to‘g‘risidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar tasnifidir. Bu mohiyatiga ko‘ra, ishlab chiqarishni va mahsulotni sotishni tashkil etish asosiga aniq bilimlar, bozor talablarini hamda iste’molchilar ehtiyojini oldindan ko‘ra bilish va hisobga olish qo‘yiladi.

Marketing tamoyilida korxonalarning o‘z raqobat-bardoshligini oshirish uchun, o‘rta va kichik firmalar uchun esa tobora torayib borayotgan bozorda yashab qolish uchun kurashlaridagi iqtisodiy jihatdan o‘zini tutishlari to‘g‘risidagi G‘arb iqtisodchilarining nazariy, uslubiy va tashkiliy uslubiy qarashlari o‘z ifodasini topadi.

«Marketing, — deb ta’kidlanadi. «Marketing asoslari» nomli asarda, — bu raqobat sharoitlarida firmaning butun strategiya va taktikasini belgilab beruvchi zamonaviy biznes falsafasidir. U firmaning iste’molchiga yo’naltirilgan va mahsulotlarni sotishdan uzoq vaqtgacha eng ko‘p foyda kelishini ta’minlab boradigan sobitqadam ishlab chiqarish — sotish siyosatini o‘zida mujassamlantiradi»,

Marketingning juda ham mashhurligini tushunish kaliti xuddi ana shu ta’rifda. Uning keng tarqalishiga ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy tizimi va bozorida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar ko‘p jihatdan ko‘maklashdi.

Mutlaq ko‘pchilik Yevropa mamlakatlarida, AQSH va Yaponiyada ichki bozor o‘zining haddan tashqari to‘yganligi, sanoat tovarlarining tez yangilanishi va turi (xili) o‘zgarib turishi bilan ajralib turadi. Masalan, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, AQSH, Yaponiya, Germaniya bozorlariga har yili madaniy-maishiy va xo‘jalik tovarlarining 700 yangi xili, boshqacha aytganda har kuni taxminan ikkitadan yangi mahsulot kelib

[248] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993. 318 p.

tushadi.

Ko‘plab tovarlar ham son jihatdan, ham sifat jihatidan xaridorlarning xarid qurbidan ancha ilgarilab ketadi. Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z-o‘zidan raqobatchi buyumlarning orasidan o‘z mahsulotlariga bo‘sh joy qidirish, bir iloj qilib oraga suqilib olish, «Tovar bo‘shligini» topish va raqiblar bilan keskin kurashda uni kengaytirishga urinish bilan eng jiddiy tarzda shug‘ullanishga majbur bo‘ladilar.

Bunday vaziyatda korxonani boshqarish tuzilmalari faoliyat ko‘rsatishining yetakchi masalasi bo‘lib korxonaning butun faoliyatini bozorda va iste’mol sohasida tinimsiz o‘zgarib turgan holatlarga eng yuqori darajada moslashtirish masalasi o‘rtaga chiqadi. Korxonalar endi o‘z faoliyatini sinchiklab, ilmiy asos dasturlab olishsiz hech narsa qilolmaydilar. Bu soni uncha ko‘p bo‘lmagan yirik korporatsiyalar bozorni o‘zaro taqsimlab olganlarida ayniqsa muhimdir.

Marketingning umumiy va maxsus maqsadlari mavjud. Marketing umumiy maqsadining mohiyati, birinchidan, iste’molchilarning tovar va xizmatlarga bo‘lgan talablarini to‘laroq qondirish.

Ikkinchidan, aholining turmush darajasini ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilishni yaxshilash uchun rag‘batlantirish uslublarini kengaytirish. Uchinchidan, iste’molchilarga keng assortimentli tovarlar va xizmatlarni taklif qilishdan iborat.

28-MAVZU.
SUG'URTA MAHSULOTINI YARATISH VA SOTISH INJINERINGI

28.1. Sug'urta mahsuloti tushunchasining iqtisodiy mohiyati.

Mahsulot xaridorlari magazinlarga borishi (yoki buyurtma qilingan mahsulotlarni uyida qabul qilishi) kerakligi kabi, sug'urta xaridorlari ham uning yordamida bir qator sug'urta «mahsulotlari» bilan tanishib chiqishi, shuningdek, ular turli kompaniyalarda kutilishi mumkin bo'lgan servis sifati haqida fikr yuritishi uchun xizmat qiladigan mexanizmga ehtiyoj sezadi.

Boshqa har qanday bozorda bo'lgani kabi, sug'urta bozorida ham quyidagilar ishtirok etadi:

- sotuvchilar: sug'urta kompaniyalari va (faqat Buyuk Britaniyada) Lloyd sindikatlari a'zolari;
- xaridorlar: oddiy fuqarolar, sanoat va savdo kompaniyalari;
- vositachilar: sug'urta brokerlari va agentlari.

Sug'urta polislarini xarid qilish va sotish butun ish haftasi davomida ro'y beradi, shartnomalar esa qatnashchilar uchun qulay bo'lgan joylarda tuziladi.[249]

Sug'urta mahsuloti – sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir. Sug'urtalovchining marketing strategiyasi quyidagi vositalardan foydalanish orqali ifoda topadi va amalga oshiriladi:

- sug'urta mahsuloti sohasidagi siyosat;
- narx-navo siyosati;
- sug'urta mahsulotining sotilishini tashkil etish usuli va taqsimot siyosati;
- sotuvni rag'batlantirish va o'tkazish tizimlari;
- iste'molchilar bilan muloqot (ijtimoiy munosabatlar va sug'urta xizmatlari reklamasi va boshqalar).

Bu strategiyani savodli va samarali amalga oshirish uchun, uning barcha vositalarini o'zaro aloqadorlikda hamda o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur. Biron vositaga talluqli u yoki bu qarorning qabul qilinishi, umumiy holatda sug'urtalovchi marketing siyosatining boshqa tarkibiy qismlaridagi qaysi imkoniyatlarni afzal ko'rishiga qarab belgilanadi. Shuningdek, sug'urta bozorlari va mahsulotlarining dinamikasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Sug'urta qiluvchining marketing strategiyasi quyidagi vositlaradan foydalanish orqali ifoda topadi va amalga oshiriladi:

- sug'urta mahsuloti sohasidagi siyosat;
- narx-navo siyosati;
- sug'urta mahsulotining sotilishini tashkil etish usuli va taqsimot siyosati;
- sotuvni rag'batlantirish va o'tkazish tizimlari;

[249] Insuranse: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insuranse Institut, Great Britain,1993. 317p.

▪iste'molchilar bilan muloqot (ijtimoiy munosabatlar va sug'urta xizmatlari reklamasi va h.k).

Bu strategiyani savodli va samarali amalga oshirish uchun, uning barcha vositalarini o'zaro aloqadorlikda hamda o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur. Biron vositaga taalluqli u yoki bu qarorning qabul qilinishi, umumiy holatda sug'urta qiluvchi marketing siyosatining boshqa tarkibiy qismlaridagi qaysi imkoniyatlarni afzal ko'rishiga qarab belgilanadi. Shuningdek sug'urta bozorlari va mahsulotlarining dinamikasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Sug'urta marketingi sohasidagi ko'pgina mutaxassislar aynan mahsulot marketing strategiyasining hal qiluvchi bo'g'inini tashkil etadi deb hisoblaydilar.

Marketing dastlab oziq-ovqat mahsulotlari, avtomobillar, uy-ro'zg'or texnikasi doirasida paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan edi. Keyinroq marketing g'oyasini xizmat ko'rsatish sohasi ham o'zlashtirib oldiki, bu sohaga sug'urtalash ham mansubdir. Erkin bozorda iste'mol qilish uchun taklif etilishi mumkin bo'lgan va muayyan ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan barcha narsalar mahsulot deb ataladi.

Mahsulot deganda, tovarlar, xizmatlar (transport, sayyohlik, sug'urta), tashkilot (masalan, rak kasalligiga qarshi kurash ligasi), odam (siyosiy arbob, artist) tushunilishi mumkin.

Sug'urta mahsuloti tushunchasi ustida batafsilroq to'xtaylik. Sug'urta mahsuloti – sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir.

Sug'urta mahsuloti tarkibidan uning asosiy xususiyatlarini – beriladigan kafolatlar, sug'urta summalari, franshizalar va narxni o'zida mujassam etgan «o'zak»ni shartli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin.

Kafolatlar muayyan hujjatlarda (sug'urta polisi, unga ilova qilingan izohlarda) va reklamada ifoda topadi. Xuddi shular orqali sug'urtalanuvchi sug'urta mahsulotining iste'mol xususiyatlari to'g'risida, o'z xarididan qanday manfaat topishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot oladi. Sug'urta polisining va unga qo'shimcha hujjatlarning dizayni hamda sug'urta qiluvchining nomlanishi va savdo markasi ham shu tarkibga kiradi.

Sug'urta mahsulotining yakuniy ifodasi kompaniya tomonidan mazkur sug'urta mahsuloti doirasida taqdim etiladigan asosiy va qo'shimcha xizmat turlarida ifoda topadi. Bu – sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq o'zi bajaradigan sug'urta amaliyotlari (asosiy xizmatlar) va sug'urta hodisasini hal etish (shikastlangan avtomobilni ta'mirlash, yuridik maslahat va yordam va h.k.) doirasidagi xizmatlardir.

Sug'urta xizmatining (boshqacha ibora bilan aytganda, sug'urta mahsulotining) sug'urtalanuvchi tomonidan xizmatni tanlab olinishiga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

▪texnik xususiyatlar – taqdim etiladigan kafolatlar (sug'urta qoplamasi, sug'urtalanayotgan xatarlar), kafolatlash darajasi (sug'urta summalari), franshizalar va hokazo;

▪iqtisodiy xususiyatlar – narxi, sug'urta summasining indekstiyalanishi, sug'urta qiluvchining foydasiga sheriklik, ssuda olish imkoniyatining mavjudligi, sug'urta qiluvchining ishonchliligi;

▪ijtimoiy qiymati (iste'mol bahosi) – taqdim etilayotgan xavfsizlik, daromadlilik, umidvorlilik, sotuv amalga oshirilgandan keyingi xizmatlar (sug'urta

hodisalarini tekshirish, qo'shimcha xizmatlar, sug'urtalanuvchiga nisbatan hurmat-e'tibor) sifatini baholash.

Sug'urta mahsulotining bu xususiyatlari iste'molchi tomonidan sug'urta kompaniyasini va uning muayyan ko'rinishdagi xizmatlarini tanlab olishi uchun mezon sifatida xizmat qiladi. Albatta, bu omillarning ahamiyati bir iste'mol segmentida boshqasinikidan farqlanadi.

Masalan, korxonalarning rahbarlari uchun sug'urta mahsulotining texnik va iqtisodiy xususiyatlar katta ahamiyat kasb etgani holda, ijtimoiy baholash unchalik muhim hisoblanmaydi. Jismoniy shaxslar uchun esa, savdo markasining obro'-e'tiborga egaligi va umidvorliligi ahamiyat kasb etadi.[250]

Mutaxassislarning tadqiqotlari ko'rsatishicha, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sug'urta qoplamasi bir bo'lgan sharoitda sug'urta qiluvchini tanlashning muhim omili sifatida quyidagilar yuz ko'rsatadi (ahamiyatliligi pasayib boradigan tartibda):

- sug'urta mahsulotining narxi (boshqa oimllardan oldinda turadi);
- sug'urta xizmatlarining sifati, ayniqsa sug'urta hodisalarini tekshirish;
- sug'urtalanuvchining sug'urta qiluvchiga bo'lgan ishonchi (savdo markasining obro'-e'tibori) va ularning o'rtasida o'zaro chambarchas aloqa mavjudligi.

Bozorda raqobatdoshlik kuchaygani sari sug'urta qiluvchilar o'z sug'urta mahsulotlariga yondashuvni quyidagi masalalarda o'zgartirib turishga majbur bo'ladilar:

- o'z sug'urta xizmatlari va raqobatchilarning sug'urta mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- sug'urta mahsulotining sifati;
- sug'urta mahsulotining moslanuvchanligi – shartnomalar va tariflar bo'yicha belgilangan shartlarning bozor talablarining hamda xususiy iste'molchilarning talablari o'zgarishiga qanchalik tez moslasha olishi.

Sug'urta mahsulotlari ularning amalda bo'lib turishiga sabachi bo'lgan asosiy, eng muhim talablar nuqtai nazaridan katta guruhlarga ajratiladi. Umumiy ehtiyoj, sug'urtaning vujudga kelish sababi – o'z shaxsiy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash istagini izohlaydi. Uni bir necha o'ziga xos mayda talablarga ajratish mumkin, ulardan eng asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tasodifiy noxush hodisa ro'y bergan taqdirda kafolatlanish talabi; mehnatga layoqatlilik yoki o'lim yuz bergan holda o'zini va oilasini kafolatlash; muayyan muddat ichida jamg'arma hosil qilish yoki o'ziga badavlat keksalikni ta'min etish.

Muayyan talablar bo'yicha sug'urta mahsulotlarini katta guruhlarga «oilalarga» ajratish mumkin va ularning har biri bironta eng muhim ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun xizmat qiluvchi sug'urta mahsulotlari xatarlilik sug'urtalari sinfiga guruhlanadi va yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos ehtiyojlarni qodirishga yo'naltirilgan keyingi ikkitasi – hayotni sug'urtalash va pensiya sug'urtasi «oilasiga» bo'linadi.

Shundan keyin sug'urta mahsulotlari oilalari vazifalarining ular tomonidan qoplanadigan xatarlarning o'xshashligi jihatidan bo'linadi. Masalan, xatarlilik sinfidagi sug'urtalar ichidan mol-mulk sug'urtasi va salomatlik sug'urtalarini alohida

[250] Successful Insuranse Sales. Jack Kinder,Jr. Garry Kinder.Tne Napoleon Nill Foundation, 2012. 3p

toifaga ajratib ko‘rsatish mumkin. Ana shu toifalar ichidan ham mutaxassislar ancha tor doiradagi sug‘urta ehtiyojlarini qondirish va xatarlarni qoplashga qaratilgan sug‘urta mahsulotlarining alohida turlarni ajratib chiqaradilar.

Xususan, mol-mulk sug‘urtasi toifasini ko‘chmas mulk sug‘urtasi, avtomobil sug‘urtasi, yuk sug‘urtasi kabilarga bo‘lish mumkin. O‘z navbatida ana shu sug‘urta turlari ham jamlanmalarga ajraladi. Mol-mulk sug‘urtasi turar-joy sug‘urtasi, ofislar sug‘urtasi va sanoat inshootlari sug‘urtasi kabilarga bo‘linadi. Bu jamlanmalar esa bevosita sug‘urta mahsulotlaridan ya’ni mijozga taklif etilayotgan muayyan sug‘urta xizmatlaridan tashkil topadi.

Har bir sug‘urta kompaniyasi o‘zi taklif etayotgan xizmatlar turlari ichida juda ko‘p (ba’zan bir necha o‘n birlikda) mahsulotlar shahobchalariga ega bo‘ladi. Sug‘urta ehtiyojlarining barcha turlarini qondirish uchun ularning miqdori ham anchagina bo‘lishi talab etiladi. Ularning har biri muayyan bozorga yoki uning yirik segmentiga yo‘naltirilgan asosiy marketing birligi hisoblanadi. Har bir jamlanma o‘z dizayniga ega bo‘lib, savdo markasi va sug‘urta qiluvchining nomi bilan javob beradi.

Ehtimoldagi mijoz sug‘urtalanuvchining vakiliga sug‘urta sharnomasi tuzish masalasida murojaat etgan chog‘ida, unga mavjud sug‘urta mahsulotlari jamlanmalari doirasida tanlov imkoniyatini beradilar.

Sug‘urta mahsulotining sifati deganda ko‘pincha quyidagilar nazarda tutiladi:

- uning texnik xususiyatlari – sug‘urta kafolatlarining keng qamrovliligi, taqdim etilayotgan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarning miqdori, sug‘urta mukofotining darajasi – sug‘urta mahsulotining bahosi;
- mijoz bilan sherikchilik munosabatlari, mijoz va sug‘urta qiluvchi vakili bilan shaxsiy munosabatlarning o‘rnatilishi;
- sug‘urta shartnomasining shaffofligi;
- shartnomaga joriy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha harakatlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri bajarilishi;
- sug‘urta hodisalarining tez, sifatli va adolatli hal etilishi;
- sug‘urta qiluvchini o‘z vaqtida va muntazam ravishda shartnomaning holati, to‘lovlar va sug‘urta mukofotining to‘lanishi to‘grisida boxabar etib borish;
- sug‘urta hodisasini hal etilishiga yordam beradigan qo‘shimcha xizmatlarning mavjudligi.

Mijozlar avvalo sug‘urta qiluvchining asosiy va qo‘shimcha xizmat turlaridan va sug‘urta hodisasini hal etish natijalaridan kelib chiqqan holda sug‘urta mahsuloti to‘g‘risida muayyan bir fikrga keladilar va tegishli ravishda sug‘urta markasining obro‘-e’tiborni o‘z tasavvurlarida shakllantiradilar.

Agar mijoz sug‘urta to‘lovining hajmidan, ko‘rilgan zarar qoplanishini tezda hal etilishidan hamda sug‘urta hodsisasi munosabati bilan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlardan (yuridik maslahat, shikastlangan mol-mulkni qayta tiklashga yordamdan) qanoatlansa, sug‘urta kompaniyasining shartnoma muddatini uzaytirish va tanish-bilish va qarindoshlar o‘rtasida sug‘urta kompaniyasi haqida ijobiy axborot tarqatish to‘g‘risidagi taklifiga bajonidil rozi bo‘ladi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sug‘urta mahsulotining sifatidan mamnun bo‘lgan mijoz, o‘zi ham ixtiyoriy ravishda o‘rtacha uch-to‘rtta yaqinlariga yoki qarindoshlariga bu haqida gapirib beradi, mamnun bo‘lmagan mijoz esa o‘z norziligini kamida o‘n-o‘n ikkita odamga oshkor etadi.

Umuman, zararning tez va sifatli hal etilishi, sug'urta xizmatlarining bir qismi sifatida nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi, chunki xuddi ana shu bosqichda sug'urta qiluvchi sug'urta mahsulotini sotishning boshlang'ich davrida bergan o'z va'dasiga vafo qiladigan palla boshlanadi.

Sug'urta mahsulotining sifati hamisha ham sug'urta qiluvchining birinchi navbatdagi vazifasi bo'lib hisoblanmagan. Ammo bugungi kunda sug'urta xizmatining narxi bilan bir qatorda sifat masalasi ham sug'urta qiluvchining bozordagi eng birinchi galdagi vazifalari qatoriga kirib bormoqda.

Sug'urta mahsulotining sifati yetarli darajada ta'minlanmas ekan, mijozlarning fidelizlashuviga (yanada mustahkamlanishiga) erishib bo'lmaydi, chunki sifatdan norozi bo'lgan mijozlar qo'shimcha sug'urta polislarini sotib olishga ko'nmaydilar.

Sug'urta xizmatining yuksak sifatli bo'lishi sug'urta qiluvchiga o'z rentabelligini saqlab turish asosi hisoblanmish yangi mijozlarni faol qidirishdan, mustahkam o'rnashib qolgan mijozlarga tayanib ish yuritishiga imkon beradi.

28.2. Sug'urta mahsuloti dinamikasi va uning amal qilish davriyligi

Sug'urta qiluvchilarning sug'urta mahsulotiga doir siyosatida eng muhim muvaffaqiyat kaliti bo'lib sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifning dinamik mutanosibligi xizmat qiladi.

Sug'urta qiluvchi doimiy ravishda o'zi tomonidan taklif etilayotgan sug'urta mahsulotlari mijozlarning talabiga mos kelishini tekshirib turishi; shuningdek o'zi tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilishi rejalashtirilayotgan sug'urta mahsulotlari bozorning kelajak ehtiyojlariga qay darajada mos kelishini kuzatib borishi zarur.

Shu maqsadda sug'urta qiluvchi muntazam o'ziga quyidagi savollarni berib turishi darkor.

1. Mijoz muayyan toifadagi sug'urta qoplamasini sotib olar ekan, o'zi uchun qanday imtiyoz va manfaatlarni ko'zlamoqda (sug'urta himoyasining ishonchliligi, sarmoyalashdan yuqori daromad olish mumkinligi, ta'minlangan keksalik kafolati va h.k.)?
2. Mazkur sug'urta mahsulotini mijoz uchun jozibador qilib turgan maftunkorlik omillarini (narxining arzonligi, sug'urta mahsulotining yuksak sifatliligi, kafolatlar sug'urtalanuvchining shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlab olinganligini) tasniflash (ahamiyatining pasayishi tartibida joylashtirish) mumkinmi?
3. Kompaniya tomonidan taklif etilayotgan sug'urta mahsulotlari jamlanmasi mijozlarning kompleks sug'urta ehtiyojlariga mos keladimi?
4. Sug'urta amaliyotlari aylanmalarning (tuzilgan shartnomalar soni) yuksak darajada bo'lishini va yigmajildning maqbul rentabelligini ta'minlaydimi, ya'ni sug'urta mahsulotini tabaqalashtirish to'g'ri o'tkazilganmi?
5. Bozor evolyutsiyasi va unda taklif etilayotgan raqobatchilar mahsuloti evolyutsiyasi qay darajada?
6. Bozorda qanday yangi sug'urta mahsulotlari paydo bo'lishligini bashorat qilish mumkin?
7. Sug'urta bozori evolyutsiyasiga va uning talablariga qanday tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi (majburiy sug'urtalash to'g'risdagi yangi qonunchilik hujjatlari,

kontragentlarning sug‘urtaga oid u yoki bu turdagi majburiyatlarini sug‘urtalash to‘g‘risidagi norasmiy talabning iqtisodiy turmushga joriy etilishi va h.k.)?

8. Har bir sug‘urta mahsulotlari jamlanmasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi.

Ularning dinamikasi sug‘urta qiluvchining u yoki bu marketing strategiyasining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Jamlanma kengayishi, torayishi, butunlay yo‘q bo‘lib ketishi yoki boshqa jamlanma bilan birikishi mumkin. Jamlanmaning kengayishi bozor segmentining o‘sishiga, sug‘urtalanuvchi uchun uning ahamiyati oshganligiga, sug‘urta xizmatlarining u yoki bu turiga nisbatan bozordagi talabning o‘zgarishiga bir qadar moslanuvchan vosita bo‘lib hisoblanadi.

Qaysidir jamlanma mahsulotlari sonining ko‘payishi yoki sifatining oshishi sug‘urta qiluvchi bozorning muayyan segmentida o‘z ulushini ko‘paytirish uchun faol harakat qilishga chog‘lanayotganini bildiradi.

Jamlanmaning yig‘ishtirib olinishi mazkur segment sug‘urta qiluvchida endilikda u yangi bozorni yoki sotuv usullarini o‘zlashtirayotganligi, bozor segmentining torayganligi, uning daromadliligi sug‘urtalanuvchilarning o‘rtacha daromadi pasayishi yoki raqobatning ko‘payib ketganligi sababli qiziqish uyg‘otmayotganini bildiradi. Yuqorida sanab o‘tilgan vaziyatlarda sug‘urta jamlanmasi yo butunlay yig‘ishtirib olinadi, yoki sug‘urta mahsulotlari sonini kamaytirish va soddalashtirish orqali eng kam darajaga tushirib qo‘yiladi.

Shubhasiz, sug‘urta mahsulotlari paydo bo‘ladi va yangi sug‘urta mahsulotlariga yo‘l bo‘shatib berib, yo‘q bo‘lib ketadi. Bu jarayon sug‘urta mahsulotining amal qilish davriyligida o‘z ifodasini topadi.

Sug‘urta mahsulotining amal qilish davriyligi boshqa turdagi keng iste’mol tovarlari davriyligidan keskin farq qiladi.

Birinchidan, sug‘urta davriyligi ancha uzoq muddatlidir, sug‘urta polislari katta o‘zgarishlarga uchramagan o‘nlab yillar davomida sotilishi mumkin, buni esa tovar mahsulotlari uchun mutlaqo qo‘llab bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, sug‘urta mahsulotining amal qilish davriyligining dastlabki bosqichida qilingan xarajatlar, keng iste’mol mollari uchun qilinadigan xarajatlardan ancha kam.

Uchinchidan, sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati uning amal qilish davriyligi muddatidan ko‘proq bulishi mumkin, ya’ni shunday holat bo‘lishi mumkinki, sug‘urta qiluvchi allaqachon muayyan turdagi sug‘urta mahsulotini tijoratlashtirishdan voz kechgan bo‘lsa-da, uning yig‘majildida bu mahsulot hozircha mavjud bo‘lib turadi[251]. Sug‘urta mahsulotlarini yaratilishi bosqichlari:

1. Sug‘urta mahsulotini tadqiq etish va loyihalashtirish. Bu bosqichda bozor segmenti, ya’ni sug‘urta mahsuloti mo‘ljallangan mijozlar tanlab olinadi; sug‘urta shartlari va tariflar sug‘urta qiluvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsaddan kelib chiqqan holda aniqlanadi; bozorda mahsulotning o‘tishi sinaladi. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid sug‘urta mahsulotining o‘ziga xosligi uni ishlab chiqrish bosqichining yo‘qligidadir. Bu sug‘urtalashni, masalan, avtomobilsozlikdan farqlantirib turadi. Ishlanma yakunlanishi bilanoq, sug‘urta mahsulotini bozorga joriy etish boshlanib ketadi.

[251] Successful Insuranse Sales. Jack Kinder,Jr. Garry Kinder.Tne Napoleon Nill Foundation, 2012. 15p.

2. Sug‘urta mahsulotini bozorga joriy etish. Bu bosqichda sug‘urta qiluvchining maqsadi – mahsulotga ehtiyojni tashkil etishdan iborat. Sotuv hajmi oz darajada, mahsulot sug‘urtalanuvchilar uchun hali yaxshi tanish emas. Odatda bu davrda reklamaga katta qo‘yilmalar ajratish, agentlik tarmog‘ini rag‘batlantirish, yangi sug‘urta dasturining maqsadi va sifati to‘g‘risida iste’molchilarni boxabar etish talab qilinadi.

3. O‘sish pallasi. Sug‘urta qiluvchining marketing bo‘yicha saralagan kuch-g‘ayrati mahsulot uchun bozorni ochib beradi. Unga bo‘lgan talab ortib boradi, tariflar va o‘tkazish tizimining xususiyatlari bozor sharoitlariga hamda iste’molchilarning bu mahsulotga bildirayotgan munosabatiga moslashadi, reklama va og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuruvchi shov-shuvlar mazkur sug‘urta xizmatlariga ehtiyoj tug‘diradi, shu hisobdan u bozorning katta qismini egallab oladi.

4. Etuklik pallasi. Bu bosqichda sotuvlar sur’ati pasayadi, mahsulot bozorning odatdagi vositalari qatoriga o‘tadi. Mazkur sug‘urta xizmati xususiyatlari bilan qiziqishi mumkin bo‘lgan mijozlar soni tugab boradi va shu sababli sotuvlar miqdori to‘liq qamrab olingan pog‘onaga yetadi.

5. Pasayish pog‘onasi. Sug‘urta mahsuloti iste’molchilarning katta qismining ehtiyojlarini qondirmay qoladi va sotuvlar miqdori kamayib ketadi. Bu bosqichda sug‘urta qiluvchilar ko‘pincha sug‘urtalanyotgan xatarlarni, sug‘urtalash shartlarini, vajlarni, franshizlarni iste’molchilarning yangi talablariga muvofiqlashtirish orqali sug‘urta mahsulotini takomillashtirishga harakat qiladilar. Agar mazkur ishlar muvaffaqiyatli chiqsa, mahsulot yangi yuksalish bosqichiga kiradi. Aks holda, sug‘urta qiluvchi uni tijoratlashtirishdan voz kechib, avval tuzilgan shartnomalarning o‘zi bilan cheklanadi.

Mijozlar ayniqsa uzoq muddatli sug‘urta shartnomalari bo‘yicha uning amal qilish muddati tugamasdanoq, shartnoma shartlaridan qanaoatlanmay qolish hollari bo‘lib turadi, ya’ni shartnoma o‘zi amal qilib turgan muddat ichida ma’nan eskirib qolishi mumkin. Xususan, bozorning rivojlanishi hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash tajribasiga sug‘urta hodisasi vujudga kelganda kompaniya tomonidan bir qator yangi xizmatlar taqdim etilishini taqazo etdi. Masalan, bundan yigirma yil avval, hozir amal qilib turgan shartnomalar tuzilgan vaqtda, sug‘urta qiluvchilar yuridik xizmatdan foydalanish kerakligini xayollariga ham keltirmaganlar. Bunday holatlarda sug‘urta qiluvchi shartnomani qayta tuzadi, ya’ni uni sug‘urtalanuvchining yangi talablari asosida takomillashtiradi.

Sug‘urta mahsulotlarining amal qilish davriyligi dinamikasi ikkita asosiy omil:

- ehtiyojlarni to‘liq qondira olishi, ya’ni mahsulot sifatining mijozlarning umidiga mos kelishligi,
- bozor segmentining keng qamrovligi va taraqqiy etishi bilan bog‘liqdir.

Mahsulot bozor talablariga mosligi darajasiga bog‘liq ravishda takomillashtirilib va muvofiqlashtirib borilishi shart. O‘sib borayotgan bozor segmentida sotuvlar tizimi va sug‘urta mahsuloti tarkibiga kiritilgan qo‘shimcha xizmatlar taraqqiy topib borishi lozim. Bularning hammasi qo‘shimcha moliyaviy qo‘yilmalarni talab etadi. Qo‘shimcha sarmoyalash zaruratini «Boston Konsalting Grup» firmasi tomonidan ishlab chiqilgan «Boston matritsasi» yordamida aniqlash mumkin. Unda sug‘urta mahsulotlari dinamikasi umumiy tarzda ifoda topgan.

Odatga ko'ra, bozor segmenti yiliga kamida 10 foizga oshib borsa, uni tez taraqqiy etayotgan deb hisoblanadi. Hozirgi paytda sanoati rivojlangan mamlakatlardagi sug'urta bozorining bunday segmenti sifatida hayot sug'urtasini ko'rsatish mumkin.

Shubhasiz, qo'shimcha resur qo'yilmalari birinchi navbatda intensiv rivojlanayotgan bozorlar uchun xizmat qilayotgan sug'urta mahsulotlariga yo'naltirlishi zarur. Bu mablag'larni «sog'in sigirlar», ya'ni bozorning barqaror va yirik qismiga xizmat qilayotgan sug'urta mahsulotlari yetkazib beradi va yetarli darajada yuksak daromadlilikni ta'min etadi.

Marketing strategiyasiga bag'ishlangan bo'limda sug'urta mahsulotining to'g'ri tabaqalashtirilishi, bu mahsulot uchun bozorning maqsadli segmentlarini tanlash nechog'lik muhimligi to'g'risida gapirib o'tgan edik. Biroq bozor dinamikasi va sug'urta mahsulotlarining ma'nan eskirishi munosabati bilan mahsulotlarni bir segmentdan boshqasiga ko'chirib o'tkazish tobora ko'proq ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bu ish mahsulotlarning takomillashtirilishi va maqsad yo'nalishi o'zgartirilishi bilan, shuningdek mavjud segmentlar uchun hamda istiqboldagi segmentlar uchun yangi mahsulotlar ishlab chiqilishi bilan birgalikda olib boriladi. Bunday yondashuv sug'urta qiluvchiga o'z sug'urta yig'ma jildida dinamik muvozanatni saqlab turish imkonini beradi.

Sug'urta mahsulotlari jamlanmasini bozorning muayyan segmentlari bo'yicha takomillashtirib borilishiga undan eskirib qolgan mahsulotlarni chiqarib tashlash, ularni takomillashtirish orqali, sug'urta xizmatlari nomenklaturasini kengaytirish orqali va boshqa segmentlardagi maqsadli sug'urta mahsulotlarini «qayta tabaqalashtirish» hisobiga mazkur segmentga yo'naltirish orqali erishiladi.

Sug'urta mahsulotini tabaqalashtirish o'z ichiga, masalan, kafolatlar va tariflarning o'zgartirilishini olishi mumkin. Xususan, turar-joy bo'yicha kompleks sug'urta shartnomasiga qo'shimcha ravishda oila a'zolarining qimmatbaho buyumlari, yoki bolaning maktabda taqadigan ko'zoynagiga oid sug'urta kafolatlari kiritilishi mumkin.

«Qayta tabaqalashtirilgan sug'urta mahsuloti asosiy qoidalari, kafolatlari, sug'urta summalari, franshizlar va tariflarni (ya'ni barcha texnik xususiyatlarini) saqlab qoladi.

Biroq uning «reklama qutisi» va izohlovchi qo'shimcha hujjatlari o'zgarishga uchraydi.

Masalan, oiladagi ikkinchi mashinani sug'urtalash avtomobilni bir yillik bosib o'tilgan yo'liga qarab, moslashuvchan tarif bilan sug'urtalash shaklini olishi mumkin.

28.3. Sug'urta mahsulotlarini sotish usullari

Sug'urta mahsuloti sotuvi – mijozlar ehtiyojini, ularning iste'molchilik xatti-harakatlarini aniqlash, sug'urta shartlarining, mukofot va qo'shimcha xizmatlar miqdorining maqbulligi va jozibadorligini ta'minlash uchun ilgari o'tkazilgan marketing xatti-harakatlarini yakunlovchi bosqichdir.

Sotuv jarayoni – sug‘urta qiluvchi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidagi o‘ziga xos marketing ko‘prigi hisoblanadi. Sug‘urta qiluvchining agentlari mijozni u sug‘urtalanishi lozim ekanligiga, mazkur sug‘urta qiluvchining xizmatlari uning sug‘urtaga bo‘lgan talabini to‘liq qondira olishiga, to‘lanadigan sug‘urta mukofoti esa – sug‘urta qoplamasi uchun unchalik qimmat bo‘lmagan to‘lov ekanligiga ishontirish uchun ancha kuch-g‘ayrat sarflashlari darkor.

Sug‘urta mahsulotlari sotuvini takshil etish bo‘yicha bir necha umumiy talablar mavjud. Mijoz sug‘urta qoplamasini qayerdan sotib olishi mumkinligini bilishi, savdo shahobchasiga kirish oson va erkin bo‘lishi, mijozlarga diqqat-e’tibor va xushmuomalalik bilan xizmat ko‘rsatilishi zarur.[252]

G‘arbda (Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda) iste’molchilar quyidagilardan sug‘urta xizmatlarini sotib olishlari mumkin:

- ixtisoslashgan sug‘urta vositachilari – brokerlar orqali;
- sug‘urta mahsulotlarini sotish asosiy faoliyat turiga kirmaydigan vositachilar – banklar, supermarketlar, garajlar, avtoustaxonalar va h.k.;
- sug‘urta qiluvchining bosh agentliklardagi xolis agentlari orqali;
- sug‘urta qiluvchining xodimlari (agentlari) hisoblanmish vakillari orqali;
- sug‘urta qiluvchining bosh ofisining bo‘linmalarida yoki uning telefon, pochta yoki kompyuter tarmog‘i orqali bevosita sotish bilan shug‘ullanuvchi sho‘ba korxonalaridan.

Ularning hammasini bir nom ostida – sug‘urta mahsulotini sotish (o‘tkazish) tizimi nomi bilan birlashtirish mumkin. Asosiy faoliyati bo‘lmish sug‘urta mahsulotini sotishdan tashqari, yuqorida sanab o‘tilgan tizimlar bozor to‘g‘risidagi raqobatchi firmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, bozor istiqbollarini tahlil qilish bilan ham shug‘ullanadilar.

O‘tkazishning sanab o‘tilgan shakllari aksiyador sug‘urta kompaniyalari uchun xos bo‘lib, ular o‘z mahsulotini sotish uchun bir yoki bir necha usuldan foydlanishi mumkin. Germaniya, Italiya, Fransiya, Ispaniyada o‘tkazishning asosiy shakli – bosh agentliklardan tashkil topgan tarmoqlardan iborat bo‘lib, ular sug‘urta qiluvchi tomonidan shartnoma asosida jalb etiladi.

Buyuk Britaniya, Gollandiya va Belgiyada tarixida shunday holat vujudga kelganki, mijozlar bilan ishni asosan sug‘urta brokerlari vositasida olib boriladi.

Ulardan tashqari bozorda o‘zaro sug‘urta kompaniyalari ham mavjud. Ularning aksionerlik kompaniyalaridan farqi shuki, ular daromadsiz xususiyatga ega bo‘lib, ko‘rilgan zarar sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida taxlanma asosida taqimlash orqali qoplanadi.

Shu sababli, barcha sug‘urtalanuvchilar sug‘urtalar bo‘yicha zaxira fondini boshqarish ishida ishtirok etadilar, sug‘urta mahsulotini o‘tkazish tizimi esa bu holda

---

[252] Insurance: Principies and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993. 318 p.

o‘zaro sug‘urta fondiga qo‘shimcha qatnashchilarni jalb etish ishi bilan shug‘ullanuvchi tizim shakliga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘zaro sug‘urta kompaniyalari, qoidaga ko‘ra, brokerlar yoki boshqa vositachilar xizmatidan foydalanmaydi va sug‘urtalanuvchilar sonini ko‘paytirishda agentlarning kuch-g‘ayratidan foydalanishni afzal biladi.

Aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari qiymati o‘zaro sug‘urta jamiyatlaridagi shu turdagi xizmatlarga nisbatan ancha baland bo‘ladi. Bu narsa daromad olish zarurati va agentlik tarmoqlarini saqlash ancha qimmat ekanligi bilan izohlanadi. O‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari esa foyda ko‘rmaydigan va sug‘urta mahsulotlarini sotish bo‘yicha yirik tarmoqlarga ega bo‘lmagan jamiyatlardir.

Foyda olish maqsadi aksiyadorlik kompaniyalarini ancha faol ishlashga majbur qiladi, sug‘urta xizmatlarini targ‘ibot-tashviqotini olib borishga, ularni bevosita mijozga yetkazib berishga undaydi. Shu sababli, qiymatining bir muncha balandligiga qaramay, ularning sug‘urta mahsulotlari ancha raqobatbardoshli bo‘ladi.

O‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarining foyda ko‘rmay ishlash xususiyati yangi a’zolarni izab topish va jalb etishni etarli darajada rag‘batlantirmaydi. Holbuki, sug‘urta bozoridagi ahvol ana shunday jamiyatning har bir a’zosi o‘z sug‘urta ehtiyojlarini ham, sug‘urta biznesi masalalarini ham yaxshi tushunishi zarurligini taqozo etadi.

Shu bois, sug‘urta vositalari murakkablashib borayotgan hozirgi zamon sharoitida o‘zaro sug‘urta jamiyatlari sug‘urta bozorining bir chekkasiga siqib chiqarilgan.

Biroq keyingi vaqtda G‘arbiy Eevropada o‘zaro sug‘urta jamiyatlari kapitalistik aksiyadorlik sug‘urtalashga «qarshi hujum» uyushtira boshladilar. Bu narsa asosan keng iste’mol sug‘urta mahsulotlari, masalan, avtotransportni majburiy sug‘urtalash, turar-joy sug‘urtasi kabi sug‘urta bozorida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Sug‘urta bozorlaridagi ayovsiz raqobat sharoitida sug‘urta mahsulotini sotish tizimiga ega bo‘lmagan (yoki juda kichik tarmoqqa ega bo‘lgan) o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari agentlarni rag‘batlantirish xarajatlarini tejash orqali mahsulot bahosi bo‘yicha durustgina ustivorlikka erishdilar. Chunki bu xarajatlar yirik kompaniyalarda sug‘urta mukofotining 15 – 30 % ni tashkil etadi.

Hududiy, kasbiy yoki boshqa bir xususiyatiga (masalan, sug‘urta turi, xususan avtotransport sug‘urtasi) ko‘ra shakllantiriladigan o‘zaro sug‘urta jamiyatlari o‘z sug‘urta xizmatlarining oddiyligi va arzonligi bilan, shuningdek aholining muayyan qatlamlari yoxud kasbdoshlar o‘rtasida sug‘urtalanishning zaruriyatini ongli ravishda tushunilishi orqali qo‘shimcha mijozlarni jalb etadilar. Bundan tashqari, o‘z mijozlarini yaxshi bilish o‘zaro sug‘urtalash kompaniyalari xatarni aniqroq baholay bilish imkonini beradi.

Sug‘urta bozorida shuningdek o‘tkazishning kamroq tarqalgan turi – sug‘urtlanuvchilar assotsiyatsiyalari, birlashmalari. Masalan, Fransiyada bunday tashkilotlar hozirgi kunda ikki yuzdar ortiq bo‘lib, ulardagi a’zlarining soni esa ikki yuz ellikdan uch yuz minggacha boradi.

Sug‘urtalanuvchilar sug‘urta kompaniyasiga nisbatan o‘z manfaatlarini birgalikda himoya qilish, shuningdek kompaniyadan sug‘urta qoplamasiga ulgurji chegirmalar olish uchun guruhlarga birlashadilar. Har bir guruh sug‘urta qiluvchi bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini namoyon etuvchi broker bilan shartnoma tuzadi, yoki shu maqsadlar uchun mustaqil ravishda tashabbuskor ishchi guruhini takshil etadi.

Ko‘pgina assotsiatsiyalar (ayniqsa yiriklari) o‘zlarining yuridik xizmatlariga va ogohlantirish tadbirlarini amalga oshiruvchi, ya’ni sug‘urta hodisalarining oldini olish organlarga ega bo‘ladilar. Bunday guruhlar asosan jismoniy shaxslarga xos xatarlar – avtosug‘urta, turar-joy sug‘urtasi, hayotni sug‘urtalash, pensiya va jamg‘arma sug‘urtalar bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘ladi.

Faoliyatining o‘ziga xosligi sababli, sug‘urtalanuvchilar assotsiatsiyalari o‘z a’zolariga cheklangan sug‘urta qoplamasini taklif eta olmaydi. Bu turga keng tarqalgan 15 - 20 dan ko‘proq sug‘urta mahsulotlari kiradi. Ularni sotuv miqdori nihoyatda kattaligi hisobidan assotsiatsiyalar sug‘urta qiluvchidan sotuv qiymatining 35%iga teng miqdorda chegirma olishlari mumkin, boz ustiga assotsiatsiyalarga kirish badali unchalik katta emas – 15 dan 40 dollargacha xolos.

Assotsiatsiyalar mazkur assotsiatsiya a’zolari va mutaxassis vositachilardan tashkil topgan o‘z agentlik tarmog‘iga ega bo‘lib, ularning vazifasi qo‘shimcha a’zolarni jalb etishdan iborat.

Ayrim assotsiatsiyalar sug‘urta brokerlari tomonidan o‘z mijozlarini to‘ldirishning qo‘shimcha usuli sifatida maxsus tuziladi. Bunda broker o‘z-o‘zidan sug‘urta bozorida assotsiatsiya manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga aylanib qolishi shubhasiz. Sug‘urtalanuvchilar assotsiatsiyasiga a’zo bo‘lishga da’vat etishda reklama uchun asosiy vaj bo‘lib – qo‘shimcha chegirmalarga ega bo‘lish imkoniyati va sug‘urtalanuvchi manfaatlarining birgalikda himoyalanishiga xizmat qiladi.

Biroq sug‘urtalanuvchilar assotsiatsiyalari mohiyatan sug‘urta mahsulotini o‘tkazish tizimi bo‘lib hisoblanmagani sababli, mazkur kitobda bundan buyon ularni muhokama qilib o‘tirmaymiz.

Sug‘urta mahsulotini o‘tkazish tizimlari sug‘urta qiluvchining tijorat ishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Sug‘urta qiluvchining marketingga oid strategiyasi ishlab chiqilayotganda bu tizimning imkoniyatlarini, faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini va takomillashtirilishini ham hisobga olish zarur.

Sotuvchilar, qoidaga ko‘ra, bozorni va uning talablarini yaxshi biladilar, u yoki bu sug‘urta mahsulotining iste’molchilar uchun jozibadorlik darjasini ancha aniq baholay oladilar. Mijozlarga tobe’ ekanliklari sababli, mahsulotni o‘tkazish

tarmog‘ining xodimlari ko‘pincha kompaniyaning bosh ofisi oldida iste’molchilar manfaatlarini ifodalovchi sifatida yuz ko‘rsatadilar.

Shu sababli marketing strategiyasi o‘tkazish tarmog‘i xodimlarining bilimi, fikri va istaklarini hisobga olishi lozim. Aks holda marketing strategiyasi bozordan uzilib qolishi va undan begonalashib ketishi ham mumkin. Shuningdek, ayrim mahsulotlarni iste’molchilarga taqdim etishdan bosh tortayotgan sotuvchilar bilan bo‘ladigan ziddiyatlarni ham istisno etib bo‘lmaydi. «Zimdan qarshilik» bo‘lishi ham mumkin, ya’ni agentlar sug‘urta xizmatlarini bozorda o‘tkazish uchun zarur darajada kuch-g‘ayrat sarflamaydilar.

Sug‘urta mahsulotlari sotuvini ko‘ngildagidek tashkil etish uchun kompaniya o‘tkazish tarmog‘i xodimlari bilan sherikchilik va hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishi darkor.

Sug‘urta mahsulotini o‘tkazish usulini tanlash – marketingning eng muhim masalalaridan biridir. Ommaviy marketing yondashuvida barcha mijozlarga yagona sug‘urta mahsuloti taklif etilgani sababli sug‘urta mahsulotini o‘tkazishning yagona tizimi mos kelaverar edi.

Sug‘urta bozori segmentlanishining rivojlanib borishi va alohida guruhdagi iste’molchilar uchun mo‘ljallangan sug‘urta mahsulotlarining paydo bo‘lishi davomida agentlik tarmoqlarini yoki sug‘urta mahsulotini o‘tkazishning boshqa tizimlarini bo‘lish yoki ixtisoslashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Sug‘urta tarmoqlarining segmentatsiyasi – bu iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi sug‘urta kompaniyalarida yuz berayotgan jarayon bo‘lib, uning nihoyasiga yetishiga hali ancha vaqt bor.

Ilgari sug‘urta kompaniyalari sug‘urta mahsulotini sotishning asosiy tizimi sifatida asosan o‘z agentlari va brokerlariga tayangan. Ammo yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi jarayonida sug‘urta qiluvchilar sug‘urta mahsulotlarini sotish bilan bevosita shug‘ullanuvchi sho‘ba korxonalarini yarata yoki sotib ola boshladilar. Shuningdek banklar bilan ularning bo‘limlari orqali mijozlarga sug‘urta polislarini sotish xususida shartnomalar tuza boshladilar.

Bir qator sug‘urta qiluvchilar o‘z sug‘urta agentliklari faoliyat maydonini ko‘proq mukofot yig‘ib olish imkontyatini beruvchi eng afzal (maqsadli) segmentlar doirasida toraytirib yubordilar. Odatga ko‘ra, bu iste’molchilar guruhlariga nisbatan sug‘urta qiluvchi muayyan ustuvorliklarga ega bo‘ladi.

Korporativ sug‘urta kompaniyalari uchun muayyan tarmoq korxonalarining manfaatlarini va mol-mulkini sug‘urtalash ana shunday bozor sifatida xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi paytda o‘zi uchun qat’iyy belgilangan faoliyat sohasini, masalan, hunarmandlar yoki erkin kasb qiluvchilarni belgilab olgan sug‘urta kompaniyalari muvaffaqiyatga erishmoqda. Aynan shunday ixtisoslashuvni sug‘urta brokerlari faoliyatida ham ko‘rish mumkin: masalan, faqat teatr tomoshalarini, kotsertlarni va

kino ijodini sug‘urtalovchi, boshqa tomonda esa faqat kosmik apparatlarni sug‘urtalovchi vositachilar mavjud.

Ayrim sug‘urta kompaniyalari sug‘urta mahsulotini sotib olish chog‘idagi ise’molchilar xatti-harakatidan kelib chiqqan holda, o‘zlarining o‘tkazish tarmoqlarini diversifikatsiyalash (kengaytirish) imkoniyatini qidiradilar. Maslahatga va yordamga (shartnomani tuzish va sug‘urta hodisasisini tekshirish chog‘ida) muhtoj bo‘lgan mijozlar, muayyan to‘xtamga kelishga qiynalayotgan mijozlar sug‘urta qiluvchining agentlariga murojaat etadilar.

O‘z shartnomalarini muvofiqlashtirish ishlarini ham unga ishonib topshiradilar. O‘z puliga ko‘proq foyda olishni va optimal sug‘urta qoplamasiga ega bo‘lishni istovchi mijozlar, o‘z vakillari sifatida mazkur sug‘urta bo‘yicha ixtisoslashgan mutaxassis brokerlarni tanlaydilar. O‘zini sug‘urta masalalarida ancha-muncha bilim va malakaga ega deb hisoblaydiganlar yoki eng arzon minimal sug‘urta qoplamasini sotib olmoqchi bo‘lganlar esa uni bevosita sotuv bilan shug‘ullanadigan tizim, masalan telefon orqali sotib oladilar.

Ayrim mahsulotlar, masalan standart avtosug‘urta yoki ko‘chmas mulk sug‘urtasi har qanday usulda – vositachilar orqali ham, ularning ishtirokisiz ham sotilaverishi mumkin. Ayni chog‘da, shunday sug‘urta xizmatlari (korxonalar javobgarligi sug‘urtasi, sanoat xatarlari sug‘urtasi va h.k.) ham borki, ularni voitachilar – brokerlar yoki agentlar ishtirokisiz sotish mushkul.

29-MAVZU.
SUG‘URTA FIRIBGARLIGI VA UNI BARTARAF ETISH

29.1. Sug‘urta firibgarligi haqida umumiy tushuncha

Sug‘urta firibgari. Kim u? Bu, odatda, yuksak intellektual salohiyatga ega bo‘lgan, o‘ziga to‘q oiladan chiqqan shaxs bo‘ladi. Bu esa unga umumiy va maxsus ta’limga nisbatan yuqori darajada qabul qilgan bo‘lish imkonini beradi. Ularning katta qismi biznesning ma’lum turi bilan shug‘ullanishadi va bu faoliyatning o‘ziga xosligi shundaki, bu ularni sug‘urta qoidalari va shartlari haqida juda yaxshi xabardor bo‘lishini talab etadi. Ular zarar va to‘lov shartlarini aniqlash amaliyoti bilan juda yaxshi tanish bo‘lishadi.

Ayollar kamdan kam sug‘urta firibgari bo‘lishadi, ayniqsa, texnika bilan bog‘liq firibgarliklar (yonib ketish, YTH va h.k.). Shuningdek professional va yagona firibgarlikni farqlash murakkab masala. Bir necha bor jinoyat olamida firibgarlikda muvaffaqiyatga erishgan havaskor firibgarlar professional firibgarlarga aylanishi mumkin. Firibgarlar o‘z jinoyatlarining ochilishini eng kam darajasiga tayanishadi.

Shuningdek ular qonundagi bo‘shliqlar, firibgarlik olamidagi malakaning pastligi, ularning firibgarligi oshkor qilingan taqdirda ham ularning jazolanishi dargumon bo‘lib qolmoqda. Biznesmenlar oddiy fuqarolardan ko‘ra ko‘proq firibgarlikni sodir etishadi, ularning biznesdagi qiyinchiliklari sug‘urta firibgarligini sodir etishiga motiv bo‘ladi va bu sug‘urta biznesiga tahdid soladi.



29.1-rasm. **Respublika sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta firibgarligidan himoya qilishning asosiy tamoyillari tamoyillari.**[253]

[253] Sug‘urta kompaniyalarining xavfsizlik va ichki nazorat siyosatlari asosida tayyorlandi.

Sug‘urta shartnomasi tuzish paytidagi sug‘urta firibgarligining bir necha turlari:

1. Sug‘urta summasining sug‘urtalanayotgan obektning haqiqiy bahosidan yuqori belgilanishi

Sug‘urta summasi qanchalik baland bo‘lsa, sug‘urta mukofoti ham shunga nisbatan baland bo‘ladi. Bir tomondan qaraganda sug‘urtalovchi uchun bu foydali. Boshqa tomondan esa, sug‘urta summasi qanchalik ko‘p belgilangan bo‘lsa sug‘urta hodisasi ro‘y berganda sug‘urtalanuvchi shuncha ko‘p sug‘urta qoplamasi talab qiladi.

Bu esa sug‘urta firibgarligi bo‘lishining motivi bo‘lib hizmat qiladi. Aldov esa o‘z-o‘zidan juda oddiy: buning uchun shunchaki shartnoma tuzishdan oldin yolg‘on ma’lumot berish kifoya. Sug‘urta summasi baland bo‘lishi uchun, qo‘shimcha mulklarni sug‘urta obyektiga tegishli qilib ko‘rsatish yetarli. Bu tur sug‘urta aldovlari ichida klassik turga kiradi.

2. Bir vaqtning o‘zida bir necha sug‘urta kompaniyasida sug‘urtalash.

Ayni bir mulk, odatga ko‘ra yuqori sug‘urta summasi bilan, bir necha sug‘urta kompaniyalarida sug‘urtalanadi. Bu holatda sug‘urtalanuvchi oldindan yolg‘on ishlatadi. Xususiyatiga ko‘ra, sug‘urta shartnomasi tuzilganiga ko‘p bo‘lmasdan sug‘urta hodisasi bo‘lganligi haqida arz qilinadi.

Bu turdagi sug‘urta firibgarligi ko‘pincha yuklarni tashish va transport sug‘urtasi bilan bog‘liq sug‘urta turida ko‘p uchraydi. Bu turning o‘ziga xosligi shundaki, sug‘urta obyekti obyektning tabiatiga ko‘ra nazorat qilish qiyin bo‘lgan ko‘char moddiy boyliklar kategoriyasiga kirishi hisoblanadi. Tergov tadbirlari davomida sug‘urta hodisasi soxta yoki qasddan qilingan bo‘lib chiqadi.

3. Sug‘urta shartnomasi tuzishda muhim bo‘lgan ma’lumotlarni yashirish.

Sug‘urtalanuvchi sug‘urta obyektining saqlanishi va obyektning holatini tavsiflovchi ayrim muhim bo‘lgan yoki muhim bo‘lmagan ma’lumotlarni yashirishga urinadi. Misol uchun, ko‘pincha, xafsizlik signalizatsiyasi ishlamasligi yashiriladi.

Yuklarni sug‘urtalashda esa yuklarni bahosi va holatini tavsiflovchi soxta hujjatlarni taqdim etish holatlari ko‘p uchraydi. Ayniqsa fuqarolik javobgarligini sug‘urtalayotganda ma’lumotlarning haqiqiyligi va ishonchliligiga amin bo‘lish talab qilinadi. Ma’lumotlarni yashirish ayniqsa risklarni tariflashda mukofotni aniqlashda muhim hisoblanadi.

4. Sug‘urtalanmagan zararlarni sug‘urtalangan qilib ko‘rsatish.

Firibgarlikning bu turi, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgandan keyin sug‘urta shartnomasi tuzlishi bilan xarakterlanadi. Bu firibgarlik turi xavflilik darajasi katta bo‘lgan jihozlarning egasi tomonidan yetkazilgan zarar uchun sug‘urtalashda tipik hisoblanadi.

Shu sababli ham sug‘urta hodisasi soxtalashtiriladi. Misol uchun, aslida bo‘lib o‘tgan o‘g‘rilik oddiy o‘g‘irlik, ham malakali jinoyat sifatida ko‘rsatiladi.

Sug‘urta firibgariga ta’rif berganda eng avvalo ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Professionallar-jinoiy guruh a’zolari
2. Delitantlar qiyin moliyaviy ahvoldan chiqishning yo‘lini topgan odamlar.

Ko‘rinib turibdiki, bu 2 xil turdagi subyektlar ko‘rinishi turlicha bo‘ladi.

Professional firibgar. Subyektga tarif berish uchun YTH bajaruvchisi tanlab olindi. Bu turdagi firibgar quyidagi belgilarga ega: 20-35 yoshlar atrofida erkak, uylanmagan yoki birga yashaydigan qizi bor, tadbirkorlikda tajribaga ega bo'lgan shaxs.

Uning tijorat sohasi avtomobillar bilan bog'liq bo'ladi (ya'ni remont, sotuv, avtozapchastlar sotish, ma'lumotlarni to'ldirish va boshqalar), import avtomobili egasi yoki ishonchnoma orqali boshqaruvchi, haydovchilikda ko'p yillik stajga ega bo'lgan, jinoiy avtotadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tanishlari ko'p ba'zi bir holatlarda mayda jinoyatlar uchun sudlanib chiqqan, avvallari bir nechta yo'l transport hodisasiga uchragan, avtosug'urtalash bo'yicha yaxshi ma'lumotga ega, qonuniy moliyalashtirish uchun mablag'lari yetarli bo'lmasa ham mablag'i katta.

29.1-jadval

Sug'urta firibgarligi indikatorlariga misollar[254]

Aldash indikatori	Tushuntirish
1. TVEFJS polisi egasining zarari kam, lekin jabrlanuvchiniki jiddiy	Bu firibgarlarning oltin qoidasi-kim ko'p jabrlansa, shu sug'urtaga murojaat qiladi, chunki ko'rilgan zarar o'zining hisobidan to'lanadi, shuning uchun YTH aybdorini almashtirish lozim
2. Hodisa bilan transport vositalari zarari to'g'ri kelmasligi	Sodir bo'lgan hodisani o'zgartirib aytish, masalan, noaniq avtomobil haydovchining ko'zini qamashtiradi, farani yoqib natijada borib daraxtga urdi.
3. YTH joyi belgilangan joydan uzoqdaligi	Sug'urtalovchining vakillari, yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari, boshqa avtoishqibozlar yoki tasodifiy guvohlar firibgarlarning rejasini buzolmaydi, masalan, daraxtga urilgan Mersedes, o'sha joyning uzoqda qismi YTH uyushtirish uchun to'g'ri keladigan joy hisoblanadi.
4. Sug'urtalanuvchining va jabrlanuvchining axboroti qarama-qarshi bo'lsa	Kelishish qiyin bo'ladi, qachonki maktab o'quvchilari, noaniq haydovchi-firibgarlarning mashinalari to'qnashib ketsa

Professional firibgarning psixologik belgilari: o'ziga ishongan, jur'atli, odamlar bilan tez chiqishadigan, surbet, mug'ombir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jinoiy guruhlar ko'pchilik odamlardan tashkil topgan bo'lib, har biri ma'lum rolni ijro etadi. Eng ko'p holda uchraydigan soxta YTH ijrochilarining taxminan portreti shunday ko'rinishga ega bo'ladi:

[254] Sug'urta kompaniyalarining xavfsizlik va ichki nazorat siyosatlari asosida tayyorlandi.

Hujjat nomi	Talab	Nazorat qilinadigan parametrlar
Sug‘urtalanuvchi arizasi	O‘z vaqtida yetkazish	1. Sug‘urta kompaniyasida ariza va aktlarni qayd etish jurnalidagi qayd etilgan sana 2. Sug‘urta hodisasi haqida sug‘urtalanuvchining kompayaga sug‘urtalangan muddatlarda xabar berishi 3. Sug‘urtalanuvchining tushuntirishlarni kech yetkazganligi sabablari
	Sug‘urta hodisasi obyektlari va subyektlari	1. Ariza taqdim etgan sug‘urtalanganmi yoki vakil shaxs. 2. Sodir bo‘lgan jarayonda sug‘urta shartnomasi amal qilganmi 3. Jabrlangan shaxs shartnomaga kiritilganmi 4. Sodir bo‘lgan voqea shartnomada javobgarlik deb qaralganmi 5. Zarar keltirgan hodisa to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjatlar 6. Sug‘urtalangan shaxsga zarar yetkazilgan yoki nobud bo‘lgan

2. Delitant firibgar. Zarar ko‘rganlar haqida so‘z boradi. Bu asosan 18-50 yoshlardagi erkak tadbirkor yoki davlat ishchisi. Bir joyda uzoq vaqt ishlaydi, uylangan, haydovchilikda o‘rta stajga ega bo‘lgan, yo‘l transport hodisasiga kamdan-kam uchraydigan, sudlanmagan, bir xil hayot tarziga ega, mashinasini kam almashtiradigan o‘rtacha moliyaviy ahvoldagi shaxs.

Sug‘urtalanuvchi ko‘rinishida ishlamaydigan, uncha qimmat bo‘lmagan o‘zimizda ishlab chiqarilgan avtomobil egasi yoki korxona haydovchisi asosan yuk mashinalari haydaydi. Ko‘pincha ziyon ko‘rgan odam qarindosh yoki tanishi (ziyon ko‘rgan bilan birga yashovchi yoki bitta ishda ishlovchi).

Shuni eslatib o‘tish kerakki delitant firibgarning portreti aniq chizilmagan. Chunki sug‘urtalashda firibgarlik bu- ishqibozlik uchun qilinadigan jinoyat bo‘lib, unda deyarli har bir odam ishtirok etishi mumkin.

Har bir alohida ko‘rsatilgan belgi har doim ham yo‘l transport hodisasi yolg‘on ekanligidan xabar bermaydi. Biroq bunday belgilarning 2 va undan ortiq bo‘lishi- bu diqqatli belgi sug‘urta tashkilotini bunday jinoiy harakatlardan himoya qilish maqsadida sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi haqida ariza olgan 1 – navbatda ziyon ko‘ruvchining tushuntirishlarini tahlil qilish kerak. Sug‘urta hodidisasi obyekti va subyektlariga mos kelishi kerak. Bunday holatda sug‘urtalovchining harakatlari

quyidagilar hisoblanadi. Agar tahlil natijasida sug'urta tovoni to'lamaslikni isbotlovchi asos bo'lsa, u holda sug'urtalovchi olingan dalil va hujjatlarga binoan shartnomada ko'rsatilgan summani to'lab berishi kerak. Boshqa holatlarda sug'urta hodisasi holatlari yuzasidan uzoq izlanishlar olib boriladi.

Buning uchun firibgarlikni tasdiqlovchi belgilar yig'ish uchun ko'plab miqdorda ma'lumot turli manbadan olish kerak . Shuning uchn sug'urtalovchi, qonun himoyalovchi organdan, bankdan, tibbiyot tashkilotlaridan va boshqa tashkilotlardan, sug'urta hodisasi bilan bog'liq hujjatlar bilan tanishib, ma'lumot yig'adi, shuningdek o'zi haqiqiy hodisani isbotlashga, oydinlashtirishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, tashkilot, tadbirkorlik subyektlari, korxonalar sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi bilan bog'liq ma'lumotlarni berishi kerak.

29.2. Umumiy sug'urta sohasida firibgarlik

Sug'urtalash bu – jismoniy va yuridik shaxslarning qiziqishlarini sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta mukofotlarini yig'ish orqali tashkil etilgan fondlar hisobidan sug'urta shartnomasiga muvofiq yuzaga kelgan moliyaviy yo'qotishlarini qoplab berish orqali himoya qilishdir. Sug'urta faoliyati bu – professional sug'urta ishtirokchilarining sug'urta bozoridagi sug'urtani amalga oshirish harakati yoki faoliyatidir.

Mol-mulk bu – yuridik yoki jismoniy shaxslarning tasarrufidagi moddiy boyliklari, buyumlaridir. Mol-mulk harakatlanuvchi, ko'char, ko'chmas yoki yer shaklidagi mulklar va yerga bog'liq ravishda ko'chmas mulklarga bo'linadi. Mulkchilik yoki ijara shartnomasiga muvofiq ijara (lizing)ga berilgan mol-mulk bilan bog'liq kutilmagan moliyaviy harajatlarga qarshi o'zini himoya qilishga mol-mulk sug'urtasi yordam beradi.

Har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs o'z mol-mulkini sug'urtalashi mumkin. Mol-mulkni butunlay yoki uni bir qismini sug'urtalash mumkin. Mol-mulk sug'urtasi – ofis binosi yoki ishlab chiqarish asbob-uskunalari, mebel, ofis uskunalari, buyumlarni, ombordagi mahsulot va hokazolarni mulk sug'urtasi foydalanish bilan bog'liq mulkiy tavakkalchiliklarni sug'urta qilish imkonini beradi. Bundan tashqari o'g'irlik, zarar yetkazish yoki boshqa yomon oqibatlari ko'rib chiqiladi.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta summasi sug'urta obyekti bahosiga teng bo'lgan holatda sug'urta kompaniyasi jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'lab berishga majbur bo'ladi, agarda sug'urta obyekti to'liq qiymatida sug'urtalanmaganda sug'urtalovchi mulkiy sug'urta qonuniga muvofiq mol-mulkning bahosi sug'urta summasining nisbatiga muvofiq zararning bir qismini to'lab berish huquqiga ega. Shuning uchun ham sug'urta shartnomasini imzolayotganda sug'urta summasini to'g'ri baholash maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda mulkiy sug'urta - kutilmagan xarajatlardan o'zingizni himoya qilishning samarali yo'lidir. Bundan tashqari, mulkiy sug'urta faqatgina moliyaviy

manfaatlarini himoya qilish emas, balki, o'z mulkiga nisbatan ichki xotirjamlikni ta'minlash ham demakdir.

Har bir kishi o'zi ishlab topgan moddiy boyliklari behudaga isrof bo'lishi, yo'q bo'lib ketishini xohlamaydi, shuning uchun ham mulkiy sug'urta bozori hizmatlari vujudga keldi. Ko'p hollarda, faqatgina yuridik shaxslargina emas balki jismoniy shaxslar uchun ham mulklaridan xotirjam bo'lish usuli bu ixtiyoriy mol-mulk sug'urtasi hisoblanadi.

Mulk sug'urtasi shartnomasi binolar, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish va kapital qurilish obyektlari doirasida tuzilishi mumkin. Mashinaning har xil turlari: kuch beruvchi, ishchi va boshqa asbob-uskunalar, transport vositalari va boshqa turdagi transportlar, tishli uskunalar, tayyor mahsulotlar, tovarlar, xomashyo va transfer qurilmalar ham sug'urta shartnomasiga kiritilgan bo'lishi mumkin.

Kundan kunga mulkiy sug'urta doirasida mulkka yetkaziladigan hamma zarar risklarini sug'urta qilishni iloji yo'q.

TVEFJMS sug'urtasida uchraydigan 12 ta eng mashhur sug'urta firibgarliklari:

- ✓ O'g'irlangan polis blankalaridan foydalanish;
- ✓ Blankalarning qasddan buzilishi va ularni hisobdan chiqarish – "polis ijarasi";
- ✓ Agentlar tomonidan sug'urta mukofotining sun'iy ravishda pasaytirilishi;
- ✓ Soxta blanka va muhrlardan foydalanish;
- ✓ Sug'urta kompaniyasini ogohlantirmasdan polisga qo'shimcha haydovchilarni qo'shish;
- ✓ Avariyani uyushtirish;
- ✓ YTH fitnasi "podstava";
- ✓ Ikki marta sug'urtalash va ikki marta qoplama olish;
- ✓ YTH dan keyin polisni rasmiylashtirish;
- ✓ Texnik tekshiruv natijalarini soxtalashtirish;
- ✓ Tibbiy ekspertiza natijalarini soxtalashtirish;

29.3. Hayot sug'urtasi sohasidagi firibgarlik

Sug'urta bozorida ham har qanday boshqa moliyaviy bozorlar singari sug'urta firibgarligiga taalluqli iqtisodiy jinoyatlar yuzaga keladi. Sug'urta bozorining huquqiy muammolarini asosan sivilistlar va kamdan kam hollarda jinoiy huquq organlarining mutaxasssislar tadqiq etishadi.

Biroq sug'urta sohasida va umuman sug'urta firibgarligida jinoyatlar sonining o'sishi xususan hayotga va jinoiy-huquq yo'nalishini tadqiq etishga undaydi. Sug'urta deganda yuridik va jismoniy shaxslarning qiziqishlarini qoplash uchun shakllantirilgan pul fondlari hisobidan, kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan sug'urta shartnomasiga mutanosib ravishda sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta qoplamasini (sug'urta summasi) to'lash yo'li bilan himoya qilish hisoblanadi.

Sug'urta faoliyati - sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq sug'urta bozori professional ishtirokchilari faoliyati tushuniladi. Sug'urtaning 2 muhim tarmog'i mavjud: umumiy va shaxsiy sug'urta.

Shaxsiy sug‘urta – sug‘urtaning bu turi, inson hayotiga, mehnat qobiliyatiga va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi risklardan sug‘urta himoyasiga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Qonunchilik talablariga muvofiq shaxsiy sug‘urtaning obyekti bo‘lib, inson hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati bilan bog‘liq mulkiy qiziqishlar va sug‘urtalanuvchining yoki sug‘urtalangan shaxsning nafaqa bilan ta’minlanganligi tushuniladi.

Sug‘urta, ma’lumki milliy xavfsizlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi, tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, ijtimoiy nizolar natijasida zararni qoplash nazarda tutiladi, bundan tashqari, moliya bozorining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

O‘z biznesining ishonchli himoyasi sifatida sug‘urtalanuvchilar nafaqat sug‘urta biznesining tartib-qoidalarini, balki firibgar va tovlamachilarning qonunga xilof xatti-harakatlarini bilishi shart, bundan tashqari, bunday harakatlardan ogohlantirish huquqini himoya qilish amaliyoti va xavfsizlik xizmati tomonidan ishlab chiqilgan.

Sug‘urta firibgarligi – butun dunyo sug‘urta kompaniyalari faoliyatining eng jiddiy muammolaridan biridir. Dunyo sug‘urta sanoatida firibgarlik aniqlanmaganligi natijasidagi yo‘qotishlar, turli baholarda, har yili yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining umumiy sonidan o‘rtacha 15-20%ni tashkil qiladi.

Milliy statistika jinoyatning bu turi bo‘yicha, ya’ni sug‘urta firibgarligi ko‘pgina mamlakatlarda o‘zining yuqori yashirinliligi sababli mavjud emas. Shaxsiy sug‘urta sohasidagi firibgarlik muammolari hozirgi sug‘urta bozori mutaxassislari ichida eng ko‘p muhokama qilinadi.

Sug‘urta firibgarligi – bu ijtimoiy xavfli harakat bo‘lib, sug‘urtalanuvchilar (foyda oluvchilar) tomonidan bir o‘zi yoki sug‘urta kompaniyalari vakillari bilan yoki boshqa shaxslar sug‘urta shartnomasi tuzilganda yoki sug‘urtalangan shartnomasi amal qilish muddatida va begonaning mulkini o‘g‘irlash jarayonida (sug‘urta kompaniyalarining pul vositalari) yoki ishonchni suiste’mol qilish yoki aldov yo‘llar bilan huquqini qo‘lga kiritish hisoblanadi.

Firibgarlik shaxsiy sug‘urtada xavfli hisoblanadi, chunki bu tarmoqning sug‘urta jinoyatchiligidagi ulushi juda katta. Biroq shaxsiy sug‘urta sohasidagi firibgarlik xavfi juda yuqori, chunki jinoyat bu yerda faqatgina firibgarlik jinoyati bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki shaxsga qarshi jinoyat bo‘lib, bu esa jinoyat huquqida jinoyatning og‘ir turi hisoblandi.

Jinoyatning kattagina qismi shaxsiy sug‘urta sohasida amalga oshiriladi. Bu yerda chet elga chiquvchilarning sug‘urtasini ajratib ko‘rsatish mumkin, (tibbiy falsifikatsiya va to‘lov hujjatlari). Tibbiy sug‘urtada turli xildagi uyushtirilgan shikastlanishlar va baxtsiz hodisalar tez-tez uchrab turadi. Jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasida yolg‘onlar va hujjatlarni qalbakilashtirish tez-tez namoyon bo‘ladi.

Sug‘urta sohasida amalga oshiriladigan firibgarlik, aniq holatda mulkka ega bo‘lmagan shaxs, (sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta qoplamalari va boshqalar), yolg‘on usullarni qo‘llab yoki ishonchni suiiste’mol qilgan holda, noqonuniy, dalillarsiz, pul va boshqa ekvivalentga to‘g‘ri keladigan haqni to‘lamaslik, shunga o‘xshash noqonuniy moddiy foydaga ega bo‘lish uchun ko‘rsatilgan mulkka ega bo‘ladi. O‘zbekistonda sug‘urta firibgarligining huquqiy tomonlari, nazariy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan, ilmiy asoslanlangan metodlarning aniqlanishi, ogohlantirish va sug‘urta firibgarlarini jazolash ko‘rsatilmagan.



Sug'urta firibgarligi - sug'urta shartnomasi subyektlarining noqonuniy xatti-harakatlari tushuniladi, sug'urtalanuvchiga yolg'on yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan sug'urta qoplamasini olish uchun qat'iyy belgilangan risk tahlilining kerakli miqdoriga qaraganda kamroq qismini to'lash uchun yo'naltirilgan bo'ladi, sug'urta mukofotlari (sug'urta to'lovlari), shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilish davrida yoki sug'urta shartnomasini tuzishda kerakli ma'lumotlarni yashirish, shuningdek sug'urtaning qonun va qoidalarida yuzaga keluvchi kafolatlari, sug'urtalovchilar qarzdorliksiz sug'urta qoplamasini rad qilishi, natijada sug'urta shartnomasining subyektlari noqonuniy va beminnat imkoniyatni o'z foydasiga qo'lga kiritishadi.

Boshqacha aytganda, sug'urta firibgarligida uning subyektlari, mavjud jinoiy tarkib va boshqalardan tashqari, sug'urta sohasidagi noqonuniy harakatlarning

hamma turlari kiradi. Sug'urta firibgarligining jinoyat tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi: obyekt, subyekt, obyektiv va subyektiv tomonlari.

Jinoyat huquqida jinoyat obyekti bo'lib, aybdorning tajovuz qilishi oqibatida ijtimoiy munosabatlarining jinoyat qonunlarida o'z aksini topgan jinoiy tarkibning bir qismi.

Sug'urta firibgarligining obyekti - bu sug'urta shartnomasini tuzish va majburiyatini bajarish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir (sug'urta qoplamasi to'lashni ta'minlash).

29.4. Sug'urta firibgarligiga qarshi kurashda xorij tajribasi

Avtosug'urta bilan bog'liq qallobliklar Rossiyadan ko'ra kengroq AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Sug'urtachilar tomonidan to'langan jami qoplamalarining 14-18% i firibgarlarning foydasiga to'g'ri keladi.

Firibgarlikka qarshi kurash hozirgi kunda Birlashma (Coalition Against Insurance Fraud, CIAF), firibgarlik oqibatida AQSHda 14 mlrd $ zarar ko'rilgan. AQSH (Insuranc Research Council) sug'urta tadqiqotlar kengashi xabariga ko'ra har uchta zarar ko'rgan avtomobillarga kompensatsiya bo'yicha talabnoma bir firibgarlikka to'g'ri keladi. Ekspertlar bahosiga ko'ra AQSH sug'urta kompaniyalari har yili yo'l transport hodisasi bo'yicha haydovchilarning javobgarligi bo'yicha 6.5 mlrd $, jismoniy zarar bo'yicha esa 2.7 mlrd $ kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirarkan.

Yo'l transport hodisasi tufayli sog'lig'iga to'lovlar qay tarzda olinishi: AQSH sug'urta tizimida „no-fault" qoidasi amal qiladi, bunga ko'ra zarar ko'rgan sug'urtalanuvchiga aybdor kimligidan qat'iyy nazar ko'rilgan zarar to'lab beriladi. Bunday tizim sog'liqni sug'urtasida Personal Injury Protection yoki PIP deb nomlanadi.

Bu tizim bilan bog'liq bo'lgan firibgarchiliklar quyidagicha: yo'l transport hodisasidan keyin sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lanishi bo'yicha da'volarni berayotgan yo'lovchilar avtomobilda umuman bo'lishmagan. Sug'urtalovchi kompaniya ko'pgina bunday hollarda to'lab berishgan. Bundan tashqari, qonunan, sug'urtalangan shaxs baxtsiz hodisadan keyin 180 kun ichida sug'urta tovonini olishni talab qilishi mumkin, sug'urtalovchi esa 30 kun ichida yoki to'lovni amalga oshirishi yoki rad javobini berishi kerak hisoblanadi. Ta'kidlanganidek, AQSH sug'urta bozorida shaxsiy va tibbiy sug'urtasi bo'yicha firibgarliklar anchaginani tashkil etadi. AQSHning bir qator shtatlarida shunday ahvolni ko'rishimiz mumkin. Masalan Nyu-Yorkda 55%ni tashkil etadi.

2000 yilda yo'l transport hodisalaridan keyin sog'lig'iga yetgazilgan zararlar bo'yicha da'volar miqdori 33%ga ortdi. Oxirgi 10 yillikda bu yo'nalishdagi firibgarlikliklar soni ham ikki barobarga oshganini ko'rsatadi: 1995 yilda 4393tani tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilga kelib esa 12372 tani tashkil etdi. Bu har bir sug'urtalanuvchidan olingan 100$ mukofotga 177$ firibgarlarning da'volari oqibatida to'lab berilayotganligini bildiradi.

Tabiiy ofatlar natijasida avtomobillarni atayin yo'qotilishi

2005 yilda AQSHda yuz bergan kuchli to'fondan keyin yetkazilgan zararlar bo'yicha da'volarning ko'pchiligi avtomobillarni yonib ketganligini sabab qilib ko'rsatishgan. Keyin bu avtomobillar yonib ketgan emas, balki boshqa shtatda sotilib ketganligini ko'rishimiz mumkin.

Germaniya, AQSH, Fransiyada ko'pgina shunga o'xshash hodisalar ro'y bergan, bunga misol qilib, o'z avtomobilini sug'urta qildirgan shaxslar sug'urta summasini olish maqsadida ularga atayin o't qo'yib yuborashadi, surishtiruv paytlarida esa yolg'on guvohlik berishadi.

Sug'urtalangan transport vositalarini o'g'irlanishini uyushtirish

Jinoyatchilar sug'urta shartnomasiga ega bo'lishgandan keyin, o'g'rilikni uyushtirishni rejalashtirishadi. Bunday usul ayniqsa, Latviya, Polsha, Germaniya va Fransiyada keng tarqalgan. Jinoyatchilar o'g'irlab ketuvchilar bilan til biriktirgan holda kelishib olishadi. (bunday holatlar Rossiya fuqarolari yoki Sharqiy YEvropa davlatlar fuqarolarida ko'proq kuzatiladi). Avtomobil egasi o'zi ixtiyoriy ravishda kalitni o'g'riga topshiradi. Sug'urta kompaniyasidan olinadigan summaga yangi avtomobilga ega bo'lish maqsadida rozilik bildiradi.

Masalan: 2005 yilda Vashingtonda ikki o'rtoq o'rtacha qiymati 50 000$ turadigan BMW rusumli avtomobilni o'g'irlanishini kelishib olishadi.

Ular avtomobilni maydalab qismlarga bo'lib sotishni kelishib bo'lgan. Qolgan kuzovni hamda boshqa qismlarini yondirib yuborishgan. Ular tez orada sug'urta summasini olishni ko'zlashgan edi. Lekin ularning bu operatsiyasini politsiya xodimlari sezib qolishadi.

Yo'l transport hodisasidan keyin tomonlarning almashib qolinishi. Firibgarlar o'zlari tashabbusi bilan yo'l transport hodisasini keltirib chiqarishadi. Shu bilan birga o'zlaridan iz qoldirmaslik maqsadida begunoh haydovchilarni qurbon qilishdan ham toyishmaydi. O'zlarini jabrlanuvchi qilib ko'rsatishadi.

Yo'l transport hodisasini keltirib chiqarish

Bunday holatlarda qalloblar yo'l transport hodisasini sun'iy ravishda keltirib chiqarish uchun qasddan yo'ldagi har xil narsalarga yoki to'siqlarga to'qnashib sug'urta summasiga ega bo'lmoqchi bo'lishadi. Ular yolg'on guvohlik beruvchi hamda bu vaziyatga umuman aloqador bo'lmagan ishtirokchilar bilan til biriktirgan holda ulardan yolg'on guvohlik oldiradilar.

Masalan: AQSHda 9ta jismoniy shaxs va 4ta yuridik shaxslar 129ta firibgarlik ishlarilari aybdor deb topilganlar. Ular ko'pincha mototsikl bilan bunday vaziyatlarni keltirib chiqarishgan yoki bo'lmasa shu bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni soxtalashtirishgan.

Sug'urtalanuvchilar mototsiklga zararlangan qismini o'rnatishgan va kompaniyaga ta'mirlash uchun evakuatsiya, transport vositasini saqlanganligi uchun

soxta hisoblar taqdim etishadi. Tergovchilar 200dan ortiq jami summasi 2 mln $ga teng bo'lgan shubhali da'volarni fosh qilishga erishishgan. 140 dan ortiq maxbuslar bilan hozirgi kunda tergov ishlari olib borilmoqda.

- ***Soxta ravishda sug'urta hodisasidan keyin zarar miqdorini oshirib ko'rsatish***

Hodisadan so'ng firibgarlar yetkazilgan zarardan ko'ra ko'proq miqdorda pul undirish maqsadida avtomobilga o'zlari ham ziyon yetkazib turib bularning hammasi hodisa oqibatida yuzaga kelganligini isbotlashga harakat qilishadi.

- ***Sug'urta obyekti haqida risklarni yashirish yoki buzib ko'rsatish***

Bunday vaziyatda firibgarlar sug'urta mukofotini kamaytirib ko'rsatish maqsadida kompaniyaga yolg'on ma'lumotlar berishadi va shu bilan mukofotni kamroq to'lab polisga ega bo'lib olishadi.

- ***Politsiya xodimlarining qalbaki bayonnomalari***

Bunday vaziyatlarda firibgarlar politsiya xodimlari bilan til biriktirgan holatda bayonnomada yolg'on ko'rsatmalar orqali kompaniyadan ko'proq pul undirmoqchi bo'lishadi. Masalan: politsiya xodimi Kevlin Ruts 2011 yilda yolg'on bayonnomalar tuzib 2 oy ichida qariyb 9000$ olishga erishgan. Hozir uning ustidan jinoyat ishi ochilib tergov ishlari olib borilmoqda.

- ***Avtoservislarda ta'mirlashdan so'ng qiymatni oshib ko'rsatilishi.***

Ustalar ta'mirdan so'ng zarardan ortiq bo'lgan hisob-kitob chekini taqdim etishadi. Masalan: avtoservis ustalari Stiv Moralz va Brayn Bogart 2005 yilda haqqoniy zarar miqdorini oshirib ko'rsatib mijozlarga chek taqdim etishgan va bu orqali o'zlari ham manfaatdor bo'lgan.

Boshlariga tushgan ayyorlik hiyla, qalbaki va yolg'on axborotlar bilan duch kelgan sug'urta kompaniyalari nima qilishi kerak? Olimlar tomonidan amaliyotchilar, yuristlar, detektivlar tomonidan bunday sug'urta kompaniyalariga yordam berish maqsadida bir qancha ko'rsatmalar yaratilgan. Ishning eng birlamchi va asosiy tomoni shundan iboratki, yuz minglab hujjatlardan iborat bo'lgan minglab da'volardan shubhali ko'ringan sug'urta hodisalarini tanlab olishi kerak.

Bunday shubhani topish mushkul emas, chunki firibgarlari haqiqiy sug'urta hodisasini yarata olmaydi. Chunki ayrim joylarda nuqsoni bo'ladi. Shuningdek bu yerda hamma narsa bir tekis emasligini isbotlab turuvchi holatlar, belgilar yoki oddiy qilib aytganda signallar bo'ladi.

Yo'l transport hodisasini yolg'on uyushtirib sug'urta kompaniyalarini aldamoqchi bo'lgan bir nechta holatlarni ko'rib chiqamiz. 1-jadvalda ko'rinib turibdiki firibgarlikni amalga oshirish uchun qo'llangan usul o'zida firibgarlikni fosh etuvchi belgilarni oladi.

Misol uchun biz atigi bir nechta indikator keldirdik. Amaliyotda YHH bilan bog'liq hodisalar 130dan ortiq indikator, 250dan ortiq firibgarlikni ochish bo'yicha chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun firibgarlik belgilarini bilgan odam bir qarashda bir xil ko'ringan minglab sug'urta hodisalari ichidan yuzlab qalbakilarni topa oladi.

Sug'urta firibgarligiga qarshi kurashning xorij tajribasi, aniqlangan firibgarliklarga misollar:

Sug'urta jinoyatchiligiga qarshi kurashda asosiy rol, huquq-tartibot organlariga beriladi. Shu bilan birga, tegishli xizmatlar, sug'urta idoralari va kompaniyalari xodimlari roli sug'urta jinoyatchiligi oldini olish va aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Aynan ular birinchi bo'lib jinoyatchilar va ularning turli jinoiy sxemalar bilan kontaktda bo'lishadi.

Sug'urta sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro tajriba. Sug'urta sohasida firibgarlik qarshi kurash individual sug'urta kompaniyalari va sug'urta birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Transport vositalari sug'urtasidagi jinoyatlarni asosiy maqsadini 3 guruxga ajratish mumkin:

1-guruh: Sug'urta mukofotidan katta sug'urta summasini olish;

2-guruh:Sug'urta summasini noqonuniy qo'lga kiritish;

3-guruh: Sug'urta pulini noqonuniy ko'paytirish.

30-MAVZU.
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA TIZIMI

30.1. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta faoliyatini tashkil etilishi

Evropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta munosabatlarining shakllanishi uzoq tarixga ega. Dastlab, ibtidoiy jamoa va feodallik davrlarida natural xarakterga ega bo'lgan sug'urta fondlari, ishlab chiqarishning rivojlanishi va muomalada tovar ayirboshlanishi uchun pulning paydo bo'lishi oqibatida pulli ko'rinishda tashkil etila boshlandi.

Shunisi diqqatga sazovorki, sug'urtalanishi mumkin bo'lgan obyektlarning turli-tumanligi, keng doiradagi sug'urta hodisalarining mavjudligi tufayli murakkab o'ziga xos sug'urta munosabatlari shakllana boshlandi. Chunki Yevropa davlatlarida sug'urta ishini tashkil etish shu darajada taraqqiy etganki, buni biz oddiygina qilib avtotransport egalarining uchinchi shaxsga zarar yetkazishi bilan bog'liq javobgarligini sug'urta qilishni aytib o'tish mumkin.

Aynan avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar yetkazishi bo'yicha javobgarligini sug'urta qilish bugungi kunda iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu bois avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar yetkazish bo'yicha javobgarligini sug'urta qilish barcha Yevropa davlatlarida majburiy sug'urta hisoblanadi. Bu bejiz emas.

Albatta, yo'l-transport hodisasi tufayli uchinchi shaxsga avtomobil transporti egasi tomonidan keltirilgan zarar qoplanishi zarur. Ushbu zararni g'arb mamlakatlarida sug'urta kompaniyalari qoplaydi.

Shuningdek avtomobil transporti egalarining uchinchi shaxsga uchinchi shaxsga zarar yetkazish bo'yicha javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi dastlabki qonun hujjatlari XX asrning 20-yillarida paydo bo'lgan. Ushbu sug'urtani Yevropa mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib joriy etgan davlat bu – Daniya hisoblanadi.

Ushbu voqea 1927 yili bo'lgan edi. Fransiya va Belgiyada avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar yetkazish bo'yicha javobgarligini majburiy sug'urtasi 1950 yilda, ya'ni Daniyada qabul qilingandan so'ng qariyb 23 yildan keyin joriy qilindi.

Ammo, mazkur qonun hujjatlarida bitta kamchilik mavjud edi. Bu kamchilik yo'l-transport hodisasini sodir etgan haydovchi chet el fuqarosi bo'lsa, bunday holatda jabrlanuvchiga sug'urta qoplamasini to'lashda qiyinchilik yuzaga kelar edi. Buning asosiy sababi shundan iborat ediki, sug'urta qoplamasi sug'urta kompaniyalari tomonidan faqat sug'urtalangan haydovchilarga yo'l-transport hodisasini sodir etgan taqdirdagina qoplanar edi. Chet el fuqarosi, tabiiyki sug'urta polisiga ega emas edilar.

Shu bilan bir qatorda ikkinchi jahon urushidan so'ng, Yevropada iqtisodiyotni rivojlanishi va yo'llarda avtomobil transportining ko'payishi, bu muammoni yana

o‘rtaga tashladi. Bu muammoni yechish uchun yangi bir tizimni ishlab chiqish lozim ediki, bunda:

- birinchidan, yo‘l-transport hodisasi tufayli zarar ko‘rilganda uchinchi shaxsning manfaati, aybdor haydovchi chet el fuqarosi bo‘lishidan qat’iyy nazar himoya etilishi zarurligi;
- ikkinchidan, avtomobil transporti egasiga berilgan sug‘urta polisi Yevropaning har qanday mamlakatida tan olinishi va ushbu sug‘urta polisi bo‘yicha zarur hollarda qaysi davlat hududida bo‘lishidan qat’iyy nazar sug‘urta qoplamalari to‘lanishi kafolatlanishi kerakligi.

Shundan so‘ng 1948 yil Jenevada Yevropa iqtisodiy komissiyasi huzuridagi «Transport bo‘yicha qo‘mita avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish javobgarligini majburiy sug‘urta qilish» bo‘yicha xalqaro tizim yaratish to‘g‘risida taklif bilan chiqildi va bu tizim “Xalqaro yashil karta” degan nom oldi.

Ushbu karta 1953 yilning yanvar oyidan kuchga kiritildi. Xalqaro yashil kartaga a’zo bo‘lgan Yevropa davlatlari o‘zaro kelishuvga imzo chekdilar va bunga asosan, “Yashil karta”ga a’zo bo‘lgan davlatlarning har biri avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish javobgarligini majburiy sug‘urtasi bo‘yicha polisni o‘zaro tan olishlari zarur edi.

Mazkur “Yashil karta”ga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda ushbu tizimning Byurolari tashkil etildi va ularning vazifalari quyidagilardan iborat edi:

a) sug‘urtalanuvchilarga berish uchun “Yashil karta” guvohnomalarini chiqarish;

b) ushbu mamlakatda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalari tufayli ko‘rilgan zararni qoplash.

1957 yilning mart oyida yevro Iqtisodiy hamkorlik Ittifoqini tuzgan oltita mamlakatlar tomonidan Rim shartnomasining qabul qilinishi Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning yevro hududida yagona sug‘urta makonini shakllantirish masalasini muhokama qilishga sabab bo‘ldi.

Rim Bitimining 52,59 va 67-moddalariga erkin hudud tashkil etish, xizmatlarni erkin harakat aks ettirilgan edi. Jumladan, 54-modda «tashkil etish erkinligi» huquqini bera turib, shu narsani e’tirof etadiki, Yevropa Iqtisodiy Ittifoqiga kiruvchi biror-bir mamlakatlar hududiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar ittifoqning xohlagan mamlakatida o‘zining vakolatxonalarini yoki bo‘limlarini ochish huquqiga ega va u yerdagi shart-sharoitlar asosiy qonunchilik bilan mustahkamlangan va unga mos keladi.

30.2. Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi

Rivojlangan mamlakatlarda ko‘p hollarda sug‘urta bozorini tartibga solish ikki usulda amalga oshiriladi:

1. sug‘urta bozorini o‘z-o‘zini tartibga solish;
2. sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta bozorini o‘z-o‘zidan tartibga solish xalqaro sug‘urtalovchilar birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ulardan biri sug‘urta masalalari bo‘yicha Yevropa komissiyasidir.

Bu komissiya 1953 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi Yevropa sug‘urta bozorining rivojlanishiga ko‘maklashish va Yevropa sug‘urta bozorining manfaatlarini xalqaro darajada taqdim etish hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida sug‘urta bozorini tartibga solish sug‘urta bo‘yicha yevrokomissiya tomonidan hayot sug‘urtasi va umumiy sug‘urta bo‘yicha direktivalarni qabul qilish va ijro etish asosida amalga oshiriladi.

Yevropalik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida sug‘urta bozorini tartibga solish quyida keltirilgan uchta bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich: 1973-1987-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar sug‘urtalovchilarning sho‘ba tashkilotlari va filiallari faoliyatiga o‘rnatilgan cheklovlar bekor qilindi.

Shuningdek 1973 yil 24 iyulda sug‘urta bo‘yicha Yevropa Ittifoqining birinchi direktivasi qabul qilingan. Ushbu direktivaga asosan Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar sug‘urtalovchilariga Ittifoqqa a’zo har qanday davlat hududiga o‘zlariga tegishli sho‘ba sug‘urta tashkilotlari filiallari yoki bo‘limlari orqali hayot sug‘urtasidan tashqari boshqa sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini sotishlari uchun ruxsat berildi. Shu bilan birga direktiva sho‘ba sug‘urta tashkilotlari va filiallar faoliyatini litsenziyalash tartibini ancha soddalashtirdi.

1975 yil 5 martda hayotni sug‘urta qilish bo‘yicha yuqoridagi kabi yevro Ittifoqi sug‘urta komissiyasi tomonidan Direktiva qabul qilindi. Bu Direktivaga binoan hayot sug‘urtasiga ixtisoslashgan sug‘urtalovchilarning o‘z filiallari va sho‘ba korxonalari orqali Yevropa Ittifoqiga a’zo boshqa davlatlarning hududlariga sug‘urta faoliyatlarini amalga oshirishlarida qattiq tartib belgilangan.

Ikkinchi bosqich: o‘z ichiga 1987-1994 yillarni oladi va bu davr Yevropa Ittifoqi hududida sug‘urta bozorini tartibga solishning unifikatsiyalashgan shakliga o‘tish bilan ajralib turadi. Ma’lumki, 1987 yil yagona Yevropa bozori to‘g‘risida bitim imzolangan edi. Mazkur Bitimga asosan, 1992 yilga kelib Yevropa Ittifoqi hududida tovarlar va xizmatlar ko‘rastishning erkin rejimiga o‘tish bo‘yicha yagona Yevropa bozorini shakllantirishga qadam qo‘yildi.

Shu munosabat bilan, 1975 yilda boshlangan va qariyb 12 yildan so‘ng, ya’ni 1987 yilga kelib sug‘urta bozorini tartibga solish bo‘yicha rasmiylashtirilgan yana bitta Direktiva qabul qilindi. Bu Direktivaga ko‘ra Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatning sug‘urta kompaniyalari Yevropa Ittifoqining barcha hududiga mahalliy sug‘urta organlarining ruxsatnomalarini olmasdan umumiy sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha faoliyatini amalga oshirishlari mumkin. Ya’ni bu amalda Yevropa Ittifoqiga a’zo

barcha davlatlar sug‘urta faoliyatini litsenziyalashning milliy infratuzilmasini o‘zaro tan olishlarini bildiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Yevropa Ittifoqi umumiy sug‘urta turlariga nisbatan hayot sug‘urtasi bozorining yagona bozor doirasida integratsiyalashgan jarayoni juda sekin kechdi. Umumiy sug‘urta tarmog‘ining Yevropa hududida jadal sur’atlar bilan integratsiyalashuviga asosiy sabab shu ediki, mulk va boshqa shunga o‘xshash sug‘urta turlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan yirik Yevropa sug‘urtalovchilari qo‘shni davlat sug‘urta bozorida to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urta mahsulotlarini sotishga kuchli qiziqish bilan qaradilar.

Yevropa Ittifoqining boshqa direktivalari sug‘urta tashkilotlari faoliyatining aniq masalalari yechimini topishga qaratildi. Qizig‘i shundaki, ushbu direktivalarning salmoqli qismi majburiy emas, balki tavsiyaviy tusga ega edi. Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning sug‘urta bozorini tartibga solishda bu hujjatlar inobatga olinishi yoki olinmasligi ham mumkin edi.

Uchinchi bosqich: 1994 yildan boshlangan bo‘lib, unda unifikatsiyalashgan rejim asosida Yevropa Ittifoqining yagona sug‘urta bozori faoliyat ko‘rsata boshladi. Yevropa Ittifoqi hududida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hech qanday yuridik hujjatlarni rasmiylashtirmasdan boshlandi. Oqibatda sug‘urta bozorlarini tartibga solishning milliy tizimlari o‘zaro uyg‘unlashdi.

Evropa Ittifoqiga a’zo davlatlarining ayrimlariga uzoq yillar davomida sug‘urta bozorini tartibga solishning kontinental modeli amal qilgan edi. Ammo Yevropa Ittifoqi doirasida integratsiyalashuv jarayonining kuchayishi ushbu mamlakatlarning ham liberal modelga o‘tishlariga sharoit yaratdi. Bunga misol sifatida Fransiyani keltirish mumkin. Bu davlatda uzoq yillar davomida sug‘urta bozorini tartibga solishda kontinental model amal qilgan.

Ammo 1986 yilda Fransiya sug‘urta bozorini qat’iyy tartibga solish rejmidan voz kecha boshladi. Shuni unutmaslik kerakki, sug‘urta bo‘yicha Yevropa Ittifoqi direktivalarining qabul qilinishi a’zo davlatlar sug‘urta bozorlarini tartibga solishning milliy tizimlaridan voz kechishini anglatmaydi. Aksincha, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar sug‘urta nazorati organlari o‘z hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mahalliy va xorijiy sug‘urtalovchilar faoliyatini, ayniqsa, ularning moliyaviy holatini nazorat qilish huquqiga egadirlar.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi direktivalari sug‘urta bozorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishning muhim dastagi bo‘lib hisoblansada, sug‘urta bozorini tartibga solish milliy sug‘urta nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda har bir davlat sug‘urta bozorining xususiyatlari mavjud milliy an’analar va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning modellari, shakllari va uslublari bir-biridan farq qilishi mumkin.

Sug'urta bozorini tartibga solish mexanizmlarining nafaqat Yevropa Ittifoqida, balki sug'urta bozorining jahon miqiyosida globallashuvi xalqaro darajada sug'urta bozorlarini tartibga solish usullarini muvofiqlashtirib borishni taqozo etmoqda. Shuningdek so'nggi yillarda milliy sug'urta bozorlarini tartibga soluvchi davlat idoralari xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqdalar.

Bundan asosiy maqsad sug'urta biznesining bir davlat hududidan chiqib, boshqa davlatlarga kirib borishi hamda qayta sug'urta bozorlarining rivojlanishi bo'yicha axborotlar bilan o'zaro tanishish va tajriba almashishdan iborat.

Jahon miqyosida sug'urta bozorining davlatlararo integratsiyalashish jarayonlarini muvofiqlashtirish maqsadida 1994 yil sug'urta nazorati organlarining xalqaro Assotsiatsiya tashkil etildi. Hozirgi paytda ushbu assotsiatsiyaga jahonning 140 davlatidan 150 ta vakil a'zo bo'lgan. Shuningdek, unda 120 dan ortiq kuzatuvchilar ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi 2009 yilda mazkur assotsiatsiyaga a'zolikka qabul qilingan.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish ham o'zgacha. Masalan, Buyuk Britaniyada sug'urta ishini savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug'urta bo'limi, AQSHda esa maxsus sug'urta komissariatlari nazorat qilib boradi.

Har bir davlatning bunday nazorat ishini olib borishda, mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga asoslanadi.

30.3. Rivojlangan mamlakatlar sug'urta tizimida korporativ boshqaruvning tashkil etilishi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, tadqiqotchilar aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishning ingliz-amerika, nemis va yapon modellarini ajratadilar. Ularning har biri ham zaifli, ham kuchli tomonlarga, o'ziga xos agentlik chiqimlariga ega.

Ingliz-amerika modelida asosiy e'tibor aksiyadorlarga berilsa, nemis va yapon tizimlarida aksiyadorlar va boshqa tashqi manfaatdor shaxslar (kreditorlar, xodimlar, ishbilarmonlar hamjamiyati, ekologik tashkilotlar va hokazo) manfaatlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega.

Odatda, bitta yurisdiksiya doirasida korporativ boshqaruvning qandaydir yagona model ustuvorligi ta'minlanadi. Biroq korporativ boshqaruvning bir-biriga butunlay zid bo'lgan ikkita tizimining bitta yurisdiktsiya doirasida bo'lishi korporativ boshqaruv tizimining qonun tomonidan tartibga solinishi samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin.

Korporativ boshqaruv samaradorligi bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlar AQSH va G'arbiy Yevropaning korporatsiyalari mexanizmlari va tavsiflarini o'rganishga qaratilgan.

Shuning uchun amerikalik mutaxassislar shunday xulosa qiladilarki, samarali korporativ boshqaruv o'z ichiga nafaqat, foydani barcha aksiyadorlar o'rtasida adolatli va mutanosib taqsimlashni, balki menejerlarning aksiyadorlar uchun sof foydani ko'paytirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishlarini kafolatlovchi mexanizmlarni shakllantirishni ham oladi.

Korporativ boshqaruvning ingliz-amerika modeli Buyuk britaniya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada va boshqa ayrim mamlakatlar korporatsiyalarida qo'llaniladi hamda ishtirokchilarning ko'pchilik soni bilan ajralib turadi. Bular tarkibiga boshqaruvchilar, direktorlar, aksiyadorlar (asosan institutsional investorlar), hukumat tuzilmalari, birjalar, o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlar va konsalting firmalari kiradi.

Ushbu modelga yakka tartibdagi va korporatsiyadan mustaqil bo'lgan aksiyadorlarning bo'lishi, shuningdek uchta asosiy ishtirokchilar, ya'ni boshqaruvchilar, direktorlar hamda aksiyadorlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi aniq ishlab chiqilgan qonunchilik bazasi kiradi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishlarida va oraliq davrlarda korporatsiya hamda aksiyadorlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini ham ta'kidlab o'tish joiz. Sug'urta kompaniyalarining mazkur modeldagi roli va ishtiroki katta emas, chunki unda boshqaruvning yagona kollegial organi – Direktorlar kengashi ko'zda tutilgan bo'lib, unga aksiyadorlar va ijro organi rahbari kiradi. AQSH qonunchiligiga ko'ra, bosh direktor va kompaniya Direktorlar kengashi raisi lavozimlarini qo'shib olib borishga yo'l qo'yiladi. Bunday holat kompaniyalarning 80 foizida kuzatiladi.

Mazkur model bo'yicha mulkdorlarning asosiy maqsadi korporatsiya aksiyalari kurs qiymatining o'sishi hisobiga daromad olish hisoblanadi. Shuning uchun ingliz-amerika modelida asosiy rolni fond birjalari o'ynaydi. Ular listing bo'yicha talablarni, axborot ochib berish darajasini va boshqa talablarni belgilaydi.

Korporativ boshqaruvning nemis modeli yoki kontinental model G'arbiy Yevropa (Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Niderlandiya) va Shimoliy Yevropa mamlakatlariga xos hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishning mazkur modeli uch bo'g'inli bo'lib, o'z tarkibiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishini, Kuzatuv kengashi va boshqaruvni oladi. Bu model Fransiyadagi ayrim kompaniyalarda va Belgiyada amal qiladi. Markaziy va Sharqiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida korporativ boshqaruv tizimini barpo etishda ham shu modeldan foydalanilgan.

Korporativ boshqaruvning nemischa modeli qo'llaniladigan mamlakatlarda ma'lum darajadagi kontsentratsiya kuzatiladi. Yirik nemis kompaniyalarida beshta

yirik kompaniyalar hissasiga ularning har biri aksiyalarining 40 foizdan ortiqrog'i to'g'ri keladi. Bu esa ingliz firmalari mol-mulki konsentratsiyasi darajasidan 2 baravar va Shimoliy Amerika kompaniyalari mol-mulki konsentratsiyasi darajasidan 60 foizga yuqoridir. Germaniyada aksiyadorlik kompaniyalarining 71 foizidan ko'prog'ida mulkdor aksiyalarning 50 foizini nazorat qiladi, 35 foiz aksiyadorlik kompaniyalarida esa aksiyalarning to'liq 100 foizi bitta mulkdorga tegishli.

Germaniyada yakka tartibdagi investorlar – jismoniy shaxslar hissasiga 17 foiz aksiyalar to'g'ri keladi, korporativ investorlar esa nemis kompaniyalari aksiyalarining 64 foizini nazorat qiladi (22 foizi moliyaviy institutlar, jumladan banklar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari va boshqalar; 42 foizi nomoliyaviy kompaniyalar).

Bundan tashqari, Germaniya korporatsiyalari kapitali tuzilmasida xorijiy investorlarning (14 foiz) va davlatning (5 foiz) hissasi katta. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyaning tegishli ko'rsatkichidan 2 baravar yuqori.

Germaniyada AQSHdan farqli o'laroq birorta korporatsiya aksiyadorlik kapitalining katta qismi boshqa korporatsiyalarga tegishli bo'ladi, ya'ni aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish tizimi mavjud.

Nemis sug'urta kompaniyalari uchun sotib olinayotgan aksiyalar paketi miqdori va aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish imkoniyatlari bo'yicha cheklovlar yo'q. Bu esa ularga korporativ aksiyalarning yirik paketini to'plash imkoniyatini beradi.

Yakka tartibdagi investorlar qo'lida so'rovchiga sertifikat shaklidagi aksiyalarning 20 foizidan kamrog'i to'plangan. Germaniyaning aksiyadorlik kapitali yuqori darajadagi konsentartsiyaga ega.

Bu korporatsiya faoliyatini nazorat qilishdan va fond bozori xizmatlaridan kamroq foydalanishdan manfaatdorlikning yuqori darajasidan dalolat beradi.

Germaniyada direktorlar kengashiga raislik qilish huquqi, ko'pincha, banklar va sug'urta kompaniyalariga beriladi. Eng katta aksiyalar paketlari egalarining manfaatlarini tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari himoya qiladi. Sug'urta kompaniyalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishda ishonchnoma asosida aksiyadorlar nomidan ishtirok etadi.

Bunda sug'urta kompaniyalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritiladigan masalalar, shuningdek, u yoki bu masalalar bo'yicha ovoz berish tartibi haqida oldindan xabar beradilar.

Shunday qilib, Germaniyada korporatsiyalar ustidan bank va sug'urta kompaniyalari nazorati o'rnatilgan. Korporativ boshqaruvning nemis modeliga xos xususiyatlardan yana biri korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining AQSH va Buyuk britaniyaga nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Bu birinchidan, yaqin yillargacha amalda bo'lgan bankdan tashqari moliyalashtirishga nisbatan cheklovlar bilan, ikkinchidan bitta qarzdorga ssuda berish bo'yicha banklarga katta limitlar berilganligi bilan belgilanadi.

AQSHda banklar bitta qarzdorga o'z kapitalining 15 foizidan ortadigan miqdorda ssuda berolmaydi. Germaniyada esa bu limit 50 foizni tashkil etadi. Bu tizim mayda aksiyadorlarga nisbatan qaysidir ma'noda ziddiyatlidir: bir tomondan, aksiyadorlar takliflar kiritishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, korporatsiyalar ovoz berish huquqiga cheklovlar o'rnatishlari mumkin. Nemischa moliyaviy hisobot tizimining asosiy farq qiluvchi tomoni shundaki, nemis korporatsiyalariga taqsimlanmagan foydaning katta qismini o'z ixtiyorida qoldirish huquqi berilgan.

Korporativ boshqaruvning nemis modeli ijtimoiy o'zaro ta'sir tamoyilining amal qilishi bilan farqlanadi. Ushbu tamoyil korporativ munosabatlar barcha ishtirokchilarining manfaatlarini o'zaro moslashtirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu model barcha taraflarni uzoq muddatli maqsadlarga bo'ysundiradi, korporatsiya barqarorligini va korporatsiyalar o'rtasidagi aloqalarning barqarorligini ta'minlaydi. Germaniya modelining asosiy kamchiligi shundaki, nemis kompaniyalari yetarlicha moslashuvchan emas, tavakkalchilikdan qochadi, rivojlanish uchun muhim bo'lgan ayrim qarorlarni tezkorlik bilan qabul qila olmaydi.

So'ngi yillarda raqobat nemis korporatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga ko'proq murojaat qilishga majbur etayapti. Bu esa, o'z navbatida, korporativ boshqaruvning nemis modelini o'zgarishiga sabab bo'layapti. Xususan, bu holat milliy xususiyatlardan chekinishga, ya'ni moliyaviy qonunchilik standartlarini xalqaro investorlar talablariga moslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Korporativ boshqaruvning yapon modeli ikkinchi jahon urushi davrida amerikalik mutaxassislar tazyiqi ostida shakllangan. Ingliz-amerika modelida u yagona kollegial boshqaruv organi – Direktorlar kengashini tuzishni nazarda tutgan bo'lib, uning tarkibiga to'liq ijrochi direktorlar kiradi. Yapon modelining boshqa bir xususiyati, nemis modelida bo'lgani kabi, o'zaro ish faoliyatlari bilan bog'langan kompaniyalar aksiyalariga qarama-qarshi egalik qilish tamoyiliga asoslangan.

Aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish "Keyretsu" tadbirkorlik guruhlariga bir-birining faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini beradi va o'zaro bog'langan kompaniyalar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, korporativ boshqaruvning xalqaro modellari bir-birini inkor etmaydi. Boshqaruv organlari va ular faoliyatini tashkil etishning turli modellariga baho berilganda, har bir model kuchli va zaif tomonlariga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Sug'urta kompaniyalari korporativ boshqaruv modelini qabul qilishda ko'proq nemis-yapon standartlariga afzallik berishlari mumkin.

Korporativ boshqaruv boshqarish obyekti sifatida o'z xususiyatlariga ega hisoblanib, boshqaruv aksiyadorlarning foydasini ko'zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsiyalarning rivojlanishini ta'minlash, aksiyadorlarning huquqlarini hisobga olish, korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan buladi.



30.1-rasm. **Boshqaruv shakli**[255]

Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyat vujudga keladi va tartib qoidalarning tamoyillari, urf-odatlari va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ boshqaruvning vazifalariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibardorligini oshirish;
-aksiyalar narxining o'sishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy qiymatning jamg'arilishi;
-jamiyatning rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish;
-aksiyadorlik jamiyatlari biznes-rejalarini tasdiqlash va ular bajarilishini nazorat qilish va faoliyatning boshqa muhim masalalarini hal qilish.

Shunisi diqqatga sazovorki, ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar, nemis sug'urta tashkilotlari Yevropa miqyosida va dunyoning boshqa mamlakatlarida ko'plab filial va vakolatxonalarga ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng esa, ular ichki bozorda sug'urta xizmatlarini ko'rsata boshlagan.

Faqat o'tgan asrning 70-yillariga kelib, nemis sug'urta tashkilotlari chet mamlakatlarda filiallar tashkil etishga kirishdi.

Germaniyadagi eng yirik sug'urta tashkilotlaridan biri – «Alyans Aksiengezelshaft xolding» kompaniyasidir. U dunyodagi kuchli 20 ta sug'urta tashkilotlari jumlasiga mansub. Ushbu sug'urta tashkiloti 1890 yilda tashkil topgan bo'lib, u 1910 yillardayoq yirik sug'urta tashkilotiga aylandi. O'tgan asrning 20-30 yillarida «Alyans» guruhi (ba'zi adabiyotlarda uni qisqacha shunday nom bilan atashadi) bir nechta sug'urta tashkilotlari yutib oladi va hozirgi paytda ham bu jarayon davom etmoqda.

[255] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

Guruh nemis sug'urta bozoridagi 18 ta kompaniyaning nazorat aksiyalar paketiga ega. «Alyans» guruhi uy hayvonlaridan tortib zamonaviy havo laynerlarini va atom elektr stansiyalarini ham sug'urtalashga qodir.

Nemis sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan yana bir katta va nufuzli tashkilotlardan biri – «Myunxener Re» qayta sug'urta qilish kompaniyasidir. U dunyodagi eng yirik 10 ta qayta sug'urtalovchi kompaniyalar qatoriga kiradi. «Myunxener Ryuk» 1880 yili tashkil etilgan. Hozirgi paytda kompaniya dunyoning 135 ta mamlakatida o'z faoliyatini olib boradi.

Germaniyada hayot sug'urtasi nisbatan taraqqiyot etgan. Negaki, bu yerda hayot sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari daromad solig'iga tortishda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi.

1997 yilda Germaniya sug'urta tizimidagi eng yirik sug'urta tashkilotlaridan biri – "Alyans xolding" hisoblanadi. Bu sug'urta tashkiloti faqat Germaniya emas, balki jahondagi yetakchi kompaniyalar sonidan ishonchli o'rin egallaydi. "Alyans xolding" sug'urta tashkiloti Germaniyadan 18 ta yirik kompaniyalari aksiyalarini nazorat paketiga ega.

Shunday qilib, biz Germaniyada sug'urta faoliyati rivojlanishining hozirgi holatini yilmiy tadqiq etish asosida sug'urta yuksak darajada taraqqiy etganligiga guvoh bo'ldik.

Yevropa sug'urta tizimining, shu jumladan, Germaniya sug'urta tizimining xarakterli xususiyatlaridan biri aholi turmush tarzi va uning atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq xavf-xatarni paydo bo'lishidir. Keyingi 4 yilga mo'ljallangan istiqbolni bashorat qilish, g'arbiy Yevropa mamlakatlarida katta yoshdagi aholi qatlamining jadal sur'atlarda ko'payib borayotganligini ko'rsatgan. Masalan Germaniyada pensiya yoshidagi fuqarolarni sug'urtaviy himoyaga olishning yangi turlarini ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumki, yoshga qarab tibbiy xarajatlar summasi oshib boradi. Sug'urta bo'yicha Germaniya Federal idorasining ma'lumotlariga qaraganda, Davlat tibbiy sug'urtasi dasturi bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlari bir yilda 30 yoshli fuqaro uchun 750,0 yevroni, 80 yoshli fuqaro uchun esa 350,0 yevroni tashkil etadi.

Germaniyada sug'urta faoliyatini boshqarishning hozirgi holatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, avtotransport vositalarini sug'urtalashda ham muammolar paydo bo'lmoqda. Keyingi yillarda Germaniyada avtomashinalarni o'g'irlanishi tufayli, nemis sug'urta tashkilotlari bir yilda o'rtacha 2,5 mlrd marka miqdorida zarar ko'rdilar. Bunday ko'ngilsiz holatni oldini olish uchun sug'urta tashkilotlari risklarni tanlash va tarif stavkalarini oshirish usulidan foydalanishdi. Sug'urta xizmatlariga narx-navoni oshishi, faqat, avtomobil transporti sug'urtasida emas, balki mol-mulk sug'urtasida ham kuzatiladi.

Germaniya sug‘urtalovchilar ittifoqi shartnomalar bo‘yicha qayta hisob-kitoblar to‘g‘risida sug‘urtalanuvchilarni muntazam xabardor qilib borishni sug‘urta tashkilotlariga tavsiya etdi.

Germaniya sug‘urta faoliyatini huquqiy tartibga solish normativlari:

- ✓ sug‘urta kelishuvi to‘g‘risidagi qonun (1908-yil 30 may);
- ✓ sug‘urta nazorati to‘g‘risidagi qonun (1901 yil 12 may, 1985,1990);
- ✓ Federal muassasa to‘g‘risidagi qonun (1951 yil 31 iyul);
- ✓ sug‘urtalashning umumiy shartlar to‘g‘risida akt;
- ✓ Avtotransport egalarining majburiyatini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun (1965 yil).

Sug‘urta kelishuvi to‘g‘risidagi qonun 1908-yil 30 mayda qabul qilingan bo‘lib unda, sug‘urta shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslari va asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Shuningdek sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchining huquq va majburiyatlari ham aniq o‘z ifodasini topgan.

Sug‘urta nazorati to‘g‘risidagi qonun 1901 yil 12 mayda qabul qilingan bo‘lib unda, sug‘urta tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Federal muassasa to‘g‘risidagi qonun 1951 yil 31 iyulda qabul qilingan bo‘lib unda, Federal muassasaning funksiyalari, huquqlari, tarkibi, maqomi, huquqiy asoslarini belgilovchi asosiy normativ qonun. Ushbu qonun Federal muassasaning sug‘urta tashkilotlariga nisbatan vakolatlarini aniqlab beradi.

Sug‘urtalashning umumiy shartlar to‘g‘risida akt Germaniyada mavjud har bir sug‘urtaning alohida tarkibiy qismlari tasniflangan bo‘lib, u federal kuchga ega.

Federal muassasa sug‘urta bozoridagi ishtirokchilarning faoliyatini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi organ hisoblanib, uni prezident boshqaradi, mustaqil davlat organi. Moliya vazirligi tomonidan nazorat qilib boriladi va Berlinda joylashgan.

Federal muassasa qoshida “sug‘urta kengashi” faoliyat yuritadi. “Sug‘urta kengashi” ekspertlardan tashkil topgan bo‘lib, 5 yil muddatga Moliya Vaziri tomonidan tayinlanadi.

“Sug‘urta kengashi” har biri 5 nafar vakildan iborat bo‘lgan 5 ta palatadan iborat.

Federal muassasaning vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- ➢ sug‘urta faoliyati chegaralarini o‘rnatib beruvchi normativ aktlarni qabul qilish;
- ➢ sug‘urta kompaniyalarini litsenziyalash;
- ➢ sug‘urtalovchilarning joriy nazoratini amalga oshirish;
- ➢ sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini nazorat qilish;
- ➢ sug‘urtalanuvchilar huquqlarini himoya qilish;
- ➢ sug‘urtalovchilar buxgalteriya hisobi va hisobotlarini nazorat qilish;
- ➢ sug‘urta faoliyati sohasida metodologiyalarni ishlab chiqish;

➢ Muammoli sug‘urta kompaniyalarga o‘z vakillarini yo‘naltirish.

Germaniyada qayta sug‘urtalovchi kompaniyalar chegaralangan moliyaviy nazoratga ega, xorijiy qayta sug‘urtalovchi kompaniyalar esa moliyaviy nazoratga tortilmaydi.

Germaniyada sug‘urta kompaniyalarini litsenziyalash tartibi yangi tashkil qilinayotgan sug‘urta kompaniyasi Federal muassasaga ariza bilan murojat qilishi va unga sug‘urta kompaniyasi ustav kapitalini tasdiqlovchi hujjat (minimal 5 mln yevro), direktorlar kengashi haqida ma’lumot, yuqori boshqaruv haqida ma’lumot, yaqin 3 yil ichida sug‘urta kompaniyasi faoliyati ish rejasi (tariflar, shartlar, qayta sug‘urtalash dasturi, sug‘urtalashning xarajatlar smetasi) kabi ma’lumotlarni FMga taqdim qilishi lozim.

Germaniyada alohida litsenziya talab qiluvchi sug‘urta turlari mavjud:

- hayot sug‘urtasi;
- ixtiyoriy tibbiy sug‘urta;
- kredit sug‘urtasi;
- ijtimoiy sohaga qilinadigan byudjet xarajatlarini kamaytiradi;
- fuqarolarni individual himoyalash samaradorligini oshiradi.

Germaniyada sug‘urta bozori sug‘urta sohasidagi eng katta ulush davlatlararo jismoniy shaxslarni sug‘urtalash bo‘lib, nemis sug‘urta bozorining 87%ni tashkil qiladi.

31-MAVZU.
GLOBAL RISKLAR SUG‘URTASI. TRANSMILLIY SUG‘URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

31.1. Global risklar va ulardan himoyaning moliyaviy vositalari global risklar sug‘urtasi

Dunyoda yuz berayotgan turli darajadagi global risklardan ko‘rilayotgan zarar hajmi ortib borayotganligi va ular nafaqat iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqarib qolmasdan, balki minglab odamlarning qurbon bo‘lishlariga, shuningdek, davlatlarning barqaror rivojlanishiga ham xavf solmoqda.

1900-2016 yillar davomida dunyo hududlarida yuz bergan tabiiy ofatlar oqibatida jami $7 trlndan ko‘proq iqtisodiy zarar ko‘rilgan bo‘lsa, qurbon bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan odamlarning soni 8 mln dan ortganligi qayd etilgan. Ushbu yillar kesimida jami yuz bergan 35 mlndan ortiq tabiiy ofatlarning tarkibida mos ravishda, suv toshqinlari – 40, zilzilalar – 25, qurg‘oqchiliklar – 12, yong‘inlar -2 va boshqa ofatlar -21 foizni tashkil etgan.[256]



Офатлар оқибатида қурбон бўлган ёки бедарак йўқолган одамлар сони (минг)							
15	304	30	14	26	13	26	10

1-diagramma. Dunyoda ofatlardan ko‘rilgan jami zararlar, ularning oqibatida to‘langan sug‘urta qoplamalari summasi ($ mlrd) va qurbon bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan odamlar soni (2009-2016 y.).[257]

Shuni keltirib o‘tish lozimki, globallashuv jarayonida dunyo hududlarida turli darajadagi ofatlarning takrorlanish davriyligi o‘rtacha 25-30 yilni tashkil etmoqda va ular katta hajmdagi iqtisodiy zararlar ko‘rilishiga sabab bo‘lmoqda.

---

[256] Статистика катастроф, стихийных бедствий, катаклизмов.//www.kosmm.ru/pst1.html

[257] «Swiss Re» qayta sug‘urtalash kompaniyasining katastrofik risklar bo‘yicha tadqiqotlari (masalan, *www.swissre.com /library/Global_insurance_review_2016_and_outlook_201718.html маълумотлари)* asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Xususan, bir yilda o‘rtacha AQSHda - $50, Yaponiyada - $24, Xitoyda -$19 mlrd miqdorida zarar ko‘rilgan bo‘lsa, birgina zilziladan ko‘rilgan o‘rtacha zarar summasi $7 mlrd darajasida bo‘lmoqda.[258]

Xususan, 2009-2016 yillar davomida ofatlarning takrorlanib turishi oqibatida ko‘rilgan jami iqtisodiy zararlar bo‘yicha o‘rtacha bir yilga to‘g‘ri keladigan statistik kattalik $173 mlrd., to‘langan sug‘urta qoplamalar bo‘yicha hajmi esa, $51 mlrd qiymatida bo‘lganligi, shuningdek, qurbon bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan odamlarning bir yilga to‘g‘ri keladigan soni qaryib 18 mingni tashkil etganligi aniqlandi (1-diagramma).

Hususan, 2011 yilda tabiiy ofatlardan Osiyo hududida joylashgan rivojlanayotgan mamlakatlar eng ko‘p, ya’ni $250 mlrd[259], 2012 yilda esa, AQSHda ular oqibatida $119 mlrd, shu jumladan, birgina «Sendi» bo‘hronidan $70 mlrd miqdorida iqtisodiy zarar ko‘rilgan.[260]

2013 yilda ofatlardan jami ko‘rilgan iqtisodiy zarar $140 mlrd miqdorida bo‘lgan, shu jumladan Osiyo, Shimoliy Amerika va Yevropa hududlarida suv toshqinlari va boshqa tabiiy ekstremal hodisalar oqibatida $131 mlrd miqdorida zarar ko‘rilgan hamda ular bo‘yicha jami $45 mlrd miqdorida sug‘urta qoplamalari to‘langan, shuningdek, qurbon bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan odamlar soni qaryib 26 mingni, Osiyo hududlari bo‘yicha esa eng ko‘p, ya’ni qaryib 20,7 mingni tashkil etgan.

2014 va 2015 yillarda ofatlardan jami ko‘rilgan iqtisodiy zarar, mos ravishda $110/$94 mlrd. miqdorida bo‘lgan, shu jumladan, Amerika hududlarida keyingi 25 yil davomida o‘rtacha 6-9 foiz darajasida ortib borish an’anasi kuzatilayotgan konvektiv bo‘hronlar, ya’ni tornado (soatiga 90 km/26 mil va undan kuchli, xususan, 2015 yilda ularning soni 1252 tani tashkil etgan), do‘l (diametri 2 sm va undan katta), shuningdek, kuchli yomg‘ir va suv toshqinlari yuz berganligi oqibatida ko‘rilgan zarar keltirilgan yillar bo‘yicha mos ravishda $10/$13 mlrd dollar miqdorida zarar ko‘rilgan.

Keltirilgan yillarda, mos ravishda, jami $35/$37 mlrd miqdorida sug‘urta qoplamalari to‘langan, qurbon bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan odamlar soni, mos ravishda 13/26 mingni, xususan, 2015 yilning aprel oyida Nepal hududlari yuz bergan zilzila oqibatida 19 mingni tashkil etgan.[261]

2016 yilda ofatlardan jami $158 mlrd, shu jumladan, dunyoning turli hududlarida, masalan, Tayvan, YAponiya, Ekvador, Italiya va Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda ro‘y bergan kuchli zilzilalar oqibatida jami $20 mlrd.

---

[258] Форд И. О. Бардин И. Ю. Формирование страховых механизмов компенсации ущерба от катастрофических рисков//www.actuaries.ru/magazine/detail.php?ID=4881

[259] Макарова Е.А. Стихийные бедствия как вызов мировой экономической системе//www.hse.ru/pubs/share/direct/document/65371948

[260] https://newdaynews.ru/inworld/431161.html

[261] *«Swiss Re» qayta sug‘urtalash kompaniyasining katastrofik risklar bo‘yicha tadqiqotlari asosida keltirildi.*

Xitoyda Yanszi daryosining kuchli yomg'irlar yog'ishi sababli to'lib-toshishi oqibatida yue bergan suv toshqinlaridan $16 mlrd., miqdorida iqtisodiy zarar ko'rilgan.[262] Ofatlardan ko'rilgan zararlar bo'yicha jami $49 mlrd. miqdorida sug'urta qoplamalari to'langan. 2016 yilda qurbon bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan odamlar soni qaryib 10 mingni tashkil etgan.[263]

2009-2016 yillarda dunyoda ofatlardan ko'rilgan jami zararlar tarkibida tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlar hajmi keltirilgan yillarga mos ravishda $61/$218/$388//$176 $131/$101/$82//$150 mlrd miqdorida bo'lgan yoki o'rtacha bir yilga $156 mlrd to'g'ri kelgan (2-diagramma).



2-diagramma. Dunyoda tabbiy ofatlardan ko'rilgan iqtisodiy zarar summasi, ular bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari hajmi va sug'urtalanmagan zararning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi (2009-2016 y.) [264]

Keltirilgan yillarda dunyoda ofatlardan ko'rilgan jami zararlar tarkibida tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlar bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari hajmi keltirilgan yillarga mos ravishda $22/$31/$103/$65 $37/$28/$28//$42 mlrdni tashkil etgan yoki ularning o'zaro nisbati 2009, 2012, 2015 yillarda 1/3 ; 2011, 2013, 2014, 2016 yillarda 1/4 ; 2010 yilda esa, eng past, ya'ni 1/7 darajasida bo'lgan yoki

[262] Убытки страховой отрасли от природных и техногенных катастроф в 2016 году выросли до $49 млрд Обзор Swiss Re//formsurer.com/news/16/12/21/34710

[263] www.insurancebiz.org

[264] *«Swiss Re» qayta sug'urtalash kompaniyasining katastrofik risklar bo'yicha tadqiqotlari 2009-2016 yillar davomidagi iqtisodiy tadqiqotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.//www.swissre.com-«Swiss Re» qayta sug'urtalash kompaniyasining rasmiy sayti.*

sug‘urtalanmagan zararning o‘rtacha ko‘rsatkichi esa, mos ravishda 61/86/73/63/72/72/66/72 foiz darajasida bo‘lganligi hisoblab chiqildi.

XXI asrning dastlabki 16 yilida tabbiy ofatlar keltirgan iqtisodiy zarar hajmi yuqori darajada qolgan bo‘lsada, sodir bo‘layotgan texnogen hodisalarning har yil hisobiga o‘rtacha soni 500 mlndan ortib ketganligi va ularning 4/5 qismiga inson omili sababchi ekanligini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.[265]

2009-2016 yillarda dunyoda ofatlardan ko‘rilgan jami zararlar tarkibida texnogen hodisalar yuz berishi oqibatida, mos ravishda $7/$8/$12/$10 $9/$9/$12/$8 mlrd miqdorida iqtisodiy zarar ko‘rilgan bo‘lsa, ular bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari hajmi $4/$5/$7/$9 $8/$7/$9/$7 mlrd.ni tashkil etgan yoki keltirilgan yillardagi o‘zaro o‘rtacha ko‘rsatkichi darajasi 1,3 nisbatida bo‘lganligi aniqlandi (3-diagramma).



3-diagramma. Dunyoda texnogen ofatlardan ko‘rilgan iqtisodiy zarar summasi va ular bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari hajmi (2009-2016 y.y., $ mlrd.).[266]

[265] 2017 Risk Management Solutions, Inc.// http://www.rms.com/ Risk Management Solutions фирмасининг расмий сайти.

[266] *«Swiss Re» qayta sug‘urtalash kompaniyasining katastrofik risklar bo‘yicha 2009-2016-yillar davomidagi masalan, SIGMA Economic Research and Consulting: Swiss Re, sigma №1/2014 va boshqa iqtisodiy tadqiqotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.*

31.1-jadval.

Risklardan himoyalanishning moliyaviy vositalari, ularning samaradorligi va kamchiliklari[267]



[267] Ущерб от природных катастроф в мире за последнее 10 лет вырос до $182 млрд. Swiss Re представила статистику за 1975-2014 года.//http://forinsurer.com/news/16/03/01/33586- Фориншурер журнали сайти.

Shu o‘rinda, 2009-2016 yillarda kuzatilgan tabiiy va texnogen ofatlar dunyoning barcha yetakchi sug‘urta kompaniyalarining risklar transferi va transformatsiyasi dasturlari doirasida belgilangan narx siyosatiga, amaldagi shartnomalar natijalariga bog‘liq bo‘lmagan holda bevosita ta’sir ko‘rsatganligini ham keltirib o‘tish lozim.

Global risklar oqibatlarida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishning zararligi hamda ahamiyatiga qaramasdan, dunyoda risklarni kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etishda moliyaviy vositalar, xususan, aynan sug‘urtaga daxldor bo‘lgan sug‘urta kafolatlari, parametrik sug‘urta kabi metodlardan, shuningdek, sug‘urtaga daxldor bo‘lmagan tasodifiy moliyalashtirish, zaxira fondlari, davlat byudjeti mablag‘lari, soliq omillari, qarz majburiyatlari hamda xayr-ehson- muruvvatlar, tashqi iqtisodiy yordam kabi metodlardan ham keng foydalanilmoqda (1-jadval).

Risklardan himoyalanishning keltirib o‘tilgan moliyaviy vositalaridan foydalanishda, bir tomondan, ularning hat birida ma’lum samaradorlik namoyon bo‘lsa-da, boshqa tomondan esa, ularning har birida kamchilik yoki cheklangandik ham mujassamligi ko‘zga tashlanadi.

31.2. Transmilliy sug‘urta tashkilotlari va ular faoliyatining o‘ziga xos jihatlari

Dunyo mamlakatlarida global risklarni sug‘urtasi va qayta sugurtasini amalga oshirishda maxsus ixtisoslashgan subyektlar, masalan, yirik moliya-sanoat guruhlari yoki ko‘p tarmoqli konsernlar tarkibiga kiruvchi subyektlar hamda ta’sischilarning korporativ manfaatlariga xizmat qiluvchi transmilliy aksionerlik sug‘urta kompaniyalari xizmatlaridan foydalaniladi (1-rasm).

ДУНЁНИНГ ЙИРИК ҚАЙТА СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИ ГУРУҲЛАРИ

ГИБРИДЛАШГАН ҚАЙТА СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИ
Allied World Assurance Co. Holdings AG
Alterra Capital Holdings Ltd.
Amlin PLC
Arch Capital Group Ltd.
Aspen Insurance Holdings Ltd.
AXIS Capital Holdings Ltd.
Catlin Group Ltd.
Endurance Specialty Holdings Ltd.
Everest Re Group Ltd.
Hiscox Insurance Co. Ltd.
Maiden Holdings Ltd.
Platinum Underwriters Holdings Ltd.
Transatlantic Reinsurance Co.





31.1-rasm. **Dunyoning yirik qayta sug‘urta kompaniyalari guruhlari**[268]

Dunyoning yirik qayta sug‘urta kompaniyalari quyidagi 3 ta toifa bo‘yicha guruhlanadi:

- gibridlashgan qayta sug‘urta kompaniyalari;
- qayta sug‘urlashning xilma-xil turlarini amalga oshiruvchi qayta sug‘urlalovchi kompaniyalar;
- qisqa muddatli risklarni va mol-mulkni katostrofik risklardan qayta sug‘urtalovchi kompaniyalar.

2100 yilda, tabiiy ofatlar oqibatida ko‘riladigan iqtisodiy zarar hajmi iqlim o‘zgarishlarini hisobga olmagan holda $185 mlrd., iqlim o‘zgarishlarini hisobga olgan holda $280 mlrd. miqdorida bo‘lishi bashorat qilinmoqda.[269]

Dunyoda global risklar, ya’ni tabbiy ofatlar va texnogen hodisalardan ko‘rilayotgan iqtisodiy zarar hajmi va ko‘lami ortib borayotganligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

❖ aholi sonining muttasil ortib borayotganligi (keyingi 65 yilda qaryib 3 martaga ortgan (1950 y.-2,5 mlrd., 2015 y.- 7,35 mlrd), 2050 yilda 9,3 mlrd bo‘lishi bashorat qilingan);[270]

---

[268] «Swiss Re» qayta sug‘urtalash kompaniyasining katastrofik risklar bo‘yicha 2009-2016 yillar davomidagi masalan, SIGMA Economic Research and Consulting: Swiss Re, sigma №1/2014 va boshqa iqtisodiy tadqiqotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

[269] Стихийные бедствия и антропогенные катастрофы, или Экономический аспект эффективной профилактики.//inosmi.ru/world/20101223/165150269.html

[270] Schwarze R., Wagner G. Natural Hazards Insurance in Europe – Tailored Responses to Climate Change eeded/2009.

❖ aholining xavfli zonalarda joylashgan megopolislardagi konsenratsiyasi ortib borayotganligi (masalan, 2015 yilda Tokio (zilzila va bo‘xronlar zonasi)da -37,1 mln., Dehli(suv toshqinlari va qurg‘oqchilik zonasi)da -22,2 mln., Shanxay (suv toshqinlari zonasi)da -20,9 mln., Nyu-York (suv toshqinlari va bo‘xronlar zonasi)da - 20,5 mln., Mexiko (suv toshqinlari va ko‘chkilar zonasi)da -19,5 mln aholi istiqomat qilayotganligi);[271]

❖ xalqaro iqtisodiy o‘sish moddiy boyliklarning xavfli zonalarda joylashgan megopolislarda jamlanishiga omil bo‘lganligi (World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha YAIM keyingi 15 yilda 2 marta o‘sgan, xususan, 2015 yilda $77,96 trln doll tashkil etgan);[272]

❖ iqlim o‘zgarib borayotganligi (tabbiy ofatlarning takrorlanib turishi jadallashganligi, xususan, qurg‘oqchilik xavfi, muzliklarning erishi, bo‘hronlar soni ortganligi, dengiz sathining ko‘tarilayotganligi).[273]

Shu bilan bir qatorda, keyingi o‘tgan 10 yil davomida kuzatilgan ofatlarning o‘rtacha 70 foizi sug‘urtalanmaganligi,[274] xususan, global xarakter kasb etayotgan zilzila risklari sug‘urtasining ham qamrovi past darajada qolmoqda. Masalan, dunyoda iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘yicha 8-o‘rinni egallab turgan Italiyada uylarning 1 foizi zilzila riskidan sug‘urtalanganligi buning dalilidir.[275]

Yuqorida keltirib o‘tilgan omillar dunyoda global risklar ortib borishidan dalolat beradi. Bu jarayonda risklar transferi va transformatsiyasining tizimlashgan mexanizmi harakatchan bo‘lib, global bozorda uning rivoji odatda muayyan davriylikda an’anaviy tarzda kechadi. Shu o‘rinda, qayd etib o‘tish lozimki, hududiy bozorlarda risklar transferi va transformatsiyasining davriylik tebranishlari aksariyat hollarda global davriylikdagi o‘zgarishlarga o‘zaro mos kelmasa-da, bu holat to‘laligicha uning ta’sirida kechishini ta’kidlash mumkin.

Mazkur transfer va transformatsiya, ayni vaqtda, hududiy kengliklarda joylashgan infratuzilmalarda qo‘shimcha manbalarni ishlab topish imkoniyatini yuzaga keltiruvchi moliyaviy vosita sanaladi.

Sug‘urta (qayta sug‘urta) kompaniyalari tomonidan ko‘rilgan zararlarni o‘zida aks ettiruvchi sug‘urta portfeli statistikasi, shuningdek, aynan risklar

---

[271] Joint Research Centre, European Commission / S. Maccaferri, F. Cariboni,F. Campolongo // Natural Catastrophes: Risk relevance and Insurance Coverage in the EU. 2012., United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division // World Population Prospects. The 2015 Revision. N.Y.: Unired Nations, 2016.

[272] Jahon banki sayti: URL://www.worldbank.org-; http://data.worldbank.org/indicator /NY.GDP.MKTP. CD? display=default.

[273] European Commision. «Green Paper on the insurance of natural and manmade disasters». Strasbourg. COM (2013)213/2.

[274] www.actuary.ru/actuarial/obzory /swiss-re-v-srednem-tolko-30- katastroficheskikh-ubytkov-byli-zastrakhovany-za-poslednie-10-let/

[275] Убытки страховой отрасли от природных и техногенных катастроф в 2016 году выросли до $49 млрд. Обзор Swiss Re//*forinsurer.com/news/16/12/21/34710*

transferi va transformatsiyasining global bozordagi holati anderrayterlarning narx siyosatiga bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi (2-jadval).

31.2-jadval.

Transmilliy sug'urta kompaniyalarining daromadlilik ko'rsatkichlari (2009-2016 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	YILLAR								O'rtacha ko'rsat-kich
	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	
Zararlilik koeffitsienti	86,8	92,6	105,6	88,1	86,4	86,4	95	97	92,2
Kapitalning daromadliligi	22,2	14,1	5,2	14,4	14,1	16,4	9	10	13,2

Umuman, tabiiy va texnogen ofatlardan himoyaning samarali funksional mexanizmini o'zida mujassam etgan sug'urta tizimi joriy etilishi orqali quyidagi, ya'ni:

- «kritik risk» yuzaga kelishi oqibatida ko'rilish ehtimoli bo'lgan maksimal zarar ko'lamini aniqlash maqsadida ofatli xarakterdagi hodisani modellashtirish;
- tabiiy va texnogen ofatlar oqibatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalash (qayta sug'urtalash)da optimal tarifni hisoblash va amalda qo'llash;
- ofatlardan ko'riladigan iqtisodiy zararlarni samarali qoplash imkoniyatini beruvchi sug'urta zaxirasini shakllantirish;
- sug'urta (qayta sug'urta) bo'yicha kafolatli himoyani ta'minlashga qaratilgan majburiyatlarni aniqlashtirish;
- tabiiy va texnogen hodisalar yuz berishi oqibatida ko'riladigan zararlar kafolatli qoplanishini ta'minlashga qaratilgan maqsadli vazifalar amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Yer shari hududiy kengliklarining qaysi bir joyida bo'lishidan qat'iyy nazar sug'urta (qayta sug'urta) sohasiga yetkazilgan zarar taqsimoti (qayta taqsimoti) va tegishli narx o'zgarishlari orqali risklar transferi va transformatsiyasi qator subyektlarni jalb etuvchi jabha bo'lib qolmoqda.

Masalan, XX asrning 90 yillarida, shuningdek, XXI asrning dastlabki 10 yilliklarida kuzatilgan iqtisodiy-moliyaviy inqirozlar davrida xalqaro sug'urta bozorida to'lovlar muddatini uzaytirish va risklar transferi va transformatsiyasiga ko'ra, minimal depozit mukofotlarisiz qoplama to'lash hisobiga Yevropa bozori qo'llab-quvvatlanganligi bunga dalil bo'la oladi.

31.3. Sug‘urta faoliyatida maqbul risk konsepsiyasi va unga o‘tish muammosi

Keyingi yillarda jahon amaliyotida havf ko‘rsatkichi sifatida risk tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirga kelib dunyoda mutloq havfsizlik konsepsiyasi inkor etilib, «maqbul» (ma’qul) risk konsepsiyasiga o‘tildi. Mazkur konsepsiya «ALARA/ALARP» tamoyiliga asoslanadi. [276] Mutloq havfsiz bo‘lgan texnologiyalarni yaratish, mutloq havfsizlikni ta’minlash imkoniyati mavjud emasligi, o‘z navbatida, risk aynan barcha uchun ma’qul darajada bo‘lishiga erishishni taqozo etadi.

Risk talqini shuni ko‘rsatmoqdaki, u keng ma’noda - havfning sondagi o‘lchovi sanalsa, tor ma’noda esa, tasodifiy hodisalar yuz berishi va ularning oqibatida ko‘rilishi ehtimol bo‘lgan zararlar majmui hisoblanadi.[277]

Umuman olganda, «risk» termini qo‘llanilishi orqali unga mos ravishdagi birliklarni o‘zida mujassam etgan ko‘rsatkichni o‘rnatish imkoniyati yuzaga keladi (3-jadval).

Aynan, shunday shkala yordamida nazariy jihatdan turli risklarni o‘lchash mumkin bo‘ladi.

31.3-jadval

Risk darajasining empirik shkalasi[278]

Risk kattaligi	minimal	past	o‘rta	yuqori	maksimal	kritik
	0,0 – 0,1	0,1 – 0,3	0,3 – 0,4	0,4 – 0,6	0,6 – 0,8	0,8 – 1,0

Xususan, texnogen hodisalar va tabiiy ofatlar yoki odamlarning kundalik hayotida, masalan, iqtisodiyotning ayrim tarmoq (hududiy majmua)larida takrorlanib turadigan havflarni hamda ular oqibatida ko‘rilish ehtimoli bo‘lgan zararni solishtirima qiyoslash orqali oldindan aniqlashda va ma’qul darajada bo‘lishiga erishishda mazkur o‘lchamlardan foydanilmoqda.

Risk tasodifiy hodisa yuz berishi ehtimoli va uning oqibatida yuzaga keladigan zarar hajmida ifodalanadi.[279] Shunga ko‘ra, risk hodisaning ro‘y berish

---

[276] Riskni boshqarish yuzasidan qaror qabul qilishda, idrok imkoniyati darajasida, turli omillarni hisobga olgan holda, erishilishi mumkin bo‘lgan eng quyi chegarani o‘zida mujassam etgan. –"*as low as reasonable applicable/practicable*" - "o‘zini oqlaydigan shunchalik past darajadagi /amaliy asoslangan" so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan "*ALARA/ALARP*"- tamoyilidan foydalaniladi. Mazkur yondashuv, resurslar cheklangan real sharoitda riskni amaliy nuqtai-nazardan maksimal kamaytirishga erishilishiga qaratilgan va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar belgilanishini nazarda tutadi. Mazkur konsepsiya alohida risk, shuningdek, jami risklarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.//Манба:Богоявленский С.Б. Управление риском в социально-экономических системах. - СПб: Изд-во СПБГУЭФ, 2010 - 147 с., qarang. mazkur o‘quv qo‘llanma asosida - www.znay.ru/risk/05-10.shtml sayti yaratilgan.

[277] Панфилова Э.А. Понятие риска: многообразие подходов и определений.//Журнал"Теория и практика общественного развития", Выпуск № 4 / 2010, с.

[278] Шкалы риска и характеристика их градаций.//http://studopedia.ru/6_41309_shkali-riska-i-harakteristika-ih-gradatsiy.html

[279] Воробьев Ю.Л. Нормирование рисков техногенных черезвычайных ситуаций.//www.dex.ru/riskjournal /2004/2004/2004_1_ 2/116-124.pdf

ehtimoli va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararning ko‘paytmasi sifatida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R = E \cdot D \quad (1);$$

Bu yerda,

R – risk (ingl. risk);

E – hodisa (ingl. event);

D – zarar (ingl. damage).

Bu holatda risk kutilmagan hodisadan ko‘rilgan zarar hajmi bilan o‘lchanadi. Agarda zarar qurbon bo‘lganlar odamlar va vayron bo‘lgan binolar soni va shu kabilarda ifodalansa, risk kattaligi tasodifiy hodisa yuz berishi va ehtimollikka ko‘ra, u bo‘yicha nazarda tutilgan zararning hajmi yoki foizi ko‘rsatkichlarida ifodalanadi.

Hozirgi vaqtga kelib, zarar ko‘rsatkichi va uni aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar turlicha ekanligi ko‘zga tashlanmoqda. Qaysi risk turi, aynan qaysi maqsadda baholanayotganligiga qarab, yondashuvlardagi farqlanish yuzaga keladi. Masalan, odamlar qurbon bo‘lishiga olib kelgan baxtsiz hodisa yuz berishi oqibatida ko‘rilgan zarar kattaligini baholashda «hayot qiymati» ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Xususan, qurbon bo‘lishga olib kelgan hodisa bo‘yicha alohida odamning hayoti qiymati AQSHda $ 600 ming, Germaniyada esa, €750 ming miqdorida baholanmoqda. Shu o‘rinda keltirib o‘tish lozimki, hozircha inson hayoti qiymatini baholashning universal metodi yaratilmagan bo‘lsada, sug‘urta faoliyatida esa, qator xususiy metodlar ishlab chiqilgan.

Masalan, AQSHda qo‘llanilayotgan shunday metodlardan birida inson hayoti qiymati, o‘rtacha statistik ko‘rsatkichga ko‘ra, bir xodimning butun umrguzaronlik davri bo‘yicha milliy fond tarkibida aks etgan jami summaning teng yarmi, ya’ni $750 ming darajasida baholangan.

Shu nuqtai nazarga ko‘ra, halqaro amaliyotda aynan ma’qbul risk konsepsiyasini ishlab chiqishga bo‘lgan harakat faollashganligi ko‘zga tashlanmoqda. Bu o‘rinda ma’qbul risk o‘zida nafaqat texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarni, balki havfsizlikni ta’minlash hamda unga erishish imkoniyati o‘rtasida ma’lum murosani mujassam etayotganligi kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtga kelib, ma’qbul va maqul bo‘lmagan risk kattaliklari xususidagi qarashlar shakllanganligini keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Riskning yakka tartibdagi ma’qbul darajasi, ya’ni inson hayoti pirovard natijada nima bilan qanday yakunlanishi odatda bolalik davridanoq anglanilsada, bu hodisaning qachon yuz berishi esa, har bir shaxs uchun uning irsi, jinsi, yoshi, olgan ta’lim-tarbiyasi, tanlagan kasbi va boshqa qator omillar ta’sirida kechishini inkor etib bo‘lmaydi.

Shunga ko‘ra, har bir odamning bu boradagi, ya’ni riskning ma’qbul darajasi yuzasidan o‘z qarashlari uning umri davomida o‘zgarib boradi. Riskning ma’qbul darajasi yuzasidan odamlarning qarashlari o‘zgarib borishiga ularning avtomobil yo‘lidan o‘tishlari misolida ko‘rish mumkin.

Bu jarayonda har bir odam avtomobillar harakati jadalligiga, oqimiga nisbatan yo‘lning turli joyida kutib turishi, yo‘lni kesib o‘tishi turli vaqtda hamda jadal yoki sust kechishi kuzatiladi. Aynan odamlar riskning ma’qbul darajasini tanlashlari

ularning jarohat olish va halokatga uchrash ehtimoli ham turlicha bo'lishi holatini yuzaga keltiradi.

Tasodifiy hodisalarning ma'lum vaqt (odatda bir yil) davomida takrorlanib yuz berish ehtimolligi matematik metodlardan foydalanilgan holda aniqlanadi. Ayrim hollarda tasodifiy favqulotdagi hodisaning yuz berishi ehtimoli, aynan uning takrorlanish chastotasiga, ya'ni ω – nisbiy chastotaga mos kelishi mumkin.

Bizning nazarimizga ko'ra, bunday mos kelish holati, statistik ma'lumotlar bazasi birmuncha mukammal shakllangan ma'qbul risklarning takrorlanishlari $10^{-6} \le \omega \le 10^{-3}$ oralig'idagi ahamiyati o'zgarishi oqibatida kechadigan, ayni vaqtda sug'urtaning obyekti sanaladigan tasodifiy hodisalarga daxldorligi xususida mulohaza bildirilishi to'g'ri bo'ladi.

Qator iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning nazariy talqinlarda ma'qul bo'lmagan risk namoyon bo'lishi uning chastotasi 10^{-3} dan ortishi oqibatida yuzaga kelishi ta'kidlangan.

31.4. Globallashuv jarayonida milliy sug'urta bozorini rivojlantirish istiqboli

Globalizatsiya jarayonida bozor mexanizmlari milliy sug'urta (qayta sug'urta) kompaniyalarining faoliyat yuritishlari uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Bu o'rinda qayta sug'urtalovchilarni milliy bozor bilan uzviy birgalikda rivojlanishi ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha milliy sug'urtachilarning to'lov qobiliyatlariga bevosita bog'liqligi namoyon bo'ladi. Har qanday milliy sug'urtachi (qayta sug'urtachi)larning kelajagi ularning o'zaro qo'shilishlari, birlashib ketishlari yoki o'z jadal rivojini ta'minlashlari orqali xalqaro darajaga chiqishlari bilan belgilanadi.

Xalqaro sug'urta (qayta sug'urta) tizimining amal qilishi rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarining globalizatsiyaga qo'shilishlari jarayonini jadallashtirishtiradi. Inson resursi, tovarlar va xizmatlar oqimining ortishi, ishlab chiqarishning standartlashuvi va konsentratsiyalashuvi mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning bozordan siqib chiqarilishiga olib keladi. Bu holat sug'urta bozoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosan katta milliy sug'urta kompaniyalari yoki xalqaro sug'urta monopoliyalariga tegishli sho'ba sug'urtachilari faoliyat maydonida qolishadi. Manfaatlarning bu yo'sindagi ta'sirini dastlab Vengriya, so'ngra Polsha, keyinchalik Boltiqbo'yi davlatlari o'z boshidan o'tkazgan bo'lsa, shunday holatni Ukraina, Belorussiya va Rossiya sug'urta kompaniyalari ham boshidan kechirishmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, xalqaro sug'urta kompaniyalari, yangi bozorlarda milliy o'ziga xoslik va ularning xususiyatlarini inobatga olmagan holda an'anaviy ravishda standartlashgan sug'urta (qayta sug'urta) xizmatlarini taklif etishadi. Ular sug'urta (qayta sug'urta) mahsulotlarini milliy iste'molchilar talabiga moslashtirish ishlari bilan deyarli shug'ullanishmaydi.

Chunki, bunday faoliyatni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq harajatlar va sug‘urta (qayta sug‘urta) mukofotlarining kutilgan hajmi nisbati ular uchun e’tiborli sanalmaydi. Bu holatning, xattoki muloqotlarda ham ijobiy yoki salbiy ekanligini aniq ilg‘ab olish amri mahol.

Ammo shunga qaramasdan ta’kidlash mumkinki, globallashuv jarayonida milliy sug‘urta bozori to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kompaniyalar bilan raqobatga kirishishida qator ijobiy jihatlar namoyon bo‘lmoqda.

Bunday sharoitda albatta, sug‘urtachi subyektlarning, bir tomondan, potensial investorlarni jalb etishga qaratilgan maqsadli faoliyatlari faollashganligi ko‘zga tashlansa, ikkinchi tomondan, ularning raqobat muhitida yashovchanlik harakatlari ham samarali yo‘nalishlarda tashkil etilayotganligi kuzatilmoqda.

Xususan, mazkur jarayonning quyidagi ijobiy jihatlari, ya’ni:

✓ milliy sug‘urta bozori subyektlarining kasbiy ulg‘ayishlari va xizmatlarning identifikatsiyalashuvi hamda ichki bozorda raqobatning kuchayishi;

✓ sug‘urta xizmatlari bo‘yicha harajatlarning pasayishi va tarif stavkalarining optimallashuvi;

✓ sug‘urta klasslari kesimida xizmat turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning mos ravishda ortishi va ularning portfellashuvi;

✓ sug‘urta sohasiga joylashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi;

✓ sug‘urta faoliyatining davlat va hududiy miqyosda o‘rni va ahamiyatining oshishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Mazkur globallashuv jarayonining quyidagi salbiy oqibatlari, ya’ni:

✓ davlatning uzoq muddatli investitsiya resurslarining milliy iqtisodiyot, xususan, hayot sug‘urtasi tarmog‘idan chiqarilishi;

✓ milliy sug‘urta tizimining yo‘qolib ketish ehtimoli yuzaga kelishi;

✓ xorijiy kompaniyalar milliy yoxud o‘zlariga “begona bo‘lgan” hududlarda ijtimoiy masalalar yechimi bilan shug‘ullanmasliklari oqibatida mijozlar uchun sug‘urta xizmatlari narxining ortishi;

✓ moliyaviy jihatdan kuchli sug‘urtachilar strategik maqsadlaridan kelib chiqib, sug‘urta bozorining jozibali segmentlarini egallab olishga qaratilgan demping siyosatini yuritishlari;

✓ sug‘urta faoliyatiga xorijiy mutaxassislarning keng jalb etilishi oqibatida risk-menejment asosan chet ellik sug‘urtachilarga berib qo‘yilishi, pirovardda esa, milliy ta’lim tizimi orqali mos ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlarning ish bilan bandliklari pasayishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Rivojlanayotgan milliy sug‘urta bozori, albatta xalqaro monopoliyalashgan kapital bilan raqobatlasha olmaydi. Bu jarayonda davlat sug‘urta bozoriga xorijiy investitsiyalarni joylashtirishning me’yoriy chegarasini belgilashi va bu orqali milliy sug‘urta bozori subyektlarining faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratishi yoki milliy moliyaviy manfaatlardan voz kechish siyosatini qat’iyy belgilab olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

32-MAVZU.
SUG‘URTA AXBOROT KOMMUNIKATSION VA INTERNET TEXNOLOGIYALARI

32.1. Sug‘urta faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni

Jadal rivojlanishlar o‘z ta’sirini telekommunikatsiya mikroelektronlar kompyuter texnologiyalariga ham ko‘rsatgan.

Axborot texnologiya haqidagi dastlabki tushunchalar ancha oldin paydo bo‘lgan, keyinroq 1971 yilda mikroprossesorlar yaratilgan. Xozirda taxminan 45% ishchi kuchi axborot texnologiyalar yordamida faoliyat yuritadi. Mikroelektronlarning afzalligi shundaki, unda kiritilgan ma’lumotlar aniq vaqti, jarayonlari bilan birgalikda saqlanadi.

Telekommunikatsiya uzoq masofani yaqinlashtirishda, tezlikni oshirishda yordam beradi va foydali ma’lumotlar bilan ta’minlab beradi. Axborot texnologiyalari yordamida ko‘pgina xisobotlar ishonchli tayyorlanadi va tahliliy jarayonlar amalga oshiriladi.

Quyida axborot texnologiyalarining oson tushunish uchun 3 ta tarmog‘i berilgan:

- Raqamli mikroelektronlar
- Aralash telekommunikatsiya
- Grafik tasvirli kompyuterlar

Yuqoridagilarning barchasi ma’lumotlarni oson tushunishni va vaqtni tejash uchun xizmat qiladi.

Sug‘urta faoliyatida sug‘urta kompaniyasining kompyuterlarga asoslangan zamonaviy tizimi – bu kompaniyaning barcha asosiy bo‘linmalari, xizmatlari, hududiy bo‘linmalarini qamrab oluvchi axborotlarni kiritish, ishlov berish va saqlash tizimidir hamda tezkorlik, funksional to‘liqlik, tushunarlilik, kirishimlilik va ishonchlilik talablariga javob beradi.

Tezkorlik – vaqt o‘tib borishi bilan axborotlarning qiymatlilik darajasini tushib borishi sababli birlamchi hujjatlarni kiritish va ishlov berishga imkon qadar qisqa vaqt sarflanishi kerak.

Axborot tizimiga kiritilayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish funksiyalari kiritilishi axborotlarning aniqlik darajasi yuqori bo‘lishiga olib kelmoqda. Axborotlarning eng katta hajmini hisobga olish, birlamchi hujjatdagi mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning me’yoriy aktlar va ko‘rsatmalar, ichki andoza va kelishuvlarga mos kelishi funksional to‘liqlikni ta’minlab beradi.

Kompaniya bo‘limlarida foydalaniladigan birlamchi ma’lumotlardan kiritilayotgan ma’lumotlar ziddiyatsiz va kelishilgan bo‘lishi kerak, kelishilmaganlik holatida nazorat mexanizmlari va ma’lumotlarni tahrirlash jarayonlari ko‘zda tutiladi.

Ro‘yxatga olish axborotlarini tekshirish bo‘yicha, shuningdek, kompaniya bo‘limlari joriy faoliyati uchun talab qilinmaydigan hujjatlar bo‘yicha axborotlarni olishda zaruriy ishlar hajmini olib borish uchun ma’lu-motlarga kirishlik tamoyiliga rioya qilinishi kerak. Ma’lumotlarning eng kichik darajada yo‘qotilishi yoki kelgusida tizimni obyektiv hamda sub’ektiv omillar tufayli uzilib qolishi holatlarida bu ma’lumotlarni to‘liq tiklash imkoniyatini ta’minlash axborotlarni ishonchlilik darajasini oshiradi.

Kompyuter axborot tizimi kompaniyaning asosiy – shartnoma tuzish, shartnomalarga xizmat ko‘rsatish, to‘lovlar, tahlil, ekspert kabi ichki bo‘linmalarga mos holda quyi tizimlardan tashkil topishi kerak. Bu quyi tizimlar asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kompaniya rahbariyatiga aniq va tezkor axborotlarni yetkazib berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Sug‘urta kompaniyasi faoliyatida asosiy jarayon va funksiyalarni avtomatlashtirish nafaqat xodimning mehnat unumdorligini oshirishi, balki, malakali mutaxassislarning asosiy vazifalari bilan ko‘proq shug‘ullanishiga, biznesning keyingi rivojlanishi yo‘lida marketing vositalarini har tomonlama joriy qilib borish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi.

Sug‘urta qiluvchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasidagi munosabatlar sug‘urta shartnomasini tuzish yo‘li bilan rasmiylashtirilib, shartnomalar tuzishning asosiy sharti, tomonlarning risklarni sug‘urtalash bo‘yicha moli-yaviy shartlar haqidagi kelishuvga erishishi hisoblanadi.

Sug‘urtaning moliyaviy parametrlariga sug‘urta mukofotlari, sug‘urta tarifi, sug‘urta summasi, sug‘urta badali, franshiza va shu kabi tushunchalarni kiritish mumkin. Bu tushunchalar ayni paytda, sug‘urta faoliyati axborot tizimini uslubiy jihatdan ishlab chiqishda asos bo‘lmoqda.

32.2. Internet orqali sug‘urta mahsulotlarini sotishning qulayliklari

Internet sug‘urta mahsulotlarini sotishning yangi kanali hisoblanadi. Internetdan foydalanib, sug‘urta qiluvchilar an’anaviy sotuv kanali tashkil qilish borasida uzoq muddatli va qimmatbaho jarayonni aylanib o‘tgan holda bozorga kirib borishi mumkin.

Bu bozorga kirishning internet hisobiga yengillashuvi butun dunyo sug‘urta bozorlarida raqobatning kuchayishiga olib kelishi lozim. Kuchli raqobat sug‘urta qiluvchilarni narhlarni pasaytirishga majbur qiladi, bu esa iste’molchilarda ijobiy aks etadi.

Elektron tijorat sug‘urta qiluvchilarga xarajatlarni pasaytirish va sug‘urta bozori «shaffof» ligini oshirishga imkon beradi. Sug‘urta turlariga keladigan bo‘lsak, hayot va salomatlik, uy-joy, dala hovli, avtomobil, moddiy boyliklar (sun’iy

yo‘ldoshlardan tortib san’at asarlarigacha), deyarli barcha xizmat turlari (qurilish-montaj ishlaridan tortib sport bilan shug‘ullanishgacha) va har xil majburiyat turlari (fuqarolik majburiyatidan professional majburiyatgacha) sug‘urta qilinadi.[280]

Yevropada, AQSH va Rossiyada umumiy sug‘urta turlariga kiradigan avtosug‘urtaga Internetda talab eng katta. Umumiy sug‘urta bilan taqqoslaganda hayotni sug‘urta qildirish bilan ikki baravar kamroq respondentlar qiziqadi.

Shartnomani faqat bir necha marta uzaytirishning o‘zi evaziga foyda olish mumkin bo‘lgan ushbu biznesda sug‘urta qildiruvchilar moyilligi juda katta ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, agent orqali sug‘urta qildirgan mijozlar odatda polisni huddi shu agent orqali uzaytiradi, virtual mijozlar esa sug‘urta qiluvchilarni tez-tez o‘zgartirib turishga moyil bo‘ladi.

Mukammal virtual sug‘urta ofisi

- mijozga kompaniyaning umumiy va moliyaviy holati haqida to‘liq ahborot taqdim etish;
- mijozga kompaniya hizmatlari haqida axborot taqdim etish va u bilan tanishib chiqish uchun imkon berish;
- sug‘urta mukofoti hajmini hisoblab chiqish va sug‘urtaning har bir turi uchun va muayyan ko‘rsatkichlarga qarab to‘lov shartlarini belgilab berish;
- sug‘urta qilish uchun ariza shakllarini to‘ldirish;
- bevosita internet orqali sug‘urta polisini buyurtma qilish va to‘lovni amalga oshirish;
- vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan to‘lovlarni (sug‘urta mukofotini bo‘lib-bo‘lib to‘lashda) bevosita Internet orqali to‘lash;
- sug‘urta qiluvchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan polisni mijozga uzatish bevosita internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladi;
- shartnomaning amal qilish davri mobaynida sug‘urta qiluvchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida axborot almashinish imkoniyati (mijozning sug‘urta kompaniyasidan turli hisobotlar, jumladan, to‘lovlar va tushumlar, shartnomalar holati va ularning o‘zgarish tarixi haqida hisobotlar olishi);
- sug‘urta holati ro‘y berganda tomonlar o‘rtasida axborot ayirboshlash;
- sug‘urta holati ro‘y berganda internet tarmog‘i vositasida sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta mukofoti to‘lash;
- sug‘urta qiluvchining mijozga boshqa turdagi hizmatlar va axborot taqdim etishi: konsalting, sug‘urta atamalari lug‘ati va b.

[280] Jask Kinder,Jr.Garry Kinder"Secrets of Successful Insurance Sales"

Internet-sug'urtada muhim pozitsiyalar

- o'zining sug'urta xizmat ko'rsatish holatini onlayn ko'rib chiqish imkoniyati;
- onlayn-sug'urtada xarajatlar pastligi yoki eng yahshi stavkalar
- onlayn-hizmatlar taqdim etuvchi kompaniyalarni tanlash imkoniyati kengroq;
- havfsizlikning ortishi;
- o'zining moliyaviy vaziyatini onlayn o'zgartirish imkoniyati;
- sug'urtaning moslashuvchanroq turlari;
- onlay-sug'urta jarayonlarining yengillashuvi;
- mintaqadagi barcha sug'urta qiluvchilarning xizmatlarini taqqoslash imkoniyati;
- o'z qo'li bilan imzo qo'ymagan holda bitim tuzish imkoniyati.

Saytlarda mijoz hizmatlar tavsifini oladi, berilgan tavsifnomalar bo'yicha polis qiymatini hisob-kitobini amalga oshirish (sug'urta kalkulyator), onlayn rejimida buyurtma jo'natish, shuningdek, sug'urta hujjatlaridan nusxa olishi mumkin.

Saytda konferensiya mavjud, shuningdek, firma maslahatchisiga saytdagi konferensiyada yoki elektron pochta orqali savol berish, tez-tez va ko'p beriladigan savollarning javoblari bilan tanishib chiqish mumkin. Nostandart vaziyatlarda mukofotni hisob-kitob qilish uchun internet orqali so'rov jo'natish mumkin, sug'urta bozori sharxlari, normativ hujjatlar taklif etiladi.

Ayrim saytlarda polisni uzaytirish, sug'urta holati haqida ariza to'ldirish imkoniyati mavjud. Polisni internet orqali harid qilishda mijoz odatda chegirma – qoidaga ko'ra, polisning bazaviy qiymatining 5% miqdorida chegirma oladi. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, onlayn sug'urta sug'urta kompaniyalarining harajatlarini pasaytirishga imkon beradi. Shuning o'ziyoq sug'urta badallarini pasaytirishga imkon beradi. Tarmoq orqali tuzilgan shartnomalarning aksariyati bo'yicha to'lovlar an'anaviy tarzda amalga oshiriladi.

Mijozlar polisni oldindan yozdirib olgan holda internet orqali kompaniyaga shartnoma uchun pul to'lashga keladi yoki sug'urta agentini chaqiradi (polisni berishda naqd pul bilan to'lash). Polis ko'rsatilgan haqini to'lab olish sharti bilan pochta orqali jo'natilishi mumkin. Uzoqda yashaydigan mijozlar to'lov summasi ko'rsatilgan schyotni va kompaniyaning bank rekvizitlarini saytdan chiqarib olgan holda polis uchun to'lovni bankda to'lashi mumkin (bunda xizmatlar uchun qo'shimcha foiz ko'rinishida haq olinadi).

Sug'urtaning hamma turlarini ham virtual ravishda amalga oshirib bo'lmaydi. Shunday sug'urta hizmatlari mavjudki, ularni avtomatlashtirib bo'lmaydi, shu sababli ularning onlayn-savdosini tashkil qilishning ham imkoni yo'q. Masalan, sug'urta qiluvchi xarid qilingan sanoat obyektlari, nufuzli binolarni shartnoma imzolangunga qadar albatta ko'rib chiqishi va baholashi shart, aks holda unga qandaydir harobani

aldab suqishlari mumkin. Ko'plab risklar ham, xususan, elektron tijorat sohasidagi risklarning aksariyati standartlashtirilmaydi.

Elektron raqamli imzo to'g'risidagi qabul qilingan qonun elektron polislardan foydalanishga imkon beradi. Hamma narsa saytda rasmiylashtiriladi va raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Kuryerni yugurtirish zarurati qolmaydi va bu harajatlarni yanada pasaytiradi. Lekin buning uchun sertifikatsiya markazlari rivojlangan tizimi zarur va bu vositaning internetdan foydalanuvchilar orasida keng tarqalishi talab etiladi.

32.3. Sug'urta mahsulotini onlayn orqali sotishni tashkil etish

Onlayn rejimida savdo nafaqat sug'urta qiluvchilar uchun, balki sug'urta sohasidagi firibgarlar uchun ham yangi faoliyat maydoniga aylandi. Firibgarlikka qarshi kurash uchun asl da'volarni qalbaki da'volardan farqlashga imkon beradigan yangi tehnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

Davlat hukumat organlari sug'urta firibgarligiga qarshi kurash uchun tobora murakkab dasturlar ishlab chiqmoqdalar va bu jinoyatni sodir etganlik uchun jazoni tobora kuchaytirmoqdalar. Lekin bu jazo ko'pincha ko'riladigan foyda ko'lami bilan taqqoslanadigan darajada bo'lib chiqmaydi va qo'lga tushish ehtimoli firibgarlarni aslo to'htatmaydi.

Onlayn rejimda sug'urta firibgarligining ikki hil turi mavjud – mijozlar tomonidan asossiz da'volar va sug'urta qildiruvchi fantomlar, aslida mavjud bo'lmagan kompaniyalar. Tovarni arzonroq harid qilishga intilish tufayli iste'molchi osonlik bilan firibgar-firmaning qurboniga aylanishi mumkin. Halol bo'lmagan mijozlar bilan kurashish uchun yirik sug'urta kompaniyalari firibgarlik holatlari ehtimolini aniqlash va ma'lumotlarni tahlil qilishga qodir bo'lgan dasturiy ta'minot ishlab chiqadi.

Ko'pincha salomatlikni sug'urta qilish bo'yicha polislarda aldov uchraydi, chunki bunday da'volar ko'pincha sug'urta qiluvchiga internet orqali bildiriladi. Ko'pincha sug'urta qiluvchilar o'zini doktor deb ataydigan va qalbaki yozuvlardan foydalanadigan odamlardan ko'p sonli da'volar oladi.

Elektron tijorat katta hajmdagi axborotlarnnig tez tarqalishiga imkon beradi, shu sababli sug'urta qiluvchilar an'anaviy sotuv yo'llaridan voz kechishi va zarur hollarda internet-savdo bo'yicha mutahassislarni yollashi mumkin.

Doimiy konsaltingga ehtiyoj bo'lmagan standart sug'urta bozorida ishlaydigan brokerlar internetda ahborot qiymatining tushib ketishi bilan izohlanadigan jiddiy raqobatga duch keladi. Boshqa tomondan, professionallar maslahatisiz nostandart sug'urta mahsulotlari bilan savdoda narh va sug'urta qoplamini taqqoslash ancha qiyin bo'ladi va bu holatda brokerlar elektron tijoratdan moliya va risklarni

boshqarish sohasida konsalting hizmatlari sotish uchun foydalanishi mumkin bo'ladi. Bu ayniqsa, hayotni sug'urta qilishda murakkab pensiya mahsulotlari, tijorat sug'urtasi va integratsiyalangan risklarni boshqarishga dahldordir.[281]

Elektron biznesning rivojlanish jarayonida yangi risklar paydo bo'ladi va bu sug'urta ehtiyojlarining o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda mehnat taqsimotining o'sib borishi javobgarlikni sug'urta qilish, dengiz tashuvlari va kreditlarni sug'urta qilishga talabning o'sishiga olib keladi. Ehtimol, mijozning ehtiyojlari uchun maxsus ishlab chiqilgan sug'urta mahsulotlariga ham talab ortadi.

Polisni internet vositasida sotish deganda turli sug'urta kompaniyalari turli jarayonlarni ko'zda tutadi. To'plangan axborot vositasida sug'urta polislarini internet orqali sotishning bir necha xil turlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

Internet-ariza

– sug'urta kompaniyasining sayti orqali muloqot uchun ma'lumot taqdim etilishi

– uchrashuv joyi va/yoki sug'urta shartlarini aniqlash uchun mijozga oldindan qo'ng'iroq qilgan holda mutaxassis chiqishi va sug'urta hujjatlarini to'ldirishi

– polis uchun mutaxassisga naqd pul bilan to'lanishi

Internet-to'lov

– polisni to'ldirish va tarifni hisob-kitob qilish uchun zarur bo'lgan ahborotning sug'urta kompaniyasi sayti orqali taqdim etilishi;

– polisning internet orqali to'lanishi;

– tayyor polisning kuryer yordamida, ekspress-pochta orqali yetkazib berilishi yoki shartnomani ofisdan mustaqil oilb ketish imkoniyati;

– polislarning on-layn sotilishi;

– polisni to'ldirish va tarifni hisob-kitob qilish uchun zarur bo'lgan axborotning sug'urta kompaniyasi sayti orqali taqdim etilishi;

– polisning internet orqali to'lanishi;

– polisning internet orqali elektron imzo bilan taqdim etilishi yoki polisning mustaqil chop etilishi (agar bu qonunchilikda ko'zda tutilgan bo'lsa).

Internet orqali sotuvdan keyingi hizmat ko'rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida sug'urta qiluvchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborot almashinish (sug'urta shartnomasining huquqiy holati, shartnoma muddatini uzaytirish yoki navbatdagi to'lovni amalga oshirish zarurati haqida elektron eslatish, kompaniya yangiliklari va h.k.), sug'urta holati ro'y berganda tomonlar o'rtasida axborot almashinish, navbatdagi sug'urta badalini internet orqali to'lash, sug'urta holati ro'y berganda sug'urta to'lovini amalga oshirishdan iborat.

Internet orqali sug'urtani to'lash imkoniyati bilan sug'urta tarifini hisob-kitob qilish RF sug'urta kompaniyalarining internet magazinlarida kamdan-kam ko'zda

[281] Jask Kinder,Jr.Garry Kinder"Secrets of Successful Insurance Sales".

kutiladi. Agar to'lov imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, harakat CyberPlat (VISA, euroCard/MasterCard, Dinners Club va JCB) tizimi orqali yoki bank kassasi orqali (shakllantirilgan va bosib chiqarilgan onlayn-kvitansiya) amalga oshirilgan bo'ladi.

Rossiyada «Onlayn» polislar sotish elektron raqamli imzo haqida qonunchilik yo'q ekanligi sababli keng tarqalmagan. Masalan, «Spasskie vorota» kompaniyasi internet magazinining ish qoidalarida ko'rsatilganki, polis uchun to'lovni bankda amalga oshirgan va to'lovni saytda tasdiqlagan holda foydalanuvchi sug'urta guvohnomasini mustaqil bosib chiqarishi mumkin.

32.1-jadval

Internet-sug'urta bozoriga kirish yo'lidagi to'siqlar[282]

Ichki:	Tashqi:
Kompaniyaning qisqa muddatli strategiyasi, innovatsion rivojlanish tashabbusisiz	Aholida Internet orqali harid qilish tajribasi yo'qligi
Tizim harid qilish va sozlash uchun bahs xarajatlar kattalagi	Mintaqalarda internetdan foydalanish qiymati yuqoriligi
Bunday tizimlarning unchalik keng tarqalmaganligi personalni o'qitish xarajatlari katta bo'lishini talab qiladi;	Elektron raqamli imzo haqida qonunchilik bazasining yo'qligi
Kompaniya ichida zaruriy infratuzilma yo'qligi	Mehnat bozorida kompaniyaning internet-sug'urta tizimini yaratishga qodir bo'lgan malakali kadrlar yo'qligi
Mintaqaviy bo'linmalar innovatsiyalarga qarshiligi;	
Sifatli dasturiy mahsulot loyihalashtirish va yaratishda qiyinchiliklar;	

RF Fuqarolik kodeksiga muvofiq (940-modda), polis bilan birgalikda guvohnoma konsulxonalarda viza berishda hisobga olinishi lozim. U horijda sug'urta hizmatlari olish uchun yetarli, chunki hujjat sug'urta shartnomasi tuzilgan ekanini tasdiqlaydi va sug'urta kompaniyasi majburiyatlari bajarilishini kafolatlaydi.

Sug'urta badali to'lovi, faksimile imzosi va guvohnomadagi muhr, shuningdek, mijozning imzosi sug'urta shartnomasi shartlari tan olinganining belgisi hisoblanadi

[282] Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan.

(xohishga ko‘ra guvohnoma kompaniya ofisida sug‘urta shartnomasi to‘liq matniga almashtirilishi mumkin).

Masalan, chet elga chiqayotganlarni sug‘urta qilish bo‘yicha «Renessans Direct» internet-magazin kompaniya polislari umumiy sonining 40%ga yaqinini sotadi.

Ayrim kompaniyalar internet orqali polislar sotish hajmining katta ekanligiga qaramay, ushbu bozor segmentida raqobat yo‘q. Buning sababi mavjud kirish to‘siqlari hisoblanadi. Bugungi kunda internet orqali savdoni tashkil qilishda ushbu bozorga kirish uchun ichki va tashqi to‘siqlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ichki to‘siqlar kompaniya ichidagi to‘siqlar bilan asoslanadi, tashqi to‘siqlar firmaga bog‘liq emas (32.1-jadval).

Internet bozoriga kirish to‘siqlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yirik kompaniyalar ushbu bozorga qiyinchiliksiz kirishi mumkin, lekin internet-sug‘urta yaratish harajatlari juda uzoq vaqt davomida o‘zini qoplashi mumkin. Internet-sug‘urta sohasida tajriba to‘planishi istalgan kompaniya uchun sug‘urta bozoriga kirishni ancha yengillashtiradi.

Internetda ishlaydigan va elektron savdo ustunliklaridan foydalanadigan sug‘urta qiluvchilar yangi avlodi sug‘urta bozorida jiddiy raqobat yuzaga keltiradi. Internet-sug‘urta bozorlarning geografik doirasini kuchli qisqartiradi, qimmatbaho ofislar ochish zaruratini yo‘qqa chiqaradi, mehnat resurslari harajatlarini qisqartiradi, investorlarning sug‘urtaga qiziqishini oshiradi, sug‘urtani Rossiyaning (yoki dunyoning) barcha mintaqalarida har qanday kompaniya uchun ochiq qilib qo‘yadi. Internetning nafaqat yirik shaharlarda, balki barcha aholi punktlarida rivojlanishi, shuningdek, elektron tijorat sohasida qonunchilik ishlab chiqilishi sug‘urta bozori strukturasini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin.

33-MAVZU.
SUG‘URTANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

33.1. Milliy sug‘urta tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari

O‘zbekiston sug‘urta bozorini, rivojlangan davlatlar miqyosiga chiqarish uchun sug‘urta tizimini davlat tomonidan tartibga solish lozim. Ushbu masalani yechish uchun sug‘urta tizimining quyidagi jihatlariga e’tiborni qaratsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

✓ to‘lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori suratlar bilan shakllantiradigan sug‘urta operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobiga bog‘liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, sug‘urta ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o‘sishini qoplaydi;

✓ sug‘urta ishida o‘sib borayotgan raqobat sug‘urta kompaniyalarning qo‘shilib ketishiga yoki qayta sug‘urtalashni rivojlantirishga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. Bu hodisa respublika sug‘urta xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo‘lgan xorijiy kompaniyalarning paydo bo‘lishiga ham yordam beradi;

✓ bu ananaviy sug‘urta xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan sug‘urtadan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. YA’ni fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda turli xil tijorat tuzilmalari faoliyat ko‘rsata boshlaydilar;

✓ sug‘urta ishlariga bu xizmatlarning ko‘p sonli istemolchilari ta’siri ortadi. Iste’molchi operatsiyalarning tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qulayligi (ayniqsa, sug‘urta to‘lovlarni olish va qoplamalarini to‘lashni) mijozlarning extiyojlariga diqqat-e’tibor qaratilishiga nisbatan, sug‘urta kompaniyalariga nisbatan tobora qattiq talablar kuchaya boshlaydi.

Sug‘urta tizimi hozir hal qilinishi qiyin bo‘lgan dilemmaning keskinlashuv sharoitida turubdiki, unda sug‘urtalanuvchilardan qo‘yilmalar (sug‘urta pullari)ni jalb qilishda sug‘urtalovchilar ekspansiyasi va mijozlarni zararlardan kafolatlash o‘rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud.

Kafolatlashni sifati, tezkorligi va qulayligi moliya institutlariga qo‘shimcha qo‘yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. Qo‘yilmalar faoliyatining mijozlar tomonidan boshqarilmasligi esa, sug‘urta kompaniyalariga bu qo‘yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki omilning o‘zaro uyg‘unligi kreditlash hajmlarining o‘sishi uchun sharoit yaratadi. Biroq, bu boshqarilmaslik g‘oyasini kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o‘rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham sug‘urta tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarni uzoq muddatli investitsiyalarga mablag‘lar qo‘yishga rag‘batlantiradigan aniq samarali mexanizmlar hali mavjud emas, hisob-kitoblar tizimida hamda uzoq vaqtlardan beri saqlanib kelayotgan

to‘lamaslik muammolari mavjud. Bu muammolar quyidagi yo‘llar bilan hal etilishi mumkin:

- ✓ investitsiyalardan minimal soliq olish;
- ✓ xorijiy sug‘urta kompaniyalari bozorlarining ochilishi sharoitida kompaniyalar uchun imtiyozlar tizimini ishlab chiqish:
- ✓ ishonchli axborot kanallarini tayyorlash, amaldagi kompyuterli sug‘urta tizimini keng joriy qilish va bir xillashtirish, sug‘urta sektori mutaxassislarini attestatsiyadan o‘tkazish;
- ✓ sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy holati barqarorlashgunga qadar, rag‘batlantirishni soliq imtiyozlaridan foydalanish.

Eng kichik sug‘urta tashkilotlaridan to yirik davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyalariga, sug‘urta bozorining barcha subyektlari o‘zaro faoliyat ko‘rsatishi va o‘zaro bir birini to‘ldirib turishini ta’minlaydigan sug‘urta ishini ma’lum bir ko‘rinishda birlashtirish talab etiladi. Bizning yirik sug‘urta kompaniyalarimiz o‘z sug‘urta ishlari chegarasidan tashqariga chiqishi va iqtisodga axborot xizmati ko‘rsatishi, sug‘urta xizmatchilari mahorat darajasini oshishi konsalting xizmatlari ko‘rsatish evaziga kompleks ahamiyat kasb etishi kerak.

Biroq yuzaga keladigan qaltis holatlar ishonchsiz va yomon boshqariladigan sug‘urta kompaniyalariga nisbatan ma’lum bir darajada tozalovchi tadbir bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro andozalar talablariga javob bermaydigan sug‘urta kompaniyalari mavjudligini inobatga olib, ularni mustahkamlash bo‘yicha jiddiy ishlarni amalga oshirish kerak. Sug‘urta ishida xalqaro andozalarga erishish bo‘yicha ishni, mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, sof nuqtai-nazardan turib, amalga oshirish kerak.

Xalqaro andozalarga mos keluvchi kompaniyalar tuzish dasturi ikki asosiy qismdan tashkil topishi mumkin:

Xalqaro andozalarga mos keluvchi kompaniyalar sifatida malaka berilgan sug‘urta kompaniyalari tomonidan rioya qilinishi kerak bo‘lgan talablar va imtiyozlar majmuidir.

Xalqaro darajadagi sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan talablar quyidagilar:

- ✓ sug‘urta hisob-kitoblarini ommabobligini ta’minlash;
- ✓ sug‘urtaning ishlamayotgan aktivlarini qisqartirish;
- ✓ sug‘urta zaxiralarini ishlaydigan aktivlarga aylantirish;
- ✓ sug‘urta turi, qo‘yilmalar summasi, mijozlar toifasiga qarab zaxiralar me’yorini differensiatsiyalash; qo‘yilma qoldiqlari o‘zgarishlarini aniqroq ilg‘ash imkonini beradigan zaxira hisob raqamlarini tez-tez tartibga solib turish;
- ✓ sug‘urtalash xavf-xatarlarini to‘g‘ri baholash layoqati;
- ✓ mablag‘larni korxonalar, banklar aksiyalariga joylashtirishda sug‘urta kompaniyalari uchun rag‘batlar tizimini ishlab chiqish;
- ✓ sug‘urta xizmati ko‘rsatishda “zichlik me’yori”ni jahon andozalari darajasida ta’minlash;
- ✓ sug‘urta sarmoyasini yo‘qotish xavf-xatarsiz mijozlar mablag‘lari hisobidan portfelli investitsiyalarni keng tarqatish;
- ✓ sug‘urta kompaniyalarining bozor axloqi taktikasida o‘rinlarning ko‘prog‘ini ishonchli moliya vositalaridan foydalanishga berilishi;

✓ xorijda sug‘urta kompaniyalari tarmog‘ini mavjudligi;

✓ sug‘urtada tashqi xavf xatardan himoya qilishning qo‘shimcha mexanizmlarini ishlab chiqilmog‘i lozim;

✓ asosiy diqqat-e’tibor xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga, sug‘urta mahsulotlarining turli tumanliligiga (sug‘urta bozoriga xizmat ko‘rsatuvchi xizmatlarni va halol reklamani rivojlantirishga qaratish kerak);

✓ sug‘urta kompaniyalari, o‘zlarining katta kichikligi, joylashgan o‘rni, xodimlarning malakasi, mijozlarning tarkibi, sug‘urta turiga va boshqalarga qarab operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashishlari kerak;

Ko‘pchilik muammolar boshqaruv sifatiga – sug‘urta menejmentiga, tashkilot tuzilmasiga, moliyaviy oqimga, hisob-kitobga, iqtisod tahliliga, biznes rejalashtirishga va shuningdek xodimlar malakasiga chambarchas bog‘liqdir.

Sug‘urta tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot o‘zida sug‘urta operatsiyalari, xizmatlari va ishlarini aks ettiradi. Sug‘urta mahsulotlarini sotishdagi strategik yo‘nalish, sug‘urta taraqqiyotini muhim muammosi bo‘lib hisoblandi.

Umumiy ma’nodagi ularning funksional obyekt yo‘nalishli, asosiy maqsadi bir guruh sug‘urta kompaniyalari mahsulotlarini sotish yo‘li bilan yoki mijozlar ma’lum guruhining alohida sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish yo‘li bilan daromad olishdan iborat sug‘urta komnapiyalarga ajratish mumkin.

Sug‘urta xavf-xatari sug‘urta taraqqiyotini belgilaydigan kuchli omillar qatoriga kiradi, xavf-xatarlarni oldini olish va uni boshqarish sug‘urta kompaniyalarining yuragi bo‘lib hisoblanadi. Sug‘urta uchun eng katta xavf-xatar bu salbiy og‘ishlar, ya’ni yo‘qotish tavakkalidir. Xavf-xatarlarning barcha turi sug‘urta mahsulotlarining mol qiymati xususiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Sug‘urta kompaniyalarining nazarida “xavf-xatarlarni oldini olish chora tadbirlari” uchun ma’lum miqdorda doimiy ravishda mablag‘lar sarflash chetda qolmasligi kerak.

Iqtisodiy tahlil va nazorat xo‘jalik obyekti sifatidagi kompaniya boshqaruvining muhim unsuri bo‘lib hisoblanadi.

Sug‘urta kompaniyalari tashkiliy shaklidan qat’y nazar tahlil tizimi quyidagilarii o‘z ichiga olishi kerak:

✓ tatbiq qilish muddatlarining afzalliklari bo‘yicha tartiblangan taxlilning asosiy yo‘nalishlari;

✓ tahlilni tashkil etish sxemasi va o‘tkazish tartibi:

a) boshqaruv bo‘yicha, bo‘limlarning tarkibiy bo‘linmalari bo‘yicha va mansabdor shaxslar bo‘yicha analitik vazifalarning taqsimlanishi;

b) ierarxik bo‘ysunuvchanlik, analitik xizmatlarning o‘zaro faoliyati;

v) ishlarning xodimlar bilan ta’minlanishi (shu jumladan, analitiklarni tayyorlash);

g) axborot bazasi va axborot oqimlarini shakllantirish tartibi va tarkibi;

✓ muddati (tezkor, joriy, oylik, choraklik, yillik) analitik ishlarni saqlanish mazmuni;

✓ metodik yondashishlar, turlari, muddatlari va yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil algoritmi;

✓ tadqiqotlar ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi tahlil natijalarini rasmiylashtirish va ularni amalda tatbiq etishni ishlab chiqish.

Bunda quyidagi holatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Tahlil sug'urta bozori faoliyatining barcha jabxalariga "xizmat ko'rsatishi" kerakligini, uni baholash va prognozlash uchun asos bo'lishini inobatga olib, sug'urtaning mazmuni va yo'nalishlari sug'urta bozori oldida turgan vazifalar va maqsadli yo'l yo'riqlardan kelib chiqishi lozim. Bunda tahlil alohida strategik taktik yo'l-yo'riqlarga aniq yo'naltirishni ta'minlamog'i lozim, zero uni o'tkazish usullari va tartiblari bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Sug'urta tizimining investitsiya faoliyati. Sug'urta birinchi navbatda moliyaviy inqiroz bilan bog'liqdir. Ammo shuni ta'kidlash joizki sug'urtachilar moliyaviy chiqimlarni nazorat qilishda ishtirok etadilar. Bunda tabiiy bir savol tug'iladi: moliyaviy chiqimlarni nazorat qilishdan sug'urtachilar uchun qanday zarar bor?

Avvalo, ularning maqsadi sug'urta qilishni shunchaki nazorat qilish emas, balki iqtisodiy xarajatlarni keng ko'lamda kamaytirishdir. Sug'urta kompaniyalari ixtiyorida juda ko'p mablag' bo'ladi. Bu sug'urta to'lovlarini to'lash va talab majburiyatlarini to'lash oralig'ida paydo bo'ladi.

Sug'urta kompaniyalari to'plangan mablag'larni ushlab o'tirmasdan uni ivestitsiyaga yo'naltiriadi. Sug'urta kompaniyalari investitsiyani yo'naltirishda keng diapazonni qo'llashadi. Bu bilan ular davlatga juda katta yordam ko'rsatadi. Sug'urta kompaniyalardan tushgan mablag'lar iqtisodning biron bir tarmog'iga yo'naltiriladi va o'sha tarmoqni o'sishiga yordam beradi.

Albatta, tabiiy bir savol tug'iladi, qayerdan va nima evaziga katta mablag'lar olinadi? Bunday mablag'lar bir necha ming va milionlab kishilarning sug'urta qilinishlaridan va yuqorida keltirib o'tilgan sug'urta turlarini amalga oshishidan paydo bo'ladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Sug'urta nazoratiga kuchli bozor, bozorga kuchli sug'urta nazorati kerak". [283] "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni[284] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 05.04.2002 y. 359-II-son qaroriga muvofiq amalga kiritilgan, unda sug'urtalashning huquqiy poydevori shakllangan.

Ushbu, qonunning 10 moddasida "Maxsus vakolatli davlat organi" bo'yicha alohida to'xtalgan. Unda, sug'urta tashkilotlarini faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini ta'minlashga qaratilgandir.

Sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi:

✓ ijro etilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar hajmining yo'l qo'yiladigan ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab

---

[283] Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi- mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir.
Prezident Islom Karimovning 2002-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'llari. O'zbekiston, – T.: 2000. – 54 b.

[284] O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2002-yil 5-aprel.

chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

✓ sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

✓ sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

✓ sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari mablag'larini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek bunday mablag'lar hisobini yuritish hamda ular bo'yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

✓ sug'urtalovchining, sug'urta brokerining rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan malaka talablarini belgilaydi;

✓ sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va e'lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek uni taqdim etish hamda e'lon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

✓ qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

✓ sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari, shu jumladan belgilangan iqtisodiy normativlar sug'urtalovchi tomonidan buzilganligi uchun sug'urtalovchining ustav fondi eng kam miqdorining 0,1 foizigacha miqdorda belgilangan tartibda jarima soladi;

✓ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to'liq yoki ayrim sug'urta turlariga (klasslariga) nisbatan to'xtatib qo'yadi, shuningdek ularning faoliyatini tugatish to'g'risida sudga murojaat qiladi;

✓ har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyati to'g'risida yillik hisobotlarni, shuningdek sug'urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to'g'risida statistika ma'lumotlarini e'lon qiladi;

✓ sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini sug'urtalovchilar tomonidan moliyalashtirish tartibi hamda shartlarini belgilaydi;

✓ aktuar xizmatlari ko'rsatish tartibini belgilaydi;

✓ aktuariy malaka sertifikatini olish uchun o'quv dasturlarini hamda malaka imtihonlari topshirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, mazkur sertifikatni olish huquqi uchun malaka imtihoni o'tkazadi;

✓ belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikati beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, malaka sertifikatiga ega bo'lgan aktuariylar reestrini yuritadi;

✓ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 iyundagi 286 sonli "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora tadbirlari

to‘g‘risida”gi[285] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[286] qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlat sug‘urta nazorati funksiyasi yuklatilib, uning huzurida “Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi” tashkil qilindi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining sug‘urta faoliyati masalalari bo‘yicha vakolatlari doirasida chiqarilgan normativ hujjatlari davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar, birlashmalar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Respublikamizda sug‘urta ishining rivojlanishi, sug‘urta bozorini isloh qilishning boshlang‘ich bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Bu borada respublika sug‘urta bozorini rivojlantirishda davlat miqyosida chora-tadbirlarni qabul qilish uchun obyektiv talablar yuzaga keldi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish maqsadlari, vazifalari va yo‘nalishlari quyidagilardan iborat. Maqsadlari:

- ✓ fuqarolarning va davlatning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talablarini maksimal darajada qondirish;
- ✓ O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanishini va takomillashishini jaddalashtirishga zamin yaratish.
- ✓ Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinishi shart.
- ✓ O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni yanada shakllantirish va takomillashtirish (birinchi navbatda qayta sug‘urtaga va o‘zaro sug‘urtaga, meditsina sug‘urtasiga tegishli);
- ✓ O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinish normativ huquqiy bazasini yanada rivojlantirish (xususan sug‘urta kompaniyalarni investitsion faoliyati va O‘zbekiston Respublikasida chet el sug‘urta kompaniyalari faoliyat olib borishi to‘g‘risida);
- ✓ sug‘urta rivojlanishini soliq qonunchiligi yo‘li bilan rag‘batlantirish (chet elga uzatiladigan qayta sug‘urtada 10%lik soliqni kamaytirish);
- ✓ O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozori infratuzilmasini tezlashgan holda shakllantirish.
- ✓ Respublikamizda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish asosiy yo‘nalishi esa respublikada sug‘urta bozorini rivojlanishini yanada jaddalashtirishdir.

Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning yagona davlat siyosatini belgilashda asosan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- ✓ sug‘urta munosabatlarini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va sug‘urtaviy huquq tizimini shakllantirishni takomillashtirish;
- ✓ O‘zbekiston xududida sug‘urta tashkilotlarini nazorat qilish tamoyillarini tartibga solish va takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ✓ majburiy sug‘urta sohasida fuqarolar, tashkilotlar va davlat manfaatlarini sug‘urtaviy himoyalashning normativ huquqiy bazasini rivojlantirish.

---

[285] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 8-iyundagi Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 286-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 1998. 7-son, 24-modda.

[286] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami. – T.: 2002. 27-noyabrdagi 413-son.

Aholining keng qatlami va turli xil mulkchilik shakldagi tashkilotlarni sug'urtaga jalb qilishni rag'batlantiruvchi sharoitlarni yaratish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

✓ tibbiy sug'urta, uzoq muddatli yig'ilib boruvchi hayot sug'urtasi, pensiya sug'urtasini rivojlantirish uchun me'yoriy huquqiy bazasini shakllantirish;

✓ yuqorida aytib o'tilgan sug'urta turlarini soliq qonunchiligi bilan rag'batlantirish;

✓ mablag'larni joylashtirish uchun qo'shimcha kafolatlash o'tkaziladigan sug'urta muomalalarining rentabelligini oshirish maqsadida sug'urta tashkilotlarining mablag'larini investitsiya qilishning samarali shakllarini ishlab chiqish.

Sug'urta bozorining infratuzilmasini shakllantirish borasida esa quyidagi ishlarni amalga oshirish taqozo etiladi:

✓ milliy sug'urta bozorini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi kadrlarni tayyorlash, va qayta tayyorlash, o'kuv dasturlarining yagona tizimini yaratish;

✓ sug'urta muammolari jarayoniga ta'sir etuvchi va fuqarolar ham mulkchilikning barcha shaklidan qat'iyy nazar yuridik shaxslar manfaatlarini aks ettiruvchi davlat sug'urta siyosatini amalga oshirishga yordam beruvchi yoki yo'naltiruvchi institutlarni rivojlantirishga yordam berish.

Respublikamizda sug'urta faoliyatini davlat tomonidan boshqarishda qatnashadigan bir a'zosi Moliya vazirligi qoshidagi Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasini ko'rib chiqqan edik. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish jarayonida esa yana bir qancha tashkilotlar ham qatnashadi:

✓ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va bajarilishini nazorat qiladi;

✓ O'zbeksiton Respublikasi Markaziy banki sug'urta tashkilotlarini bank bilan bog'liq faoliyati xususiyatlarini nazorat qiladi;

✓ Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan boshqarish jarayoni o'z ichiga bir qator harakatlarni qamrab oladi:

✓ sug'urta tashkilotlarining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani tashkil qilish;

✓ sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini tanlash, modomiki, sug'urta kompaniyasi va sug'urta brokerini o'rnini har qanday tashkilot yoki shaxs egallay olmaydi (litsenziyalash orqali);

✓ sug'urta bozorining barcha ishtirokchilari (shu jumladan sug'urta tashkilotlari) tomonidan harakat qilish normalari va qoidalarini bajarilishini nazorat qilish;

✓ o'rnatilgan tartib va qoidalarni bajarilmasligi yoki bajarishdan bosh tortishda sanksiyalar tizimini qo'llash.

Sug'urta ishi subyektlari faoliyatining sug'urta nazorati shakllari va usullarini takomillashtirish sug'urta huquqining buzilishi yuzasidan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarning samarali amaliyotini rivojlantirish bo'yicha yalpi tadbirlarni o'z ichiga oladi va bu harakatlar quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

Davlat nazorati tizimini takomillashtirish shuni nazarda to'tishi lozimki, u ushbu jarayonga sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishning professional shartlarini

kiritgan holda davlat nazoratining kuchli markazlashgan tarzda tartibga solinadigan vositalariga ega bo'lgan davlat tomonidan tartibga solish modeli doirasida amalga oshiriladi. Bunda sug'urta bozori kasbiy birlashmalariga sug'urta tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish funksiyasi topshirilishi kerak.

Davlat nazorati instituti quyidagilarni ta'minlash imkonini beruvchi uslubiy tuzilmalar bilan kuchaytirilishi lozim:

✓ sug'urta faoliyati shartlariga nisbatan qo'yiladigan talablar darajasi (sug'urta shartnomalarini tuzishning standart shakllarini joriy etish, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi ular faoliyatini baholashning aniq tizimini belgilash asosida);

✓ sug'urta qildiruvchilarga sug'urta to'lovini kafolatlovchi sug'urta tashkilotlari ajratmalarining ixtisoslashgan jamg'armasini tuzish shartlari (sug'urtalovchi yoki sug'urta tashkilotlari professional birlashmalarining to'lovga qodirsizligi holatida);

✓ sug'urta tashkilotlarining kapitallashuvi va to'lov qobiliyati, qaltisliklari, ehtimol qilinadigan zarar miqdori va boshqa omillarni hisobga olgan holda qaltisliklarni sug'urtaga qabul qilish;

✓ sug'urta bozorini erkinlashtirish tendensiyalariga mos keladigan nazoratning istiqbolli usullari tizimini joriy qilish: professional fikrlash, qaltislikka yo'naltirilgan nazorat;

✓ sug'urta ishi subyektlaridan litsenziya qaytarib olinganidan keyin to bankrotlik jarayoni tugatilgunga qadar ular faoliyatini nazorat qilish imkonini beruvchi nazorat usullarini ishlab chiqish.

Sug'urta tashkilotlarining sug'urta faoliyatiga doir huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilishdagi javobgarligini oshirish maqsadida, Davlat sug'urta nazorat inspeksiyasi tomonidan sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning olib qo'yilishiga qadar ogohlantiruvchi chora-tadbirlar sifatida qo'llaniladigan sug'urta javobgarligining aniq tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug'urta faoliyatini qonunchilik yo'li bilan tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlaridan biri xalqaro standartlar, me'yorlar va qoidalar (Yevropa Ittifoqi direktivalari, Sug'urta nazorati organlari xalqaro uyushmasining sug'urta nazorati bo'yicha asosiy tamoyillari va standartlari, Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ning xalqaro xizmatlar savdosi sohasidagi qoidalar to'plami, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining tavsiyalari, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi forumining qarorlari, MDHga a'zo davlatlar, Yagona iqtisodiy mintaqani shakllantirish jarayonining ishtirokchilari hisoblangan davlatlarning integratsion o'zaro hamkorligi doirasida qabul qilinadigan kelishuvlar) bilan bosqichma-bosqich uyg'unlashtirishdan iborat bo'lishi kerak. Bu sug'urta tashkilotlari to'lov qobiliyatining talab etiladigan darajasini ham, uzoq muddatli chet el investitsiyalari bozorini tashkil qilish manfaatlari yo'lida qonunchilikning moslashtirilishini ham ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda sug'urta qildiruvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari fuqarolik to'g'risidagi qonun hujjatlarining normalari bilan himoyalangan bo'lib, bunda nizolar yuzaga kelgan hollarda ular Davlat nazorati va fuqarolik sudi organlariga hal etish uchun o'tkaziladi.

To'lovga qodir bo'lmagan sug'urta tashkilotlarining mijozlariga sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun sug'urta turlari bo'yicha kafolatlovchi

jamg‘armalar tizimini yaratish iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash va sug‘urtalovchilar malakasini oshirishning etarlicha rivojlangan tizimi mavjud emasligi, ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining sifatida o‘z aksini topadi. Gumanitar yo‘nalishdagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida sug‘urta tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish zarur. Bunda o‘quv muassasalarining malakali professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi kerak.

Ushbu maqsadda sug‘urta mavzusi bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiyalarni, sotsiologik tadqiqotlarni, dissertatsiya ishlarini tayyorlashni tashkil etish zarur. Kadrlar tayyorlash va sug‘urtalovchilar malakasini oshirish sifati sug‘urta nazariyasi amaliyotini ochib beruvchi o‘quv – uslubiy va ilmiy adabiyotlarning yaratilishi bilan chambarchas bog‘liq. Sug‘urta tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislari malakasini oshirish bo‘yicha sug‘urta faoliyatining turli masalalari yuzasidan muntazam seminarlar o‘tkazish, chet el sug‘urta kompaiyalarida stajirovkalar o‘tash amaliyotini saqlab qolish va yanada rivojlantirish zarur.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, taklif etilayotgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda o‘rta muddatli istiqbolda davlatning sug‘urta sohasidagi siyosatini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ular sug‘urta himoyasining samarali tizimi bo‘yicha qator dasturlarni ishlab chiqish, sug‘urtaning yangi turlari, sug‘urta texnologiyalarini joriy etishni faollashtirish, sug‘urta xizmatlarining sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish, sug‘urta nazoratining shakllari va usullarini takomillashtirishga imkon beradi.

33.2. Mamlakatimizda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari

Sug‘urta bozori holati va sug‘urta hizmatlariga bo‘lgan talab iqtisodiyotning ahvolini aks ettiradi. Ma’lumki, sug‘urta bozori keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga sug‘urta shartnomasining tuzilishidan, uning tugashigacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi. O‘zbekistonda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish maqsadlari, vazifalari va yunalshilari qo‘yidagilardan iborat.

Maqsadlari: fuqarolarning va davlatning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talablarini maksimal darajada qondirish; O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanishini va takomillashishini jaddalashtirishga zamin yaratish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinishi shart: O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni yanada shakllantirish va takomillashtirish (birinchi navbatda qayta sug‘urtaga va o‘zaro sug‘urtaga, meditsina sug‘urtasiga tegishli);

O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinish normativ huquqiy bazasini yanada rivojlantrish (xususan sug‘urta kompaniyalarni investitsion faoliyati va O‘zbekiston Respublikasida chet el sug‘urta kompaniyalari faoliyat olib borishi to‘g‘risida);

sug‘urta rivojlanishini soliq qonunchiligi yo‘li bilan rag‘batlantirish (chet elga uzatiladigan qayta sug‘urtada 10%-lik soliqni kamaytirish);

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozori infratuzilmasini tezlashgan holda shakllantirish.

Respublikamizda sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish asosiy yo‘nalish esa - respublikada sug‘urta bozorini rivojlanishini yanada jaddalashtirishdir.

Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning yagona davlat siyosatini belgilashda asosan quyidagilarni amalga oshirish lozim: sug‘urta munosabatlarini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va sug‘urtaviy hukuk tizimini shakllantirishni takomillashtirish;

O‘zbekiston hududida sug‘urta tashkilotlarini nazorat qilish tamoyillarini tartibga solish va takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

majburiy sug‘urta sohasida fuqarolar, tashkilotlar va davlat manfaatlarini sug‘urtaviy himoyalashning normativ hukukiy bazasini rivojlantirish.

Aholining keng qatlami va turli xil mulkchilik shakldagi tashkilotlarni sug‘urtaga jalb qilishni rag‘batlantiruvchi sharoitlarini yaratish maqsadida qo‘yidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

tibbiy sug‘urta, uzoq muddatli yig‘ilib boruvchi hayot sug‘urtasi, pensiya sug‘urtasini rivojlantirish uchun meyoriy huquqiy bazasini shakllantirish;

yuqorida aytib o‘tilgan sug‘urta turlarini soliq qonunchiligi bilan rag‘batlantirish;

mablag‘larni joylashtirish uchun qushimcha kafolatlash o‘tkaziladigan sug‘urta muomalalarining rentabelligini oshirish maqsadida sug‘urta tashkilotlarining akumilyasiyalanadi mablag‘larini investitsiya qilishning samarali shakllarini ishlab chiqish.

Sug‘urta bozorining infratuzilmasini shakllantirish borasida esa quyidagi ishlarni amalga oshirish taqozo etiladi:

• milliy sug‘urta bozorini rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, o‘quv dasturlarining yagona tizimini yaratish;

• sug‘urta muammolari jarayoniga tasir etuvchi va fuqarolar ham mulkchilikning barcha shaklidan qat’iy nazar yuridik shaxslar manfaatlarini aks ettiruvchi davlat sug‘urta siyosatini amalga oshirishga yordam beruvchi yoki yo‘naltiruvchi institutlarni rivojlantirishga yordam berish.

Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan boshqarish jarayoni o‘z ichiga bir qator harakatlarni qamrab oladi:

- sug‘urta tashkilotlarining faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani tashkil qilish;

- sug‘urta bozorining professional ishtirokchilarini tanlash, modomiki, sug‘urta kompaniyasi va sug‘urta brokerini o‘rnini har qanday tashkilot yoki shaxs egallay olmaydi (litsenziyalash orqali);

- sug‘urta bozorining barcha ishtirokchilari (shu jumladan sug‘urta tashkilotlari) tomonidan harakat qilish normalari va qoidalarini bajarilishini nazorat qilish;

- o‘rnatilgan tartib va qoidalarni bajarilmasligi yoki bajarishdan bosh tortishda sanksiyalar tizimini qo‘llash.

Bugungi kunda sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan boshqarish jarayonining huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lsada, sug‘urta nazorati xodimlariga professional bilim va malakaga talablari o‘rnatilmagan va xaligacha sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga solishni yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar tavsiya qilinadi:

1. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga solishda chet el tajribasidan kelib chiqqan holda, sug‘urta faoliyatini tartibga solishni uslubiy tizimini ishlab chiqish va tadbiq etish kerak.

2. Chet el tajribalari asosida O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish faoliyatini avtomatlashtirish va kompyuter dasturlarini joriy etish lozim.

3. Sug‘urta nazorati xodimlariga professional bilim va malakaga standart talablarini o‘rnatish hamda ularni faoliyatini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

4. Sug‘urta nazorati xodimlari sug‘urta bozorni tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatadigan ixtisoslashtirilgan kurslarni tashkil etish.

5. Sug‘urta nazorati xodimlari sug‘urta bozorni tartibga solish va nazorat qilish faoliyatini amalga oshirishida obyektivlikni ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Указ Президента от 07.02.2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. 488 б.
3. Мирзиёев Ш. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство – Узбекистан. Т.: Узбекистан, 2017. 56 с.
4. Мирзиёев Ш. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Т.: Узбекистан, 2017. 104 с.
5. Мирзиёев Ш. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа. Т.: Узбекистан, 2017. 48 с.
6. Шеннаев Х.М. Суғурта иши: Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-Молия, 2014. 248 б.
7. Шеннаев Х.М. Ўзбекистон суғурта бозори: Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-Молия, 2013. 264 б.
8. Seth Kravitz, Lev Barinskiy, Matt Wilson. Mastering Insurance Marketing. Create Space Independent Publishing Platform, UK, 2010.
9. Jack Kinder Jr. Garry Kinder. Secrets of Successful Insurance Sales. Napoleon Hill Foundation, UK, 2012.
10. David Bland. Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, UK, 1993.
11. Robert H., II Jerry, Douglas S. Richmond. Understanding Insurance Law. LexisNexis; 5 edition, UK, 2012.
12. Harriett E. Jones. Principles of Insurance Life, Health, and Annuities. Loma (Life Office Management Association), USA, 2005.
13. Glenn E. Stevick Jr. Essentials of Business Insurance. The American College, USA, 2006.
14. Rene Doff. Risk Management for Insurers, Third Edition. Risk Books, 2015.

Qo‘shimcha adabiyotlar

15. Конституция Республики Узбекистан. Т.: Узбекистон, 2014. 46 с.
16. Рыбкин И.В. Техника продаж страховых продуктов юридическим лицам. М.: Институт общегуманитарных исследований, 2006.

17. Никулина Н. Страховой маркетинг: Учебное пособие.М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.

18. Гаврилова С. Страхование: Учебное пособие. М.: Эксмо, 2010.

19. Shennaev X.M., Xalikulova G.T.Sugu'rta marketingi: O'quv qo'llanma. T., 2012.

Intrnet saytlari

20. www.gov.uz – Правительственный портал Республики Узбекистан.

21. www.lex.uz – Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

22. www.mf.uz – Официальный сайт Министерства финансов Республики Узбекистан.

23. ww.press-service.uz – Официальный сайт пресс-службы Президента Республики Узбекистан.

24. www.znay.ru – Электронная библиотека.

25. www.saipro.uz – Официальный сайт рейтингового агенства "Saipro".

26. www.raexpert.ru – Официальный сайт рейтингового агенства "Эксперт РА".

27. www.worldbank.org – Официальный сайт Мирового банка

MUNDARILA

1-MAVZU. RISK NAZARIYASI VA UNING SUG'URTADAGI ROLI

1.1. Risk haqida umumiy tushuncha 3
1.2. Sug'urtada risklarni boshqarish..... 9

2-MAVZU. SUG'URTADA RISK TRANSFERI

2.1. Risklar transferining mohiyati. 11
2.2. Sug'urta risklar transferi (transformatsiya)ning rivojlanish bosqichlari 13

3-MAVZU. SUG'URTANING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MOHIYATI

3.1. Sug'urtaning nazariy-iqtisodiy asoslari 22
3.2. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati 27

4-MAVZU. SUG'URTA ATAMALARI DEFINITSIYASI VA ULARNING GURUHLANISHI

4.1. Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq atamalar 30
4.2. Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq atama va tushunchalar 33
4.3. Xalqaro sug'urta amaliyotida ishlatiladigan atama va tushunchalar 35

5-MAVZU. SUG'URTANING EVOLYUSIYASI VA IQTISODIYOTDAGI ROLI

5.1. Sug'urta munosabatlarini paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga roli. 40
5.2. Sug'urtaning paydo bo'lish tarixi 43
5.3. Hayot sugurtasining paydo bo'lish va rivojlanish tarixi 46

6-MAVZU. O'ZBEKISTONDA SUG'URTANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

6.1. O'zbekistonda sug'urta xizmatlarini tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari. 48
6.2. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari rivojlanishining hozirgi holati 56
6.3. O'zbekiston respublikasida sug'urta xizmatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari 59

7-MAVZU. SUG'URTA MUNOSABATLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

7.1. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning umumiy tavsifi va asoslari.... 63
7.2. O'zbekiston respublikasida sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari 65
7.3. Sug'urta faoliyatini boshqarish tamoyillari 69

8-MAVZU. SUG'URTA INFRATUZILMASI VA UNING SUBYEKTLARI

8.1. Sug'urta bozori infratuzilmasining mazmuni vaelementlarining asosiy belgilari 75
8.3. O'zbekistonda sug'urta bozori infratuzilmasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari 86
8.4. Rivojlangan mamlakatlarning sug'urta bozori infratuzilmasi 91

9-MAVZU. SUG'URTANING HUQUQIY ASOSLARI

9.1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati 97
9.2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar 99
9.3. Sug'urta faoliyatini qonun osti hujjatlari bilan tartibga solish 102

10-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTLARINING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI VA TUZILMASI
10.1. Sug'urta sohasida davlat monopoliyasining tugatilishi 107
10.2. mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar shakllidagi sug'urta tashkilotlari 108
10.3. Aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlari 113

11-MAVZU. SUG'URTADA TARIF SIYOSATI
11.1. Raqobat sharoitida sug'urta xizmatlariga narx-navoni shakllanish xususiyatlari va sug'urta tarifi tushunchasi. 120
11.2. Sug'urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi. brutto va netto-stavkani hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tamoyillari 123
11.3. Sug'urtada tarif siyosatining yuritilishida aktuar hisob-kitoblar va aktuariylar faoliyati 125

12-MAVZU. SUG'URTA SOHALARI VA ULARNING INTERPRETATSIYASI
12.1. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari) 130
12.2. Sug'urtaning soha va tarmoqlari bo'yicha turkumlanishi 134

13-MAVZU. HAYOT SUG'URTASI VA ANNUITETLAR
13.1. Hayot sug'urtasining mohiyati, obyekti va predmet 140
13.2. Hayot sug'urtasining asosiy va qo'shimcha polislarining turlari 147

14-MAVZU. UMUMIY SUG'URTA VA UNING TUR(KLASS)LARI
14.1. Umumiy sug'urta tarmog'i haqida tushuncha 154
14.2. Umumiy sug'urtaning ayrim turlari tavsifi 157

15-MAVZU. MOL-MULK SUG'URTASI
15.1. Mol mulk sug'urtasi tushunchasining iqtisodiy moxiyati va mazmuni 165
15.2. Mulkiy sug'urta turlari 167
15.3. Mulkiy sug'urtada zararlarni aniqlash va tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish 171

16-MAVZU. JAVOBGARLIK SUG'URTASI
16.1. Javobgarlikni sug'urta qilishning umumiy tavsiflari va asoslari 174
16.2. Javobgarlikni sug'urta qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati 179
16.3. Xorijiy mamlakatlarda javobgarlikni sug'urta qilish va uni rivojlantirish yo'llari 186

17-MAVZU. MAJBURIY SUG'URTA
17.1. Majburiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyati 192
17.2. Majburiy sug'urtaning nazariy va huquqiy asoslari 195
17.3. O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarini takomillashtirish yo'nalishlari 200

18-MAVZU. SUG'URTADA RISK TRANSFORMATSIYASI
18.1. Qayta sug'urtalash tushunchasi va uning amaliy va nazariy asoslari 210
18.2. qayta sug'urta qilishning asosiy turlari va ularning qo'llanishining o'ziga xosliklari 216

19-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTINING IQTISODIY- MOLIYAVIY FAOLIYATI
19.1. Sug'urta faoliyatida iqtisodiy munosabatlar va ularning paydo bo'lishi 225
19.2. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari va moliyaviy natijasi 227
19.3. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili 234

20-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTI FAOLIYATINI BYUDJETLASHTIRISH
20.1. Sug'urta faoliyatini rejalashtirishning maqsad va vazifalari 237
20.3. O'zbekiston sug'urta kompaniyalarida sug'urta menedjmentning zamonaviy holati .243

21-MAVZU SUG'URTA TASHKILOTI DAROMADLARI VA XARAJATLARI
21.1. Sug'urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhlanishi 247
21.2. Sug'urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi 251
21.3. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi 253

22-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTI ZAXIRALARI
22.1. Sug'urta zaxirasi haqida tushuncha. 257
22.2. Sug'urta zaxiralarining turlari. 259
22.3. Hayot sug'urta tarmog'ida sug'urta zaxiralarini shakllanishi. 263

23-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATI
23.1. Sug'urtalovchining investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari 268
23.2. Sug'rtalovchining investitsion jarayonlarda ishtirok etish shart-sharoitlari 272
23.3. Pay fondiga va umumiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta zaxiralarini investitsiyalash 274

24-MAVZU. SUG'URTALASHDA BIZNES JARAYONLAR REINJINIRINGI
24.1. Sug'urta kompaniya biznes jarayonining reinjiniringi 277
24.2. Sug'urta kompaniya reinjiringini muvaffaqiyatli amalga oshirish algoritmi va shartlari 284
24.3. Reinjiniring sug'urta kompaniyasining qisqacha tavsifi 291

25-MAVZU. SUG'URTA MENEJMENTI VA PERSONALNI BOSHQARISH
25.1. Menejment tushunchasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni 296
25.2. Sug'urta menejmentining funksiya va vazifalari 299
25.3. Sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlash menejmenti 303

26-MAVZU. SUG'URTA BOZORINING TARKIBI, HOLATI VA MUAMMOLARI
26.1. Sug'urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari 309
26.2. Sug'urta bozorining turlari va ularga umumiy tavsifnoma 312

27-MAVZU. SUG'URTA MARKETINGI VA UNING INSTRUMENTLARI
27.1. Sug'urta marketingining iqtisodiy mohiyati 322
27.2. Sug'urta marketingiining maqsad va vazifalari 324
27.3. Sug'urta samaradorligini oshirishda sug'urta marketingini ahamiyati 331
27.4. Sug'urta marketingining instrumentlari 335

28-MAVZU. SUG'URTA MAHSULOTINI YARATISH VA SOTISH INJINERINGI
28.1. Sug'urta mahsuloti tushunchasining iqtisodiy mohiyati. 341
28.2. Sug'urta mahsuloti dinamikasi va uning amal qilish davriyligi 345
28.3. Sug'urta mahsulotlarini sotish usullari 348

29-MAVZU. SUG'URTA FIRIBGARLIGI VA UNI BARTARAF ETISH
29.1. Sug'urta firibgarligi haqida umumiy tushuncha 354
29.2. Umumiy sug'urta sohasida firibgarlik 358
29.3. Hayot sug'urtasi sohasidagi firibgarlik 359
29.4. Sug'urta firibgarligiga qarshi kurashda xorij tajribasi 362

30-MAVZU. RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA TIZIMI
30.1. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta faoliyatini tashkil etilishi 366
30.2. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi ..367
30.3. Rivojlangan mamlakatlar sug'urta tizimida korporativ boshqaruvning tashkil etilishi 370

31-MAVZU. GLOBAL RISKLAR SUG'URTASI. TRANSMILLIY SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI
31.1. Global risklar va ulardan himoyaning moliyaviy vositalari global risklar sug'urtasi 378
31.2. Transmilliy sug'urta tashkilotlari va ular faoliyatining o'ziga xos jihatlari 383
31.3. Sug'urta faoliyatida maqbul risk konsepsiyasi va unga o'tish muammosi 387
31.4. Globallashuv jarayonida milliy sug'urta bozorini rivojlantirish istiqboli 389

32-MAVZU. SUG'URTA AXBOROT KOMMUNIKATSION VA INTERNET TEXNOLOGIYALARI
32.1. Sug'urta faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarining tutgan o'rni 391
32.2. Internet orqali sug'urta mahsulotlarini sotishning qulayliklari 392
32.3. Sug'urta mahsulotini onlayn orqali sotishni tashkil etish 395

33-MAVZU. SUG'URTANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI
33.1. Milliy sug'urta tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari 399
33.2. Mamlakatimizda sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari 407
Foydalanilgan adabiyotlar 410

I.X.ABDURAXMONOV

SUG‘URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir **Z. Bozorova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo‘jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug‘bekova**

Nashr lits. AI[1] 305. Bosishga ruxsat etildi 30.11.2018.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i, 29,7.
Hisob-nashr tabog‘i 30,9. Adadi 50.
24-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60[a].

“MEHRIDARYO” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100128, Toshkent, Labzak ko‘chasi, 13.